

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR” kafedrası

KUSHBAKOV KAMOLIDDIN BAXROMOVICH

**“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik
jamiyati” fanidan**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA



TASHKENT – 2018

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR”

KAFEDRASI

**“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.
Fuqarolik jamiyati”
fanidan**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta‘lim sohasi:	230000 – Iqtisod.
Ta‘lim yo‘nalishlari:	5232100 -Korporativ moliya; 5230700 -Bank ishi; 5230600 –Moliya; 5230200 -Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha); 5230800 -Soliqlar va soliqqa tortish; 5230900 –Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha); 5231500 -Baholash ishi; 5232000 -Davlat byudjetining g‘azna ijrosi; 5231200 -Sug‘urta ishi; 5232700-Investitsion loyihalarni moliyalashtirish; 5232400-Iqtisodiy xavfsizlik; 5232800-Elektron tijorat.

TOSHKENT – 2018

Ushbu O‘quv Uslubiy Majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201_yil “_” ___dagi “_”-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar:

K. Kushbakov – TMI, “Ijtimoiy fanlar” kafedra o‘qituvchisi

Taqrizchi:

G. Tulenova – TATU “Ijtimoiy fanlar” kafedra professori, f.f.d.

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan o‘quv-uslubiy majmua kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (2018 yil “_” ___dagi “_”-sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri

SH.SHayakubov

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan o‘quv-uslubiy majmua “Moliya-iqtisod” fakulteti ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan hamda nashrga tavsiya etilgan (2017 yil “_” ___dagi “_”-sonli bayonnoma)

Fakultet dekani

D.Rustamov

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i

T.Boymurodov

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

I.Quziev

Fanning O‘quv Uslubiy Majmuasi institut o‘quv-uslubiy Kengashining 201_ “_” ___ “_”-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan O‘quv uslubiy majmua Toshkent moliya instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil “_” ___dagi “_”-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

KIRISH

O‘quv materiallari

1-mavzu: Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari.....	6
2-mavzu: Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi.....	14
3-mavzu: Jaxon tajribasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati..	24
4-mavzu: Fuqaro, fuqaroviylik va faol fuqarolik pozitsiyasi.....	31
5-mavzu: Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili.....	42
6-mavzu: Saylov xuquqi erkinligi - fuqarolik jamiyatining sharti.....	53
7-mavzu: Korrupsiyaga karshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.....	59
8-mavzu: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik, nazariy asoslari.....	71
9-mavzu: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi.....	77
10-mavzu: Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash.....	84
11-mavzu: Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshkarish organlari.....	93
12-mavzu: Jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligi. Ijtimoiy sheriklik.....	98
13-mavzu: Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari.....	103
Amaliy mashg‘ulotlar.....	126
Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	138
Glossariy.....	142
Ilovalar	
Fan dasturi;	
Ishchi fan dasturi;	
Tarqatma materiallar;	
Testlar;	
O‘UMning elektron varianti.	

KIRISH

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy maqsadi – jamiyatning siyosiy tizimi, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar va siyosiy hokimiyat hamda uning tarkibiy qismlari, siyosiy partiyalar, va boshqa ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar ularning o‘zaro munosabatlarini chuqur tahliliy o‘rganish. SHuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan demokratik fuqarolik jamiyat qurish nazariy asoslarining ishlab chiqilishi. Uni tahliliy o‘rganishni taqozo etuvchi shart-sharoitlar va omillar talabalariga chuqur o‘rgatiladi.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda yangi tarixiy davrning boshlanishi, 2017-2021 yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining mohiyatini chuqur urganish hamda Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoevning demokratik fuqarolik jamiyati qurish bilan bog‘liq nazariy asoslarning ishlab chiqilishini ilmiy ijodiy asosda urganish.

Har biri mavzu yakunida ta‘lim texnologiyalari keltirilgan bo‘lib, ularni qo‘llash bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. SHunirngdek, mazkur fandan ishlab chiqilgan o‘quv – uslubiy majmua (O‘UM) da bayon etilgan.

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda faol ishtirok etish.
- Birinchi Prezident I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan demokratik islohotlar bilan bog‘lik bilim va malakalarini oshirish.
- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoevning saylovoldi uchrashuvlarinida so‘zlagan nutqlari urganish
- 2017-2021yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining mohiyatini chuqur urganish.
- Talabada O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida, mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni haqidagi tushunchalarni berish.

Mazkur fanni urganish uchun bokalavr – iqtisodchi davlat ta‘lim standartlarida ko‘zda tutilgan barcha ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan bevosita aloqada bo‘ladi. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ma‘ruza mashg‘ulotlarida kerakli ma‘lumotlar ko‘rgazmali ravishda taqdim etiladi hamda boshqa yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalaniladi.

Talabalarning mustaqil o‘qishi, ma‘ruza tinglashi va boshqa pedtexnologiyalardan unumli foydalanishi, ularning olgan tegishli ma‘lumotlarini, bilim va malakalarini yaxlit tizimga keltiradi.

O‘quv uslubiy majmua 5230600- “Moliya”, 5230700- “Bank ishi”, 5230800- “Soliqlar va soliqqa tortish”, 5230900- “Buxgalteriya hisobi va audit” (real sektor bo‘yicha), 5231200- “Sug‘urta ishi”, 5230200- Menejment (xixmatlar soxasi), 5231300- “Pensiya ishi”, 5231500- “Baholash ishi” mutaxassisligi talabalariga muljallangan

**1-MAVZU: O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK
JAMIYATI FANINING PREDMETI, OB’EKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

Reja:

- 1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va ob’ekti.**

2. **Fuqarolik jamiyati fanining tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.**
3. **Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi.**
4. **Fuqarolik jamiyati haqida g‘oyalar evolyusiyasi**
5. **YAngi davrda fuqarolik jamiyati nazariyasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari**
6. **Fuqarolik jamiyati xaqidagi zamonaviy konsepsiyalar**

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va ob’ekti.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqildemokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat»¹ deb ta’kidlagan edi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalga oshirish uchun avvalo u haqdagi g‘oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma’lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy) yaratilganidagina shakllanishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiylikiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko‘p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysikijamiyatda uning har bir a’zosi, qandaydir mulkka ega bo‘lishi, o‘z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo‘lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste’mol faoliyati erkinligining ta’minlanganligi.

ijtimoiy-siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o‘z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma’lum tashkilotlarga birlashishi, Hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo‘lida jamlangan bo‘lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining namoyon bo‘lishi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko‘zda tutadi”².

huquqiy asosi – inson uchun ahamiyatli bo‘lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta’minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo‘li bilan tan olinishi. “Qonun hukmron bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi” (A.Temur). “Adolat - qonun ustuvorligida” tamoyilining amal qilinishi. ...“Fuqarolar bilan davlat o‘zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog‘liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo‘lib, hech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari bshqa fuqarolarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo‘lmasligi lozim”³.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон. 2000. 8-жилд. -Б-331.

² Каримов И. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Тошкент. “Ўзбекистон”, 1999.7-жилд 388-бет.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқилол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996, 1-жилд. 126-бет.

ma'naviy asos – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. “Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi”⁴.

O'zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining buprogressiv jihatlarini (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e'tiborga olishga imkon beradi. SHu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish asnosida mamlakatda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida islohotlarni yanada chuqurlashtirishga doir tajribalar va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilimlari yordamida nafaqat yangi jamiyatda yashaydigan, balki bu jamiyatni rivojlantirishda bevosita faol ishtirok eta oladigan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan bilimlar berish nazarda tutiladi.

Aslini olganda “fuqarolik jamiyati” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda alohida mazmun kasb etgan tushuncha bo'lib, u hozirgi davr talqinda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan chambarchas tarzda o'zaro bog'likdir.

Fuqarolik jamiyati fanining predmeti fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o'ziga xos qonuniyatlarini va tamoyillarini o'rganishdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyati fanining **ob'ekti** – bu rivojlangan mamlakatlarda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllanish va rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi va bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olib, unda fuqarolik jamiyatining huquqiy davlat bilan o'zar uyg'unlikda rivojlanish bosqichlari nazariy va amaliy nuqtai nazarlardan o'rganiladi.

Fuqarolik jamiyati fanining **predmeti** – bu uzoq va bosqichma-bosqich tarzdagi tarixiy rivojlanish natijasidan iborat bo'lib, fuqarolik jamiyati shakllangan va rivojlangan oraliq davr – bir necha avlodlarning yangi jamiyat qurishdagi ishtiroki, jamiyatshunos olimlarning bu jamiyatni rivojlantirishga doir nazariy ishlanmalari, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning “O'zbek modeli”ga xos nazariy qarashlar, mamlakatda fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayonidan iboratdir.

Fanni o'qitishdan maqsad - talaba yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir. Fanning vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-jahon tajribasi va milliy voqeliklarni o'rganish asnosida fuqarolik jamiyatiga doir konsepsiyalar mazmun-mohiyatini ochib berish;

⁴Каримов.И.А.Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996,3-жилд.34-бет.

-talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir tushunchalarni tahlil qilishda, unga doir nazariyalarni o'rganishda har tomonlama ko'maklashish, ularning jamiyatga doir qarashlarini boyitish;

-fuqarolik jamiyati qurish islohotlarida shaxsning rolini ochib berish asnosida talabalarda shaxsiy fuqarolik nuqtai nazarlarni shakllantirishga yordamlashish;

-talabalar ongiga fuqarolik jamiyati qurish jarayonida paydo bo'ladigan muammolar va ularning echimlariga doir bilimlarni singdirish;

- talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir nazariy ishlanmalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishlarida ularga har tomonlama ko'maklashish;

- taraqqiyotning "o'zbek modeli" va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslariga doir bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashish;

- talabalarga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o'zaro ta'sir etish mexanizmlariga doirtushunchalarga doir bilimlar berish;

- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy asoslarini ochib berish;

- fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi – nodavlat va shaxsiy mulkchilik, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga doir bilimlar berish;

- talabalar ongini fuqarolik jamiyatining ma'rifiy va ruhiy asosi – milliy ma'naviyatni tiklash va uni rivojlantirishga doir bilimlar bilan boyitish;

- "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

- "Adolat – qonun ustuvorligida" tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;

- saylov huquqi erkinligi - fuqarolik jamiyatining muhim mezonini ekanligini asoslash;

- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida jahon tajribasining o'rnini ochib berish;

- ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri to'g'risida bilimlar berish;

- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarini erkinlashtirish islohotlarini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;

- jamiyatda fuqarolar manfaatlarini muvozanatini ta'minlash masalasi haqida tushunchalar berish;

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o'rnini ochib berish;

- ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga doir bilimlar berish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yoritib berish;

- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlanish masalalarini yoritish;

- ijtimoiy sheriklik to'g'risida bilimlar berish va yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish mexanizmlariga doir bilimlar berish.

Fuqarolik jamiyati fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalarda quyidagi bilim, ko'nikma shakllantiriladi:

– Fuqarolik jamiyati to'g'risida nazariy bilimlar va ularning O'zbekiston va jaxon tajribasida namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari to'g'risida; talabalarda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy bilimlar va ko'nikmalar; jahonda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish tajribalari; fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida; o'tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda bilishning turli uslublaridan foydalanish; fuqarolik jamiyatida davlat boshqaruv organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari; davlat hokimiyati organlari tizimi va fuqarolik jamiyatida davlat boshqaruvi tuzilmasini bilish; fuqarolik jamiyati qurishning mazmunmohiyati haqida muayyan bilimlarga ega bo'lishi;

– fuqarolik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillarini; xorijiy mamlakatlarning fuqarolik jamiyat qurish bo'yicha ilg'or tajriba va usullarini; rivojlangan mamlakatlarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari hamda ularning "O'zbek modeli" tamoyillari bilan qiyosiy tahlilini; demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslarini; taraqqiyotning "O'zbek modeli" tamoyillari mohiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi;

– markazlashgan rejali iqtisodiyot va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining farqli tomonlarini aniqlash; mamlakatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishining inqilobiy va tadrijiy (evolyusion) yo'llarining yutuq va kamchiliklarini baholash; mulkni davlat

tasarrufidan chiqarish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning mohiyati va bosqichlari; mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ijtimoiy hayotni yangilash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

– mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini anglagan holda ulardan o'z kasbida foydalanish; "O'zbek modeli" erishayotgan natijalaridan o'z ishlarida foydalanish; mamlakatni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha o'z xulosalarini bera olish; mamlakatimizning jahon bo'yicha erishayotgan yutuqlarini tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

2. Fuqarolik jamiyati fanining tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan **qonuniyatlarni** 2 guruhga ajratish mumkin.

1-guruh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlari.

2-guruh. Har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlari xisobga oladigan qonuniyatlari.

Fanning asosiy tushunchalari: fuqaro, jamiyat, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, jamiyatning iqtisodiy asoslari, demokratik institutlar, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqaroviylik, fuqaro faolligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yuksak ma'naviyat, daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o'zini o'zi boshqarish, Millatlar va konfessiyalararo totuvlik, jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabilardir.

Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Ilmiylik – fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar, nazariyalar, zamonaviy konsepsiyalarni tahlil qilish asosida uning metodologik nazariy asoslarini ko'rsatish.

Tarixiylik - fuqarolik jamiyatining shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Mantiqiylik – fuqarolik jamiyati shakllanishining genezisidan to bugungi holatigacha bo'lgan jihatlari (asosiy belgilari, omillari, tamoyillari, funksiyalari) uzviylik asosida tahlil qilish.

Tizimlilik – fuqarolik jamiyatini bir butun tizim sifatida va har bir belgilarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tizimdagi o'rni va rolini ko'rsatish.

Qiyosiy tahlil metodi – fuqarolik jamiyati shakllanish va rivojlanish tajribalarini solishtirish, har bir davlatdagi o'ziga xos jihatlari ko'rsatish.

Fuqarolik jamiyati fani bakalavriat bosqichi o'quv rejasidagi O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Huquqshunoslik, Sotsiologiya, O'zbekiston tarixi, Falsafa, Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar, Iqtisodiyot nazariyasi, Ma'naviyat asoslari, Madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir. Bu fanlarda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining turli yo'nalishlaridagi holati, qonuniyatlari, tamoyillari o'rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanning o'ziga xosligi shundan iboratki, u jamiyatni rivojlanib boruvchi bir butun yaxlit tizim va tizimning tarkibiy qismlari sifatida o'rganadi.

Fuqarolik jamiyati fanining metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o'rganishning umumiy yo'nalishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan me'yorlarning dasturil amal sifatida foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Fuqarolik jamiyati fanining prognostik funksiyasi jamiyatning rivojlanish istiqbollari oldindan ko'rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo'lishida ko'rinadi. Jamiyatning har bir fuqarosi o'z kasbi-kori va ixtisosligidan qa'tiy nazar jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi bilimlari chuqur egallashi orqaligina yon atrofida ro'y berayotgan voqea hodisalarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilishi, ularni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, bunyodkor kuchga aylanishi mumkin.

Bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb etayotganligi fuqarolik jamiyatini fan sifatida o'rganishni taqozo etmoqda.

«Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib etib kelgan, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov. – Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz»⁵.

SHuni ta'kidlash lozimki, insoniyat taraqqiyotining Aristotel, Platon, Sitseron va boshqa mutafakkirlar yashagan tarixiy bosqichida fuqarolik jamiyati deganda davlatni tushungan. Bu hol ancha uzoq vaqt mavjud bo'lgan va iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish darajasi (mehnat taqsimotining primitiv shakllari, tovar-pul munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi, jamiyat hayotini davlat tasarruf etishi, ijtimoiy tuzilmaning tabaqaviyligi) bilan bog'liqdir.

Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari antik dunyoning ayrim mamlakatlarida mavjud bo'lib (YUnoniston, Rim), bu erda hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi xususiy huquqning ayrim institutlari (ayniqsa, Rim xususiy huquqi)da mustahkamlangan tovar-pul ishlab chiqarishini vujudga keltirdi. Biroq, holat faqat fuqarolik jamiyatining ayrim mintaqalarda vujudga kelgan va tabaqalashgan vertikal tuzilmalari va ularning bilan uyg'unlashgan unsurlaridan iborat edi, xolos.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyati va «davlat» tushunchalari uzoq vaqt uchalik farqlanmay keldi, ular aynan tushunchalar sifatida qabul qilindi. Biroq, XVII asr o'rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo'lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyiliniyuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo'ldi.

Davlatda hokimiyatning uchga bo'linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlar (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo'lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolyutizm ag'darilganidan so'ng shakllangan yangi hayotni, ya'ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettiradi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatda mansbdorlar fuqarolar bilan o'zaro muomalalarda qonunga qat'iy rioya qilishi g'oyalari ilgari surildi.

Tarixda davlatdan mustaqil ravishdagi jamiyat amalda doimo namoyn bo'lgan davrla ham bo'lgan, biroq u doimo ham fuqarolik jamiyati mazmunini kasb etavermagan. Fuqarolik jamiyati

⁵ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 7-жилд. 304-б.

davlatning ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, u ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqil jabhasiga aylanish natijasi o'laroq paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida hozirgi davr huquqi va davlati vujudga keldi.

Ko'rib turganimizdek, fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, XVIII-XIX asrlarga kelib o'rganila boshlandi.

Evropa va Amerika mamlakatlarining, katta mintaqalarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishda jamiyat va davlat tuzumida katta o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflarning to'qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlar yuz bergan.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asr. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi kiritish mumkin. SHuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e'tibor berila boshlandi.

Ikkinchi bosqichi XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o'rni erkin odamlarning huquqiy tengligi va o'zaro bitimlariga asoslangan gorizontal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e'tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga egabo'la boshladi.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.

Jamiyat a'zolari yuridik nuqtai nazardan fuqarolik huquq va erkinliklarga ega bo'ldi. Fuqarolik - insonning muayyan davlatga barqaror tarzdagi mansubligi, inson va davlatning o'zaro huquqiy aloqasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Bu ikki tomonlama aloqalar, bir tomondan, davlat o'z fuqarolariga muayn huquq va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning o'zini va mol-mulkini zo'ravonlik va o'zboshimchaliklardan himoya qiladi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qiyotgan o'z fuqarolariga homiylik qiladi. Boshqa tomondan, fuqarolar davlat qonunlariga rioya qilishlari, u belgilagan majburiyatlarni bajarishlari, o'z mehnati bilan davlatni mustahkamlashga ko'maklashishlari, uning obro'sini saqlashlari, zarur bo'lgan holatlarda uni

himoya qilishlari lozim. Bu huquq va burchlar majmui fuqarolarning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi.

Fuqarolik - bu nafaqat shaxsning huquqiy maqomi, balki uning ijtimoiy holati hamdir. Huquqiy davlatda qonun oldida tenglik va bu bilan bog'liq holda fuqarolik huquqlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar qo'shiladi. Jamiyatda haqiqiy erkinlikni ta'minlash har bir inson nafaqat yuridik va siyosiy ma'noda, balki iqtisodiy va ijtimoiy ma'noda ham fuqaroga aylanishini nazarda tutadi.

XX asrda fuqarolik jamiyati g'oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarning paydo bo'lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo'ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- fuqarolar totuvligiga erishish yo'llarini izlash;
- aholining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olish;
- qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish.

Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi. SHaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo'lib xizmat qiladi.

SHunday qilib, "huquqiy davlat" va "fuqarolik jamiyati" tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlarini o'raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro'yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi.

SHuni ta'kidlab o'tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo'lgan.

Buning uchun odamlarning yuridik tengligi ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olindi. Tabaqaviy tengsizlik o'rnini egallagan umumiy yuridik tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, erkin hamda ijtimoiy hayotning to'laqonli ishtirokchilari deb e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkorlik, har xil axborotlar olish erkinligi, erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuiga ega bo'ladi, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'liqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.)ning mavjudligi individlarning turli tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

Fuqarolik jamiyati – o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyat kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydilar.

Fuqarolik jamiyati o'zining davlatdan mustaqil o'zini o'zi rivojlantirish ichki manbalariga egadir.

Fuqarolik jamiyati – huquqiy demokratik davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu erda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish bog'lovchi omil sifatida amal qiladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. SHu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ajratish, haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan qo'shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo'lida jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, qo'llarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi.

3. Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi.

“Fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat” tushunchasi birgalikda XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq vaqt davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Har bir davlatda bo'lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvori davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish muammosi yuzaga kelmaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin:

- ijtimoiy adolat;
- davlat bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlari;
- qonuniylik tartibi;

- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;
- demokratik plyuralizm;
- jamiyatning ochiqligi;
- fuqarolik jamiyatining milliy jihatdan muayyanligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi.

Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'rsida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2)dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, apatridlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. SHu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarini vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib, davlatchilik tashkil etadi. Bunda hammani va majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi – ularning ko'pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo'lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari «yuqoridan» turib emas, balki «quyidan», fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuratistik tizim;
- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

- 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;
- 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;
- 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;
- 4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;

5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;

- 6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;
- 7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;

8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;

9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;

10) odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko'rsatadi. Jumladan:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;
- butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlangan huquqiy himoyasi;
- individlarni mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqilligi;
- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarni manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va partiyadan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;
- partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;
- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa sharoitlarni yaratish;
- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari OAV yaratish va faoliyat yurgizish erkinligi;
- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatni barqarorlashtiradigan mexanizmni (konsensus mexanizmi) mavjudligi, hamda fuqarolik jamiyatini ishlashini davlat organlari tomonidan xavfsizligini ta'minlanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo'ladimi, norasmiy bo'ladimi, u o'z ichiga qonuniy aktlarni, xalq vakillarini demokratik saylov bilan hokimiyatning, o'z-o'zini boshqarishturli organlari va h.k. tayinlash kabilarni oladi.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyat asosini ko'p ukladli iqtisod, mulkning turli shakllari boshqariladigan bozor munosabatlari tashkil etadi; Huquqiy sohada esa – hokimiyat boshqaruvi vakolatlarini markazda yig'ilib qolmasligi, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy plyuralizm, fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishlari, qonun ustivorligi hammaning ular oldida tengligi; ma'naviy sohada-yagona mafkura va dunyoqarashning yakka hokimligini yo'qligi, vijdon erkinligi madaniylik, yuqori ma'anaviyat va axloq tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz bo'lmaydi. Erkinlik me'yoriy ko'rinishga ega bo'lgani uchun, bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, bir tomondan inson erkinlikka uning normativ talablariga bo'ysunish qobilyati natijasida ega bo'ladi, boshqa tomondan, shaxs erkinligi borlig'ining tashqi shakli bu erkinlikning chegaralarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar hisoblanishini anglatadi. Va faqatgina, jamiyat uchun yoki insonning o'zi uchun eng muhim ahamiyatga ega, eng asosiy hisoblangan sohalardagina davlatning o'zi erkinlikning o'lchovini, me'yorini belgilab beradi. Bu esa huquqiy me'yorlar, qonunlar, konstitutsiya yordamida amalga oshiriladi.

Bunda huquqiy va erkinliklarning o'zi, jumladan konstitutsionlari bir tomondan fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan uning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy tashkillanganligining etukligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan inson va fuqaroning huquq va erkinligining to'liqligi bilan, ularning kafolatlanganligi darajasi amalga oshirish ketma-ketligi fuqarolik jamiyatining huquqiy demokratik jamiyat sifatidagi, haqiqiy erkinlik va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida muhim karakteristikalarining chuqurlashuvi, rivojlanishga ko'p tomondan bog'liq bo'ladi. bu o'rinda inson va fuqaro huquqlari fuqarolik jamiyatining o'z vositasi namoyon bo'ladi. Ushbu muhim funksiyalarni bajarish darajasida fuqarolik jamiyati qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Qonunchilik asosida u insonning va fuqarolarning shaxsiy xayot sohasini davlat va boshqa siyosiy strukturalarning asoslanmagan qat'iy muvofiqlashtirishidan himoya qilishni ta'minlaydi.

2. Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o'zini – o'zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3. Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning barcha siyosiy tizimini shakllanishi va sodda ko'rinishga keltirishga ko'mak beradi; buning uchun u turli vositalardan foydalanadi: saylov kampaniyalaridan va referendumlarda, norozilik yoki bu yoki u talablarini qo'llab-quvvatlash aksiyalarida, u yoki bu masalalar bo'yicha jamiyatni shakllantirishdafaol ishtirok etish.

4. Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari insonlarning huquq va erkinliklarini real kafolatlashlarini davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta'minlashga qaratiladi.

5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo'lishi mumkinki, ularning yordamida u individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta'minlanishi mumkin.

6. Fuqarolik jamiyati kommunikatsiyaviy vazifani bajaradi. Bu jamiyat davlat organlariga fuqarolarning konkret manfaatlari haqida xabardor qilib turadi, bu manfaatlarni amalga oshirish esa faqat davlat organlariga tegishli bo'ladi.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tashkilotlari bilan barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi. U davlat oldida tang holatlar yuz bergapnida unga yordam beradi, jamiyat hayotini yashashini ta'minlaydigan mustahkam strukturalarini yaratadi.

Ma'lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. SHu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida shunday deb ta'kidlaydi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. YA'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi».⁶

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri -bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi

⁶ Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари» Т.: Ўзбекистон, 1997.

sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan uch bosqichga bo'lib tahlil qilish tavsiya etiladi.⁷

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining asoslari yaratildi

Ikkinchi bosqich (2000-2010 yillar) damamlakatni demoeratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" e'lon qilindi. Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va yani – uchinchi bosqichni boshlab berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarining mazmun mohiyatidan kelib chiqib fuqarolik jamiti tushunchasiga turli xil darajada tariflar berilmoqda. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berildi: "Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil qva barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir".

YUrtimizdagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini "Fuqarolar o'rtasidagi muayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlpr o'rtasida konsensus madaniyati vudulga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin."⁸ deya tariflaydi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tariflarning turli-tumanligi fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining murakkab, ko'p qirrali jarayon ekanligi bilan xarakterlanadi

Istiqlol yillarida mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo qilishning ustuvor yo'nalishlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Buni biz qonunchilikning demokratik tamoyillari, fuqarolik institutlarining huquqiy kafolati rivojlanishi, milliy g'oya mafkurasining shakllanishi hayotimiz va yashash tarzimizda muhim ahamiyat kasb etishida ko'ramiz. Birinchi Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida (2010 yil 12 noyabr) ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda ravnaq topishiga alohida e'tibor qaratib, "**Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari**" tamoyilni amalda to'liq tatbiq etishning aniq va ravshan qirralarini belgilab berdi.

Birinchi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "Faqatgina biz tanlagai bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik

⁷ Фуқаролик жамияти шаклланишини мониторинг қилиш институти жорий архиви. 2013 й. яқунлари бўйича маъруза.- Б.3-5.

⁸ А.Бегматов. Мустақллик даврида фуқаролик жамияти асосларининг яратилиши ва эволюцияси. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари 2015 №1 66-бет.

talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar"⁹.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha qo'yidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo'lgan vaqtdan boshlab Yangi davrda shakllanish elementlari va hozirgi kunda bir butun tizim sifatida paydo bo'lishi.

- fuqarolik jamiyati g'oyasi insoniyatning antik davrdan beri davom etib kelayotgan tafakkuri maxsulidir. Avesto manbalarida, Qadimgi yunon faylasuflari fikrlarida, O'rta asr mutafakkirlarining qarashlarida, Uyg'onish va Reformatsiya davri g'oyalari va bugun XXI asr jahon xamjamiyati tomonidan umuminsoniy ijtimoiy madaniy qadriyatlar sifatida e'tirof etilishi. Har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazar uning rivojiga turli xil darajada hissalarini qo'shgan. SHu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar qarashlarni bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish xato yondashuvdir.

- fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, belgilari, tamoyillari har qanday ijtimoiy tizimda mavjud, biroq ularning rivojlanish darajasi turli xil bo'lishi mumkin.

- fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari xolati ijtimoiy hayotning va davlat hokimiyati boshqaruvining demokratlashib borishi bilan birgalikda kechadi.

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni bilan takomillashib boradi.

- har bir davlatda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va shakllanishi o'ziga xos mental xususiyatlarga bog'liq holda tadrijiy rivojlanish modellari asosida amalga oshiriladi.

- hozirgi dunyoda biron bir mamlakat fuqarolik jamiyat qurishning etuklik bosqichiga erishmagan va bu uzuluksiz davom etadigan jarayondir.

4. Yangi davrda fuqarolik jamiyati nazariyasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining Evropacha an'anasi antik ildizlarga ega. Mazkur an'ananing mazmun-mohiyati nafaqat siyosiy, balki shaxsni ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan baholash bilan bog'liq edi. Bunga Aflotun, Arastu, Sitseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini misol keltirish mumkin.

Fuqarolik jamiyatining antik konseptual ta'limga jamiyat va davlat fenomenlarining uzviyligi qadimgi yunon dunyoqarashining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Aflotunning (mil. av. 427–347 y.) "Davlat" dialogida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayotini ajratishgina emas, ijtimoiy sohani hozirgidek zamonaviy talqinda, siyosiy faollik sifatida tushunilgan. Bunda jamiyat hayotining siyosiy jihatlari, fuqarolik jamiyati tizimining umumiy tavsifi sifatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati g'oyasining keyingi rivoji Aflotunning shogirdi Arastu (mil. av. 384–322 y.) ijodi bilan bog'liq. Ustozi kabi Arastu ham eng mukammal jamiyat g'oyasini ishlab chiqishga diqqat e'tiborini qaratadi, biroq fuqarolik jamiyati g'oyalari tarkibida bu masala o'zgacha nazariy jihatlarni tashkil qiladi. Uni ko'proq ijtimoiy transformatsiya emas, balki davlat tuzilmasidagi o'zgarishlar qiziqtiradi. Bundan tashqari Arastu o'zining nazariy ishlanmalarida davlat haqidagi mavhum g'oyaga tayanishni emas, jumladan Aflotunga xos bo'lgan, balki

⁹ Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. -Т.: Ўзбекистон. 2015. -Б.126.

voqe'likda mavjud bo'lgan boshqaruv shakllarini solishtirish, qiyosiy tahlil qilishga tayanadi, bu jihat esa uning davlat va jamiyat borasidagi pozitsiyasini konkretroq bo'lishini ta'minlaydi.

Platondan farqli o'laroq, Aristotel xususiy mulkni e'tirof etadi. Chunki u inson tabiatiga xos bo'lib, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zagini tashkil etadi. Aristotel mulk huquqining fuqarolar farovonligi, davlat va uning boshqaruv shakli xavfsizligi, qonunchilik organi ishida fuqarolarning ishtiroki mexanizmi, lavozimlarni egallash va vazifalarni bajarish, sud organlari ishidagi rolini atroflicha o'rgangan. Huquqni Aristotel adolat mezoni deb hisoblagan va unga ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ayni vaqtda ularni muhofaza qiluvchi institut sifatida yondashgan. Aristotel fikriga ko'ra, siyosiy boshqaruv – bu odamlarning emas, balki qonun boshqaruvidir: hatto eng yaxshi hukmdorlar ham tuyg'ular va hissiyotga beriluvchan bo'ladi, qonun esa «oqilona tafakkur»dir.

Qadimgi rim mutafakkiri **Mark Tulliy Sitseron** (mil. av. 106-43 yillar) ham jamiyat va davlat (respublika)ni tenglashtiradi. Davlatni u umumiy manfaatlar bilan o'zaro bog'langan odamlar majmui sifatida tasavvur qiladi, davlat xalqning umumiy mulki hisoblanadi va odamlar birgalikda yashashga tabiiy ehtiyoj sezadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi mulkni muhofaza qilishdan iborat. Davlat ayni shu maqsadda tashkil etiladi. Sitseron fikriga ko'ra, uch boshqaruv shakli (monarxiya, aristokratiya va demokratiya) unsurlarini o'zida mujassamlashtirgan aralash davlat eng ideal davlatdir. Faqat shunday davlatda har bir jamiyat a'zosining manfaatlarini qondirish va u davlatni boshqarishda ishtirok etishi ta'minlanadi. «Davlatning mustahkamligi va fuqarolarning huquqiy tengligi» bunday davlat tuzumining muhim fazilati deb hisoblaydi. Sitseronning «Davlat haqida» va «Qonunlar haqida» asarlari davlat va huquq muammolariga bag'ishlangan. Davlat Sitseron talqinida qadimgi yunon mutafakkirlarining konsepsiyalaridagi kabi davlatning barcha erkin a'zolari umummanfaat ifodasi sifatidagina emas, balki bu a'zolarining o'zaro kelishilgan huquqiy munosabatlari majmui, muayyan huquqiy tuzilma, «umumiy huquqiy tartibot» sifatida ham namoyon bo'ladi.

Sitseron davlat tushunchasiga birinchilardan bo'lib huquqiy tus beradi, bu ta'limot keyinchalik juda ko'p mutafakkirlar, shu jumladan «**huquqiy davlat**» g'oyasining hozirgi tarafdorlari tomonidan ham e'tirof etiladi.

Sitseron konsepsiyasiga ko'ra, “fuqarolik jamiyati” g'oyasi antik davr uchun klassik ahamiyatga ega bo'ladi, bu o'z navbatida yangi davrda shakllangan nazariy qarashlarga asos bo'ladi. Ko'pgina ekspertlar fikricha, aynan Sitseronning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida “fuqarolik jamiyati” o'zining tushunchaviy asoslariga ega bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining tarixiy ko'rinishlari ifodasi Evropa-O'rta er dengizi an'anasi asosida fuqarolik jamiyatining dastlabki ko'rinishlari – Uyg'onish davridagi italyan shahar-davlatlariga borib taqaladi. Bunda fuqarolik jamiyati shahar boshqaruvi tizimiga asoslangan, muayyan shahar doirasidagi, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida xarakterlanadi.

Olimlar fuqarolik jamiyatining yana bir tarixiy ildizini, olmon madaniy doirasi ta'siridagi kontinental-evropa an'anasi bilan bog'lashadi. Erkin fuqaroning paydo bo'lishiga, birinchilardan bo'lib birlashgan hunarmandlar va savdogarlar gildiyasi, feodallardan himoyalovchi va shaharlar boshqaruvi ta'sir qilgan birinchi assotsiatsiya sabab bo'lgan deb hisoblanadi.

Uchinchi tarixiy ildiz fuqarolik jamiyati zamonaviy tushunchasi shakllanishida liberal anglo-amerika an'anasi muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilar bu borada turlicha fikr bildiradi. Masalan, fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilishi haqidagi g'oyani Jon Lokk, modernizatsiya va o'z-o'zini boshqarishni fuqarolik jamiyatining muhim komponentlari sifatida Adam Smit, minimal davlat konsepsiyasi, fuqarolik jamiyati va zaruriy yovuzlik sifatidagi davlatning o'ta chegaralangan roli haqidagi g'oyani Tomas Peyn, amerikacha demokratiya tahlili hoyasini Aleksis de Tokvil, davlat va fuqarolik jamiyati

o'rtasidagi munosabatlarni belgilab bergan va fuqarolik jamiyati mustaqil bo'lishi kerakligini ta'kidlagan Jon Styuart Mill kabi olimlarni ko'rsatish mumkin.

Fuqarolik jamiyati haqida turlicha tarixiy va metodologik yondashuvlar va interpretatsiyalarni inkor etmagan holda, yangi davrda fuqarolik jamiyati konseptuallashuvi jarayonida muhim rol o'ynagan Uyg'onish davri olimlardan biri Nikolo Makiavelli (1469–1527) bo'lib, u pragmatik, tajribaviy ijtimoiy fanga asos soldi. Fuqarolik jamiyati Makiavelli uchun sinfiy, partiyaviy qarama-qarshi qiziqishlar majmuidir. Unga ko'ra fuqarolik jamiyati xalqdan axloqiy asosni – ezgulik va fazilatni, ijtimoiy qiziqishlar va respublika tuzilmasi qiziqishlari oldida burchni his qilish va jasoratni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, u erkin individlar uchun munosib birlashma bo'ladi. Davlatni himoya qilish uchun hukmdor qo'lidagi barcha vositalarni ishga solishi kerak bo'ladi, yolg'on, shafqatsizlik hatto urush ham bundan mustasno emas. Davlat qiziqishlari unda birlamchi ahamiyat kasb etgan. Makiavelli davlatning mutlaqo mustaqilligini talab qilgan, cherkovdan ham, ya'ni davlat va umuman siyosat sohasining sekulyarizatsiyasi tarafdori bo'lgan. U davlat boshqaruvining o'ziga xos siyosiy mahorat maktabini yaratadi, unda hech qanday axloqiy normalar bilan hisoblashmay, "maqsad har qanday vositani oqlaydi" degan tamoyilni ishlab chiqqan.

SHunga qaramay, aynan shunday masalani ko'ndalang qo'yish g'oyasi ortidan yangi davrda bir qator faylasuflar fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yanada boyitdi. Xususan, "So'z erkinligi haqida" Djon Milton, "Leviafan" Tomas Gobbs, "Davlat boshqaruvi haqida ikki traktat" Jon Lokk, "Qonunlar ruhi haqida" Monteske, "Ijtimoiy kelishuv haqida" Jan Jak Russo, "Ilohiy-siyosiy traktat" Benedikt Spinoza, "Fuqarolik jamiyati tarixi haqida xatlar" Anri Fergyson kabilardir. Mazkur ishlarda u yoki bu darajada inson hayotining o'ziga xos shakli sifatidagi fuqarolik jamiyati muammolari yoritibgina qolmay shaxs va davlatga fuqarolik jamiyatining asosiy sub'ekti bo'lgan fuqaroning butun potensialini yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan prinsiplar yangi sifatleri ishlab chiqilgan.

Tomas Gobbs antik davr mutafakkirlariga (Platon, Aristotelga) ergashib, jamiyat va davlat tushunchalarini tenglashtiradi. U davlat, fuqarolik jamiyati va fuqaroviy shaxs tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisini qo'yadi. Biroq, ayni vaqtda, u agar davlat fuqaro bo'lsa, bu har qanday fuqaro davlat hisoblanishini anglatmasligini qayd etadi. Muayyan xo'jalik, savdo va tijorat ishlarini olib borish uchun a'zolari o'zini hamjamiyat (davlat) xohish-irodasiga to'la bo'ysundirmagan birlashmalar, kompaniyalar, ya'ni «fuqaroviy shaxslar» tashkil etilishi mumkin. Ayni vaqtda bunday fuqaroviy shaxslar (shirkatlar) oxirigacha bo'ysungan bo'ladi. Mazkur mantiqni «fuqarolik jamiyati» tushunchasiga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Ingliz ma'rifatchi faylasufi va siyosiy mutafakkiri **Jon Lokk** (1632-1704) haqli ravishda huquqiy davlatning atoqli mafkurachilaridan biri hisoblanadi. U o'z g'oyalarini «Davlatni boshqarish haqida ikki risola» asarida bayon etgan. Uning ta'limotida odamlarning tabiiy holati, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va davlatning tashkil topishi muammolari tushuntirilgan. Lokk huquqiy davlatning bosh elementi bo'lgan hokimiyatning bo'linishi nazariyasining asoschisi hisoblanadi.

Xususiy mulk nazariyasi Lokkda mehnat bilan uzviy bog'liq. Odamlar asosan o'z mol-mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida jamiyatga qo'shiladilar, bunda mazkur jamiyatda qabul qilingan qonunlar buning asosiy quroli va vositasi bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi Jon Lokk.

Fuqarolik jamiyatiga birlashish – bu qulay, tinch va farovon hayot kechirish, o'z mol-mulkidan xotirjam foydalanish va o'zini mazkur jamiyat a'zosi bo'lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun boshqalar bilan kelishish demakdir.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining liberal talqini, yuqorida aytib o'tganimizdek, Tomas Gobbs va Jon Lokk davrida yaratilgan. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasini ular kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini, insonning tabiiy mavjudlikdan ma'rifatli hayot tarziga o'tishini aks ettirish uchun ilmiy muomalaga kiritgan.

Tomas Gobbs bunday holatga davlat mavjud bo'lgan holda erishish mumkin deb hisoblagan. U davlat bo'lmagan joyda urush, qo'rquv, qashshoqlik, yolg'izlik, yovvoyilik, jaholat, davlatda – oqilonalik, xavfsizlik, boyluk, tartib, bilim va olijanoblik hukm suradi, deb yozgan.

Liberalizm asoschisi Jon Lokk birinchi bo'lib shaxsni jamiyat va davlatdan, erkinlikni – boshqa qadriyatlardan ustun qo'ygan. Erkinlikni u davlatning aralashuvidan xoli holat sifatida tushungan.

Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishga nisbatan boshqa bir yondashuvni G.Gegel (1770-1831) taklif qiladi. U fuqarolik jamiyatiga o'z kundalik ehtiyojlarini mehnat yordamida qondiruvchi individlar majmui deb qaraydi. Uning fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining negizini xususiy mulk tashkil etadi.

G.Gegel fikri bo'yicha, tarixiy jarayonni harakatlantiruvchi kuch sifatida fuqarolik jamiyati emas, balki davlat amal qiladi, u barcha fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi, inson shaxsi, umumiy siyosiy, moddiy va ma'naviy asoslarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Davlat insonni har xil tasodiflardan himoya qiladi, adolatni ta'minlaydi, umumiy manfaatlarni ro'yobga chiqaradi.

Davlat, oila, qabila, millat, diniy va boshqa birliklardan farqlanuvchi «fuqarolik jamiyati» kategoriyasi XVIII-XIX asrlarda tadqiqot predmetiga aylandi. G.Gegel o'zining «Huquq falsafasi» asarida fuqarolik jamiyati tushunchasini atroflicha o'rgandi va unga shaxslarning ehtiyoji va mehnat taqsimoti tizimi, adliya (huquqiy muassasalar va huquqiy tartibot), tashqi tartib (politsiya va korporatsiyalar) orqali aloqasi (munosabatlarga kirishishi) sifatida ta'rif berdi¹⁰.

O'sha davr jamiyati va davlatiga nisbatan G. Gegelning qarashlari eskirganligiga qaramay, uning fuqarolik jamiyati davlatga nisbatan mustaqil bo'lgan shaxsiy manfaatlar jabhasi, ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti va mulk shakllariga bog'liq ekanligi haqidagi fikrlari ijtimoiy fanlarning rivojlanish yo'lida tashlangan muhim qadam bo'ldi.

G.Gegel fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi sub'ektlarning o'zaro yuridik aloqalaridir. Tabiiy, «nomadaniy» holatdan «odamlar fuqarolik jamiyatiga kirishlari lozim, chunki faqat shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqiy xususiyat kasb etadi».¹¹ Ayni vaqtda Gegel bunday jamiyat faqat «hozirgi dunyoda» mavjud bo'lishi mumkinligini qayd etadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, ma'rifatsizlikka qarshi qo'yiladi.

Gegel fuqarolik jamiyati oiladan boshlanib to davlatga qadar dialektik harakatlanuvchi alohida bosqich uzoq tarixiy davr davomida o'rta asrdan to yangi davrgacha transformatsiyalashib kelgan tushunchadir. U fuqarolik jamiyati va davlatni aralastirib yuboruvchi o'sha davrda hukmron bo'lgan tabiiy huquq nazariyasini tanqid qilgan, uning fikricha, ijtimoiylik xususiyatiga asoslanuvchi fuqarolik jamiyati, oilaning axloqiy va davlatning ommaviy hayotidan mutlaqo farqlanadi. U adolatli qonunlar va odil sudlarni fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

¹⁰ Қаранг: Гегель Г.В.Ф. Философия права. - Москва, «Мысль», 1990. – С.227.

¹¹ Гегель Г. Работы разных лет. Том 2. – Москва, 1973. – С. 50.

Fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishga Immanuel Kant (1724–1804) harakat qilgan. Kant fuqarolik jamiyatini butun insoniyat uyi deb bilgan. Bu jamiyatda har bir inson hatti-harakati oliy axloqiy qonun – qat’iy imperativ bilan belgilanad. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati mavjud qonunlar doirasida hech kim tomonidan cheklanmaydigan intilish, tamoyillarining erkilik bilan uyg’unligi, boshqacha aytganda, fuqarolarga mos bo‘lgan jamiyatdir.

YUqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, XVIII asr o‘rtalariga kelib fuqarolik jamiyati – davlat an’anaviy paradigmasi qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Bu jarayon XVIII – XIX asrlarga kelib to‘xtadi, bu davrga kelib yangi tizim o‘zining – xususiy mulk, erkin bozor iqtisodiyoti, parlamentar demokratiya va huquqiy davlat, ijtimoiy va siyosiy sohalar o‘rtasidagi bo‘linish.

Fuqarolik jamiyati demokratik normalari va qadriyatlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ham taxlil qilingan. Zamonaviyroq ko‘rinishda demokratiya g‘oyalari Turkistonda ma’rifatparvar jadidlar faoliyatida kuzatiladi. Evropada bo‘lgani kabi Turkistonda ham o‘rta asrlar feodal munosabatlari, dogma va an’analarga qarshi bo‘lgan ma’rifatparvar g‘oyaviy oqim sifatida xarakterlanadi. U progressiv kuchlarning mamlakatni feodal turg‘unlik davridan olib chiqishga harakat qilgan va kurashganlarini aks ettiradi. Jadidlar ta’lim tizimini isloh etishni talab qilib, dunyoviy fanlar faolroq o‘qitiladigan yangi usuldagi maktablarni ochgan, ularda aniq, tabiiy-ilmiy, iqtisodiy fanlar o‘qitilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta’kidlashicha, demokratik qayta qurish g‘oyalari va fuqarolik jamiyati shakllanishi yosh xivaliklar va yosh buxoroliklar uyushmalari dasturlarida o‘z aksini topgan. Ular jadidlar liberal harakati sifatida nafaqat ijtimoiy munosabatlarni isloh qilishda, balki 1920 yilda Xiva va Buxoroda xalq namoyishlarida ishtirok etganlar. Turkiston avtonomiyasi uchun kurashgan jadidlar, mustaqillik uchun harakatga munosib hissasini qo‘shgan.

YUrtimizda ijtimoiy-falsafiy fikr, xususan jadidlar qiyofasida, fuqarolik jamiyati g‘oyalari ma’rifat qadriyatining shakllanishiga qaratilgan edi. M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat o‘z davridan ilgari o‘tib, fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi, haqidagi xulosasini aytadilar. Bundan tashqari, ular, an’ana va urf-odatlar demokratlashuvga to‘siq bo‘lmasligini, aksincha, mavjud an’analar doirasida amalga oshirilgan modernizatsiya, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror taraqqiyotining muhim omili ekanligini asoslaydi.

Birinchi Prezident I.A.Karimovning so‘zlari bilan aytganda, “o‘zbek xalqi boy tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, va uch ming yillik davrni o‘z ichiga olib, bizga boy tajriba va ibratli saboq beradi, uni qabul qilishimiz va rivojlantirishimiz kerak bo‘ladi”¹².

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati falsafiy konsepsiyalarining insoniyat tarixida o‘rni va rolini baxolar ekanmiz, uning nafaqat ilmiy-texnikaviy yutuqlar bilan, balki inson borlig‘ining ekzistensial ibtidosini qayta tushunish bilan kechgan. Bu davrda inson erkinligini boshqacha tushunish usuli yuzaga kelib, u fanga jiddiy ta’sir qiladi. Bunda erkinlik o‘z qiziqishlari yo‘lida boshqariluvchi emas, balki har bir insonning o‘z taqdiri uchun javobgarligi ma’nosida tushuniladi.

5. Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy konsepsiyalar.

XXasr boshlaridan fuqarolik jamiyati sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar “fuqarolik jamiyati” kategoriyasini funksional xarakteristikalarini tushunish murakkablashadi. Bu fuqarolik jamiyati tushunchasini tadqiq etishda, fuqarolarning ijtimoiy hayotida dolzarb talablarini aks

¹² Каримов И.А. Ўз келажигимизни ўз қулимиз билан қураимиз Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. 156-б.

ettiruvchi, yangi mezonlarning kiritilganligi bilan asoslanadi. SHunday qilib fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar rivojini tizimlashtirish: birinchidan, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari xarakteristikasi bilan, ikkinchidan, mafkuraviy asoslarning xususiyatlariga ko‘ra, uchinchidan, fuqarolik jamiyatining sof ilmiy konsepsiyalarini aniqlash bilan belgilanadi.

Biroq, fuqarolik jamiyati modeli ishlab chiqiluvchi dastlabki, bazaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda tadqiqotchilar konsepsiyalarini ikki guruhga bo‘ladi:

- formatsion va sivilizatsion yondashuvlar;
- modernizatsiya va postmodernizm konsepsiyasi.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining asosiy yondoshuvlari

Formatsion yondoshuv	Sivilizatsion yondoshuv	Modernizatsiya yondoshuvi
Fuqarolik jamiyati tushunchasi kapitalistik tizimga bog‘lanadi va keng (ya‘ni jamiyatning shakli sifatida) va tor (ya‘ni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o‘ratsidagi shakllanadigan muayan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) ma‘nolarda tushuniladi.	Fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya kontekstida ko‘rib chiqadi. Uning nazariy asoslarini O.SHPengler, A.Toynbi va P.Sorokin asrarlarida yaratilgan. Ularga qaraganda, fuqarolik jamiyati boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy me‘zoni sifatida esa insogn, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek boshqa insonlar bilan tinchlik v totuvlikda yashash qobiliyatlari tan olinadi	Modernizatsiya konsepsiyalarida (A. Turen, YU. Xabermas, E. Giddens, Z. Bauman va b.) fuqarolik jamiyati a‘naviy jamiyat urnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati tushuniladi.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda fuqarolik jamiyatining quyidagi g‘oyaviy-falsafiy doktrinalari ko‘rsatiladi:

- «byurokratik davlat sotsializmi doktrinasini»;
- «avtoritar davlat kapitalizmi doktrinasini»;
- «demokratik sotsializm doktrinasini»;
- liberal-demokratik (“bozor demokratiyasi”).

Byurokratik davlat sotsializmi uchun fuqarolik jamiyati – bu burjua, kapitalistik jamiyat, u xususiy mulkka va yollanma mehnatga asoslanadi. Byurokratik-davlat sotsializmi tarafdorlari fuqarolik jamiyatini ijtimoiy notenglik va jamiyatda kuchayib borayotgan keskinlik sababi deb biladi.

Avtoritar-davlat kapitalizmi fuqarolik jamiyatini xususiy biznes, oilaviy-qarindoshlik va boshqa nodavlat munosabatlar sohasi bo‘lib, o‘zida kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy bazasini mujassam qiladi, deb hisoblaydi.


Demokratik sotsializm konsepsiyasi tarafdorlariga ko‘ra fuqarolik jamiyati - ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va institutlar majmui, u demokratik davlat bilan birga ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy va h.) demokratiya asosini tashkil qiladi.

“Bozor demokratiyasi” nazariyotchilari fuqarolik jamiyatini bozor demokratiyasi jamiyati analogi deb biladi. Ular fikricha, fuqarolik jamiyati iqtisodiy jamiyat bo‘lib, iqtisodiy hayotni boshqarish imkoniyatlarida cheklangan va ijtimoiy birlashmalar va harakatlar tomonidan nazorat qilinadi.

SHunday qilib, fuqarolik jamiyati g‘oyasining qayta jonlanishida jamiyatni davlatlashtirishga, jamiyat hayotida davlat roli va ta‘sirining favqulodda o‘shishiga qarshi harakatni ko‘rish mumkin. CH.Taylor, E.Arato, R.Dvorkin va boshqa tadqiqotchilardan iborat bo‘lgan o‘ziga xos normativ diskurs

ham shakllanganligini aytish mumkin¹³. SHuningdek, nodavlat sohaning ijtimoiy-siyosiy faolligi va o'z-o'zini tashkillashtirish ahamiyati yuzasidan, eng muhim quyidagi konsepsiyalar ajratiladi:

- liberal an'ana konsepsiyasi;
- amerikanacha kommunitariz konsepsiyasi;
- evropacha neokonservatizmi konsepsiyasi;
- post-marksistcha konsepsiya.



Fuqarolik jamiyatining liberal an'ana g'oyasi umuman olganda yangi narsa emas. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmidayoq ishlab chiqilgan.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining amerikacha madaniy va tarixiy kontekstida «respublikanizm» ideali bilan bog'liq edi. U XX o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini ijtimoiy tashkillashtirishga asoslanuvchi, teng huquqli fuqarolar tomonidan tuzilgan amerika kommunalari, ya'ni lokal birlashmalarning uyg'un va faollikdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi tasavvurlarga asoslanadi.

Mazkur kommunalar o'z-o'zini tashkillashuvi o'ziga xos fuqarolik jamiyati tipi bilan qo'llab-quvvatlangan, bu haqda batafsil A. de Tokvil yozadi. Demokratik madaniyat bunda kommunal o'zarohamkorlik va sherikchilik qadriyatlarini, shuningdek xristian axloqi qadriyatlarining yuqori darajadagi amaliyoti bilan farqlanadi. SHuning bilan birga, kommunitaristik loyiha tarafdorlari kuzatganidek, jamoaviy qadriyatlar individual qadriyatlardan ustun bo'lib, individlar o'zaro ishonch va hamkorlik muhitida o'z qiziqishlarini uyushma qiziqishlariga bo'ysundirishga tayyor bo'lgan¹⁴.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mumtoz marksizm zamonaviy diskursning alohida konseptual yo'nalishi sifatida fuqarolik jamiyatini kelib chiqishini, jamiyatning feodal-aristokratik paternalistik tizimi o'rniga kommersiya kapitalizmi davridagi iqtisodiy partikulyarizmi bilan bog'lagan. Biroq Marks unda individual erkinlik va avtonomiyani emas, sinfiy jamiyatda ob'ektiv mavjud bo'lgan notenglikni, erksizlik va ijtimoiy-iqtisodiy begonalashuvni berkituvchi, ya'ni, tashqi shaklni ko'rgan xolos¹⁵.


Keyinroq esa postmarksistik loyiha doirasida amal qiluvchi nazariyotchilar, fuqarolik jamiyati g'oyasini qaytadan ko'rib chiqishga harakat qilgan. SHunday qilib, postmarksistik tushunishda, u quyidagicha asoslanadi «oxirgi vaqtlarda paydo bo'layotgan, jamiyatning, erkin ehtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda»¹⁶. Bu erda diqqat markazida, birinchidan, davlat-byurokratik mashinasining, umumiy manfaatlar davlati sharoitida, ta'sir doirasining kengayishi, ikkinchidan, jamiyatga transmilliy korporatsiyalar va globallashuv davrining markazlashgan iqtisodiyoti tomonidan bo'lgan havfi turadi.

¹³ Гончаров Д. Нормативная дискуссия о гражданском обществе: основные направления. Москва. 2010. С. 86

¹⁴ Walzer M. 1995. Concept of Civil Society – Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society. Providence RI: Berghahn Books.

¹⁵ Baker G. 2002. Civil Society and Democratic Theory: Alternative Voices.

¹⁶ Arato A. 1981. Civil Society Against the State: Poland, 1980-81 – Telos, #47.



Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarini ko‘rib chiqar ekanmiz, ularda mazkur fenomenning ontologik va gnoseologik jihatlariga ijtimoiy qarashlar xilma-xilligini ko‘ramiz. Ta’kidlash o‘rinliki, fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari ijtimoiy muammolar tahlilining tizimli mezonlarini ishlab chiqqanligi va ilmiy hamjamiyat oldiga original konseptual va amaliy echimini talab qilayotgan yangi masalalarni ko‘ndalang qilib qo‘yganligi. XX asr nafaqat texnik progress, balki tizimli fikrlash shakllanishi va hukmronligi davri bo‘lganligini olimlar biladi. Aynan shunday vaqtda, fuqarolik jamiyati – ijtimoiy borliqning tizimli tahlili kontekstida o‘rganila boshlanadi. Bu albatta, bugun olim-faylasuflarga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni nafaqat modellashtirish imkoniyatini, balki, ularning kelajagi haqida aniq tasavvurlar paydo bo‘lishga olib keladi. Bugungi kunda ham fuqarolik jamiyatini o‘rganish masalalarida bir qator muammolar mavjud: fuqarolik jamiyatining davlat va jamiyat dixotomiyasi yoki sherikligi chegarasi, fuqarolik jamiyati institutlarining individ shaxsiy hayotiga dahl qilishi chegarasi qaerda, fuqarolik jamiyatini tushunishning bazaviy asoslari, fuqarolik jamiyatini tushunishning universal yondashuvlari mavjudmi kabi masalalardir.

SHuning bilan birga, fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalar va tasavvurlar genezisi, mazkur fenomen antik va o‘rta asrlarda – davlat qiziqishlari jamiyat, va albatta xususiy qiziqishlardan ustuvorligi kontekstida talqiq etilganligidan dalolat beradi. Antik va o‘rta asrlar olimlari ijodida davlat, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarib turgan bosh institut sanalgan. Mazkur jihat insoniyat rivojining dastlabki bosqichida, davlat va jamiyat o‘zaro hamkorligi va dixotomiyasi borasidagi konsepsiyalar yo‘qligining asosiy omili hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati konseptual diskursining antik paradigmasi – fuqaroning ijtimoiy boshqaruv sohasidagi roli va o‘rnini aniqlashdan iborat bo‘lgan. Agar ulardan ba’zilari, fuqarolar davlatdan muayyan darajada avtonomdir (Arastu), boshqalar davlat boshliqlarini fuqaro va jamiyat hayotini reglamentatsiya qilishga chaqirgan (Aflotun). Ularning har biri imkoni boricha ideal davlat qurilmasini ishlab chiqishga harakat qilgan. Aynan shu jihat fuqarolik jamiyati keyingi konseptual ishlanmalari turli talqini va yondashuvlarni keltirib chiqardi.

O‘rta asr mutafakkirlarining antik davr olimlaridan farqi, ularning ijtimoiy munosabatlarni, davlat va jamiyat munosabatlari shu jumladan, teologik xarakterga ega, antik falsafa esa ijtimoiy munosabatlarni turli ranglarda ko‘rib chiqadi, shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati diniy paradigmasi o‘rta asrlarda shakllana boshlagan deyish mumkin.

SHarqning fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishidagi o‘ziga xos jihat, ularning mazkur fenomenga oid talqinlari fazilat, ma’rifat va o‘zaro mas’uliyat tushunchalari prizmasi

orqali amalga oshirilganligidadir, bunda ijtimoiy-falsafiy fikr o'z diqqatini davlat boshqaruvchilari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlariga qaratgan.

YAngi davrda davlat roli masalasi yangicha anglay boshlanadi: agar antik davr va o'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy fikr davlat ustuvorligiga qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib, mazkur nisbatda inson (fuqaro) fenomeni, o'z huquqlari, ehtiyoji va qiziqishlari bilan birgalikda ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Davlat faqat mana shu qiziqishlarni mavjud bo'lgan qonuniy tizim doirasida amalga oshirilishini ta'minlovchi institut sifatida gavdalanadi.

YAngi davr ijtimoiy-falsafiy tafakkuri fundamental yutug'i, davlat va jamiyat tushunchalarini ajratganligida, bu fuqarolik jamiyatini tushunishda klassik paradigmasining shakllanishiga asos bo'lgan edi. Bu o'z navbatida, "davlat – fuqarolik jamiyat" dixotomiyasi kuzatiluvchi konsepsiyalar shakllanishiga olib keladi. Birinchi marotaba YAngi davr mutafakkirlari davlat va jamiyat qiziqishlarining turlicha bo'lishiga o'z diqqat e'tiborini qaratadi, bunda davlat qonun ustuvorligiga tayansa, jamiyat esa xususiy mulkka. Fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual diskursning asosiy muammolari sifatida, davlatning roli va davlat va jamiyat o'zaro munosabatlarining mezonlari qanday (axloqiy ideal va real siyosat nisbati mezonlari) degan masala ko'ndalang turadi.

Fuqarolik jamiyati fenomenini konseptual qayta tushunishda kuzatilgan jiddiy rivojiga qaramay, ilmiy pozitsiyalarni o'rganish asosida, ularning qarashlari turli g'oyaviy asosdan mahrum emasligi aniqlandi, bu esa o'z navbatida, fuqarolik jamiyati mazmun va mohiyatini tushunishda sub'ektivizmning kuchayishiga olib kelgan. Va yana bir kamchiligi sifatida davlat va jamiyat o'rtasidagi chegaralar hanuz belgilanmaganligi masalasi bo'lib, bu mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatini o'rganishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakurning muhim yutug'i sifatida esa, bu sohani o'rganishning yangi ilmiy yondashuvi sifatida – tizimli paradigmaning shakllanishi bo'ldi. O'z navbatida, bu fuqarolik jamiyatining normativ idrok etishdan uni transformatsiyalashayotgan fuqarolik jamiyatini zamonaviy konseptual diskursi turli yo'nalishlarini o'rganish kontekstida, empirik tahlil qilishga o'tish tendensiyalarini kuchaytirdi.

Umuman, hozirgi zamon ilg'or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati – bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ihtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

2-MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATI G'OYALARI EVOLYUSIYASI

Reja:

- 1. Jamiyat sotsial strukturasi doir dastlabki talqinlar.**
- 2. Fuqarolik jamiyati - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida**
- 3. Fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalari va ularning o'zigaxos jihatlari.**

4. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillar.

5. Fuqaroviylik, mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari

6. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo'lish omillari

7. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rni

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g'oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi G'arb tamaddunimahsuli sifatida amaliyotga tadbir etilmoqda deb hisoblamodalar, aslida SHarq mamlakatalarimutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida sharq mamlakatlari etakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'rat umumbashariydir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazaruning rivojiga hissalarini qo'shgan. SHu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalar, bilimlar bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish noto'g'ri yondoshuvdir.

Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining yorqin namunasi "Avesto" muqaddas kitobida izchil yoritilgan. 2001 yildamillat ma'naviy madaniyatining eng qadimgimanbasi "Avesto"ning 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "... bu noyob asar bebaho tarixiy xujjat bo'lib, u biz yashagan bu qadim yurtda, bu zaminda o'zining madaniyati va boy ma'naviyatiga ega bo'lgan buyuk davlat bo'lganligidan, ajdodlarimizga, asrlar davomida bitmas tuganmas quch vaqudrat va tayanch sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi" debalohida e'tirof etgan. Darhaqiqat, "Avesto"ning bosh g'oyasi "ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal" har qanday jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma'naviy asosi ekanligidan dalolatdir.

Avestoning "YAshtlar", "Vispirat", "Vididod" qismlarida oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasmdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh ekanligio'z ifodasini topgan. Xususan, "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur etkazadi". "O Spitama, ahdingni buzma..." g'oyalaridavlatlar siyosiy tizimininghuquqiy asosi, adolat manbai bo'lib, ular Rim huquqidan ham qadimiyroqdir.

Avestodagi fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta'minlash g'oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga bo'lib, bugun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiva boshqa me'yoriy hujjatlarda ayollarning teng imkoniyati vakeng huquqlari ta'minlangan. XXI asrda ba'zi mamlakatlarda ayollarning saylash va saylanish huquqi umuman inkor qilinayotgan bir davrda, O'zbekiston Oliy majlis qonunchilik palatasiga ayollarning saylanishi uchun 30% kvotaning ajratilishi, 1995 yilda "Oila" kodeksining qabul qilinishi, bir tomondan yurtimizda ayollarga munosabat va oilaviy qadriyatlar qadimiy ildizlarga egaligini ifodalasa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi oqilona siyosatning yorqin ifodasidir.

Fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida o'rganilganligi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2014 yilda Samarqandda o'tkazilgan "O'rta asr SHarq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiyada o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida "Olim va tadqiqotchilar fikricha, SHarq xususan Markaziy Osiyo, IX-XII va XIV-XV asrlarda bo'lgan ilmiy hamjamiyat tomonidan Buyuk SHarq uyg'onishi deya nom olgan yirik ilmiy madaniy uyg'onish uchun asos sifatida xizmat qildi"³ deb alohida ta'kidlagan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo uyg'onish davri IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlarini haqidagi g'oyalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

Xususan, Abu Nasr al-Farobiy (870–950) ning "Fozil odamlar shahri", "Davlat arbobining aforizmlari" asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Farobiy fikricha adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlargayovuzlikdan saqlanish ezgulikka intilish yo'llarini ko'rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo'lidir deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqaradi, u ma'naviyat, adolatetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlarini bilan qat'iy talablarga javob berishi lozim. Bu borada Abu Nosir Forobiy "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladi. SHuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar"¹⁷, deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo'lishiga odamlarning o'zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo'ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirilishi lozim.. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o'rnatishdadir. Bungauning fikricha ideal ijtimoiy tuzilmani qurish orqali erishiladi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) fikricha ijtimoiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir. Hususan, Ibn Sino "iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko'ra tengsizlik – inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi" deb ta'kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma'naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog'liq.. Uning fikricha, ma'naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Bu davrda SHarqda ijtimoiy adolat, ma'rifat va tenglik nafaqat nazariy me'yor, balki amaliy hayot me'yori, ijtimoiy- siyosiy muammolar echimini topish va jamoa bo'lib yashashning asosi sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma'rifat yo'li tanlangan bo'lsa, Evropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa nasroniylarning diniy dogmatikasi hukmronlik qilib, diniy va dunyoviy manfaatlar o'rtasida kurash rivoj olgan.

¹Каримов И.А. Ўрта аср Шарқ мутафаккирларининг илмий мероси замонавий цивилизацияда ўрни ва аҳамияти. // Халқ сўзи. 2014 йил 24 май.

²Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: А.Қодирий нашриёти. 1993, 190-б.

YUsuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e'tibor qaratgan ³. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, «SHohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o'quvi bilan ham siyalaydi»¹ deb ta'kidlagan.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulkning "Siyosatnoma"** asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigankishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning «Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak»¹ degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlarigakatta e'tibor berganligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag'rida nish urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo'lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g'arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Tasavvuf ta'limoti asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo'ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g'oyaviy kuch sifatida qarshi qo'yiladi

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo'llash tajribasini SHarqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Amir Temur (1336–1405) boy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy merosi asosida ko'rish mumkin. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. "Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatiimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadrlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim»¹

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatini – hayotiyligini va samaradorligini ta'minlovchi – huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu ma'noda, Sohibqiron Amir Temurning quyidagi so'zlari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: "Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. SHuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim"².

SHu nuqtai nazardan, muvafaqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko'ra, amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko'ra: "Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga

³ Юсуф Хос Хожиб Қутадғу билиг.-Т.: Фан, 1971, 329-б.

⁴ Ўша асар. 329-бет

⁵ Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Адолат, 1997. 98-бет.

⁶ Амир Темур тузуклари.-Т.: Фофур Ғулом нашриёти, 1996, 24-бет.

⁷ Ўша асар. 81-бет

amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo'lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o'zi mahdud-rahbar adaolatsizliklarni to'g'irlashi mumkin, ammo vazirning o'zi shunday bo'lsa, halokat yaqindir»³. Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. “Qat’iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo’ldi”. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adolatli va fozil boshqaruvga alohida e’tibor qaratganligini ko’rsatib turibdi.

Komil insonlar jamiyatini haqidagi g’oyalar Alisher Navoiy (1441–1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo’lib xizmat qildi. A.Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o’zining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg’ambarlar va donolar tarixi” va b. asarlarida yoritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo’lgan mamalkatda amalga oshishi mumkin. SHunday qilib, A.Navoiy uchun adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Uning konsepiyasidahukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o’ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O’z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukmdor va bog’bonni, boshqa tomondan davlat va bog’ni solishtiradi. Unga ko’ra, agar bog’bon aqlli va mehnatsevar bo’lsa, uning bog’i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqlli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg’uradigan va uni sevadigan hukmdori bo’lsa, u rivojlanib farovonlashadi.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo’shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to’g’risidagi qarashlari o’z ifodasini topadi: «...davlat ishi bilan mashg’ul bo’lgan amaldorlik chog’larimda ko’ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg’aladi. Goh amirlik o’rnida o’tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so’rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko’rsatdim»¹⁹ deydi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo’ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o’tadi.

Antik va o’rta asr SHarq allomalarining fuqarolik jamiyatigi oid konseptual merosi va nazariy ishlanmalari amaliyotdagi – davlat va jamiyatda hukmdor me’yorlarga to’liq mos kelmasada, biroq ular fuqarolik jamiyati tamoyillarining ob’ektivlashuvi va uning insoniyat sotsiumining tarixiy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi uchun mustahkam asos yaratdilar.

1. Jamiyat sotsial strukturasi doir talqinlar.

Jamiyatning sotsial strukturasi dastlab qadimgi yunon mutafakkirlari Platon (er.av.427-347 yy.) va Aristotel (er.av. 384-322 yy.) tomonidan tadqiq etilgan. Ular jamiyat va davlatni aynanlashtirgan bo’lsalarda, jamiyat a’zosi sifatida faqat erkin tug’ilgan va fuqarolik yoshiga etgan kishilarni e’tirof etgan. Ularning jamiyatga doir qarashlari asosini sotsial struktura va sotsial adolat konsepsiyalari tashkil etgan.

Platonning fikricha, sotsial strukturani faqat erkin tug’ilgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan rolni bajarayotgan kishilar tashkil etadi. Insonning qalbi uchta asosga ega: «idrok» (intellektuallik), «jasurlik» (irodalilik) va «istak» (sezgi, tuyg’uga ega bo’lish). Odamlar o’z qalbidagi asoslardan qay birining ko’pligi yoki ozligiga qarab jamiyatda uchta ijtimoiy qatlam mavjud bo’ladi: donishmandlar – «faylasuflar», harbiylar – «qo’riqchilar», ishlab chiqaruvchilar – «dehqonlar» va «hunarmandlar». Boshqaruvchilar yuksak ma’lumotli, iste’dodli, xususiy mulkka ega bo’lmagan, zohidlik turmush tarzini kechirayotgan, 50

⁸ Амир Темур тузуклари.-Т.:Фофур Фулом нашриёти,1996, Б- 83.

⁹ А. Навоий. Махбуб ул- Кулуб.–Т.: Фофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983, Б-12.

yoshga etgan faylasuflar ichidan tayinlanishi lozim. Boshqaruvchi bo'ladigan odamlarni falsafa va san'at vositasida tarbiyalash zarur. Boshqaruvchilar qonunlarni o'rnatadi, ijtimoiy ishlarni adolatli tarzda boshqaradi. «Qo'riqchilar» davlatni himoya qiladi va jamiyatda tartibni izga soladi. «Dehqonlar» va «hunarmandlar» o'z mehnatlari bilan fuqarolarni barcha hayot uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlaydi. Ko'rinib turibdiki, Platon tomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturasi oliy darjada donishmand-faylasuf turgan qattiq ierarxiyani nazarda tutgan edi.

Yirik yunon mutafakkiri Aristotel o'zining «Siyosat» kitobida jamiyatning tabiiy kelib chiqishi, uning sotsial stratifikatsiyasi va sotsial adolat kabilarga doir qarashlari tadqiq etildi. Aristotelning fikricha, inson tug'ilishdan boshlab instinktiv ravishda boshqalar bilan birgalikda hayot kechirishga intiladigan mavjudotdir. Odanning boshqa mavjudotlardan farqi, uning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlardagi ezgulik, adolat, «umumiy foydani tushunib etganligi»dir. Aristotel jamiyatda bir-birini izchillik bilan bir-biriga almashib boruvchi insoniy ijtimoiy hayot shakllarini bir-biridan ajratib ko'rsatib berdi: oila – yashash manzili (qishloq va boshq.) – polis (shahar-davlat). Aristotel uchun davlat – odanning tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan hayot kechirishga intilishi natijasida vujudga keladigan birlilikda insoniy hayot kechirishning oliy tabiiy shaklidir. Oila – insoniy birlikning birlamchi shakli sifatida talkin etildi. Bir necha oilalar yashash manzilini tashkil etadi. O'zaro bir-birlariga yaqin yashash manzillari shahar-davlatga birlashadi.

Aristotel ilgari surgan sotsial struktura modelida asosiy stratifikatsiyaviy prinsip sifatida mulk senzi tanlandi. Unga muvofiq, fuqarolar uchta sotsial qatlama bo'linadi: kambag'al, o'rta qatlam va boy. Mutafakkirning fikricha, davlatda qanchalik o'rta qatlam ko'proq bo'lsa, u shunchalik qudratli bo'ladi, gullab-yashaydi.

Antik yunon falsafasini yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, SHarq uyg'onish davrining mutafakkiri Abu Nasr Forobiy insoniy jamiyatni puxta o'rgangan olimlar jumlasiga kiradi. Forobiy «Fozil shahar odamlari qarashlari» asarida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab beradi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... SHu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun inson ko'paydi va erning aholi yashaydigan qismiga o'mashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»²⁰. Mutafakkir nazdidagi inson jamoasi – bu kishilik jamiyati hisoblanadi.

Forobiy jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi (sotsial strukturasi) sifatida jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarni chuqur tahlil etadi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, go'yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar.

Forobiy orzu qilgan ideal davlatda ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi farqlanishlar saqlanadi. Platonning ideal davlat tuzumi haqidagi ta'limotida ko'rsatilgani kabi, har bir tabaqaning vazifalari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'ladi, tabaqalar o'zlarining maqomlari bo'yicha o'zlariga tegishli bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadi. Bir tabaqaga mansub bo'lgan odam boshqatabaqa vakillari uchun tegishli bo'lganishlarni bajarish huquqiga ega emaslar (masalan, boshqaruvchilar tabaqasiga mansub kishilar dehqonchilik yoki savdo ishlari bilan shug'ullanmaydi). Fozil shahar-davlatda har bir tabaqaning jamiyatdagi o'rnini va maqomi mazkur tabaqa bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning qanday bo'lishi bilan belgilanadi. Tabaqa martabasining baland yoki past bo'lishi uning hukmdorga yaqin yoki uzoq bo'lishiga bog'liqdir. Hukmdorga yaqin yoki undan uzoq bo'lishning belgisi har bir tabaqa vakillarining aqliy (intellektual) va ma'naviy kamolot darajalarining yuksakligiga bog'liqdir. Aqliy va ma'naviy kamolot darajalari yuksak

²⁰Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А.Қодирий ном. халқ мероси нашриёти.1993.-Б.18-19.

bo'lgan tabaqa vakillari, ya'ni hukmdorga yaqin odamlar yuqori lavozimlarni egallab, hurmatga sazovor bo'lgan ishlarni bajaradi, ularning qo'l ostida ishlovchilar esa pastroq lavozimlardagi ishlarni bajaradi.

Ko'rinib turibdiki, Forobiyning ideal davlat tuzumiga asoslangan jamiyatda (fozil shahar-davlatlarda) kishilarning ijtimoiy tabaqalarga bo'linishi va ularning imtiyozlari saqlanadi. Mutafakkir biron-bir tabaqaga mansub odamlarning vazifalari va majburiyatlari o'rtasida tafovutlarning saqlanishi, har bir odamning o'z kasbini yaxshi bilishi va o'z vazifalarini bajarishi jamiyatning sobitligi hamda adolatning yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan omildir, deb qaraydi: har bir odamning o'z kasbiga tegishli vazifalarini to'g'ri bajarishi - jamiyatda adolatning saqlanishi va uni barqarorligini ta'minlash asosidir.

Mutafakkir o'zining «Talxisi navomisi Aflotun» («Platon qonunlari mohiyati») asarida ilohiy qonunlarni doimo adolatli ekanligini ilgari suradi.²¹ Fozillar jamiyatining adolatli bo'lishi va tabaqalar o'rtasida tafovutlarning saqlanishida *adolat huquqiy kategoriya* vazifasini bajaradi. Ana shu jihatlardan yondashganda, Forobiyning adolatg'oyasiga nisbatan ishlatgan ta'rifi Platon talqinlariga yaqindir. Lekin Forobiy qarashlaridagi adolat g'oyasi kishilar o'rtasida axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni, moddiy boyliklarni taqsimlash va o'zaro almashuv munosabatlarini ham o'ziga qamrab oladi. Mana shu erda Forobiyning qarashlari Platon talqinlaridan farqlanadi. Forobiy o'zidan oldingi barcha o'tmishdoshlaridan farq qilib, adolat haqidagi quyidagi ta'rifini keltiradi: «Adolat - avvalambor butun shahar ahli tomonidan yaratilgan ne'matlarni (to'g'ri) taqsimlash hamda kishilar o'rtasida bu ne'matlarni taqsimlash qoidalarini saqlash demakdir. Bunday ne'matlar qatoriga (kishilarning) farovonligi, boylik (mol-mulk), turli unvonlar va jamiyatda tutgan o'rni hamda odamlarning moddiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga oid boshqa ko'pgina ne'matlar (narsalar) kiradi. Jamoa a'zolarining har biri o'zining xizmatiga yarasha bu ne'matlardan tegishli hissasiga egadir. Agar ne'matlar bir odamga nisbatan kamroq taqsim etilsa, bu holda u odamga nisbatan adolatsizlik bo'ladi. Aksincha, o'sha odamga ne'matlar ko'proq taqsim etilsa, unda boshqa fuqarolarga nisbatan adolatsizlik sodir qilingan bo'ladi.»²²

Xulosa qilib aytganda, adolat kishilar va turli tabaqalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri taqsimlashning belgisi vazifasini bajaruvchi kategoriyadir. «Adolatsizlikning sodir bo'lishi, - deb yozadi Forobiy, - shunda ifodalanadiki, ne'matlarning tegishli hissasi berilmay qoladi.»²³ Mutafakkirning fikricha, sotsial strukturalarning yashash mezonini – bu sotsial tabaqalar o'rtasida, shuningdek davlat bilan tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarda adolat prinsipiga qilishdir.

Forobiy kishilarning diniy mazhabiga emas, balki ularning turli belgilari - tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidorlariga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga qarab ijtimoiy guruhlarga bo'ladi. Uning talqinicha, shahar - bu muayyan bir davlat uyushmasi, jamiyat (jamo'a) esa - shu davlatga tobe bo'lgan odamlarning tabaqalardan iborat birlashmasidir. Albatta, bu kabi qarashlar Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturalariga doir ta'limotini va bu strukturalarni tabaqalashish qonuniyatlarini yanada rivojlantirdi.

Muayyan jamiyatning tarixiy rivojlanishini tahlil etish natijasida olingan tizimlar nazariyasi va sotsiologik tasniflardan kelib chiqib **jamiyatning** asosiy universal tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin: a) bir butunlik, yaxlitlik; b) o'zgarishlarga boy va rivojlanishga moyillik (dinamizm); v) tizimlilik. Mazkur universal tasnifdan kelib chiqib jamiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: **Jamiyat** (society) – bu yaxlit tuzilma bo'lib, uning doirasida odamlarning birgalikda yashashi amalga oshadi; jamiyat o'zining unsurlaridan iborat bo'lish xususiyatiga ega bo'lgan, shuningdek o'zini mavjudlik ma'kon va zamon chegaralariga ega bo'lgan o'ziga xos organizm yoki tizimdir. SHu tariqa, jamiyat muayyan va aniq hududda

¹¹ Ўша жойда.

¹² Фараби. Социально-этические трактаты. -Алма-ата: Наука, 1975.-С.224.

¹³ Ўша жойда.-Б.226.

joylashgan bo‘ladi va o‘z mavjudligining aniqmuvaqqat doirasiga egadir. Ba’zi jamiyatshunos olimlarning fikricha, «jamiyat» va «mamlakat» tushunchalari o‘rtasida o‘xshashlik mavjud. Jamiyat odamlardan iborat tuzilma sifatida tavsiflanib, u: sotsial aloqalarning birlashuvi ro‘y beradigan hudud; muayyan bir hudud doirasida yuzaga kelgan sotsial aloqalar, munosabatlar, birliklarning turli tumanligiga ega; avtonomlik (mustaqil yashash) qobiliyatiga ega; integratsiyalashuvga moyil (barcha individlarni o‘zaro qo‘shiluvchanligi, ijtimoiy tartibot natijasidagi birlashuv).

“**Jamiyat**” deganda barcha insoniy munosabatlar (aloqalar) yig‘indisi tushuniladi. Yana bir manbada “jamiyat” tushunchasi ma’lum bir hududni egallagan, oz yoki ko‘p darajada o‘zining boshqalardan farqlanuvchi madaniyati va institutlariga ega bo‘lgan odamlarning o‘zini o‘zi abadiylashgan yig‘indisi, deyiladi.²⁴

Jamiyat institutlar va birliklarning o‘zaro munosabatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan, yangi sotsial tuzilmalarni integratsiyalaydigan, o‘z mantig‘idan kelib chiqib aholining asosiy qismini o‘ziga bo‘ysundiradigan, mazkur hududda yashovchi odamlar o‘z xatti-harakatlaridagi turli tuman sotsial o‘zaro ta’sirlar va aloqalarni yagona negizga uyushtirishga undovchi va o‘zini o‘zi muvofiqlashtirish mexanizmlariga egadir. **Jamiyat** – odamlar, birliklar va tuzilmalar o‘zaro ta’sirlari va aloqalarining tarixan rivojlanuvchan, ularning birgalikda yashash jarayonida o‘zgarib boradigan va tarkib topadigan yaxlit tizimdir.²⁵

Jamiyatni o‘ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1)sotsiallik; 2)jamiyat a’zolari (insonlar) o‘rtasida o‘zaro ta’sir va bog‘lanishlarning mavjudligi; 3)ma’lum bir hududga ega bo‘lish (sotsial makon); 4)sotsial zamonning (vaqtning) mavjudligi; 5)o‘zini o‘zi boshqarishi va muvofiqlashtirishi, o‘zini o‘zi namoyon qilishi, sotsial jarayonlarni o‘z-o‘zidan anglashi; 6)sotsial institutlarning mavjudligi; 7)odamlarning ongi, irodasi va faoliyatini har qanday o‘zgarishlarga ta’sir etib turishi; 8)sotsial strukturaning mavjudligi.²⁶

Jamiyatning strukturaviy komponentlari²⁷ - ular ko‘plab individlar (shaxslar); odamlar tomonidan bajariladigan sotsial rollar; o‘z ichiga hududiy, etnik va boshqa birliklarni olgan sotsial struktura; odamlarning bir-birlariga o‘zaro ta’siri.

Jamiyat yaxlit tizim sifatida turli tuman unsurlardan (faoliyat turlari, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, institutlar va uyushmalar) iborat. Ularning barchasi bir-birlariga mustahkam bog‘langan bo‘lib, ularning jamlanmasi bir butunlikni (yaxlit jamiyatni) tashkil etadi. «**Struktura**» (tuzilma) tushunchasi (lotincha “structura” – tuzilish, tuzilma, joylashish tartibi, tartib) umumiy ma’noda bir butunning u yoki bu darajadagi barqaror unsurlari yoki ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni anglatadi.

Biz xorijiy adabiyotlardan foydalanishda qiyinchilik tug‘ilmasligi uchun «**tuzilma**» tushunchasini xalqaro miqyosda qabul qilingan shakli – «**struktura**» atamasi ishlatamiz. Struktura jamiyatning tarkibiy qismlarini turli tartibsizliklar aralashmasidan iborat holda yashashiga yo‘l qo‘ymaydigan, ularni muvofiqlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradigan o‘ziga mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Struktura– ob’ektning bir butunligini va uning o‘ziga o‘zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig‘indisidir. Struktura aksariyat holatlarda “nimanidir tarkibiy qismlarini o‘zaro joylashishi va o‘zaro aloqalari” yoki “ma’lum bir tuzilish va tuzilmaga ega bo‘lgan narsa” ma’nolarida ishlatiladi.²⁸

Struktura - birinchidan, bu unsurlarni ma’lum bir model sifatida namoyon qilish, masalan, qandaydir institutlashirilgan sotsial tasniflashni (rollar, tashkilotlar va boshq.) “tuzilgan struktura” yoki “bandlik strukturasi” sifatida tartibga solish; ikkinchidan, ustki struktura asosida yotuvchi (ayniqsa qiyosiy

²⁴ Джери Дж. Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. Том 1. –Москва:ВЕЧЕ.АКТ, 1999.-С.508.

²⁵ Ўша жойда.-С.159.

²⁶ Ўша жойда.-С.160-163.

²⁷ Компонент [лют. componens (compo-nentis) тузувчи, ташкил этувчи, хосил қилувчи] – ниманидир таркибий қисми.

²⁸ Локшина С.М. Краткий словарь иностранных слов.-10-е изд., стер.-Москва: Рус.яз., 1988.-С.488.

грамматикада) qoida, tartibdir (“chuqur struktura” - Levi-Stross ta’biricha). Ingliz otsiolog olimi Giddens uchun “struktura” tushunchasi sotsial tizimlarni qaytarilishi va takrorlanishida saqlanadigan “qoidalar va imkoniyatlar”ga taalluklidir.²⁹

Giddens jamiyatning sotsial strukturasi tushunchasini o’ziga xos xususiyatlarini ochib berish barobarida, uni funksionalizm tarafdorlari talqinidagi noaniqliklar va engil-elpi ta’riflashlarni keskin tanqid qilib quyidagi fikrlarni ilgari surdi: “Strukturatsiya nazariyasini o’zagini tashkil etgan muhim tushunchalarni ko’rib chiqamiz: «struktura», «tizim» va «strukturaning dualligi (ikki taraflamaligi)». Hech shubhasiz aytish mumkinki, ularning ichida birinchisi – struktura (yoki «sotsial struktura») – funksionalizm oqimi tarafdorlari ichida juda ham ommaviylashib ketdi va ular o’z nomidan kelib chiqib ham «strukturalizm» an’analari oldida o’z burchini bajarishga urindi. Lekin, barcha nazariyalar ham bu tushunchaga sotsial-ilmii nazariyalarning talablari darajasida ta’rif bera olmadi. Funksionalizm tarafdorlari va ularning tanqidchilari o’zlarining asosiy diqqat-e’tiborini faqat «funksiya» tushunchasiga qaratib, «struktura»ga oid tasavvurlarga muhim e’tibor bermadi; shu tariqa, bu tushunchaning ahamiyati eski holidan nariga o’tmadi.

SHu bilan birga, biz funksionalizm tarafdorlari «struktura» deganda nimani tushunishini yaxshi bilamiz. Lekin, darhaqiqat, jamiyatshunos-tahlilchilar bu tushunchani sotsial munosabatlar va hodisalarni o’ziga xos «modellashirish» deb tushunadi. Ko’pincha struktura tushunchasi skelet yoki organizm tuzilishi, yoki bino sinchi (qobirg’asi) kabi ko’zga ilinmas tasavvurlar shaklida talqin etildi. Bu yondashuv va unga tegishli tushuncha sub’ekt va sotsial ob’ektning ikki taraflamaligi (dualligi) bilan mustahkam ravishda o’zaro bog’liqlikda talqin etildi: bunda «struktura» insoniy faoliyatga nisbatan qandaydir «tashqi» holatni ifodalab, mustaqil sub’ektning erkin tashabbuslarini chegaralashni keltirib chiqaruvchi manba ma’nosini bera boshladi. Strukturalizm doirasida paydo bo’lgan strukturaga doir tasavvurlar bizga qiziqarli bo’lib tuyuladi. Bunda, struktura haqida so’zlaganda, biz u yoki bu sotsial munosabatlar va hodisalarning modellarini emas, balki mavjudlik va mavjud emaslikning (yo’qlikning) o’zaro kesishgan nuqtasini nazarda tutamiz; shu tarzda, yuzaki namoyon bo’lishdan kelib chiqqan holda uning poydevori - asos solinadigan prinsiplari chiqarib tashlanadi”.³⁰

Giddens “sotsial struktura” va “tizim” tushunchalaridagi farqlanish va bir-birini to’ldirish xususiyatlarini ochib beradi, shuningdek ularga doir izlanishlarni yanada chuqurlashtirishning istiqboldagi vazifalariga to’xtaladi: “Dastlabki qarashda strukturaga doir yuqorida keltirilgan tasavvurlar umumiylikka hech qanday daxli yo’qdek ko’rinadi. Lekin, aslida ularning har biri sotsial munosabatlarni strukturalashning muhim jihatlariga tegishlidir. Bu jihatlar strukturalashtirish (strukturatsiya) nazariyasida «struktura» va «tizim» tushunchalariga differensiyaviy (bir butunni bo’laklarga va farqlanuvchi jihatlariga qarab o’rganish) yondashuv vositasida anglab etiladi. Sotsial munosabatlarni tahlil qilar ekanmiz, biz mummoning, bir tomondan, sintagmatik³¹ jihatlarini – sotsial munosabatlarni vaziyatli amaliyotini takror yaratishni o’z ichiga olgan holda makonda va zamonda modellashirish, ikkinchi tomondan, shu kabi takror yaratish jarayonida muttasil ravishda ishtirok etuvchi «strukturalashning usullari»ni ma’lum sharoitlarda tartibga solishni nazarda tutishga qaratilgan paradigmativiy³² «o’lchash»ni e’tiborga olishimiz zarur bo’ladi”.³³

«**Ijtimoiy**» tushunchasi lotincha (socialis) «sotsial» ma’nosini bildirib, u odamlarning jamiyatdagi o’zaro munosabatlari va hayot kechirish tarzi tufayli bir-birlariga bog’liq ekanligini anglatadi. Jamiyat keng ma’noda – bu umumiy manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega bo’lgan odamlarning birlashish shaklidir. Insoniy jamiyat insonlararo munosabatlar (sotsial munosabatlar) modeli (jamiyat sub’ektlari o’zaro munosabatlari yig’indisi) sifatida tavsiflanadi.

Bu tushunchalar o’zaro birlashtirilganida, “jamiyatning sotsial strukturasi” ma’nosini beradi. Bu tushuncha jamiyatning (birlikning, guruhlarining) ichki tuzilishini ifodalaydi; bu - tartibga solingan sotsial birliklar, sotsial institutlar va ularning o’zaro aloqalari yig’indisi demakdir. Sotsial struktura tor ma’noda funksional jihatlardan o’zaro bog’langan sotsial maqomlar va rollarning yig’indisidir. Sotsial struktura

²⁹ Каранг: Большой толковый словарь (Collins). Том 2 (П-Я): Пер. с англ. – Москва: Веча, АСТ, 1999. – С.300.

³⁰ Гидденс. Э. Устроение общества. Очерк теории структуризации. – Москва: Академический Прект, 2005. – С.58.

³¹ Синтагма [юнон. syntagma ниманидир кўшилганлиги, боғланганлиги, бирикканлиги] – бир неча сўзларни ёки сўз қисмларини кўшилиши, масалан, сув ташувчи – мешкоб (бунда меш – кописмон идиш, об - сув); синтагматик - маълум бир фикрдаги тил бирлиги бирикмаларига тааллуқли (унинг тескариси - парадигматик).

³² Парадигма [юнон. paradeigma мисол, намуна] - 1) жадал кўринишида берилган сўз шаклининг тизими (номларни турланиши, сўзнинг тусланиши; 2) далиллаш ва қиёслаш учун тарихдан мисол келтириш.

³³ Гидденс. Э. Устроение общества. Очерк теории структуризации. – Москва: Академический Прект, 2005. – С.59.

jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlab turadi. Sotsial strukturani tahlil etishda odatda quyidagi sotsial hodisalar ko'rib chiqiladi: sotsial maqom, sotsial rol, sotsial differentsiatsiya, sotsial stratifikatsiya, sotsial notenglik, sotsial mobillik, sotsial marginallik, sotsial institutlar va boshqalar.

Umuman, jamiyatning sotsial strukturasi barcha jamiyatlar uchun xos bo'lib, ularning shakllari, funksiyalari, ta'siri natijalari turli jamiyatlarda fuqarolarning milliy qadriyatlarini, tarixiy rivojlanish tajribasi, siyosiy va huquqiy madaniyatga bog'lik holda turlicha bo'lishi mumkin.

2. Fuqarolik jamiyati - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasining ildizi (civil society) qadimgi grek faylasuflari va boshlab Sitseron yozgan asarlarda kuzatiladi. Lekin, grek faylasuflari fuqarolik jamiyati haqida fikrlaganida asosan davlatni ko'zda tutgan edilar. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar XVIII asr oxirida bir vaqtning o'zida shotland va kontinental Ma'rifatparvarligi tomonidan tug'ildi. Tomas Peyn va Georg Gegel kabi nazariyotchilar fuqarolik jamiyatini davlatga yaqin, lekin, shu bilan birga undan ajralgan soha, qaysiki, bu kabi jamiyatda fuqarolar o'z xohishlari va manfaatlariga bog'liq holda birlashadilar, deb talqin etdilar. Bu yangi talqinlarda iqtisodiy voqealarni o'zgarishlari ifodalangan edi: xususiy mulk, bozor raqobati va burjuaziyaning paydo bo'lishi. U tobora o'sib borayotgan erkinlik sari da'vat etish chaqiriqlaridan paydo bo'lgan edi.

XIX asrning o'rtasida jamiyatshunoslar va faylasuflar sanoat inqilobining ijtimoiy va siyosiy oqibatlariga o'z e'tiborlarini qaratganlarida esa fuqarolik jamiyati tushunchasi iste'moldan tushib qoldi. Faqat ikkinchi jahon urushida keyingi davrda Antonio Gramshi fuqarolik jamiyatiga tiraniya bilan kurashishning muhim sohasi va mustaqil siyosiy faoliyatning o'ziga xos o'tlanish nuqtasi sifatida qarab, uni qaytadan tikladi va bu jamiyat yana rusumga kirdi. Gramshi o'ng oqim diktaturani tadqiq etganligi uchun uning g'oyalari SHarqiy Evropa, shuningdek, Lotin Amerikasidagi dissidentlar va huquq himoyachilariga kuchli ta'sir qildi. CHex, vengr, polyak faollari doimo fuqarolik jamiyati tushunchasiga murojaat etishar edi. Ayniqsa, 1989 yilda Berlin devori qulagan paytlarda u jasurlik tushunchasining sinonimi sifatida ishlatila boshlandi.

XX asrning 90-yillarida fuqarolik jamiyati jozibador formulaning so'nggi natijasiga aylandi. Ulkan demokratlashtirishning dunyoviy tamoyillari uning oldida yangi ufqlarni ochdi. AQSH va G'arbiy Evropada uning jamiyatni yangilashning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi o'rniga nisbatan qiziqishlar kuchaydi, shuningdek, davlat va hukumatta'sirlari kamayib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ham u keng tarqala boshladi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, inson jamiyat tomonidan oliy ijtimoiy qadriyat manbalari sifatida namoyon bo'lishi eng echimini topish eng qiyin muammolardan biridir. CHunki, bu kabi sharoitlarda insonni mansabdorlar va ularning apparatini irodasi asosida faoliyat yuritishdan boshqa chorasi qolmaydi, inson davlat mashinasining bir murvatiga aylana boshlaydi. SHaxs o'zining turmushini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lmasdan, u xalqaro munosabatlarda “inson huquqlari manbasi” deb ataladigan o'z insoniy qadr-qimmatini e'zozlaydigan erkinlik me'yorlaridan bahra ololmaydi.

SHuning uchun ham fuqarolik jamiyatini xalqaro tajribalar va milliy an'analar asosida shakllantirish inson erkinligi va huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida shakllantirish inson taraqqiyoti uchun eng zaruriy omildir. Hozirgi davrda jamiyatga doir zamonaviy nazariyalarda fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy uchta tarkibiy qismlari quyidagicha ta'riflanadi:

- ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyalarni sezilarli qismini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarini rivojlanganligi; “shaffof” hukumat va parlamentning mavjudligi; uning “shaffof”ligi jamiyat nazorati ostida va fuqarolarning baholashlari bilan bog'liq ekanligi bilan ifodalanadi;

• hukumat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida "de-yure" talablari doirasidagi muloqotlarning mavjudligi, yoki, boshqacha aytganda, ijroiya hokimiyati tizimlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir eta olishning legitim usullarini shakllanganligi.

SHu bilan birga, jamiyatni qonunlar asosida boshqarilishi ham ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Lekin, boshqaruv tizimida ba'zi mansabdorlarning byudjetni ijro etishi va turli resurslarni taqsimlash va boshqaruv faoliyatida qonunlar bilan belgilanmagan turli ruhsatnomalar berish, tadbirkorlikni nazorat qilish kabi turli byurokratik vositalar paydo bo'ladiki, ular doimo jamiyatni rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan. SHuningdek, bu kabi holatlar ob'ektiv zarurat hisoblanmaydi. Ularning barchasi boshqaruv an'alaridan chiqarib tashlanishi zarur.

Umuman, fuqarolik jamiyatining yashashi va rivojlanishi uchun davlat organlari quyidagilarga amal qilishiga zarurat tug'iladi:

-qarorlar qabul qilishva ularni ijrosini amalga oshirishda u yoki bu ijtimoiy tizimlar bilan kelishib faoliyat ko'rsatishi shart ekanligi;


-davlat organlari vakolatlarini bir qismini nodavlat tashkilotlarga o'tkazish.


SHuningdek, davlat apparati funksiyalarini nodavlat tashkilotlarga o'tkazib borish bilan boshqaruv tizimi ham demokratiyalashib boradi. Masalan, Buyuk Britaniyada davlat organlari faqat nodavlat tashkilotlari bajara olmaydigan yoki bajarishni istamaydigan funksiyalarni bajaradi (ya'ni qoldiq prinsipiga amal qiladi).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: vertikal ierarxiya asosida boshqarish manbai insonlardan iborat bo'lgan zaruriy qadriyatlarni shakllaninishini izdan chiqarib turadi. SHuning uchun ham boshqaruvda davlat va jamiyatning rolini muvozanatlashtirish boshqaruvni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishi hisoblanmoqda.

SHuning uchun ham davlat boshqaruviga doir (ma'muriy) islohotlarni amalga oshirishning kafolati fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan uzviy ravishda bog'liqdir. CHunki, **inson taraqqiyotining** asosiy komponentlaridan biri, bu – inson taqdirini hal etish, uning huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga doir boshqaruv jarayonida uning o'zi bosh manfaatdor sifatida ishtirok etishi taqozo etiladi.

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ





3.1.-rasm. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy strukturasi

Ma'lumki, g'arbda ma'muriy islohotlar asosiga subsidiarlik³⁴ prinsipi qo'yilgan bo'lib, u asosan g'arbda rivojlangan quyidagi diniy qadriyatni dunyoviylik asosida hal etish bilan bog'liq bo'ldi: "SHaxsning o'z tashabbusi va kuchi bilan qiladigan narsalardan mahrum qilish va uni jamoatga taalluqli deyish mumkin emas. Xuddi shuningdek, qattaroq va yuqori darajadagi hamjamiyatning kichik va itoatkor hamjamiyat qilishi va oxiriga etkazishi mumkin bo'lgan ishga

³⁴ Субсидиар, субсидар битим [лат. subsidiarius захирадаги, кўмакчи, ёрдамчи] – асосий битимни тўлдирувчи битим, асосий мажбурият.

da'vogarlik qilishi ham xuddi yuqoridagidek, ijtimoiy tartibot uchun nihoyatda zararli bo'lgan nosog'lom muhitdir".³⁵

Hozirgi davrga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borishi bilan davlat boshqaruvini nomarakazlashtirish (detsentralizatsiyalash) uchun ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik shart-sharoitlar yaratiladi. Bu jarayon davlat boshqaruvini erkinlashtirish (liberallashtirish) va ma'muriy islohotlarning eng asosiy sharti hamdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgani sari mansabdorlar faoliyatini milliy manfaatlar, jamiyat baroqarorligi va xalq farovonligi asosida kechishi uchun shart-sharoitlar shakllanib boradi. Chunki, jamiyatning manfaatlari bilan shaxsning manfaatlari uyg'unlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning huquqlar ham manfaatlar asosida insoniy birliklarga uyushish va shu asosda hokimiyat organlarini nazorat qilish, ularda ishtirok etish mayllari shakllanib va o'sib bordi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida markaziy hokimiyatda milliy manfaatlar bilan bog'liq yirik vakolatlardan boshqasi mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga uzatiladi. Hududiy o'zini o'zi boshqarish organlari, o'z navbatida, fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi o'z zimmasiga olmagan yoki u rad etganidan boshqa vakolatlarni amalga oshira boshladi. Bu holatda konsensusga erishish prinsipiga asoslanildi. Bu prinsip ko'pincha ma'muriy shartnomalarda ifodalana boshlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda huquqiy davlatning paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati tushunchalarini talqin etishga ham kuchli ta'sir etdi. Jumladan, fuqarolik jamiyati tushunchasinikeng va tor ma'nolardaishlatish rusumga kirdi. Keng ma'nodagifuqarolikjamiyati - davlat va uning tizilmalari tomonidan jamiyatni egallab olmagan qismi, boshqacha aytganda, davlatningqo'lietmaganqismidir. Bu kabi jamiyat davlatga nisbatan avtonom, bevositaunga qarambo'lmagan qatlam sifatidarivojlandi. SHuningdek, fuqarolikjamiyati keng ma'nodafaqat demokratik qadriyatlarini muhitidagina emas, balkiavtoritarizm rejimida ham yashay oladi. Lekin, totalitarizmning paydo bo'lishi bilan fuqarolikjamiyati siyosiy hokimiyattomonidan butunlay «yutib» yuboriladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi tor ma'noda talqin etilganda, u huquqiy davlatningikkinchi tomoni bo'lib, ular bir-birlarisiz yashay olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiydavlat sharoitida davlattasarufida bo'lmaganerkin va teng huquqli individlarning o'zaromunosabatlaridagi plyuralizmdan tashkil topadi. Bunday sharoitlarda jamiyatsohalariga xususiy manfaatlar va individualizmning erkinmunosabatlari qamrab olinadi. Bu kabi jamiyatningshakllanishi,uning rivojlanishi individlarningerkinlikka intilishi, ularningdavlatga tobe bo'lgan fuqarolikdan erkin mulkdor fuqarolarga aylanishi, o'z shaxsiy hurmat-obro'sinihis qila borishi, xo'jalik va siyosiy mas'ullikni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi bilan bog'liqdir.

So'nggi yarim asr ichida tarixiy rivojlanish tajribalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy davlat unsurlari shakllanmasdan ilgari fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, huquqiy davlat qurish islohotlari fuqarolik jamiyati muhitidan oziqlanadi, davlat irodasi ham jamiyatdagi turli tuman manfaatlar va ehtiyojlar ifodalanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. SHuningdek, huquqiy davlat

³⁵ Каранг: Энциклики его святейшества Папы римского 1891, 1981, 1991 годов о труде и человеческой жизнедеятельности, нравственности и морали. — М.: Институт праксеологии, 1993.-С.21.

sharoitidagi erkin raqobatbardoshlik natijasidagina oʻrta qatlam - mulkdorlar qatlamini shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlaryaratiladi³⁶.

3. Fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalari va ularning oʻziga xos jihatlari

Jamiyatni rivojlantirish, huquqiy davlatga asos solish, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish, bozor iqtisodiyotiga oʻtish, davlat hokimiyati organlarini tizimini nomarkazlashtirish natijasida fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sayin sotsial strukturalar ham takomillashadi, uning yangidan-yangi funksiyalari paydo boʻladi. Fuqarolik jamiyati sharoitida sotsial strukturalarga tasnif berish ijtimoiy tuzilmasi toʻgʻrisidagi bilimlarni tahlil etishda unga doir kategoriyalar toʻgʻrisida tasavvurlarga ega boʻlish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun fuqarolik jamiyati klassik darajada rivojlangan Evropa namunasidagi fuqarolik jamiyati konsepsiyasining mohiyati nimada?, degan savolga javob berishga zarurat tugʻiladi.

Bu konsepsiyada fuqarolik jamiyatining muhim mezon sifatida erkin fuqarolik jamoalarning teng huquqli, avtonom va faol xatti-harakat qilayotgan individlarning mavjudligi yaqqol ajratib koʻrsatilgan. Fuqarolik jamiyati uchun eng muhim mohiyat kasb etuvchi jihatlari – bu alohida olingan individlar oʻz shaxsiy xohishlariga boʻysungan holda, «ijtimoiy manfaatlardan» mustaqil holda shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shunchaki oʻz oldiga qoʻyilgan maqsadlarga erishishga intilishni emas, balki oʻzining mavjud boʻlgan qonuniy manfaatlari va ehtiyojlarini chindan ham qondirishi hisoblanadi.

Bu soha, yaʼni «byurger» xususiy shaxs sifatida oʻzini oʻzi aniqlagan individuallik oʻz xohishlari va shaxsiy avtonomligini qondirishga qaratilgan oʻz talablarini ilgari surgan shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyatida oʻzaro taʼsir va bogʻlanishlar shuning uchun hamijtimoiy (sotsial) kenglik deyiladiki, ular xususiy individ sifatida sotsial aktorlardan ham mustaqil ajralgan holda ham faoliyat yuritishi mumkin.

Gʻarb namunasidagi fuqarolik jamiyatining strukturasi quyidagilardan iborat:

–jamiyatning asosiy birligi – siyosiy qaramlikdan holi boʻlgan, oʻz huquqlaridan foydalanishga qobil boʻlgan shaxs;

–turli tuman manfaatlarini ifodalash va amalga oshirish zaruriyati asosida shakllanadigan jamoat tashkilotlari va harakatlar;

–nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (xususiy mulk, mehnat, tadbirkorlik va hokazo);

–davlatdan mustaqil boʻlgan ishlab chiqaruvchilar (xususiy firmalar va boshqalar);

–jamoat birlashmalari va tashkilotlari;

–saylovchilar uyushmalari, turli klublar va toʻgaraklar;

–munitsipal, yaʼni oʻzini oʻzi boshqarish organlari;

–taʼlim va tarbiyaning nodavlatsohasi;

–nodavlat ommaviy axborot vositalari;

–siyosiy partiyalar, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari atrofidagi davlat bilan fuqarolik jamiyatini (bogʻlovchi boʻgʻin» sifatidagi) turli lobbi tashkilotlari;

–tadbirkorlar, fermerlar tashkilotlari, kasaba, isteʼmolchilar uyushmalari, ilmiy va madaniy tashkilotlar, sport jamiyatlari va boshqalar.

–oila;

–diniy tashkilotlar va boshq. (3.1.-rasm).

Sotsial struktura ichidagi fuqarolik jamiyatining asosi - davlat va siyosiy tashkilotlarning barqarorligiga zaruriyat sezadigan oʻrta sinf hisoblanadi. «Oʻrta sinf»ning vakillari yuqori darajada sotsial va iqtisodiy mustaqillikka ega boʻladi. Aristoteldan boshlab Russo va Gegelgacha boʻlgan barcha mutafakkirlar xususiy mulkni mustaqil fuqarolar yaratishdagi oʻmini eʼtirof etgan.

SHuningdek, qator tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatini rivojlanishini quyidagi isbot talab qilmaydigan jihatlarni ajratib koʻrsatdi:

–fuqarolik jamiyati davlatgacha yoki davlatdan tashqarida mavjud boʻlmaydi;

³⁶ Қаранг: Основы политической науки. Часть I. Под ред. В.П.Пугачева.-М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –Б.219-221.

–ayni davlat, qaysiki fuqarolik jamiyati uning chegarasi ichida mavjud bo‘ladigan davlat fuqarolarning farovonligi va ularning alohida maqsadlariga (agar bu maqsadlar qonunga xilof bo‘lmasa) mansub jihatlarni himoya qiladi;

–fuqarolik jamiyati davlatdan fuqarolarning hayotini, sog‘lig‘ini, xavfsizligini va boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishga haqlidir;

–bir tomondan moddiy mo‘l-ko‘lchilikda yashayotgan, ikkinchi tomondan muhtojlikda turmush kechirayotgan o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatuvchi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish majburiyati davlat zimmasiga klanadi;

–davlat o‘zining tashqi siyosati va mudofaa qudrati bilan fuqarolik jamiyatini yashashini ta‘minlaydi.

Hozirgi davrda jamiyatshunos olimlar tomonidan fuqarolik jamiyatini strukturalashning uchta asosiy yondashuvini ilgari surdi: institutsional, tizimli va sektorli. Ularni ichida institutsional yondashuv kengroq tarqaldi. Bu yondashuv asosi sifatida tarixiy rivojlanish jarayonidamodamlarning sotsial xatti-harakatlari va sotsial aloqalarini muvofiqlashtirish maqsadi zaruriyati sifatida paydo bo‘lgan ijtimoiy hayot birligi (uyushmasi) sifatida shakllangan «sotsial institut» tushunchasi qabul qilingan. Bu tavsifga tayangan holda, institut sifatida ham bir butun holdagi fuqarolik jamiyatini, ham uni tarkibiy qismlarini alohida-alohida tarzda ko‘rib chiqish mumkin. Bunda fuqarolik jamiyati bozor munosabatlari asoslari, demokratik davlat, asosan – davlatdan mustaqil ravishda yashash (avvalambor, moliyaviy) manbalari mavjud bo‘lgan sotsial sinflar va qatlamlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fuqarolik institutlarbir butun jamiyatga mansub bo‘lgan, uning biron-bir qismi yoki tizim ostiga taalluqli bo‘lmagan, balki uning rivojlanishining muayyan bosqichida turishi bilan ifodalanadigan institutlardir.³⁷

Institutsional yondashuvning muhim tomoni shundaki, u fuqarolik jamiyatining u yoki bu manfaatlarini amalga oshirayotgan alohida olingan omillarini ajratish va tavsiflash imkonini beradi.

SHuningdek, fuqarolik jamiyatini strukturalashning tizimli yondashuvi ham o‘zining qator afzalliklariga egadir. SHuning uchun ham turli jamiyatga doir adabiyotlarda ko‘pincha «struktura» tushunchasi «tizim» sinonimii sifatida ishlatiladi.³⁸ Bu kabi nuqtai nazardan kelib chiqilsa, har bir mamlakatdagi fuqarolik jamiyati quyidagi tizimiy belgilarga ega bo‘ladi: u biron-bir sotsiallik turiga mansub (keng ma‘noda) bo‘lib, boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarga bo‘linish, muayyan darajadagi suverenlik, ierarxialik, barqarorlik, rivojlanib va o‘zgarib borish, ochiqlik, turli moslashuvlar, organik birlik (yaxlitlik) vadifferensiyalashish³⁹ kabi sifatlarga ega bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati o‘z ichiga qator ostki tizimlarni oladi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy. Bu ostki tizimlarning funksiyalaridan kelib chiqib ularning har biri doirasida alohida-alohida ravishda shakllanadigan fuqarolik jamiyatining uyushmalarini strukturalash mumkin.

SHuningdek, fuqarolik jamiyati strukturasini uch sektorlik nazariya asosida ham ko‘rib chiqish mumkin (3.2.-rasm). Uning muhim jihati - bu fuqarolik jamiyatini gorizontal tekislikda (uch sektorga bo‘lingan holda), shu bilan birga, uni vertikal, ya‘ni ijtimoiy tizimdagi holatini yaxlit tarzda tahlil qilish mumkinligidadir. Gorizontal bo‘lish deganda faoliyatlari ustuvorligidan kelib chiqib jamiyatni uchta teng huquqli sektorlarga bo‘lish tushuniladi. Dastlabki ikki sektor davlat va siyosiy institutlar va ishbilarmon xususiy tashkilotlar va korxonalar. Hozirgi davrda uchinchi – foyda olishni ko‘zlamaydigan sektor ham paydo bo‘ldi. Bu sektor aholining o‘z oldiga shaxsiy daromad olishni qo‘ymaydigan guruhlari va tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Uchinchi sektorga oila bilan hukumat va foyda keltiruvchi biznes vakillaridan iborat sektor o‘rtasida rivojlangan faollashuv sektori sifatida qaraladi. Bu qarashlarga muvofiq vertikal ravishda bo‘linishda uchta daraja –faoliyatga oid bo‘lgan fuqarolik faolliigi (xususan, fuqarolik jamiyati) vanofuqaroviy hamjamiyat (jinoiylikka taalluqli bo‘lgan) darajalari mavjudligini ifodalaydi.

Faoliyatga oid daraja o‘z ichiga siyosiy institut sifatida davlat, iqtisodiy va biznes-strukturalar, foyda olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar doirasida amalga oshadigan barcha yuridik jihatdan rasmiylashgan aloqalar va munosabatlarni oladi. Nofuqarolik jamiyati – bu barcha uchta sektordagi norasmiy (yashirin) va jinoiy faoliyatga moyil guruhlardir. Bu darajalar orasiga jamiyat faoliyati sohasining o‘rta holati sifatida, bir

³⁷ Резник, Ю.М. Формирование институтов гражданского общества (социоинженерный подход) / Ю.М. Резник // Социс. – 1994. – №10. – С. 21 – 30.

³⁸ Карташов, В.Н. Гражданское общество как система (социально-правовой аспект) / В.Н. Карташов // Вестник Ярославского государственного университета им. П.Г. Демидова.–2009.–№1.–С. 37-43.

³⁹ Дифференциация [фр. differentiation < лот. differentia фарк қилиш, тафовут] - 1)бир бутуннинг турли қисмлар, шакллар ва даражаларга бўлиниши, ажрალიши, парчаланиши.

tomondan, huquqiy maydon doirasida, ikkinchi tomondan, davlat tomonidan muvofiqlashtirilmaydigan fuqarolik jamiyati joylashadi.

Albatta, fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalarini o'rganishda uchchala yondashuvning har biriga ehtiyoj seziladi. Fuqarolik jamiyatida ishtirok etayotgan har qanday omil institutlashadi, o'zining ustuvor maqsadlariga bog'liq holda sektorlarga bo'linadi, o'ziga xos muayyan muhitda faoliyat yuritadi. Ularning hammasini bir doiraga jamlanishi ostki tizimlarga bo'linadigan fuqarolik jamiyatini tashkil etadi.

Aksariyat jamiyatshunos olimlarning fikricha, fuqarolik jamiyatining strukturalari quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

–sotsiallik (sotsial manfaatlar va intilishlarni artikulyasiya qilish, odamlar va buyumlar o'rtasidagi emas, balki, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va aloqalar;

Sektor Daraja	I sektor	II sektor	III sektor
Faoliyatga oid	Davlat	Iqtisodiyot, xususiy biznes	NNTlar faoliyati
Fuqarolik jamiyati	Siyosiy uyushmalar (partiyalar, harakatlar)	Iqtisodiy uyushmalar (kasaba uyushmalari, biznes-uyushmalar)	Uchinchi sektor uyushmalari (NNT)
Nofuqarolik jamiyati	YAshirin guruhlar	Uyushgan jinoyatchilik	Tajovuzkor sektlar

3.2.-rasm Fuqarolik jamiyati strukturasini uch sektorlik tizimi

–davlatdan ayro bo'lgan o'zini o'zi boshqarish (avtonomlik);

–fuqaroviylilik (sivilizatsiyaga erishganlik, ya'ni butun bir jamiyat va boshqalarning manfaatlarini e'tiborga olish qobiliyatiga ega bo'lish, huquqiy doira ichida xatti-harakat qilish);

–ishtirok va aloqalarning ixtiyoriyligi (vertikal aloqalar ustidan gorizont alqalarning ustunligi).

Agar mazkur yondashuvga asoslanilsa, unda fuqarolik jamiyatining strukturalariga ixtiyoriy notijorat tashkilotlar (xayriya, huquqni himoya qilish, volontyor⁴⁰ va boshq.), ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga doir guruhlar (kasaba uyushmalari, tadbirkorlik, fermerlar, ayollar, yoshlar nodavlat tashkilotlari) yoki biror maqsadga qaratilgan (madaniy, sport) tashkilotlar, shuningdek sotsial harakatlar (ekologik, urushga qarshi va boshq.) tegishli ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi berilgan tavsiflarga muvofiq va mos keladigan ba'zi nodavlat tashkilotlar bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi chegara, demak ular doirasida harakat qilayotgan tashkilotlar o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib ketdi.

SHundan kelib chiqib, faoliyatlari fuqarolik jamiyati uchun g'oyatda muhim bo'lgan siyosiy partiyalar, biznes-hamjamiyatlar, ommaviy axborot vositalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish kabilarni jamiyatdagi o'rmini tavsiflash maqsadida chegaraviy, yoki gibrid⁴¹ shaklidagi tushunchalar taklif qilindi. Ana shunday chegaraviy sohaga «quyidagi» manfaatlarni ifodalovchi, fuqarolik jamiyati tizimida oraliq joyini egallovchi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tegishlidir.

⁴⁰Волонтер [фр. volontaire] — ўз хохиши билан бирон-бир жараёнда иштирок этувчи шахс; (баъзи давлатларда, масалан Буюк Британия, Франция, Италия ва бoshқ. ҳарбий хизматта ихтиёрний равишда кириш).

⁴¹Гибрид [лот. hibridaj] – бир неча уруғларни бирлаштирган ҳолда олинадиган насл; ижтимоий фанларда турли тушунчалар асосида битта тушунчани тавсифлашга нисбатан ҳам ишлатилади.

Fuqarolik jamiyatini siyosatdanbutunlay yiroq turadigan munosabatlar va institutlar tizimi sifatida tavsiflamaslik lozim. Bu jamiyatning genezisi⁴² va tabiati turli tuman manfaatlarni davlat siyosatini belgilash jarayonida jamiyatdagi fuqarolar irodasi sifatida ifodalashi uchun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni etarli darajada tizimning tarkibiy qismlariga aylantira oladi. Bu tizim doirasida turlicha jamoat tashkilotlari, harakatlar, siyosiy partiyalar (idora etuvchi partiyadan tashqarilari), diniy tashkilotlar, iqtisodiy uyushma va birlashmalar, va nihoyat, insonning o'zi shaxs sifatida o'zining oilaviy, kasbiy, xizmat ko'rsatishga oid va boshqa turli tuman manfaatlari hamda ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi.

Yangi ijtimoiy individlar – teng fuqarolik huquqlariga va o'zlariga xos fuqarolik sifatlariga ega bo'lgan fuqarolar paydo bo'lmasdan turib fuqarolik jamiyatining yashashi, uning shakllanishiga erishib bo'lmaydi. Inson qachonki yuksak axloqiy fazilatlar, demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan ilg'or dunyoqarash, shaxsiy qadr-qimmati, mustaqilligi va individualligini boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish bilan muvozanatda qadrlash, qonunlar va umuminsoniy jamiyat hayoti qoidalariga amal qilish kabilarni o'z hayot tarziga aylantirganidagina fuqarolik darajasiga erishadi. Fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan yangi avlodga mansub bo'lgan shaxs jamoat tashkilotlari va ijtimoiy institutlar bilan bo'lakcha o'zaro munosabatlarda bo'ladi. Etarli darajada rivojlangan fuqarolik jamiyati yangi individlar nafaqat jamoaga qorishib va birikib ketadi, balki o'zining shaxsiy individualligini namoyon qila oladi, yuksak ma'naviy qarashlarga ega bo'ladi. Bunday holatga erishish faqat odamlarning ruhiyati va dunyoqarashini tubdan o'zgartirganida, ularning iqtisodiy va sotsial maqomini yangi jamiyatga xos tarzda o'zgartirganidagina ro'y beradi.⁴³

Fuqarolik jamiyati tarixiy rivojlanishning tadrijiy yo'li hosilasi sifatida asta-sekinlik bilan rivojlanadi. Bu kabi jamiyatning shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlar bo'lishiga zaruriyat tug'iladi:

-fuqarolik jamiyati ikki xil yo'l bilan – davlat yordamida (vositasida) yoki mustaqil ravishda shakllanishi mumkin. Mazkur jamiyatning davlat yordamida shakllanishi – bu jamiyatni shakllantirishga doir muayyan qonunlarni ishlab chiqilishi, demokratik strukturalarni rivojlantirish, davlat tomonidan umum qabul qilingan me'yorlarga qat'iy amal qilish. Mustaqil ravishda shakllanish– bu o'rta mulkdorlar qatlamining jamiyatdagi hissasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganida, fuqarolar huquqiy madaniyati demokratik prinsiplar talablari darajasiga ko'tarilganida, erkin fikrlaylaydigan fuqarolarning jamiyatga ta'siri sezilarli darajaga ko'tarilganida fuqarolik jamiyati tadrijiy yo'l bilan shakllanishi mumkin;

-fuqarolarning ko'pchilik qismini o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi, uni turli shakllar va huquqlar doirasida mustaqil ravishda tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi, shuningdek mulkdorlar qatlamini mustaqil ijtimoiy birlik sifatida rivojlanishi natijasida fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlar tug'ilishi mumkin. G'arb tadqiqotchilarining fikricha, xususiy mulkning mavjudligi fuqarolik jamiyati sharoitida shaxsning erkinligini tayanch (bazaviy) sharti hisoblanadi;

-fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun jamiyatda rivojlangan va turli tuman sotsial strukturalar etilgan bo'lishi lozim. Bu strukturalar jamiyatdagi barcha fuqarolar ijtimoiy qatlamlari, guruhlari vakillarining turlicha manfaatlarini o'zida ifodalaydi;

-shaxsning sotsial, intellektual, psixologik jihatlardan rivojlanganligi, uning mustaqil faoliyat yuritish uchun ichki erkinligi va qobiliyatini shakllanganligi.⁴⁴

Hozirgi davrdagi gumanitar-ijtimoiy fanlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida fuqarolik jamiyati murakkab, ko'p darajali aloqalar va strukturalar tizimi sifatida talqin etilmoqda. U o'z ichiga barcha davlat faoliyati doirasidan tashqarida rivojlanadigan shaxslararo munosabatlarnioladi.

Birinchi daraja. Fuqarolik jamiyatidagi shaxslararo munosabatlarning mazkur darajasi – bu individlarning turmush kechirishni ta'minlovchi tayanch (birlamchi), ya'ni oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy kabilarga nisbatan paydo bo'ladigan ehtiyojlardir. Bu ehtiyojlar kasbiy, iste'molchilar va boshqa uyushmalar (masalan, xususiy korxonalar, aksionerlik jamiyatlari, vrachlar, quruvchilar, hunarmandlar birlashmalari va boshq.) kabi ijtimoiy institutlar vositasida amalga oshiriladi;

Ikkinchi daraja. Bunda umrni uzaytirish bilan bog'liq bo'lgan, sihat-salomatlik, bolalar tarbiyasi, ma'naviy-madaniy yuksalish, axborot, muloqotlar kabilarga doir ehtiyojlardan kelib chiqadigan shaxslararo

⁴²Генезис [гр. genesis] – келиб чиқиш, пайдо бўлиш; ривожланаётган ҳодисанинг тузилиш ва шаклланиш жараёни.

⁴³Головистикова, А.Н. Проблемы теории государства и права: учебник/А.Н. Головистикова, Ю.А. Дмитриев. -М.: Эксмо, 2005. –С.124.

⁴⁴Гражданское общество в структуре социального государства и как инструмент управления государством //http://studopedia.su/2_35359_grazhdanskoe-obshchestvo-v-strukture-sotsialnogo-gosudarstva.html.

munosabatlar. Bu munosabatlar ma'naviy, etnik, diniy, oila-nikoh va boshqa shakllardagi o'zaro aloqlarni o'z ichiga olgan sotsiomadaniy majmuani tashkil etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar oila, ta'lim, ilmiy, ijodiy, sport uyushmalari, diniy maskanlar, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari kabi institutlar vositasida qondiriladi.

Uchinchi daraja. Bunda ijtimoiy-siyosiy ishtirok ehtiyojlari nazarla tutiladi. Mazkur darajada shaxslararo munosabatlar o'zi afzal deb bilgan siyosiy qarash va qadriyatlarga ega bo'lish asosidagi individual tanlov bilan bog'liqdir. Mazkur daraja individa aniq siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazarlar shakllanishini talab etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar siyosiy partiyalar, harakatlar va boshqa uyushmalar vositasida qondiriladi.

SHuningdek, jamiyatshunos olimlar fuqarolik jamiyatining uchta asosiy sohalaridagi strukturalarini bir-biridan ajratib, ularni quyidagicha ifodalaydi: iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyatining struktusi quyidagilardir: iqtisodiy faollikning individual shakllari; jamoaviy xo'jaliklar, kooperativlar, xususiy korxonalar va aksionerlik jamiyatlari (sanoat, savdo, moliyaviy sohalarda); tarmoqlar bo'yicha birlashmalar va uyushmalar (tadbirkorlar, fermerlar, sanoatchilar, banklar, neftchilar kabilar birlashmalari). Bu korxonalar va tashkilotlar fuqarolarning o'z tashabbuslari bilan tuziladi. Ular bilan bir qatorda davlatning unitar korxonalari ham faoliyat yuritishi mumkin. Raqobatchilik aloqalari va manfaatlarni intergatsiya qilish masalalari erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari bilan hal etiladi.

Fuqarolik jamiyatining **ijtimoiy-siyosiy sohasi** o'z ichiga quyidagilarni oladi: fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining turli shakllari (majlislar, namoyishlar va boshq.); ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar va harakatlar (kasaba uyushmalari, kam ta'minlangan qatlamlarlarga yordam uyushtirish jamiyati, nogironlar jamiyati, partiyalar va boshq.); o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat ommaviy axborot vositalari. Ularning an'anaviy strukturaviy unsurlari: oila, sotsial guruhlar va birliklar. Bu mohada ijtimoiy fikrni shakllantirish va ifodalash, umum qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarni joriy etish, sotsial ixtiloflarni kelishtirish, sotsial birliklarni o'zini o'zi tashkillashtirishni rag'batlantirish, fuqarolar hamkorligi asosida o'zaro yordamlar uyushtirish.


Fuqarolik jamiyatining **ma'naviy sohasi** bevosita odamlarning ma'naviy-axloqiy jihatlardan rivojlanishi, ularning ilmiy va badiiy ijodiyoti, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bu sohadagi fuqarolik jamiyatining unsuri - bu so'z va vijdon erkinligidir. Ularni amalga oshirish alohida olingan shaxslarning o'z e'tiqodlarini himoya qilish, o'z fikrini oshkora ayta olish, o'z shaxsiy g'oya va konsepsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lish, ijodiy tashabbuskorlik va o'zini o'zi rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ifodalaydi. Bu soha o'z ichiga mustaqil faoliyat yuritadigan ijodiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy va boshqa uyushmalar, birlashmalar va tashkilotlarni oladi (masalan, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, uyushmalari, ilmiy hamjamiyatlar, madaniy va ma'rifiy tashkilotlar, diniy maskanlar va boshq. (3.3.-rasm).


Fuqarolik jamiyati strukturasi o'zida jamiyatni sotsial-tabaqaviy jihatdan bo'lishni aks ettirsa ham u aslida jamiyat (suveren va mustaqil) sub'ektlarining erkin o'zaro ta'siri hamda bog'lanishlari natijasi o'laroq shakllanadi. Fuqarolik jamiyati manfaatlar muvozanatiga asoslanganligini uchun ham uni strukturalarini tavsiflashda asosiy ahamiyat kishilarni turli birliklarga birlashtirish va ularning a'zolik tabiatini ochib beradigan uyushfunkSIONALTahlilga qaratiladi. Bu xulosalardan yana bir muhim holat kelib chiqadi. Fuqarolik jamiyatining strukturasi o'zida gorizontallik tabiatinikasb etadi. Unda davlatdan farq qilib, vertikal aloqalar (bo'ysunish) emas, balki gorizontalar munosabatlar ustunlik qiladi. Fuqarolik jamiyatida erkin va yuridik jihatdanteng huquqli hamkorlarning o'zaro munosabatlari (raqobat, qarama-qarshilik, hamkorlik, birdamlik) shakllanadi. Fuqarolik jamiyatining strukturalari o'zini o'zi tashkil etuvchi, o'zini o'zi boshqaruvchi sifatidadagi teng huquqli sub'ektlar (hamkorlar, o'zaro nartnoma tuzuvchilar) va ixtiyoriy hamda erkin istak bildirishlar natijasida paydo bo'ladi.

SHu tariqa, fuqarolik jamiyati faqat tizimli sifat kasb etganidagina o'zining sotsial harakatchanligiga va etukligiga erishadi, deb xulosa qilish mumkin. Bu tizimlilik ierarxik emas, balki muvofiqlashtirish tarzini kasb etadi. Bunda barcha sotsial birliklar (manfaatlarni ifodalash asosida tashkil topgan guruhlar) bir-birlariga bo'ysunmaydi, balki o'zaro aloqalar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolik jamiyatining boshlang'ich mezonlari - bu manfaatlar, huquq va shaxs erkinligidir. Erkinlik va adolat fuqarolik jamiyati sharoitida odamlar faoliyatini yo'lga qo'ygan holdasotsial omillik kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati davlat tomonidan himoya qilinadigan barqaror huquqiy me'yorlarsiz yashay olmaydi. Fuqarolarning asosiy shaxsiy huquq va erkinliklariga quyidagilar kiradi: o'z sha'ni va qadr-

qimmatini himoya qilish; o'zining qaysi millatga mansubligini o'zi aniqlash huquqi; shaxsiy va oilaviy sirlarni saqlash huquqi; hayot kechirish huquqi; vijdon erkinligi huquqi; fuqarolarning uy-joyi va shaxsiy hayoti, daxlsizligi, yozishmalarini sir saqlanishi; suda himoyalanish huquqi, davlat organlari va mansabdor shaxslar xatti-harakati ustidan shikoyat qilish huquqi; qaerda bo'lish va yashashni tanlash, erkin ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi; qaysi tilda so'zlashishni erkin ravishda tanlash huquqi; axborot olish huquqi va boshq.





3.3.-rasm. Fuqarolik jamiyatining strukturalari

Fuqarolik jamiyati va uning strukturalari tavsifining yana biri – ularning funktsionallik tabiatini kasb etishidir. Bu fuqarolik jamiyatining amal qilishi nafaqat xususiy manfaatlarni amalga oshirish uchun muayyan kengliklarni tashkil etish, balki jamiyatni oʻzini oʻzi tashkillashtirishi va oʻzini oʻzi muvofiqlashtirishining yuqori darajasiga erishishdir. Va nihoyat, zamonaviy fuqarolik jamiyati qadriyatlariga ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni oʻzaro uygʻunlikda biriktira olish ham taalluqlidir. Agar bu kabi uygʻun birikuvga erishilmasa, u holda davlat va fuqarolik jamiyati oʻrtasida uzilishlar sodir boʻlishi mumkin.⁴⁵

6. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillar.

XXI arafasiga kelib rivojlangan mamlakatlar jamiyatining sotsial strukturasi sifatida sotsioiktisodiy, siyosiy, xulqiy va boshqa belgilari bilan oʻzaro farqlanadigan guruhlar va qatlamlar yanada koʻpaydi. Bu davrga kelib sinflar, stratalar, sotsial qatlamlar strukturasi va oʻzaro aloqalari xususiyatlarida jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi: ichki sinfiy farqlanish jarayonlari faollashdi, sotsial birliklarning harakatchanligi (mobilligi) kuchaydi, yangi qatlamlararo guruhlar shakllandi.

SHuningdek, gʻarbiy mamlakatlarda bozor munosabatlarini sotsial birliklar determinanti sifatida talqin etadigan konsepsiyalar keng tarqaldi. Ayniqsa, ingliz jamiyatshunos olimi A.Giddens ilgari surgan konsepsiyada bu kabi nazariy jihatlar keng yoyildi. Bu konsepsiyaga binoan, sinflar moddiy resurslarga egalik qilish va ularni nazorat etishdagi tengsizliklar sababli paydo boʻladi, sinfiy mansublikning asosiy koʻrsatkichi individ va guruhlarning imkoniyatlarini aniqlash ularning egallagan mulki, kasbiy salohiyati, bilimi va texnikaviy saviyasi, shuningdek jismoniy ishchi kuchi kabi koʻrsatkichlar asosida ifodalandi. Unga muvofiq tarzda gʻarb jamiyatlari uchta sinfga boʻlish rusumga kirdi: yuqori, oʻrta, pastki.

⁴⁵ Зарубежные и отечественные теории гражданского общества/<http://superinf.ru>.



Rasm 3.4. Industrial jamiyatning sotsial strukturasi

Ana shu tasniflash asosida oliy sinfnitahlil etishga misol tariqasida AQSH jamiyatini keltirish mumkin: o'tgan o'n yilliklardayuqori qatlamning tezlik bilan boyib borganligi kuzatildi. 200 mingdan 400 mingacha odamni tashkil etgan (AQSH aholisining 0,1-0,2 %) 10 mln. dollardan kam bo'lmagan mulkka ega bo'lib, yiliga bir necha mln. dollar daromad oladi. Taxminan 200 mingta yuqori sinf vakillari 5 dan 10 mln. dollargacha, yana 300 mingtasi esa 2 mln.dan 5 mln. dollargacha yillik daromadga ega bo'ladi.

AQSHda taxminan 1,5 mln.ga yaqin NNT faoliyat yuritadi. NNT jamiyatning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, ular tashqi siyosat, saylovlar, atrof-muhitni himoya qilish, sog'liqni saqlash, ayollar huquqi, iqtisodiy rivojlanish, yoshlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish kabi yo'nalishlarda aholining manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etadi va himoya qiladi. SHuningdek, NNT siyosat bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, diniy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari – qashshoqlar, ruhiy kasallar, yoshlar kabilarga yordam berish faoliyati bilan shug'ullanadi. AQSHdagi NNT faoliyati xususiy shaxslar, xususiy sektordagi tijorat kompaniyalari, xayriya jamg'armalari, a'zolik badallari yoki federal va mahalliy hokimiyat organlari (grantlar) kabilar tomonidan moliyalashtiriladi.⁴⁶

Fuqarolik jamiyatiga nisbatan amerikanacha yondashuv bu sohadagi eng mashhur va keng tanilgan – Merilend shtatidagi Baltimor shahriga joylashgan Jon Xopkins universitetining «The Comparative Nonprofit Sector Project» loyihasida yaqqol ko'ga tashlanadi. Bu loyihadan kelib chiqib NNTning faoliyat turlari 12 ta yo'nalish bo'yicha belgilandi: 1) madaniyat va dam olish; 2)ta'lim va tadqiqot; 3)sog'liqni saqlash; 4)sotsial xizmatlar; 5) atrof-muhitni himoya qilish; 6) lokal hamjamiyatlarni rivojlantirish; 7) inson huquqlarini himoya qilish; 8) filantroplar⁴⁷ uchun vositachilik qilish; 9) xalqaro; 10) diniy; 11) kasbiy, uyushmalar biznes iva kasaba uyushmalari; 12) boshqa yo'nalishlar.

Mazkur loyiha mezonlari doirasida 35 ta mamlakatda (16 ta rivojlangan, 14 ta rivojlanayotgan, 5 o'tish davri iqtisodiyotini o'z boshidan kechirayotgan) NNTning strukturasi, hajmi, ular faoliyatidagi muammolar va natijalarga doir tadqiqotlar olib borilib, ularning yakunlari natijasi o'laroq quyidagilar aniqlandi: Bu mamlakatlarda YAIMdagi uchinchi sektor hissasi 1,3 trl. yoki YAIMlar yig'indisini 5,5 % ini tashkil etgan. NNTda deyarli 40 mln. odam (shundan 20 mln. kishi ish haqi olib ishlagan) faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 35 ta mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil etgan.⁴⁸

Hozirgi davrga kelib yuqori sinf murakkab ichki strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi: u mulk tashkiliy shakllariga bog'liq holda toifalashgan guruhlardan iborat ekanligi; qo'shimcha kapital o'lchami va sohasi; kasbiy faoliyatining (oliy darajali menejerlar, siyosatchilar,

⁴⁶ История НКО в США Блог посольства США в Москве <http://embassy-voices.livejournal.com/19048.html>.

⁴⁷ Филантроп [юнон. philanthropes] – филантропия билан шугулланувчи, хайр-эхсон қилувчи шахс.

⁴⁸ Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru"// http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.

boshqaruvchilar) turi; turmush tarzining xususiyatlari; siyosiy maqsadi va yoʻnalishi; etnik, hududiy, demografik va boshqa belgilari.

Postindustrial mamlakatlar yuqori sinfi sotsial tarkibidagi oʻzgarishlar quyidagilar bilan birga sodir boʻlmoqda:

-yirik mulkdorlarning jamiyatda tutgan oʻrni yanada mustahkamlashmoqla;

-bir tomondan, yollanma xodim, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari egasi sifatida faoliyat yuritayotgan oliy darajali xodimlar va menejerlar rolining jiddiy ravishda oʻsib borishi;

-yuqori sinf vakillarining katta siyosatda faolligini oʻsib borayotganligi, ularning siyosiy maqsadlar uchun moliyaviy xarajatlarini oshib borishi.

Bu sinfning miqdorini faqat taxminan chamalab aytish mumkin: bu koʻrsatkich iqtisodiy faol aholining taxminan 3-4 foizini tashkil etadi.

Mashhur tarixchi Arnold Toyinbining fikricha, zamonaviy sivilizatsiya – bu oʻrta sinf sivilizatsiyasi. Rivojlangan mamlakatlar jamiyati strukturasi oʻrta sinfning hissasi 60-70 foizni tashkil etadi. Turli ilmiy maktablar oʻrta sinfni sotsial birlik sifatida ajratib koʻrsatish uchun turli mezonlardan foydalanadi. Koʻpincha maqomning oʻzini oʻzi baholashi va daromad mezon sifatida qoʻllaniladi. Gʻarb jamiyatlarining uchdan ikki qismi oʻrta sinfga yaqin daromad oladi, kambagʻallar va boylar unchalik koʻp emas, deb hisoblashlar keng tarqaldi. Yana aksariyat tahlilchilar hozirgi oʻrta sinf ishlab chiqarish vositalariga mayda mulkiy egalik qiluvchilardan iborat degan fikrni bildiradi. Bu kabi mayda ishbilarmonlar – “eski oʻrta sinf” deb ataluvchi AQSH fermerlari va Buyuk Britaniya savdo-sotiq korchalonlari 10-15 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlardagi “yangi oʻrta sinf” yoki “menejerlar va mutaxassislar sinfi” deb ataluvchi sotsial birlik 20-25 foizni tashkil etib, ularning aksariyat qismi oliy maʼlumotli mutaxassislar, aqliy mehnat xodimlari, erkin kasblar vakillaridan iboratdir. Agar asosiy mezon mehnatning turi sifatida qoʻllanilsa, u holda oʻrta sinfga “oq yoqaliklar”, yaʼni oliy maʼlumotga ega boʻlmagan (“pastki oʻrta sinf”) xodimlar ham mansub boʻladi. SHuningdek, oʻrta qatlamlarni bozor munosabatlari va mehnat turidan kelib chiqib aniqlashdan tashqari madaniy va qadriyatli yoʻnalganligi asosida aniqlash usuli ham keng qoʻllaniladi (3.4.-rasm gʻarbiy Evropadagi umumiy holatni ifodalaydi).

Oʻrta qatlamlar jamiyatning farovon yashashi uchun zarur boʻlgan barcha ehtiyojlarni qondiradi: ishchi oʻrinlari, isteʼmol mollari, tibiiy yordam, ilmiy kashfiyotlar va boshq. Jamiyatshunos olimlarning fikricha, oʻrta qatlamlar – sinflar-muholiflar oʻzaro ixtiloflarini yumshatuvchi omil sifatida ham namoyon boʻladi. Sotsial-iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, oʻrta sinfga turli kasblar mehnati ichidagi, shahar bilan qishloq turmush tarlaridagi oʻzaro ziddiyatlarni kamaytirish tamoyili xosdir. Oila munosabatlarida oʻrta sinf jamiyatning ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishida, anʼanaviy oilalar qadriyatlarini yoyuvchi omil sifatida namoyon boʻladi. Siyosiy jihatdan oʻrta qatlamlar anʼanalari, meʼyorlar, bilimlarni tashuvchi, yuksak fuqarolik va mustaqil shaxslikni namoyish qiluvchi markazga oid (sentrik) harakatlarning ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.⁴⁹

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasi oʻrta qatlamning asosiy oʻrinni egallashi, pastki qatlamlar oʻrtasida onda-sonda ijtimoiy-siyosiy tanglikning oʻsishiga qaramasdan, jamiyatni barqaror ravishda yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu kabi tangliklar koʻpchilikning (oʻrta sinfning) betaraf vaziyatda turishi natijasi oʻlaroq yumshatiladi. Eng muhimi – bu **oʻrta sinfning fuqarolik jamiyatining tayanchi**, demokratiya va oʻzgarishlarning siyosiy asosi sifatida namoyon boʻlishidir. SHu bilan birga, oʻrta sinf yuqorining taʼsiri va pastdan boʻladigan bosim ostida - “ikki qavatli parda” oʻrtasidagi ziddiyatli vaziyatda turgani uchun ham turli ziddiyatli ijtimoiy keskinlar yumshatiladi.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturalaridagi sezilarli oʻzgarishlardan biri – bu mehnat qilayotgan aholining real daromadlarini oʻsib borishi hisoblanadi. SHu bilan birga, daromadlarning taqsimlanishi tengsizlik asosida roʻy beradi. Eng oy 20 foiz va eng kambagʻal qatlamlari daromadlarining oʻzaro nisbati AQSHda 12:1, Fransiyada 9:1, Buyuk Britaniyada 8:1, GFR, SHvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 5:1, YAponiyada 4:1 kabi tengsizliklarni ifodalaydi.

⁴⁹Каранг: Гражданское общество: понятие, структура, функции / <http://geum.ru/book/133/532.html>.

Industrial rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu struktura tarkibiga turli tuman guruhlar va qatlamlar kirib, ular qator ko'rsatkichlar bo'yicha bir-birlaridan farqlanadi. Hozirgi davrdagi bu ko'rsatkichlarni va sinflarning o'zaro chegaralarini aniqlash uchun sotsial stratifikatsiyaning har xil mezonlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilardir: mehnatning ijtimoiy taqsimoti tizimidagi ahvoli, oladigan daromadining hajmi va yo'llari, kasbiy funksiyasining xususiyatlari, hayot kechirish uslubining xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi va boshqalar.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlarining sotsial toifalashuvi quyidagilar bilan tavsiflanadi: bir necha sinflarni belgilarini o'zida ifodalaydigan ko'p sonli guruhlarni paydo bo'lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarni faollashuvi; struktura unsurlari harakatchanligini o'sishi; moddiy hayot darajasining oshib borishi. Bu jaranlar ko'p jihatlardan rivojlangan mamlakatlarni barqaror rivojlanishi va **fuqarolik jamiyati** g'oyalari yanada chuqurlashuvi uchun imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrdagi rivojlangan mamlakatlarning asosiy strategik vazifasi – turli sotsial guruhlarning manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirish yo'li bilan umum fuqaroviy konsensusga erishish, jamiyatni integratsiyalashga qaratilgan fuqarolik birdamligini ta'minlashdan iboratdir.⁵⁰

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati an'anaviy jamiyatlarning bir necha ming yillab rivojlanib va takomillashib borishining mantiqiy natijasi va hosilasi o'laroq shakllandi. Bu jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishida g'arbiy Evropada inson huquqlari va erkinliklarining nazariy qarashlardan amaliy hayotga aylanishi, shakllangan huquqiy davlatlarning yanada rivojlanishi fuqarolik jamiyatini shakllanishini zarurat qilib qo'yganligi muhim ahamiyat kasb etdi.

XXI asr boshlariga kelib fuqarolik jamiyati g'oyalari va bu kabi jamiyat qurish tajribasi Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqasidagi mamlakatlar uchun ham yangilik bo'lmay qoldi. Fuqarolik jamiyati har bir mamlakatning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit, "ma'naviy ijtimoiy resurs" sifatida o'zini namoyon qila boshladi. SHuning uchun ham O'zbekiston mamlakatida ham 1995 yilda fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilindi. Mustaqillikning o'tgan 24 yili ichida mamlakatda fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, sotsial strukturalari, institutlari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an'analar asosida qaror topa boshladi. Hozirgi davrga kelib mamlakat fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish pallasiga kirdi. Fuqarolik jamiyati qurish sari intilish davom etmoqda.

1. Fuqaroviylik, mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari

Mazkur mavzuning asosiy maqsadi fuqarolik jamiyati barpo etishda fuqarolarning faolligi qanday ahamiyatga ega ekanligini yoritishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati fuqaroviy ongi va faolligi yuksak bo'lgan fuqarolar yordamida barpo etilishi mumkin. Fuqaroviylik mamlakatning rivojlanish bosqichlarida, boshqacha aytganda o'tish davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ham ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan, aniqrog'i fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqaroviy faollikning negizini anglash uchun avvalo fuqaroviylikning nazariy mohiyatini tushunish talab etiladi.

Manbalarda qayd etilishicha o'z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo'l bilan, jismoniy yoki ma'naviy mehnat bilan xizmat qilgan kishi haqiqiy fuqaroga aylanadi. Bunday qarash biroq falsafiy ahamiyatga egadek tuyulsa-da, aslida fuqarolik jamiyati barpo etishda aynan fuqaroning vatan taraqqiyoti yo'lidagi amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqaroviylik dastlabki qarashda huquqshunoslikka oid atama singari tuyuladi. Aslini olganda bu hodisani falsafiy, huquqiy, sotsiologik va siyosiy mohiyati mavjud.

⁵⁰ Қаранг: Гражданское общество: понятие, структура, функции / <http://geum.ru/book/133/532.html>.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. *Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.*

V.Dalning qayd etishiga qaraganda, **“fuqaroviylik fuqarolik jamiyatini tuzish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etgan holatdir”⁵¹.**

Ko'rinib turganidek, *fuqaroviylik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning bilimi va jamiyatning holatini anglashi, ijtimoiy me'yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilishiga bog'liq.* Bu erda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan birdamlik, o'zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyat ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylikda huquqqa nisbatan ma'naviyatning ustuvorligi namoyon bo'lmoqda. Aslida ko'pgina an'anaviy jamiyatlarda hamisha fuqaroviylik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy axloqiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

SHo'ro davrida fuqaroviylik albatta vatanga sadoqat va vatanparvarlik sifatida talqin etilsada, ko'proq mafkuralashgan ko'rinishda namoyon bo'lgan. Ko'pgina hollarda fuqaroviylik vatanparvarlik bilan aralash ifodalangan. Aslida esa vatanparvarlik fuqaroviylikning bir ko'rinishi xolos. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning oddiygina yig'indisi bo'lmagani singari fuqaroviylik ham individual ahamiyatga ega bo'lgan hodisa emas. Fuqaroviylik bir mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o'z vatanlariga sodiqligi, qonunlarni hurmat qilish, ularga bo'ysunishi, shuningdek vatanni himoya qilish va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda faollikni nazarda tutadi. Fuqaroviylikka nisbatan berilgan fikrlarni umumlashtirgan holda un quyidagicha ta'riflash mumkin:

Fuqaroviylik bir tarafdin jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi.

Quyidagilar fuqaroviylikni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi:

- fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi;
- boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish;
- fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi;
- davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'uliyatini anglash;
- fuqarolarning tengligi;
- yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqelikka nisbatan ob'ektiv va tanqidiy yondashuv;
- hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati;
- bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviy o'zlikni anglash va hokazolar.

Fuqaroviylikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin:

- fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin;
- agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati

⁵¹ Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка (современное написание слов). Изд. “Цитадель”, г. Москва, 1998 г

shakllangan bo'lsa uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin;

- agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Fuqaroviylikning tugal yoki to'kis ekanligini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin:

1. Agar fuqaroviy pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviy xususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchunkurashish istagi to'liq namoyon bo'lmasa fuqaroviylikning eng quyi darajasi namoyon bo'ladi.

2. Fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda fuqaroviylikning o'rta darajasi namoyon bo'ladi.

3. Agar fuqaroda fuqaroviy xususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'ladigan bo'lsa uni yuqori darajada fuqaroviylik sifatida talqin etish mumkin.

Fuqaroviylik jamiyat a'zolarini safarbar etish va yo'naltirishga xizmat qiladi. Fuqaroviylik tevarak atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatni, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Fuqaroviylik jamiyat oldida ma'lum bir maqsadning shakllanishiga xizmat qiladi. Albatta jamiyatda fuqaroviylikning rivojlanishi uchun tegishli tarbiyaviy chora-tadbirlar, qulay ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega.

Fuqaroviylik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, bunday darajaga etgan kishi siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun amaliy harakat qilish uchun zarur bo'lgan qarorga kelish qobiliyatiga ega bo'ladi. Vatandarparvarlik ruhiga, mas'uliyat, siyosiy madaniyat va taraqqiy topgan siyosiy ongga ega bo'lgan jamiyat a'zosini fuqaroviylikka ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin.

2. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo'lish omillari

Endi bevosita fuqaroviy ongning mazmun mohiyatiga e'tibor qaratish o'rinlidir. **Fuqarolik ongi demokratik qadriyatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtai nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni anglashdan iborat.** Albatta har bir davlat va jamiyatda demokratik qadriyatlar o'ziga xos tamoyillir va me'yorlar asosida qabul qilinadi. Fuqarolik ongi jamiyat taraqqiyotining shunday bosqichidagi ruhiy holatini anglatadiki, bu davrda demokratik me'yorlar va qadriyatlar hayotning asosiga aylanadi.

Fuqarolik ongi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarda me'yoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga etaklovchi singari rang barang vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar ta'sirlashgan holda o'zaro kesishadilar va bir-birini to'ldiradi. Ularning ko'pchiligi davlat va uning institutlariga xosdir. Ammo davlat organlari qonunlar, me'yoriy hujjatlar, qoida va talablardan iborat huquqiy doirada faoliyat yuritrsa, fuqarolik ongi erkin shakllanadi. Fuqaroviy ong me'yorlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi, uni muvofiqlashtiradigan yoki uni amalga oshiradigan maxsus tuzilmalar bo'lmaydi. Fuqarolik onginging vazifalari alohida individ emas, balki butun jamiyat faoliyati bilan bog'liq.

Fuqarolik ongi jamiyat hayotida turli shakllarida namoyon bo'ladi. Kishilar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar borasida o'z qarashlari, tasavvurlari, qadriyatlari, intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarida namoyon etishadi. Jamiyat, guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari

namoyon bo'ladigan fuqaroviy manfaatlar tizim holiga keladi. Aynan tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviy manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini hayotga tatbiq etadi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Fuqaroning mas'uliyati, maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aynan ana shu tarzda shakllangan fuqaroviy ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlikka etaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha avlod almashinuvini talab etadigan jarayon bo'lgani singari fuqaroviy ong ham tarixiy davr mobaynida shakllanadi. Har bir mamlakatdagi fuqaroviy ong shu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning tabiatiga mos ravishda shakllanadi. SHu mamlakatga xos bo'lgan ijtimoiy tizim, aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Fuqarolik ongi tabiiy va tadrijiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uni sun'iy jihatdan tezlashtirish mumkin emas. U ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillar negizida tadrijiy tarzda shakllanadi. Har bir avlod mavjud demokratik qadriyatlarni o'zlashtiradi va yangilarini yaratadi. Bu jarayonda fuqarolik ongini belgilab beruvchi me'yorlar va qadriyatlarni saqlash hamda uzluksiz takomillashtirish eng muhim faoliyat hisoblanadi.

Tadrijiy taraqqiyot natijasida demokratik tasavvurlar mustahkamlanib, asta sekinlik bilan fuqarolik tajribasi to'planib boradi.

Fuqarolik ongi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fuqarolik ongi ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan yangilanadigan qadriyatlarga moslashib boradi. Boshqa tarafdin fuqarolik ongi ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faol omil hisoblanadi. U fuqarolarni faol harakatga boshlovchi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, jamiyat o'zligining yangilanishiga, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Fuqarolik ongi ijtimoiy taraqqiyotning ruhiy negizini yaratgan holda jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik ongi yangi g'oyalarni qabul qilish darajasida ochiq xarakterga ega. YAngi g'oyalar shu tizimga mos ekanligi o'z isbotini topgan taqdirda asta sekin jamiyatning mohiyatiga singib boradi.

Madaniy yangilanishlar uzluksiz tarzda ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish darajasida ko'p ro'y bergan taqdirda jamiyatda voqelikni his etish uchun yangicha usullar vujudga keladi va bu o'z navbatida fuqaroviy ongning o'zgarishiga olib keladi.

Mamlakatda siyosatni tubdan o'zgartirish hatto mulkka nisbatan munosabatni ham butunlay o'zgartirish mumkin, ammo kishilarning asosiy qarashlari va qadriyatlarini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmaydi.

Fuqarolik ongi umumiy tamoyillargagina asoslanmasdan, mohiyati jihatidan o'zgarib boradi. Albatta jamiyatda barqaror bo'lgan, har qanday siyosiy tizimga xos bo'lgan tarixiy tajriba, an'analar singari o'zgarimas xususiyatga ega qadriyatlar mavjud bo'lib, ular fuqaroviy ongda ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor o'zgarishlarni tiyib turadi. YAngi tarixiy tajriba esa aynan ana shunday qadriyatlar negizida vujudga keladi va fuqarolar ongiga singib boradi.

Tushuncha sifatida "fuqarolik ongi" haqida gap ketganda avvalo fuqaroning davlat bilan siyosiy-huquqiy munosabatlari nazarda tutilib, kishining biror-bir davlatga mansubligi va shu davlatning qonunlariga bo'ysunishi tushuniladi. Kishining huquqiy maqomida ifodalangan

fuqarolik davlat bilan fuqaro o'rtasida amal qiladigan bir qator huquq va burchlar bilan mustahkamlangan.

Turli ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvi ro'y beradigan va manfaatlari amal qiladigan jamiyat munosabatlariga fuqaroviy ong kirib boradi va ularni aks ettiradi. SHuningdek, u kishilararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatgan holda ularga aniqlik, mazmun va shakl bag'ishlaydi. Kishilarning ijtimoiy hayot hamda davlatga nisbatan, shaxs bilan davlat o'rtasida haqiqiy va me'yoriy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari fuqaroviy ongda mujassamlashgan.

Ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa me'yorlar, talablar, tamoyillir, qoidalar umumiy fuqaroviy dunyoqarash shaklida fuqaroviy ongning tarkibiy elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyatning barqarorligi demokratik qadriyatlar bilan boyishni taqozo etadi. Bu jarayon jamiyatdagi fuqarolarning ijtimoiy erkin sharoitda yashashga qanchalik tayyor ekanliklari, ya'ni shaxslarning fuqaroviy etukligi va faolligiga bog'liq. O'z navbatida fuqaroviy etuklik va fuqaroviy mus'uliyat jamiyat a'zolarining fuqaroviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Aynan fuqaroviy ong jamiyatning ma'naviy, intellektual hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini shakllantiradi.

Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi.

Davlat va jamiyat, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi bilimlarning kengayishi "fuqaroviylik" tushunchasini qayta qayta tafakkur qilishni taqozo etadi. Ijtimoiy jarayonlar natijasida sayqallangan fuqaroviy madaniyat va fuqaroviy ong kishilarni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy jihatdan shakllantiradi.

3. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rni

Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning echimini chuqur anglashni taqozo etadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu erda jamiyatning davlat faoliyatidan xoli holda jamoaviy tashabbuslar bilan rivojlanishi

nazarda tutilmoqda. Bu partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. SHu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi.

Aslini olganda jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchiligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda ijtimoiy faollik ko'rsatishmaydi. Bunday passivlikning jamoat tartibini saqlash nuqtai nazaridan qaysidir darajada ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lsa-da, fuqarolik jamiyatini qurishda fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga ega ekanligini esda tutish lozim. Zero passiv fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashishmaydi. Fuqaroviy faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi. Ko'pgina hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi sotsiologlarni qiziqtirgan masaladir. Zero aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davlat etakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashishadi.

Ko'pincha fuqaroviy faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha yoshlar fuqaroviy faollik ko'rsatishni istashsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsata olmaydilar. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati murakkab bo'lganligi tufayli o'z istaklarini siyosatchilar oldida to'g'ri shakllantirishga qodir bo'lmaydilar. Boshqa tarafdin siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda murakkabliklarga duch kelishlari mumkin. SHu tufayli ularning ba'zilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishadi, aksariyati esa umuman siyosatga qiziqmay qo'yadilar.

Biror-bir sohadagi muammolarni bartaraf etish imkoniyati nodavlat notijorat tashkilotlarida mavjud bo'lganligi tufayli yoshlarning aksariyati shunday tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishadi. Davlatning siyosiy tuzilmalarida professional faoliyatga kirish fuqaro/yoshlardan ma'lum ish tajribasi, bilim va ko'nikma talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lib kirish uchun ish tajriba talab etilmaydi, balki faqat qiziqishning o'zi etarli bo'ladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, mavjud vaziyatni o'zgartirish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ilgari surish zarurligini anglab etadilar. Bu esa turli ko'ngillilar jamiyatlarining tuzilishiga sabab bo'ladi. Insonda boshqalarga yordam berish, ayniqsa muammoli vaziyatga tushgan vatandoshlariga, qo'shnilariga ko'maklashish hissi mavjud. Aynan boshqalarga yordam qo'lini cho'zgan kishi nafaqat muammoni bartaraf etishga hissa qo'shadi, balki u o'zligini ham yanada chuqurroq anglay boradi. SHuning uchun bo'lsa kerak, ko'ngillilik butun dunyoda keng tarqalgan hodisalardan biriga aylangan. Bu hodisa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan kishilarni umumbashariy miqyosda birlashtiradigan jarayonga aylangan. Ko'ngillilik turli shakllarda amalga oshirilishi, jumladan turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun xayriya faoliyatidan boshlab qashshoqlik yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish shaklida bo'lishi mumkin.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'ngilli ishga chorlovchi istakning negizida har bir kishiga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar yotadi. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va muloqot istagi kishini faollikka etaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan

e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ham mavjud. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollikka etaklaydi.

Ko'ngilli faoliyat inson uchun o'z shaxsiy ehtiyojlari bilan jamiyat ehtiyojlarini uyg'unlashgan holda hayotga tatbiq etish uchun o'ziga xos imkoniyatdir. Bu ehtiyoj kishilarning o'z axloqiy burchlarini anglash hamda insonning barkamolligidan dalolat beradi. Ko'ngilli faoliyat yurita ekan inson axloqiy jihatdan takomillashib boradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik va birodarlik hissiga, insonparvarlik tuyg'usiga ega bo'ladi. Ko'ngillilik faoliyati faol va ijodiy xarakterga ega bo'lib, inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat tevarak atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatning shakllanishiga, siyosiy voqelikka ziyrak nazar bilan qarashga yordam beradi.

Aynan fuqaroviy faollikning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi;

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat;

- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud;

- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi⁵².

Fuqarolik faolligi bugungi kunda davlat uchun misli ko'rilmagan ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ilayotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning echimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega. Turli nodavlat tuzilmalaridagi etuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorning betartartib jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga hukumatga ko'makchilik qilmoqdalar.

Ma'lumki bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelaveradi, ammo ularning echimini hukumat hamisha ham o'z vaqtida hal etavermaydi. Boshqacha aytganda bunday muammolarni hukumat o'z vaqtida payqash imkoniyatiga ega emas. SHunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo'lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar mavjud bo'lmaydi. Agar hukumat fuqaroviy faollikni yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan, yoki turli nodavlat va jamoat birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishga shart-sharoitlar yaratmas ekan fuqarolik jamiyatini barpo etish muammoligicha qolib ketaveradi.

Fuqarolik jamiyati rivoj topgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular serqirra faoliyat yuritadilar. Masalan, jamiyatdagi ma'lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borishadi va natijada parlamentga tegishli qonun o'zgartirishlari taklif etishlari mumkin.

Tabiatni asrash yoki ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha, yuqumli kasalliklarni oldini olish, shahar havosining ifloslanishi, chiqindilardan tozalash bo'yicha jamoat birlashmalari hukumatga qimmatli fikrlar bilan bir qatorda amaliy loyihalarni taklif etadilar.

⁵² Карпова Н.В. Политическая культура в процессе становления гражданского общества// Вестник Московского университета. – Сер. 18 : Социология и политология. – 2006. – №1.

Bir soʻz bilan aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan foydalanish, insonning oʻzligida, uning qalbida mavjud boʻlgan birdamlik, saxiylik, bagʻrikenglik kabi fazilatlariga murojaat etishning oʻzi kifoyadir.

3-MAVZU: JAXON TAJRIBASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATI

Reja:

- 1. Demokratik institutlar rivoji fuqarolik jamiyati talabi.**
- 2. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruviga ishtiroki.**
- 3. Jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyatining muhim sharti.**
- 4. Oʻzbekistonda siyosiy partiyalar tadrijiy rivoji va huquqiy asoslari.**
- 5. Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatining konstitutsiyaviy negizlari.**

1. Demokratik institutlar rivoji - fuqarolik jamiyati talabi.

Demokratik tamoyillarga amal qilib, fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan jamiyatda fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng jalb etish, faol ishtirokini taʼminlash asosiy siyosiy maqsadga aylanadi. Bu, demokratik institutlarning rivojini xarakterlovchi muhim mezondir. SHu maʼnoda, "**Demokratiya, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, — inson, jamiyat, davlat degan uch subʼekt oʻzaro bir-birini toʻldiradigan, bir-birini boyitib, kerak boʻlsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular oʻrtasidagi muvozanatni anglatadi**"⁵³.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Oʻzbekistonda xalqni davlat hokimiyatini boshqarishda ishtirok etishini taʼminlashning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratilishiga alohida eʼtibor qaratildi. Oʻzbekistonda yangi demokratik jamiyat asoslariga oʻtish, totalitarizmdan meros boʻlib qolgan davlat va fuqaro munosabatlariga barham berish siyosatning ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Qisqa davrda mamlakatda "fuqaro - jamiyat -davlat" tizimi qonuniy asosga qoʻyildi. Bu – siyosiy jihatdan keng va atroflicha tahlilga ega boʻlgan jarayon. CHunki, uning mohiyati jamiyatda demokratik jarayonlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, eng muhimi, fuqaro manfaati bilan davlat hokimiyatini boshqarish oʻzaro muvofiqlashtiriladi. Bu jamiyatda, insonning barcha huquqlari: xususan, davlat ishlarida qatnashish; eʼtiqod erkinligi; yigʻilishlar; uyushmalar erkinligini amalda taʼminlash siyosiy voqelikka aylanadi. "Fuqaro" va "davlat" munosabatlaridagi mavjud begonalashish jarayonlariga barham berilib, ularni davlat hokimiyatini boshqarishga boʻlgan masʼulligi hamda davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligi vujudga keldi. Jumladan, bosh Qomusimizning 32-moddasida belgilab qoʻyilganidek, Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda oʻz vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar⁵⁴ deb, belgilab qoʻyiladi. Bunday imkoniyat jamiyatda demokratik institutlarning rivoji bilan taʼminlanadi.

Demokratik institutlar jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega boʻlgan anʼanaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat,

⁵³Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш-энг олий саодатдир Т.: Ўзбекистон. 2015. Б. 17.

⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2014. 13 б.

siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin⁵⁵.

Demokratik institutlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, demokratik tamoyillar rivojida fuqarolik institutlari faoliyatiga keng o'rin beriladi, ular jamiyatda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, davlatning e'tiboridan chetda qolgan muammolarni belgilash va bartaraf etishda davlat institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Bugungi kunda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular jumlasiga asosiy xujjatlar sifatida, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida" (1991y.), "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1992y.), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" (1999 y.), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (1999 y.), "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996 y.), "Jamoat fondlari to'g'risida" (2003 y.), "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida" (2004 y.), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991 y.), "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (2007 y.), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997 y.), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida" (2014 y) O'zbekiston Respublikasi qonunlarini e'tirof etish mumkin.

2. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruviga ishtiroki.

Demokratiyaning mezonlari ko'p qirrali bo'lib, unda siyosiy erkinlik, fuqarolik huquqlari, davlat va jamiyat qurilishida, boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishga intilgan, ijtimoiy bahslarga qatnashgan, o'z hatti-harakatlari, mas'ullik faoliyati bo'yicha saylovchilar oldida hisobot beruvchi vakillarni tanlashda qatnashgan va insonlar orasida sabr-toqat va murosa lozimligini tushungan fuqarolar tomonidan qadrlangan taqdirda u doimo rivojlanib, takomillashib boradi. SHu jihatdan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyatni xarakterlovchi muhim mezon mavjuddir. Bular "Jamiyatda, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat etilishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap so'zlar yo xalqqa xushomad qilish, yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi."⁵⁶ Respublikada jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshayotgan o'zgarishlarni, ana shu uch mezon bo'yicha demokratik jamiyat farqni qiyosiy tahlil etiladigan bo'lsa, quyidagi muhim farqni anglash qiyin emas.

Qisqa davrda mamlakatda "fuqaro - jamiyat -davlat" tizimi qonuniy asosga qo'yildi. Bu siyosiy jihatdan keng va atroflicha tahlilga ega bo'lgan jarayon. CHunki, uning mohiyati jamiyatda

⁵⁵Маънавият - асосий тушунчалар изоҳли луғатиТ.: Ғофур Ғулом наш. 2010. 19 б.

⁵⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёти кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997. 191.6

demokratik jarayonlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, eng muhimi fuqaro manfaati bilan davlat hokimiyatini boshqarish o‘zaro muvofiqlashadi. Bu jamiyatda, insonning barcha huquqlari: xususan, davlat ishlarida qatnashish; e’tiqod erkinligi; yig‘ilishlar; uyushmalar erkinligini amalga ta’minlash siyosiy voqeylikka aylanadi. "Fuqaro" va "davlat" munosabatlaridagi mavjud begonalashish jarayonlariga barham berilib, ularni davlat hokimiyatini boshqarishga bo‘lgan ma’sulligini hamda davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligi vujudga keldi.

Fuqarolarning davlat hokimiyatini boshqarishga ishtirok etishda "haqiqiy" va "haqiqiy bo‘lmagan demokratiyani" bir-biridan farqlash zarur. Hozirgi davrda "demokratiya" tushunchasi keng ma’noda ishlatiladi. Demokratiya davlat hokimiyatini boshqaruv shaklida, ko‘pchilikning idora etish shakli sifatida; ikkinchidan, boshqaruvning shunday shakli, unda fuqarolar o‘z huquqlarini shaxsan emas, balki o‘zlarining vakillari orqali amalga oshiradi. Bu vakillik demokratiyasi sharoitida namoyon bo‘ladi; uchinchidan, boshqaruvning shunday shakli, unda konstitutsion normalar asosida ayrim individ yoki guruh huquqlari ta’minlanadi.

Bundan tashqari, "demokratiya" qanchalik tarixiy-siyosiy mazmunga ega bo‘lmasin, uning o‘ziga xos mas’uliyat yuki mavjud. Jamiyatni demokratiyalashtirish har qanday demokratiyaga "yashil yo‘l" ochib berishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Haqiqiy demokratiya inson shaxsiga eng oliy qadriyat sifatida qaraydi va ularni hokimiyatini boshqarish ishlarida faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan tizimni yaratadi. Unda saylov tizimi asosiy o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda saylov tizimini isloh etilib, bir mandatlikdan ko‘p mandatli saylov tizimiga o‘tilishi fuqarolarga siyosiy erkinliklarini, huquqlaridan atroflicha foydalanish imkoniyatini berdi. Jamiyat hayotini isloh etishga, shakllangan eski tizim o‘rnida tamomila yangi siyosiy qadriyatlarni qaror topishga shart-sharoitni vujudga keltirdi.

Bu insonlar ongi, tafakkurida jamiyat siyosiy hayotiga qarashda yangicha yondoshuvga, "totalitar ong va tafakkurni" barham topib borishiga muhim turtki bo‘ldi. Fuqarolarning davlat hokimiyatida ishtiroki jarayon sifatida yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Bu jamiyatda vujudga kelgan xilma-xil demokratik institutlar bilan bevosita bog‘liq. SHu nuqtai nazardan yondashganda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vazifalari o‘zgarayotganligini kuzatamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, "YAngi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g‘oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo‘lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir".⁵⁷

Fuqarolarning davlat hokimiyatini boshqarishda ishtiroki, demokratiyaning ikki asosiy ko‘rinishi orqali, ya’ni bevosita va vakolatli tarzda amalga oshirib boriladi. Bevosita demokratiyada barcha saylash yoki saylanish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar saylangan yoki tayinlangan rasmiy vakillar vositachiligisiz jamiyatni boshqarish ishlariga, qonunlar ishlab chiqish, qabul qilishda qatnashishlari mumkin. Bu jarayon tashkiliy jihatdan qaraganda reallikni, bugungi voqeylikni aniq hisobga olishni taqazo etadi. Bugungi siyosiy voqeylikda uni hayotga tadbqiq etish o‘zining muhim amaliy jihatiga ega. Davlatning bosh strategik vazifalarini ishlab chiqishda,

⁵⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997. 159.6

mamlakat oldida turgan eng dolzarb vazifalarga nisbatan umumxalq fikrini, munosabatlarini aniq ifodalash lozim bo'lganda, murojaat etiladi. Xalq o'zining xohish-irodasini ifodalaydi.

SHu nuqtai-nazardan yondoshganda xalqning davlat hokimiyati va jamiyatni boshqarishda ishtirokining tub mohiyati, xalq tomonidan uni idora etish bo'lib, oliy hokimiyati xalq qo'lga topshiriladi va xalq uni bevosita yoki erkin saylovlar orqali amalga oshiradi. Demokratik jamiyat qurish vazifalari davlat hokimiyati faoliyatini, mansabdor shaxslar bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni, ularni bir-birlariga nisbatan mas'uliyatini bog'lagan holda amalga oshirishni taqoza etadi. SHuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2 moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamiyat va fuqarolar oldida ma'suldirlar"⁵⁸ deb yozib qo'yilgan.

Demokratik jamiyatda fuqarolarni davlat va jamiyatni boshqarishda ishtiroki, bevosita jamiyat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy tuzulmalarni isloh etib borishni talab qiladi. Nosiyosiy institutlar ham siyosiy hayotga o'zining amaliy takliflari bilan ta'sirini o'tkazib boradi. Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqaruvda ishtirokining demokratik jihatlari: a) hokimiyatning xalq tomonidan idora etilishi; b) turli ijtimoiy guruhlar huquqlarining uyg'un holda aks ettirilishi; v) har bir fuqaro huquqlarining kafolatlanganligi; g) erkin saylov; d) fuqarolarning qonun oldida tengligi; e) odil sud hokimiyati; yo) siyosiy institutlar, fikrlar va mafkuralar xilma-xilligi kabi muhim asoslarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamogda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. SHunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi.

Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular: a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish; b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish; v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish; g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi. O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z, majlislar va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga qo'ydi. Bu daxlsiz huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar

⁵⁸ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2012 й.

va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, polietnik davlat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu Respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda.


Fuqarolarning jamiyatdagi boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish darajasi, ko'p jihatdan ularning amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar, davlat strategiyasi maqsadlari va uning asosiy yo'nalishlarini qanday darajada aniq tasavvur etishlariga bevosita bog'liq bo'ladi. SHunda ularning faoliyati davlat va umummillat manfaatlari bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi, har bir fuqaro, o'z huquq va erkinliklarini mamlakat ozodligi, uning istiqboli bilan bog'lagan holda uyg'un ko'radi. SHunda fuqaroning burchi bilan erkinligi o'zaro uyg'unlashadi. Ular o'z xohishlari asosida birovning ta'ziqida emas, balki ongli holda demokratik jarayonlarda ishtirok etadi. Fuqarolarning jamiyatni boshqarishda ishtirok etishi, keng tushuncha bo'lib, u faqat saylovoldi kompaniyasida qatnashish yoki ma'lum mansabga ega bo'lib, ijtimoiy faoliyatda bo'lishidan ko'ra ko'p qirralidir.

Demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda fuqarolarning jamiyatni boshqarishda ishtirok etishi turli yo'nalishlarda kengayib bormoqda. Bular, a) mehnat jamoalarida (mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar); b) noishlab chiqarish sohasida; v) ta'lim-tarbiya maskanlarida; g) mahallalarda; d) mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralariga saylanish va uning kengashlari orqali; e) turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar yoki harakatlar; yo) jamiyatda mavjud boshqa turli xil nosiyosiy institutlar orqali jamiyatni boshqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bular bilan fuqarolar umumdavlat, viloyat, tuman yoki qishloq darajasida jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti orqali turli insonlar, ijtimoiy-siyosiy guruhlar faoliyati bilan bog'lanadilar. Boshqarishda u yoki bu darajada ishtirok etadilar. Bunda ular o'z shaxsiy huquqlarini boshqa shaxslar huquq va erkinliklari bilan uyg'un holda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar, uni anglab etadilar. SHaxslar jamiyatni boshqarishda ishtirok etar ekan, o'z huquqlarini boshqa shaxslar huquqlariga zid holda emas, aksincha konsensus holatida bo'lish muhim ekanligini bu jamiyatni boshqarishning demokratik tamoyillar bilan mos tushushini to'la hisobga olishga karatilgan siyosiy madaniyatga ega bo'lib boradilar. Bu umumdemokratik rivojlanish qonunlari bilan mos tushadi. Fuqarolarning demokratik jarayonlarda ishtiroki bu qotib qolgan, o'zgarmaydigan bir holat emas. U doimo rivojlanishga moyil va barcha fuqarolar orasida o'zaro hamkorlik, kelishuv va o'zaro ixtilofli holatlar sodir bo'lganda sabr-qanoatli bo'lib, ma'rifiylikni talab etadi. SHuning uchun ham fuqarolarning jamiyatni boshqarishdagi foaliyatlari, uning demokratik jihatlari insonning tabiati bilan, turli xil moyillik xususiyatlaridan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Jamiyatni boshqarishda fuqarolarning ishtiroki ulardan yuqori darajada fuqarolik madaniyati bo'lishni ham taqazo etadi. Fuqarolik madaniyati qancha yuqori bo'lsa, jamiyatda demokratik jarayonlar shuncha rivoj topib boradi. SHuning uchun huquqiy demokratik jamiyatni qurishni maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston, fuqarolarning siyosiy ong va madaniyatini oshirishni ham ustuvor vazifa qilib qo'yadi. YUksak ma'naviyatga, demokratik jamiyat qurilishining muhim omili sifatida qaraydi. Fuqarolar o'zlarida yuksak madaniyatni shakllantirib, demokratiya ishiga katta ma'suliyat bilan yondoshib, o'z erki va ozodliklariga yanada ma'suliyat bilan yondoshish zarurligini chuqurroq anglab etmoqdalar.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarning davlat hokimiyatida ishtiroki jarayon sifatida yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Bu jamiyatda vujudga kelgan xilma-xil demokratik institutlar bilan bevosita bog‘liq. SHu nuqtai nazardan yondashganda, bugunga kelib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotida davlat hokimiyatidan fuqarolik institutlarining vazifalari kengayib borayotganligini kuzatamiz. Agar 1991 yilda respublikamizda 95 ta NNT qayd etilgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 2585 taga etdi. 2013 yilda esa 6 mingdan oshib ketdi⁵⁹. Bugungi kunda ularning soni 8250dan oshganini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda NNT rivojlanish dinamikasi



3. Jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyatining muhim sharti. Ma’lumki, istiqlol yillarida milliy qadriyatlar, madaniy an’analarni jahonning ilg‘or demokratik tamoyillari bilan boyitgan holda davlat-jamiyat hamkorligiga tatbiq etishning o‘zbek modeli tajribasi yaratildi. Bugun ko‘plab davlatlar davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga solishning eng maqbul yo‘li sifatida qarayotgan bu amaliyot davlatimiz asosiy qonunlari shakllanishidayoq e’tiborga olindi. Xususan, bosh Qomusimizning 56 moddasida “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘xatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi⁶⁰” deb, uning huquqiy ob’ekti o‘z ifodasini topgan.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi⁶¹ kabi normalarning mustahkamlanganligi mamlakatimizda jamoat birlashmalarining shakllanishi va rivojlanishi davlat tomonidan to‘laqonli ta’minlanganligi hamda uning organlari bilan teng huquqda hamkorlik qilishini ko‘zda tutadi.

YUrtboshimiz “Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati rivojlantirish” Konsepsiyasi yuzasidan qilgan ma’ruzasida fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish bir qator qonunlarni qabul qilish bilan bog‘liqligini

⁵⁹Махсумов С., Зохидова М.Ислохотларга дахлдорлик хисси ошиб бормоқда // “Халқ сўзи”, 2013 йил 15 март.

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2014. 19 б.

⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т.: Ўзбекистон. 2014. 20 б.

ta'kidlab o'tdi. Unda, jumladan, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida» qonunda davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari munosabatlarida bir qator o'zgarishlar vujudga keladi.

Birinchidan, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida» Qonun bugun mamlakatda ijro etish bilan bog'liq, asosan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari zimmasida bo'lib kelayotgan bir qator vazifalar va ular bo'yicha vakolatlarga egalikda davlat – jamiyat sherikchiligini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda ularni loyihalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish, boshqarish, nazorat qilish bo'yicha vazifalar va vakolatlarning bir qismi fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga o'tishi bir tomondan davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirsa, ikkinchi tomondan bu fuqarolik jamiyatiga o'tish talablaridan birining hal etilishini ifodalaydi.

Ikkinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hozirgi vaqtda ijtimoiy-gumanitar muammolarni tahlil etish va ular bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda etakchilik qilib keladi.

Uchinchidan, davlat tuzilmalari ushbu munosabatlarga o'z vakolatlarida belgilangan me'yorlardan kelib chiqib yondashadi, fuqarolik jamiyati institutlarining esa o'rtadagi masalani hal etishda ishtirok etish vakolatlari aniq emas. Bu holat esa o'z-o'zidan masalaning bir tomonlama hal etilishi yoki sansolorlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining o'z-o'zini boshqaruv mexanizmlari va huquqiy vakolatlarining o'zgarishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mexanizmi va huquqiy vakolatlarida ham tarkibiy o'zgarishlarini vujudga keltiradi.

2010 yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ko'ptarmoqli NNTlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash yangi bosqichining boshlanish davri bo'ldi.

Konsepsiyaning qoidalaridan kelib chiqib, bir qator qonun hujjatlari, shu jumladan 2013 yil 28 dekabrda “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonun qabul qilinib, NNTlar ekologik nazoratning asosiy sub'ekti sifatida belgilandi.

2014 yilning 5 mayida “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi Qonun, shu yilning 25 sentyabrda esa “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi.

“Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunga ko'ra NNTlarni ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda ishtirok etishga samarali jalb qilishning va davlat tomonidan rag'batlantirishning shakllaridan biri sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali NNTlar faoliyatini moliyalashtirishning yangi mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrda qabul qilingan PQ–2085-sonli “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ushbu sohadagi qonunchilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezident qarorini amalga oshirish maqsadida 2014 yil 10 martda 57-sonli Hukumat qarori qabul qilindi.

YUqorida qayd etilgan qonun hujjatlariga ko'ra NNTlarni tuzish va faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yanada takomillashtirildi va sezilarli darajada soddalashtirildi, xususan:

1.NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan davlat boji stavkalari miqdori 5 baravarga, ularning ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'imlar miqdori 2,5 baravarga kamaytirildi. Bunda nogironlar, fahriylar, xotin-qizlar va bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji mazkur qaror bilan tasdiqlangan davlat boji miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi;

2.O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan NNTning alohida bo'linmalari (vakolatxonalar va filiallari)ni, shu jumladan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lganlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga olish uchun davlat boji undirilmaydi;

3.Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati ikki oydan bir oyga kamaytirildi;

Taqdim etilgan arizalarni oqibatsiz qoldirish to'g'risidagi qaror qabul qilish instituti chiqarib tashlandi;

4.Ta'sis hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi soddalashtirilib, hujjatlarni notarial tasdiqlash talabi bekor qilindi, shuningdek, endilikda ta'sis hujjatlari avvalgidek uch nusxada emas, balki faqat ikki nusxada va faqat davlat tilda taqdim etiladigan bo'ldi;

NNTni qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim qilish tartibi soddalashtirildi va h.k.

5.Hujjatlarni notarial tasdiqlashni bekor qilish, NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish muddatining qisqartirilishi kabi ijobiy o'zgarishlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2014 yil 11 dekabrda O'RQ-381 Qonunida ham o'z aksini topdi.

SHu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 10 martdagi qarori bilan Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi.

1.Davlat boshqaruvi organlari tomonidan NNTlarning milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi masalalariga muhim ahamiyat berildi.

2.Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 10 martdagi 57-sonli qaroriga ko'ra har chorakda NNTning rahbar organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarini adliya organlariga taqdim qilish amaliyoti bekor qilindi.

3.NNTlarning faoliyati shakl-shubhasiz turli xil tadbirlarni o'tkazish orqali erishiladigan hayriya va ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan. Bu erda shuni ta'kidlash joizki, qonunchilikda shuningdek NNTlar tomonidan tadbirlar o'tkazish tartibini takomillashtirishga qaratilgan tegishli ijobiy choralar ko'rildi.

4.Xususan, 2015 yilning 4 iyunida O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i bilan (ro‘yxat raqami 2679) Nodavlat notijorat tashkilotlari tadbirlarini kelishish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. NNTlarning tadbirlarini kelishishning huquqiy belgilanishi avval ham mavjud bo‘lganligi sababli ushbu nizom yangilik hisoblanmaydi. Mazkur nizomning asosiy vazifasi huquqni qo‘llash amaliyotida bir xillikni ta‘minlashdan iborat.

5.NNTlar faoliyatining erkinligini kafolatlash va tadbirlarni hech qanday to‘siqlarsiz o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida, nizomda qonun hujjatlari va NNT ustavida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib o‘tkazilayotgan tadbirlarga adliya organlari vakilining noqonuniy aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi, shuningdek NNTning ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning noqonuniy hatti-xarakatlari ustidan shikoyat qilish huquqi alohida belgilab o‘tilgan.

NNTlar faoliyatini tartibga solish sohasidagi qonunchilikdagi ijobiy o‘zgarishlarga ob‘ektiv nazar tashlansa, mazkur ma‘ruzaning xulosasi sifatida shuni qayd etish mumkinki, ularning barchasi:

- **birinchidan**, fuqarolik jamiyati institutlarining muhim davlat qarorlarini qabul qilishdagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish;
- **ikkinchidan**, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning farovonligini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishini yuksaltirish;
- **uchinchidan**, NNTlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks choralarni amalga oshirish, NNTlar va boshqa fuqarolik institutlarini institutsional rivojlantirish, ularning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilganligini ta‘kidlash mumkin.

4. O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning tadrijiy rivoji va huquqiy asoslari.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘ppartiyaviylikni shakllantirishga qaratilgan islohotlar jamiyatda demokratik taraqqiyotning kelgusidagi istiqbol rivojini belgilab berishda katta ahamiyat kasb etdi. Bu borada 1991 yilning 15 fevralida "O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolik jamiyatini barpo etish g‘oyasining dastlabki huquqiy poydevori bo‘ldi. Qonunning ahamiyati shundaki, unda jamoat birlashmalarining davlatdan mustaqil faoliyat yuritadigan tuzilma ekanligi, ular faoliyatiga mansabdor shaxslarning aralashishi mumkin emasligi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Aynan shu qonunda birinchi bor siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining mamlakat taqdiridagi mas‘uliyati davlat tashkilotlariga tenglashtirildi.

O‘zbekistonda Prezident saylovlari birinchi bor (1991 yil dekabr) tashkiliy uyushqoqlik, siyosiy hamjihatlikda muqobillik asosida o‘tkazildi. Bu saylovlarning tarixiy va siyosiy ahamiyati shundan iboratki, u milliy zaminimizda ilk bor demokratiyaning asosiy talablaridan biri siyosiy hokimiyat ligitimligini ta‘minladi. 1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi biz tanlagan demokratik yo‘lning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Konstitutsiyaning XIII bobida respublikada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish va bunda ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslari o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Konstitutsiyaning 60-moddasida "siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar" deb siyosiy partiyalarning vakolatlari belgilab berildi. Ayni paytda, 57-moddada "Konstitutsiyaviy tizimni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qiluvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy

adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi" deb ularning mas'uliyati hamda javobgarligi ko'rsatildi.

Dastlabki islohotlar rivoji va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi bilan 1991 yil 1 noyabrda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga asos soladi. O'zbekistonda ayrim mamlakatlardagi "demokratiya"dan farqli o'laroq, o'z fuqarolarini yangi demokratik jamiyat qurish yo'liga safarbar qilishi mumkin bo'lgan siyosiy tashkilot mohiyatan butunlay boshqa tuzilmaga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat qurish borasidagi islohotlar, mulkchilik munosabatlarining chuqurlashuvi jamiyatda bu jarayonlar ifodachisi va bunday manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi harakatga bo'lgan ehtiyojni taqozo eta boshladi. SHu tariqa, 1994 yil 24 mayda "Vatan taraqqiyoti" partiyasi vujudga kelib, u o'z dasturida asosan ishbilarmon, tadbirkorlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirib, mamlakatimiz imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarish va shu yo'l bilan O'zbekiston xalqining farovon turmushga erishmog'ini ta'minlash, erkin bozor munosabatlari asosida mamlakatni jahonning rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirish kabi g'oyalarni ilgari surdi. "Vatan taraqqiyoti" partiyasi 2000 yilga kelib o'z maqsadi va vazifalari bilan yaqin bo'lgan, 1998 yil 28 dekabrda tashkil topgan O'zbekiston Fidokorlar Milliy Demokratik partiyasi bilan birlashdi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining rivojlanishida o'ziga xos voqea bo'ldi. Fidokorlar partiyasining vujudga kelishi jamiyatdagi siyosiy taraqqiyot natijasi bo'lib, islohotchilik g'oyalarni ro'yobga chiqarishda jamiyatning shijoatkor, tadbirkor va yosh qatlam kuchlarini ifodalashga bo'lgan intilish sifatida namoyon bo'ldi.

Odamlar hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangi turmush tarzi, ba'zan uning murakkab ijtimoiy munosabatlari vatanparvarlik, bag'rikenglik, yurt tinchligi, sotsial adolat, fikrlar xilma-xilligi kabi masalalarni tobora ustuvor vazifaga aylantirdi. Bu o'zgarishlar O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining (1995 yil 17 fevralda) tashkil topishiga ijtimoiy sharoit yaratadi. Partiya nizomiga muvofiq mustaqillikni mustahkamlashning bosh masalasi sifatida insonning ozod bo'lishi, uning imkoniyatlarini yo'naltirish, fuqarolarning huquqlarini, erkinliklarini, burchlarini ta'minlash, barcha millatlar va xalqlarni, jamoat tashkilotlarini birlashtiradigan etakchi kuch – huquqiy demokratik davlat g'oyalarni ilgari surish uning bosh maqsadi etib belgilandi. SHu g'oyalarga hamohang O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi 1995 yilning 3 iyunida tashkil topib, dasturiy maqsadlari millatning ma'naviy birligi, Vatan – yagona oila, kuchli demokratik davlat, milliy qadriyatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya, zamon kishisi, milliy istiqbol kabi g'oyalar partiya faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etdi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini takomillashtirishda 1996 yilning 29-30 avgustida bo'lib o'tgan Oliy Majlisning VI sessiyasi yangi bir davrni boshlab berdi, deyish mumkin. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari to'g'risida"gi ma'ruzasi jamiyatga yangicha demokratik ruh bag'ishladi. Ma'ruzada haqiqiy demokratiyaning zarur va qonuniy belgisi bo'lgan tub ma'nodagi ko'ppartiyaviylikni shakllantirish uchun jamiyat siyosiy tizimini yangilashning nazariy asoslari belgilab berildi.

Mamlakatda bozor iqtisodining rivojlanishi, moliyaviy infrastruktura tizimining qaror topishi, ishlab chiqarishning takomillashuvi, xususiy mulkdorlar qatlamining o'sishi natijasida jamiyatda yangi siyosiy qatlam vujudga keldi. Bu qatlam jamiyat rivojini modernizatsiya qilishga qodir bo'lgan ishbilarmonlar va tadbirkorlar edi. Ular innavatsion g'oyalarni umumlashtiradigan, o'z maqsadlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan siyosiy birlashmaning vujudga kelishiga zamin yaratadi. SHunday qilib, 2003 yil 15 noyabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasiga asos solinadi.

Sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi siyosatining oqibatida atrof-muhitga bepisand munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan vahshiyona foydalanish oqibatida o'simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy ta'siri, biologik xilma-xillikning qisqarishi, katta hajmdagi sanoat va boshqa tur chiqindilarning hosil bo'lishi, cho'llanish, er va suv resurslarining degradatsiyasi, Orol dengizi halokati kabi mintaqaviy va global miqyosda echilishi zarur bo'lgan ekologik muammolar o'z echimini kutib yotgan edi. Aynan shu kabi muammolarni hal etishga qaratilgan siyosiy kuch sifatida 2008 yilning 2 avgustida O'zbekiston ekologik harakati tashkil etiladi. Ta'kidlash lozimki, tashkil topgan har bir siyosiy tashkilot va mazkur Harakat davr va ijtimoiy sharoit taqozosi va jamiyat talablari asosida vujudga kelganligini kuzatamiz. YA'ni, unda o'zib ham, ortda qolib ketmaslik - bu evolyusion yo'lning sharti.

Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlashda saylov instituti va uni huquqiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar alohida o'rin tutadi. 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Viloyat, tuman, va shahar xalq deputatlari kengashiga saylovlar to'g'risida"gi va "Fuqarolarning saylov huquqi kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar negizida Oliy Majlisga demokratik va ko'ppartiyaviylikka asoslangan ilk saylovlar 1994 yil 25 dekabrda o'tkazilishi o'zbek parlamentarizmi tarixida yangi davrni ochib berdi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishi va siyosiy partiyalar takomillashuvida 1996 yil 25 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qonunlar asosida faoliyat yuritishlari uchun etakchi va ilg'or mamlakatlar mezonlari talablaridarakasidagi huquqiy asoslar kiritildi. Masalan, qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko'rsatib berilgan. Ushbu qonun siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatishi, partiyaga a'zolik, partiya faoliyatining kafolatlari, uning ustavini ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarining mujassamlashgani O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirishda muhim o'rin tutdi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining tadrijiy rivoji shundan dalolat bermoqdaki, mustaqillik yillarida mamlakatda demokratik saylovlarning huquqiy asoslari yaratildi va saylovlar to'g'risidagi qonunlar hayotda o'z ifodasini topmokka. SHu bilan birga, saylov kampaniyalari davri siyosiy partiyalar uchun siyosiy kengliklar sifatida fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda hokimiyat bo'linishi tamoyillariga amal qilgan holda 2002 yil 27 yanvarida o'tkazilgan referendumga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ikki palatali parlament tizimiga o'tkazildi. Bunday o'zgarish to'g'risidagi qaror mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi

sahifani ochib berdi. Uning natijalariga binoan Oliy Majlisning VIII sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Bu hujjatlar asosida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida» va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar Oliy Majlis palatalarining maqomini, ularni shakllantirish tartibini, vakolatlarini, o‘zaro hamda boshqa hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini aniqlab berdi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida hokimiyatlar o‘rtasidagi muvozanatning tashkil etilishi ta‘minlandi. Qonun chiqaruvchi vakillarning nafaqat mas‘uliyati, balki professional darajasi oshdi. Hududiy manfaatlar va ularning aniq himoyachilari vujudga keldi. Hokimiyatning monopol va ma‘muriy usulidan o‘zaro teng hamkorlik mexanizmlari yaratildi. Ijro hokimiyati ustidan deputat nazorati qonunga muvofiq o‘rnatildi. Senator va deputatni chaqirib olish, ayni paytda, uning maqomi to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi.

2006 yil 9 noyabrda qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun bu yo‘lda tashlangan dastlabki qadamlarning tabora kengayishiga sharoit yaratdi. Unga muvofiq Xalq deputatlari viloyat, shahar kengashlaridagi siyosiy partiyalarning deputatlik guruhlarini bilan maslahatlashib, viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari Prezident tomonidan xalq deputatlari Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Bunda hokim faoliyatini nazorat qilish va qoniqsiz deb topilgan hollarda vazifasidan ozod qilish bo‘yicha tavsiya kiritish huquqlari beriladi. Mazkur konsepsiya konstitutsion qonunning uzviy davomi, uni rivojlantiruvchi keyingi bosqich sifatida takomillashib kelayotganligini kuzatamiz. Bu o‘z o‘rnida O‘zbekistonda davlat hokimiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalarning bevosita ishtirokining oshishiga olib keldi.

YUrtboshimiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma‘ruzasida davlatimizning yaqin va uzoq istiqboliga mo‘ljallangan evolyusion rivojlanishning mantiqiy davomi bo‘lib, bu yangi bir davrni boshlab berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilishi demokratik islohotlar yo‘lidagi harakatlarimizning izchilligini yana bir bora tasdiqlaydi. Bunda siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun kurashish va ularni shakllantirish borasidagi faoliyatlari uchun jamiyatda real siyosiy maydonning huquqiy asoslari yaratiladi. Ayni paytda, siyosiy partiyalar o‘z dasturiy vazifalarini amalga oshirishda partiyalararo raqobat muhitining yanada kuchayishiga, sog‘lom siyosiy muxolifatlarning vujudga kelishiga hamda demokratik islohotlarni yanada chuqurlatirishga xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiyaning 5-bo‘limi fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga bag‘ishlandi.

YUrtboshimiz ta‘kidlaganidek, “Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari

kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. YA’ni, erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi”⁶².

5. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiy tarixga ega bo‘lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o‘ziga xos vakolatlarga ega bo‘lgan davri - mamlakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi.

CHunki, mustaqil O‘zbekistonning bosh qomusi – Konstitutsiyasining 105-moddasiga mahalla instituti haqida qoidalar kiritilib, uning vakolat muddati belgilab berildi⁶³.

Konstitutsiyada belgilab berilgan ushbu qoidalar asosida 1993 yil 2 sentyabrda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartiblari, vakolat doirasi hamda faoliyati sohasidagi munosabatlar tartibga solindi.

Bu jarayonda bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga ham ko‘plab vakolatlar o‘tkazib borildi. Bu esa amaldagi Qonunni yanada takomillashtirish, fuqarolar yig‘inlariga berilgan vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlarini qonun bilan tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. SHu bois “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun 1999 yil 14 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi.

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylash jarayoni ham fuqarolar yig‘ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, ushbu jarayonni yanada tartibli o‘tkazish, uning aniq me‘yorlarini joriy qilish maqsadida 2004 yil 29 aprelda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining asosiy prinsiplari, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartib qoidalari hamda nomzodlarga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatib o‘tildi.

Xususan, Konsepsiyaning 5-yo‘nalishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta‘minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilib, bu vazifani hal qilishda uchta asosiy masala ko‘rsatib berildi. Bular:

I. Aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish.

II. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish.

⁶² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. 173-бет.

⁶³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т.: Ўзбекистон. 2014. 60 б.

III. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish.

Konsepsiya ijrosi yuzasidan 2013 yil 22 aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar yig'inlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi hamda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish nazarda tutildi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirilib, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashishi haqidagi normalar kiritildi.

Mazkur Qonunning 18-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyalar tuzilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Ushbu komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish orqali mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi 274-sonli qarori bilan yuqoridagi komissiyalarning namunaviy Nizomlari tasdiqlab berildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda qadimiy va noyob boshqaruv shakli bo'lgan mahalla institutini har tomonlama rivojlantirishga, uning vakolatlarini yanada kengaytirishga hamda qonunchilik tizimida belgilab berilgan vakolatlardan yanada samarali foydalanishga ko'maklashish borasida olib borilayotgan amaliy tadbirlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlanib bormoqda.

4-MAVZU: FUQARO, FUQAROVIIYLIK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI

Reja

- 1. YOshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy jihatlari**
- 2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'rni**
- 3. O'zbekistonda yoshlarga oida davlat siyosatining strategik yo'nalishlari**

4. **Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari**
5. **Ijtimoiy sheriklik-etuklik mezon**
6. **Ijtimoiy sheriklikning tarixi va tadriji**
7. **Ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari**
8. **O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik nazariyasining boyitilishi va amaliyotining rivojlantirilishi**

1. Ijtimoiy sheriklik-etuklik mezon

Birinchi Prezidentiz Islom Karimov o'zining 2010 yil 12 noyabrida Oliy Majlis Senati va Qonunchilik Palatasining qo'shma majlisida bayon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da davlat hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o'rnatish zarurligini ko'rsatib o'tdi. Bu ko'rsatma mazmun e'tibori bilan juda dolzarb va sarmazmundir.

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtirolardan biridir. Insoniyat ijtimoiy sheriklikning zarurligini anglab etishi uchun ko'p asrlar kerak bo'ldi. Bu jarayonda uzoq davom etgan konfrontatsiyani, murosasiz kurashlarni, keskin ijtimoiy nizolarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi.

"Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi ijtimoiy fanlarga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu tushuncha dastavval mehnat munosabatlari doirasida va ularni tartibga solish maqsadida yaratildi. Kapital bilan mehnat, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bo'lsa ham, ularni tartibga soladigan ijtimoiy sheriklikning zarurligi va mumkinligini XIX asrning oxirlari- XX asr boshlariga kelibgina anglay boshlandi. Bu davrgacha ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar goh pasayib, goh kuchayib davom etaverdi. Bu ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi munosabatlar, ya'ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan edi.

Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtiro sifatida XX asrda maydonga keldi. Ungacha ham odamlar orasida sheriklik munosabatlari mavjud bo'lgan. Bunday munosabatlar minglab yillardan buyon davom etib keladi. SHERiklikning kurtaklari hatto yuqori darajada rivojlangan hayvonlar, masalan bo'rilar, arslonlar, sirtlonlar va Afrikadagi sirtlonsimon itlar galalarida ham ko'zga tashlanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun bu hayvonlarning har biri ov jarayonida o'zlarining hatti -harakatini sheriklarining hatti-harakatlari bilan moslashtirib amalga oshiradi. Bu sheriklikning kurtaklari va ibtidoiy ko'rinishlari edi.

Ijtimoiy sheriklikning XX asrgacha jamiyatda mavjud bo'lgan sheriklikdan asosiy farqi shundaki, avvallari sheriklik alohida shaxslar, nari borsa, kichik guruhlar o'rtasidagi sheriklikdan iborat edi. Masalan, bir jamoada mehnat qilayotganlar, bir kasb egalari, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar biror yumushni bajarishda bir-birlari bilan sheriklik qiladi. SHERiklikning bu ko'rinishi hozir ham davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy sheriklik sheriklikning rivojlanishidagi yangi yuksak bosqichni ifodalaydi. Ijtimoiy sheriklik alohida shaxslar yoki kichik guruhlar emas, katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi sheriklikni bildiradi.

2. Ijtimoiy sheriklikning tarixi va tadriji

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hali katta ijtimoiy guruhlar vujudga kelmagan edi. Jamiyat kichik guruhlar (oila va ibtidoiy gala)dan tashkil topgan bo'lib ularning orasida tez-tez ziddiyatlar paydo bo'lar edi. Bu ziddiyatlar asosan hudud va tirikchilik manbalarini talashish oqibatida yuz berar edi.

Jamiyatning manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan katta ijtimoiy guruhlar: qullar va quldorlar sinfiga bo'linishi manfaatlar zidligini keskinlashtirib yubordi. Manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi manfaatlar poymol etilayotgan sinf-qullarning stixiyali chiqishlari isyon va qo'zolonlarga olib keldi. Bunday isyonlarni bostirish uchun quldorlar mirshablar va armiya singari tuzilmalarni tashkil qildi. Quldorlar mafkurasi quldorlarning oliy tabaqa ekanini asoslashga, odamlar o'rtasidagi mulkiy va huquqiy tengsizlikni ilohiy kuchlar irodasi bilan ifodalashga harakat qilar edi.

Feodalizmga o'tish bilan bog'liq yangi ijtimoiy guruhlar: feodallar va dehqonlar sinfining vujudga kelishi ular o'rtasidagi ziddiyatni shaklan biroz yumshatdi. Zamindorlar dehqonlarga anchagina yon bosishdi: ularga oila qurish, hosilning muayyan ulushini olish huquqi berildi. Biroq zamindorlar mafkurasi feodallar, ular ichidagi tabaqalar: dvoryanlar, graf, markiz, gersog va hokazolarning asilzodaligi, ular oliy irq vakillari ekani ma'budlar irodasi bilan belgilanganini asoslashga xizmat qilar edi. Dehqonlarning to'la tizim shakliga kelmagan mafkurasida esa adolatli podsho, mehribon zamindor to'g'risidagi orzu-umidlar ifodalanar edi. Ayni paytda bu mafkura beshafqat xo'jayinlarni qoralar edi. Ko'rinib turganidek, quldorlar mafkurasi faqat quldorlar manfaatini, zamindorlar mafkurasi feodallar manfaatini ifoda va himoya qilar edi. Bu mafkuralar ezilayotgan muqobil sinflar: qullar va dehqonlar manfaatini mutlaqo o'ylamas edi.

Kapitalizm davrida ishchilar kapitalistlar bilan shaklan teng huquqlarga ega bo'lishdi. Ularning huquqiy holati va maishiy turmushi dehqonlarnikiga qaraganda shaklan ancha yuqori edi. Lekin ular ham tirikchilik qilish uchun o'zlarining kuch va qobiliyatlarini sarmoyadorlarga sotishga majbur edilar. Kapitalistik tuzumning dastlabki bosqichlarida ishchilar juda cheklangan miqdordagi shaxsiy mulkka ega edilar, ularning asosiy ko'pchiligi qashshoq turmush kechirar edi. Bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy larzalarga barham bera olmasdi.

Ishchilar va dehqonlarning isyonlari yangi davrda ham davom etaverdi. Kapitalistlar mafkurasi sarmoyadorlarning manfaatini quldorlar va feodallar mafkurasi singari niqobsiz ifodalamas edi. Bu mafkura endi hukmron sinf manfaatini pardali tarzda himoya qila boshladi. YA'ni endi kapitalistlarning boyligi ularning aqli zakovati, harakatchanligi, ishchanligi, topqirligi kabi sifatleri bilan izohlana boshlandi. Ishchilar ham aql-zakovatini ishga solsa, ishchan va topqir bo'lsa bemalol boyib ketishi mumkinligi targ'ib qilindi.

Kapitalizmning dastlabki bosqichlarida shakllanib ulgurmagani ishchilar mafkurasi keyinchalik tizim holiga kela boshladi. Ana shunday tizimlardan biri sotsialistik revolyusiya nazariyasi edi. Bu mafkura go'yo ishchilar manfaatini aks ettirsa ham, muqobil sinf –kapitalistlarni faqatgina qoralab qolmay, ularni butunlay, tag-tomiri bilan yo'q qilishga chaqirar edi.

Ko'rinib turiptiki, ijtimoiy sinflarning mafkuralari faqat shu sinf manfaatlarini ko'zlab yaratilgan. Mafkuralarning sinfiy xususiyatga ega bo'lishi sinflar o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatmagan, balki bu ziddiyatlarning keskinlashuviga xizmat qilgan. Sinfiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi ijtimoiy larzalarga olib kelgan. Birorta ham sinfiy mafkura muqobil sinf manfaatleri to'g'risida biroz bo'lsa ham bosh qotirmagan. Sotsialistik revolyusiya nazariyasi ishchilar manfaatini ifodalovchi yagona haqiqiy nazariyalikka da'vo qilsa ham, aslida ishchilarning haqiqiy manfaatleri kapitalistlarni yo'q qilishda emas, ular bilan kelishuvga erishishda edi. Lekin u paytda taraqqiyotning mana shunday yo'li ham mavjudligi hali anglanmagan edi.

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida mehnat unumdorligining o'sishi va isyonlar kapitalistlarni biroz yon bosishga undadi. Ular ishchi aristokratiyasi, deb atalgan qatlamga biroz imtiyozlar berdilar. Lekin bu holat ham isyonlarga barham bera olmadi. Isyon va qo'zg'olonlar

davom etaverdi. Ana shunday isyonlarning yuqori cho‘qqilaridan biri Oktyabr to‘ntarishi bo‘ldi. Bu to‘ntarish dohiylari ekspluatatsiya yo‘q qilingan yangi sotsialistik tuzum qurilgani to‘g‘risida bong urishsa ham aslida ekspluatatsiya tugatilmadi. Kapitalizm davrida ishchilarni ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga kelgan qo‘shimcha qiymatni kapitalistlar o‘zlashtirgan bo‘lsa, endi ishchilar mehnati tufayli yaratilgan qo‘shimcha qiymatni markaz, davlat va uning amaldorlari o‘zlashtira boshladi.

Sotsialistik tuzum, deb atalgan tuzum aslida kapitalistik munosabatlarning yangi shakli-davlat kapitalizmi bo‘lib chiqdi. Bu tuzum davrida ishchilarni ekspluatatsiya qilishdan tashqari, chekka o‘lkalarni xomashyo bazasiga aylantirildi va shu shaklda milliy ekspluatatsiya ham davom etaverdi. Ekspluatatsiyaga qarshi noroziliklarni bostirish uchun kuchli repressiya apparati tashkil etildi. Buning oqibatida nafaqat alohida shaxslar, balki butun xalqlar qatag‘onga uchradi. Bir qator xalqlarning o‘z vatanlaridan deportatsiya qilinishi bunga misol bo‘ladi. Lekin bu deportatsiya qilinmagan xalqlar emin-erkin yashaganini anglatmaydi. Ularning deportatsiya qilinmagani davlatning ularga nisbatan bag‘rikengligi va yon bosishi emas, ularning o‘z yurtlarida davlatga ko‘proq manfaat keltirishi mumkinligi tufayli edi. Ekspluatatsiyaga nisbatan noroziliklar o‘tgan asrning 80-yillariga kelib sanoat rivojlangan hududlarda zabastovka va stachkalar shaklida namoyon bo‘ldi. Sanoati unchalik rivojlanmagan chekka hududlarda esa aholining noroziligi stixiyali tarzda millatlararo to‘qnashuvlar tarzida yuz berdi. Bizning yurtimizda ana shunday ziddiyatlarning tadriji Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida juda ishonchli va ta’sirchan tarzda ochib berilgan.

Ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilar o‘rtasida XX asr boshlarigacha tom ma’nodagi sheriklik mavjud bo‘lmagan. Ularning manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘pincha zabastovkalar, stachkalarga va isyonlarga aylanib ketgan.

XX asrgacha mavjud bo‘lgan sheriklik alohida shaxslar va kichik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib kelgan bo‘lsa, ijtimoiy sheriklik katta ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga sola boshladi. Masalan, ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilarning manfaatlari o‘rtasidagi asosiy ziddiyat shundan iborat ediki, sarmoyadorlar yollanma ishchilarni ko‘proq ishlatib kamroq haq to‘lashdan, yollanma ishchilar esa kamroq ishlab ko‘proq haq olishdan manfaatdor edilar. Bu ziddiyatni tahlil qilgan Marks uni hal qilishning yo‘li faqat bitta-sotsialistik revolyusiyani amalga oshirish, degan xulosaga kelgan edi. SHu xulosa asosida u sotsialistik revolyusiya to‘g‘risidagi nazariyani yaratdi. Bu nazariyaga ko‘ra yollanma ishchilar komfirqa atrofiga birlashib revolyusiya qilishlari, sarmoyadorlarning barchasini qirib bitirishlari va mamlakatda proletar diktaturasini o‘rnatishlari kerak edi. Marksning yana bir xulosasi sotsialistik revolyusiya barcha mamlakatlarda g‘alaba qozonishi va kommunistik jamiyat qurilishi to‘g‘risidagi nazariya edi.

Ana shu nazariya asosida Rossiyada 1917 yil oktyabr oyida davlat to‘ntarishi amalga oshirildi va proletar diktaturasi o‘rnatildi. Bu hodisa go‘yo Marksning sotsialistik revolyusiya nazariyasi to‘g‘riligini tasdiqlayotganday tuyular edi. Aslida bu hol Marks nazariyasining to‘g‘riligi tufayli emas, insoniyat hali taraqqiyotning boshqa yo‘li-ijtimoiy sheriklik yo‘li ham mavjudligini kashf etib ulgurmagani tufayli vujudga kelgan edi.

O‘tgan asrning 20- va 30-yillaridagi qatag‘onlar, millionlab odamlarning yostig‘i quritilishi ana shu sotsialistik revolyusiya nazariyasining mevasi edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq ittifoqda amalga oshirilgan imperialistik siyosat, yakka partiya va yakka millatning hukmronligi, milliy respublikalarning ko‘pchiligi markazga xomashyo etkazib beradigan o‘lkalarga aylantirib qo‘yilishi ham oktyabrdagi davlat to‘ntarishining mudhish aks- sadosi edi.

Ijtimoiy sheriklik g‘oyasi marksizmning muqobili sifatida maydonga chiqdi. Uning vujudga kelishiga kuchli turtki bergan hodisalardan biri Oktyabr to‘ntarishi bo‘ldi. O‘tgan asrning 20- yillari oxiri va 30- yillarida sobiq ittifoqda yuz bergan qatag‘onlar proletariat diktaturasi qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatdi. Keyinchalik proletariat diktaturasining qanday oqibatlarga olib kelishi

mumkinligi boshqa bir qator mamlakatlarda ham namoyon bo'ldi. Endi G'arb mamlakatlaridagi siyosatchilar va jamiyatshunos olimlar sotsialistik reolyusiya va proletariat diktaturasiga muqobil bo'lgan g'oyalarni zudlik bilan izlashga tushdi. Ana shunday g'oyani topish uchun ularga mulkdorlar va davlat hokimiyati organlari buyurtma berishdi. Bu yo'nalishda G'arb sotsial-demokratlari bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi.

XX asrning o'rtalarida T.Parsons va YU.Xabermaslar tomonidan yaratilgan konsensus nazariyasi ijtimoiy sheriklikning keng miqyosda yoyilishiga katta turtki berdi. Bu nazariya ijtimoiy shartnoma nazariyasi o'rniga kelib, ijtimoiy sheriklikning nazariy metodologik asosi vazifasini bajara boshladi.

Ijtimoiy sheriklik bozor munosabatlariga o'tish va demokratik institutlarni rivojlantirishning muhim sharti ekanini jahon amaliyoti tasdiqladi. Bizning mamlakatimizda ham bozor islohotlarini chuqurlashtirish uchun ijtimoiy sheriklik tamoyillarini kengroq va to'laroq tadbiiq qilish zarur bo'ldi. Ana shu zarurat Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da aniq va yaqqol ko'rsatib berildi. Prezident Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshira borib 2014 yilda mamlakatimizda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va u 2015 yil 1yanvaridan kuchga kirdi.. Bu Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikni hayotga tadbiiq qilishda muhim bosqich bo'ldi. SHuni ham ta'kidlash joizki, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ijtimoiy sheriklik sohasidagi ishlarning yakunlanganini emas, yangi mas'uliyatli bosqich boshlanganini anglatadi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy sheriklikning turli jihatlarini tadqiq qilishga kirishilganda sobiiq sho'rolar ittifoqida bu masalaga umuman e'tibor berilmadi. Buning sababi shundaki, sobiiq sho'rolar tuzumida hukmron bo'lgan sinfiy kurash nazariyasi ijtimoiy sheriklikni inkor qilar edi. Ijtimoiy sheriklikning mehnat munosabatlarinini tartibga solish imkoniyatlari ham inkor qilinib, bunday muammolar faqat kapitalistik ijtimoiy munosabatlarga xos, deb e'lon qilingan edi.

Ijtimoiy sheriklikka qiziqishning o'sishini ta'minlagan ijtimoiy muammolar XX asr oxirlaridan boshlab sotsialistik lager, deb atalgan tizimning parchalanishi, ko'pchilik mamlakatlarda transformatsiya jarayonlarining boshlanishi hamda kuchayishi edi. Sobiiq sotsialistik tuzumning emirilishi ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning tiklanishi, mulkdor va sarmoyadorlar sinfi hamda uchinchi sektor-nodavlat notijorat tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi.

Sobiiq ittifoqda nodavlat tashkilot deb ataladigan kasaba uyushmalari, ovchilar jamiyati, ixtirochilar uyushmasi singari tashkilotlar mavjud bo'lsa ham amalda ular hukmron partiya ko'rsatmasi bilan tuzilar va shu partiyaning ko'rsatmalari doirasidan chetga chiqa olmas edi. Mustaqillik davrida vujudga kelgan nodavlat notijorat tashkilotlar o'zlarining faoliyatini ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanib olib bora boshladi. Bundan tashqari, aholining qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun hokimiyat organlari vakillari ham ijtimoiy sheriklik texnologiyalariga murojaat qila boshladi. Dastlab mehnat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida shakllangan ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda turli ijtimoiy guruhlar, sub'ektlar va jamoalarning o'zaro mnuosabatlarini ham tartibga solishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy sheriklik ko'proq strategik rejalashtirish, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlari qabul qilishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda.

Ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning Mehnat kodekslarida, mamlakatlarni strategik rivojlantirishga aloqador hujjatlarda, turli sohalarga oid uslubiy tavsiyalar va me'yoriy hujjatlarda mustahkam o'rin egallamoqda.

Ijtimoiy sheriklik XX asr oxiri va XXI asr boshlarida siyosiy barqarorlikni ta'minlashda, jamiyatda yangicha insoniy munosabatlarni shakllantirishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda. SHularning bari ijtimoiy sheriklikni fanlararo yondashuv asosida chuqur, atroflicha va

jiddiy tahlil qilish zaruratini vujudga keltirdi. Bu muammoni tadqiq qilishda sotsiologiya, falsafa, iqtisodiyot, ijtimoiy psixologiya, va siyosatshunoslik singari qator fanlarning tadqiqot metodologiyalari va kategoriyalaridan foydalanilmoqda.

Ijtimoiy sheriklik dastavval mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida vujudga kelgan bo'lsa ham, hozigi kunda uning faoliyat yuritish sohalari mehnat munosabatlari doirasidan ancha chetga chiqadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida “sektorlararo ijtimoiy sheriklik” konsepsiyasi ko'p mamlakatlarda, shu jumladan MDHga a'zo mamlakatlarda keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, ijtimoiy sheriklik sub'ektlari hokimiyat, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat. “Sektorlararo ijtimoiy sheriklik” ikki yoki uch sektor: davlat, biznes, notijorat sektor ijtimoiy muammolarini hal qilishda o'zaro kelishilgan konstruktiv harakatlarni amalga oshirishni ifodalaydi. Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida” Qonunida ijtimoiy sheriklik sub'ektlari haqidagi 3-bobida shunday deyiladi: “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir”⁶⁴.

SHuni unutmash kerakki, Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunida ijtimoiy sheriklik sub'ektlari davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari deb ko'rsatilishi mamlakatimizda mehnat munosabatlarida ham ijtimoiy sheriklik mavjudligini inkor qilmaydi. Mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy sheriklik masalalarini O'zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi” va o'ttizdan ortiq qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari tartibga soladi. Bu haqda “Mehnat Kodeksi”ning 1-moddasida shunday o' deyiladi: “O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi”⁶⁵.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari mamlakatimizda dunyoning ko'p mamlakatlarida bo'lgani singari bipartizm (ikki tomonlama) shaklida, masalan, jamoa shartnomalari hamda tripartizm (uch tomonlama) masalan, ish beruvchilar, yollanma ishchi va xizmatchilar hamda davlat hokimiyati organlari yoki ularning vakillari ishtirokida olib borilmoqda. Mamlakatimizda 2011 va 2014 yillarda ijroiya hokimiyati (Vazirlar Mahkamasi), biznes vakillari (Savdo-sanoat palatasi) hamda yollanma ishchi va xizmatchilar (Kasaba uyushmalari Federatsiyasi) tonidan imzolagan “Bosh kelishuv”lar ham mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy sheriklik ham mustahkam me'yoriy-huquqiy asosda olib borilayotganidan dalolat beradi.

3. Ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari

Ijtimoiy nizolarni tizimli tahlil qilish bo'yicha dastlabki urinishlarni italiyalik davlat arbobi va nazariyotchi Nikkolo Makiavelli amalga oshirgan edi. U birinchilardan bo'lib nizolarning faqat vayronkor

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда

⁶⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Меҳнат Кодекси”, Тошкент, “Адолат” нашриёти, 2008 йил, 4-бет.

emas, balki yaratuvchilik funksiyalari ham mavjudligiga e'tibor qaratdi. Bunda u nizolarga to'g'ri ta'sir o'tkazish zarurligini ta'kidladi. Uning fikriga ko'ra bunday vazifani davlat bajarishi lozim edi.

Ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimini birinchilardan bo'lib angliyalik Frensis Bekon nazariy tahlil qildi. U ijtimoiy tabaqalarning fikrlarini mensimaslik, boshqaruv jarayonidagi xatoliklar, mish-mishlar va g'iybatlarning tarqalishi jamiyatdagi nizolarning paydo bo'lishiga olib kelishini dalillar bilan ko'rsatib berdi.

Odamlar o'rtasida ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligi g'oyasi Tomas Gobbsning asarlarida bayon qilindi. Mazkur shartnoma jamiyatning o'zini o'zi himoya qilishi hamda xususiy mulkning abadiy bo'lishiga xizmat qiladi. Uning "Leviatan", "Fuqarolar haqidagi ta'limotning falsafiy elementlari" asarlarida ijtimoiy shartnomaga erishish zarurligi asoslab berilgan. Bunday shartnoma umumiy kelishuv hamda xususiy mulkning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

YAngi davrga kelib ma'rifatparvar faylasuf Jan-Jak Russoning ijtimoiy shartnoma to'g'risidagi g'oyalari keng tarqaldi. Uning asarlarida ijtimoiy shartnoma odamlar o'rtasida yo'qotilgan ijtimoiy munosabatlarning uyg'unligini, o'zaro kelishuv va tinchlikka intilishni qayta tiklaydi.

YOllanma ishchi va ish beruvchi kapitalist o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Adam Smit asarlarida ilk bor tahlil qilindi. Xo'jalik yuritishning asosiy maqsadi foyda olish ekanini e'tirof etar ekan, u erkin raqobat, xususiy mulk humronligi, savdo-sotiq erkinligi, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi iqtisodiy hayotning "tabiiy tartibi" degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, yollanma ishchilar va kpitalistlar o'rtasidagi o'zaro kurash jamiyatning rivojlanib borishi manbai, raqobat esa insoniyat uchun farovonlik keltiruvchi hodisadir.

Nemis faylasuflari Leybnits va Immanuel Kant fikriga ko'ra odamlar o'rtasidagi murosa va tinchlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotda shartnoma va kompromissga erishish asosida ta'minlanishi lozim. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro mahsulot almashish g'oyasi hamda turli ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi kurash muammolarini Per Jozef Prudon tomonidan tadqiq qilindi.

Fransiyalik olim Lui Ogyust Blanki kapitalistik jamiyatni tanqid qilar ekan tarixiy taraqqiyotni ma'rifatning tarqalishi va shu asosda madaniy-ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi sifatida talqin qildi.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy konseptual asoslari ijtimoiy harakat nazariyasi, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy kelishuv, ijtimoiy jipslik to'g'risidagi g'oyalar asosida shakllandi.

M.Veber fikriga ko'ra an'anaviy harakat tahlil qilish hamda oqilona tanqid qilish mumkin bo'lmagan madaniy an'analarda mustahkamlangan xulq-atvor namunasidir. Harakatning mazkur tipi ahamiyati odamlarning kundalik xulq-atvori ko'pincha ana shu tarzda yuz berishi bilan belgilanadi. Bunday harakatlarda hal qiluvchi rolni urf-odatlar, turli darajada anglangan odatlarga sadoqat o'ynaydi.

Ijtimoiy harakat nazariyasi amerikalik sotsiolog Parsons tomonidan tadqiq etildi. U sub'ektlarning o'zaro ta'siri mexanizmlarini tadqiq qildi. Bunda u ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan me'yorlar, xulq-atvor andozalari faoliyatning ichki motivlariga aylanishi jarayoniga alohida ahamiyat berdi. Muvozanat, konsensus, ijtimoiy tizimning me'yoriy holatidagi eng muhim belgilar ekaniga e'tibor qaratar ekan T.Parsons ana shu holatni nazorat qilish va tartibga solish jarayonlariga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, aynan ana shu jaryonlar jamiyatni ko'ngilsiz nizolardan himoya qiladi. Uning tadqiqotlarida konsensus muammosi o'zaro kelishilgan harakat yo'llarini izlash bilan bevosita bog'liq tarzda tadqiq etiladi. Bunday o'zaro ta'sir sheriklarning o'zaro ekspektatsiyalariga, ya'ni bir-birlaridan kutayotgan harakatlar va natijalarga asoslanadi.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy va tashkiliy asoslaridan biri bo'lgan konsensusni nemis sotsiologi YU.Xabermas demokratiyaning muqobili sifatida talqin qiladi. Uning talqinida demokratik usul jamoa va jamiyatni ikkiga: ko'pchilik va ozchilikka bo'lib qo'yadi. Konsensus esa bo'lingan jamoa va jamiyatni

birlashtiradi. Bunga u hal qilinayogan muammoga nisbatan ko'pchilikning fikrini aniqlash yo'li bilan emas, barcha tomonlar qarshi bo'lmagan echimni topish yo'li bilan erishadi. Konsensusga erishish uchun manfaatlari va yondashuvlari bir-biriga unchalik mos kelmayotgan tomonlar hech bir tomon qarshi bo'lmagan echimni topishga harakat qilishlari va topishlari kerak.

Konsensus mohiyatan kelishuvni bildiradi. Lekin uning XX asrgacha mavjud bo'lgan kelishuvlardan farqi shundaki, u kelishuvga erishishning yangi samarali amaliyotini yaratdi. Unga ko'ra manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan tomonlar o'zaro munosabat va muzokaraga kirishar ekan, ular avvalo bir-birlariga yon bosishlari kerak. Qolaversa, ular barchani qoniqtiradigan, hech bo'lmaganda hech qaysi tomonda qarshilik uyg'otmaydigan echimni topishga harakat qilishlari va topishlari lozim. Bunday echimning topilishi konsensusga erishganlikni bildiradi.

Ijtimoiy sheriklik tarixi va tadrijini qisqacha ko'rib o'tish shundan guvohlik beradiki, ungacha mavjud bo'lgan barcha nazariya va mafkuralar faqat u yoki bu sinf, ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalagan. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi munosabatga kirishuvchi barcha ijtimoiy guruhlar manfaatini uyg'unlashtirilgandagina jamiyatda totuvlik va ijtimoiy barqarorlik vujudga kelishi mumkinligini asoslaydi. SHuning uchun bu nazariya u yoki bu sinf nazariyasi emas, o'zaro munosabatlarga kirishayotgan barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali ifodalaydigan nazariya hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim sharti va asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik jarayonida o'zaro ta'sirning eng muhim belgilaridan biri konsensusga yo'naltirilganlikdir. Bu belgi ijtimoiy sub'ektlarning maqsadlari va manfaatlarini mavqelarni o'zaro yaqinlashtirish orqali ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Bu jarayon tomonlarning bosim o'tkazishga moyilligini inkor qiladi. Tomonlardan birining bosim o'tkazishga intilishi bir zumda ijtimoiy sheriklikni yo'q qilib uni o'zaro kurashga aylantiradi.

Ijtimoiy sheriklikning juda muhim belgilaridan biri erkin fikr almashishning kafolatlanganligi, tomonlar o'zining me'yoriy qadriyatli tizimlarini erkin taqdim qila olishi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik nazariyasi nizolar muammosi bilan chambarchas bog'liq holda vujudga keladi. CHunki ijtimoiy sheriklik nizolarni hal qilish jarayonida vujudga keladi va nizolarni hal qilish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklik nizolar tufayli yuzaga keladi, nizolardan o'sib chiqadi. Bu jarayon nizolarni boshqarish hamda manfaatlarini kelishtirish asosida hal qilishga intilish bosqichida, shuningdek, kompromissga, konsensusga intilish bosqichida yuz beradi.

Ijtimoiy sheriklikning jamiyat hayotiga keng tadbiiq etilishi o'z-o'zidan avtomatik tarzda yuz beradigan hodisa bo'lmay, atroflicha va puxta o'ylab amalga oshiriladigan siyosat natijasidir. Mamlakatimizda bunday siyosatni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ishlab chiqdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy islohotlarning negizida yotgan besh tamoyil ijtimoiy sheriklikning jamiyat hayotida ildiz otishi uchun sharoit yaratdi.

Ijtimoiy sheriklik turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlarini maksimal darajada hisobga olish, muvofiqlashtirish va imkon boricha to'laroq ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy sheriklik mohiyat e'tibori bilan jamiyatda konsensus va osoyishtalik o'rnatilishiga, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi tarangliklarni yumshatishga, turli darajadagi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida siyosiy birdamlikni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Har qanday mamlakat hududida aholining ko'pchiligi manfaatlarini ko'zlaydigan adolatli ijtimoiy tartibotlarni joriy etish faqatgina davlat organlarining ishi emas. Jahon tarixi guvohlik berishicha, ijtimoiy nizolarni alohida holda davlat ham, oila ham, bozor munosabatlari ham hal etolmaydi. Faqatgina ijtimoiy sheriklik, ya'ni ijtimoiy-siyosiy maydondagi turli kuchlarning konstruktiv muloqotigina

insonlarga xos turmush kechirish imkoniyatlarini berishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hayotga tadbiiq etishning asosiy maqsadi davlat va fuqarolik jamiyatlari o'rtasida katta ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni ta'minlashdir.

O'zaro hamkorlik jamiyatda mavjud bo'lgan qashshoqlik, jinoyatchilik, atrof-muhitning ifloslanishi, etimlik singari ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun zarur. Bu jarayonda ishtirok etayotgan barcha tomonlar ana shu muammolarni hal etishda o'zlarining mas'uliyatlarini his etishlari lozim. Ayni paytda ular bu muammolarni hal etish uchun turlicha imkoniyatlar va turlicha tasavvurlarga ega. Ana shu turlichalik, o'zaro tafovutlar, ba'zi ziddiyatlarga qaramay o'zaro sheriklik munosabatlarini o'rnatish mumkin va zarur.

Ijtimoiy sheriklikning muhim qirralaridan biri ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llari va usullarini birgalikda topish, bu muammolarni echishga keng jamoatchilikni jalb etish hamdir.

Ijtimoiy sheriklikning tadbiiq etilishi davlatning kuchli, barqaror va samarador bo'lishiga olib keladi, chunki u hokimiyatning maqsadlari va harakatlarini keng jamoatchilik tomonidan ma'qullanishi, qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy sheriklik g'oyalari keng xalq ommasi maqsadlari va manfaatlariga yaqin bo'lib, tegishli tushuntirish ishlari olib borilganda, u ko'pchilik aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu tamoyil xalqni hokimiyat bilan yaqinlashtiradi, adolatli, samarali jamiyat shakllanishiga ko'maklashadi.

Demokratik tamoyillarga amal qiladigan davlatning maqsadi huquqiy davlatni shakllantirishdir. Huquqiy davlat fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti hisoblanadi. Ko'ngilli jamoat birlashmalarida, kasaba uyushmalarida, xayriya jamg'armalari va boshqalarda ishtirok etish har bir fuqaroning shaxsiy ishi bo'lsa ham, aslida u jamiyat va shaxsning munosabatlari darajasini ko'rsatadigan indikator hisoblanadi. Bunday birlashmalarda ishtirok etish bir tomondan shaxsiy ish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ulkan siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Fuqarolar o'z erkinliklari va huquqlaridan foydalanib, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lar ekan, o'z zimmalariga muayyan mas'uliyat va majburiyatni oladilar. Jamoat birlashmalariga a'zo bo'lishdan avval fuqarolar o'sha birlashmalarining maqsadlari, tamoyillari, strategiya va taktikalaridan xabardor bo'lishlari zarur.

Jamiyatda mavjud muammolarni aniqlash, ifodalash va tegishli tashkilotlarga etkazishda jamoat birlashmalari muhim rol o'ynaydi. Ularning mas'uliyati ham xuddi mana shunda, ya'ni muammoni aniqlash va davlat yoki biznes vakillariga etkazishda ko'rinadi. Ana shu birlashmalar faoliyatida ishtirok etar ekan, fuqarolar muayyan muammolar to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'ladi va bu ma'lumot ularning zimmasiga muammoni echish yo'llarini izlash, undan davlat hokimiyati organlari va biznes vakillarini tegishli tarzda xabardor qilish mas'uliyatini yuklaydi. Fuqarolarning mana shu jarayonda faol ishtirok etishi ijtimoiy sheriklikning harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik sub'ektlaridan biri bo'lgan davlatning funksiyalari ana shu sheriklikni rivojlantirish uchun huquqiy va iqtisodiy stimullarni yaratishdan iborat. O'zbekistonda davlatning eng muhim funksiyalaridan biri jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi muvozanatni va dialogni saqlab turishdir. Davlat tomonidan o'tkazilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat aholining muayyan guruhlari haddan tashqari boyib ketishi, boshqa guruhlar esa qashshoqlashib ketishining oldini olib turadi. Bunday siyosatning maqbulligi shundaki, juda boy va juda qashshoq guruhlar o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy tafovutlar kelib chiqadi. Bunday tafovutlarning kuchayishi esa, ziddiyatlarga, ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy sheriklik turli mamlakatlarda umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda milliy o'ziga xosliklarga ham ega bo'ladi. Ko'pincha ijtimoiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy ongda adekvat tarzda aks etmaydi. Chunki, ijtimoiy sheriklikni to'la va chuqur tushunish uchun ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, huquqshunoslik fanlari bo'yicha muayyan bilimlarga ega bo'lish taqozo etiladi. Ba'zan tashkilotlar ichidagi yoki tashkilotlar o'rtasidagi har qanday hamkorlikni ijtimoiy

shiriklikning ko'rinishi sifatida qabul qilinadi. Aslida bu haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Bunday hamkorlik oddiy shiriklikning ko'rinishidir. Ijtimoiy shiriklik, yuqorida ta'kidlanganiday, katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi shiriklikni anglatadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy shiriklikning mohiyati ijtimoiy-siyosiy maydondagi kuchlar: davlat tuzilmalari, tijorat korxonalari va notijorat tashkilotlari o'rtasidagi konstruktiv aloqadorlik sifatida anglashiladi. Ijtimoiy fanlarda bu kuchlar 1-, 2- va 3-sektor nomlari bilan yuritiladi. Ijtimoiy shiriklik har uch sektor vakillari o'rtasida hamkorlik paydo bo'lganda va bu hamkorlik har uch guruh va jamiyat uchun manfaatli ekani anglashilganda vujudga keladi.

Ijtimoiy shiriklikning quyidagi muhim elementlarini ko'rsatish mumkin: ijtimoiy muammo; shiriklarning manfaatlari va shiriklikning huquqiy asoslanishi; o'zaro ta'sir va o'zaro nazoratning qoidalari ishlab chiqilgani; ijtimoiy shiriklik jarayonlarini yoritadigan axborot maydoni mavjudligi; tomonlarning o'zaro jipslashishi uchun loyihalarning mavjudligi; ijtimoiy shiriklik jarayonining barqarorligi va doimiyligi; ijtimoiy muammolarni echishning innovatsion usullarini izlash va topish; ijtimoiy muammoning barcha tomonlar uchun muhimligi; shiriklarning manfaatlarini aniqlash va hisobga olish; faoliyat maqsadi va vazifalarini birgalikda belgilash; hamkorlik jarayonida amal qilishi zarur bo'lgan aniq qoidalarni ishlab chiqish; hamkorlik alohida-alohida harakat qilishga nisbatan bir necha barobar samarali bo'lishi mumkinligini barcha tomonlar to'la anglab etishi.

Har qanday kooperatsiya ham ijtimoiy shiriklikka misol bo'la olmaydi. Chunki, kooperatsiyaga tomonlar o'zlarining maqsadlariga erishish uchun birlashadilar. Masalan ikki yoki undan ortiq xususiy korxonaning muayyan faoliyat turlarini birgalikda amalga oshirish to'g'risida tuzgan bitimi ijtimoiy shiriklik emas. Bu iqtisodiy shiriklikdir. Ijtimoiy shiriklik ko'pqirrali hodisa bo'lib siyosiy jihatlardan tashqari ma'naviy, ahloqiy, falsafiy jihatlariga ham ega. Uni ijtimoiy amaliyotga tadbiiq qilish uchun jamiyatda bag'rikenglik keng tarqalgan bo'lishi taqozo etiladi.

Bag'rikenglikning amaliy ahamiyati qay daraja katta ekanini shundan ham bilish mumkinki, bir qator shaxslararo munosabatlarga emas, guruhlararo munosabatlarni ham uning yordamisiz yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, ijtimoiy shiriklik munosabatlariga kirishayotgan guruhlar va shaxslarda bag'rikenglik singari ma'naviy-ahloqiy sifat bo'lmasa, uning qaror topishi benihoya qiyinlashadi.

Ijtimoiy taraqqiyot intensivlashayotgan va davlatlararo munosabatlar murakkablashib ketayotgan hozirgi davrda bag'rikenglik guruhlar va davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda, jamiyatda millatlararo, ijtimoiy guruhlararo, dinlararo tinch-totuvlikni ta'minlashda borgan sari ulkanroq ahamiyat kasb etmoqda.

Bag'rikenglik ahamiyatining ortib borishi uning umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi tufayli ham yuz bermoqda. Mazkur qadriyatlar asnosida bag'rikenglik shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning ko'pchilik tomonidan eng maqbul, deb hisoblanadigan yo'li sifatida namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun ham katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmi bo'lgan ijtimoiy shiriklikning ijtimoiy hayotda qaror topishi ko'p jihatdan bag'rikenglikning ijtimoiy guruhlar faoliyati tamoyili sifatida qanday o'rin egallaniga bog'liq bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inqilobiy yo'l emas, ijtimoiy shiriklik mamlakatlarni farovon hayotga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Biz ana shu shiriklik yo'lini tanladik. Lekin bu G'arb mamlakatlari tajribasini mexanik tarzda O'zbekistonga ko'chirishni anglatmaydi. Mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib islohotlar o'tkazish Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va hozir dunyoda o'zbek modeli nomi bilan mashhur bo'lgan modelda o'z ifodasini topgan.

4. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik nazariyasining boyitilishi va amaliyotining rivojlantirilishi

Insoniyat tarixida buyuk rol o‘ynagan ijtimoiy sheriklik nazariyasi Mustaqil O‘zbekistonda hayotga keng tadbiiq etila boshladi. U hayotga nafaqat tadbiiq etildi, balki uning nazariy asoslari boyitildi va amaliy jihatlari rivojlantirildi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” shiori o‘rtaga tashlandi. Kuchli jamiyat esa fuqarolik jamiyatidir. Ba‘zan, “Nima uchun bira to‘la “Kuchli davlatdan fuqarolik jamiyati sari” shiori olg‘a surilmadi?” degan savol o‘rtaga tashlanadi. Dastavval “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” shiori o‘rtaga tashlanishining sababi shundaki, sobiq sho‘rolar tuzumi davrida “fuqarolik jamiyati” tushunchasi umuman ishlatilmasdi. SHuning uchun mustaqillikning dastlabki yillarida bu tushuncha mamlakatdagi ko‘pchilikka tanish emasdi. Agar o‘sha davrda “Kuchli davlatdan fuqarolik jamiyati sari” shiori o‘rtaga tashlansa, u ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lmay qolardi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” Konsepsiyasida ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish zarurati to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, jumladan shunday deyiladi: “Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta‘minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor.”⁶⁶

Ijtimoiy sheriklikning nazariy masalalari Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning qator asarlari, nutq va maqolalari, xususan, uning zikr etilgan Konsepsiyasida chuqurlashtirilgan bo‘lsa, amaliyotning rivojlantirilishi uni mamlakatimizda Prezident rahbarligida amalga oshirish jarayonida yuz berdi. Prezident Konsepsiyasidan yuqorida keltirilgan iqtibosda ijtimoiy sheriklikning mohiyati, maqsadlari, vazifalari ochib berilgan.

Tarixga qilingan qisqa ekskurs asrlar davomida katta ijtimoiy guruhlar o‘rtasida doimo ziddiyatlar mavjud bo‘lgani, bu ziddiyatlar ko‘plab marta qon to‘kilishlarni keltirib chiqargani, isyonlar hukmron sinflar tomonidan ayovsiz bostirilganidan guvohlik beradi. Tarixda hukmron sinflarning eziluvchi sinflarga yon bosishlari ham kuzatilgan. Lekin bu yon bosishlar epizodik xarakterga ega bo‘lib taktik maqsadlarda vaqtdan yutish yoki ilojisizlik tufayli yuz bergan.

Tarixda sinflarning manfaatlarini uyg‘unlashtirishga chaqiriqlar ham bo‘lgan, lekin ana shunday uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan mafkuralar bo‘lmagan. Ijtimoiy sheriklik sinfiy ziddiyatlarni yumshatish, manfaatlarning uyg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan mafkura edi. Bu mafkuraning kelib chiqishiga asosiy sabab mehnat sohasidagi munosabatlar edi va bu mafkura birinchi navbatda mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida yaratildi. Keyinchalik bu mafkura rivojlandi va boyitildi. Mustaqil O‘zbekiston misolida ijtimoiy sheriklik nafaqat mehnat munosabatlarini, balki jamiyatdagi mavjud munosabatlarning katta qismini tartibga solish vazifasini bajara boshladi.

⁶⁶ Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Т.2010, 41-бет

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Konsepsiyasida mehnat munosabatlariga urg'u berilmaganining sababi hozirgi kunda mehnat munosabatlaridagi antagonistik ziddiyat ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham bartaraf etilganida. Bundan tashqari, mehnat munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan qonunlar va boshqa huquqiy me'yorlar dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida mavjud. Bunday hujjatlar orasida markaziy o'rinni "Mehnat kodeksi" egallaydi. O'zbekistonda bunday Kodeks 1995 yilda qabul qilingan edi. "Mehnat Kodeksi"dan tashqari yana ko'plab huquqiy-me'yoriy hujjatlarda mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari ko'rib chiqilgan. Bundan chiqadigan xulosa shundaki, asosan tartibga solingan mehnat munosabatlarini yana bir marta tartibga soladigan hujjat yoki institut yaratishga zarurat yo'q. Ijtimoiy sheriklik endi jamiyat oldida turgan boshqa muammolarni hal qilishga yo'naltirilishi lozim. Islom Karimov Konsepsiyasida ana shu muammolar ko'rsatib berilgan.

Prezident Konsepsiyasida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish zarurati haqida gapirilar ekan, asosiy e'tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqa fanlarga oid adabiyotlarda asosiy e'tibor fuqarolik jamiyati institutlarining mohiyati, miqdori, funksiyalari kabi masalalarga qaratilgan. Bunday institutlar fuqarolik jamiyatining negizini tashkil qiladi. Biroq negizning o'zi fuqarolik jamiyati, degani emas. Bunday institutlarning soni o'n minglab va yuz minglab bo'lsa ham fuqarolik jamiyati qurilib qolmaydi. Fuqarolik jamiyati vujudga kelishi uchun ana shu institutlar, davlat hokimiyati organlari va biznes vakillari o'rtasida sheriklik munosabatlari bo'lishi shart. SHu ma'noda aytilish mumkinki, ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatiga olib boradigan asosiy yo'ldir.

Prezident Konsepsiyasida ijtimoiy sheriklikning hozirgi kundagi asosiy funksiyasi ko'rsatib berildi. Prezidentning ko'rsatmalari O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunida o'zining to'la ifodasini topdi.

Ijtimoiy sheriklik nazariyasiga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Konsepsiyasida aniqlik va yangiliklar kiritilishi bilan bir qatorda amaliy sohada ham mazkur nazariya rivojlantirildi. Bunday rivojlantirish ijtimoiy sheriklik sub'ektlari doirasini kengaytirish va ularning o'zaro munosabatlarini rivojlantirish shaklida amalga oshirildi. Xolislik taqozosiga ko'ra qayd etish lozimki, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ijtimoiy sheriklikka nisbatan "sektorlar o'zaro ta'sir" nazariyasi ham vujudga keldi. Bu nazariya tarafdorlari ijtimoiy sheriklikni mehnat munosabatlarini doirasidan tashqariga olib chiqishdi. Unga ko'ra ijtimoiy sheriklik sub'ektlari bo'lgan davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakillari ijtimoiy masalalarni hal qilishda hamkorlik qilishlari lozim. Mazkur nazariya tarafdorlari har uch sektor vakillarining ijtimoiy masalalarni hal qilishda o'zaro tortishuv va munozaralar jarayonida konsensusga kelib faoliyat yuritishlarini nazarda tutadi. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik sub'ektlari o'zaro munosabatlarining yangicha shakli vujudga keldi. Bu shakl tomonlarning o'zaro raqobatiga emas, o'zaro yordam va hamkorligiga asoslanadi. Tomonlarning mana shunday munosabati ijtimoiy sheriklikning sinergiya effektini vujudga keltirishiga olib keldi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga tadbiiq qilingan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'zbek modelining asosiy tamoyillaridan biri-davlatning bosh islohotchi ekani ijtimoiy sheriklik sohasida ham o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sho'rolar tuzumi davrida ijtimoiy tashabbuslari bo'g'ilgan va shunday vaziyatga ko'nikib qolgan aholining tafakkur tarzini o'zgartirish zarur edi. Mustabid tuzum davrida odamlar ijtimoiy sheriklik to'g'risida bilim olish va ko'nikmalar hosil qilish imkoniga ega emas edilar. CHunki u davrlarda ijtimoiy fanlar bo'yicha chop etilgan adabiyotlarda bu mavzu umuman tilga olinmas, olingan paytlarda esa faqat tanqidiy nuqtai nazardan yoritilar edi.

SHo'rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlarida ijtimoiy sheriklik g'ayri ilmiy nazariya sifatida baholanar edi. Ana shunday kayfiyatda tarbiyalangan odamlar ijtimoiy sheriklik munosabatlariga

mustaqillik qo'liga kiritilgandan keyin ham kirishib ketishlari qiyin kechdi. SHuni hisobga olib davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari qo'llab-quvvatlana boshladi. Davlat dastavval fuqarolik jamiyati institutlari erkin harakat qilishlari uchun me'yoriy-huquqiy bazani tayyorladi. Bu haqda Prezident Konsepsiyasida shunday deyiladi: "Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarni tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Homiylik to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda⁶⁷.

Davlat fuqarolik jamiyati institutlari erkin harakat qilishlari uchun me'yoriy-huquqiy bazani tayyorlash bilan bir qatorda ularga iqtisodiy jihatdan ko'mak berishni ham kuchaytirib bordi. NNTlarga ko'rsatilayotgan ko'mak davlatning iqtisodiy salohiyati oshishi bilan birga kuchayib bordi. Bu ko'mak keyingi birnecha yil davomida ayniqsa salobatli bo'ldi. 2010 yilda Prezident "bunday ko'makning miqdori keyingi uch yilda o'n bir milliard so'mdan ortiq tashkil qildi", deb aytgan bo'lsa, 2015 yilning o'zida bu ko'mak hajmi so'mni tashkil qildi.

Davlatning NNTlarga har tomonlama ko'mak ko'rsatayotganining sabablaridan biri shundaki, NNTlarning asosiy maqsadi-aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy xizmatni davlat idoralari ham ko'rsatadi. Lekin NNTlar tarkibi ixchamligi va bevosita aholi tashabbusi bilan tuzilgani sababli ularning xizmati tezkor va aniq manzilga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, NNTlar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga davlat byudjeti mablag'laridan tashqari xususiy sektor mablag'larini ham grantlar, xayriya ishlari, badallar, volontyorlar faoliyati shaklida jalb etish imkoniyatiga ega. O'zbekistonda davlat NNTlarning mana shu xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olib har tomonlama yordam ko'rsatmoqda. Davlatning ko'magi grantlar, ijtimoiy buyurtmalar, subsidiyalar tarzida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadlari va sub'ektlari "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur Qonunning 3-bandida bu haqda shunday deyiladi: "Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir"⁶⁸

Davlatning NNTlarga ko'rsatadigan ko'magi barqaror va salmoqli bo'lishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. SHu qaror asosida NNTlarga mo'ljallangan grantlar miqdori va ajratilayotgan mablag' hajmining ortib borishi fuqarolik jamiyati institutlarining tezroq oyoqqa turib olishlari va faolligining ortishida sezilarli rol o'ynamoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasida olib borilayotgan ishlarga qisqacha ko'z yugurtirib chiqishning o'zi ham bu masalada jahon fani yaratgan

⁶⁷ Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Т.2010, 40-бет.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда

nazariya yangi yondashuv bilan boyitilgani, uning bir qator jihatlarini aniqlashtirilgani, mazkur soha amaliyoti esa jiddiy boyitilganidan guvohlik bermoqda.

5. YOshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy jihatlarini

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "... – bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. YOki boshqacha qilib aytganda, bu – "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi"⁶⁹. Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o'zining ayrim vazifalarini bo'ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog'i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o'z-o'zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi idoralarning faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

O'zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas'uliyatlidirlar. SHuning uchun ham mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab etishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun ma'naviy kamolot manbai bo'lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas'uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuning uchun ham, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatga o'tish konsepsiyasi zahirida inson erkinliklarini fuqaro, halq manfaatlariga mos holda bosqichma-bosqich yuzaga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ma'lumki, qonunlarning har bir moddasida insonning muayyan yo'nalishdagi erkinliklari beriladi. Lekin yodda tutmoq kerak-ki, bunday tartib, yo'l-yo'riq yoki imkoniyat faqat bitta fuqaroning erkinligini yuzaga chiqarish uchungina joriy etilgan emas. Balki bu huquqiy me'yor barcha uchun teng asosga ega. Hamonki shunday ekan, barcha ya'ni butun jamiyat a'zolari ana shu me'yor asosida o'z erkinliklarini bir xil darajada amalga oshirishi shart⁷⁰.

SHuningdek, bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma'naviy binosi mustahkam bo'lishi lozim. Bu esa, eng avvalo, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni chuqur bilimli, teran fikrli, o'z o'tmishi durdonalaridan va ma'naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Kamil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi yosh avlod o'z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilsagina, mustaqillikning asl mohiyatini chuqurroq anglab etadilar. Fuqarolik jamiyati ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib rivojlantirilishi bejiz emas. Zero, "Madomiki biz

⁶⁹ Karimov I.A. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 27-б.

⁷⁰ Қаранг: Мусаев Ф. Эркинликнинг ҳуқуқий асоси // Тафаккур журнали. –Тошкент: 2002. - № 2. – 84 б.

huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi XXI asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz shundan kelib chiqmog'i darkor, ya'ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur"⁷¹.

Insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ulardan iborat. Bu bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Zotan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganligini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Ushbu so'zlardan qo'rinib turibdiki, yoshlarning ijtimoiy siyosiy faoligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. SHu maqsadda har birimiz ushbu vazifalarni amalga oshirilishida faol fuqarolik pozitsiyamizni ko'rsatishimiz hamda yurtboshimizni biz yoshlarga qarata aytgan "Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafakat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning xal kiluvchi kuchidir"⁷² so'zlarini doimo yodimizda saqlashimiz zarurdir.

Fuqarolik tuyg'usi esa shaxsning "Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy jarayonlar ahloqiy qadriyatlarning o'tmish bilan kelajakni uzviy aloqadorligini ta'minlab, tarixiy merosning nodir ne'matlarini o'zgartirish asosida shakllanadi"⁷³. Fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biri bu fuqarolarning yuksak darajada ong va madaniyatga ega bo'lishliklari hisoblanadi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatida faol, tashabbuskor, g'ayratli, faqat yaratuvchanlik, ijodkorlik ruhi va kayfiyati bilan yashovchi shaxslarga e'tibor va ehtiyoj katta bo'ladi. Bunday yuksak intellektual salohiyat tafakkur erkinligining qay darajada shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Jamiyatning inson uchun yaratgan real iqtisodiy qulayliklari va imkoniyatlari, yuridik haq-huquqlari, qaror topgan axloqiy va ma'naviy muhit uning tafakkuri erkin, ilg'or va yuksak ideallarni ko'zlashi bilan uyg'unlashmog'i lozim. Olimlarimizning kuzatishicha, fuqarolarning ijtimoiy voqelikka yangicha, mustaqil va erkin tafakkur asosida yondashishi yuqori ko'rsatkichga ega. Ayni paytda, psixolog va sotsiologlarning nuqtai nazaricha, yangi shakllanayotgan fuqarolik jamiyati rivoji ko'p jihatdan shaxs ongi, xarakteri va dunyoqarashini korreksiyalab borishni talab etmoqda.

Hozirga kelib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati, unga monand davlat boshqaruvi tizimini – demokratiyani qaror toptirish zarurati va mas'uliyati har bir fuqaroning yuksak ma'naviy salohiyatining, falsafiy tafakkur tarzini yanada shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Darhaqiqat, odamzot o'z oldida turgan vazifalarni hal etishdan oldin hamma narsani aql tarozisiga qo'ymog'i, o'zi tashlaydigan amaliy qadamlarning ehtimoliy natijalarini avvaldan taxmin qilmog'i, nazarda tutmog'i lozim. Fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta'lim beqiyos o'rin tutadi. Bugungi kunda ham oldimizga qo'ygan asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini barpo etish va uni takomillashtirish uchun Milliy dasturda ko'zda tutilgan bilimli, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlarni tarbiyalashga yanada muhim e'tibor qaratish va bu masalalar ta'lim islohotlarining bosh vazifasi deb qabul qilib, uni amalga oshirishdan iborat. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yaratilgan va amalga oshirilayotgan yangi ta'lim modeli aynan ana shu maqsadga erishish yo'lida o'zining yangicha ta'lim va tarbiyaviy jarayonini shakllantirib bormoqda. Farzandlarimiz to'qqiz yillik o'rta ta'limni tamomlab, o'z xohish irodasi va intilishiga qarab ikki turdagi uch yillik o'quv yurtlarida-akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'limni majburiy – ixtiyoriy davom ettirish imkoniyatlariga, bularni tugatganlar esa oliy o'quv muassasalariga kirishda bir xil

⁷¹ Каримов И.А. Ўз келажигимизни ўз кўлимиз билан қурмоқдамиз. Биз ўз келажигимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. 7-том.-Т.: «Ўзбекистон», 1999. 303-б.

⁷²Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.

⁷³ Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепции. - М.: Наука, 1991. – 15 с.

huquqlarga ega bo'ldilar. Unutmashimiz kerakki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidir. Bizda qadimdan "Ma'rifatli inson" tushunchasi ancha keng ma'noni anglatadi. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik–faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, kamolotli inson deganida aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. SHuning uchun xam Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning butun mohiyati milliy tariximiz va hayotimiz bilan bog'lanib ketgan. SHu tariqa O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz, an'alarimizga asoslangan va, shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan Kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Dasturimizning, modelimizning milliyliigi ham aynan shulardan iboratdir.

Fuqarolik jamiyat asoslari shakllanayotgan respublikamizda, yoshlarimizning faolligni yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas'uliyatini yurakdan his qilish tuyg'ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustaxkam hayotiy pozitsiyani, e'tiqod hamda maslakni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. SHuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan dars soatlari, o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan. Mazkur sa'y-harakatlarni amalga oshirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlash, qolaversa, bu borada faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash kelajakda natijalar keltiradi. Zero, zamonaviy ta'limning maqsadi har bir kishiga o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni olish va ularni jamiyat hayotiga tadbiq etish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. SHu bois tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning intellektual ong va madaniyat darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng muhim prinsiplarni anglab etishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim. Ayniqsa fuqarolik jamiyatini barpo qilishda fuqaro ongi, madaniyati, dahldorlik hissi va mas'uliyatini yuksaltirish hamda takomillashtirishni hozirgi talab darajasida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, yoshlar faoliyatida ushbu zaruriy masala o'zining dolzarb jihatlari bilan ajralib turadi va samarali tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yishimiz lozimligini yana bir bor qayd qilamiz.

6. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'rni

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan davrda demokratik tamoyillarni shakllantirish, fuqarolar ijtimoiy –siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me'yorlar asosida ko'ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida jamoat va nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan holda fuqarolik madaniyati bilan tutashadi. Agar fuqarolik jamiyatini yuksak fuqarolik madaniyatini oshkor etish imkoniyati sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, fuqarolarning ma'naviy etukligi bunday jamiyatdagi demokratik tamoyillarni to'liq anglash omili ekanligini tushunamiz. CHunki fuqarolik jamiyatida insonni oliy qadriyat darajada tushunish bevosita har bir fuqaroning o'z madaniyat darajasini qanchalik anglashi va unga sodiqligi bilan xarakterlanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish o'zining bir qator mezonlariga ega bo'lib, ularning asosiylaridan biri – har bir insonda mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Mas'uliyat odamning xar bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda uning o'zi va o'zгалar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. SHaxsiy mas'uliyatni fuqarolik mas'uliyatidan farqlash lozim. Birinchisi shaxsning kundalik faoliyatidan keladigan shaxsiy manfaatni, ikkinchisi esa jamiyat manfaatlarini nazarda tutadi. Fuqarolik mas'uliyatini his etgan inson, eng avvalo, o'zi mexnat qilayotgan jamoa yoki ta'lim olayotgan o'quv dargohi, o'z mahallasi va yurti ravnaqini o'ylaydi. Mustaqil O'zbekiston fuqarolari uchun yagona maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun

xizmat qilish bo'lsa, demak har bir inson fuqarolik mas'uliyatining ma'no-mazmunini ana shu g'oyalarni amalga oshirishda, deb bilishi darkor.

Fuqarolik mas'uliyati, O'zbekistonda yashayotgan har bir ongli fuqaroning qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar Respublika Konstitutsiyasida kafolatlangan xuquqlaridan foydalanish barobarida, unga javoban fuqarolik mas'uliyatini ham xis etib yashashidir. Bu shunday deganiki, har bir fuqaro mamlakat Konstitutsiyasiga, Oliy Majlis qabul qilgan barcha qonunlarga, Vazirlar Maxkamasi chiqargan qarorlarga rioya etishi va hurmat qilishi, ularni amalga oshirishi uchun mas'uliyat sezishi lozim. Binobarin, davlat o'z fuqarosiga xuquq va kafolat berar ekan, shunga yarasha uning zimmasiga mas'uliyat ham yuklaydi⁷⁴. SHuni unutmash kerakki, ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'zini o'zi anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlay olishi, jamiyat uchun xizmat qilish imkoniyati va harakat me'yoriga ko'p jixatdan bog'liqdir. Bularning hammasi kishilarning o'zi yashab turgan ko'cha, maxallasidan tortib, to yaxlit mamlakatning barqarorligini saqlab qolish, xavfsizlikni ta'minlashda yuksak mas'uliyatni o'z faoliyatida ongli ravishda amalga oshirish demakdir⁷⁵.

Bir xil maqomga ega bo'lgan shaxslarda talab ham teng bo'ladi. Ana shu jihatning o'zi ham fuqarolik mas'uliyatini anglatuvchi dalillardan biridir. Fuqarolik mas'uliyati bilan milliy mas'uliyat orasida o'ziga xos mushtaraklik mavjud. Sir emas har bir millatning balog'atga etgan ongli a'zosi o'sha o'zi mansub millatning oldida mas'uliyati bo'ladi. Millatning miqdoriy, iqtisodiy, madaniy, ahloqiy, ma'rifiy, manaviy taraqqiy eta borishi, er yuzidagi boshqa xalqlardan orqada qolib ketmasligi uchun birinchi shu xalqqa mansub kishilar javobgarlik tuyg'usini tuyish lozim. Oila va jamiyatdagi har bir harakatida, bosgan har qadamida shu millatning umumiy manfaatini unutmash milliy mas'uliyat hissining muhim tomoni hisoblanadi. Kishilarning muayyan millat ravnaqi yo'lidagi siyosiy ongliligi va ma'naviy etukligi darajasi milliy mas'uliyatni anglatuvchi ikkinchi muhim tomonidir. SHuni alohida qayd etish zarurki, milliy mas'uliyat bu yurtimizda yashovchi barcha millat va elatning mas'uliyatidir.

SHu o'rinda rivojlangan davlatlar tajribasiga alohida e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Masalan, jahonning etakchi davlati sanalmish AQSHda fuqarolik madaniyatini yuksaltirish qanday yo'lga qo'yilgan? Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Bu savollarga javob topish uchun fuqarolik madaniyati qanday g'oyaviy ustunlarga tayanishini aniqlash kifoya. AQSH fuqarolari Konstitutsiyani, amerika davlatchiligining asoschilari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlarga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar. YOshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi.

AQSH nimaning evaziga fan va texnologiyalar sohasida boshqalardan o'zib ketdi? Bu savolning ham javobi bor: Amerikada erkin fikr va ijodiy tafakkur qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini «o'rtamiyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi.

Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina etishadi. SHunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Lekin, eng asosiysi, har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu «amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Xulosa yasaydigan bo'lsak, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar «AQSHda bu borada muammo yo'q ekan» degan xulosa uchun asos bo'lmaydi. Oxirgi

⁷⁴ Қаранг: Иброхимов А. Бизким Ўзбеклар. -Тошкент: Шарқ нашриёт -матбаа концерни бош тахририяти, 1999. - 177 б.

⁷⁵ Қаранг: Саидқосимов А. Сиёсий фаоллик ва фуқаролик маънавияти // Жамият ва бошқарув. -Тошкент: 2007. - №2, -Б. 50 -51.

paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. SHu bois hozirgi kunda AQSHning ziyolilari tomonidan yangi mafkura - «liberal-natsionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarni «AQSH - millatlar hamjamiyatidir» g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQSH da asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Endi misol tariqasida SHarqqa murojaat qilaylik. SHarqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri - YAponiyada fuqaroni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. CHunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: «xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi mamlakat iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. CHunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan mamlakatning 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning xayratini uyg'otadi. "Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?". Mazkur savolga javoban yaponlar quyidagicha javob beradilar: "Salohiyat insonlarda yashirin". YAponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q.

Xo'sh, davlat yapon kishisida qanday qadriyat va sifatlarni qaror toptirishga harakat qiladi? Aslida mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhliy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bitta a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi. Muhimi, boladan umumiy ishda o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhliy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida "axloqiy tarbiya" tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: "Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin", "O'z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo'lmaysan". Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: "Bor imkoniyatlaringni ishga sol!".

SHunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlarning ayniqsa boshqalarga o'rnak bo'la oladi. "Axloqiy tarbiya" natijasida YAponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. YAponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch sanaladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi. Ana shu ma'noda jamiyatimiz yoshlarni moddiy-ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish, ayniqsa, globallashuv tufayli axloqimizga, turmush tarzimizga katta kuch bilan kirib kelayotgan buzg'unchi g'oyalardan, ularni saqlab qolish uchun mafkuraviy bo'shliqqa yo'l

qo'ymaslik, zamonaviy yoshlarni barcha hayotiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish bugungi kunning eng muhim vazifasi bo'lishi kerak. Chunki ehtiyoj tom ma'noda erkin faoliyat hamda fuqarolik mas'uliyatini belgilovchi mezon hisoblanadi. Biz o'z faoliyatimizga qay darajada va qay mazmunda baho bermaylik, faoliyatimiz motivlari muayyan ehtiyojlar tufayli shakllanadi. Ehtiyojlar va manfaatlar uyg'unli hisobga olinmagan joyda mas'uliyatsizlik, befarqlik va xatto jinoyatlar sodir bo'ladi.

7. O'zbekistonda yoshlarga oida davlat siyosatining strategik yo'nalishlari

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga doir islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yoshlarni shu yurtga, shu Vatanga munosib farzand sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shuning uchun davlatimiz va xalqimiz ta'lim-tarbiya tashkilotlari hamda jamoat birlashmalaridan yoshlarni etuk inson bo'lishlariga munosib hissa qo'shishiga katta umid bilan qaraydi. Xalqimiz mazkur demokratik institutlarga, ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik harakatlariga katta ishonch bog'lamokda. O'ylaymizki, "KAMOLOT" yoshlar ijtimoiy harakati va siyosiy partiyalar faoliyatini davlat hamda hukumat tomonidan moliyalashtirishning joriy qilinishi ularning yoshlar o'rtasida keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Yoshlar jamiyatni erkinlashtirish va boshqarish bilan bog'liq islohotlarga ko'proq jalb etiladi.

Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan bir sharoitda shaxs erkinligini yanada kengaytirish ularda davlat va jamiyat hayoti, uning ravnaqini ta'minlashdagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab etish, ko'nikmalarini hosil qilish huquqiy saviyasi va madaniyatini yuksaltirishda, davlat organlari, ta'lim muassasalarigina mas'ul bo'lib qolmay shu bilan birga jamoat tashkilotlari va boshqa nodavlat tuzilmalarini faollik darajasini ortishini ham taqozo etadi. «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari deb, ta'kidlagan edi Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur. Bu borada o'zini-o'zi boshqaradigan idoralarning, mahallarning nufuzini va mavqini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi»⁷⁶.

Fuqarolik madaniyati shakllangan muhitda odamlarda siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bunda kishilar fuqarolik jamiyati institutlariga birlasha boshlaydilar. Fuqarolik madaniyati kuchayib borgan sari odamlar siyosiy jihatdan faollashib, partiyalarga a'zo bo'lish tendensiyasi kuchayadi. Demak, siyosiy partiyalar a'zolari soni va sifatining oshib borishi darajasi ham fuqarolik madaniyatini ko'rsatuvchi mezonlardan biridir. Fuqarolik madaniyati shaxsning jamiyatdagi faol a'zosi sifatida ma'lum haq-huquqlarga ega bo'lish bilan birga o'z zimmasidagi burch va majburiyatlarni vijdonan ado etishdir. Yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish - ularga mustaqil davlat tuzilmasining xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydonda tutgan o'rnini, vatanparvarlik va millatlararo do'stlik tuyg'ulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an'analari, milliy istiqloq g'oyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy qarashlarni anglash va unga qarshi bo'lish, ijtimoiy faollik va fidoyilik kabi sifatlarni mujassamlashtirgan yaxlit bir tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining institutlari - o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarini mustahkamlash hamda rivojlantirish yoshlarning siyosiy madaniyatini, faolligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini erkinlashtirish, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifalarini amalga oshirishda har bir yoshning jamiyatda o'z o'rnini bo'lishini bilish, eng muhimi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb, tushunishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu o'z mas'ulligini anglashga erishishda mavjud demokratik institutlar, o'z-o'zini

⁷⁶ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8 -жилд. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 333 б.

boshqarish organlari, partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari muhim o‘rin tutadi. Chunki, jamiyatda yashayotgan har bir yoshning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mavjud siyosiy institutlar, partiyalar yoki nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiriladigan demokratik siyosiy jarayonlarda aks etadi. Bu, bir tomondan, yoshlarning siyosiy faollik darajasiga, ularning siyosiy qarashlarini idrok etib, uning ishtirokiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi mavjud o‘z-o‘zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining ish faoliyatiga, yoshlarni o‘z atroflariga birlashtiradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratlashuv jarayoni insonlar, turli xil ijtimoiy qatlamlar, siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati va o‘zaro munosabati bilan bog‘liq. Jamiyat hayotining demokratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlamini tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashishiga hamda ularning tarbiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yoshlar — jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalari hisoblanadi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma‘naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. SHu boisdan ham mustaqillikka erishilgach, aniqrog‘i, 1991 yilning 20 noyabrida "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e‘tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Ushbu Qonunning 1-moddasida: "Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir", – deya mustahkamlab qo‘yilgan. O‘z-o‘zidan, davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi — yoshlarning jamiyatga turli xil salbiy oqibatlarisiz kirib kelishini ta‘minlash, ularning o‘z huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat. Bu esa, davlatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishida o‘z ifodasini topadi.

SHuningdek, Oila kodeksi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida"gi, "Ta‘lim to‘g‘risida"gi, "Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi, "Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida"gi, "Vasiylik va homiylik to‘g‘risida"gi qonunlar yoshlar tarbiyasida, ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishda, ish bilan band qilishda, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim huquqiy baza vazifasini o‘tamoqda. SHuningdek, davlatimiz rahbarining 2014 yil 6 fevraldagi "**O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**"gi Qarori mustaqillik yillarida olib borilgan bosqichma-bosqich, tadrijiy islohotlarning mantiqiy va qonuniy davomi bo‘lib, bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Respublikamizda mazkur qaror ijrosini ta‘minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Qarorning aynan bugungi kunda qabul qilinishi fikrimizcha, quyidagilar bilan izohlanadi: **Birinchi**dan, mustaqillik yillarida yoshlar siyosati bo‘yicha amalga oshirgan ishlari-mizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma‘lum o‘zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi izchil harakatlarimizda yoshlarning faol ishtirokini kuchaytirishimizga ehtiyoj tug‘ilgani, **ikkinchi**dan, hozirgi paytda mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberal-lashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirayotgani, **uchinchi**dan, jahon miqyosida globallasuv va axborot texnologiyalari tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarni xolisona va tanqidiy baholagan holda farzandlarimiz kelajagini ko‘zlab, yoshlar

siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olish zaruriyati, *to'rtinchidan*, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan yoshlarga oid dastur va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishishi shular jumlasidandir. Qarorga binoan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilmfan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib, **“O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi”** ma'qullandi.

Dastur 7 bo'lim, 67 banddan iborat. Unda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ko'lami ham keng bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, sud-huquq sohalarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng muhim va dolzarb yo'nalishlarda chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Dasturda belgilangan yo'nalishlar o'zaro uzviy, chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi.

YOshlarni ijtimoiy ximoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ushbu dasturning o'ziga xos bo'lgan jihati bo'lib hisoblanadi. YOsh tadbirkorlarni qo'llab-kuvvatlash va rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-kuvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish ko'zga tutilgan. Yigit-qizlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni keng rivojlantirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish, intilishlarini qo'llab-kuvvatlash, ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirish, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari g'oyalari sadoqat ruxida tarbiyalash, turli yot g'oyalarni targ'ib qilib kelayotgan va past saviyali «ommaviy madaniyat» ta'siridan asrash kabi masalalar dasturning asosiy vazifasi hisoblanadi.

8. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari

Mamlakatimizda voyaga etib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va mustahkam ruhda tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniy manfaatlarini muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi barchamizga ma'lum. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va rahnamoligida yoshlar tarbiyasining ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi va bu borada tub islohotlar amalga oshirildi. CHunki YUrtboshimiz «YUksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek: «Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaq tabiiy ravishda o'ziga xos «inkorni inkor» konuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy karashlarini umuman inkor etishning o'zi hech kanday bunyodkorlik dasturiga ega

bo‘lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug‘dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. SHu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, turmush tarziga orqa-oldini uylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik zarur edi. Barchamizga ma’lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma’naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o‘zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta uyulab ish yuritishni talab kiladi».⁷⁷

YOshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko‘rish mumkin. YOshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e’tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo‘yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib bormayotganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Evropa davlatlaridan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va SHvetsiyada bu borada erishilgan natijalar diqqatga sazovor. Bugungi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ikki xil strategiyasi amal qilmoqda. Bular: yoshlar siyosati sohasida davlatning etakchi roliga asoslangan strategiya hamda yoshlar siyosati sohasida davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya. Hozirgi davrda Germaniya va Fransiyani birinchi yo‘nalishdagi siyosatni olib boradigan davlatlar sirasiga kiritish mumkin. Ushbu davlatlar o‘z faoliyatini yoshlar siyosatini umummilliy, mintaqaviy va hududiy darajalarga qarab ixtisoslashtirish asosida olib boradi. Bunda yoshlar siyosati oila, qariyalar, ayollar va yoshlar ishlari bo‘yicha vazirlik tomonidan Konstitutsiya va federal qonunlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Fransiya yoshlar siyosati YOshlar ishlari, sport va jamoat birlashmalari bo‘yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi.

YOshlar siyosati sohasida davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya Buyuk Britaniya va SHvetsiyaga xos bo‘lib, bunda yoshlar siyosatining umumiy ko‘rinishi, maqsad va etakchi vazifalari davlat tomonidan belgilab berilsa, bu vazifalarning ijrosi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu davlatlarga xos bo‘lgan xususiyat esa yoshlar siyosati va yoshlar ishlari bo‘yicha maxsus davlat organlarining mavjud emasligida namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga, dunyoning ko‘plab davlatlarida yoshlar huquq va manfaatlarini xalqaro va milliy darajada qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga maqsad qilgan yoshlar parlamentlari hamda milliy yoshlar kengashlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, xalqaro darajada yoshlar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi Evropa yoshlar parlamenti, Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligi yoshlar parlamenti, SHimoliy Irlandiya yoshlar forumi, SHotlandiya yoshlar parlamenti kabi yoshlar parlamentlari hamda Avstriyadagi Avstriya xalqaro yoshlar hamkorligi qo‘mitasi, Belgiyadagi Flaman yoshlar kengashi, Buyuk Britaniyada Britan yoshlar kengashi, Germaniyada xalqaro yoshlar ishlari bo‘yicha Germaniya milliy qo‘mitasi (bunday kengashlar Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva kabi yana 25 ga yaqin davlatda mavjud) faoliyat yuritmoqda. Bularni keltirishdan maqsad, yoshlar huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm mamlakatimizda qay darajada amal qilayotganiga e’tibor qaratishdir.

Xo‘sh, O‘zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish uchun muhim qadamlar tashlanayotgan bugungi kunda yoshlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotini tuzish qanchalik zarur? Bizningcha, yoshlar mamlakatimiz aholisining 64 foizi (17 million 80 ming nafar)ni tashkil etuvchi asosiy qatlam ekan, aytish mumkinki, yoshlar bilan bog‘liq muammolar davlatning olib borayotgan siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muxtasar qilib aytganda, jamiyatdagi barcha sohalar qatori yoshlar tashkilotlarini ham tashkiliy jihatdan isloh qilish, bu borada zamonaviy faoliyat mezoniga ega mustahkam institutni shakllantirish — ertangi kun egalari bo‘lmish yoshlar kelajagini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

⁷⁷ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 81 бет.

Bugungi kunda kelajak avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. CHunki mamlakatimizda boshlangan va chuqur ildiz otib borayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasi va qolaversa, kelajagi buyuk davlat qurishdek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan mazkur masalaning echimiga bevosita bog'liqdir desak, hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasining paysalga solinishi yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki o'z-o'zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash o'ta kaltabinlik bo'lur edi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov iborasi bilan aytganda, "qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"⁷⁸.

YUrtimizda yosh oilalar himoyasi, ularni qo'llab-quvvatlash uchun ham juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. O'tgan yillar davomida oila haqida 50ga yaqin qonun, 70 ga yaqin qaror va farmoyishlar e'lon qilindi. Ularning aksariyat katta qismi ijtimoiy, moddiy va ma'naviy himoya qilish va farovonligini ta'minlashdan iborat. SHunisi e'tiborga molikki, yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'o'llab-quvvatlash mas'ulligini birinchi navbatda davlatimiz o'z zimmasiga olgan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda davlat idoralari, fuqarolik institutlari va mahalliy hokimiyatlar tashabbuskor bo'lmoqdalar. SHuningdek, bola huquqlarini himoya qilish borasida milliy qonunchiligimizda ham bir qator qonun hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilingan. Jumladan, 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi milliy qonunchilikni bola huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar bilan muvofiqlashtirish, bola huquqlarini himoya qilish sohasida tegishli dasturlar tuzish, davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining bu boradagi vazifalari, vakolatlarini va o'zaro faoliyatini aniqlashtirish, bola huquqlari himoyasi mexanizmining ishlashi va amaliy natijalari berishini ta'minlash, shu sohaga oid qonunchilikning kelgusidagi rivoji uchun keng imkoniyatlarga yo'l ochadi.

SHuningdek, ushbu qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquqlarini himoyalashda ishtirok etish shakllari belgilangan. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar bilan ishlash, ularning o'quvi, jamoat hayotidagi ishtiroki, qolaversa, ularning kelajagini yaratishda nafaqat adliya organlari, balki ota-onalardan tortib davlat idoralarigacha mas'ul bo'lishi kerak. Ana shunda biz yoshlar siyosati bo'yicha oldimizga qo'ygan vazifani bajarishda to'la-to'kis faol ishtirok eta olgan bo'lamiz. CHunki yoshlar— mamlakat kelajagi. SHuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Albatta, har bir bandaga rizq-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu hayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, zurriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmashimiz zarur"⁷⁹, - degan edi. YUrtboshimizning mazkur fikrlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy tizimdagi islohotlar nafaqat farovon turmush tarzini yo'lga qo'yish, balki ma'naviyati yuksak yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratishni nazarda tutilgan. YUrtimizning kelgusidagi mavqei, rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi ularning qo'lida. Ana shuni unutmagan holda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor va g'amxo'rlik biz kattalarning dolzarb vazifamizdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday insonlar orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni va nomi bor. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asaridagi g'oyalarni yodga olaylik. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi.

⁷⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 116-бет.

⁷⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 58 б.

Ota-ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtiromlar bo'ladi. Avvalo, bunday fikrlashning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz. Demak, bizning barkamol avlod tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Mustaqillik yangicha yashashni, yangicha fikrlashni, hayotda har bir fuqarodan o'ziga yarasha munosib o'rin egallashni, yangi mafkura asosida yangicha ma'naviyatni talab etadi. Talab etibgina qolmasdan, jadal o'zgarib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda yangicha o'ylashga va harakat qilishga majbur etmoqda. Yangicha o'qish, yangicha ishlashning o'zi bo'lmaydi. SHuning uchun ham bizga raqobatbardosh yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi fozil insonlar kerak. Dasturning asosiy maqsadi ham aynan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir».⁸⁰

YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, har tomonlama etuk avlodni tarbiyalasakgina, bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir, sinov va qiyinchiliklarni engib o'tamiz, shundagina ko'zlangan yuksak marralarni egallay olamiz. Hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan va hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalab kelayotgan xalqimiz, ezgu maqsad-muddaomiz – erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo'lmaydi. SHuning uchun bu muhim masalaga doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda. Insoniyat hamisha mukammal jamiyat bunyod etish ishtiyoqida yashagan. Mukammal jamiyatni ma'naviy yuksak, axloqiy barkamol, jismoniy etuk avlod yaratadi. Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar insonlar hayotiga, taqdiriga daxldor ekanligini har birimiz his qilishimiz va shundan tegishli xulosalar chiqarishimiz lozim. YUrtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha o'zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo'yilganligi hammamizni quvontiradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «...bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarida ko'rish, kuzatish qiyin emas».⁸¹ Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi.

SHunday ekan, o'z maqsadlarimizga erishishda bir necha vazifalari borligini ta'kidlab o'tish mumkin. Birinchidan: fuqarolarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayoning faol ishtirokchisiga aylantirish; amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini fuqarolarimizga sharhlab berish va tushuntirish; ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini amalga oshirish; ma'naviyatning kuch qudratini faqat ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish va rivojlantirish. Ikkinchidan: turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakatlarning o'ziga xos orzu intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya- Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi-barchamiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish. Uchinchidan: qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni izchil davom ettirish; ta'lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirish. Bu orqali kelajagimiz bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodga bog'liq ekanligini chuqur anglashga erishish. To'rtinchidan; ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e'tiqodimiz bo'lmish islom dinning bugungi hayotimizdagi o'rni va ta'sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baqquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka tushintirish borasidagi tashviqot ishlarini davom ettirish. Beshinchidan; ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, ularda hamjihatlik va birdamlik tuyg'ularini kuchaytirish; chunki ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qonqarindosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi⁸² deb ta'kidlaydi. Mana shunday maqsadli va ma'suliyatli vazifalarni ma'naviyat hozirgi kunda barkamol avlodni voyaga etkazishda bosqichma-boqich amalga oshirib kelmoqda. O'z navbatida xalq ma'naviyatini yuksaltirishda

⁸⁰ Қаранг: Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент - 2000.

⁸¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 106-бет.

⁸² Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси; асосий тушунча ва тамойиллари. Т.: Ўзбекистон. 2000., 3-4-бетлар

yoshlarning qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviy tarbiya haqida shunday yozadilar: "Bizning eng muhim, dolzarb vazifalarimizdan biri bu – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. SHuning uchun har bir o'g'il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab ma'naviy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak."⁸³

Mamlakatimizda yosh avlodning yuksak ma'naviy mezonlar asosida o'sib-ulg'ayishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimiz hayotining qaysi sohasini olmang – sog'liqni saqlash yoki ta'lim deysizmi, iqtisodiyot yoki kichik biznes sohasi deysizmi, rahbarlik, madaniyat va sport jabhalari deysizmi – ularning barchasida yoshlarning huquq va manfaatleri alohida e'tiborga olinayotganini ko'ramiz. Hech qachon ma'naviyatsiz etuk insonni tarbiyalab bo'lmaydi. CHunki, odamzot uchun hayot yo'llarida har qadamda zarur bo'ladigan ajdodlar yodi, milliy g'urur va iftixor, jonajon Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, istiqloлга sadoqat, farzandlik hissi, insoniy fazilatlar aynan ma'naviyat orqali uning ongu tafakkuriga singib boradi, hayotining ma'no-mazmuniga aylanadi. Ma'lumki, yoshlikda inson qiziquvchan va intiluvchan bo'ladi. Uning ana shu intilishlarini ma'naviy komillik sari yo'naltirish nafaqat ana shu yigit-qizlarning, balki butun jamiyatning yorug' kelajagini ta'minlashda hal qiluvchi va dolzarb masaladir. Zero, ma'naviyat azal-azaldan insonni komillikka etaklaydigan beqiyos ne'mat bo'lib kelgan. SHu ma'noda, hozirgi kunda ham ma'naviyat – najotkor kuch, ma'naviyat – ilohiy yog'du desak, xato qilmagan bo'lamiz. Ayniqsa, hayotga katta orzu-umidlar bilan qadam qo'yayotgan, unga faqat pok va beg'ubor nigoh bilan qarab, oldinga intilayotgan yoshlarga nisbatan olganda, bu haqiqat yanada teranroq ma'no-mazmun kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni xar tomonlama etuk barkamol qilib voyaga etkazish uchun oila, mahalla, ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash oliy maqsadimiz hisoblangan ozod va obod erkin va farovon xayot barpo etish uchun asos bo'ladi.

5-MAVZU: QONUN USTUVORLIGI - FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM OMILI

Reja:

- 1. Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning mohiyati.**
- 2. Qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy shartlar.**
- 3. Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti.**
- 4. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishidagi ahamiyati.**
- 5. Qonun ustuvorligi inson huquq va erkinliklari kafolati**
Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning mohiyati

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish – O'zbekistonning pirovard maqsadidir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi

⁸³ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 38 б.

ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog‘i darkor. Adolat va haqiqat g‘oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i shart”⁸⁴.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, qabul qilinayotgan qonunlarimiz zamirida adolat yotishi darkor. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a‘zolarining qonun oldida tengligining, Konstitutsiya va qonunlarning tengligining ta‘minlanganligidir. SHuningdek, Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta‘minlashdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

“Qonun ustuvorligini ta‘minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo‘ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi”⁸⁵. Huquqiy davlatning muhim belgisi – jamiyat hayotida chinakam qonun ustuvorligini ta‘minlash - har qanday davlat uchun, xususan huquqiy davlat qurish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston uchun ham juda muhimdir.

Qonun ustuvorligining mohiyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bob, 15- va 16-moddalarida belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar” deyilgan.

Qonun ustuvorligi tushunchasining mohiyati Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning bir qator asarlarida chuqur tahlil qilingan.

“Qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat‘iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq va normalarni buzganligi uchun javobgar bo‘ladi”⁸⁶, - deb ta‘riflaydi, - I.Karimov.

Qonun ustuvorligi - demokratik jamiyat barpo etishning asosi bo‘lib hisoblanadi. SHu bilan birga, adolat mezoni hisoblanadi. CHunki, qonun ustuvorligi ta‘minlansagina adolat qaror topadi, insonlar millati, tili, urf-odati, an‘anasi, qadriyatlarini, diniy e‘tiqodi, jinsi, ijtimoiy ahvoli kabilarda tenglikka erishadilar. U mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayotida barqarorlik ta‘minlanishining asosi hisoblanadi. Qonun oyoq osti qilingan mamlakatda talon-torajlik, tengsizlik, adolatsizlik, zo‘ravonlik va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham qonun ustuvorligi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Qonun bilan yashashni millat vakillarining dunyoqarashiga aylanishiga erishish, milliy rivojlanishning muhim yo‘nalishini tashkil qiladi.

Ammo u oson ish emas. CHunki, demokratik jamiyatga o‘tish jarayonida iqtisodiy sohada vujudga keladigan muammolar oddiy insonlardan tortib, to mansabdor shaxslargacha qonunni chetlab o‘z iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlar qilish jarayonini vujudga keltiradi. Bu salbiy jarayonlarning oldini olmasa juda noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qonunning ustuvorligi har qanday davlat va jamiyat hayotining muqaddas tamoyillaridan biridir. Qonunga og‘ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va yanada mustahkamlanadi. Qolaversa, barcha demokratik institutlar, inson huquqi va erkinliklari qonun vositasi bilan joriy etiladi. Qonunda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o‘zining ifodasini topadi. Qonunga itoatkorlik – bu yuksak madaniyatlilik, ma‘naviyatlilik, ma‘rifatlilik belgisidir. Qonunga itoatkorlikni

⁸⁴ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 10-б.

⁸⁵ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2002, 28-б.

⁸⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. -Б.321.

insonning unga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishi ma’nosida tushunmaslik lozim. Qonunning maqsad va vazifalarini, ma’nosi-yu, insonparvarlik ahamiyatini ongli ravishda tushunib olish, unga ixtiyoriy rioya qilishga va uning asosida faoliyat yuritishga yordam beradi.

Qonunlarga qat’iy rioya etilishi jinoyatchilikning oldini olishning, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikning zarur shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qonunning kuchi, obro‘si, ta’siri, amaliy ahamiyati hayotda uning halol, haqiqiy, odilona tatbiq etilishidadir. Agar qonun ijrochilari burchlari va mas’uliyatlariga xolisona odilona yondashib, to‘g‘ri yo‘ldan toymay Vatan, davlat manfaati va taqdirini o‘zlari uchun oliy maqsad deb hisoblab qonunlarni turmushga adolatli qo‘llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham naf ko‘radi.

“Qonun – ijrosi bilan kuchli” – degan iboraga urg‘u beradigan bo‘lsak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonunlarni ijro etishda halollik va adolat asosida ish yuritish mutasaddilar uchun asosiy maqsad, jamiyat, xalq va Vatan oldidagi buyuk insoniy burch, yuksak mas’uliyat bo‘lmog‘i lozim.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyatda qonunning hukmronligini qaror toptirishni taqozo etadi. CHinakam huquqiy davlat barpo etmoq uchun mamlakatda adolatli, insonparvar demokratik qonunlar tantana qilmog‘i lozim. Qonunning oliyligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Ijtimoiy siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uning yuksak nufuzga ega bo‘lishining boisi shuki, unda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o‘zining ifodasini topadi.

SHunisi diqqatga sazovorki, mamlakatda bozor munosabatlariga o‘tishning O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan e‘lon qilingan besh prinsipi orasida qonunning hamma narsadan ustun bo‘lishi va qonunga itoatkorlik prinsipi alohida o‘rin tutadi. “CHinakam demokratik jamiyatda Prezident ham, oddiy fuqaro ham qonunga rioya etadi. Boshqa iloji yo‘q”⁸⁷.

Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyilining ahamiyati juda muhimdir. CHunki Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, «huquqiy davlatning quroli ham, ko‘zi ham, o‘zi ham, qalqoni ham - qonundir»⁸⁸.

Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi avvalambor demokratiyaga xos bo‘lgan xususiyatlarni amalga oshirishni ta’minlaydi, ya’ni boshqacha qilib aytganda, qonun belgilagan har bir narsa majburiy yoki ta’qiqlov xarakteriga ega va ushbu qoida jamiyatda istiqomat qiluvchi barcha shaxslarga taalluqlidir. YA’ni bu erdan shunday tushuncha vujudga keladi, barcha qonun oldida barobardir.

Qonun ustuvorligining ahamiyati haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, xalqning manfaatlari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, davlat ishini tashkil etish va shunga o‘xshash boshqa masalalarda muhim ahamiyatga ega.

Qonun ustuvorligiga erishish uchun avvalambor ularni qabul qilish jarayonida puxta va mukammal qilib, jamiyatda kelajakda uzoq vaqt o‘z foydasini bera oladigan darajada ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari qonunlarni qabul qilish jarayonida shuni e’tiborga olish lozimki, ya’ni jamiyat, xalq ushbu qonunga ehtiyoj sezayaptimi yoki yo‘qmi. Aynan shu masala ham qabul qilinadigan qonunning hayotda qay darajada jamiyatga naf keltirishi keltirmasligini belgilab beradi.

Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda noroziliklar ham bo‘lmaydi, chunki barcha soha vakillari qonun asosida faoliyat yuritar ekan norozilik va tushunmovchilikning o‘zi bo‘lmaydi. Qonunlarning ustuvorligi jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun shu jumladan, davlat xizmatida ishlovchi shaxslar uchun, shuningdek jamiyatdagi barcha sohalarga taalluqli bo‘lganligi uning yanada mukammal tus olishigi olib keladi. Qonun ustuvorligi haqida so‘z yuritganda uning ustuvorligini ta’minlovchi davlat organlari haqida ham unutmasligimiz lozim. CHunki qonun qabul qilinishining o‘zi bu uning jamiyatda o‘z-o‘zidan ustuvor

⁸⁷ Каримов И.А. “Янги уй қурмай туриб, эскисини бузманг”. –Т.: Ўзбекистон, 1993, 22-б.

⁸⁸ Х. Бобоев, З. Ғофуров, З. Исломов. "Миллий истиклол мафқураси ва тараққиёт". –Т.: Янги аср авлоди, 2001. 115-б.

xususiyatga ega degani emas, buning uchun davlat organlarining bu borada xizmatlari va mehnatlari talab etiladi.

Qolaversa, qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. SHu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlar ko'proq etakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoxud ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

2.Qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy shartlar.

Huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipini ta'minlovchi asosiy shartlar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, hokimiyatlar bo'linishi prinsipining real joriy etilganligi. Bu prinsipga ko'ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari o'zlarining Konstitutsiyada va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar.

Konstitutsiya va qonunlarga nafaqat fuqarolar, uni qo'llovchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar ham, shuningdek, qonunlarni yaratuvchi hokimiyat organi ham itoat etishga majbur. Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi davlat tuzilmalarining samarali ishlashi, suiste'mollarning bartaraf etilishi, inson huquq va erkinliklari amalda ta'minlanishi, umuman, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim garovidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining birinchi bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z farmonlari va huquqiy qarorlari bilan Konstitutsiyaviy tamoyillarning qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Prezidentning o'zi qonunlarga qat'iy amal qilishi bilan davlat idoralari va mutasaddi shaxslar uchun ibrat, namuna ko'rsatib, ularni ham Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay rioya etishga safarbar etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002 yilning 4 yanvarida "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" farmoyish qabul qilinganligi jamiyatda aholining huquqiy bilimdonligi va madaniyatini oshirish bilan birga Konstitutsiyaning mavqei va nufuzini ko'tarishga qaratilgan siyosiy-huquqiy tadbiridir.

Uchinchidan, joriy qonunlar va barcha normativ huquqiy aktlar Konstitutsiyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Asosiy qonunimizning 16-moddasi ikkinchi bandida "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas" deb qat'iy qilib belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ana shu muhim Konstitutsiyaviy-huquqiy prinsipiga rioya etishni ta'minlashga intilib kelmoqda.

Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash uchun alohida muhofaza mexanizmi bo'lishini taqozo etadi. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'g'inini – Konstitutsiyaviy sud tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir va o'z faoliyatida faqat Konstitutsiya normalari hamda qoidalariga amal qiladi. Uning zimmasiga qonun chiqaruvchi, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Konstitutsiyaga sodiqlik, mustaqillik, oshkoralik va sudyalar huquqlari-ning tengligi Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

To'rtinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog'ining bosh qonuni sifatida Konstitutsiya prinsiplarini rivojlantirish yo'lida yaratiladi va ular konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlardan keyingi maqeni

egallaydi. Kodekslar o'zining mantiqiy mukammalligi, pishiqligi, ichki barqarorligi huquqiy qoidalarga amal qilganligi tufayli kodeks normalari hayotda o'zining amalini oson topadi.

Beshinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omillarini quyidagicha e'tirof etish mumkin:

a. qonun chiqaruvchi jarayonni muttasil demokratlashtirib borish – insonparvar, adolatli xalqchil qonunlar yaratilishining garovidir;

b. qonunning sifatini mukammallashtirish, uning ichki mexanizmi puxta, yuridik texnika nuqtai nazaridan benuqson bo'lishiga erishish;

c. qonunchilikni isloh qilish va takomillashtirishda “qonunda ta'qiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi” (fuqarolar uchun). “Faqat qonunda mustahkamlangan narsalargagina ruxsat beriladi” (mansabdor shaxslar va davlat idoralari uchun) degan prinsipga qat'iy amal qilinishiga erishish;

d. qonunchilik faoliyatining yaqin yillar va istiqbolga mo'ljallangan strategiyasini hamda qonun ustuvorligini ta'minlash konsepsiyasini yaratish;

e. qonunlar amal qilishining ijtimoiy mexanizmiga e'tibor qaratish. Bu sohadagi ijtimoiy omillar (ta'sir etuvchi kuchlar, vositalar) ni sinchiklab o'rganish;

f. aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish.

Oltinchidan, qonun osti, idoraviy normativ hujjatlarga havolalar, ya'ni ilovalar (shior va deklaratsiyalar tarzidagi normalar) ko'p bo'lishining oldini olish zarur. Bunday ilovalar haddan ziyod ko'p bo'lishi keyinchalik amaliyotda qonun chetda qolib, uning o'rnini idoraviy hujjat egallab olishi bilan qonun ustuvorligiga ziyon etishi xavfini keltirib chiqaradi.

Ettinchidan, qonunlarning barqaror va ustuvor bo'lishiga erishish. Ularga tez-tez qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, pirovard natijada qonunning ahamiyati va nufuzi tushib ketishiga olib keladi.

Sakkizinchidan, jinoiy jazolarni liberallashtirish qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadiki, biz mavzuni bayon qilish jarayonida bunga alohida to'xtalamiz.

To'qqizinchidan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashda prokuror nazoratining roli katta. Prokurorlik nazorati faoliyatida qo'llaniladigan taqdimnoma, amrnoma, ogohnoma, qaror va arizalarning sifati va ta'sirchanligining yanada yuqori bo'lishida 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunda ko'zda tutilgan qonuniylik, odillik, mustaqillik va oshkoralik prinsiplari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan maqsad, xalqimiz ham, prokuratura xodimlari ham ushbu tamoyillarni aniq tasavvur etishlari kerak. Holbuki, fuqarolar har bir prokuratura xodimidan ushbu tamoyillarni ro'yobga chiqarishni talab qilish huquqiga ega. Prokurorlik nazorati olib borayotgan prokurorlar esa o'z faoliyatida shu prinsiplarga og'ishmay rioya etishi shart.

SHunday qilib, O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash uchun kompleks tashkiliy huquqiy kafolatlar yaratildi. Albatta, konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar va yuridik mexanizmlarni muttasil takomillashtirib, ularning samaradorligini oshirib borish lozim. SHu o'rinda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlashning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy kafolatlari ham mavjudligini esdan chiqarimaslik lozim.

3. Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti.

Mustaqillikka erishgandan keyin Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat protsessual qonunlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi esa mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Ayniqsa, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash borasidagi say'-harakatlar muhim o'rin tutadi. Sud-huquq tizimini liberallashtirish to'g'risida Prezidentimiz “Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal

etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir”⁸⁹ deganda aynan shu harakatlarni nazarda tutgan edi.


Ma'lumki, 1995 yilgacha amal qilgan Jinoyat Kodeksida 33 ta jinoyatga o'lim jazosi qo'llanilar edi. Keyingi Jinoyat Kodeksida esa ularning 13 tasi saqlanib qoldi, ya'ni 20 ta turdagi jinoyatdan o'lim jazosi olib tashlandi. Jumladan, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va voyaga etmaganlarga nisbatan bu jazo qo'llanilmaydi. SHuningdek, o'lim jazosi avf etish tartibida yigirma besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilishi mumkin (JK ning 51-moddasi).

Ana shu ustuvor vazifadan kelib chiqib, 1998 yilda Jinoyat Kodeksidagi 5 ta moddadan o'lim jazosi olib tashlandi. 2001 yilda yana to'rtta moddaga jazo qisqartirildi. 2004 yilda esa bu jazo bor-yo'g'i ikkita, ya'ni aybni og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish va terrorism jinoyatlari uchun tatbiq etiladigan bo'ldi. Bular mamlakatimizning xalqaro huquq sub'ekti sifatida xalqaro hujjatlarga zikr etilgan majburiyatlarni so'zsiz bajarishga inti-layotganining amaldagi isbotidir. Hozirgi kunda 100 ga yaqin davlatning qonunchiligida o'lim jazosi bekor qilingan. Jumladan, SHvetsiya va Finlandiya 1972 yilda, Germaniya 1949 yilda, Fransiya 1981 yilda, 1990 yillardan boshlab Irlandiya, Vengriya, Ruminiya, CHexiya, Slovakiya, SHveysariya, Gretsiya, Polsha, Moldova, Italiya, Ispaniya davlatlari o'lim jazosidan voz kechgan. Bundan tashqari, 30 dan ortiq davlatning qonunchiligida o'lim jazosi mavjud bo'lsada, amaliyotda qo'llanilmaydi.

O'lim jazosini bekor qilish o'ta murakkab masala bo'lib hisoblanishini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab, “Birinchi navbatda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish lozim, chunki bugungi kunda ularning ko'pchiligi, o'lim jazosining bekor qilinishiga qarshi. Ikkinchidan, o'lim jazosi o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli jazoni o'tashga hukm qilinadigan shaxslar uchun tegishli joylar qurish kerak”, degan fikrga alohida e'tibor qaratish lozim. O'lim jazosini bekor qilish masalasini aholiga tushuntirib berish ham anchagina murakkab jarayon bo'lib, bu ishga huquqshunoslar, mutaxassislar, siyosatshunos, psixolog va boshqa ko'pgina mutaxassislar jalb qilinishi lozim. SHuningdek, Prezidentimiz yuqorida ta'kidlaganidek, o'lim jazosi o'rniga sud tomonidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan mahbuslar jazosi alohida koloniyada o'tashi lozim bo'lganligi sababli ularni saqlash bilan bog'liq jazoni o'tash muassasasini qurib bitkazish uchun byudjetdan tegishli mablag' ajratilishi va binoni tayyorlash ham ma'lum muddat talab etadi. SHu sababli ham davlatimiz rahbari o'lim jazosini bekor qilish bilan bog'liq barcha tashkiliy-huquqiy jarayonlar 2-3 yil ichida amalga oshirish mumkinligini bildiradi.

O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish bosqichlari

⁸⁹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилash, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005.



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson hayoti dunyodagi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Zero, hayot har bir insonga bir marotaba beriladi, shuning uchun ham undan mahrum etishga hech kim qodir emas, degan tushunchani barchaning ongiga singdirish lozim. SHu bois barcha islohotlar va qonunlar inson manfaatlariga xizmat qilishini nazarda tutsak, o‘lim jarayonining jazo tizimidan olib tashlanishi har tomonlama adolatlidir.

Binobarin, davlatimiz rahbarining 2005 yil 1 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida mustahkamlash yo‘lida qo‘yilgan navbatdagi xayrli qadam bo‘ldi.

2001 yil 29 avgustda qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan jinoyatlarni tasniflash, engillashtirish ma‘nosida takomillashtirildi, yarashtiruv instituti joriy etildi. Jinoyat kodeksida o‘lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo‘llanildi.

YUrtboshimiz tomonidan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning e‘lon qilinishi esa bu boradagi islohotlarning yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur konsepsiyaning ikkinchiustuvor yo‘nalishi sud-huquq tizimini isloh etishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada ham tizimda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Odil sudlovning yangi tizimi shakllantirildi va sudlar ixtisoslashtirildi.

Odil sudlovning yangi tizimi



Sudlar faoliyatini tashkiliy ta'minlashning yangi tizimi



SHular qatorida Advokatura instituti ham isloh etildi. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasi tashkil etildi. Advokatlarga qo'yiladigan kvalifikatsion talablari va advokatlik faoliyatiga ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning barchasi qonun ustuvorligi – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligining yorqin dalilidir.

4. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishidagi ahamiyati.

Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, avvalo qonunlar fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ishlab chiqiladi, ularning xohish va irodasini o'zida aks ettiradi. Ammo ko'pgina qabul qilingan qonunlar real hayotga joriy qilinmasdan qog'ozda qolib ketadi. Sababi, **birinchidan**, qonunni qabul qilish davridagi jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uni amalga oshirish imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi. **Ikkinchidan**, qonunlarni yaratishdagi mahorat va salohiyatning (professionalizm) etishmasligidir. **Uchinchidan**, fuqarolarning ham qonunlardan to'la foydalanishga salohiyati etarli darajada bo'lmasligi. Ammo, nima bo'lganda ham qabul qilingan qonunlarga amal qilish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. CHunki, u nafaqat, huquqlar tizimi bilan, shuningdek mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liqdir. Ularni o'zida ifodalagan qonunlarning “ishonmasligi” yoki poymol qilinishi mavjud ekan, jamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Mamlakat va fuqarolar manfaatlarining uyg'un holatda amalga oshuvining asosiy mexanizmi qonunlar oldida oddiy fuqarodan tortib eng yuqori lavozimni egallab turgan amaldorlarga barobarligi, ularning qonunlarga so'zsiz itoat qilishi hisoblanadi. Bu tamoyilni shakllantirish O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda.

Qonun ustuvorligiga xilof ish qilish va unga mensimay qarash, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning oyoq osti qilinishi, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish qonunlarni obro'sizlantiradi, davlat va jamiyatning ma'naviy asoslariga putur etkazadi, xalqning noroziligiga, haqqoniy e'tirozlariga sabab bo'ladi. Ayniqsa, fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan munosabatlari jarayonida qonunlarga rioya etilishi yoki rioya etilmasligi fuqaro – davlat munosabatlarining butun bir tizimdagi ijtimoiy adolat qoidalarining holatini belgilab beradi.

SHu o'rinda mahalliy hokimiyat vakillari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish zarur deb o'ylaymiz. Zero, islohotlarni amalga oshirishda, joylarda adolat qoidalarini o'rnatishda ularning o'rni katta bo'lishi zarur. Buning o'rniga mahalliy hokimiyat vakillari, hatto hokimlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlari, afsuski sodir etilmoqda.

Prezidentimiz ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida “Adolat - qonun ustuvorligida degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashash g'oyasi ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi” – deb ko'rsatgan edi. Lekin qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga “etalon” bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. SHu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlardan ko'proq etakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, qonun ustuvorligi quyidagi uch holatda o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar adolat prinsipiga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, barcha qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qat'iy bajarilishi shart⁹⁰.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi shart.

Demak, demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir.

5. Qonun ustuvorligi inson huquq va erkinliklari kafolati

Istiqlol tufayli mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan keng qamrovli o'zgarishlar yurtimizda yangi demokratik qadriyatlar ildiz otganini, inson huquqlari va uning erkini ta'minlashga qaratilgan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga xos zamonaviy tuzilmalar shakllangani bilan xarakterlanadi.

Albatta, erkin va adolatli jamiyat qurish uchun qonunga tayanishimiz va qonun ustuvorligiga erishishimiz lozimdir. Chunki har qanday davlatning qudratli va mustahkam bo'lishi, xalqining tinch va farovon hayoti amaldagi qonunlarning ustuvorligiga bog'liqdir.

SHunday qilib, **huquq** - davlat tomonidan belgilanadigan yoki ruxsat etiladigan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalari tizimidir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi reguliyator bo'lib, uning ushbu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan muntazam aloqadorligini ta'minlaydi.

Erkinlik – insonga qonun bilan ruxsat etilgan u yoki bu harakatni amalga oshirishi va hayot uchun zarur bo'lgan ne'matlardan foydalanishda ijtimoiy to'siqlarning bo'lmasligi tushuniladi.

SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning X bob 43-46 moddalari inson huquq va erkinliklariga bag'ishlangan bo'lib, davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarni ta'minlashi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taqdim etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini tobora takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi vazifa bo'lib qolishi ta'kidlangan. Zero, jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu boradagi islohotlarning samarasi ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasiga bog'liq. Odamlarning huquqiy ongi va madaniyati davlatimiz rahbarining 2011 yil 23 avgustda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq vazirlik zimmasiga aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 23 iyuldagi qarori asosida tasdiqlangan Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash to'g'risidagi nizom bu boradagi faoliyatni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'ladi. Avvalambor odamlarning huquqiy ongi va madaniyati shakllantirishda insonlarga o'zlarining huquq va burchlarini, o'zlari yashab turgan joyda o'rnatilgan qonunlarga asosan ularning shaxsiy va fuqarolik huquq va burchlari kafolatlab qo'yilgan asosiy qonun, ya'ni konstitutsiya va uning normalari tanishtirilishi kerak.

Buni mazkur hujjatning birinchi moddasidan to oxirgi moddasigacha inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, vatan ravnaqi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelayotgan umumbashariy g'oyalar singdirilganida ham ko'rish mumkin. Asosiy qonunimizda buyuk ne'matlar orasida eng ulug'i - “inson uchun” degan g'oya ilgari surilib, uni ulug'lash, uning erkin kamol topishi

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. бет

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o'z aksini topgan. Boshqacha aytganda, "fuqaro - jamiyat - davlat" o'rtasidagi izchil hamkorlikning huquqiy echimi asoslab berilgan.

Demokratik davlatda jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklari kafolati doimiy harakatdagi mexanizmga o'xshashi lozim. Konstitutsiyaning 19-moddasida "hech kim sud qarorisiz fuqarolarni huquq va erkinliklaridan mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga haqli emas"ligi belgilab qo'yilganki, bu qoida huquqbuzar kim bo'lishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortish mumkinligini bildiradi. Kafolat tizimida iqtisodiy omilga keng o'rin berilgan. Chunki iqtisodiy hayot qanchalik farovon bo'lsa, huquqning amaldagi kafolat darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Bugungi Asosiy qonunimizda esa davlat ham, jamiyat ham, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustuvor tamoyil sifatida aniq belgilab qo'yilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz boshlagan islohotlarimizning pirovard maqsadi bitta - adolatli jamiyat barpo etish. Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun". O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi konstitutsiyaviy kafolatlar tizimini hayotga tatbiq etishga qaratilgan islohotlar jamiyatning shu maqsad yo'lidagi vazifalariga to'liq mos kelmoqda, inson huquqlarini kafolatlovchi milliy mexanizm yaratilmoqda. Inson huquq hamda erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi davlat organlari tizimi tashkil etilib, ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlarining paydo bo'lishiga ko'maklashmoqda. Hozirgi paytda insonning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida inson va fuqaro huquq hamda erkinliklarining kafolatlari to'g'risida qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Inson huquqlari g'oyasi milliy parlamentimiz faoliyatida doimiy o'rin egallashi darkor. Har qanday qonun ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu prinsiplarga og'ishmay rioya etilgan taqdirdagina chinakam fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Birinchi Prezident I.Karimov: "...**Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari "Nimaiki qonuniy bo'lsa, u – adolatlidir", deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa aynan qonun adolat manbai va mezoni ekanini uqtirganlar, desak, har tomonlama o'rinli bo'ladi. Va aksincha, agar qonun bajarilmasa, qonunda bir narsa yozilib, hayotda hammasi boshqacha bo'lsa, odamlarning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda muhrlab qo'yilgan adolat va demokratiya normalariga nisbatan har qanday ishonchi yo'qoladi. Bunday holat barchamizga ayon. Qonun va qonun ustuvorligi bo'lmagan joyda avvalo uning o'rnini korrupsiya degan balo egallaydi**", - deb ta'kidlaydi⁹¹.

SHuningdek, Gellap Instituti (AQSH) ijtimoiy fikrni o'rganish markazi tomonidan «qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi» bo'yicha «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahalliy politsiyaga ishonasizmi?», «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf-xatardan qo'rqmasdan yolg'iz yura olasizmi?» va «Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mol-mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi?» savollari ostida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 2 (ijobiy) o'rinni egallagan tahsinga sazovordir⁹².

6-MAVZU: SAYLOV XUQUQI ERKINLIGI - FUQAROLIK JAMIYATINING SHARTI

Reja:

- 6. Erkin saylovlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi.**
- 7. Xalqaro saylov standartlari va O'zbekiston qonunchiligi.**

⁹¹ Халқ сўзи. №236 (6419). 2015 йил 6 декабрь.

⁹² Халқ сўзи. №236 (6419). 2015 йил 6 декабрь.

8. O‘zbekiston saylov qonunchiligining rivojlanishi.
9. Erkin saylovlarni o‘tkazishda ommaviy axborot vositalarining roli

Fuqarolarning saylovlarda va boshqa siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biridir. «Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo‘lgan huquqiy me‘yorlarning nechog‘liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo‘lib, o‘ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir»⁹³. Demokratik saylovlar orqali demokratik mezonlar amalga tatbiq etiladi, xalqning ishonchli vakili hokimiyat tepasiga keladi, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi, orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi.

Saylov xalq hokimiyatchiligining timsoli bo‘lib, eng avvalo o‘zida jamiyat a‘zolarining, qolaversa saylovchi – fuqaro manfaatini ifoda etadi. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarda saylovlarning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lining hozirgi bosqichida davlat hokimiyatining vakillik organlarini erkin, qonuniy va adolatli saylovlar asosida shakllantirilishi demokratik jarayonlar va yangilanishlarning ijtimoiy hayotda oliy qadriyat sifatida ifoda etilayotganligining yorqin namunasidir⁹⁴.

Erkin saylovlarni o‘tkazish jarayonida qonuniylik, tenglik kabi bir qator umumiy huquqiy tamoyillarga og‘ishmasdan amal qilinishi ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning e‘tiroficha, «demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o‘zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani». Darhaqiqat, saylovsiz demokratiyani, demokratiyasiz saylovni tasavvur qilish qiyin. Demokratiya saylov asosida, erkin fikr mushtarakligida, siyosiy plyuralizm mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Saylovlar kishilik jamiyatining bir necha asrlik tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, davlat va jamiyatning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadida paydo bo‘lgan institutdir. Hozirgi davrga kelib, dunyoning aksariyat mamlakatlarida davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan demokratik saylovlar siyosiy tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bo‘ldi. Turli mamlakatlardagi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasini ularda o‘tkaziladigan saylovlarga, saylovlardagi aholining ishtirokiga, saylovlarning saviyasiga ko‘ra belgilanadi⁹⁵. Bundan tashqari mamlakatdagi tinchlik, barqarorlik xukm surishi va shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligining ta‘minlanishidemokratik saylov tamoyillari-ning qay darajada ro‘yobga chiqi-shiga ham bevosita bog‘liqdir.

Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi, erkin hamda chinakamiga ifoda etiladigan xalq irodasi hokimiyat va har qanday hukumat qonuniyligining asosi ekanligi va har bir shaxsning o‘z davlatini boshqarishda bevosita yoki o‘z vakillari orqali qatnashish huquqi ko‘pgina xalqaro

⁹³ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. –Т.: «Ўзбекистон», 2010. –Б. 35.

⁹⁴ Парламент сайлови: миллий қонунчилик ва хорижий тажриба: илмий-амалий қўлланма // М.Абдусаломов ва бошқалар; Масьул муҳаррир проф. Ш.Х.Файзиев; –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузиридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти, 2009. 26-бет.

⁹⁵ Жўраев Қ.А. Сайлов тизимини эркинлаштириш – демократик тараққиёт омили. Адолат. 2011 йил 6 май № 20 (825)

hujjatlarda alohida ta'kidlangan. Fuqarolarning bevosita saylov jarayonida, o'zlari erkin saylaydigan vakillari orqali mamlakatni boshqarishda qatnashish huquqining amalga oshirilishi uchun yaratilgan imkoniyatga qarab, u yoki bu davlat qay darajada demokratik tamoyillar asosida yashayotganligiga baho berish mumkin.

O'zbekiston xalqi demokratik taraqqiyoti huquqiy davlat qurish orqali fuqarolik jamiyatini barpo qilishni ko'zlaydi. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. YA'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"⁹⁶. Buning uchun, eng avvalo, kishilarning siyosiy faolligini yuksak darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jihatdan etukligi uning davlat hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanishi shubhasiz.

Demokratiyaning ushbu eng muhim tamoyilini hayotga tatbiq etish, fuqarolarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, huquqiy asos yaratib berilishi lozim. O'zbekistonda bularning barchasi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida saylovlarga doir umume'tirof etilgan demokratik xalqaro tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Umumxalq saylovlari orqali davlat hokimiyat vakillik organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Demokratik davlatlarda saylovlar muhim ahamiyatga ega ekanligi shundaki, ular mamlakat parlamenti qanday siyosiy kuchlardan tashkil topishini aniqlab beradi. Saylovlar mamlakat aholisining kayfiyati va kimni afzal bilishini namoyon etuvchi ko'rsatkich sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «ilk bor ikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida, g'oyat muhim o'rin egalladi»⁹⁷. Zero, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi ham saylovlardir. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Aslida ham, saylov – demokratiya degani, demokratiya – bu saylov, demakdir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida davlatimiz rahbari uqtirganidek, deputat degan yuksak ishonchga sazovor har qaysi inson avvalo o'zi uchun ovoz bergan odamlar haqida o'ylashi ham demokratiyaning yana bir belgi-alomati hisoblanadi⁹⁸.

⁹⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон. 1997. 173-бет.

⁹⁷ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – Жамяятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т.: «Ўзбекистон», 2005. – Б.30.

⁹⁸ Саидов А. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва сайлов тизими. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005. – 44 б.

Prezidentimiz e'tirof etganidek, «Fuqarolarimiz saylovlarga mamlakatimiz hayotidagi eng muhim, jamiyatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy voqea sifatida yondashdilar⁹⁹.

O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga qaratilgan izchil islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Bu islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Xususan, davlat qurilishi va boshqaruvi, xalq hokimiyatchiligini ta'minlash, davlat hokimiyati organlari faoliyatida demokratik prinsiplarni mustahkamlash sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdik. Biroq, hali oldimizda konstitutsiyaviy tuzumni yanada mustahkamlash, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash, demokratiya va ijtimoiy adolatni o'rnatish kabi, shuningdek mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligiga asoslangan siyosiy institutlarni yanada rivojlantirish orqali insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishdek ulkan vazifalar turibdi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov bu borada qilingan ishlarni sarhisob qilib, «mamlakatimizni 1991-2000 yillar davomida isloh qilish va yangilash borasida qo'lga kiritilgan natijalar milliy davlatchilikni shakllantirish va respublikamizni barqaror rivojlantirishda mustahkam zamin bo'ldi. Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berilib, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etilgani, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yilib, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirilgani»ni alohida ta'kidladi¹⁰⁰.

Zotan, o'zining tashkil etilishi, tuzilishi jihatidan va faoliyatida xalqning irodasiga tayangan, barcha umume'tirof etilgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga ta'minlashga intilgan davlat deganda tom ma'nodagi demokratik davlat tushiniladi. Bunda, demokratik davlat fuqarolarning erkinligi va hurfikrliligiga asoslangan fuqarolik jamiyati demokratiyasining muhim ajralmas qismidir. Mazkur davlatning legitimligi asosini esa xalq suvereniteti tashkil etadi. O'z navbatida, xalq suverenitetining amalda namoyon bo'lishining asosini saylovlar orqali tashkil etilgan davlat hokimiyati ifoda etadi.

Har qanday davlatning demokratik davlat, deb e'lon qilishning o'zi kifoya emas, muhimi, uning tashkil etilishi va faoliyatini tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunday, konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning negizini saylov huquqi instituti tashkil etadi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishishda saylovlar bir vaqtning o'zida ikkita yirik vazifani echishga xizmat qiladi: Birinchidan, saylovlar demokratiyani amalga oshirishning bevosita shakli bo'lib, fuqarolarni uyushgan holda o'zlari yashab turgan davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga safarbar etadi. Haqiqatdan ham «xalq hokimiyatining bevosita oliy ifodasini erkin saylovlar tashkil etadi»¹⁰¹. Bunda fuqarolar har qanday jarayonning ishtirokchisi bo'lganidek, saylov jarayonida ishtirok etib o'ziga siyosiy tajriba orttiradilar. Ular, avvalambor, o'zlarining siyosiy ongini charxlab, siyosiy-huquqiy madaniyatini oshiradi va bu jarayonda ishtirok etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirib boradilar. SHuningdek, fuqarolar uyushqoqlik, hamjihatlik bilan, o'z

⁹⁹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – Жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т.: «Ўзбекистон», 2005. – Б.33.

¹⁰⁰ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 29.

¹⁰¹ Қаранг: Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. – М.: ИНФРА, 2000. – С. 107.

harakatlarini kelishuv asosida namoyon qilishlarida siyosiy tajriba va ko'nikmalarini orttirib boradilar.

Demokratik davlatning muhim belgilaridan birini vakillik demokratiyasi tashkil etadi. Vakillik demokratiyasi fuqarolarning manfaatlarini birlashtirib, qonunlar va qarorlar qabul qilishga mutloq huquq berilgan saylanadigan muassasalar orqali xalq hokimiyatini amalga oshirishidir. Bundan kelib chiqadiki, tom ma'nodagi vakillik demokratiyasining amalga oshirilishi saylov jarayonining demokratik tamoyillarga amal qilishligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bundan xulosa qilish mumkinki, demokratiya va saylovlar bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ta'kidlaydi: "Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani"¹⁰². Mazkur g'oyalarning mazmun-mohiyati negizida saylovlarning davlat hokimiyati organlarini shakllantirishga aloqadorlik darajasi yotadi. Davlat hokimiyati organlari ikkita uslubda shakllantiriladi: saylovlar yo'li bilan va tayinlash yo'li bilan. O'zbekistonda ijro hokimiyati va sud organlarining oliy mansablariga tayinlashlar saylanadigan organlar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

SHunday qilib, saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang'ich legitimlikni beradi"¹⁰³. O'zbekistonda bevosita saylovlar yo'li bilan Oliy Majlisning bitta palatasi – Qonunchilik palatasi va davlat boshlig'i – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylanadilar. Saylanish yo'li bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari ham shakllantiriladi. SHu tariqa saylanadigan davlat hokimiyati vakillik organlari vakolatiga davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalarni hal etish kiritilgan. Bu barcha darajadagi saylovlarning o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Saylovlar, referendum kabi, xalq irodasini to'g'ridan-to'g'ri namoyon etilishining qonunlashtirilgan shaklidir. Saylovlar orqali fuqarolar davlat hokimiyati organlarining shakllanishida ishtirok etadilar va bu bilan davlat boshqaruvidagi o'zining konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyati bilan saylovlarning aloqadorligi asosan shu bilan belgilanadiki, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning fikrlari va manfaatlarining xilma-xilligiga asoslangan holda, tashkil etiladi, davlat organlari fuqarolarning ishtiroki bilan adolatli saylovlar asosida tashkil etilmaydigan bo'lsa, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda qonunga itoat etishini ta'minlashga, o'tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qochib-qutilishga imkoniyat bo'lmaydi, Demokratik saylovlar – hokimiyat masalasining kuch bilan hal etilishini tamoman inkor etadi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, "Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai-madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi"¹⁰⁴ deb ta'kidlaydilar.

Saylovlar bevosita jamiyatning siyosiy tizimini aks ettiradi va o'z tomonidan unga ta'sir ko'rsatadi. Ularning tashkil etilishi va ovoz berishning yakunlarini aniqlash tartibiga tegishli barcha jarayonlar siyosiy partiyalar bilan yaqindan bog'liqdir. Respublikamiz Prezidenti

¹⁰² Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Тошкент: Ўзбекистон. 2005. – Б. 165.

¹⁰³ Конституциявий ҳуқуқда легитимлик деб (лотинчадан legitimus – қонуний) давлат ҳокимияти органининг ёки олий мансабдор шахсларнинг ҳуқуқ ва ваколатларини қонуний деб топилиши уларни конституцияга ва халқни қонуний билдирилган иродасига аниқ мос келиши тушунилади.

¹⁰⁴ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 20.

ta'kidlaganidek: "Aynan saylov paytida partiyalar o'zining asosiy va ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islohotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarini ilgari suradi"¹⁰⁵. Saylovlar fuqarolarga hokimiyat uchun kurashayotgan siyosiy partiyalarning dasturlarini haqiqiy mazmun-mohiyatini anglashga imkoniyat beradi. Faqatgina saylovlar orqali xalqning ko'pchiligining irodasi aniqlanadi, uning asosida esa demokratik hokimiyat yaratiladi.

Mamlakatimiz hozirgi zamon saylov huquqi xalq hokimiyatini yaqqol namoyon qiladigan muhim konstitutsiyaviy institutdir. O'zbekiston saylov qonunchiligi erkin demokratik saylovlar o'tkazish bo'yicha xalqaro saylov andozalari majmuini tashkil etuvchi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga to'la mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida ta'kidlanganidek, yurtimizda «xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi»¹⁰⁶ tan olinadi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fuqaroning saylov huquqlari va erkinliklari mavzusi nufuzli xalqaro tashkilotlar jiddiy shug'ullanadigan masalaga aylandi. Hozirgi paytda dunyoda insonning saylov huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, erkin demokratik adolatli saylovlarni tashkil etish va o'tkazish sohasiga doir 20 dan ziyod xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud¹⁰⁷.

Saylov huquqi sohasiga taalluqli prinsiplar va andozalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qancha xalqaro universal hujjatlarida, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (1948 yil) 21-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (1966 yil) 25-moddasida, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiyaning 5-moddasida, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida BMT deklaratsiyasining (1963 yil) 6-moddasida mustahkamlab qo'yilgan¹⁰⁸.

Davlat hokimiyati vakillik organiga saylov masalalariga o'zida 145 davlat parlamentlarini birlashtirgan va, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham a'zo hisoblanuvchi Parlamentlararo ittifoq ayniqsa katta e'tibor qaratadi. 1994 yili Parlamentlararo ittifoq Kengashi «Erkin va adolatli saylov prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya»ni qabul qildi¹⁰⁹. Ushbu Deklaratsiya barcha mamlakatlar hukumatlari va parlamentlarini mazkur hujjatda belgilangan saylov huquqi sohasiga doir xalqaro prinsiplar va normalarga amal qilishga da'vat etadi.

Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham o'zlarining Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash to'g'risidagi Evropa konvensiyasi (1950 yil), Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (1969 yil), Inson va xalqlar huquqlarining Afrika xartiyasi (1986 yil) kabi xalqaro-huquqiy hujjatlari timsolida xalqaro saylov andozalariga jiddiy ahamiyat qaratadi. Xususan, Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) demokratik saylovlar sohasidagi asosiy andozalari Insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen hujjatida (1990) o'z aksini topgan. EXHTning saylov prinsiplarini quyidagi ettita so'z – universallik, tenglik, erkinlik, adolatlilik, yashrinlilik, ochiqlik va hisobdorlik - misolida to'la ifodalash mumkin. Bu - har bir ovoz e'tiborga olinishi va fuqaro davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishga ko'maklashishi mumkin ekanligining o'ziga xos dalolatidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasiga ko'ra, "Har bir inson o'zi yashayotgan davlatning boshqaruvida bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hokimiyatning asosi bo'lmog'i lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, umumiy va teng saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim". Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan yana bir hujjat, ya'ni "Fuqarolik va siyosiy

¹⁰⁵ Каримов И.А. Парламент – жамият ҳаётининг кўзгуси // Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. Тўплам. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 13.

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2003. – Б.3.

¹⁰⁷ Саидов А.Х. Международное право и избирательное законодательство – Т.: ТГЮИ, 2004. – С. 19-33.

¹⁰⁸ Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартнома/Масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т.: «Адолат», 2004. –Б. 34;45;86-87.

¹⁰⁹ Декларация о принципах свободных и справедливых выборов//В кн.: Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира: Справочник, - М.: Международные отношения, 2004. – С. 295-300.

huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktning 25-moddasiga muvofiq har bir fuqaro kamsitishlarsiz hamda asossiz cheklovlarisiz: bevosita va erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashish; umumiy va teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan va saylovchilarning erkin holdagi xohish-irodasini ta'minlovchi chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish; o'z mamlakatida umumiy shartlarda davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo'lishi joizligi ta'kidlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Irtiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish haqida"gi hamda "Ayollarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakllariga barham berish haqida"gi xalqaro konvensiyalarga ko'ra, ayollar hech qanday kamsitishlarsiz erkaklar bilan teng saylov huquqiga egadirlar. Irtiy yoki milliy mansubligi, terisining rangi, etnik kelib chiqishiga qarab fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash ta'qiqlanishi belgilab qo'yilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1952 yil 20 dekabrda qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi 1997 yil 30 avgustda qo'shilgan «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaning 1-moddasida xotin-qizlar hech bir kamsitishlarsiz erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda ovoz berish huquqiga egadirlar deb belgilangan. Mazkur hujjatning 2-moddasida esa xotin-qizlar hech bir kamsitishlarsiz erkaklar bilan teng sharoitlarda saylab qo'yiladigan muassasalarga milliy qonunchilikda belgilangan tartibda saylanishi mumkin. SHu bilan birga, 1979 yil 18 dekabrda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiyaning (O'zbekiston Respublikasi 1995 yil 6 mayda qo'shilgan) 7-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar mamlakatning siyosiy va jamoat hayotida xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko'rishlari, jumladan, ayollarga erkaklar bilan teng shart-sharoitlar asosida quyidagi huquqlarni ta'minlashlari lozim: a) barcha saylovlar va ommaviy referendumlarda ovoz berish va ommaviy saylanadigan organlarga saylanish; b) davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida davlat vazifalarini amalga oshirish.

Parlamentlararo Ittifoq Kengashi tomonidan qabul qilingan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida"gi Deklaratsiyaning 1-moddasida har qanday davlatda hokimiyat xalqning umumiy, teng va yashirin ovoz berish asosida muntazam vaqt oralig'ida o'tkazib turiladigan haqiqiy, erkin va adolatli saylovlarda bildiradigan xohish-irodasidan kelib chiqadi, deb belgilangan.

Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen hujjatida demokratik saylov prinsiplari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular universallik, tenglik, erkinlik, adolatlilik, yashirinlilik, ochiqlik va hisobdorlik kabilarda ifodasini topgan.

Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining davlat va hukumat rahbarlarining 1990 yil 19-21 noyabrda Kengashida qabul qilingan "YAngi Evropa uchun Parij Xartiyasi"da ushbu tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari zimmasiga o'z davlatlarini yagona boshqaruv tizimi sifatida kurish, jipslashtirish va mustahkamlash majburiyatlarida demokratik boshqaruv erkin va adolatli saylovlar paytida muntazam ravishda ifodalangan xalq xohish-irodasiga asoslanish, vakillik va fikrlar xilma-xilligi xususiyatiga ega bo'lgan demokratik saylovlarga hisobot berishga davlat hokimiyatlarining qonunlarga rioya etish majburiyatlarini ta'minlanishi ta'kidlangan.

2002 yil 7 oktyabrda Kishinev shahrida qabul qilingan “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida ishtirok etuvchi davlatlarda demokratik saylovlar, saylov huquqlari va erkinliklari standartlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi”da demokratik saylovlar xalq hokimiyati va irodasining bevosita oliy ifodasining biri, saylanadigan davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari xalq (milliy) vakilligining, saylanadigan mansabdor shaxslarning asosi hisoblanadi. Saylovlarni xalqaro kuzatish, saylov jarayoni ishtirokchilarining saylov huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish kafolatlari demokratik saylovlarning standartlari hisoblanishi e‘tirof etiladi.

2002 yil 7 oktyabrda qabul qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlarning «Demokratik saylovlar, saylov huquq va erkinliklari standartlari to‘g‘risida»gi Konvensiyaning 1-moddasi 2-bandida, saylovchilarning erkin xohish-iroda bildirishini ta‘minlovchi, umumiy, teng saylov huquqi bilan yashirin ovoz berish asosidagi saylovlarning muntazamligi, majburiyligi, odilonaligi, chinakamligi va erkinligi tamoyillarini ta‘minlash.

O‘zbekistonning hozirgi saylov qonunchiligida asosiy xalqaro saylov andozalarining barchasi implementatsiya qilingan. Avvalo, Konstitutsiyamizda va milliy saylov qonunchiligimizda, xususan, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunda (yangi tahriri) saylov xalq o‘z hokimiyati va xohish-irodasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yobga chiqarishining oliy ifodasi, davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etishning negizi ekani qayd etiladi¹¹⁰.

Fuqaroning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash (faol saylov huquqi) va saylanish (passiv saylov huquqi) huquqlari O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uni amalga oshirish tartib-qoidalari saylov qonunchiligida aniq belgilab qo‘yilgan. Bunda saylash va saylanish huquqlari, saylovlar tartibi, shu bilan birga, saylov huquqlari va erkinliklarining cheklanishi bilan bog‘liq masalalarning qonunchilik asosida tartibga solinishi insonning umum e‘tirof etilgan huquq va erkinliklarini, ularning qonuniy kafolatlarini chegaralab qo‘ymaydi. SHuningdek, bu boradagi milliy qonunlarni amalga oshirishda hech qanday kamsitishlar ko‘zda tutilmasligi e‘tiborga olingan.

O‘zbekiston saylov qonunchiligida umumiy saylov huquqi prinsipi mustahkamlangan. Har bir fuqaro saylov kuniga qadar yoki saylov kunida Konstitutsiyada va saylov to‘g‘risidagi qonunlarda belgilangan muayyan yoshga to‘lishi bilan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega hisoblanadi («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 2-moddasi)¹¹¹. Umumiy saylov huquqi fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma‘lumoti, tili, dinga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyati kabi holatlardan qat’i nazar, hech qanday kamsitishsiz ro‘yobga chiqariladi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

Teng saylov huquqi prinsipi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida mustahkamlangan¹¹². Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega va boshqa fuqarolar bilan tengma-teng tarzda o‘zining ana shu ovozga egalik huquqini amalga oshira oladi. Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ovoz berishda ushbu okruglar tenglik asosida tashkil etilishi ta‘minlanadi. Bir mandatli saylov okruglarining saylovchilar soniga qarab tuzilishi tenglikka amal qilishning o‘ziga xos mezonidir. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasida qayd etilganidek, «qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish uchun bir yuz yigirmata hududiy saylov okrugi tuziladi. Har bir saylov okruidan bitta deputat saylanadi». SHu moddaning davomida belgilanishicha, «Saylov okruglari, qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi»¹¹³. Har bir saylovchi o‘zining erkin ovoz berishda ishtirok etish huquqidan foydalanish maqsadida saylov uchastkasiga, shuningdek, ovoz berish xonasiga

¹¹⁰Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида»ги қонун//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2003, №9-10, 136-модда.

¹¹¹ Ўша жойда.

¹¹² Ўша жойда.

¹¹³ Ўша жойда.

teng asoslarda va hech qanday to‘siqlarsiz kirish huquqiga egadir. Har bir fuqaro saylovda o‘z nomzodini ko‘rsatish imkoniyatidan foydalanishda ham teng huquqlarga ega.

O‘zbekiston saylov qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi prinsipi ham o‘z aksini topgan. Fuqarolar saylovda nomzod uchun bevosita, ya‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz beradilar. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida belgilanganidek, «qonunchilik palatasi deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar»¹¹⁴. O‘zbekiston qonunchiligidagi yashirin ovoz berish prinsipi saylovchilarning xohish-irodasining qanday tarzda bo‘lmasin nazorat qilinishini istisno etish, erkin saylov uchun teng shart-sharoit ta‘minlash kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Saylovlar yashirin ovoz berish protsedurasidan foydalangan holda o‘tkaziladi.

O‘zbekistonda fuqarolarning saylovda ishtirok etishi erkin va ixtiyoriydir. Hech kim ularning muayyan nomzod uchun «tarafdor» yoki «qarshi» ovoz berishga majbur etish huquqiga ega emas. Hech kim fuqaroga uni saylovda ishtirok etishga yoxud ishtirok etmaslikka majburlash maqsadida ta‘sir o‘tkazishga, shuningdek, o‘z xohish-irodasini emin-erkin ifoda etishi uchun majburlashga haqli emas. «Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida erkin va yashirin ovoz beriladi. Ovoz beruvchilarining xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi» («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasi)¹¹⁵. Byulletenni belgilash paytida ovoz berish xonasida ovoz beruvchidan boshqa shaxslarning hozir bo‘lishi taqiqlanadi.

O‘zbekiston saylov qonunchiligida saylovlarning ochiqligi va oshkoraligi prinsipiga alohida o‘rin berilgan. qonunchilik palatasi saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradilar («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasi)¹¹⁶. Saylovlarni belgilash, tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish, fuqarolarning saylov huquqini ta‘minlash va himoyalash bilan bog‘liq qarorlar saylov to‘g‘risidagi qonunlarda ko‘zda tutilgan tartibda va muddatlarda rasmiy e‘lon qilinadi va ko‘pchilikning e‘tiboriga havola etiladi. Ushbu prinsipga amal qilinishi saylov jarayonlarini milliy va xalqaro doiralarda kuzatishni yo‘lga qo‘yish uchun ham tegishli shart-sharoit yaratadi.

Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritishi munosabati bilan saylov huquqini rivojlantirishning yangi davri boshlandi. Saylov qonunchiligi xozirgi kunda takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda, uning mukammal bo‘lishi uchun etakchi demokratik mamlakatlarning tajribasidan ijobiy jihatlari olinmoqda. Har qanday qonun uchun eng asosiy narsa uni amaliyotga tadbiq etish mexanizmidir. SHuning uchun qabul qilinayotgan qonunlarning mazmuni bilan birga amalga kiritish mexanizmlarini ham mukammal darajada takomillashtirishimiz lozim. Bunda milliy davlatchiligimiz tarixiy hususiyatlari va saylovlarni o‘tkazishda ilgari to‘plangan ijobiy tajribaga suyanish, yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni takrorlamaslik, ilg‘or jahon tajribasi hamda demokratiya tamoyillari ustivorligiga erishish g‘oyatma‘suliyatli vazifadir.

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy saylov tizimimizni yaratilishiga asos soldi. Jumladan, uning 7-moddasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”, “O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi” deyilgan muhim konstitutsiyaviy qoidalarning belgilanishi konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari sifatida mustahkamlandi. SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqi Konstitutsiyaning 32-moddasida alohida mustahkamlangan. Unga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini-o‘zi boshqarish,

¹¹⁴ Ўша жойда.

¹¹⁵ Ўша жойда.

¹¹⁶ Ўша жойда.

referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi". Saylov huquqiga oid yana bir – 60-moddasida “Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar”, deb belgilangan. SHuningdek, Konstitutsiyaning 77-moddasida O'zbekistonda saylovlar ko'ppartiyalik asosida o'tishi ko'zda tutilgan¹¹⁷.

Eng asosiysi, Konstitutsiyada saylov tizimi prinsiplariga bag'ishlangan maxsus bobning mavjudligi O'zbekistonning saylov qonunchiligini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Uning XXIII bobi “Saylov tizimi” deb nomlanib, 117-moddada “O'zbekiston Respublikasining fuqarolaridavlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi” deyilgan muhim konstitutsiyaviy tamoyillar o'z aksini topdi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda saylovlarning mustahkam o'rnini belgilash maqsadida Konstitutsiyaga alohida “Saylov tizimi” deb nomlanuvchi XXIII bobni kiritilishi, *bir tomondan* saylov tizimining asosiy prinsiplarining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi saylov huquqi bo'yicha umumiy tan olingan xalqaro andozalarga rioya qilinishini kafolatlasa, *ikkinchi tomondan*, mazkur konstitutsiyaviy qoidalar saylov qonunchiligini yaratishda poydevor vazifasini o'tadi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablar, ilg'or xorijiy yuridik tajriba va milliy-tarixiy an'analar hamda konstitutsiyaviy prinsiplar asosida milliy saylov qonunchiligi tizimi yaratildi. Uning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus XXIII bobida, shuningdek alohida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”gi (1991 yil 18 noyabr), “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi (1993 yil 28 dekabr), “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi (1994 yil 5 may), “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi (1994 yil 5 may), “O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”gi (1998 yil 30 aprel) qonunlarda o'z aksini topdi. Milliy saylov qonunchiligi va amaliyoti O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy tarkibiy qismi bo'lib, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumdan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari qo'yilgan qadamdir.

Saylov tizimi huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishini va saylov amaliyotini bizning fikrimizcha quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-1995 yy.) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish davrini o'z ichiga oladi.

Bu davrda “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”gi (1991 yil 18 noyabr), O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr), “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida”gi¹¹⁸ (1993 yil 28 dekabr), “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi (1994 yil 5 may), “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi (1994 yil 5 may) qonunlarning qabul qilinishi

¹¹⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. – 40 Б.

¹¹⁸ Ўзбекистон Республикаси “Ўзбекистон Республикасининг Олий Мажлиси тўғрисида”ги конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1994. – № 10. – 250-модда.

umume'tirof etilgan taomoyillar asosida ko'ppartiyali, muqobil saylovlarni tashkil etishning huquqiyasosini yaratdi.

Bu bosqichda 1994 yil 5 mayda muhim hujjat – “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonun qabul qilinganligi fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o'z xohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

Yangi saylov qonunchiligi amaliyotda 1994 yilda ko'ppartiyalilik asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida sinab ko'rildi. Uning natijasida birinchi chaqiriq Oliy Majlis uchta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar asosida saylangan deputatlardan shakllandi. SHu asosda, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar orqali yagona partiyaning “etkachilik roli”ga asoslanuvchi “sho'ro” siyosiy tizimidan demokratik shakllangan, ko'ppartiyaviylikka tayanadigan milliy parlament vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000 yy.)– milliy saylov qonunchiligining birinchi bosqichda o'tkazilgan parlament saylovlarida to'plangan amaliy tajribaga muvofiq saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Jumladan, bu bosqichda saylovlarni tashkil etish va natijalarini aniqlashda xolislik hamda ehtirolarga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashga qodir mustaqil organ – Markaziy saylov komissiyasi tuzish talabidan kelib chiqib, “O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”gi (1998 yil 30 aprel) qonun qabul qilindi va mamlakatimiz tarixida ilk bor demokratik yo'l bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzildi. Bundan tashqari, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surishni kuchaytirish, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik va siyosiy fikrlar xilma-xilligini kuchaytirishga keng shart-sharoitlar yaratish maqsadida saylov qonunchiligidan “besh foizlik to'siq” haqidagi qoida chiqarib tashlandi va saylovchilar tashabbuskor guruhlarini bevosita nomzod ko'rsatish huquqlari mustahkamlandi. SHuningdek, 1999 yil 19 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar hamda xalq deputatlari, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risidagi qonunlarga bir qator jiddiy to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritildi.

Saylov jarayoning muhim sub'ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonunni 1996 yilning dekabrda qabul qilinishi 1999 yilda o'tkazilgan parlament saylovlariga yangi huquqiy zamin yaratdi¹¹⁹. Siyosiy partiyalarda Oliy Majlisda o'z siyosatini uyushgan holda o'tkazish uchun parlament fraksiyalarini tashkil etishning qonuniy kafolatlari vujudga keldi. Eng muhimi, siyosiy partiyalar saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo'yicha vakolatlari kengaydi va nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkalariga o'z kuzatuvchilarini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

1999 yilda o'tkazilgan parlament saylovlarida fuqarolar ikkinchi marotaba bir nechta nomzod orasidan o'zlariga ma'qullarini saylashdi, ularning har biriga tegishli baho berishdi. Bu saylovlarda raqobat yanada kuchli, saylovchilarning nomzodlarga talablari esa yanada yuqori bo'ldi.

¹¹⁹Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрда қабул қилинган “Сийосий партиялар тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. – 36-модда.

Uchinchi bosqich (2000-2009 yy.) – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo‘lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o‘ynagan davr bo‘ldi. Bu davr bevosita ikki palatali Oliy Majlis tizimiga o‘tish bilan bog‘liq saylov qonunchiligi tadrijiy taraqqiyoti uchinchil bosqichning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil 25 mayda bo‘lib o‘tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasidagi “O‘zgarish va yangilanish – hayot talabi” ma’ruzalarida: “... hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma’naviy ongi ulg‘ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy. SHu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman”¹²⁰ deb, ilgari surgan mazkur g‘oyalari bu davrda qabul qilingan qonun ijodkorlik faoliyati dasturida markaziy bo‘g‘in bo‘ldi¹²¹. Bunda asosiy e’tibor quyi palata – qonunchilik palatasini shakllantirishning bosh prinsipi asosan partiyaviy vakillik prinsipi bo‘ldi. Bu siyosiy partiya vakillarining o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini va saylovlar manfaatlarini ifodalash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Parlamentning yuqori palatasi – Senat teng huquqli hududiy vakillik organi sifatidagi vakolatlari hamda u pog‘onali saylovlar asosida shakllanishi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlab qo‘yildi¹²².

Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va yangilash hamda erkinlashtirish sharoitida Prezident vakolati muddatini o‘zgartirilishi va uning ayrim vakolatlarni Senat va Bosh vazirga o‘tkazilishi, ikki palatali parlament barpo etilishi o‘z-o‘zidan saylov to‘g‘risidagi qonunlarning o‘zgarishiga olib keldi. SHu bois 2003 yilning 29 avgustida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar¹²³ hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risidagi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. SHunday qilib, ikki palatali parlamentga saylovlar uchun zarur normativ-huquqiy baza amalga yaratildi. Unda saylov huquqining xalqaro standartlari va saylov tizimlarini rivojlantirish tajribasi, shuningdek mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e’tiborga olindi. Masalan, 2004 yilgi saylovlarga qadar saylov qonunchiligiga joriy etilgan eng muhim yangiliklar qatorida – mahalliy Kengashlarning deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish huquqi bekor qilinganligi, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko‘rsatganida xotin-qizlar uchun kvota belgilangani, shuningdek saylovoldi tashviqotini olib borishda partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalasining hal etilganligini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. 2004 yil 30 aprelda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun esa partiyalarga saylovoldi kurashini faol va saylovchilar uchun qiziqarli tarzda o‘tkazishlariga qo‘shimcha imkon yaratdi¹²⁴.

¹²⁰Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 483.

¹²¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг “2002 йил 27 январдаги Ўзбекистон Республикаси референдуми якунлари бўйича қонунчилик фаолиятини асосий йўналишлари тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. – 2002. – № 4–5. – 61-модда.

¹²²Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг Сенати тўғрисида”ги конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. – 2002. – № 12. – 213-модда.

¹²³Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 28 декабрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида”ги қонуни янги таҳрири // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси, 2003. – № 9–10. – 132-модда.

¹²⁴Ўзбекистон Республикасининг “Сийсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. – 2004. – № 5. – 86-модда.

Bundan tashqari, 2008 yil 19 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari sonini 120 tadan 150 taga oshirildi. Bunda 135 ta o'rinni siyosiy partiyalardan ko'ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egallaydi. O'zbekiston ekologik harakatidan esa Qonunchilik palatasining o'n besh deputati mazkur harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadigan bo'ldi. SHuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan real jarayonlarda siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotganligi inobatga olinib saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish instituti bekor qilindi. SHuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafarga oshirildi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini yanada kuchaytirishni ta'minlashga yo'naltirilgan bir qator yangi tartib-qoidalar joriy etilmoqda.

Uchinchi bosqich (2010dan h.d.) –mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish qilish davridir. Ushbu davr O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrdagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning e'lon qilinishi bilan boshlandi. Ushbu Konsepsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar asosida qonunchilik tashabbusi bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan «Saylov erkinligini yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2012 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2012 yil 5 dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi hamda 2012 yil 19 dekabrda Prezident tomonidan imzolangan holda 2012 yil 20 dekabrda matbuotda e'lon qilindi¹²⁵.

Mazkur yangi qonunning qabul qilinishini O'zbekiston milliy saylov qonunchiligini takomillashtirilishining yangi bosqichi sifatida e'tirof etish mumkin. Kelgusida ushbu Qonunning amalga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi natijasida fuqarolarning saylov huquqi erkinligi yanadata'minlanishiga erishiladi.

YUqorida qayd qonunlarda saylov tizimi va uning mazmun-mohiyati, saylov tizimining asosiy tamoyillari, saylash va saylanish huquqi, saylovlarni tashkil etish, o'tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki, saylov huquqining kafolatlari, saylovlarni moliyalashtirish va shu kabi o'ta muhim masalalarni huquqiy tartibga solish mezonlari belgilandi.

YAngi qonun orqali «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga 4 tadan, jami 8 ta yangi qo'shimcha prim moddalar va 16 ta turli mazmundagi qo'shimchalar kiritildi.

¹²⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 51-сон, 574-модда.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi o'zgartish va qo'shimchalarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchi. «Saylovoldi tashviqoti» tushunchasini aks ettirgan quyidagi yangi definitiv me'yor saylov qonunchiligida mustahkamlandi: «saylovoldi tashviqoti – saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat».

Ushbu qoidaning qonunchilikka kiritilishi birinchidan, saylovoldi tashviqotining mazmun-mohiyatidan aholini xabardor etsa, ikkinchidan, saylovoldi tashviqotining o'ziga xosligi, ob'ekti va sub'ekti, amalga oshirish tartibi haqida ham aniq ma'lumot beradi.

Saylovoldi tashviqoti nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun o'z imkoniyatlarini namoyon qilish yo'lidagi o'ziga xos muhim siyosiy jarayon hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligining asosiy vazifasi siyosiy kurashning adolatli, xolisona, ochiq va oshkora olib borilishi uchun barcha nomzodlarga teng imkoniyat va kafolatlarni yaratish orqali siyosiy plyuralizm, ya'ni fikrlar erkinligi va xilma-xilligi asosidagi sog'lom raqobatni ta'minlashdan iboratdir. SHundan kelib chiqqan holda saylovoldi tashviqoti tushunchasining aniq ta'rifini ishlab chiqilishi va uni qonun hujjatlarida mustahkamlanishi mazkur jarayondagi turli bahsli masalalarning oldini olish va tushunmovchiliklarni bartaraf etish hamda saylovlarni demokratik andozalarga mos holda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribasiga e'tibor qaratsak, Ispaniya, Kanada, Meksika kabi mamlakatlar qonunchiligida saylovoldi tashviqotiga aniq ta'rif berilgan. AQSH¹²⁶, Yaponiya¹²⁷, Fransiya¹²⁸, Polsha¹²⁹, Belorussiya¹³⁰ va Xindiston¹³¹ kabi mamlakatlar saylov qonunchiligida ham saylovoldi tashviqotining boshlanishi va yakunlanishi bilan bog'liq qoidalar mavjud bo'lsa-da, aynan saylovoldi tashviqotining yagona ta'rifi mavjud emas.

Ikkinchidan, yangi qonunga asosan, saylovoldi tashviqotini amalga oshirish muddatlari o'zgardi. Avval bu jarayon faqatgina saylov kuni amalga oshirilishi taqiqlangan bo'lsa, yangi o'zgartirishlarga muvofiq ovoz berish kuniga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotini amalga oshirish mumkin emasligi qonunda aks ettirildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish, boshqacha aytganda, ularning kim uchun va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida ongli ravishda aniq bir qarorga kelishi uchun qo'shimcha vaqt berilishiga imkon yaratish, hamda ovoz berish arafasida turli suiiste'mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini olish imkonini beradi. Mazkur o'zgartirishning kiritilishi uchastka saylov komissiyalarining saylovlarga tayyor bo'lishi uchun hamda saylovlarni qonunga mos holda o'tkazishlari uchun sharoit yaratadi.

¹²⁶Свод законов США. Титул 2. Глава 14, раздел 434, пункт «f3».

¹²⁷Ст.129, 135 Закона «О выборах публичных должностных лиц».

¹²⁸Ст. L164 Избирательного кодекса Франции (ст. L49, L49-1. (Внесена Законом № 2011-412 от 14 апреля 2011 г. ст. 4, 5.)

¹²⁹Ст.85. «Б» Закона «О выборах».

¹³⁰Ст.45 Избирательного кодекса Республики Беларусь.

¹³¹Ст.39 «А» Акта «О народном представительстве».

Ushbu masalaga oid xorijiy tajribaga e'tibor qaratsak, Yaponiya va Belorussiya qonunchiligiga ko'ra, «saylovoldi tashviqotini amalga oshirish saylov kuni taqiqlanadi»¹³². Kanadada «saylovoldi tashviqoti ovoz berishga ikki kun qolganda yakunlanadi»¹³³. Hindiston saylov qonunchiligida ham shunga o'xshash qoidani uchratish mumkin, unga asosan, «saylovoldi tashviqoti ovoz berish kuniga 48 soat vaqt qolganda to'xtatiladi»¹³⁴. Rossiya Federatsiyasi va Moldova mamlakatlari qonunchiligiga asosan, «saylovoldi tashviqoti ovoz berish kundan bir kun oldin va ovoz berish kuni taqiqlanadi»¹³⁵. Fransiya, Polsha va Ozarbayjon davlatlari qonunchiligida «ovoz berishga bir sutka vaqt qolganda saylovoldi tashviqotini amalga oshirish taqiqlanadi» degan qoidalar mavjud. Umuman rivojlangan mamlakatlar tajribasida keng qo'llaniladigan ovoz berish kundan oldingi «sukunat» vaqtini qonunda aniq aks ettirilishi saylovlarning xolis va adolatli o'tishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, saylov qonunchiligida saylovoldi tashviqotini olib borish turlari, shakllari va usullari aniq ifodalash uchun «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunga yangi 27¹-modda, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunga yangi 25¹-modda kiritildi.

Bu moddalarda *saylovoldi tashviqotini amalga oshirishning turlari sifatida*, siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish; deputatlikka nomzod to'g'risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish; *saylovoldi tashviqotini amalga oshirishning shakllari sifatida*, saylovoldi tashviqoti omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'ilishlari, deputatlikka nomzod, siyosiy partiya to'g'risidagi rolklarni joylashtirish orqali; *saylovoldi tashviqotini amalga oshirishning usullari sifatida*, saylovoldi tashviqoti ommaviy axborot vositalari, shuningdek televidenie, umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i) orqali; bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish va orqali; saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshirilishi ko'rsatilgan. SHuningdek, mazkur moddalarda deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini olib borishning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari, shakllari va usullaridan ham foydalanishi mumkinligi ham qayd etilgan.

Saylov jarayonining muhim bosqichi hisoblangan saylovoldi tashviqoti davomida nomzodlarning qanday usul va vositalardan foydalanishlarini aniq belgilash, saylovoldi tashviqoti davomida nimalar mumkin-u, qanday harakat mumkin emasligi huquqiy me'yorlar asosida aniqlashtirilishi, birinchidan, turli baxsli harakatlarni oldini olishga, ikkinchidan, saylovlarning adolatli o'tishiga xizmat qiladi. Qolaversa, saylov jarayonlariga oid milliy qonunchiligimizni yanada demokratlashtirishga xissa qo'shadi.

To'rtinchidan, yangi qonunga asosan, saylov qonunchiligiga saylovoldi tashviqotini ommaviy axborot vositalari orqali olib borish tartibini belgilaydigan 27²-modda va 25²-moddalar kiritildi. Unga muvofiq, saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda davlat ommaviy axborot

¹³²ст.45 Избирательного кодекса Республики Беларусь.

¹³³ст. 318 Закона «Об избрании в палату общин».

¹³⁴ст.39 «А» Акта «О народном представительстве».

¹³⁵ст. 2 Федерального Закона РФ «Об основных гарантиях избирательных прав и права на участие в референдуме граждан Российской Федерации».

vositalaridan foydalanishda deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga hajmiga ko'ra bir xil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi. Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga davlat ommaviy axborot vositalarida haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga nodavlat ommaviy axborot vositalarida qonun hujjatlariga muvofiq efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Saylov kampaniyasida ishtirok etuvchi ommaviy axborot vositalari tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun teng va bir xil bo'lishi kerak. Ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo'lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni, shuningdek deputatlikka nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi. Saylovoldi tashviqoti maqsadida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Beshinchidan, saylovoldi tashviqotini bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish orqali olib borishni tartibga solish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunga yangi 27³-modda, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunga yangi 25³-modda, shuningdek, saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqotini olib borishning huquqiy asosi sifatida yangi 27⁴ va 25⁴-moddalar ham qo'shimcha sifatida kiritildi.

Mazkur yangi huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi avvalambor, partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo'lib borayotgani bilan izohlanadi. Bu kabi yangi qoidalar saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Saylovoldi tashviqotini bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish orqali olib borish yoki saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqotini olib borish tartibining qonunchilikda aniq belgilanishi bu jarayondaga har bir harakatni qonun asosida amalga oshirilishiga, saylovlarning adolatli o'tishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, yangi qonunga asosan «qamoqda saqlash joylarida» saqlanayotganlar ham ovoz berish jarayonlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'lmoqda. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 8, 32, 33, 38-moddalariga hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunning 8, 29, 30, 35-moddalariga «qamoqda saqlash joylarida» saqlanayotganlarning ovoz berish jarayonida ishtirok etish huquqini beruvchi qo'shimchalar kiritildi.

Bu avvalo, milliy qonunchiligimizni saylovlarga oid xalqaro andozalarga yanada muvofiqlashtirilishini namoyon etsa, ikkinchidan, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish borasida izchilislohotlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Chunki, aybsizlik prezumpsiyasiga asosan, shaxs sud xukmi bilan aybdor deb topilmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Aybi isbotlanmagan, qamoqda saqlash joylarida saqlanayotgan shaxslar ham ovoz

berish huquqiga ega. Qonunchilikka kiritilgan yuqoridagi qo‘shimchalar ushbu huquqni ta’minlashga, shuningdek, insonparvarlik tamoyillarini amalga tatbiq etishgaxizmat qiladi.

Ettinchidan, milliy saylov qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 41-moddasi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi Qonunning 38-moddasiga muddatidan oldin ovoz berish tartibi, muddati va asoslarini aniqlashtiruvchi qo‘shimchalar kiritildi.

Avval saylov qonunchiligida muddatidan oldin ovoz berish tartibi belgilangan bo‘lsada, unda muddatidan oldin ovoz berish haqida saylovchilarni xabardor qilish, saylovchining nima sababdan ovoz berish kuni saylovda qatnashmasligi asoslarini taqdim etishi, qaysi joyda ovoz berishi, qancha vaqt davomida ovoz berishi, muddatidan oldin ovoz berishni kimlar tashkil etishi bilan bog‘liq masalalar to‘liq ko‘rsatilmagan. SHuningdek, bu vaqtda uchastka saylov komissiyalarning qancha a‘zosi hozir bo‘lishi lozimligi etarli darajada aniqlashtirilmagan. Saylov amaliyotidan ma‘lumki, ovoz berish kundan oldin uchastka saylov komissiyasi a‘zolarining muayyan tarkibi yig‘ilishi ham murakkab jarayon.

Qonunchilikka muddatidan oldin ovoz berishning aniq tartibini belgilash bilan bog‘liq kiritilgan qo‘shimchalar, saylov jarayonlarida uchastka saylov komissiyalari duch keladigan ko‘plab muammolarning ijobiy hal etilishini, turli shakldagi asossiz e‘tirozlarning oldi olinishini ta’minlaydi.

Sakkizinchi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 65-moddasi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 45-moddasi quyidagi qoida bilan to‘ldirildi: «Ovoz berish kuniga qadar uch kun ichida, shuningdek ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga (e‘lon qilishga), shu jumladan ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga) joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi».

Mazkur qoida saylovchilar huquqlarining yanada ta’sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g‘arazli munosabatda bo‘lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishining oldini olish imkonini beradi. Saylov jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishning turli usullari mavjud. Ulardan biri aynan jamoatchilik fikrini o‘rganib, so‘rovlar natijalarini e‘lon qilish, saylov natijalari prognozlarini va o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish hisoblanadi.

Bu jarayon ba’zan saylov va uning natijalaridan keng jamoatchilikni xabardor qilishga xizmat qilsa-da, ayrim holatlarda undan saylovchilarning fikrini chalg‘itish, ularni mustaqil pozitsiya tanlashlariga imkon bermaslik maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi. Natijada o‘ziga xos salbiy oqibatlar: abcentizm yoki boshqacha ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun qonunga yuqoridagicha qo‘shimchalar kiritildi.

To‘qqizinchi, yangi qonunga asosan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasida o‘z aksini topgan kuzatuvchilarning huquqlari belgilangan me’yorlar quyidagi qo‘shimcha bilan to‘ldirilmoqda:

«O‘zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko‘rsatish va ularni saylash bo‘yicha O‘zbekiston ekologik harakatining konferensiyasida hozir bo‘lish».

Bu qo‘shimcha orqali mamlakatimizda 2008 yilda tashkil etilgan va Oliy Majlis Qonunchilik palatasida o‘zining 15 nafar deputatlik o‘rniga ega bo‘lgan O‘zbekiston ekologik harakati saylovlarini ham ochiq, oshkora tarzda o‘tayotganligini keng jamoatchilikka, xususan xalqaro kuzatuvchilarga bildirish, ularni O‘zbekiston ekologik harakatining konferensiyasida ishtirok etishiga sharoit yaratish kabi maqsadlar mujassam.

Albatta, saylov jarayonlarini xalqaro me‘yorlarga mosligini ko‘rsatadigan muhim mezon bu – unda kuzatuvchilarning ishtirok etishi hisoblanadi. O‘zbekiston ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo‘yicha konferensiyalarida kuzatuvchilarning ishtirok etishini huquqiy ta‘minlanishi mazkur tanlovning yanada adolatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizdagi saylov qonunchiligiga asosan barcha saylov jarayonlarida kuzatuvchilarning ishtirok etishi uchun huquqiy asos yaratilgan, o‘tkazilayotgan saylovlarda bir qator xorijiy mamlakatlarning ekspertlari ishtirok etib, saylovlarni ijobiy baholashmoqda. Mazkur me‘yorning qonunchilikka kiritilishi bu boradagi kichik bo‘shliqni to‘ldirdi va saylovlarni yanada adolatli o‘tishiga xizmat qiladi.

Amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlarning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirishini, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umume‘tirof etilgan xalqaro tamoyil va me‘yorlarga to‘la mos holda o‘tkazilishini ta‘minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi. Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning faqat ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar tomonidan, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa – siyosiy partiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi tamoyilial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko‘rsatish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish yo‘lidagi tamoyilial qadam bo‘ldi¹³⁶.

Saylov qonunchiligimizga saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, eng rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida ham kamdan-kam uchraydigan mutlaq vakolatlarning Markaziy saylov komissiyasiga berilishini ko‘zda tutadigan o‘zgartishlarning kiritilishi o‘ta muhim ahamiyatga molik ulkan voqea bo‘ldi. Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, saylov kampaniyasi jarayoniga davlat va hokimiyat tuzilmalari, jamoat birlashmalari tomonidan aralashishga qaratilgan har qanday urinish qonun bilan taqiqlanishi ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

So‘z va fikr erkinligi hamma fuqarolarga tegishli. Ayni chog‘da, saylov jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil etadigan bo‘lsak, ham milliy, ham xalqaro amaliy taj-ribaga muvofiq, ana shu muhim ijtimoiy-siyosiy voqeaga tayyorgarlik, uni o‘tkazish davrida aholining uch qatlami so‘z va fikr erkinligi huquqiga ega bo‘lishi ayniqsa jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bular:

- 1) umumiy aholining muayyan qismi hisoblanuvchi saylovchilar;
- 2) ommaviy axborot vositalari;

¹³⁶ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. –Т.: «Ўзбекистон», 2010. –Б. 35-36.

3) saylanadigan o‘rinlar uchun kurashayotgan yoki ovoz berish natijalariga ta’sir ko‘rsatadigan siyosiy kuchlar.

Saylovchilarning bu boradagi erkinliklari ta’minlanishi, shak-shubahasiz, ularning to‘la va aniq axborotga ega bo‘lish huquqi nechog‘li ijobat etilishida namoyon bo‘ladi. Siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining bunday erkinliklari esa o‘z qarashlarini erkin, hech qanday soxtalashtirishlarsiz bayon eta olish, shuningdek, bu fikrlar saylovchilarga tushunarli bo‘ladigan darajada etarli vaqtga ega bo‘lish layoqatiga bog‘liqdir.

Demokratik saylovlarni erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Negaki, ular fuqarolarning siyosiy partiyalar faoliyati, ularning saylovoldi dasturlari, deputatlikka ko‘rsatayotgan nomzodlari, saylov jarayonining barcha bosqichlari haqida axborot olish huquqini ta’minlashi lozim. SHunday qilib, ommaviy axborot vositalari demokratik saylovlarni ochiqlik, oshkoralik va transparentlik asosida o‘tkazishda muhim vosita bo‘lib, fuqarolik jamiyatining saylovda faol ishtirok etishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlik ko‘rish jarayoni va saylov qanday o‘tayotganini yoritib borishi mustahkamlangan. Saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda ommaviy axborot vositalari teng shart-sharoit va imkoniyatlar prinsipiga amal qilgan holda, deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalar vakillariga o‘z efir vaqti va nashr maydonini qonunda belgilangan tartibda taqdim etadi. Bundan tashqari, ular fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida saylov jarayonida jamoatchilik nazorati vazifasini bajaradi.

Saylov jarayonining barcha bosqichlari ochiqligi, oshkoraligini ta’minlash, jamoatchilikni saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida OAV orqali o‘z vaqtida xolis xabardor qilish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2014 va 2015 yilgi saylovlarni yoritish bo‘yicha Respublika matbuot markazi tashkil qilindi. Ushbu markaz Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasining asosiy bosqichlariga bag‘ishlab o‘tkazadigan brifinglar, matbuot anjumanlarini tashkil etadi, mamlakatimiz va chet el OAV vakillarini mazkur muhim demokratik jarayon bilan bog‘liq zarur axborot materiallari bilan ta’minlaydi. Jurnalistlarni Markaziy saylov komissiyasining www.elections.uz saytida e’lon qilingan akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibiga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasiga xorijiy va milliy OAV vakillari bilan qaytma aloqalar o‘rnatildi.

Ommaviy axborot vositalari erkin demokratik saylovlarni o‘tkazishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Erkin va adolatli saylovlarning mazmun-mohiyati faqat maqbul muhitda o‘z ovozini berishdan iborat emas, balki saylov jarayonlarida barcha saylovchilarga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar, ro‘yxatga olingan deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturi, shuningdek, saylov jarayonining mohiyati haqida to‘liq axborot olish shart-sharoitlari ta’minlanishi lozim. Buning natijasida saylovchilar to‘liq va etarli axborot asosida o‘zlari ongli ravishda munosib nomzodni tanlab ovoz berish imkoniga ega bo‘ladi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalarining saylov kampaniyasini yoritib borish, saylovlarning adolatli hamda qonuniy o‘tishiga bilvosita ko‘maklashish imkoniyati huquqiy kafolatlangan. Binobarin, ushbu kafolatlar ommaviy axborot vositalarining mamlakatimiz saylov to‘g‘risidagi qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklari, maqsad va vazifalari, burch hamda mas’uliyati bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi.

Mamlakatimizdagi barcha ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o‘tayotganligini keng yoritishlari ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Erkin va adolatli saylovlar nafaqat muayyan muhitda fuqarolarning o‘z ovozlarini berish imkoniyati ta’minlanganligi, balki ularning tegishli nomzodlar va umuman

butun saylov jarayoni to'g'risidagi axborotlarga doir huquqlarni kafolatlash bilan ham amalga oshiriladi. Zero, har bir saylovchi o'zining muayyan nomzodga bo'lgan ovozini ushbu nomzod haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan taqdirdagina ishonchli va asosli berishi mumkin. SHu jihatdan olganda, demokratik saylovlarni erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati saylovchilarning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ham muayyan darajada ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari davlat hokimiyati vakillik organlari saylovi jarayonida saylovchilarni xabardor qilishda xolis va haqqoniy bo'lishlari, nomzodlar va partiyalarning tengligi tamoyilini buzmasliklari kerak. Aynan ushbu holat ommaviy axborot vositalarining mazkur jarayonda amalga oshiradigan faoliyatining xususiyati hisoblanadi.

Saylovda ishtirok etadigan barcha nomzodlar, siyosiy partiyalar, qonunlarga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, o'z tashviqotini olib borishi uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari, radioeshittirish, teleko'rsatuvlarda saylovoldi dasturlari bilan chiqishlari uchun teng va adolatli shart-sharoit yaratiladi. Tashviqot faoliyatini yuritishda ommaviy axborot erkinligi suiiste'mol qilinishiga, shu jumladan, davlatning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiladigan, urush, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etadigan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsitishga qaratilgan da'vatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Amaldagi qonunchilik talablariga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmoqda. Matbuot markazining asosiy vazifalaridan biri mamlakatimiz va chet el ommaviy axborot vositalari vakillarini saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bo'yicha tegishli rasmiy ma'lumotlar, zarur materiallar bilan ta'minlashdir. Bu erda OAV vakillarining professional faoliyati uchun barcha zarur shart-sharoit mavjud, internet hamda aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Bugun jamiyat hayotining barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet faol tatbiq qilinmoqda. Ayni shu nuqtai nazardan, saylovchilarning katta qismi internetdan keng foydalanadigan yoshlar hisoblanadi. SHu bois saylov jarayoniga oid barcha axborotlar Markaziy saylov komissiyasining rasmiy sayti (www.elections.uz)ga joylashtirilib, doimiy ravishda yangilab borilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi sayti orqali fuqarolardan kelib tushayotgan saylovga tayyorgarlikning borishi va qonunchilikdagi yangiliklar haqida so'rovlarga ham o'z vaqtida javob qaytarilmoqda.

7-MAVZU: KORRUPSIYAGA KARSHI KURASH - FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

Reja:

1.Korrupsiyaning salbiy oqibatlari

2.Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda korrupsiyaning salbiy ta'sirlari

3.Xarakatlar strategiyasi davlat dasturida korrupsiyaga berilgan ta'rif

Ma'lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur etkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson hukuklari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik kiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga taxdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshka hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi.

Ushbu illatga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida 2008 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 13 oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi" Konvensiyasini ratifikatsiya qildi, shuningdek, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Istiqlol bergan tinch va osuda hayotimiz, farovon turmush tarzimiz, erishayotgan turli sohadagi yutuqlarimiz, ayniqsa yosh avlod kamoloti yo'lida qilinayotgan ezgu ishlarni har qancha e'tirof etsak, arziydi. Albatta, bunday havas qilsa arzigulik kunlarga etishishning o'zi bo'lmayotganligi va buning zamirida mashaqqatli mehnat yotganligi hech birimizga sir emas. Bugungi kunda qaysi bir sohaga e'tibor qaratmaylik, ularning har birida yuqori samaradorlikka erishayotganligimiz, bu bunyodkor xalqimizning o'z Vataniga bo'lgan mehr-muhabbatidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, jamiyatimiz ravnaqi uchun astoydil mehnat qilayotgan insonlar bilan faqat faxrlanishimiz kerak. Lekin ayrim kimsalar borki, to'qlikka sho'xlik qilib, o'z vazifalarini suiiste'mol qilgan holda, taraqqiy etib kelayotgan davlatimiz mulkiga rahna solayotganliklari achinarli holdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining **“O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”** asarida korrupsiya va poraxo'rlik haqida to'xtalib, **“Jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini emiradi, fukarolarning xukuk va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. “Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir” degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi”** deb ta'kidlaydi.

Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni echish yo'li bilan kamaytirish hamda cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni echishda korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murossasiz kurash olib borish samara beradi. SHu o'rinda ta'kidlash muhimki, har qanday holatda ham korrupsiyadan bevosita jamiyat va insonlar aziyat chekadi, zarar ko'radi. SHuning uchun ushbu

muammo global bo'lib, unga qarshi kurashning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi bejiz emas.

Korrupsiya o'zi nima? Korrupsiya bu – mansab, mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, mansabdor shaxslariga emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora emas, balki boshqa narsalar evaziga o'z ehtiyoj va manfaatlarini ham amalga oshirishlari mumkin. Darhaqiqat, korrupsiya – ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Bu korrupsiyaga qarshi avvalo ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rilishini taqozo etadi.

"Tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan, ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqelik korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidni yaqqol tasavvur etish imkonini bermoqda", deb ta'kidlaydi yurtboshimiz "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida.

SHu narsani alohida ta'kidlash kerakki, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni isloh qilishda YUrtboshimiz tomonidan 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilingan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”** muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korrupsiya muammolari bilan shug'ullanuvchi **“Transparency International”** tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, ayni damda dunyoda ko'plab jinoyatlarga sabab bo'layotgan nafs balosi, ya'ni korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga bir trillion dollardan ortiq mablag' o'zlashtirilgan ekan. SHu bois korrupsiya va poraxo'rlikni hech ikkilanmay “taraqqiyot kushandasi” deb atash mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining oldida turgan eng global muammolardan biri sanalgan korrupsiyaga qarshi kurashning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2005 yil dekabr oyida kuchga kirgan "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasi global doirada qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, uning loyihasi ikki yil davomida 130 dan ortiq davlatlar ishtirokida muhokama etilgan. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Mamlakatimiz rahbari Islom Karimov o'zining “YUksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida shunday ta'kidlaydi: “Biz o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritib, yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'yganimizdan so'ng xalqimizning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho'ro davridan og'ir meros bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o'rnida mohiyat e'tibori bilan butunlay yangi – erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azmu qaror qildik”. Lekin, taassufki, “Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan...”

Barchamizga ma'lumki, so'nggi paytlarda korrupsiya keng ildiz otib borayotgan salbiy illatlardan biridir. Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy maffatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlariga emas, balki, masalan, firmalarning menejrlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari

bo'lishi; pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin; korrupsiyaga doir munosabatlarning tashabbuschilari ba'zan davlat amaldorlari emas, balki tadbirkorlar hisoblanadi.

Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoyat faoliyat".

Korrupsiya jinoyatchiligi – sinfiy va tarixan o'zgaruvchan hodisa. E.I.Kairjanov fikriga ko'ra, "jinoyatchilik tushunchasi xususiy mulk paydo bo'lishi va jamiyat antagonistik sinflarga parchalanishi natijasida vujudga kelganini hech kim inkor eta olmaydi. Sinfiy jamiyat paydo bo'lishidan oldin jinoyat tushunchasi ham, jinoyatchilik ham mavjud bo'lmagan".

"Tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqelik korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidni yaqqol tasavvur etish imkonini bermoqda"- deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan "xufyona" iqtisodiyotning manfaatlari ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga egadir.

Ikkinchidan, "jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini emiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. "Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir" degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi".

Uchinchidan, "jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan "qudratli markazning kuchli qo'li"ni qo'msash hissini tug'diradi".

To'rtinchidan, "hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoyat tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi".

Ayni vaqtda qonunchilar, huquqni qo'llovchilar va nazariyachilarning butun sa'y-harakatlari korrupsiya tushunchasiga ta'rif berish va uning asosiy turlarini aniqlashga qaratilgan. Bunda asosiy muammo – korrupsiyaga qarshi kurashni qanday qilib va qaysi vositalar yordamida amalga oshirish zarur degan savolga javob topish ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib qolmoqda.

Bu savolga mamlakatimiz rahbari Islom Karimov aniq javob berdi: "Mana shunday noma'qul holatlarga butunlay barham berish uchun boshqaruv sohasida, avvalambor, samarali

ishlaydigan izchil sistema, tizimni shakllantirish kerak. Va bu tizim shunday ishlashi kerakki, bordiyu biror-bir mansabdor shaxs davlat siyosatidan chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug'ullanadigan, o'z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo'yadigan bo'lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og'aynisi ekanidan qat'i nazar, muqarrar ravishda jazosini olishi shart. YA'ni, bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o'tirganlar emas, balki tizimning o'zi talab etishi zarur. Jamiyatda ana shunday qarash, ana shunday tushuncha shakllangan taqdiridagina qonun ustuvorligi so'zda emas, amalda ta'minlanadi".

Xulosa qilib aytganimizda, Korrupsiya – davlat amaldorlari yoki o'zga xizmatchilar pora evaziga og'dirilishi va shu asosda ular o'z xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki muayyan guruh manfaatlarida foydalanishi bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisa.

YUqorida bu salbiy illatning oqibatlarini ko'rib o'tdik. Korrupsiyaga qarshi kurash olib bormas ekanmiz, u tobora chuqur ildiz otib boraveradi. Birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni echish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin, ikkinchidan esa, bu muammolarni echishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy kurash olib borish ko'maklashadi.

Korrupsiyaga qarshi nafaqat sud va huquqni muhofaza qilish organlari, balki har birimiz bir tan-u bir jon bo'lib kurashsakgina ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi paytlarda korrupsiya keng ildiz otib borayotgan salbiy illatlardan biridir. Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy maffatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, masalan, firmalarning menejrlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi; pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin; korrupsiyaga doir munosabatlarning tashabbuschilari ba'zan davlat amaldorlari emas, balki tadbirkorlar hisoblanadi.

Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. YUridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat".

Korrupsiya jinoyatchiligi – sinfiy va tarixan o'zgaruvchan hodisa. E.I.Kairjanov fikriga ko'ra, "jinoyatchilik tushunchasi xususiy mulk paydo bo'lishi va jamiyat antagonistik sinflarga parchalanishi natijasida vujudga kelganini hech kim inkor eta olmaydi. Sinfiy jamiyat paydo bo'lishidan oldin jinoyat tushunchasi ham, jinoyatchilik ham mavjud bo'lmagan".

"Tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqelik korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidni yaqqol tasavvur etish imkonini bermoqda", deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan "xufyona" iqtisodiyotning manfaatlarini ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos

solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga egadir.

Ikkinchidan, "jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini emiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. "Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir" degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi".

Uchinchidan, "jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan "qudratli markazning kuchli qo'li"ni qo'msash hissini tug'diradi".

To'rtinchidan, "hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi".

Beshinchidan, nopok yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar.

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo'may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himoyachilari va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilayotganidan dalolat beruvchi misollar, jumladan, bizda ham oz emas. Ular bunday xatti-harakatlari bilan insoniyatning adolat va demokratiya kabi olijanob ideallariga jiddiy zarar etkazadilar, o'z xalqlari va mamlakatlarining taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar. Bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar.

Ettinchidan, korrupsiyachilarning xatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi.

Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida sud va huquqni muhofaza qilish organlarida korrupsiyaga qarshi kurash o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tiborni qaratib, jumladan, shunday dedi: "Sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman. Takror-takror aytishga to'g'ri keladi, bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi, hech mubolag'asiz, butun hokimiyatning obro'si va kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi. Hech shubhasiz, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning darajasi, uning amaliy samarasi ko'p jihatdan huquq-tartibot, prokuratura va sud organlari tizimining o'zida bu illatga qarshi qanday kurash olib borilayotgani bilan bog'liqdir".

Ayni vaqtda qonunchilar, huquqni qo'llovchilar va nazariyachilarning butun sa'y-harakatlari korrupsiya tushunchasiga ta'rif berish va uning asosiy turlarini aniqlashga qaratilgan. Bunda asosiy muammo – korrupsiyaga qarshi kurashni qanday qilib va qaysi vositalar

yordamida amalga oshirish zarur degan savolga javob topish ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib qolmoqda.

Bu savolga mamlakatimiz rahbari Islom Karimov aniq javob berdi: “Mana shunday noma’qul holatlarga butunlay barham berish uchun boshqaruv sohasida, avvalambor, samarali ishlaydigan izchil sistema, tizimni shakllantirish kerak. Va bu tizim shunday ishlashi kerakki, bordiyu biror-bir mansabdor shaxs davlat siyosatidan chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug’ullanadigan, o’z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo’yadigan bo’lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og’aynisi ekanidan qat’i nazar, muqarrar ravishda jazosini olishi shart. YA’ni, bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o’tirganlar emas, balki tizimning o’zi talab etishi zarur. Jamiyatda ana shunday qarash, ana shunday tushuncha shakllangan taqdirdagina qonun ustuvorligi so’zda emas, amalda ta’minlanadi”.

Xulosa qilib aytganimizda, Korrupsiya – davlat amaldorlari yoki o’zga xizmatchilar pora evaziga og’dirilishi va shu asosda ular o’z xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki muayyan guruh manfaatlarida foydalanishi bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisa.

YUqorida bu salbiy illatning oqibatlarini ko’rib o’tdik. Korrupsiyaga qarshi kurash olib bormas ekanmiz, u tobora chuqur ildiz otib boraveradi. Birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni echish yo’li bilan kamaytirish va cheklash mumkin, ikkinchidan esa, bu muammolarni echishga korrupsiyaga qarshi barcha yo’nalishlarda qat’iy kurash olib borish ko’maklashadi.

Korrupsiyaga qarshi nafaqat Sud va huquqni muhofaza qilish organlari, balki har birimiz bir tan-u bir jon bo’lib kurashsakgina ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin.

Fuqarolik jamiyati mavjud bo’lmagan sharoitda bunday bozor davlatning qattiq nazorati bilangina tartibga solinishi mumkin. Davlat organlarining korrupsiyaga aralashib ketishi ehtimoli yuksakligini hisobga oladigan bo’lsak, erkin bozorning shakllanishi sharoitida ko’pgina mansabdorlarning jinoiy to’dalar ta’siri ostida tom ma’nodagi erkin bozorni shakllantirishga to’sqinlik qilishini kuzatish mumkin.

Ko’rinib turganidek, fuqarolik jamiyati mavjud bo’lmagan holatda bozorda beshafqat qonunlar hukm surishi kuzatiladi. Korrupsiya domiga tortilgan davlat mansabdorlari ko’pgina hollarda qonunbuzarliklarga qarshi kurashga bardosh bera olmay qoladi. Davlat bunday boshboshdoqlikka qarshi kurashga intilar ekan, odatda fuqarolik institutlaridan foydalanmaydi va qaytadan avtoritar usul hamda qog’ozbozlikka duchor bo’ladi. Bu esa bozor munosabatlarining ko’psonli ishtirokchilarining faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyat, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati nstitutlarini shakllantirish va rivojlantirish ma’naviy hayotdagi muhim o’zgarishlar va yangilanishlar bilan bog’liq xolda kechadi. Bunga globallashuv davri ham o’zining bevosita va bilvosita ta’sirini ko’rsatmoqda. Ma’lumki globallashuv so’zi “global” so’zidan olingan bo’lib, er shari ma’nosini bildiradi. Global o’zgarishlar, ob’ektiv jarayoni, u ijtimoiy hayotning barcha sohalariga o’zining ta’sirini o’tkazmoqda.

U ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Ma’lumki, uinsonlar ma’naviy hayot sharoiti, imkoniyatlarini yanada oshirish bilan birga, ayni paytda ma’naviyatga tahdid soluvchi ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Bu global yutuqlardan qanday maqsadda va kim tomonidan qanday maqsadda foydalanishi bilan bevosita bog’liq. Daxldorlik hissi fuqarolikni anglash, fuqarolik mas’uliyati, insonlarni inson sifatida qadrlash, uning hayotiga, sha’ni, qadr-qimmatini, daxlsizligini hurmat qilish tuyg’ulari bilan mujassam holda amalda namoyon

bo'lishini hisobga olsak, daxldorlik xissiga salbiy ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni qo'shish mumkin:

O'zbo'larchilik; ommaviy madaniyat; beparvolik; loqaydlik; sotqinlik; xudbinlik; mahalliychilik; urug'-aymog'chilik; korrupsiya; qonunni hurmat qilmaslik; vatansizlik.

Ana shunday globallasuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllashini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etadi.

Globallasuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kel-masligini tushunish, anglash qiyin emas.

Jamoatchilik surishtiruvi keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan va kam o'rganilgan, ayni paytda, jamoatchilik qiziqishini uyg'otgan muammoni atroflicha va batafsil tadqiq etish maqsadida o'tkaziladi. Jamoatchilikning qiziqishini uyg'otadigan masalalar jumlasiga jinoyatchilikni fosh etish yoki oldini olish, jamoat tartibini buzish, korrupsiya va adolatsizlikni fosh etish, odamlarning salomatligi va xavfsizligini himoya qilish, ijtimoiy muhim masalalar bo'yicha etarli ma'lumot asosida qarorlar qabul qilinishi uchun zarur bo'lgan axborotni ommalashtirish kabilarni kiritish mumkin.

Jamoatchilik surishtiruvining ob'ekti ko'pchilikni qiziqtirgan har qanday hodisa, voqea yoki tamoyil bo'lishi mumkin.

Boshlangan surishtiruvlarda mazkur muammoga qiziqqan jamoat tashkilotining har qanday a'zosi ishtirok etishi mumkin. Jamoatchilik surishtiruvini boshlagan jamoat tashkiloti jamoatchilik surishtiruvining etakchisi mavqeiga ega bo'ladi. Etakchi surishtiruvga foyda keltirishi mumkin bo'lgan mutaxasis va shaxslarni jalb etishi mumkin. SHu bilan birga, etakchi surishtiruvning har qanday bosqichida har qanday ishtirokchini surishtiruvdan chetlashtirishi mumkin. Bunda u chetlashtirishning sabablarini bayon qilishi lozim.

Etakchi tashkilotning qarorisiz masalani muhokama bosqichiga olib chiqishi mumkin emas. SHuning uchun masalani keyingi bosqichga olib chiqishdan avval etakchi avvalgi bosqichda barcha vazifalar bajarilganiga ishonch hosil qilishi lozim.

Surishtiruvning barcha bosqichlarini yopiq rejimda o'tkazish tavsiya etiladi. Bu esa, surishtiruv doirasidagi barcha masalalar, tahlillar, tortishuvlar va boshqa materiallar faqatgina surishtiruv ishtirokchilariga ma'lum qilinishini anglatadi. Bundaycheklash oxirigacha tekshirilmagan axborot va materiallartarqab ketishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Biroq, surishtiruv jarayonida shunday vaziyat ham vujudga kelishi mumkinki, unda surishtiruv

olib borilayotganiga jamoatchilikning e'tiborini tortish zarur bo'lib qoladi. Bunday hollarda surishtiruvga yangi odamlar, yangi ekspertlar va jurnalistlarni jalb qilishga to'g'ri keladi.

8-MAVZU. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHNING ILMIIY-METODOLOGIK, NAZARIY ASOSLARI

Reja:

- 1. Modernizatsiya tushunchasining mohiyati, nazariy - umummetodologik asoslari va fuqarolik jamiyati rivojidadagi ahamiyati.**
- 2. Siyosiy modernizatsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning etakchi manbai sifatida.**
- 3. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish - fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va mamlakatni modernizatsiya qilish omili**

1. Modernizatsiya tushunchasining mohiyati, nazariy - umummetodologik asoslari va fuqarolik jamiyati rivojidadagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi o'z istiqoliga erishgach jamiyat siyosiy-ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini yangilash va zamonaviylashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Mazkur zaminlarga tayanilgan holda mamlakatimizda izchillik bilan demokratik islohotlarni va unga monand ravishda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Zero, davr talablaridan kelib chiqib yangilanish va modernizatsiya jarayonlarini sobit qadamlik bilan davom ettirgan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erisha oladi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov xulosa qilganidek: "Bugun, hamma bo'lmasa ham, lekin ko'pchilik odamlar yaxshi anglaydiki, faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin"¹³⁷.

Dunyoda ro'y berayotgan tendensiyalar shundan dalolat beradiki aynan o'z jamiyatida yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarini evolyusion tarzda amalga oshira olgan mamlakatlarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va fan-texnologiya sohalarida intensiv taraqqiyot ro'y bergan. Bu o'rinda ta'kidlash joizki modernizatsiya jarayonlarining nazariy asoslarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham aynan dunyo mamlakatlari oldida turgan ustuvor muammolarni hal etish, zamon ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash maqsadlari zaminida ro'y berdi.

Ta'kidlash joizki, etimologik jihatdan modernizatsiya atamasi o'rta asrlardagi lotincha, modo (hozirning o'zida, hozirgi vaqtda, endilikda kabi ma'nolarni anglatadi), so'ziga borib taqaladi. Keyinchalik undan modern, modernizer so'zlari kelib chiqdi. Modern (fransuzcha moderne) yangi, zamonaviy degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'zdan kelib chiqqan modernize (fransuzcha - moderniser) so'zi takomillashtirish, yangilash, zamonaviy talablardan kelib chiqib o'zgartirish degan ma'nolarni anglatadi. XX asr o'rtalariga kelib "sivilizatsiyalashgan jamiyat" ma'nosini anglatuvchi modernity tushunchasi shakllandi.

¹³⁷ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 35.

Modernizatsiya haqidagi dastlabki konseptual g'oyalar jumladan, XX asrning 50-60 yillariga kelib ancha mufassal darajada shakllanganligi manbalardan ma'lumdir. Ularga ko'ra modernizatsiya haqidagi nazariyalar o'z taraqqiyotida dastlab, 1950-1960, 1960-1970, 1980-1990 yillardan iborat uch muhim bosqichni bosib o'tgandir.

XIX va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan g'arb olimlaridan M.Veber, F.Tennis, E.Dyurkgeym kabilarning g'oyalari modernizatsiya nazariyasining rivojlanishi uchun muhim turtki bo'lib xizmat qildi. Siyosiy modernizatsiya haqidagi qarashlar rivojida G.Almond va D.Pauellning 1966 yilda nashr etilgan "Qiyosiy politologiya, Taraqqiyot konsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashuv" asari, D.Apterning 1965 yilda nashr etilgan "Modernizatsiya siyosati" nomli asari, S.Lipsedning 1960 yilda nashr etilgan "Siyosiy odam", L.Payning 1966-yilda nashr bo'lgan "Siyosiy taraqqiyot aspektlari, tahliliy tadqiqot" nomli asari, D.Rastouning 1967 yilda nashr etilgan "Millatlar dunyosi" nomli asari, SH.Eyzenshtadtning 1966 yilda nashr etilgan "Modernizatsiyalashuv: norozilik va o'zgarishlar" nomli asari, S.Xantingtonning 1968-yilda nashr bo'lgan "O'zgarayotgan jamiyatlardagi siyosiy tartibot" nomli asarida bildirilgan g'oyalar muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, "Modernizatsiya nazariyalari rivojining dastlabki bosqichida universalizmga asoslangan metodologik yondashuvlar ustuvorlik qilgan edi. Unga ko'ra dunyodagi barcha xalqlarning taraqqiyoti bir xil yo'nalishda ro'y beradi, universal bosqichlarni bosib o'tadi va bunda bir-biriga o'xshash, mantiqan yaqin bo'lgan qonuniyatlar amal qiladi deb hisoblandi. Ushbu qarashlarga binoan modernizatsiya jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti quyidagi o'zgarishlarni o'z boshidan kechiradi:

- Oddiy sotsial strukturadan murakkab tizimga o'tiladi;
- Ijtimoiy integratsiyalashuv iqtisodiy mohiyat kasb etadi;
- Etatizmdan bozor munosabatlariga o'tish ro'y beradi;
- Inson tabiatning bir bo'laki ekanligi holatidan ijodkor – kashfiyotchi holatiga o'tadi;
- Odamlar ongida plyuralistik qarashlar ro'y beradi;
- Totalitarizm va aforitarizmdan demokratiyaga o'tish ro'y beradi;"¹³⁸Modernizatsiya hodisasining yirik nazariyotchilaridan biri SH.Eyzenshtadt modernizatsiya hodisasining o'ziga xos xususiyatini ta'riflar ekan "Modernizatsiya bu an'anaviy agrar jamiyatdan zamonaviy industrial va undan keyin postindustrial jamiyatga o'tishdir" deb ta'kidlagan edi¹³⁹.

SH.Eyzenshtadt hamda D.Rostou kabi olimlar o'z g'oyalarida ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya turlarining quyidagi jihatlarini qayd etib o'tgan edilar.

- Industriallashuv davrigacha bo'lgan modernizatsiyalashuv;
- Dastlabki industriallashuv davridagi modernizatsiyalashuv;
- Keyingi davrlardagi industriallashuvga xos modernizatsiya;
- Postindustriallashuv davridagi modernizatsiya.

Ta'kidlab o'tish joizki modernizatsiya paradigmasi doirasida dunyo olimlari tomonidan turli xil nazariy metodologik modellar ham taklif qilingandir. Jumladan, "U.Rostou, A.Organskiy, D.Lerner, S.Blek kabi mutaxisilar tomonidan modernizatsiya jarayonlarining mazmunini izohlash uchun "linear (yagona yo'nalishdagi model" g'oyasi ilgari suriladi. Unga ko'ra modernizatsiyaga nisbatan orqaga qaytmas va progressiv hodisa sifatida yondashiladi. Mazkur model mohiyatiga asosan modernizatsiya inson ongi va xulq-atvorining barcha jihatlarida o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

¹³⁸ Мухаев Р.Т. Политология. -М.: Проспект, 2011, -С. 492.

¹³⁹ Eisenstadt S.N. Modernization: Protest and Change. -Englewood Cliffs. – N.Y., 1966. -P.1.

G'arb olimi M.Leviy tomonidan partial (qisman) modernizatsiyalashuv modeli taklif qilindi. Unga ko'ra modernizatsiya "nisbatan modernizatsiya bo'lmagan" jamiyatdan, "nisbatan modernizatsiya bo'lgan" jamiyatga uzoq davr davomida o'tishdan iboratdir.

P.Shtomp, R.Robertson, U.Bek, K.Myuller, V.Sapf, A.Turen, S.Xantington kabi olimlar modernizatsiyaning ko'p yo'nalishli modelni asoslab berdilar. Mazkur model mualliflari modernizatsiya jarayonlarini faqatgina G'arbgga xos bo'lgan institutlarga va qadriyatlarga intilish deb tushunmaslik kerak, aksincha modernizatsiyaning har bir jamiyatga xos bo'lgan o'ziga xos yo'nalishlari ham mavjud bo'lishi mumkindir degan qarashlarni ilgari surdilar¹⁴⁰.

Modernizatsiya hodisasi tarkibida siyosiy modernizatsiya (inglizcha modernization) alohida muhim o'rin egallaydi. Siyosiy modernizatsiya o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatda zamonaviy siyosiy institutlar va siyosiyamaliyotni shuningdek, zamonaviy siyosiy tizimni shakllanishi va rivojlanishini anglatadi.

Siyosiy modernizatsiya jamiyat siyosiy tizimining zamon talablari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi vaziyatga nisbatan layoqatini yuksalishi va davr muddaosiga moslashuvini ham anglatadi. Ayni paytda siyosiy modernizatsiya davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni zamonaviylashtirish, demokratik asoslarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati rivoji uchun maqbul siyosiy mexanizmlarni vujudga keltirish maqsadlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'kidlash joizki G'arb olimlaridan G.Almond, S.Verba, L.Pay, S.Xantington, D.Darindorf, R.Dal kabilar siyosiy modernizatsiya nazariyasining yirik vakillari hisoblanadilar.

Siyosiy modernizatsiyaning XX asr ikkinchi yarmiga kelib shakllangan konservativ va liberal yo'nalishlari, ular o'rtasidagi ayrim farqlarga qaramasdan, siyosiy modernizatsiya zamirida siyosiy barqarorlik va jamiyatning izchil demokratlashuv holati yotishini e'tirof qilib o'tganlar.

Jumladan, S.Xantington siyosiy modernizatsiya jamiyat siyosiy institutlarining, jamiyatdagi ijtimoiy tafakkurning demokratlashuvidan iboratdir deb hisoblaydi. Uning xulosalariga ko'ra "mamlakat hayotining boshqa sohalarida, masalan, ijtimoiy, iqtisodiy, fan, madaniyat, ta'lim yo'nalishlarida bo'ladigan modernizatsiya jarayonlari ham oxir oqibatda jamiyat demokratlashuviga olib keladi"¹⁴¹.

S.Xantington siyosiy modernizatsiya jarayonida, siyosiy barqarorlik vaziyatining nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lishini e'tirof qilib o'tadi. Uning fikricha, "siyosiy barqarorlikni saqlab qolish jamiyatda iqtisodiy taraqqiyot sur'atiga, daromadlarning adolatli taqsimlanishiga siyosiy imkoniyatlar zahirasi mavjudligiga, siyosiy partiyalar faoliyati samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi"¹⁴².

R.Dal, G.Almond kabi olimlar siyosiy modernizatsiya mohiyatini ochiq demokratik siyosiy tizimning shakllanishidan iborat jarayon sifatida talqin qilganlar va bu jarayonda aholi siyosiy ishtirokining faolligining yuksalishi siyosiy modernizatsiyaning taraqqiyot asosini tashkil qiladi, deb hisoblaganlar.

¹⁴⁰ <http://studlib.com/content/view/153/7/>

¹⁴¹ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. (Philosophy). Пер. с англ. –М.: АСТ, 2011. –С. 576-577.

¹⁴² Хантингтон С. Будущее демократического процесса: от экспансии к консолидации // МЭиМО, 1995. № 6. -С. 90.

R.Dal tomonidan ilgari surilgan siyosiy modernizatsiya konsepsiyasiga ko‘ra “siyosiy modernizatsiya jarayonlarida demokratiyaning o‘ziga xos formasi bo‘lgan poliarxiya – keng xalq ommasini siyosiy ishtirokini yuqori darajada ta‘minlay oluvchi siyosiy tizim etakchi o‘rin tutadi”¹⁴³.

Siyosiy modernizatsiyaning liberal yo‘nalishi vakillari jamiyat demokratlashuvining chuqurlashib borishi hodisasini modernizatsiyaning ustuvor asosi deb hisoblar ekanlar bu o‘rinda ushbu jarayoning quyidagi universal tarkibiy qismlarini bayon qilib o‘tganlar:

- differensiyalashgan siyosiy tizimning tashkil etilishi;
 - zamonaviy suveren davlatni tashkil etilishi;
 - qonunchilikni va qonun ustuvorligini amalga oshirishda davlatning rolini oshirilishi;
 - jamiyat siyosiy hayotida fuqarolar siyosiy ishtiroki va faolligini yuksaltirilishi;
 - siyosiy modernizatsiyaga xizmat qiluvchi siyosiy elita vakillari faoliyatining kuchaytirilishi.
- “Mutaxassis olimlar siyosiy modernizatsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatganlar:

- endogen turi (unga ko‘ra siyosiy modernizatsiya mutlaqo jamiyatning o‘z siyosiy-ijtimoiy amaliyotidan kelib chiqib o‘tkaziladi);

- endogen – ekzogen turi (unga ko‘ra siyosiy modernizatsiya jamiyatning o‘z asoslari hamda boshqa mamlakatlar tajribalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi);

- ekzogen turi (unga ko‘ra siyosiy modernizatsiya jamiyatning o‘z siyosiy-ijtimoiy asoslariga emas balki boshqalarning tajribasiga tayangan holda o‘tkazilishi mumkin)”¹⁴⁴.

Modernizatsiya nazaryasi va amaliyoti haqidagi g‘oyalar va qarashlardan mohiyatidan kelib chiqib ta‘kidlash joizki, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va mamlakatlar hayotidan chuqur o‘rin egallashi uchun siyosiy modernizatsiya hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Zero, aynan modernizatsiya jarayonlari tufayli fuqarolik jamiyati asoslari, institutlarini mutanosib ravishda vujudga keltirish uchun real imkoniyatlar yaratiladi.

2. Siyosiy modernizatsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning etakchi manbai sifatida

Mamlakatimizning siyosiy taraqqiyot strategiyasida demokratik mezonlar asosida izchillik bilan modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirib borish muhim o‘rin egallaydi. Demokratik fuqarolik jamiyatini bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat ulug‘vor maqsadlar yurtimiz siyosiy-ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilishning etakchi maqsadi hisoblanadi.

Jamiyatimizda yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarining konseptual asoslari Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning asarlarida har tomonlama chuqur asoslab berildi. Ularda mamlakatimizni izchil modernizatsiya qilishning manbalari, yondashuvlari maqsadlari va vazifalari chuqur ilmiy zaminlarda belgilab berilgan.

Birinchi Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat‘iyat bilan borishdir.

¹⁴³ Даль Р. О демократии. – М.: Аспект-Пресс, 2000. –С. 163.

¹⁴⁴ Ильин М.В. Идеальная модель политической модернизации и пределы ее применимости. –М.: 2000. –С. 146.

Mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta’kidlashni istardimki, “boshqariladigan iqtisod” yoki “boshqariladigan demokratiya” deb atalmish modellar bizga mutlaqo to’g’ri kelmaydi.

Albatta, biz, avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda “O‘zbek modeli”ning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga bundan buyon ham qat’iy amal qilamiz”¹⁴⁵.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari o‘z mohiyatiga ko‘ra tamomila yurtimizda xalqimiz uchun ozod va obod erkin va farovon hayotni yaratishning kafolatli yo‘nalishi bo‘lgan, zamonaviy fuqarolik jamiyatini qaror toptirishga qaratildi. Barcha turdagi islohotlar mazmunan yangilanish va zamonaviylashtirish siyosatining manfaatlariga moslashtirildi.

Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, vatanimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish va yangilash modernizatsiya jarayonlarining asosiy o‘zagini tashkil etdi.

Siyosiy modernizatsiya jarayonlarining dastlabki birinchi bosqichida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini zamonaviy demokratiya talablari asosida isloh qilish va uning samarali ishlashini yanada kuchaytirish borasidagi muhim siyosiy huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar doirasida jamiyatimizda demokratlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish uchun institutsional asoslarni takomillashtirish, tashkil topgan siyosiy tuzilmalar faoliyatini shunga mos mazmun mohiyat bilan to‘ldirish masalalariga etakchi ahamiyat qaratildi. Eski ma‘muriy buyruqbozlik tizimiga barham berildi. Hokimiyatlarning taqsimlanishi asosida milliy davlatchilik negizi qurildi. Bunda davlat modernizatsiya jarayonlarining bosh tashabbuskori rolini bajarib keldi.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Davlatimiz rahbari I.A.Karimov tomonidan 2005 yilning yanvar oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzada mamlakatimizda modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishning eng muhim strategik yo‘nalishlari har tomonlama mukammal darajada ko‘rsatib berildi.

Xususan, mazkur ma‘ruzada jamiyatimizda siyosiy modernizatsiyani tashkil qilish, shu asosda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning siyosiy, institutsional, huquqiy asoslarini yangilash va hayotga joriy qilishning nazariy hamda amaliy asoslari batafsil ravishda bayon qilib berildi. Ushbu g‘oyalar Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslangan beshta strategik yo‘nalishda o‘zining ifodasini topdi.

Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo‘lmish mamlakat Parlamentining roli va ta’sirini kuchaytirish, hokimiyatining qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur ulug‘vor g‘oyalar asosida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning etakchi siyosiy asosi bo‘lgan

¹⁴⁵ Каримов И.А. Бизнес беш мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 34.

qonunchilik hokimiyati parlamentining huquqiy-institutsional asoslari va faoliyat tartibini yanada liberallashtirish jarayonlari sobitqadamlik bilan amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, mamlakatimizda parlament islohotlarining dastlabki bosqichlari uch davrni o'z ichiga oladi. Birinchi davr: 1991-1994 yillar, ikkinchi davr: 1995-2004 yillar va uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrlar davomida amalga oshirilgan parlament islohotlari yurtimizda ro'y berayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarining etakchi yo'nalishini tashkil qildi.

Birinchi davr bo'lgan 1991-1994 yillar davomida Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi.

Ikkinchi davr bo'lgan 1995-2004 yillar davomida Oliy kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy majlis shakllantirildi, Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 69 nafar, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 47, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan 14 va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Uchinchi davrda: Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan – 2005-2009 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi¹⁴⁶.

Bu davr mobaynida demokratik parlamentarizm madaniyatini bundan buyon ham rivojlantirish uchun sharoitlar yaratildi, professional deputatlar, parlamentda xizmat qiluvchi

¹⁴⁶ Назаров Қ. Жумаев Р. Жўраев С. ва бошқалар. Ўзбекистонда сиёсий ислохотлар жараёни. –Т.: Академия, 2011. –Б. 74-79.

yuksak malakali xodimlar etishib chiqdi, qonun ijodkorligi deputatlar ishining bosh yo'nalishiga aylandi¹⁴⁷.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan davlat qurilishi va boshqaruvini erkinlashtirish g'oyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu g'oya zaminida amalga oshirilgan siyosiy-ijtimoiy islohotlar natijasida demokratiya va fuqarolik jamiyati institutlari rivojining fundamental asoslari mustahkamlanib bordi. Xususan, fuqarolik jamiyatini shakllanishining muhim kafolati va manbai bo'lgan, boshqaruv tizimida demokratik davlatlar tajribasi sanalgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida barqaror muvozanat, bir-birining faoliyati ustidan nazorat qilish va o'zaro chegaralab turishni ta'minlovchi mexanizmlar shakllantirildi. Ushbu mexanizmlar mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab borildi. Mazkur jarayonlar doirasida parlament islohotlarini chuqurlashtirishga etakchi e'tibor qaratildi. Ta'kidlash joizki, aynan mana shu yo'nalishdagi islohotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiyaning etakchi mohiyatini tashkil qildi.

SHu bois ham, O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish siyosatining mantiqiy davomi va demokratik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

SHu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Nima uchun parlament islohotlari mamlakatimizda siyosiy islohotlarning asosiy bo'g'iniga aylandi? Birinchidan, parlamentning qonunchilik vazifasi shaxs, jamiyat va davlat faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish imkonini beradi. Ikkinchidan, parlament davlat hokimiyati institutlari tizimida saylab qo'yiladigan asosiy vakillik organi sanaladi. Bu esa uning fuqarolar uchun ochiq va demokratik tabiatini belgilab beradi. Uchinchidan, parlament o'zining ta'siri, vakolatlari nuqtai nazaridan hokimiyat shoxobchalari orasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan modernizatsiyalashuv jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari rivojida Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining 2007 yil 30 avgust kuni bo'lib o'tgan, O'zbekiston mustaqilligining o'n olti yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ilgari surilgan g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'ruzada, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning muhim bosqichlari, unda erishilgan natijalar chuqur tahlil etilib, kelgusida amalga oshiriladigan taraqqiyot va yangilanish strategiyasining zaminlari ko'rsatib berildi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bugun 16 yil mobaynida boshimizdan kechirgan kunlar, haftalar, oylarni ana shu nuqtai nazardan baholar ekanmiz, qat'iy ishonch bilan aytish mumkinki, o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri, tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'ldi.

2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni

¹⁴⁷ Назиров М. Ўзбекистонда парламент институти шаклланиши ва ривожланишининг тарихий босқичлари – мухим сиёсий жараён сифатида // Шарқ машъали. -2015. -№2. –Б. 10-11.

barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi."¹⁴⁸

Mamlakatimizning o'n olti yillik mustaqil taraqqiyot davomida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda erishilgan natijalar asosida demokratik va huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini eng zamonaviy talablar asosida rivojlantirishning asoslari bunyod etildi. Jamiyatimizda siyosiy modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishning yangi bosqichini boshlanishi uchun zarur bo'lgan zaminlar tayyorlandi.

Erishilgan ushbu natijalar asosida siyosiy modernizatsiya bo'yicha avval boshlangan ishlarni izchil davom ettirish jumladan, davlat qurilishi va boshqaruvini liberallashtirish va zamonaviylashtirishning etakchi yo'nalishi bo'lgan parlament islohotlarini eng zamonaviy demokratik mezonlarga tayangan holda rivojlantirish imkoniyatlari ochildi.

Bunday ulkan samaralar tufayli Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari doirasidagi parlament islohotlarining 2010 yillardan keyingi davrida mamlakatni modernizatsiyalash va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalari ustuvorlik qildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2010 yilning 27 yanvarida yangi saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" nomli ma'ruzasida qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatini demokratik takomillashtirish va rivojlantirish vazifalari, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirishning dolzarb masalalari bo'yicha yangi g'oyalar asoslab berildi. Jumladan, qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi borasidagi faoliyatini yanada yuksaltirish, deputatlik so'rovi va parlament nazorati institutlarini yanada rivojlantirish partiya nashrlarini jonlantirish, parlamentning mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashdagi ma'sulyatini oshirish masalalariga shuningdek, yurtimizda amalda bo'lgan siyosiy partiyalarning parlament hayotida va eng muhimi jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlaridagi rolini yanada oshirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, biz o'z vaqtida shu borada muhim qarorlar, xususan, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilgan edik.

SHuningdek, siyosiy partiyalarning saylovlarda qatnashib, o'zining nimalarga qodir ekanini isbotlashga, amalda bu partiyalarni O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan chuqur o'zgarishlarning hal qiluvchi kuchiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, joriy etilganidan ham xabardorsiz.

Bo'lib o'tgan saylovlardan biz chiqarishimiz kerak bo'lgan yana bir o'ta muhim xulosa shundan iboratki, bu saylovlar o'z vaqtida qabul qilingan ana shu qarorlarning naqadar to'g'ri va samarali ekanini ko'rsatdi"¹⁴⁹.

¹⁴⁸Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий ҳаётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-ж. -Т.: Ўзбекистон, 2008. –Б. 5.

¹⁴⁹Каримов И.А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараккий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. 18-ж. –Т.: Ўзбекистон, 2010. –Б. 124-125.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini izchil rivojlantirish hamda uning fuqarolik jamiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ta'sirini kuchaytirilishida siyosiy partiyalarining mamlakatimiz siyosiy tizimidagi rolini oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, siyosiy partiyalar o'z mohiyatiga ko'ra fuqarolik jamiyatining etakchi institutlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining siyosiy tizim bilan o'zaro aloqalarining doimiyligini ta'minlaydi. SHu bois ham Respublikamizda davlat qurilishi va boshqaruvini erkinlashtirish va liberallashtirish vazifalari tizimida zamonaviy ko'ppartiyaviylik tizimini vujudga keltirish hamda rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida 1996 yil 25 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun muhim o'rin tutdi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga xos bo'lgan huquqiy asoslar yaratildi: Qonunning 5-moddasiga binoan, "davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi"¹⁵⁰.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va Xalq demokratik partiyasi kabi siyosiy partiyalar jamiyatimiz siyosiy tizimida muhim rol o'ynagani holda yangilanishlar jarayonida katta hissa qo'shib, fuqarolik jamiyatini shakllantirilishining bosh omillari bo'lib xizmat qilmoqdalar. Jamiyatimiz siyosiy sohasini erkinlashtirilishida, siyosiy modernizatsiya jarayonlarini faol amalga oshirilishida Respublikamizda mustahkam qaror topgan ko'ppartiyaviylik tizimi katta muhim o'rinni egallamoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari izchillik bilan taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosiga tayangan holda fuqarolik jamiyatining barqaror zaminlarini shakllantirilishiga xizmat qilmoqda.

3. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish - fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va mamlakatni modernizatsiya qilish omili

Mamlakatimiz konstitutsiyasi negizida o'zining ifodasini topgan qoidalarga hamda jamiyatimizning isloh etishning "o'zbek modeli" asoslariga tayanilgan holda yurtimizda zamonaviy demokratiya mezonlari va tamoyillariga hamohang ravishda fuqarolik jamiyati bosqichma-bochqich ravishda shakllantirib kelinmoqda.

YUrtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijalari tufayli XXI asrning dastlabki o'n yilligiga kelib, jamiyatimiz o'z taraqqiyotining tom ma'nodagi yangi sifat bosqichiga qadam qo'ydi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda erishilgan ulkan ijobiy natijalar mamlakatimizni taraqqiy ettirishning, modernizatsiya jarayonlarini kuchaytirishning yangi strategik asoslarini yaratilishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning 2010 yilning 12 noyabrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida jamiyatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning yangi strategik yo'nalishlarini belgilab bergan Konsepsiya asoslab berildi.

Birinchi Prezidentimizning mamlakatimiz taraqqiyotining endilikdagi keng istiqbollari ochib berish uchun dasturul amal bo'lib xizmat qiluvchi Konsepsiyasi, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan

¹⁵⁰Ўзбекистон Республикасининг "Сиёсий партиялар тўғрисида"ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, № 2 (1250). 1997. –Б. 12.

siyosiy yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarining yangi, yanada yuqoriroq bo'lgan bosqichi boshlanganligining amaldagi ifodasi bo'ldi.

YUrtboshimiz ta'kidlaganidek: "Biz hammamiz shuni aniq anglab olishimiz zarurki, saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirili lozim bo'ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o'z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi"¹⁵¹.

I.A.Karimov konsepsiyasida mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini kuchli darajada rivojlantirish asnosida demokratik yangilash va modernizatsiya jarayonlarini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlar asoslab berildi. Bular, Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, Sud-huquq tizimini isloh etish, Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish kabi muhim va hal etuvchi ustuvor yo'nalishlardir.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan konsepsiya asosida avvalambor davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida erishilgan ulkan natijalar zaminida mamlakatimizda demokratlashtirish jaryonlarini kuchaytirish uning institutsional asoslarini zamonaviylashtirish, hamda fuqarolik jamiyati zaminlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va zamonaviylashtirish masalalariga etakchi e'tibor qaratildi. SHuningdek, mamlakatimizda barpo qilinayotgan demokratiya va fuqarolik jamiyatining nazariy va g'oyaviy asoslari ham har tomonlama boyitila boshlandi. Bu o'rinda avvalambor mamlakatimiz Asosiy qonuni – Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning jamiyatimizni yangilash va modernizatsiya qilish borasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini alohida e'tirof qilib o'tish joizdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyaning g'oyalariga binoan Konstitutsiyamizning mamlakatimiz davlat hokimiyatini tashkil etish va uni boshqarish bilan bog'liq yuridik xususiyatlari hamda tamoyillari eng zamonaviy demokratik taraqqiyot manfaatlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirildi. Vakillik demokratiyasining etakchi ustuni bo'lgan qonun chiqaruvchi hokimiyatining faoliyati timsolida, xalqning davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi haqidagi konstitutsiyaviy demokratik qoidani yanada yuqori darajada amal qilishi uchun, Konstitutsiyamiz bag'rida yangi huquqiy-siyosiy asoslar belgilab qo'yildi. Xususan, Konstitutsiyamizning XVIII, XIX, XX boblariga va jumladan 32, 78, 93, 96, 98, 103 va 117 moddalariga qo'shimchalarning kiritilishi mamlakatimiz Asosiy Qonunining huquqiy normalarini vorisiylik asosida yangi demokratik qoidalari bilan to'ldirilishini ta'minladi.

Konsepsiya asosida shu paytga qadar 27 ta qonun hamda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi (2010 yil 22 dekabr), "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi (2012 yil 26 aprel), "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2012 yil 24 sentyabr), "Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida"gi (2012 yil 4 oktyabr), "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi (2012 yil 20 dekabr), "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi (2012 yil 25 dekabr), "Garov reestri to'g'risida"gi (2013 yil 23 oktyabr), "Ekologik nazorat to'g'risida"gi (2013 yil 27 dekabr), "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi (2014 yil 5 may), "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi (2014 yil 28 avgust), "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi (2015 yil 25 avgust) yangi qonunlar qabul qilindi.

SHu bilan bir qatorda, Konsepsiya zaminida bir qator qonun hujjatlariga demokratik mohiyatga ega bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, 2012 yil 18 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining, 2012 yil 19 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarning qator bob va moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. SHuningdek, jamiyatimizdagi o'zgarishlarga hamohang tarzda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2011 yil 26 aprel), "Tadbirkorlik

¹⁵¹Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2010. –Б. 15.

faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2012 yil 2 may), "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2012 yil 24 dekabr), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2013 yil 22 aprel), "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2013 yil 22 aprel), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2014 yil 6 may) qonunlar qabul qilindi.

Konsepsiya zaminida mamlakatimiz Konstitutsiyasi va uning huquqiy normalarida mamlakatimiz demokratik taraqqiyoti uchun va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yangi qoidalar o'z aksini topdi. Jamiyatimizni modernizatsiya qilishning zamonaviy demokratik-huquqiy poydevori izchil mustahkamlandi. Jumladan, ta'kidlab o'tish joizki, Konstitutsiyamizning 98-moddasi yuridik moddalarga jamiyatimizda davlat boshqaruvini tashkil qilinishi va amalga oshirilishining hozirgi zamon uchun eng samarali bo'lgan yangi qoidalar kiritildi. Bular, "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovida eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordadagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan qo'llab-quvvatlangan taqdirda Bosh Vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqini joriy qilinishi bilan bog'liq muhim qoidalardir"¹⁵².

Konstitutsiyamiz mazmuniga bunday qoidaning kiritilishi natijasida jamiyatimiz siyosiy tizimi amal qilishining demokratik tamoyillari va asoslari yanada mustahkamlandi ya'ni, Qonun chiqaruvchi hokimiyatning demokratik vakolatlari va imkoniyatlari yanada oshirildi. Bu bilan uning ijro etuvchi hokimiyat bilan demokratik balansini yanada mutanosibroq darajaga ko'tarilishi uchun zaminlar yaratildi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov shu munosabat bilan ta'kidlaganidek: "Konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunchilik bazasi, shuningdek, 2010 yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, 2011 va 2014 yillarda Bosh qomusimizga kiritilgan tuzatishlar jamiyatimizni isloh etish, demokratlashtirish va liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha puxta o'ylangan, uzoq muddatga mo'ljallangan, dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb tan olingan dastur asosini tashkil etdi. Ayni shu model zamonaviy, jadal va barqaror rivojlanib borayotgan davlatning shakllanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"¹⁵³.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarining hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyatining mustahkam zaminlarini barpo qilishga qaratilgan islohotlar keng ko'lamli ravishda rivojlantirib borilar ekan, bu o'rinda jamiyat miqyosida demokratiyaning institutsional va sotsial zaminlarini eng yangi konseptual yondashuvlar asosida rivojlantirish vazifalariga hal qiluvchi ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirib borilishi o'z navbatida inson, uning uning huquqlari va erkinliklarini kengaytirib borishga, ya'ni demokratik yangilanish, liberallashtirish jarayonlarining ijtimoiy o'zagini mustahkamlashga yo'g'rilgan tub islohotlarni real ravishda amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Mana shunday holatda ya'ni bir tomondan demokratiya institutlari samaradorligi va imkoniyatlarini kengaytirib, zamonaviylashtirib borilishi ikkinchi tomondan esa demokratik jarayonlarning sotsial zaminlarini mustahkamlab borilishini AQSHlik olim R.Dal "Demokratiyaning realistik varianti"¹⁵⁴ deb atagan edi.

Bu o'rinda asosiy gap demokratiyaning jamiyat miqyosida to'liq qaror topganligini bildiruvchi asoslar: demokratiya institutsionallashuvi va demokratiyaning sotsial darajada amal qila boshlashligi

¹⁵² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2014. –Б. 52-53.

¹⁵³ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислох этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. // Халқ сўзи, 2015. 6-декабрь, № 236 (6419)

¹⁵⁴ Каранг: Полис, № 2 2004, -Б 79.

masalasi ustida bormoqda. Demokratiyaga nisbatan qo‘yilayotgan bunday mezonlar davr talablarining mahsulidir. Zeroki, zamonaviy tendensiyalar demokratiya o‘lchamlarini yangi darajalarda kengaytirilishini talab etmoqda. Bunday holat ayniqsa demokratiyaning barcha etakchi institutlari, ustunlarini zamonaviylashtirilishini ob’ektiv ravishda taqozo qiladi.

SHu jihatdan kelib chiqilganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning hozirgi bosqichida etakchi e’tibor, demokratiya institutlarini, zamonaviy demokratiya normalari, qoidalarini jamiyatimizning barcha jabhalarida chuqur qaror toptirish, uning sotsial darajada konsolidatsiyalashuviga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib modernizatsiya qilishga qaratilayotganini izchil zamonaviy demokratik siyosatining namunasi, deb hisoblash mumkin.

Jamiyatimizda ushbu jarayonlarni bevosita amalga oshirishi natijasida bunungi kunga kelib, demokratik yangilanishlar borasida mislsiz katta natijalarga erishildi. Ayni paytda ana shu natijalar asosida demokratik qadriyatlarining institutsional zaminlarini rivojlantirish uchun siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy imkoniyatlar bazasi shakllantirildi. Zamonaviy demokratiyaning mazmun va mohiyati talablariga javob bera oladigan siyosiy hamda sotsial munosabatlar tamoyillari hayotimizda tobora chuqurroq o‘rin olib bormoqda.

Mamlakatimizni yangilash va zamonaviylashtirish jarayonlarining hozirgi bosqichida demokratiya institutlarini takomillashtirish vazifalariga e’tibor berilar ekan, bunda demokratiyaning asosiy va hal qiluvchi ustuni bo‘lgan, demokratiyaning mohiyatini belgilab beradigan xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish prinsiplarini yanada kengroq ro‘yobga chiqarish masalalariga birinchi darajali ahamiyat qaratilmoqda.

Vatanimizda siyosiy modernizatsiya jarayonlarining hozirgi bosqichida Davlatimiz rahbari tomonidan asoslab berilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”ning nazariy asoslariga tayangan holda demokratiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va qaror toptirishning zamonaviy tamoyillarini keng ko‘lamli ravishda joriy qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

SHu munosabat bilan demokratlashuv va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hodisasi uzluksiz va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyaviy asosga tayanilgan holda islohotlarni rivojlantirib borish, jamiyatimizni yangilash va zamonaviylashtirish strategiyasida ustuvorlik qilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz xulosa qilganidek: “Biz shuni yaxshi anglashimiz kerakki, demokratiya hech qachon bir xil shakl yoki mazmunda bo‘lmaydi. Demokratiya degani – bu hamisha o‘zgarib turadigan hayot tarzi, jamiyat tizimining rivoji bilan uzviy bog‘liq.

Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degan uch sub’ekt o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan, bir-birini boyitib, kerak bo‘lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi”¹⁵⁵.

Davlatimiz rahbarining mazkur g‘oyalari asosida demokratiya va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro mohiyatan bog‘liqlik holati asoslanib, jamiyatimizda demokratlashuv jarayonlari xususiyatlarini zamonaviylashtirish orqali fuqarolik jamiyati tuzilmalarining kengayib, rivojlanib borishi uchun zarur bo‘lgan demokratik mexanizmlarni yanada yuqoriroq pog‘onada shakllantirish masalalariga ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda. Ayni paytning o‘zida demokratiya g‘oyasining muhim jihatlaridan biri bo‘lgan huquqiy davlatni jamiyatimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-huquqiy zaminlarini ta’minlovchi muhim omil sifatidagi rolini va ahamiyatini yanada oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Ushbu holatdan kelib chiqib, demokratik islohotlarni kuchli rivojlantirish asosida huquqiy davlatchilik tamoyillarini va institutsional asoslarini izchil mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishga yo‘naltirilgan taraqqiyot strategiyasining konseptual, normativ asoslari ham zamonaviylashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Hech kimga sir emas, faqatgina huquqiy davlat sharoitida demokratik tartibga erishiladi va shunday tartib saqlanadi, demokratik institutlar va qadriyatlar hayotga tatbiq etiladi, inson huquq va erkinliklari, eng asosiysi, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasi amalda ta’minlanadi”¹⁵⁶.

¹⁵⁵Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.: Ўзбекистон, 2015. –Б. 103.

¹⁵⁶Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислох этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. //Халқ сўзи, 2015 йил 6 декабрь, №236 (6419)

Mazkur konseptual g'oyalar asosida bugungi kunda mamlakatimizda ro'y berayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari o'z tarkibiga quyidagi muhim jihatlarni qamrab olmoqda:

Birinchidan, qonun ijodkorligi faoliyatini yanada rivojlantirish orqali, Konstitutsiyamiz normalariga tayangan holda demokratik islohotlarni va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish ehtiyojlari va aniq maqsadlaridan kelib chiqib, yangi qonun va qonunchilik xujjatlarini qabul qilib borish ishlarini yanada rivojlantirish;

Ikkinchidan, qonunlarni hayotga joriy qilishning yanada samaraliroq mexanizmlarini vujudga keltirish;

Uchinchidan, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishning muhim omili va vositasi sifatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimini rivojlantirish va shakllantirish.

Mazkur g'oyalarni bosqichma-bosqich va izchillik bilan jamiyatimiz hayotiga tadbiiq etib borilayotganligi bois hozirgi vaqtga kelib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar o'z tarkibiga mohiyatan davrimizning eng zamonaviy mezonlariga mos keluvchi yangi asoslarini qamrab olmoqda. Buning zaminida yurtimiz mustaqil demokratik taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi va maqsadi bo'lgan fuqarolik jamiyatini chuqur qaror toptirish uchun huquqiy-ijtimoiy zaminlar kuchli darajada mustahkamlandi, Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari rivojlantirildi.

SHu munosabat bilan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, qonunlar va boshqa ko'plab qonunchilik xujjatlari fuqarolik jamiyatini yuksaltirishda, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalarini hal etishda fuqarolik institutlari, ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy hamda mehnat huquqlarini himoya qilish borasida sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi"¹⁵⁷.

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarining muhim tarkibiy qismi bevosita islohotlarning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash va zamonaviylashtirishga qaratilgandir. Zero, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik iqtisodiyot fuqarolik jamiyatini ijtimoiy poydevorini shakllantirishning hal qiluvchi bo'g'inidir. Aynan rivojlangan iqtisodiyot fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini yuksak darajada ta'minlashga xizmat qilish orqali fuqarolik jamiyatining fundamental elementi bo'lgan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi.

YUrtimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi zamon bosqichining ustuvor strategik yo'nalishlarining tub mohiyatida zamonaviy modernizatsiyani tashkil etish va rivojlantirishning barcha muhim xususiyatlari qamrab olingan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnik va texnologik jihatdan yangilash zaminida yuksak rivojlangan mamlakatlar erishgan yuqori sifat darajalaridan mutlaqo qolishmaydigan samarali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uning zaminida mamlakatimiz aholisining hayot darajasini muttasil oshirib borish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy farovonlik va erkinlikni ta'minlash – mamlakatimizni modernizatsiya qilishning muhim iqtisodiy yo'nalishi sifatida belgilandi.

Ma'lumki, Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan 2015 yilda va undan keyingi yillarda mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning yangi strategik yo'nalishlari vazifalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan Harakat Dasturi taqdim etildi. Unga ko'ra ettita muhim strategik-iqtisodiy vazifalar belgilandi. Jumladan, Harakat dasturida ta'kidlanganidek, "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari dasturini tayyorlash doirasida jami qiymati 38 milliard dollarga teng bo'lgan 870 ta yirik investitsiya loyihasi ro'yxati shakllantirildi. Ushbu loyihalarga binoan 415 ta yangi korxonalar barpo etish hamda 455 ta ishlab turgan korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash nazarda tutilmoqda.

Dasturning prinsipial tarzda ajralib turadigan jihati shundaki, eksportga mo'ljallangan ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lgan mahsulot turlarini aniqlash va yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini jadal rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilgan"¹⁵⁸.


¹⁵⁷Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислох этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. // Халқ сўзи, 2015 йил 6 декабрь, №236 (6419)

¹⁵⁸Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг яқин мuddатга ва узоқ истикболга мўлжалланган Ҳаракат дastури // Халқ сўзи, 2015 йил 27 январь.

Bu o'rinda alohida e'tirof etib o'tish joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari manfaatlarini ko'zlaydi. Buning samarasi o'laroq aholining moddiy ahvoli bo'yicha keskin tabaqalanishga yo'l qo'yilmaydi. Ma'lumki, bunday holat fuqarolik jamiyati ijtimoiy asoslarining barqarorligini ta'minlovchi muhim manbadir. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda eng ko'p daromad oladigan aholi bilan, eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq nihoyatda qisqarib 7,8 barobarga tushganligi jamiyatimiz a'zolarining farovonlik darajasi ortib, sotsial himoya vositalari rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

1-Ilava

**Тараққиётнинг “Ўзбек модели” асосида сиёсий модернизация
жараёнларини амалга оширишнинг ҳозирги босқичдаги етакчи
хусусиятлари**



Иқтисодиёт соҳасида сифат жиҳатдан туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, хусусий мулк ва тадбиркорликни ривожлантириш учун имкониятлар ва шарт-шайроитларни янада кенгайтириш

Тараққийнинг “Ўзбек модели” тамойиллари асосида фуқаролик жамиятини шакллантириш учун яратилган имкониятлар



Давлат бош ислохотчи сифатида:

Фуқаролик жамиятини шакллантириш учун сиёсий-ҳуқуқий асосларни яратиб беради. Фуқаролик жамиятининг демократик заминлари вужудга келтирилади.

Фуқаролик жамиятини шакллантириш учун ижтимоий асос бўлиб ҳизмат қилувчи эркин бозор муносабатларини вужудга келтиради.

Ҳуқуқий давлатчилик ва қонун устуворилиги тамойилларини рўйбга чиқаради.

Фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши учун сиёсий-ҳуқуқий асосларини яратиб беради.

Reja:

- 1. Rivojlangan G‘arb davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi**
- 2. G‘arb mamlakatlarida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlik siyosati**
- 3. Rivojlangan SHarq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotini modernizatsiyalashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni**

1. Rivojlangan G‘arb davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi

Fuqarolik jamiyati bir vaqtning o‘zida muayyan g‘oya va mafkura, aniq asosga ega bo‘lgan voqelikni qamrab olmasada uning amaliy xarakteri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki bunday o‘z-o‘zini institutsional boshqaruv shakli bir tomondan, shaxsiy erkinlik, o‘zaro munosabatning turi va predmetini erkin tanlashga imkon beruvchi ijtimoiy munosabatlarning aniq sohasi va qizqishlarni sub’ektiv qondirish usuli sifatida talqin qilinsa, boshqa tomondan, yuzaga kelgan aniq voqea-hodisaga o‘ziga xos “kuchli va mustaqil shaxs” nuqtai nazaridan yondoshish imkonini beruvchi ijtimoiy tizim sifatida rivojlanib boradi. Masalan, AQSHda fuqarolik jamiyatining dastlabki rasmiy institutlari diniy uyushmalar, maktablar va turar joyi bo‘yicha havfsizlik va tartibni ta‘minlovchi ijtimoiy guruhlar sifatida faoliyat olib borgan. G‘arbiy Evropada esa bundan farqli ravishda fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy sohada o‘z-o‘zini namoyon qilib, bu yangi va eski tipdagi, oldingi uyushmalar va korporativ birlashmalar asosida tashkil topgan mustaqil bozor tashkilotlari sifatida faoliyat yuritgan. Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlarining o‘ziga xos faoliyati gildiyada o‘z aksini topib, o‘z vaqtida hunarmand va savdogarlarning o‘z-o‘zini himoya qilish va shaharlarni boshqarishga o‘ziga xos ta‘sir o‘tkazishning dastlabki shakli sifatida qaror topgan. O‘z navbatida Evropaning Florensiya, Paduyava boshqa shaharlari o‘zini gildiya-shahar(townsmen) sifatida shakllantirgan¹⁵⁹.

Hozirgi davrda rivojlangan G‘arb davlatlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari demokratik siyosiy faollikni nazarda tutgan holda davlat ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda siyosiy partiyalar ta‘siri va o‘z-o‘zini boshqarish institutlari faolligi tobora ortib boraveradi. YA’ni shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida baholanadi. Masalan, AQSH, Buyukbritaniya, Avstraliyada mazkur prinsip sabab davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kuchli davlat an‘anasi SHarq davlatlari kabi ko‘pgina G‘arb mamlakatlariga ham xos, ayniqsa Germaniya davlat boshqaruv tizimida bu holatga bevosita guvoh bo‘lishimiz mumkin. YA’ni Germaniya ijtimoiy-siyosiy hayotida davlatning roli jamiyat hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyati kuchli hisoblanadi. SHu boisdan ham davlat tuzilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bunda milliy birdamlik g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham shaxsiy erkinlik davlat qudratiga bog‘lab talqin etiladi. Unga ko‘ra davlat kuchli bo‘lsagina, shaxs qiziqishlari va erkinligini himoya qila oladi. YA’ni, davlat tartibi g‘oyasi, milliy birdamlik

¹⁵⁹ Ашин Г.К., Кравченко С.А., Лозаннский Э.Д. Социология политики. Сравнительный анализ российских и американских политических реалий: Учеб. пособие для высших учебных заведений. - М.: Экзамен, 2001. -С. 608.

shaxs erkinligidan ham ustun qo'yiladi. Bunday xokimiyat boshqaruv tizimi Germaniyadan tashqari Fransiya va Yaponiyaga mamlakatlariga xosdir. SHuningdek, Germaniyada fuqarolik jamiyati sohasida va uning faolligini oshirishda fuqaroga nodavlat sektorni rivojlantirishning muhim maqsadli ob'ekti sifatida e'tibor qaratiladi. Germaniyada muhim siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning hal etilishida hamda insonning qonuniy huquq va erkinliklari himoya qilinishida fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o'ynaydi. Bunda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining ta'minlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifasi deb qaraladi. Davlat tizimlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishida nohukumat tashkilotlarining rolini kuchaytirish davlatning jamiyat bilan samarali o'zaro aloqada bo'lishi mexanizmlarini mustahkamlaydi¹⁶⁰.

Germaniyada fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risida erkin axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab jarayon sifatida baholanadi. SHuning uchun ham mazkur jarayonlar axborot erkinligiga oid huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solinadi. CHunki bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlarining zamonaviy axborot bozori sharoitida jamiyat oldidagi mas'uliyati hamda javobgarligini yanada chuqur anglashiga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimdir. SHuning uchun ham 2003 yilning mayida Germaniyada oila, keksa fuqarolar, ayollar va yoshlar ishlari bo'yicha qo'mitaning kichik bo'limi (Fuqarolik faolligi bo'yicha kichik qo'mita) tashkil etilgan. Uning vazifasiga Germaniyaning fuqarolik jamiyatini tadqiq etish tavsiyalarini bajarishga ko'maklashish hamda o'z yo'nalishidagi qonun loyihalari va tashabbuslarini muhokama qilish kiradi.

SHuningdek bu mamlakatda aholining davlat, tijorat va jamoat tashkilotlariga bo'lgan ishonchi "uchinchi sektor"ni rivojlantirishning muhim mezonlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi «birinchi» va «uchinchi» sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni institutsionallashtirish har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Bunday hamkorlik siyosatini belgilab beradigan hujjatlar davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning muayyan bosqichi uchungina foydali bo'ladi. Ularda davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati roliga nisbatan yangicha nuqtai-nazari aks etadi va uchinchi sektor tashkilotlari bilan samarali o'zaro hamkorlik asoslari yaratiladi¹⁶¹.

Germaniyada "uchinchi sektor" fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik va birdamlik hissi – yaqin yaqingacha faqat siyosatshunoslarni qiziqtirgan tushunchalar endilikda barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tomonidan muhokama qilinmoqda. Buning siri nimada? Nima sababdan bugun uning ahamiyati bunchalik oshgan? Birinchidan "uchinchi sektor" – fuqarolik jamiyatining tashkiliy infratuzilmasi – uzoq yillar davomida rivojlanuvchi iqtisodning muhim tarmog'iga aylandi. Masalan, birgina Germaniyaning o'zida 1990 yildan 1995 yilgacha u 30% o'sdi. Bundan ma'lum bo'ladiki, uchinchi sektor mehnat bozori uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 90 yil o'rtalariga kelib Germaniya aholisining tahminan 2,1 mln. (ish bilan banlarning 5%) notijorat sektorda bo'lgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan Germaniyaning "uchinchi sektori" o'zining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra "o'rtacha" hisoblanadi. Unchalik katta bo'lmagan boshqa G'arb mamlakatlari - Niderlandiya, Irlandiya, Belgiya – bu jihat bo'yicha 10% gacha chiqqan xolos. Sababi davlat va "uchinchi sektor" o'rtasida bevosita va uzluksiz hamkorlik bu

¹⁶⁰ Курбатов В.И. Современная западная социология: Аналитический обзор концепций: Учеб.пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 416с.

¹⁶¹ Сморгунюв Л.В. Современная сравнительная политология. Учебник. - М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2002. - 472с.

mamlakatlarda Germaniya darajasida rivojlantirilmagan. Germaniyada davlat va “uchinchi sektor” o‘rtasidagi subsidiarlik tamoyilining qo‘llanilishi beg‘araz yordam bilan chegaralanadi.

Iqtisodiy jihatdan Germaniyada “uchinchi sektor” davlat moliyaviy resurslariga bog‘liq. Beg‘araz fondlar va ularning davlat tomonidan moliyalashtirilishi “uchinchi sektor”ning davlatga bog‘liqligini oshiradi. Va bu jihat ayniqsa boshqa davlatlar bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Katta moliyaviy yordam olishda ifodalanuvchi siyosiy partiyalar va davlatga yaqinlik “uchinchi sektor” elementlarini fuqarolik jamiyatidan tashqarida bo‘lishiga va kvazidavlat sektoriga kirishiga olib keladi. Biroq “uchinchi sektor” “ezgu ishlar homiyligidan” iborat emas. Tashkilotlarda o‘tgan vaqt uchun to‘lanmaydigan pul miqdori to‘liq bandlikdagi millionlab odamlarga to‘lanadigan pulga teng bo‘lgan. Jamoatchilik asosidagi faoliyatning manbai bo‘lgan birdamlik hissi fuqarolik jamiyati mavjudligining muhim asosi hisoblanadi. Oxirgi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Germaniyada 14 yoshdan katta bo‘lganlarning 34% jamoatchilik asosida (“uchinchi sektor” tashkilotlarida - 80%) faoliyat olib borib, bunga haftasiga o‘rtacha 5 soat vaqtini sarflaydi.

Oxirgi uch o‘n yillikda Germaniyada fondlar soni tobora oshib bormoqda. Ularning faoliyati qonuniy asos bilan mustahkamlanadi. Ular orasida yangi turdagi fuqarolik yoki shahar fondlari bo‘lib, bunda tashkilotlar va alohida jismoniy shaxslar hamkorlik asosida mahalliy miqyosda u yoki bu muammoni bartaraf qilish yo‘lida birlashadi. Germaniyaning yangi erlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 1990 y. SHarqiy Germaniyada haqiqiy “portlash” bo‘lgan, bunda 80.000 to 100.000gacha jamiyatlar tashkil topgan. Germaniyada tuzilgan tashkilotlar o‘ziga xos jihati ijtimoiy-siyosiy jihatdan markaziy sohalar – atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat jabhasidagi dinamikasi bilan bog‘liq. “Uchinski sektor” tashkilotlari a‘zolarining tobora oshib borishi uning odamlar hayotiga kirib borganligidan dalolat beradi. Qolaversa, “uchinchi sektor” ko‘p jihatdan jamiyatning o‘z-o‘zini tashkillashtirish va innovatsiyalarga nisbiy layoqatidan dalolat beradi. YA’ni bu faoliyatdagi yangilik asosan hukumat faollik ko‘rsatmagan sohalarida yuzaga keladi. SHu nuqtai nazardan bu hodisani ijobiy baholash mumkin. AQSHda kuzatilayotgan "Bowling alone" – ijtimoiy faollik halokati fenomeni Germaniya jamiyatiga xos emas.

Qiziqishlarni ifodalash funksiyasi bunda qanday amal qiladi? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Eng yangi jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, “mavzu advokat”lari deb nomlanuvchi atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat tashkilotlariga pulni sarflash va ularda jamoatchilik asosida ishtirok etish modaga aylanyapti. “Mavzu advokatlari” ga o‘xshashlarning mavjudligini, “uchinchi sektor”ning davlat funksiyalariga ta’sir qilishi yoki davlatning amal qilish chegarasini ko‘rsatishga qodirmi? Germaniya misolida biz buning qarama-qarshi, ammo umuman olganda ijobiy natijalarini ko‘ramiz. Aynan yangi va o‘ziga mustahkam ishonchi bo‘lgan, davlat otalig‘idan tashqarida vujudga kelgan tashkilotlar o‘ziga xos fuqarolik jamiyatidan dalolat beradi. “Uchinchi sektor” va siyosatning boshqa sohalarini oladigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati ustuvorliklari, pruss-protestant etatizm va katolik paternalizmni o‘zida mujassam etgan Germaniya an’anasiga ziddir. Mazkur etatistik-paternalistik an’ana subsidiarlik konsepsiyasida o‘z ifodasini topadi. Subsidiar hisoblangan va shu bilan birga markaziy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga munosib bo‘lgan tashkilotlar avvalo huquqiy chegaralar bilan belgilanadi, bu o‘z navbatida unchalik katta bo‘lmagan tashkilotlar imkoniyatlarini chegaralaydi. Bunda fuqarolik jamiyatining emas balki davlat va kommunalar qiziqishlari himoya qilinadi.

2. G‘arb mamlakatlarida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlik siyosati

G‘arb mamlakatlarida hamkorlik siyosati asosida notijorat sektorining jamiyatni rivojlantirishga hissasi e‘tirof etiladi undan so‘ng esa tomonlarning umumiy rejalari hamda davlat va jamoat birlashmalari tomonidan hamkorlik prinsiplarini amaliy mexanizmlardan foydalangan holda amalga oshirish bo‘yicha aniq chora tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. SHuning uchun ham bunday hamkorlik siyosati odatda ikki tomonning birgalikdagi sa‘y-harakatlari va muzokaralari natijasi mustahkamlanib boriladi. Ular turli shakllarda namoyon bo‘ladi: ikki tomonlama rasmiy bitimlar masalan, Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyati o‘rtasida tuzilgan shartnomalar, hukumat tomonidan davlat dasturlari sifatida qabul qilinadigan «de-fakto» bitimlari (Xorvatiya hamkorlik dasturi) yoki Parlament (Estoniya fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi) yoxud tomonlarning majburiyatlari ifoda etilgan bir tomonlama bayonotlar (Vengriyaning fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlat strategiyasi) shaklida qabul qilinishi mumkin.

Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyati o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va bayonotlar uchinchi sektor uchun ham, davlat sektorining o‘zi uchun ham juda muhim sanaladi. CHunki ular, birinchidan, fuqarolik jamiyati tashkilotlariga o‘z faoliyatlarining jiddiy qo‘llab-quvvatlanishini, demak jamiyat manfaatlarini yo‘lida faoliyat sohalarini kengaytirish imkonini bersa, ikkinchidan, davlat o‘z siyosatiga fuqarolik jamiyati bilan muloqot qilish va sheriklikni qo‘shib, bunday sheriklik yordamida o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Bunday muvaffaqiyatli hamkorlik siyosatining asosiy omili – o‘zaro manfaatlarga rioya etish kafolatlari, «boshqa tomonning maqsad va vazifalariga» hurmat va ishonchga asoslanadi. Biroq davlatning nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish to‘g‘risida muzokaralar olib borish va siyosiy hujjat qabul qilishida mashkur tashkilotlarning tashabbuskor bo‘lishi tabiiy va ehtimollik darajasi ham yuqori hisoblanadi, lekin Xorvatiya va Vengriya misollari ushbu masalada davlat hokimiyati ham manfaatdor bo‘lib, o‘zi mazkur jarayon tashabbuskori bo‘lishi va uni muvaffaqiyatli yakuniga etkazishi ham ko‘zda tutilgan.

SHu ma’noda hamkorlik to‘g‘risida siyosiy hujjat qabul qilinishining o‘zi etarli emas. SHuning uchun mazkur shartnomaning 15-moddasida uni «yakunlash emas, balki ilk nuqta» deb ataladi. SHartnoma esa «jarayon» deb nomlanadi. Bu bilan agar kelishilgan matn qabul qilishga muvaffaq bo‘linmasa ham muzokaralar jarayonidan har ikki tomon yutishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bunday sog‘lom munosabatlar tez-tez o‘tkaziladigan uchrashuvlar, konstruktiv munozaralar, faol hamkorlik, shuningdek o‘zaro yon bosishlar va bir-birini tushunishga intilishlar asosida shakllanadi. SHunday bo‘lsa-da, notijorat sektor uchun ham, hukumat uchun qonun kuchiga ega deb hisoblangan va majburiyatlar ijrosining aniq muddatlari ko‘rsatilgan hujjatning qabul qilinishi eng maqbul variant bo‘lardi. Biroq hatto uchrashuvlar, muhokamalar, muzokaralar jarayonining o‘zi – agar uning natijasida davlat tuzilmalari bilan o‘zaro anglashuvni yaxshilash asosida bo‘lsa ham – ulardan kutilganidan ko‘proq manfaat kelishi ham mumkin.

SHu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Buyuk Britaniyada muayyan toifaga taalluqli bo‘lgan hamkorlikning institutsional shakllaridan tashqari tasniflash oson bo‘lmagan alohida funksiyalarga ega institutsional shakllar ham mavjud. Bunday ixtisoslashtirilgan tuzilmalarga misol sifatida, Buyuk Britaniyaning Xayriya ishlari bo‘yicha komissiyasini ham keltirishimiz mumkin. Bizga ma’lumki, mazkur xayriya ishlari bo‘yicha komissiya qonun asosida Angliya va

Uelsdagi xayriya tashkilotlarining muvofiqlashtiruvchi va ro'yxatga oluvchi organi sifatida ta'sis etilgan. O'z nabatida bunday xayriya tashkilotlari Buyuk Britaniya ijtimoiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Lekin ularga qo'yiladigan qonuniy talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun faoliyatlarini tartibga solish talab etiladi. Bu tashkilotlar sidqidildan va qonun doirasida ish ko'rishi, shaxsiy manfaatni emas, balki ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlashlari, mustaqil bo'lislari, vasiylik kengashlarining a'zolari tashqaridan biror noqonuniy ta'sirsiz qarorlar qabul qilishlari, xayriya tashkilotlarining o'zlari tomonidan boshqaruvdagi hamma jiddiy holatlar yoki qasddan qilinadigan huquqbuzarliklarga nisbatan tegishli choralar ko'rilishi talab etiladi. Komissiya o'z faoliyatini xayriya ishlari to'g'risidagi qonunchilik ijro etilishini ta'minlagan, xayriya tashkilotlari samarali huquqiy, buxgalteriya va boshqaruv tizimlari doirasida yaxshiroq faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini bergan holda amalga oshiradi. Bunda komissiya jamiyatda, iqtisodiyot va qonunchilikda ro'y berayotgan voqealarni kuzatib boradi, samarali boshqaruvni va jamiyatga hisob berishni ta'minlashga ko'maklashadi. U qonunchilik va amaliyot masalalari bo'yicha axborotni tarqatadi va maslahatlashuvlar o'tkazadi, xayriya tashkilotlarini ro'yxatga olish jarayoniga ko'maklashadi, qonun buzilishi holatlari bo'yicha o'z tekshirishlarini olib boradi, boshqa muvofiqlashtiruvchilar (prokuratura, politsiya) bilan hamkorlik qiladi, shuningdek xayriya tashkiloti mulki saqlanishi uchun uning faoliyatiga aralashishi ham mumkin. Xayriya ishlari bo'yicha komissiya har yili Parlament va Ichki ishlar vaziriga hisob beradi, o'zining yillik hisobotlarini e'lon qiladi. SHu bilan birga, komissiya butun jamiyat manfaatlari yo'lida faoliyat olib boradigan mustaqil organ hisoblanadi¹⁶².

SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, siyosiy hujjatni muhokama qilishning markazlashtirilgan tartibi uni qabul qilishga olib kelishi shart emas, lekin ushbu jarayondagi ko'p sonli oshkora munozaralar jamoatchilikning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishiga misol bo'la oladi. Masalan, Buyuk Britaniya amaliyoti bitimlarni amalga oshirish va unga rioya etish yo'lida ikki tomon uchun ham to'siqlardan biri – ijtimoiy sektor tomonidan bitimlar to'g'risida etarlicha xabardorlikning yo'qligi yoki tushunmovchilik mavjudligidan dalolat beradi. SHuning uchun ham hujjat matnini tayyorlashga ekspertlarni jalb etish hamda uni muhokama etish va kelishishda jamoatchilikning keng ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bundan tashqari, G'arbiy Evropada «sektorni anglash», ya'ni juda ko'p notijorat va nohukumat tashkilotlarni yagona sektor sifatida (masalan, jamoatchilik yoki uchinchi sektor kabi) tasavvur etish – yangi hodisa bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda hali qaror topmagan. Hamkorlik institutlari ularga ehtiyoj bo'lgan ayrim sohalarda (odatda, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ekologiya yoki xalqaro yordam sohalorida) rivojlangan. SHunga qaramasdan ayrim sohalarda shakllangan ba'zi prinsiplar va amaliyot umume'tirof etilish darajasigacha ko'tarilgan hamda butun nodavlat notijorat tashkilotlari sektoriga va umuman hatto fuqarolik jamiyatiga tarqalgan. Ana shunday universal prinsiplarga, masalan subsidiarlik prinsipi, axborotdan foydalanish va manfaatdor guruhlar bilan maslahatlashuv (ijtimoiy muloqot) kiradi.

Fransiya va Germaniyada joylarda ijtimoiy sheriklik loyihalarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas'uliyatning katta qismi hududiy, okrug va munitsipal ta'lim (o'zini o'zi boshqarish organlari) zimmasiga yuklatilgan. Biroq, Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSH va qator boshqa rivojlangan mamlakatlarda davlat organlarining OAV bilan o'zaro hamkorligi alohida bazaviy qonunlarda tartibga solinmagan. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, aksariyat Evropa

¹⁶² Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., - 1997. – P.239-262.

mamlakatlaridagi ijtimoiy sheriklik instituti ijtimoiy-mehnat sohasida iqtisodiy manfaatlar kelishuvi va ijtimoiy-mehnat nizolarni tartibga solish bo'yicha davlatning vositachilik roli bilan ishga yollanuvchi va ish beruvchi o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar tizimi sifatida shakllangan¹⁶³.

XX asr oxiri – XXI asr boshida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Evropaning qator mamlakatlari nohukumat sektori bilan hamkorlikka oid yagona davlat siyosatini ishlab chiqish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu esa davlat va nohukumat sektorining ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanishga oid dolzarb masalalarni hal etishdagi sa'y-harakatlari va resurslarini birlashtirishga keng imkoniyat yaratib berdi. Oqibatda esa fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtirokini faollashtirish, davlatni aholiga ayrim xizmatlarni ko'rsatish yukiidan qisman ozod qila oladigan hamkorlikning mexanizmlarini yaratishga erishildi. Evropada davlat institutlarining NNTlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning muhimligi bir qator xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, BMTning 1968 yildagi Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi rezolyusiyasi (1297), «Evropada davlat boshqaruvi masalalari bo'yicha oq kitob» (25 iyul, 2001 yil), «Evropada nohukumat tashkilotlar mavqeining asosiy prinsiplari» (16 aprel, 2003 yil) va boshqa shu kabi xalqaro xujjatlarda NNTlarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi roliga alohida ahamiyat qaratiladi, muloqot va maslahatlashuv orqali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yilishi hamda muayyan davlat ko'magi shakllarini taqdim etish mexanizmlarini joriy etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan G'arb davlatlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy fuqarolik jamiyati modelini yaratish, uning davlat boshqaruvidagi samarali ishtirokini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunday zamonaviy model asosida jamiyat va davlat boshqaruvida fuqarolik institutlarining o'zni hamda ahamiyatini mustahkamlash, jamoatchilik tuzilmalari va davlat organlarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini yanada rivojlantirish mumkin. SHu bilan birga, davlatning nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorligi ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga hamda fuqarolik jabhasida yuz berayotgan jarayonlarning chuqur tizimli tahlil qilib borishga keng imkon beradi. Masalan, Fransiyada davlat nohukumat tashkilotlarini hukumat siyosatini shakllantirishga faol jalb qiladi, vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilgan kengashlar faoliyatning boshqa shakl va usullari orqali fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yadi. SHuning bilan bir qatorda Fransiyada fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiyotini monitoring qilish usullarini muntazam ravishda yangilab borilishi, jamoat birlashmalarining mamlakat hayotida tobora ortib borayotgan o'zni masalalarini o'rganish hamda ularning davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorligini tahlil qilish uchun qulay imkoniyatni yaratib bermoqda. Bunda Evropada istiqbolni belgilash va xavfsizlik instituti hamda Fransiya va Evropa Ittifoqining fuqarolik jamiyati taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa tahliliy markazlarining samarali faoliyati e'tiborga molikdir¹⁶⁴.

AQSHda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi dolzarb masalalarni echishda davlat organlari va NNTlarning o'zaro hamkorlik faoliyatini takomillashtirish shakl-tamoyillari va yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi. SHu bilan birga bu mamlakatda davlat hokimiyati organlari faoliyati, ular tomonidan qonunchilik aktlarining bajarilishi yuzasidan jamoatchilik

¹⁶³ Helmut K. Anheier, Stefan Toepler, International Encyclopedia of Civil Society, Springer-Verlag New York Inc., New York 2010.

¹⁶⁴ Чилкот Рональд Х. Теории сравнительной политологии. В поисках парадигмы /Пер. с англ. - М.: ИНФРА-М, Издательство «Весь Мир», 2001. -560с.

nazoratini olib borish mexanizmi va tajribasi ham o'ziga xos ravishda takomillashtirilgan¹⁶⁵. SHuningdek, AQSHdagi davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro ijtimoiy hamkorligi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarining takomillashuvi davlat rivojlanishining dolzarb masalalari echimidanafaqat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiradi, balki davlat organlari uchun umumdavlat miqyosidagi dolzarb masalalarni echish imkoniyatlariga sharoit yaratadi. Bunday jiddiy strategik masalalarni ishlab chiqishda Xalqaro munosabatlar Milliy demokratik instituti, Djon Xopkins Universiteti qoshidagi fuqarolik jamiyatini o'rganish Markazi, Notijorat huquqlar Xalqaro markazi va boshqa shu kabi ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda nodavlat tashkilotlarining o'rni katta hisoblanadi. AQSHda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish tizimi ancha rivojlangan.

3.Rivojlangan SHarq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotini modernizatsiyalashda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni

YAponiyada fuqarolik jamiyatini aniq belgilarini namoyon etuvchi qarashlar asosan XIX asrning oxirlaridan boshlab ilgari surilgan. YAponiyada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati asosan 1960 yildan boshlab rivojlangan bo'lsada aynan 2006 yildan boshlab rivojlangan G'arb davlatlaridan farq qiladigan o'ziga xos fuqarolik jamiyati modelini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

YAponiyada rivojlantirilayotgan fuqarolik jamiyati "ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritish" tamoyiliga asoslangan. SHuningdek, "davlat-iqtisod (bozor)-fuqarolik jamiyati" modeli ustuvor ahamiyat kasb etadi. YAponiyada joylardagi davlat hokimiyati organlari NNTlar orasida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan turli dastur va loyihalarni e'lon qilishni ko'zda tutuvchi tanlovlarni o'tkazish huquqiga ega.

Hozirgi davrda YAponiyada fuqarolik jamiyati institutlari asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ijtimoiy sarmoyalarni shakllantirish va ko'paytirish;
2. Aholiga nisbatan qo'llanilayotgan ijtimoiy xizmatlarni kengaytirishni qo'llab quvvatlash;
3. Jamiyatdagi turli maqsadli faoliyat bilan shug'ullanayotgan muayyan guruhlarini qo'llab quvvatlash va mehnat uyushmalari faoliyatini kengaytirish;
4. YAponiyada hududiy assotsiatsiyalar faoliyatini kuchaytirish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga erishish;
5. YAponiyada mavjud siyosiy tizim va partiyalar faoliyatini takomillashtirish;
6. Davlat va bozor munosabatlaridan mustaqil bo'lgan iste'molchilar jamiyatini rivojlantirishga erishish;
7. Atrof-muhitni muxofaza qilish, axoli salomatligini yaxshilash va mavjud demografik muammolarni oqilona hal etish;
8. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va ekologik muammolarni tadqiq etuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirish va h.k.

YAponiyadan farqli ravishda Xitoyda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning retrospektiv xususiyatlari va siyosiy islohotlar tadriji bu hududa yashovchi insonlarni fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu erda eng muhim narsa shuki Xitoyda fuqarolik jamiyati

¹⁶⁵ O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass:Tufts University Press, 1999.

tizimida "bozor" va "ijtimoiy" sohani o'zaro aloqadorlikda bosqichma-bosqich rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoyda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish asosan 1949 yildan boshlab asosiy bosqichni bosib o'tgan bo'lsada, avvalo fuqarolik jamiyati institutlarining dastlabki tuzilmalari faoliyati asosida Xitoy ma'muriy tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratilgan. 1989 yildan boshlab Xitoyda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati keng miqyosda tashkil etilgan.

Xitoyda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida bir qancha to'siqlar mavjud, ulardan biri – xitoy madaniyatida fuqarolik jamiyati an'analarining oldin mavjud bo'lmaganligi. Buning echimi, kaliti Xitoy "xalq jamiyati"ni "fuqarolik" jamiyatiga – "xalq"ni "fuqaro"ga almashtirish kerak. Xitoyning siyosiy jihatdan rivojlanishi fuqarolarda fuqaroviy ong va fuqarolik madaniyatini tarbiyalash, siyosiy tizimni isloh qilish va demokratiyani rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Xitoy sotsiologlarining fuqarolik jamiyati tushunchasiga munosabati ham o'ziga xosdir. Chunki bu mamlakatda fuqarolik jamiyati nodavlat va davlatdan tashqari tashkilotlar sifatida jamoaviy o'z-o'zini boshqarish asosni tashkil qiladi. Ularning fikricha, fuqarolik jamiyati – asta-sekin qudratli davlatning bozor va ijtimoiy munosabatlar sohasidan chetlashtirilishi, fuqarolik jamiyatining muhim komponentlaridan biri fuqaroviy-ijtimoiy tashkilotlar kabi shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Xitoyda fuqarolik jamiyati shakllanishi tarixi – buyuk va qudratli davlatning iqtisod va ijtimoiy munosabatlar sohasidan chetlashishi, fuqarolik jamiyatining yana bir muhim komponenti, fuqaroviy-ijtimoiy tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivoji bilan bog'liq. SHu sababli, bugungi xitoy olimlari Xitoyda siyosat va ma'muriy boshqaruvda yangi tendensiyalarni shahar va qishloq joylariga tadbiiq qilish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tmoqdalar¹⁶⁶.

Xitoyda mavjud bo'lgan barcha shahar va mikrorayonlarni jamoat tashkilotlari sayi harakatlari bilan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. SHuning uchun ham bu tashkilotlarning demokratik o'z-o'zini boshqarish asoslarining yaratishdagi o'rni beqiyos hisoblanadi. Oxirigi o'n yilliklarda Xitoy siyosiy boshqaruvida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususiy sektor va nodavlat tashkilotlarning xitoyliklar hayotida tobora ahamiyati oshib borayotganligi sababli davlat siyosiy boshqaruv sohasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xususan, partiya va hukumat rahbarlarining demokratik asosda saylanishi tartibi XXR hududlarida samarali davlat boshqaruvini amalga oshirishga ko'maklashmoqda. O'z navbatida Xitoy davlati boshqaruvida qayta aloqa tamoyilini amalga oshirishga harakat qilinmoqda. Bunda alohida e'tibor har nima bo'lgan ham davlatning umumiy siyosiy barqarorligiga erishishga qaratilmoqda¹⁶⁷.

Uzoq SHarqda konfutsichilik ana'analarini saqlab qolgan va milliy qadariyatlar tizimiga qat'iy amal qiladigan davlat Janubiy Koreya hisoblanadi. Bu davlatda fuqarolik jamiyati jamoaviylik tamoyiliga asoslangan holda rivojlantirib borilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan bir qatorda davlat va jamiyat munosabatlarini modernizatsiya qilishda muhim o'rinni egallaydi. Janubiy Koreyada fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida liberal demokratik tamoyillarni ana'naviy jamiyat boshqaruvi me'yorlari bilan uyg'un holda tadbiiq qilishga alohida e'tibor qaratilgan. SHuning bilan bir

¹⁶⁶ Қаранг: Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ): монография / Ж.Мавлонов. – Ташкент: Истиқлол нури, 2014. – 224 с.

¹⁶⁷ Литвинов О.В. Китайский путь к демократии. - М.: Научная книга, 2004. – 369 с.

qatorda bu mamlakatda rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlari “xukumat-fuqaro-huquq” modelidan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi.

Insoniyat tarixida katta hududlarni egallagan rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda kichik davlatlar ham mavjud. Singapur aynan shunday shahar-davlat hisoblanadi. Singapur qishloq xo‘jaligi yoki biror tabiiy resurslariga ega emas, ammo suvni ham import qilishga majbur bo‘lgan Singapur o‘z mahsulotlarini Rossiyadan uch barobar ko‘p miqdorda eksport qiladi. Siyosatshunos N. Gardele bu haqida shunday yozadi: «Ehtimol butun er yuzida Singapurchalik tartiblilik, yuqori texnologiyalar, boy o‘rtacha sinf, madaniyat va tolerantlik bilan XXI asrga qadam qo‘yishga tayyor shahar-davlat bo‘lmasa kerak. Hali 1965 yilda ham Singapur iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan CHili, Argentina va Meksika bilan bir darajada turgan edi, endilikda esa bu mamlakatda ishlab chiqarishi aholi jon boshiga yuqoridagi mamlakatlardan 5 barobar ko‘p. Ichki yalpi mahsuloti — 136 milyard dollarni tashkil etadi. Daromadi bo‘yicha aholi jon boshiga 45 ming dollardan ziyodni tashkil qilayotgan bu mamlakat jahonda etakchilik qilmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlar natijasida Singapurda korrupsiya va jinoyatchilik ko‘rsatkichi jahonda eng quyi darajada ekanligi aniqlangan. Singapur respublikasi – qirq yillik milliy suverenitetidan keyin rivojlanayotgan emas, “rivojlangan mamlakat” maqomini olgan Janubiy-SHarqiy Osiyodagi yagona mamlakatlardan biri hisoblanadi¹⁶⁸.

Hozirgi davrda Singapur – yuqori farovonlikdagi hayot tarziga ega yirik ishlab chiqarish markazidir. Bu erda siyosiy jarayon uch ketma-ket bosqich bo‘yicha rivojlanib borgan. Birinchi bosqichda avtoritar rejim joriy etilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa iqtisodiy rivojlanishga urg‘u berilgan, shuningdek jiddiy siyosiy masalalar ayni shu bosqichda hal etilgan. Uchinchi bosqichda 14 – ishlab chiqarish modernizatsiyasi amalga oshirilgan va siyosiy tizim yanada takomillashtirilgan.

Siyosiy jarayoning asosiy ishtirokchisi sifatida davlat, fuqarolik jamiyati, siyosiy partiya va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligi bu davlatda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Singapur davlatida ijro hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat ustidan nazorat o‘rnatgan. CHunki aynan davlat vazirliklar orqali muhim strategik qarorlarni qabul qilish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar ustidan nazoratni amalga oshirish va monopoliya huquqlaridan foydalanadi. Hukumat va jamiyat bilan vositachi sifatida aynan siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi. Singapurda Evropa namunasi asosida ko‘p partiyaviylik va xalq harakati ustunlik qiladi. Singapurda barcha partiyalar konstitutsion-huquqiy rasmiylashtirilgan va qonuniy maqomga ega bo‘lib siyosiy jarayon va demokratiyaning ajralmas atributi hisoblanadi¹⁶⁹.

Singapur davlatining keyingi rivoji jamiyatni demokratlashtirish bilan bog‘liq. Oxirgi yillarda bu erda demokratiyani takomillashtirish davlat strategiyasi aniqlab olindi. Bular quyidagi islohotlarni amalga oshirishda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi:

- jamiyatning ijtimoiy yaxlitligini mustahkamlash;
- yagona singapur millatini shakllantirish;
- iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim tizimini modernizatsiyalash;

¹⁶⁸ Қаранг: Погадаев В.А. Малайский мир (Бруней, Индонезия, Малайзия, Сингапур). Лингвострановедческий словарь. – М.: Восточная книга, 2012. - 798с.

¹⁶⁹ Қаранг: Ли Куан Ю. Сингапурская история: из третьего мира в первый. М.: 2005.

- korrupsiya bilan kurash.

Mazkur yoʻnalishlar demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti hisoblanadi. Davlat bilan birga siyosiy tuzilma tashqarisida shakllanuvchi fuqarolik jamiyati bu davlatda katta oʻrin tutadi. Singapur hukumati demokratik, biroq oʻta markazlashgan va qatʼiy boshqariluvchi davlat doirasida xalq mandatini saylovlar orqali qoʻlga kiritib borgan. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot esa demokratik qadriyatlarning shakllanishiga asos boʻlgan, hukumat tepasiga yangi siyosiy etakchilar avlodining kelishi bu davlatda oʻziga xos fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga sharoit yaratib berishi mumkin¹⁷⁰.

Singapurda samarador davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda quyidagi islohotlarga alohida eʼtibor qaratilgan: Birinchidan, hukmron partiya hanuz yirik siyosiy partiyaligicha qolmoqda. Chunki u turli sohalarda davlat boshqaruvidagi noyob tajribasiga ega. Ikkinchidan, iqtisodida bozor tamoyillar amal qiladi, biroq davlat asosiy xalq xoʻjaligi tarmoqlarini boshqaradi va nazorat qiladi. Uchinchidan, boshqaruv organlarining, davlat muassasalariga eng munosib kadrlarni toʻgʻri tanlashi va taqsimlashi samarali natijalarni bermiqda. Toʻrtinchidan, puxta oʻylangan taʼlim tizimi ijtimoiy mobillikning muhim omili sifatida xizmat qilib qabul qilinayotgan qarorlarning yuqori professionallik darajasini taʼminlangan. Beshinchidan, milliylik masalasining hal etilgan va etnik diskriminatsiya yoʻq, etnik teng huquqlilik jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida qaror topgan. Oltinchidan, maʼnaviy-axloqiy asos sifatida, mamlakat siyosatiga oʻz taʼsirini oʻtkazuvchi – insoniy munosabat, muomala, tartib-intizom va oʻzarokelishuvga katta eʼtibor qaratilgan. Ettinchidan, Singapurning iqtisodiy rivoji va boshqa ijtimoiy muammolarning hal etilishi omma siyosiy hayotini faolashtirgan va mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish, zamonaviy parlamentarizmni rivojlanishiga asos boʻlgan. Siyosiy barqarorlik oʻz navbatida samarali iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratilgan¹⁷¹.

Davlat iqtisodiyot sohaslarini keng miqyosda qamrab olgan boʻlsada bu mamlakat jahon hamjamiyatidan uzib qoʻyilmagan. U boshqa mamlakatlar va umuman xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻygan. Bu mamlakat mana bir necha oʻn yillardan beri oʻz yoʻlidan borish va bu yoʻldan qaytmaslik tamoyiliga qattiq amal qiladi. Bu yoʻlning mazmun-mohiyati – jamiyatning konkret-tarixiy sharoitini, milliy, diniy, madaniy xususiyatlarini hisobga olish; iqtisodiy taraqqiyotga anʼanaviy axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uygʻunlikda erishishdan iborat.

Singapur ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan kelib chiqqan holda aytilish mumkinki, yaqin orada uning ijtimoiy-siyosiy hayotida biror bir jiddiy oʻzgarish yuz berishi amri mahol. Chunki hukumat tuzilmalaridagi oʻzgarishlar asta-sekin, shakllanib boʻlgan va bunday oʻzgarishlar siyosiy tizimga dahl qilmagan holda amalga oshirilgan. Hukumat rahbarlarining hukumat tuzilmalaridagi oʻzgarishlarni koʻpchilik aholining hurmat va eʼtirofiga sazovor boʻlgan anʼanaviy siyosiy institutlarni saqlab qolish bilan birgalikda amalga oshirishi, mavjud hukumat faoliyatiga boʻlgan ishonchni mustahkamlanishiga sabab boʻlmoqda.

¹⁷⁰ Toponymics: A Study of Singapore's Street Names. — Singapore: Eastern Universities Press, 2004.

¹⁷¹ B. Desker and M. N. M. Osman. S Rajaratnam on Singapore: from ideas to reality. — Singapore: World Scientific Publishing, 2006.

10-MAVZU. AXBOROT SOXASINI ISLOH KILISH, AXBOROT VA SUZ ERKINLIGINI TA'MINLASH

Reja:

- 1. Insoniyat tarixida axborot ehtiyoji.**
- 2. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida axborot sohasini isloh qilish, soʻz va axborot erkinligi.**
- 3. Fuqarolik jamiyati boshqaruv mexanizmlari takomillashuvida zamonaviy axborot texnologiyalarining roli**

1. Insoniyat tarixida axborot ehtiyoji.

Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining koʻzgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasi shakllanishining asosiy vositalaridan biridir. SHuning uchun ham, axborotga boʻlgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida etakchi oʻrinlardan birini egallab kelgan.

Insoniyat tarixida axborot toʻplash va tarqatishning dastlabki ogʻzaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (popiruslardagi, eʼlon taxtalari va hakoazolardagi) namunalari nomuntazam boʻlsada, qadim zamonlardan yaxshi maʼlum. Oʻsha davrlardayoq toʻlaqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj turli manbalarda oʻz aksini topgan. Zardushtiylik tarixining manbalarida aytilishicha, Zardusht xudoning paygʻomi (xabari)ni odamlarga etkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini oʻrgatgan. 30 asrlar oldin bitilib, bizlarga etib kelgan “Avesto”dan har qanday xabar, yangilik oʻzining takomilligi, haqiqiyliqi, toʻliqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi toʻgʻrisida xulosa qilish mumkin.

Ommaviy axborotning asosiy maʼnosini anglatuvchi maʼlumot yigʻish, qayta ishlash va tarqatish hamda tezkor xabarlar yozib jamiyatni ogoh etish bilan mashgʻul kishilar Amir Temur davrida ham boʻlganligi maʼlum. Bu haqda Sohibqironning «Qissai Temur»da: «Amr etdimkim, har sarhad va viloyat, lashkar va mamlakatgʻa bir axbornavis (xabarlar yozuvchi, yaʼni muxbir) tayin etgaylarkim, sipoh va hokim va raʼiyat va begona lashkar va mol va manolning mudoxil va maxorij va begona odamlar va karvonning kirmak va chiqmogʻi va hamsoya podshohlar mamlakatining axbori va alarning aʼmoli va

af'oli va uzoq baladalardin dargohimg'a yuz qo'yg'on ulamo va fozil odamlarning ishlar va so'zlarin rostlig' va durustlig' bila yozib dargohg'a yiborgaylar»¹⁷², degan fikri buning dalilidir. Demak, bo'layotgan hodisa-voqealar haqida xabar to'plash va davlatni boshqarishda ulardan foydalanish Sohibqiron uchun ham muhim omil bo'lgan.

Alloma Alisher Navoiy ham o'z ijodi va faoliyati davomida xolis va rost axborot masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning "Hayratul abrор" dostonidagi yolg'on xabar beruvchining ahvoli:


Har kishi yolg'onni desa, lek kam
Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham.¹⁷³

YOki "Farhod va SHirin" dostonida xabarning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan mutafakkir ajdodimizning:

Erursen shoh - agar ogohsen-sen,
Agar ogohsen - sen, shohsen sen,¹⁷⁴

degan misrlari har qanday yangilik, xabar haqiqiyliги, xolisligi, to'liqligi va tezkorligi bilan baholanganligi, uning yordamida halq irodasi yo'naltirilib turilganidan dalolat beradi. U mazkur misrasida agar kishi axborotni birinchi bo'lib egallasa, jamiyat tizginini egallashi, aynan xabar sabab barcha halokat va falokatlarining oldini olishi haqidagi pandlari bugungi xabar, axborot boshqarayotgan dunyomiz haqidagi bashoratdek ko'rinadi.

Asrlar oshsada axborotga bo'lgan talablar deyarli o'zgargan emas. Aksincha, jamiyat hayotida uning ahamiyati borgan sari oshib borgan va bugungi kunga kelib mamlakatimiz rivojlanishi strategiyasini shakllantirish va uni bevosita amalga oshirishda tobora katta rol o'ynamoqda. Bu esa ularning fuqarolik jamiyatiga xos asosiy omillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.



¹⁷² Амир Темур

¹⁷³ Аlisher Navoiy. Tўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 6-жилд. – Т.: Ф. Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 179.

¹⁷⁴ Ўша ерда. - Б. 178.

Mustaqillik yillarida erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish yo'lidagi islohotlar izchil davom etmoqda. Diqqatga sazovor muhim tomoni shundaki, erkin OAVni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta'minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglab etdi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash masalasi alohida o'rin egallashini nazarda tutib Birinchi Prezidentimiz I.Karimov shunday deydi: «Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi eng muhim ustuvor yo'nalish – bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi».¹⁷⁵

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi axborot sohasini liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashda ham yangi bosqichni boshlab berdi. O'tgan yillar davomida ushbu sohada keng qamrovli islohotlar, ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada axborot vositalari faoliyatiga oid mukammal huquqiy baza yaratilganligini va u insonlar uchun axborot olish sohasida erkinlik va huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynayotganligini alohida qayd etish zarur.

Avvalo, mamlakatimizda axborot sohasida olib borilayotgan siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ommaviy axborot vositalari erkinligi va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishi¹⁷⁶ har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga, hamda o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega¹⁷⁷ ekanligi haqidagi me'yorlarni izchillik bilan va to'laligicha ta'minlanishi asosida amalga oshirilishini qayd etish zarur.

SHu ma'noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatidagi rolga alohida to'xtalib: “Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda erkin ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi... ularning faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan zarur me'yoriy-xuquqiy baza, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratilgani ham bu sohadagi katta ishlarimizdan bo'ldi”,¹⁷⁸ deb ta'kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning tahlili bu sohaga oid huquqiy bazani takomillashtirish izchil va tizimli tarzda amalga oshirib borilganligini ko'rsatmoqda. O'tgan yillarda mamlakatimizda yaratilgan huquqiy makon va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bosma nashrlar soni ko'paydi, xususiy gazeta va telestudiyalar tizimi yuzaga keldi.

2. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida axborot sohasini isloh qilish, so'z va axborot erkinligi.

¹⁷⁵Каримов И. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 19.


¹⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – Б. 13.

¹⁷⁷ Ўша ерда. – Б. 8.

¹⁷⁸ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007. – Б. 36.

Axborot erkinligini ta'minlaydigan konstitutsiyaviy me'yorlar ommaviy axborot vositalari faoliyatini va umuman axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlarda ham takomillashtirilgan.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratik jarayonlar ancha chuqurlashgan, bunga mos matbuotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda so'z va fikr erkinligi asta-sekin o'z oqimi bilan kirib kelgan. Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hur fikrlilikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqea bo'ldi. Ayni paytda u axborot sohasini jahon andozalariga moslashtirish, fuqorolarni erkin fikrlashga o'rgatish va shu asosda jamiyatni sog'lom fikrlar asosida qaytadan qurish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi.



Мустақиллик йилларида ОАВ га оид қабул қилинган
Қонунларда:

Қар бир фуқарога ахборот олиш
роланиши ва давлат томонидан ҳимоя
линиши каби меъёрлар алоҳида белгилаб
тилган

161

Бу пайтда шундай Қонунлар баъзи
IX қабул қилинмаганлиги, бошқа
илакатларда, хусусан, демократия
сбатан ривожланган мамлакатларда эса
дан-кам учрайдиган ҳодиса эди
ққатга сазовор. (Ўзбекистоннинг янги тарихи.
Тошкент: Ўзбекистон Республикасидаги
Т. Шамур, 2000)

екистоннинг умуминсоний
иятларга содиқлиги, инсон ҳуқуқлари
нлигини ҳимоя қилиш каби халқаро
қк нормаларига изчил амал
ётганлиги намоян бўлди.

Mustaqillik davrida mamlakatimizdagi OAV larining qiyofasi, tizimdagi tarkibiy o'zgarish va yangilanishlar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

1. OAVning soni va sifati keskin ortib bormoqda. 1991 yilda OAV umumiy soni 395 ta bo'lgan bo'lsa¹⁷⁹, 1994 yilda Respublikada 475 ta OAV, ulardan 384 ta gazeta, 66ta jurnal, 19 ta telestudiya, 3 ta kabel televideniya, 2 ta radiostudiya va bitta agentlik faoliyat ko'rsatgan¹⁸⁰. bugunga kelib, 1,4 mingtaga yaqin ommaviy axborot vositalari O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatga olinganligini aytish zarur. Ulardan 709 gazeta, 289 jurnal, 95 TV i radio. Bosma nashrlar, tele- i radiokanallar bilan bir vaqtda publitsistik faoliyatni veb-saytlar ham olib bormoqdalar.¹⁸¹

2. Mustaqillik yillaridamamlakatimizda davriy bosma nashrlarning internet versiyalari, internet jurnalistika vujudga keldi va u jadallik bilan rivojlanib bormoqda. So'nggi besh yil ichida ularning soni 2 barobardan ortdi. 1 yanvar 2015 yil holatiga ko'ra, internet ommaviy axborot vositalari 304 tani tashkil etadi.¹⁸²

3. So'nggi o'n yil ichida mustaqil bosma OAV larining soni 2,5 marta, mustaqil elektron OAVlarning soni esa 7 barobar oshdi.¹⁸³ Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.¹⁸⁴ Bu esa erkin axborot bozori, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mustaqil nashrlar soni ko'payib, raqobat muhiti shakllanganligidan dalolat beradi.

4. Respublikamizda istiqomat qilayotgan ko'p millatli mushtariylarning talab va istaklari inobatga olingan holda bosma ommaviy axborot vositalari 12 ta tilda¹⁸⁵ nashr etilmoqda, televidenie va radioda ham bu amaliyot qo'llanilmoqda, eshittirish va ko'rsatuvlar qardosh xalqlar tillaridan tashqari rus, ingliz tillarida ham efirga uzatilib, veb-saytlar o'zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yuritadi;

5. Bugun respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari siyosiy-ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, ta'lim-tarbiya, xotin-qizlar, ijtimoiy-ma'rifiy, iqtisodiy-ijtimoiy, sport, ma'naviy-ma'rifiy va shu kabi boshqa ko'plab sohalar bo'yicha chiqarilmoqda.

¹⁷⁹Қаранг: Важный этап реформирования информационной сферы // Народное слово. – 2013. – 20 ноября.

¹⁸⁰ OAV: хуқуқий база такомиллаштирилмоқда // Халқ сўзи. – 2010. – 20 август.

¹⁸¹Қаранг: Цифры и комментарии // Народное слово. – 2014. – 5 февраля.

¹⁸²“Фуқаролик жамияти институтларининг фаоллиги ошмоқда”. 24.04. 2015 // Инт.: <http://uza.uz>

¹⁸³Қаранг: Важный этап реформирования информационной сферы // Народное слово. – 2013. – 20 ноября.

¹⁸⁴ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь / И. Каримов. – Т: “Ўзбекистон”, 2010. – Б. 30.

¹⁸⁵Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма /А.Жалилов ва бошқ. – Тошкент, 2015. - Б.187.

6. Davlat va jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda nodavlat ommaviy axborot vositalari va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha tashkilotlar tizimi yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini ko'llab-kuvvatlash Jamoat fondi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro markazi shular jumlasidandir.

7. Xalqaro hamjamiyatni mamlakatimiz hayoti, islohotlarni amalga oshirish borasida qo'lga kiritilgan yutuqlar to'g'risida xabardor qilish, aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirish maqsadida hozirgi kunda internet tarmog'ida deyarli barcha davlat organlarining veb-saytlari joylashtirilgan. Davlat organlari veb-saytlaridan tashqari boshqa veb-saytlarning soni ham oshib borayotganligini alohida qayd etish zarur. Xususan, "Uz" domen zonasidagi veb-saytlarning soni 2002 yildagi 587dan¹⁸⁶ 2010 yil fevral oyida milliy internet makonida 10 mingta veb-sayt ro'yxatga olingan, 2015 yil iyun oyi holatiga ko'ra esa, ularning soni 21,86 mingtaga etdi.¹⁸⁷

8. Sohaga zamonaviy texnologiyalar izchil joriy etilishi natijasida tizimga raqamli, mobil va internet televidenie kabi mutlaqo yangi mediatuzilmalar kirib kelmoqda. Global tarmoqda 200 ga yaqin nashrlarning elektron versiyalari mavjud.¹⁸⁸

SHuningdek, hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Namangan, Farg'ona va Samarqand viloyatlari kompyuterlashtirish markazlariga "uz" domenini ro'yxatga olish maqomi berildi. Bu esa "uz" domenini hududlarning o'zida ro'yxatga olish va ularning sonini yanada oshirishga xizmat qiladi.¹⁸⁹

Veb-saytlarning soni oshib borayotganligi nafaqat fuqarolarimizning, balki boshqa mamlakatlarda ham Respublikamizda o'zkazilayotgan islohotlar haqida to'la ma'lumotga ega bo'lish uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu misollar mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirishga oid siyosat tizimli asosda, bosqichma-bosqich va aniq maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Ayni chog'da, mamlakatimizda ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar oxir oqibatda ommaviy axborot vositalari ishida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi va sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirishga olib keldi.

Mamlakatimizda yaratilgan qonunchilik bazasi va amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro-huquqiy me'yorlarga to'la mos kelishini alohida qayd etish kerak. Xususan, OAV faoliyatiga oid qonunlarning tahlili ularning Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 19-moddasidagi "har kim davlat chegaralaridan qat'iy nazar har qanday axborotni olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi" hamda boshqa halqaro hujjatda "o'zaro tenglik va turli madaniyatlarni hurmat

¹⁸⁶ Миллий домен интернет фестивали бошланди // Халқ сўзи. – 2013. – 15 август.

¹⁸⁷ Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг 2015 йил биринчи ярим йиллик ҳисоботи.

¹⁸⁸ Замонавий медиатеchnологиялар ва тараққиёт // Халқ сўзи. – 2013. – 9 апрель.

¹⁸⁹ Ўзбекистон матбуоти миллий форуми // Халқ сўзи. – 2013. – 20 ноябрь.

qilish asosida barcha davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonli axborot almashish muhim"ligi to'g'risidagi me'yorlarga hamohang ekanligini namoyon qilmoqda.¹⁹⁰

Mamlakat rahbari jamiyatimiz rivojida ommaviy axborot vositalarining roli haqida to'xtalib: "Bugun hayotning o'zi oldimizga fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat'iy qilib qo'ymoqda. Ommaviy axborot vositalarining yanada erkinlashtirish,... olib borilayotgan islohotlar siyosatining ochiqligi va oshkorligini ta'minlashga, kuchli fuqarolik jamiyatning izchil shakllanishiga madad berishi darkor"¹⁹¹ deb ta'kidlagan.

SHu ma'noda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da axborot sohasini isloh qilish borasidagi qonunchilik tashabbuslari ushbu sohada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tadrijiy islohotlarning uzviy davomi bo'ldi.

Unda YUrtboshimiz axborot sohasini taraqqiy toptirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlashni mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab bergan.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash sanaladi. SHu nuqtai nazardan Konsepsiyada "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklif etildi. 2014 yilning 6 mayida qabul qilingan bu qonunning hayotga joriy etilishi davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borishning huquqiy mexanizmlarini yaratib, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida jamoatchilik fikrining roli tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Fuqarolarning axborot vositalari orqali siyosiy qarorlarni qabul qilinishga ta'siri va keng ishtiroki natijasida dasturlarni amalga oshirish jarayonida OAVga murojaatlar oshib boradi. Bu esa ommaviy axborot vositalari yordamida fuqarolar va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yanada yaqinlashuvi, rivoji uchun imkoniyat yaratadi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida xolis, tezkor va to'la-to'kis xabardor qilishga, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, bu organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi.

Birinchi Prezidentimiz Prezident I.Karimov tomonidan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish haqidagi taklifi ham bu muammoning echimi jamiyat taraqqiyoti uchun nechog'lik dolzarb ekanini tasdiqlaydi¹⁹².

Bir so'z bilan aytganda, qonunning qabul qilinishi natijasida, axborot vositalari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida aloqalarni mustahkamlash orqali mediamakonni tezkor va mukammal axborot bilan to'ldirish hamda ushbu ma'lumotlardan fuqarolarning erkin foydalana olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

¹⁹⁰Борсиева З.Х. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт ва уни Ўзбекистон Республикасида амалга ошириш жараёни. – Т: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б.34.

¹⁹¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б. 31.

¹⁹²Каримов И.А. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига байрам табриги // Инт.www.press-service.uz. – 2011. – 27 июнь.

XXI asrda taraqqiyotning axborot bosqichiga qadam qoʻygan jahon hamjamiyati har sohani modernizatsiyalash va axborotlashtirish yoʻlidan bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning inqilobiy taʼsiri davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari, iqtisodiy va ijtimoiy soha, ilm-fan va taʼlim, madaniyat va odamlarning turmush tarzida kuzatilmoqda. Kompyuter texnologiyalari insonlarga oʻz salohiyatidan yanada toʻliq foydalanish imkoniyatini beradi, farovonlik darajasini oshirish, demokratiya, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Respublikamiz ham mazkur jarayonlardan chetda qolayotgani yoʻq va global axborot jamiyatini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da¹⁹³ axborot sohasiga oid belgilangan vazifalar ham Oʻzbekistonga jahon axborot makonida oʻzining munosib oʻrnini topishiga yordam bermoqda.

Ayni chogʻda, axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va elektron kommunikatsiyaning rivojlanishi hozirgi zamon jamiyati boshdan kechirayotgan global oʻzgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Jamiyatning asosiy institutlari hisoblangan hokimiyatlar, sogʻliqni saqlash, oila va nikoh, madaniyat, taʼlim va fan kabilar jiddiy transformatsiyaga yuz tutmoqda.

Axborot texnologiyalari asosida davlat hokimiyati organlari faoliyatining shakli va mazmuni tubdan oʻzgarimoqda, davlat boshqaruvining innovatsion tizimi – elektron hukumatlar, elektron davlatlar tashkil topmoqda, demokratik boshqaruvning tartib-taomillari (elektron demokratiya, toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanish yoki tanishish demokratiyasi) takomillashib bormoqda.

Axborot jamiyatida ijtimoiy institutlar jiddiy oʻzgarib borar ekan, yuz berayotgan oʻzgarishlarni oʻrganish va mushohada qilishga boʻlgan ehtiyoj ham shunga yarasha ortib boradi.

Hozirgi zamon jamiyati axborot makonining oʻzgarishi qadriyatlarning yangi tizimi, bilish va amaliyotning eng yangi ustuvorliklari shakllanishiga olib keladi. Bunday qadriyatlar va ustuvorliklar oʻz navbatida insonning jamiyatdagi xulq-atvoriga, siyosiy va iqtisodiy tizimni rivojlantirishga, deyarli barcha ijtimoiy institutlar faoliyat koʻrsatishiga jiddiy taʼsir oʻtkazadi.

Ayni bir vaqtda siyosat, iqtisodiyot va madaniyat axborotdan muayyan guruhlar manfaatlarida foydalanilishi yoki axborotni ongli ravishda buzish bilan bogʻliq turli xavf va tahdidlarga duchor boʻladi. Bunday muammolar elektron kommunikatsiyalar hukmronligi sharoitlarida rivojlanish istiqbollarini qayta mushohada qilishning dolzarbligini kuchaytiradi, shuningdek yangi turdagi axborot makoni imkoniyatlariga tegishli baho berish va uning ijobiy salohiyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga taqozo qiladi.

SHunday qilib, axborot bilan taʼminlangan jamiyat madaniyati hokimiyatning yangi turini – ilmiy bilimga asoslangan hokimiyatni shakllantiradi. Bunday hokimiyat axborot bilan taʼminlangan jamiyatning muhim, ajralmas xususiyati boʻlib, uni siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-texnik jihatdan rivojlantirish yoʻnalishlari va parametrlarini koʻrsatib beradi.


Mazkur vazifalarni, shuningdek oʻzgarishlar borishining butun jarayoniga jiddiy taʼsir qiluvchi muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan axborot siyosati amalga oshiriladi.

¹⁹³Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь / И. Каримов. – Т: “Ўзбекистон”, 2010. – Б.34.


Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot milliy resurs bo'lib, uni saqlash, rivojlantirish va undan oqilona foydalanish davlat ahamiyatiga molik vazifa ekanligi to'la-to'kis anglab etilgan. SHunday qilib, hozirgi bosqichda jamiyat axborot sohasini rivojlantirishga qaratilgan va nafaqat telekommunikatsiya vositalarini, balki axborotning (ishchanlikka qaratilgan, tomoshabop, ilmiy-ta'lim yangiliklaridan xabardor qilish va shu kabi) turlarini yaratish, saqlash, ular ustida ishlash va ularni tarqatish bilan bog'liq ishlab chiqarishlar hamda munosabatlarning butun jamlamasini qamrab oladigan soluvchi davlat siyosati shakllanib bormoqda.

SHunday qilib, jahon hamjamiyatida ilg'or mavqelarni egallashga intilayotgan davlat samarali milliy axborot siyosatini ishlab chiqishi va amalga oshirishi hamda bunday siyosatga nisbatan axborotlashgan demokratik va fuqarolik jamiyatga o'tishni ta'minlashga davlat boshqaruvining ustuvor vazifasi sifatida qarashi kerak.

O'zgargan axborot muhitida davlat va jamiyatning o'zaro bog'liqligi yangi konfiguratsiya – raqamli hamishtirokchilik konfiguratsiyasi tusini kasb etmoqda. Bu hol hokimiyat tuzilmalari bilan fuqarolar muloqotining hozirda amalda bo'lgan, an'anaviy tus olgan shakllarini modernizatsiya qilish imkoniyatini, shuningdek hokimiyatlar o'zaro munosabatlarining sifat jihatidan yangi turi – elektron hukumat va elektron demokratiyapaydo bo'lishi imkoniyatini ham beradi. Bunday o'zaro munosabatlarning qaror topishi davlat boshqaruvi qadriyatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni, hokimiyat organlari faoliyatini fuqaroviy va ilmiy ekspertizasi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga ko'maklashadigan ochiq demokratik jamiyat mo'ljalida faoliyat olib borishni anglatadi. Hozirgi zamon siyosiy hokimiyati jamiyat taraqqiyotining avvalgi tarixiy davrlarida mavjud bo'lmagan yangi resursga – shaxs va jamiyatga mafkuraviy ta'sir ko'rsatadigan axborot-kommunikatsiya resursiga ega bo'lmoqda.



“Elektron hukumat” tizimi joriy etilishi natijasida hozirgi kunda biz davlat boshqaruvining mutlaqo yangi mexanizmlari shakllanishiga guvoh bo‘lib turibmiz. 2015 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi qonununi qabul qilindi.¹⁹⁴ Bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi, davlat organlari bilan qulay va samarali munosabatlarni o‘rnatuvchi “elektron hukumat” tizimi izchil tatbiq etish uchun imkoniyat yaratdi.



Elektron demokratiya hozirgi kunda o‘z rivojining boshlang‘ich pallasida turibdi, uning salohiyati juda katta va butun dunyoda keng muhokama qilinmoqda, elektron demokratiyani madaniyatning yangi fenomeni sifatida nazariy jihatdan mushohada qilish esa, borgan sari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli hukumat, kibersiyosat, elektron

¹⁹⁴ Ахборот соҳасини ислоҳ қилишнинг муҳим босқичи // Халқ сўзи. - 2015 йил. - 17 декабрь.

ovoz berish, raqamli demokratiya, kompyuter vositasidagi siyosiy kommunikatsiya qaror topishi imkoniyatining o'zaroq axborot jamiyati sharoitlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy mexanizmlar shakllarining tubdan o'zgarishidan dalolat beradi. Insoniyat madaniyat jihatdan tub burilishga yaqinlashmoqda. Bunda fuqarolarning demokratik tartib-taomillardan foydalanish borasida keng imkoniyatlarga ega bo'lishi, qarorlar qabul qilinishida fuqarolar ishtirok etishining kengayishi tufayli hokimiyat yanada sifatli, shaffof va pirovard natijada yanada samarali bo'ladi.

Davlat o'z xizmatlarini elektron vositalar orqali taqdim etish yo'li bilan o'z sa'y-harakatlarini oddiy fuqarolar hayoti sifatini yaxshilashga qaratayotganidan dalolat beradigan misollar ko'p.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bu sohada keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

2003 yilning sentyabr oyida respublikamizda elektron hukumatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Hukumat portali ishlab chiqildi va www.gov.uz manzili bilan internet tarmog'ida joylashtirildi.

Bugun davlat organlari tomonidan o'z faoliyatiga axborot tizimi hamda resurslarini joriy qilish bo'yicha jadal olib borilgan ishlar natijasida 320 dan ortiq davlat axborot resurslari va 465 dan ziyod davlat axborot tizimi faoliyati yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2013 yilda joriy etilgan YA gona interaktiv davlat xizmatlari portali my.gov.uz orqali aholining uzog'ini yaqin, og'irini engil qiluvchi 250 turdan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklda ko'rsatilayotir. O'tgan davr mobaynida ulardan 380 mingdan ziyod aholi masofadan turib foydalangan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama etishda fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlash maqsadida maxsus portal faoliyati yo'lga qo'yildi. Unda ayni paytga kelib, foydalanuvchilar tomonidan 73 ta davlat organining 237 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha 350 dan ortiq taklif va mulohazalar bildirilgan. Bu esa qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.¹⁹⁵

Bugungi kunda davlat interaktiv xizmatlari soni 1088 taga etdi. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 438 taga ko'pdir. Mamlakatda interaktiv davlat xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida soliq (soliq.uz) va statistik hisobotlar (stat.uz)ni elektron shaklda topshirayotgan tadbirkorlik sub'ektlari ulushi 100 foizga etdi.

2015 yilning 6 yanvaridan my.gov.uz da «Normativ-huquqiy hujjatlar ta'sirini baholash tizimi» yo'lga qo'yildi. U orqali qonun hujjatlarini internet orqali muhokama qilish mumkin. Hozirgacha YA gona portalda 131 ta qonun hujjati muhokamaga qo'yilgan bo'lib, shulardan 19 tasi muhokama jarayonida, 104 tasining muhokamasi yakuniga etgan, 8 ta hujjat loyihasi tasdiqlangan. Qonun hujjatlari loyihasini baholash jarayonida 282 fikr qoldirilgan bo'lib, ularning 81 tasiga javob berilgan¹⁹⁶.

Axborot bilan bu kabi erkin tanishish hamda undan foydalanish tabiiy ravishda fuqarolarda siyosat va boshqaruvda muntazam ishtirok etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bu o'rinda elektron hukumatga nisbatan muammolarning nafaqat navbatdagi amaliy echimi, amal qilib turgan tuzilmalar va ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish, balki davlatni boshqarishning yangi usuli sifatida ham qaraladi.

SHu munosabat bilan bir qator mamlakatlarda hozirgi zamon axborot kommunikatsiyalari sharoitlariga mos keladigan qonunchilik bazasi va ma'muriy tartibga solish qoidalari (intellektual mulk, shaxsga doir ma'lumotlar, shaxsiy hayotning

¹⁹⁵ «Электрон ҳукумат» тизимининг ҳуқуқий асоси // Халқ сўзи. - 2015. - 2 декабрь.

¹⁹⁶ Ягона портал: фуқаролар учун катта қулайликлар яратилмоқда // Ўзбекистон овози. – 2015. - 7-июль.

daxlsizligiga bo‘lgan huquqni himoya qilish vositalari) ni yanada takomillashtirishning huquqiy, siyosiy, tashkiliy va institutsional chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu borada hokimiyatning jamoatchilik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini rag‘batlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratiladi, hokimiyatning o‘zi bunday muloqotning tashabbuskori bo‘ladi. Bugungi kunda davlat hokimiyati organlarining tuzilmasida jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar mavjudligi shu bilan izohlanadi.

Siyosiy muloqotda elektron texnologiyalardan foydalanish bunday muloqot ishtirokchilaridan yuksak darajadagi axborot madaniyatiga hamda birgalikda interfaol harakat qilish madaniyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Ayni chog‘da, ta‘lim qadri oshadi, axborot mehnatiga, “jamiyat-hokimiyat” interfaol muloqotining yangi shart-sharoitlariga eng ko‘p darajada tayyor bo‘lgan professional tahlilchilarga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Elektron demokratiyaning qaror topishi shaxs mediamadaniyati oshishini taqozo etadi, fuqarolarning axborot makonida taklif etilayotgan medianomalarni tanqidiy tahlil etish va ularga xolis baho berish, axborot plyuralizmining, to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish demokratiyasi amal qilishining ijtimoiy-madaniy va siyosiy qonuniyatlarining xos xususiyatlarini tushunish borasidagi qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu borada Davlatimiz rahbarining “Elektron hukumat” tizimini, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari, shuningdek, biznes sohasiga va fuqarolarga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini shakllantirish konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirish, Axborot tizimlarining idoralararo va idoraviy komplekslarini integratsiya qiladigan milliy tizimni yaratishga alohida e‘tibor qaratish lozim”¹⁹⁷ degan fikrini alohida qayd etish zarur.

3. Fuqarolik jamiyati boshqaruv mexanizmlari takomillashuvida zamonaviy axborot texnologiyalarining roli

SHiddat bilan kechayotgan hodisa–voqealar oqimida katta hajmdagi axborotning mazmunini anglash, uni to‘g‘ri talqin etib xulosalar chiqarish nihoyatda muhimdir. Bu esa axborotni tanlash, saralash, uni to‘g‘ri idrok etish madaniyatini shakllantirishkabi insonning bevosita dunyoqarashi, salohiyati, tajribasi bilan bog‘liq xususiyatlarni kamol toptirish masalalarining dolzarbligini oshiradi.

SHu munosabat bilan global tarmoqdan foydalanuvchilar auditoriyasining ko‘pchiligi yoshlar ekanligini, ularning ongini va dunyoqarashini yot mazmundagi g‘oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma‘lumotlar Internet kontentning katta qismini tashkil etishini qayd etish zarur. Turli ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, tanishuv saytlarining faoliyat yuritishi yoshlarni o‘ziga tezda jalb qilmoqda. Hozirgi kunda turli tillarda so‘zlashayotgan yoshlar uchun Internet tarmog‘i keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, mobil Internetdan foydalanuvchilar auditoriyasining ortib borishi turli mazmundagi axborotlarni ochiq olish imkoniyatini yanada oshirmoqda.

Buning natijasida, hozirda dunyodagi axborot inqilobi sharoitida vujudga kelayotgan global tarmoq jamiyatlari mutasaddi va mutaxassislarni jiddiy tashvishga solayapti. Bu turdagi jamiyatlar o‘zlarini «kiberinternatsional NET», «Internet bolalari», «Internet fuqarolari (netizens)» deb nomlashmoqda. CHet ellarda ular Internet orqali yoshlarni birlashtirib, davlatning rasmiy xabarlariga qarshi chiquvchi xalqaro

¹⁹⁷ Каримов И.А. Бош мақсадимиз –кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини катъият билан давом эттириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2013. – 19 январь.

kiberuyushma sifatida siyosiy maydonga chiqmoqda. Albatta, bunday jamiyatlarning faolligi oshib borar ekan, jahonda kechayotgan jarayonlarga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi aniq.

Jahon telekommunikatsiya tarmoqlari va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan xilma xil tahdidlar turli mamlakatlarda tashvish uyg‘otmoqda. Ular o‘z madaniyati, an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarini yot axborot ta‘siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko‘rishga majbur bo‘lmoqdalar. Bu borada jahonning ko‘pgina mamlakatlarida aholini va avvalo, yoshlarni Internetning salbiy ta‘siridan himoyalash uchun normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganini qayd etish zarur. Misol tariqasida xalqaro amaliyotda “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida” Konvensiya¹⁹⁸, “Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida” Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari¹⁹⁹, “Bola huquqlari to‘g‘risida” BMT Konvensiyasi²⁰⁰ mavjud.

Mamlakatimizda ham bu sohada tizimli ravishda tashkiliy-huquqiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta‘lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga²⁰¹ muvofiq ta‘lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona “ZiyoNET” milliy ta‘lim tarmog‘iga birlashtirildi. Bu tarmoqning tashkil etilishi axborot xurujlariga qarshi turishda muhim omil bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari va ularning hududlardagi filiallari, barcha ziyo maskanlari «ZiyoNET» milliy ta‘lim tarmog‘i hamda yuqori tezlik bilan ishlaydigan internetga ulanganligi bu borada amalga oshirilgan ishlarning ko‘lamidan dalolat beradi.²⁰² Portal Uznet segmentida ilg‘or pozitsiyalardan birini egallaydi va undan foydalanuvchilarning soni tobora ortib borayotgani fikrimizning dalilidir²⁰³.

Ayni chog‘da Internetning milliy segmentida faoliyatini yuritayotgan Kun.uz (saytga kunlik tashrif ko‘rsatkichlari 100 mingdan ortgan)²⁰⁴ vaDaryo.uz (har kuni 90.000 kishi tashrif buyuradi)²⁰⁵ kabi internet nashrlarda Hi-Tech, madaniyat, ilm-fan, hordiq, sport, biznes, davlat boshqaruvi organlari kabi yo‘nalishlarda veb-saytlar joylashtirilgani, yangi xizmat turlari joriy etilayotgani ham undan foydalanuvchilar, aynan yoshlar safi kengayishiga sabab bo‘lmokda.

SHu bilan birga milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari mavjud. Misol uchun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi,²⁰⁶ “YOshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi,²⁰⁷ “Bola

¹⁹⁸ Европейская Конвенция по киберпреступлениям от 23 ноября 2001 г. // Инт.: http://www.eos.ru/eos_delopr/eos_law/detail.php?ID=32003&SECTION_ID=671

¹⁹⁹ Продвижение Интернет и онлайн-ресурсов, безопасных для несовершеннолетних. Рекомендация Парламентской Ассамблеи Совета Европы 1882 (2009) // Инт.: http://www.coe.int/T/r/Parliamentary_Assembly/%5bRussian_documents%5d/%5b2009%5d/%5bSepOct2009%5d/Rec1882_rus.asp

²⁰⁰ Конвенция о правах ребенка (Принята резолюцией 44/25 Генеральной Ассамблеи от 20 ноября 1989 года) // Инт.: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml

²⁰¹ “Ўзбекистон Республикасининг жамоат таълим axборот тармоғини ташкил этиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 28 сентябрдаги ПҚ-191-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 40-сон, 305-модда; 2013 й., 45-сон, 584-модда.

²⁰² Ахборот-кутубхона фаолияти ва қонунчилик // Халқ сўзи. – 2013. – 2 ноябрь.

²⁰³ Қаранг: На защите интересов молодежи // Правда Востока. - 2015 года. - 7 июля.

²⁰⁴ <https://kun.uz/info/view/alias/about>

²⁰⁵ <http://daryo.uz/biz-haqimizda/>

²⁰⁶ “Оммавий axборот vositalari тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги тахрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг axборотномаси, 2007 й., №1, 4-модда.

²⁰⁷ “Ўзбекистон Республикасида ёшларга oid davlat siyosatining asoslari тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 2-сон, 80-модда; Ўзбекистон

huquqlarining kafolatlari to'g'risida"²⁰⁸ qonunlarda yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, pornografiya, shafqatsizlik va zo'rvonlikni namoyish etuvchi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi belgilab qo'yilgan.

SHu asosda, yoshlarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini yanada kengroq ruyobga chiqarish, ularni axborot xurujlaridan himoyalashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida zarur choralar ko'rilmoqda. Jumladan, bugungi kunda "Bolalarni ularning sog'lig'i va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi tayyorlanmoqda. U bolalarning ruhiyatiga zarar etkazadigan, jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan axborotlardan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ommaviy axborot manbalarida zo'rvonlik, axloqsizlik hamda shafqatsizlikni targ'ib qilishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan amaliy-tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni nazarda tutadi.²⁰⁹

Xullas, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda OAV larning barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati tamoyillarini qaror toptirishning muhim omillaridan biriga aylantiradi.

11-MAVZU. FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

Reja:

4. **Fuqarolik jamiyati tizimida mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni.**
5. **Mahalliy hokimiyat va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari.**
6. **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish.**
7. **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini rivojlanishining konseptual asoslari.**

1. Fuqarolik jamiyati tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "...o'zini o'zi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi. Biz bugun ana shu asoslarni qurishni boshladik"²¹⁰. Ko'pchilik mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz.

O'zbekistonda fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o'rnak bo'ladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy

Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 102-модда; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда.

²⁰⁸ "Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда, 2009 й., 52-сон, 554-модда.

²⁰⁹ Қўмиталарда қонун лойиҳалари муҳокамаси бўлиб ўтмоқда // Халқ сўзи. – 2015. - 4 Март.

²¹⁰ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулдирмиз. Т. 9. Т.: "Ўзбекистон". Б. 317-318.

an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avlod-dan-avlodga etkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jiplashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi.

Mahalla sharqona an'analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avlod-dan-avlodga etkazib kelmoqda. Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishadi. Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o'tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog'liq. Mahallada o'tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas'uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag'alga, mansabdoru oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi.

Mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu erda o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'uldir. SHuning uchun ham "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona", "Bir bola tarbiyasi uchun etti mahalla ota-ona" kabi naqlar bejiz paydo bo'lmagan. YOshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo'ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi – barkamol insonni tarbiyalab etishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog'idir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar etishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g'ururlanadilar.

Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organalarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidadir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – "hududiy ommaviy jamoa", "hududiy jamoa", "mahalliy hamjamiyat" tushunchalari bilan belgilanadi. V.E. CHirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligi va yoshidan qat'i nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya sub'ektlari, siyosiy avtonomiyalar, munitsipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi²¹¹.

Hududiy jamoa a'zolarining o'zaro aloqalari murakkab kommunikatsiyalar tizimidan iborat. Nikolas Lumanning fikricha, kommunikatsiya butunlay ongga bog'liq bo'lib, ya'ni kommunikatsiyaning o'zi emas, balki ongning axborotni qabul qilish funksiyasini bajaradi²¹².

²¹¹Чиркин В.Е. Публичная власть. – М.: Юристъ, 2005. С. 28.

²¹²Луман Н. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский. М.: Издательство «Логос», 2004. С. 110.

Ushbu holat o'zini o'zi boshqarishda alohida insonning ishtiroki, uning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasida "Jamiyatda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi"ning qabul qilangani mazkur masalani hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. Faol shaxslargina o'z manfaatlarini anglab, ularni bevosita o'zlari yoki turli guruhlariga, xususan hududiy jamoalarga uyushgan holda amalga oshiradilar.

Fuqarolarning uyushganlik darajasi, o'zaro aloqalarining yaqinligi, hududiy jamoalarning turli ko'lamda tashkil etilishiga qarab farqlanishi tabiiy holdir. Aynan ushbu holat turli ko'lamdagi hududiy jamoalarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng quyi qishloq, shaharcha, mahalla jamoalari a'zolari aloqalarining yaqinligi, ularning boshqaruvdagi bevosita ishtiroki tufayli, hududiy hamjamiyatlarni shakllantiradi. Aynan shunday hamjamiyatlar manfaat guruhlarini tashkil etib, hududiy o'zin o'zi boshqaruvchi sub'ekt hisoblanadi. Bundan har bir hududiy jamoa, uning ko'lamidan qat'i nazar, rivojlangan kommunikatsiyalar tizimiga ega bo'lishi lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Hududiy jamoalarning faolligi ular tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Bunday institutlar, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo'lsin, ijtimoiy guruhlariga siyosat sohasida o'z manfaatlarini tartibli qondirish imkonini beradi. Ular munosabatlarni barqarorlashtirib, individlar va guruhlar yurish-turishini tartibga solib, ularning harakatlarini muvofiqlashtiradi va integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy institutlar, avvalo, muassasalar tizimi bo'lib, ularda ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan tayinlangan yoki saylangan muayyan shaxslar jamiyat va individual manfaatlarini qondirish, shuningdek guruhning boshqa a'zolari yurish-turishini tartibga solish maqsadida umumiy boshqaruv funksiyalarini bajarish vakolatini oladilar. Fuqarolar yig'inlari bunday institut vazifasini o'taydi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra respublika hududida 9 787 ta fuqarolar yig'ini faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, 189 ta shahar fuqarolar yig'ini, 1295 ta qishloq, 157 ta ovul va 8 146 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridir. O'rta hisobda har bir fuqarolar yig'ini 3 mingga yaqin kishini qamrab oladi. Bugungi kunda fuqarolar yig'ini raisi lavozimida 1255 nafar ayol faoliyat yuritib, umumiy raislar sonining 12,8% ni tashkil etadi. Aksariyat fuqarolar yig'ini raislari (54,6%) oliy ma'lumotga ega bo'lib, hududlar miqyosida eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida - 72,3%, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 77,1%, Toshkent shahrida - 77% ni tashkil etadi.

Hozirgi kunda har bir fuqarolar yig'inidagi shtat lavozimida fuqarolar yig'ini raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, ma'sul kotib va "Mahalla posboni" jamoat tuzilmasi rahbari - jami 40 mingga yaqin kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Undan tashqari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida fuqarolar yig'inining obro'li va hurmatga sazovor a'zolari o'rtasidan saylangan maslahatchilar faoliyat yuritadi, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha saylangan komissiyalarga rahbarlik qiladi. Ularning soni 100 ming kishiga yaqin.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'lab quvvatlashda Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining roli katta. Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini mustahkamlashda, ularning qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlarini samarali tatbiq etishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o'rnini yuksaltirishga ko'maklashadigan etakchi jamoat tashkiloti

hisoblanadi. Ushbu jamoat fondi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi ishchi organi maqomiga ega. O'z navbatida "Mahalla" xayriya jamoat fondining hududiy bo'linmalari maqomiga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar ishchi organlari hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari faoliyati mamlakat aholisi tomonidan keng miqyosda qo'llab- quvvatlanishga va Hukumatning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. 2010-2013 yillar davomida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining 150 nafarga yaqin xodimi turli davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan. 2014 yilda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 27 nafar xodimi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 2014 yil 21 dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining 692 nafar xodimlari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga, 29 nafari viloyat Kengashi deputatligiga va 3 nafari Oliy Majlis Senati a'zoligiga saylanganlar. Bu fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida bugungi kunda hurmat va ehtiromga loyiq insonlar faoliyat yuritishayotganini ko'rsatadi.

2. Mahalliy hokimiyat va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi ularning mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarida aks etadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining²¹³3-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mazkur Qonun 8-moddasining ikkinchi qismida esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshirishi mustahkamlangan.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning²¹⁴4-moddasida mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turishlari belgilangan. Ushbu Qonunning 1-moddasida esa Xalq deputatlari Kengashi va hokim davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan.

²¹³Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 17-сон, 219-модда.

²¹⁴Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган "Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида"ги 913-ХП-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, N 9, 320-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 9, 241-модда.

Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iboratligi ayon bo'ldi.

“Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi. Ushbu moddaga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli me'yorlarni hamda choralarni belgilash, ularning ijrosini ta'minlashdan iborat.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishini tashkil etish barcha davlatlarda dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Masalan, Italiya Respublikasi Konstitutsiyaning 5-moddasida mahalliy avtonomiyani tan olishi va uning rivojlanishiga ko'maklashishi konstitutsiyaviy tuzum tamoyili sifatida belgilangan². O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarishni o'rganish ko'plab muammolarning mavjudligi, ularni hal qilish borasida metodik ko'rsatmalar, mahalla raislari (oqsaqollari), ularning maslahatchilari va faollari malakalarini oshirish va boshqa masalalarda ko'maklashishga muhtojligi ayon bo'ladi. Ushbu va boshqa masalalarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'maklashishning shakl va uslublarini takomillashtirish ehtiyoji namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda mahalla faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga ko'maklashishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida 2003 yilni “Obod mahalla yili”, - deb e'lon qilib, “... mahallaning hayotimizdagi mavqei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilib bersak, o'ylaymanki, bu o'z oldimizga qo'ygan oliy maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi”²¹⁵, deb ta'kidladi.

2013 yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tashkil etish to'g'risida»gi qarori amaliy choralardan biri bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq har bir hududda tashkil qilingan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, bu borada mavjud muammolarni hal etishga katta ko'mak bo'ldi. 2014 yil mobaynida ushbu o'quv kurslarida, jami o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining 35% ni tashkil etuvchi 13 ming 983 nafar xodimlar malaka oshirib, o'quv kurslarining sertifikatlarini qo'lga kiritishdi.

O'zbekistonda ham demokratik davlatlar kabi fuqarolar yig'inlarining ijtimoiy-siyosiy funksiyalari e'tiborga olinib, ularning davlat va mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki, bu borada

⁶Конституция Итальянской Республики // <http://www.italia-ru.it/node/4657>

⁷Каримов И.А. Хаётимизнинг, тараққиётимизнинг ҳуқуқий асоси // Халқ сўзи 2002 йил 6 декабрь сони.

mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari alohida e'tirof etiladi²¹⁶. Masalan, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida esa yilning har choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitishi mustahkamlangan. Bu borada tuman (shahar) hokimlari tomonidan 2013 yilning birinchi choragida fuqarolar yig'inlariga 4757 marotaba, ikkinchi choragida 6459 marotaba, uchinchi choragida 5407 marotaba hisobotlar taqdim etilganini qayd etish lozim. SHuningdek, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, bandlikka ko'maklashish, kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vakolatli davlat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar bo'yicha hisobotlari ham tizimli ravishda eshilib borilmoqda²¹⁷.

SHu bilan birga O'zbekiston Respublikasi SHaharsozlik kodeksining 10-moddasida fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishidagi ishtiroki tartibga solingan²¹⁸. Mazkur moddaga ko'ra fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari yashash va faoliyat ko'rsatish muhitining holati, taxmin qilinayotgan o'zgarishlari, aholi punktlarining bosh rejalari, uy-joy-fuqarolik ob'ektlarining qurilishi, rekonstruksiyasi, hududlarning obodonlashtirilishi, muhandislik va transport kommunikatsiyalarining o'tkazilishi to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli, to'liq axborot olish hamda shaharsozlik faoliyati haqidagi o'zga axborotni olish huquqiga ega. Davlat organlari fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalarining manfaatlariga daxldor, shaharsozlik faoliyati masalalariga taalluqli murojaatlarini o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar va ularga belgilangan muddatlarda asosli javoblar taqdim qiladilar.

Barcha fuqarolar yig'inlari tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, erlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu vakolatlari doirasida fuqarolar yig'inlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini yaxshilash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar beradilar, ya'ni mahalliy boshqaruvni amalga oshirishda ishtirok etadilar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli prokurorlar axborotini tinglash ham ularning mahalliy boshqaruvda amaliy ishtirokini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi 2001 yil 29 avgustdayangitahrirdaqabulqilingan „Prokuratura

²¹⁶Каранг: Маликова Г.Р., Исмоилова Г.С. "Фуқароларнинг ўзини ўзи бoshқарish органлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Б. 27.

²¹⁷<http://www.mahallafond.uz/uz/articles/814/>

²¹⁸Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 4 апрелда қабул қилинган қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 йил, N 4-5, 63-модда.

to'g'risida"gi Qonuni²¹⁹ 5-moddasining beshinchi qismiga asosan viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot beradilar. Bu norma prokuratura organlarining vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqamansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilishga keng jamoatchilikni jalb qilishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

Prokuratura organlarining axborotini eshitish davlat organlari faoliyatining oshkorligini ta'minlash barobarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari e'tiborini dolzarb masalalarga qaratish, fuqarolar faolligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Holbuki qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish ular ijrosini ta'minlash va takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra "Ijtimoiy boshqaruv tizimida nazoratning o'zi qaytma aloqaning muhim turi bo'lib, u orqali hokimiyat sub'ektlarining amldagi ahvol, qarorlar ijrosi to'g'risida axborot oladilar"²²⁰.

Mahalliy hokimiyat organlarining o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishi o'z vakolatlari doirasidagi masalalar yuzasidan umumijburiy qarorlar qabul qilishi, ular va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini nazorat qilishdan iboratdir.

Barcha davlatlarda, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ularga o'tkazilgan davlat organlari vakolatlari ijrosi ustidan nazorat amalga oshiriladi hamda ularning qonunga zid qarorlarining sud organlari tomonidan bekor qilinadi. Bunday nazoratga ehtiyoj O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tomonidan o'tkazilgan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni monitoringi natijalaridan²²¹ ham ko'rish mumkin. Monitoring davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rilgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlarini haqiqiy emas, deb topish haqidagi fuqarolik ishlari yuzasidan umumlashmasi tahliliga ko'ra, sudlar ish yurituviga kelib tushgan jami 14 ta fuqarolik ishlaridan 12 tasi yoki qariyb 86 foizi qanoatlanirilgan.

3. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish huquqiy asoslarining rivojlanishi

Mustaqillikka erishilishi bilan O'zbekistonda mahalla institutiga mustahkam huquqiy poydevor yaratishning faol jarayoni boshlandi. Birinchi huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'ldi, uning 105-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: "SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning masla-hatchilarini saylaydi".

²¹⁹Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрда қабул қилинган "Прокуратура тўғрисида"ги Қонунининг 2001 йил 29 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси қонуни билан тасдиқланган таҳрири // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 йил, № 9-10, 168-модда.

²²⁰ Маликова Г.Р., Исмоилова Г.С. "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Б. 50.

²²¹ Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги Қонуни мониторинги / Масъул муҳаррир Ф.Х. Отахонов. – Т., 2006. – Б. 32.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi mahallaning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish uchun dasturulamali bo'lib xizmat qildi. SHunday qilib, 1993 yil 2 sentyabr kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ilk marta qonunchilik darajasida mahalla faoliyatini tartibga soldi, ya'ni uning huquqiy maqomini belgilab berdi.

Fuqarolarning moddiy mustaqilligi va siyosiy-huquqiy ongi oshishiga sabab bo'layotgan demokratik islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari rivojlanib borgani sari mahalla institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Natijada 1999 yil 14 aprel kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi bevosita mustahkamlab qo'yildi, mahalla faoliyatining asosiy tamoyillari, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga davlat kafolati belgilab berildi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirildi.

2004 yil 29 aprel kuni «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonun mahalla faoliyatini demokratlashtirish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu qonunda, birinchidan, fuqarolar yig'ini organlariga saylovning demokratik tamoyillari belgilab berildi va mahalla organlariga saylov tizimi barpo etildi, ikkinchidan, saylov jarayonining barcha bosqichlari batafsil tartibga solindi, uchinchidan, qonun darajasida mustahkam huquqiy kafolat yaratildi.

Mahalla o'z faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ham davlat ko'magini ola boshladi. SHunday qilib, rais, mas'ul kotib, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari va fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisidan iborat to'rt nafar mas'ul shaxs ishi, shuningdek, mahallaning qo'shimcha xarajatlari davlat hokimiyatining mahalliy organlari byudjetidan moliyalashtirilmokda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari konsepsiyasi"ni hayotga tatbiq etishda eng muhim tashkiliy-institutsional bo'g'inga aylandi. Olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, 2003 yilning o'zidayoq fuqarolarning umumiy hisobda 65,1%i o'z oilasi yoki o'zlarining muammolarini hal etish borasida fuqarolar yig'inlariga murojaat qilib turgan²²². Bu ko'rsatkich bugun yanada mustahkamlanmoqda. Bir so'z bilan aytganda mahalla aholiningishonchini to'la oqlamoqda.

Darhaqiqat, mahalla - O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim instituti. Aynan mahalliy hokimiyat vakolatlarini bir qismi ushbu institutga olib berilgani, uning ahamiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Mahallaning boshqaruvi milliy va davlatchiligimiz tajribasidan kelib chiqib, rais, ya'ni oqsoqol tomonidan amalga oshirilmoqda. Oqsoqollar va uning maslahatchilari har 2,5 yilda bir necha nafar nomzod orasidan aholi vakillari tomonidan demokratik tarzda saylov asosida o'z vazifasini bajarishga kirishadi. CHunonchi, 2013 yil noyabr-dekabr oylarida o'tkazilgan saylovlardagi vakillar yig'ilishlarida 32292 nafar nomzod ko'rib chiqilgani, ulardan 9756 nafar (bir o'ringa o'rtacha 3,3 nafar nomzod) eng munosiblari saylangani ham fikrimizni tasdiqlaydi. 18 foiz holatda esa fuqarolar yopiq ovoz berish huquqidan foydalanishdi. SHuningdek, 99618 nafar fuqarolar yig'inlari raislari maslahatchilari saylandi²²³.

O'tgan davr mobaynida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibida bir qator tuzilmaviy o'zgartishlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi

²²² Отамирзаев О. Махалла жамоатчилиги фикри кўзгусида // Махалла, 2003, 15 октябрь.

²²³ <http://www.mahallafond.uz/uz/elections/>

“O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida 2004 yilning 1 iyulidan boshlab fuqarolar yig‘inining diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 apreldagi qarori asosida fuqarolar yig‘inlarida “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmalari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi hududlarda osoyishtalikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, hozirda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarida tashkil etilgan ushbu jamoatchilik tuzilmalari safiga 50 mingdan ortiq posbonlar jalb etilgan. Ularning samarali faoliyati natijasida 2011 yilda 2254 ta, 2012 yilda 2331 ta mahallada jinoyat sodir etish holatlariga yo‘l qo‘yilmadi²²⁴.

Bugungi kunda aholining kundalik hayoti, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina yo‘nalishlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali hal etilmoqda. Ular aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, tegishli hududda qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, to‘ylar va boshqa marosimlar o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar beradi, atrof-muhitni muhofaza etadi, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini o‘tkazadi, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantiradi, guzarlar barpo etadi, kommunal to‘lovlarni to‘lanishiga ko‘maklashadi, kam ta‘minlangan yoshlarning nikoh tuzishida va to‘y tadbirlarini o‘tkazishida moddiy yordam ko‘rsatadi, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini bankdan kredit olishiga kafil bo‘ladi va h.k.²²⁵.

Darhaqiqat, olib borilgan islohotlar natijasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat qamrovi kengaydi. Buni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalar misolidan ham ko‘rish mumkin. 2013 yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra fuqarolar yig‘inlaridagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha komissiyalar ro‘yxati quyidagilardir:

- yarashtirish komissiyasi;
- ma‘rifat va ma‘naviyat masalalari bo‘yicha komissiya;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiya;
- xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiya;
- voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalari bo‘yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiya;
- jamoatchilik nazorati va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiya.

Tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig‘ini tomonidan fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha boshqa komissiyalari ham tuzilishi mumkin²²⁶.

Komissiyalar turli sohalaridan iborat tarkibda fuqarolar yig‘ini faoliyatiga ko‘maklashadi. Bunday komissiyalar 2011 yilning o‘zidayoq 50 mingdan ortiq edi²²⁷. Ular boshqa funksiyalar bilan birga, turli tashkilotlar ustidan jamoatchilik nazoratini ham olib boradi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining fuqarolar yig‘inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish amaliyotining tobora takomillashib borishi, o‘z navbatida, hududlarda qonun hujjatlarining

²²⁴ <http://www.mahallafond.uz/uz/articles/814/>

²²⁵ “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni // O‘zbekiston qonun hujjatlari tўplami. 2013, 17 (569)-son. –B. 9-10.

²²⁶ “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni // O‘zbekiston qonun hujjatlari tўplami. 2013, 17 (569)-son. –B. 17.

²²⁷ Nasruллаев И. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари тизимини ислоҳ этишининг истиқболлари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2012, 3-сон. –Б. 22.

ustuvorligini ta'minlash, aholi, ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish, eng muhimi, fuqarolarning turmush farovonligini oshirish tizimini yanada takomillashtirishda alohida o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 9 iyuldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Namunali, fuqarolik jamiyatiga xos loyihalarni amalga oshirayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash ularga zarur yordam ko'rsatish masalalari mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir qator ijtimoiy dasturlarda o'z aksini topganligini alohida qayd etish lozim.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2012 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ilgari surgan "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarurligini ta'kidlagan edi. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013 yil 30 sentyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risida", 2013 yil 7 oktyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan sohaga oid 15 ga yaqin nizomlar tasdiqlangan bo'lib, ular mahallalarda ma'naviy muhit barqarorligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona-vatanga va milliy istiqloq g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga ko'maklashish, fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. SHu jumladan, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyasi faoliyatiga oid tasdiqlangan namunaviy Nizomlarning amaliyotga tatbiq etilishi mahallalar ishiga keng jamoatchilikni jalb etishga katta turtki beradi.

Ayni paytda, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 1992 yilda Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining tashkil etilganligi va o'tgan yillar mobaynida uning faoliyatini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor mahallalarda milliy qadriyatlarni e'zozlash va targ'ib etish, madaniy-ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, shuningdek, aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash sohasida keng ko'lamlı chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlamoqda. Xususan, ushbu jamoat tashkiloti tomonidan fuqarolar yig'inlariga uslubiy ko'maklashish maqsadida 2006 — 2013 yillar davomida 30 dan ortiq qo'llanma va adabiyotlar tayyorlanib, barcha fuqarolar yig'inlariga etkazib berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, birgina 2013 yilning o'tgan davri mobaynida mahallalarda 245 mingga yaqin ma'rifiy-madaniy tadbirlarning tashkil etilishi va o'tkazilishida Fondning hududiy tuzilmalari

tomonidan mahallalarga uslubiy-amaliy yordamlar ko'rsatildi. SHuningdek, bu borada fuqarolar yig'inlarida jamoatchilik asosida 7 mingga yaqin targ'ibot guruhlari faoliyati samarali yo'lga qo'yildi, 6 mingdan ortiq mahallalarda "Ma'naviyat xonalari", 3400 dan ziyod axborot-resurs markazlari tashkil etildi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining sohaga oid qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashdagi faoliyatini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini keng ommalashtirish maqsadida "Eng namunali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari", "Fuqarolar yig'inlarining eng namunali diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi" kabi ko'rik-tanlovlarning an'anaviy tarzda har yili o'tkazilishi va unda qariyb barcha fuqarolar yig'inlarining ishtiroki ta'minlanmoqda.

SHuningdek, mahalla yoshlari o'rtasida sportni, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Futbolimiz kelajagi", "Mahallamiz pahlavonlari", "Otam, onam va men — sportchilar oilasi" kabi sport musobaqalari muntazam tashkil etilib kelinmoqda. Birgina joriy yilda 9 mingga yaqin fuqarolar yig'inlarida o'tkazilgan mazkur sport musobaqalariga qariyb 2 millionga yaqin bolalar va o'smirlar jalb etildi. Ayni paytda, mahallalarda bolalar maydonchalari faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish maqsadida 2013 yilda "Mahalla" fondi hisobidan jami 106 ta bolalar maydonchasi qayta ta'mirlandi, 41 tasi yangi qurildi, 2985 ta bolalar maydonchasi obodonlashtirildi. Bundan tashqari, hududlarda 172 ta minifutbol, voleybol, basketbol maydonchalari qurib bitkazilib, foydalanishga topshirildi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida Fond hisobidan 2006 - 2013 yillar mobaynida 4936 ta fuqarolar yig'ini zamonaviy kompyuter jamlanmasi, 5075 tasi mebel jihozlari bilan ta'minlandi. SHuningdek, 724 ta mahalla binolari joriy, 120 tasi kapital ta'mirlandi va 92 tasi rekonstruktsiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 74 ta mahalla guzari qurib, ishga tushirildi.

Fuqarolar yig'inlari hududida istiqomat qilayotgan ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha ularning huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirishga ko'maklashish maqsadida 8700 dan ortiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida "Ota-onalar universitetlari"ni tashkil etishga ko'maklashildi. O'tgan davr mobaynida ushbu jamoatchilik tuzilmalari tomonidan 45 mingdan ortiq tadbirlar o'tkazildi.

Fond faoliyatida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu borada birgina 2011 - 2013 yillar davomida Fond hisobidan 16 mingdan ortiq oilaga moddiy yordam ko'rsatildi. 31300 ga yaqin fuqarolarga oziq-ovqat va kiyim-kechaklar, 2600 dan ortiq ehtiyojmand oilalarga bir boshdan qoramol olib berildi. 5 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalardan bo'lgan yoshlarga, shu jumladan, ularga nikoh va to'y tadbirlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatildi.

Har yili mahallalar hududlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, muqaddas qadamjolarini tartibga keltirish maqsadida umumxalq xayriya hasharlari an'anaviy tarzda tashkil etiladi. Istiqlol yillarida bunyodkorlik va tashabbuskorlik, ezgulik va shijoat timsoliga, ma'naviy hayotimizning uzviy qismi sifatida umummilliy an'anaga aylangan ushbu tadbirda 18 millionga yaqin fuqarolar, shu jumladan, 10 milliondan ortiq yoshlar ishtirok etmoqda. Birgina mamlakatimiz mustaqilligining 22 yilligi munosabati bilan joriy yilning 24 — 25 avgust kunlari o'tkazilgan umumxalq xayriya hashari kunlarida 960 ta ziyoratgoh va 9 mingdan ortiq

qabristonlar, 33,3 ming gektar maydon obodonlashtirildi, 40 mingga yaqin oilalarning uy-joylari ta'mirlandi, 566 ta yangi bog' tashkil etildi.

Mahallalarda aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida Fondning hududiy tuzilmalari hamda fuqarolar yig'inlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 9 mingdan ortiq targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazildi, mahallalarda 41 mingdan ortiq maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish, hududlarda 112 mingdan ziyod yangi ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashildi. Ayni paytda, fuqarolar yig'inlari hududida tadbirkorlik faoliyatini, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlari tashkil etilmoqda. Bu borada manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan 2013 yilning 24 iyunida ushbu markazlarning namunaviy Nizomi qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi²²⁸.

Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosi sifatida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri qabul qilindi va 2013 yilning 23 aprel kuni matbuotda e'lon qilindi. Ushbu qonun bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda, jamoatchilik nazorati sohasida, xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish borasidagi vakolatlari kengaytirildi.

Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qonunga fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashish, fuqarolar yig'ini hududida yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlash haqidagi me'yorlar kiritildi.

Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish bilan bir qatorda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kafolatlarini belgilovchi alohida modda kiritildi.

Mahallani xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga fuqarolar yig'ini hududida xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish, tegishli maslahat markazlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berildi. Xususan, fuqarolar yig'inlari huzuridagi maslahat markazlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar yig'ini hududida yashovchilar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etib, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun mavjud imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumotlar beradi, fuqarolar yig'ini hududida yashovchilarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda har tomonlama ko'maklashmoqda.

Konsepsiyada "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

²²⁸<http://www.mahallafond.uz/uz/articles/814/>

raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etilgan edi. Konsepsiyadagi ana shu vazifalarning ijrosi doirasida 2013 yil 22 aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ham yangi tahrirda qabul qilindi²²⁹.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash borasidagi fuqarolarning huquqlarini to'laroq ta'minlashga qaratilgan tegishli huquqiy kafolatlarni yanada kengaytirishdan va bu bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 32-moddasida mustahkamlangan "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi"²³⁰ – kabi me'yorlarni hayotga to'liq joriy etishdan iborat.

Yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar saylov tizimini yanada demokratlashtirish orqali fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratib saylovlarni samarali o'tishiga va ularning natijasi sifatida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini eng munosiblarini saylab olishga xizmat qilmoqda.

4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini rivojlanishining konseptual asoslari

Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada ta'minlash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirish dardkor. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday yondashuv fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa fuqarolik jamiyati tamoyillariga to'la mos keladi²³¹.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish konsepsiyasi nafaqat mamlakatimizdagi islohotlar uchun ilmiy-amaliy asos²³², balki umuman, davlatchilik taraqqiyotidagi o'ziga xos ta'limotga aylandi deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu konsepsiyaning o'zbek xalqi madaniyati va umum e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar uyg'unligida shakllanganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning

²²⁹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 йил 29 апрель, 17-сон, 220-модда

²³⁰Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, № 1, 4-модда.

²³¹Ислом Каримов. Бизкелажагимизни ўзқўлимиз билан кураимиз. Т. 7. Т.: Ўзбекистон, 1999. Б. 389.

²³² Шарифходжаев М., Рахимов Ф. Человек определевший эпоху. – М.: Книжный дом газеты «Труд», 2004. С. 14-18; Рахманова Ч. Ўзбекистонда ҳуқуқий демократик давлатни шакллантиришга оид баъзи масалалар. // Ўзбекистонда миллий давлатчилик назариясининг тарихий-фалсафий ва ҳуқуқий асослари (илмий-назарий мақолалар тўплами). – Т, 2005. 153-154-б.

muvaffaqiyatiga xizmat qilmoqda. Zero, har qanday yangilanish, hattoki liberallashtirish ham xalqning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Darhaqiqat, O‘zbekistondagi hayotiy islohotlarning nazariy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Birinchi chaqiriq Oliy Majlisining XIV (1999), Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining I sessiyalaridagi (2000) va Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi (2005) ma‘ruzalarida yaxlit konsepsiya shaklida bayon qilingan bo‘lsa, ularni ro‘yobga chiqarish masalalari aniq dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur konsepsiyalar g‘oyalari o‘zbek xalqi madaniyati bilan umum e‘tirof etilgan qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlashga zarur nazariy asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma‘ruzasi asosiy qoidalarini amalga oshirish XXI asrning dastlabki yillarida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini ro‘yobga chiqarishni, siyosiy va iqtisodiy sohalarida keng erkinlashtirishni, davlat va jamiyat qurilishi sohasida erkinlashtirishni ta‘minlash uchun zarur qonuniy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 10 iyun 1999 yili 296-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma‘ruzasi asosiy qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorda XXI asr dastlabki yillarida islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish dasturlari hamda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarida islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Ularning ijrosini ta‘minlash maqsadida mazkur qarorning birinchi bandida mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish hukumat, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri deb mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishi sohasida erkinlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish yuzasidan dasturlar turkumi alohida bandda ma‘quullandi²³³. Bular: “Jamiyat hayotining barcha tomonlarini isloh qilishning ishlab turgan qonunchilik-me‘yoriy bazasini takomillashtirish va yangilarini shakllantirish dasturi”, “Davlat organlarining funksiyalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga va hukumatga qarashli bo‘lmagan jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berish konsepsiyasi”, “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari, “Sud-huquq sohasini isloh qilishni chuqurlashtirish”, “Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish” dasturlaridir.

Belgilangan dasturlarning barchasi O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish uchun qulay zamin yaratadi. Lekin liberalizmning g‘arbcha talqini tarafdorlari ushbu dasturlarda xususiy mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida hech qanday tadbirlar belgilanmaganligini aytishlari mumkin. Xususiy mulkchilik O‘zbekistonda ham demokratik huquqiy davlatning asosiy omili sifatida e‘tirof etilib, uni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari alohida iqtisodiy sohadagi islohotlar dasturlarida belgilangan. SHuning uchun ham ko‘pchilik o‘zbek olimlarining erkinlashtirishga oid fikrlarida xususiy mulkchilikni rivojlantirish g‘oyalariga alohida e‘tibor berilmaydi.

²³³Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 10 июндаги 296-сон қарорига 1-илова.

Darhaqiqat, O‘zbekistondagi hayotiy islohotlarning nazariy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Birinchi chaqiriq Oliy Majlisining XIV (1999), Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining I sessiyalaridagi (2000) va Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi (2005), Birinchi chaqiriq Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi (2010) ma‘ruzalarida yaxlit konsepsiya shaklida bayon qilingan bo‘lsa, ularni ro‘yobga chiqarish masalalari aniq dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur konsepsiyalar g‘oyalari o‘zbek xalqi madaniyati bilan umum e‘tirof etilgan qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlashga zarur nazariy asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma‘ruzasi asosiy qoidalarini amalga oshirish XXI asrning dastlabki yillarida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini ro‘yobga chiqarishni, siyosiy va iqtisodiy sohalarda keng erkinlashtirishni, davlat va jamiyat qurilishi sohasida erkinlashtirishni ta‘minlash uchun zarur qonuniy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 10 iyun 1999 yili 296-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma‘ruzasi asosiy qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ^aaror qabul qilindi.

Mazkur qarorda XXI asr dastlabki yillarida islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish dasturlari hamda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarida islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Ularning ijrosini ta‘minlash maqsadida mazkur ^aarorning birinchi bandida mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish hukumat, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri deb mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishi sohasida erkinlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish yuzasidan dasturlar turkumi alohida bandda ma‘qullandi²³⁴. Bular: “Jamiyat hayotining barcha tomonlarini isloh qilishning ishlab turgan qonunchilik-me‘yoriy bazasini takomillashtirish va yangilarini shakllantirish dasturi”, “Davlat organlarining funksiyalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga va hukumatga qarashli bo‘lmagan jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berish konsepsiyasi”, “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari, “Sud-huquq sohasini isloh qilishni chuqurlashtirish”, “Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish” dasturlaridir.

Belgilangan dasturlarning barchasi O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish uchun qulay zamin yaratadi. Lekin liberalizmning g‘arbcha talqini tarafdorlari ushbu dasturlarda xususiy mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida hech qanday tadbirlar belgilanmaganligini aytishlari mumkin. Xususiy mulkchilik O‘zbekistonda ham demokratik huquqiy davlatning asosiy omili sifatida e‘tirof etilib, uni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari alohida iqtisodiy sohadagi islohotlar dasturlarida belgilangan. SHuning uchun ham ko‘pchilik o‘zbek olimlarining erkinlashtirishga oid fikrlarida xususiy mulkchilikni rivojlantirish g‘oyalari alohida e‘tibor berilmaydi.

12-MAVZU. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI

²³⁴Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 10 июндаги 296-сон қарорига 1-илова.

Reja:

1. **Jamoatchilik nazoratining mohiyati**
2. **Jamoatchilik nazorati tizimi**
3. **Jamoatchilik nazoratining sub'ektlari**
4. **Jamoatchilik nazoratining shakllari**
5. **Millat va millatlararo munosabatlarga doir tushunchalar.**
6. **Mustaqillik davrida millatlararo totuvlikning ta'minlanishi.**
7. **Diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi va diniy qadriyatlarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni.**
8. **Ijtimoiy sheriklik-etuklik mezoni**
9. **Ijtimoiy sheriklikning tarixi va tadriji**
10. **Ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari**
11. **O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik nazariyasining boyitilishi va amaliyotining rivojlantirilishi**

1. Millat va millatlararo munosabatlarga doir tushunchalar mazmun-mohiyati.

Millat tushunchasi va unga turli xil yondoshuvlar. Millat (arabcha – xalq) tushunchasi – muayyan hududda istiqomat qiladigan, umumiy til, madaniyat, urf-odat, qadriyatlar va ruhiy yaqinlik bilan farqlanuvchi etnojtimoiy birlikni anglatadi. Millat — til, ma'naviyat, milliy o'zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning birligidir. Millat ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi. U faqatgina “kapitalistik jamiyatning muqarrar mahsuli” emas, balki insoniyatning dunyoga kelishi va taraqqiyotining mahsulidir. Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ammo ular millat abadiylikni ta'minlashning birdan-bir imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun faqat zaruriy shartlardan birigina hisoblanadi. Millatning abadiylikni, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili uning ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatidir. Millatlarning ichki-ruhiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mehnati, tadbirkorligi va o'ziga xosligini rivojlantirish asosida hozirgi zamon sivilizatsiyasi yuzaga kelgan. Mutaxassislarning fikricha, er yuzida uch mingga yaqin millat bo'lib, insoniyatning o'rtacha hisob bilan 96 foizini birlashtiradi. Qolgan 4 foiz elat va qabilalardir. Har bir millat aholisi bir necha o'n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi. Millatlar besh yirik guruhga bo'linadi: 1. Buyuk millatlar - aholi soni milliard va 100 milliondan ortiq, xitoylar, hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar. 2. Katta millatlar — aholi soni 50-100 million oralig'ida — inglizlar, fransuzlar, ispanlar, olmonlar, turklar, arablar va b. 3. Yirik millatlar — aholi soni 10-50 milliongacha — o'zbeklar, portugallar, polyaklar, efioplar va b. 4. O'rtacha millatlar — 1-10 million oralig'ida, qirg'izlar tojiklar, turkmanlar. 5. Kichik millatlar - bir necha 10 mingdan 1 milliongacha, chechenlar, ingushlar, cherkaslar. Jahondagi 27 millat er yuzi aholisining qariyb 75 foizini tashkil qiladi.

Millatlarning soni ularning buyukligi yoki gegemonligi uchun asos bo'la olmaydi. Zero, barcha millatlar teng, ozod va erkindir. Ammo tamaddun taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir barkamol farzandlari ko'p millatlarga tabiiy tanlanish asosida etakchiga aylanishlari mumkin. Ana shu tamoyil jahon xalqlari intilishining asosini tashkil etadi. Mustaqillikka erishgan yurtimizda butungi kunda ko'p sonli millat vakillari yashamoqda. Mamlakatimizda bu tamoyilga amal qilinishi esa barcha millatlarning ravnaqi, gullab-yashnashi uchun xizmat qilmokda.

«Millat» murakkab xarakterga ega boʻlgan etnik birlik hisoblanadi. SHuning uchun unga taʼrif berishda bugungi kungacha mavjud boʻlgan ilmiy-falsafiy adabiyotlarda yakdillik yoʻq. Lekin ularni umumlashtiruvchi tomonlar alohida qayd etiladi. «Millat», «milliy», «milliylik» kabi tushunchalar bizning tilimizga arab tilidan VIII asrda, yaʼni arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning zabt etilish davridan boshlab kirib kelgan. Ushbu tushunchalarning negizida «mil» iborasi yotadi. «Mil» tushunchasi arab tilida «oʻzak», «tub mohiyat», «negiz» maʼnolarini ifodalaydi. «Millat» tushunchasi esa keng miqyosda qoʻllanilib, bir necha maʼnoni beradi: 1) din, diniy jamoa; 2) ummat, maʼlum dinga eʼtiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi maʼnolarni anglatadi¹.

Falsafa qomusiy lugʻatida millat tushunchasiga zamonaviy taʼrif beriladi. Jumladan, unda «millat - bu til, maʼnaviyat, milliy oʻzlikni anglash, ruhiyat, urf-odatlar, anʼanalar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan xududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bogʻlangan mustaqil subʼekt sifatida oʻziga xos moddiy va maʼnaviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir»²³⁵, - deyilgan. SHuningdek, boshqa xorijiy adabiyotlarda millat deganda siyosiy va etnik munosabatlarga kirishuvchi tili, oʻz-oʻzini anglash faoliyatiga ega boʻlgan xalq tushunilishi taʼkidlab oʻtilgan²³⁶. Mazkur manbada millat haqidagi konseptual qarashlar K.Doych (Natsionalizm va ijtimoiy kommunikatsiya), E.Gelner (Natsiya va natsionalizm), B.Anderson, E.Smit tomonidan ilgari surilganligi ham alohida qayd etib oʻtiladi. Ulardagi asosiy eʼtibor millatning turli oʻziga xos ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy jihatlariga qaratiladi²³⁷. Biroq, ularda millatning shakllanishidagi ijtimoiy-maʼnaviy jarayonlar eʼtibordan chetda qolganligini ham kuzatishimiz mumkin. Yana bir adabiyotda millat tushunchasi davlat tushunchasiga uzviy bogʻliqligi, oʻz hududi, chegarasiga egaligi, boshqa millat vakillari manfaatlarini hurmat qilishi kabilar bilan ifodalanishi koʻrsatib oʻtilgan²³⁸.

S.Otamurotov fikricha, «Millat deb yagona til, madaniyat (keng maʼnoda) milliy oʻzlikni anglash ruhiyati (psixologiyasi va hissiyoti), urf-odatlar va anʼanalar yagonaligi asosida maʼlum hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bogʻlangan, oʻz davlatiga ega boʻlgan mustaqil subʼekt sifatida oʻziga xos moddiy va maʼnaviy boyliklarni ifodalovchi hamda yaratuvchi kishilarning etnik birligiga aytiladi»³. Keltirilgan bu taʼrifdagi yangilik millatning etnomadaniy va milliy munosabatlardagi oʻziga xos subʼekt sifatida namoyon boʻlishini ifodalashda qoʻl keladi. Yana bir faylasuf olim A.Ochildiev «...har qanday millat muayyan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tizimi bilan bogʻlangan etnoijtimoiy birlikdir»¹ - degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, millat tushunchasiga etnik va ijtimoiy birlikning uygʻunligi nuqtai-nazardan qaralishi uning umumilmiy asoslarini har tomonlama oʻrganishga imkon beradi. Hozirgi davrda biz, millat deganda umumiy tilda soʻzlashib, bir butun umumiy hududda istiqomat qilib turgan, birga iqtisodiy hayot kechiradigan, umumiy maydoni, maʼnaviy va ruhiy muhitga ega kishilarning tarixiy shakllangan barqaror birligini tushunamiz.

Millatlararo munosabatlarni oʻziga xos, murakkab va serqirra tizim sifatida qarash mumkin. Bu oʻziga xoslik birinchidan, jamiyat milliy tuzilishining tarkibiy qismi hisoblangan etnoslarning siyosiy, ijtimoiy-itisodiy, madaniy ehtiyoj manfaatlarini ruyobga chiqarish na ikkinchidan, millatlararo munosabatlarda kechayotgan jarayonlarni toʻgʻri baholash hamda mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan, kompleks xarakterga ega chora-tadbirlarni ishlab chikishdek bir-biri bilan uzviy bogʻliq vazifalarni hal etishni zarur qilib qoʻyadi. Ularning muvaffaqiyatli hal qilinishi esa milliy hayotda kechayotgan oʻzgarishlarning xarakteri va yoʻnalishini oldindan koʻrish na nazoratini tashkil etish qamda davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, harakatlar va jamoat tashkilotlarining maʼnaviy-maʼrifiy, iqtisodiy va tashkiliy-texnik salohiyatini mavjud muammolarni hal qilishga yoʻnaltirish imkonini beradi. Qayd etilgan vazifalarning qanday maqsadlarni koʻzlab hal etilishi mohiyat eʼtibori bilan stixiyalilikka deyarli urin krdirmaydigan, ijobiy yoki salbiy mazmunga ega millatlararo munosabatlarning muayyan tipini shakllantirishga asos boʻlib xizmat qiladi. Xususan, milliy tengsizlik, oʻzga millatlarga nisbatan bepisandlik bilan qarash, muayyan hollarda esa antagonizmning ustuvorligi millatlararo munosabatlarning salbiy mazmunga egaligidan dalolat beradi. Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, etnik munosabatlar millatlararo

¹ Қаранг: Ислон энциклопедияси. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2004. -Б.160.

²³⁵ Фалсафа қомусий луғуат. Қ.Назаров таҳрири остида. – Тошкент: Шарқ, 2004.

²³⁶ Новейший философский словарь / Сост.А.А.Грицанов. – Мн.: Изд. В.М. Скакун, 1998. - 460 с.

²³⁷ Қаранг: Эрнест Геллнер. Нации и национализм. — М.: Прогресс, 1991. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. — М.: Канон-Пресс-Ц, 2001.

²³⁸ Философский энциклопедический словарь. – М.: ИНФРА – М, 1999. – 291 с.

¹ Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Т.: Ўзбекистон, 2004. -Б. 37-38.

totuvlik deb ta'riflanishi mumkin bo'lgan ijobiy mazmunga egaligi bilan ajralib turishini qayd qilish lozim. SHu o'rinda etnos, xalq va elat tushunchalari mazmuniga ham to'xtalib o'tish joiz.

“Etnos” tushunchasi yunon tilidan olingan bo'lib, uning etimologik ma'nosi xalq, qabila, to'da, kishilar guruhi degan ma'nolarni anglatadi. Siyosatshunoslik fanlari doktori N.Mamanazarov yozganidek, bu termin (ya'ni “demos”-O.M.) kishilar guruhining muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardaaktiv qatnashuviqismini anglatadi, “etnos”termini muayyan joy, ya'ni hududda yashovchi xalqning lokal guruhini anglatadi. Hozirgi paytda “etnos” terminini faqatgina ilmiy doira va ilmiy adabiyotlardagina qo'llansa, “xalq” terminini esa, kundalikhayotning barcha ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarida aktiv qo'llaniladi. SHujihatdan ham “etnos” va “xalq”tushunchalari ma'lum ma'nodabir-biriga yaqin bo'lsa-da, ammo mazmun va mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi.²³⁹

Tor ma'noda xalq atamasiel, elat, millat, aholi, xaloyiq, olomon, muayyan guruh vakillarini anglatadi. Xalq so'zi muayyan lokal hududda istiqomat qiluvchi aholiga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, qishloq xalqi, shahar xalqi va h.k. Kasb, muayyan mashg'ulot yoki ma'lum tabaqaga mansub bo'lgan kishilarga nisbatan o'qituvchi xalqi, savdogar xalqi, dehqon xalqi kabi so'zlar ishlatilishi uchraydi. Zamonaviyxalqaro huquqda ham xalq atamasi keng qo'llanadi. Xalq birinchi marta xalqaro huquq sub'ekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida "Xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilash" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan. Hozirgi vaqtda xalqaro huquqda xalqlar huquqi turli konvensiya va deklaratsiyalarda o'z aksini topgan. SHu bilan birga, xalqaro hamjamiyat tomonidan umumiy tan olingan yagona "xalq" tushunchasi hozirga qadar ishlab chiqilmagan, faqat xalqaro huquqda emas, balki etnografik adabiyotda ham "xalq" tushunchasiga oid bahs-munozaralar XIX asrdan buyon davom etib kelmoqda. Xalq so'ziga berilgan ko'pgina tavsiflardan kelib chiqib (xalqaro huquq doktrinasida 100 dan ortiq tavsiflar mavjud) shunday ta'riflash mumkin: xalq ma'lum bir davlat fuqarolarining umumiy birligini anglatadi. muayyan hududda tarixan tarkib topgan, boshqa guruhlardan o'z tili, ruhiy-psixologik holati va madaniyati, shuningdek, umumiy ongi va nomlanishi bilan farq qiluvchi siyosiy yoki etnojtimoiy birlik yig'indisi esa - etnosdir.Xalq atamasi gohida millat tushunchasiga sinonim sifatida ham ishlatiladi. O'zbekiston xalqining tarixiy shakllanish jarayoni etnotarixiy makon bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ushbu zaminda xalq sifatida rivojlanib kelayotgan etnik birlikdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning **«Biz jahon maydonida kuni-kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko'hna Xorazm zaminida «Avesto» paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi»**, degan fikrlari o'zbek millati vakillarining ushbu hudud xalqi sifatida etnotarixiy ildizining teranligidan dalolatdir. Darhaqiqat, tarixiy ildizlari mustahkam bo'lmagan xalq etnosiyosiy maydonda yirik, qudratli bir davlatchilikni shakllantirib, kelajak avlodlarga milliy davlatchilik negizlarini, osmono'par madaniy yodgorliklarni meros sifatida qoldira olmas edi. SHu jihatdan ham o'zbek xalqining shakllanish jarayoni va rivojlanish bosqichlari ushbu zamin bilan mustahkam bog'liklikda bo'lib, qadimiydir.

Umuman ilmiy adabiyotlarda“etnos”tushunchasi va hodisasiga o'ttizga yaqin ta'riflar uchrasa-da, ularda ma'lum bir yaqinlik,mushtaraklik mavjud. YA'ni, “etnos-bu bir tilda so'zlashuvchi, o'zlarining bir xil kelib chiqishi va mushtarak shakllanish jarayonini tan oluvchi, boshqa xalqlardan farq etuvchi qator urf-odat va an'analarga ega bo'lgan kishilar guruhidir.”²⁴⁰ Bizning nazarimizda etnos deganda insonlarning ma'lum hududda uzoq muddat birgalikda istiqomat qilishi, umumiy til, madaniyat va o'zini o'zi anglash orqali birlashgan kishilar guruhi tushuniladi. SHuningdek, etnos deganda qabilaviy qarindoshlik, yagona maishiy madaniyat

²³⁹ Мамназаров Н. Муस्ताкиллик ва миллий-этник жараёнлар.-Т.: ТМИ, 2004.-76.

²⁴⁰Қаранг: Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса.-М.: “Наука”, 1983.- С.57-58; Жаббаров Исо. Ўзбек халқи этнографияси.-Т.: “Ўқитувчи”, 1994. -17-18 б.; Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.-Т.: “Шарқ”, 2001. -101-103б.

(muloqot tili, e'tiqod ob'ekti, kundalik yurish-turish me'yorlari ham shunga kiradi), umumiy istiqomat makonining (landshaftni qamrab oluvchi) mavjudligi yoxud mavjud bo'lganligi hamda boshqa etnoslarga nisbatan o'zining yagonaligini anglash va qayd qilingan nomga egalik (etnonim) asosida shakllangan ijtimoiy birlik ham nazarda tutiladi. Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgisi ularning o'ziga xos madaniy xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar har bir xalqning tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va avloddan avlodga meros bo'lib o'tadi. Fanda bu jarayon «etnik an'analar» yoxud «etnik vorislik» deb ataladi. Bunday an'analar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi hamda u yashayotgan tabiiy geografik muhit bilan bog'liq holda shakllanadi. Faqat alohida xalqlar emas, balki ularning shakllanish jarayonida ishtirok etgan qarindosh guruhlar ham etnos deb ham ataladi.

Etnos, xalq ijtimoiy-siyosiy liderlarsiz yashamaydi, ularga strategik maqsad, xatti-harakatlariga dasturiy mohiyat va yo'nalish beruvchi etakchilar kerak. Bunday faoliyatni «passionarlik» konsepsiyasi orqali atroficha o'rganish mumkin. Unga ko'ra dunyoning yagona axborot-energetik manzarasida tarixda chuqur iz qoldirgan «buyuk odamlar va xalqlar»ning faoliyati mexanizmlarini to'g'ri tushunish etnosni to'liq ilmiy manzarasini yoritishda qo'l keladi. Chunki ko'pincha ijtimoiy-tarixiybosqichlar, siyosiy yutuqlar ana shunday liderlarning hayoti va ijodi orqali, ularning etnos, xalq hayotiga optimistik g'oyalarni olib kirgani va ularni birlashtirib, yangi ijtimoiy birlikka aylantirgani bilan o'lchanadi.²⁴¹ Bu nazariyaga ko'ra, etnos, millat tarixan shakllangan ijtimoiy bir butunlik bo'lib, iqtisodiy, hududiy, lisoniy, madaniy, ijtimoiy-psixologik aspektlarning yaxlitligi bilan xarakterlanadi. Unda yirik, buyuk shaxslar, guruhlar muhim rol o'ynaydi. Etnos, millat o'zining xususiyatlarini, o'zining ichidan etishib chiqqan va boshqalar tan oladigan buyuk vakillari orqali namoyon qiladi. Masalan, o'zbek xalqi, millati boshqa xalqlar nazarida Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Navoiy kabi buyuk insonlar avlodlari sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari, xalq, millat haqida gap ketganda, ularni birlashtirib turadigan mentalitet, yashaydigan hudud, ulardagi o'ziga xos xususiyatlar, insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o'ri, tarixiy merosi, ahloqiy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy tajribasi ham nazarda tutiladi. Bizga ma'lumki, dunyoda ikkita bir xil odam bo'lmaganidek, ikkita bir xil millat ham bo'lmaydi. SHuning uchun ularning xarakterlari, manfaatlari, dunyoqarashlari, ichki-ruhiy olami turlicha, bu - aksioma. Bu esa millatlar mavjud ekan millatlararo munosabatlardagi muammolar ham saqlanib qolinishidan darak beradi. Millatning o'ziga xosligi uning ichki ma'naviy-ruhiy olamini tashkil etuvchimilliy erkinlik, or-nomus, qadr-qimmat, izzat-nafs, g'urur kabi tuyg'ularda namoyon bo'ladi. Agar ularga tashqaridan yoki boshqa millatlar tomonidan salbiy ta'sirlar ko'rsatilsa, millatlararo, hatto, davlatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar paydo bo'ladi va ular og'ir musibatlariga olib kelishi mumkin.

Etnos, xalq ijtimoiy borliqqa munosabatlarini huquqlariorqali ifoda etadi. Demokratik davlatlarda aynan Konstitutsiya(Asosiy Qonun) va unga tayanib ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan qonunlar etnosning ijtimoiy borliqdagio'ini, huquq va burchlarini belgilab beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”. (7- modda); “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi”; “Davlat organlari vamansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida ma'suldirlar”. (2-modda). “Jamiyat va davlat siyosatining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi.” (9-modda). “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.” (12-modda).²⁴² Mazkur moddalardaO'zbekiston xalqi va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy huquqlari, ushbu munosabatlarning asosiy prinsiplari belgilab berilgan. Mazkur huquqlar etnosning, millatning uzoq ijtimoiy-madaniy rivojlanish jarayonida erishgan yutuqlari kvintessensiyasidir.

²⁴¹Қаранг: Зыкин Дм. Власть, элита, народ: подсознание и управляемая демократия. -М.: «Самотека», 2007.-С. 124-126.

²⁴² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2012.- 4 -5 б.

Elat degan tushuncha arabchadan tilimizga kirib kelgan. Elat deganda bir tilda soʻzlashuvchi, oʻziga xos madaniyati mavjud boʻlgan va maʼlum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va oʻz tuzilmasiga ega boʻlgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat — kishilarning, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Elatga koʻp jihatdan bir-biriga yaqin qabilalar birlashadi. Qadimda kishilarning elat boʻlib, bir hududda yashashlari ular orasida umumiy manfaatdorlik, qon-qarindoshlik his-tuygʻularini kuchaytirgan. Elatlar, kuchli qabilalarning kuchsiz qabilalarni oʻziga boʻysundirishi va ular b-n aralashib ketishi natijasida ham shakllangan. Elat oʻz qiyofasini saqlab qolishi, rivojlanib, millat darajasiga koʻtarilishi uchun oʻz davlatiga ega boʻlishi kerak. Umumiy manfaatdorlik hissi va uni himoya qilish masʼuliyati davlatni vujudga keltirgan. Nisbatan markazlashgan dastlabki davlatlar qadimgi Misr, Bobil, Turonda va boshqa joylarda paydo boʻlgan. Sayyoramizning boshqa joylarida, jumladan, Gʻarbiy va SHarqiy Evrupada elatlar oʻrta asrlarda shakllangan. Dunyoda bunday jarayonlar davom etayotgan mamlakatlar hozir ham bor. SHuning uchun boʻlsa kerak, jonli soʻzlashuv tilida millat va elatlar degan iboralar ishlatib turiladi. Koʻpincha, elat deganda, kamsonli, madaniy-maʼrifiy, iqtisodiy-siyosiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan xalqlarham tushuniladi.

Sobiq Ittifoqda 1926 yilda oʻtkazilgan aholi roʻyxatida 230 dan ortiq millat va elat yashaydi, deyilgan boʻlsa, 1959 yilgi aholi roʻyxatida bu raqam 129 taga tushib qolgan. Demak, 100 dan ortiq elat, asosan, kam sonli xalqlar oʻz milliy qiyofalarini yoʻqotib, koʻp sonli xalqning miqdorini oshirgan. SHoʻroviy mafkura “oʻz rivojlanishiga koʻra orqada qolgan koʻpgina elatlar, asosan, kichik elatlar, millatga aylanmasligi ham mumkin. Ular vaqt oʻtishi bilan iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan boshqa elat va millatlar bilan yaqindan aloqa qilishga oʻtishi natijasida ilgʻor xalqning madaniyati, tilini oʻzlashtiradi va asta-sekin oʻsha millatning tarkibiga singib ketadi”, deb uqtirardi. (Bu koʻchirma Oʻzbek Sovet Ensiklopediyasining 13-jildidan keltirildi). Bundan koʻrinadiki, CHor Rossiyasida XVI asrning oʻrtalaridan boshlangan bunday siyosat shoʻro davrida ham pinhona davom ettirildi. SHunisi qiziqki, qaerdaki milliy uygʻonish yuz berib, milliy mustaqillik talab etilsa, shu xalqni, shu xalq rahbarlarini separatizmga ayblash mustamlakachilarga xos usuldir. “Separatizm” lotinchadan olingan atama hisoblanib, ajralib chiqishga, alohida boʻlishga intilish maʼnosini bildiradi. Masalan, bir butun mamlakatning bir viloyati ajralib chiqishni istasa — bu separatizm boʻladi, bu harakatning tepasida turganlarni separatchi - aymachi deyish mumkin. Bunday intilishlarni sogʻlom fikrli hech bir kishi oqlamaydi va yoqlamaydi. Bu mamlakatning yaxlitligiga rahna soladi, butun bir xalqni parokanda qiladi. Lekin tili, dini, turmush tarzi mutlaqo boshqacha boʻlgan, oʻz vataniga ega bir xalqning mustaqillikni istab, hukmron tuzum iskanjasidan ajralib chiqishi separatizm emas, balki milliy davlatchilikni tiklash yoʻlidir. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu tamoyil mazmuniga mos keladi.

Elat bilan yaqin maʼnoda **diaspora** tushunchasi ham qoʻllaniladi. Diaspora yunoncha diaspora -tarqalish maʼnosida boʻlib, maʼlum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda oʻz davlat tuzilmasiga ega, maʼlum bir xalq millat vakillarining yigʻindisi (masalan Oʻzbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi). Konstitutsiyaviy huquqda «diaspora» tushunchasidan oʻz vatandoshlariga nisbatan davlat siyosatini yuritishda foydalaniladi.

Millatlararo munosabatlar. Vatanparvarlik, kosmopolitizm, millatchilik. Millatlararo munosabatlar — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar oʻrtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir. Maʼlumki, bugun jahonda mavjud 200dan ziyod mamlakatda ikki mingga yaqin millat, elat va qabila yashaydi. Ular 5 yarim mingdan ortiq tilda soʻzlashadi. Bu tillarning 100 dan koʻprogʻigina oʻz yozuviga ega. Millatlararo jarayonlarning eng xarakterli tomoni shundaki, insoniyat aql-zakovati yuksalgani sayin millatlar oʻzaro assilyasiyalashish tomon emas, balki oʻzlarining “men”ni namoyish qilish, tasdiqlash sari jadal surʼatlar bilan harakat qilmoqda. Hali jahonda mavjud birorta millat, yoki elat ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan qoʻshilib ketgan emas, aksincha ayrim millatlar qashshoqlikning ogʻir kulfatlariniboshidan kechirishga majbur boʻlsalar-da ozodlik, erkinlik kabi qadriyatlardan voz kechmaganlar. Ular ozod, mustaqil yashab, oʻz urf-odatlarini, anʼana va qadriyatlarini muqaddas bilib, fidoyilik koʻrsatib kelganlar. Millatlararo munosabatlar deganda turli millat va elatlarning iqtisodiy-siyosiy va madaniy-maʼrifiy sohalarida sodir boʻladigan oʻzaro aloqalar majmuini tushunmoq kerak. Bunday aloqalar, koʻp millatlar

yashaydigan ayrim bir mamlakat ichki hayotida yoxud turli mamlakatlarda yashaydigan millatlar o'rtasida amalga oshadi. Bugungi kunda jahonda aholisining tarkibi faqat birgina millatdan tarkib topgan mamlakatni yoki davlatni topish qiyin. Xuddi shu ma'noda ham mamlakatlar, davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan turli sohalaridagi aloqalarda ularda yashayotgan millatlarning do'stona munosabatlari har qanday davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ana shu omil qanchalik mustahkam bo'lsa, davlatlar o'rtasida olib boriladigan turli sohalaridagi aloqalar xam shu darajada mustahkam bo'ladi va har ikki tomon kutayotgan natijalami beradi. Ko'p millatli davlatlarda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish shu mamlakatda barqarorlik va taraqqiyotning kafolati, uning istiqbolini ta'minlovchi asosiy omildir. CHunki har qanday davlatda milliy nizolar va ziddiyatlar o'sha davlatda barqarorlikning barbod bo'lishiga va oxir-oqibatda uning emirilishiga olib keladi. SHuning uchun ham, har qanday mamlakatda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirib borish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Sobiq sho'rolar tuzumining fojiasi shunda ediki, u o'z manfaatlarini milliy manfaatlar hisobiga amalga oshirib keldi. YA'ni, milliy omilning kuchi-qudratini nazar-pisand qilmadi va sinfiy manfaatlarni qondirish orqali o'z hukmronligini abadiylashtirmoqchi bo'ldi. Ular zo'rvonlik bilan turli millatlarni "yaqinlashtirish" orqali "yagona sovet xalqi"ni vujudga keltirish va keyingi bosqichda butun er yuzida "yuksak" millatlarni shakllantirish hamda ularning xukmronligini ta'minlashni maqsad qilgan edi. Ularning soxta g'oya va puch mafkuraga asoslangan bunday xatti-harakatlari sobiq sho'ro davlatini emirdi va butun bir tuzumning barbod bo'lishini tezlashtirdi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy munosabatlarni, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'zaro totuvligi va hamjihatligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar masalalarining eng maqbul echimi etnik jihatdan turli tuman bo'lgan istalgan jamiyatda har doim hukumat kun tartibining markazida bo'lishi shubha uyg'otmaydi. SHuning uchun ba'zi adabiyotlarda qaysi boshqaruv tizimini samarali deb hisoblash mumkinligi haqida ko'plab tortishuvlar ham o'z o'mini topmoqda. Bunda ikkita eng muhim maqsadlarning muvofiqlikligi – siyosiy barqarorlik hamda etnik guruhlararo va konfessiyalararo masalalar echimini topishga harakat qilmoqda. CHunki, har doim ham ushbu maqsadlarda eng maqbul kelishuvlarga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa bu holat siyosiy yangilanish, modernizatsiya va liberallashtirish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar haqida gap borganda o'rinlidir.

Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri - vatanparvarlik tuyg'usidir. **Vatanparvarlik** – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoyilik namunalari ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etadi.

Vatanparvarlik bu-yurtimizda mavjud bo'lgan salohiyat va boyliklarni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, o'z kuch imkoniyatimizga, ota-onalarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va an'analariga suyanish, qadriyatlarini tiklash, bir-birimizga elkadosh bo'lish extiyojini har tomonlama tushunib etish demakdir.

Vatanparvarlik, bu - O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotni tuzish, tabora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarish, odamlarning yuragiga yaxima va qo'rquv solish hisobidan ularning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini yo'qotish, bir-biriga qarshi qo'yish, yurtimizda, mintaqamizda o'z manfaatini, o'z siyosatini o'tkazishga harakat qilayotgan g'animlarga qarshi kurash demakdir.

Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaatini, qadr-qimmatini, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo'lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zamanga, o'z xalqiga

muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada Vatanimiz erishayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og'ir kunlarida uning uchun qayg'urish, o'z yurti bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eri, har bir g'ishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm-fan va san'atdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash – bularning barchasi vatanparvarlikdir. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo'ladi:

- 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash;
- 2) e'tiqod – mazkur qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish;
- 3) harakat – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, "Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan...Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin. Bu haqda gapirar ekanmiz, ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. YUrtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo'lgan «mo'jaz Vatani»ning, tug'ilib o'sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biz Vatan tuyg'usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxondaryolik o'rtasida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur²⁴³.

SHuni esda tutish kerakki, tarixda bu tushunchaning haddan tashqari bo'rttirib yuborilishiga doir qarashlar ham keng tarqalgan. Bunday qarash **kosmopolitizm** (yunon. *kosmopolites* — dunyo fuqarosi) g'oyasida o'z ifodasini topib, amalda dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechishni targ'ib qilgan. Kosmopolitizm - ya'ni, qaerda yaxshi hayot bo'lsa o'sha emi vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo'qotadi, g'urumi o'ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

Kosmopolitizmning negizlari tarixan antik davr falsafasidayoq vujudga kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Laertiyning ta'kidlashicha, «kosmopolit» so'zi ilk bor kiniklar ta'limoti vakili sinoplik Diogen tomonidan qo'llangan. Boshqa bir yunon mutaffakiri Plutarxning fikriga ko'ra, ushbu tushunchani kitionalik Zenon kiritgan. Epiktet nazarida esa «kosmopolitizm» atamasining muallifi Suqrot bo'lgan. Uning aytishicha, «Agarda faylasuflarning odam va Xudoning o'rtasida yaqinlik bor deganlari to'g'ri bo'lsa, unda insonning vatani qaer degan savolga Suqrotning men afinalik ham, karfagenlik ham emasman, men kosmopolitman, degan so'zlari bilan javob berish lozim»bo'lgan. Bunday ma'lumotlar Sitseronning asarlarida ham uchraydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, K. g'oyalari sofistlar ta'limotining tarafdorlari asarlarida ham ifodalangan. Antik polisni inqirozga olib kelgan Peloponess urushlari makedoniyalik Iskandar imperiyasining vujudga kelishi, keyinchalik esa Rim hukmronligining kuchayishi turli mazmunga ega bo'lgan kosmopolitik qarashlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Makedoniyalik Iskandar, Mark Avreliy bu g'oyalarni yangi hududlarni qo'lga kiritish harakatlarida ko'rgan bo'lsa, stoiklar — Zenon va Kitiona kosmopolitizm idealini kishilarning hayotini yagona, umumjahon qonunlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi ijtimoiy shaklni izlashda deb bilgan. Xususan, kirinaiklarning kosmopolitik g'oyasi «qaerda yaxshi bo'lsa, o'sha joy Vatani» degan iborasida o'z aksini topgan. O'rta asrlarda katolik cherkovi keskin kosmopolitik tendensiyalar tarafdori bo'lgan. Uyg'onish davrida dunyo fuqaroligi g'oyalari feodal tarqoqlikka qarshi yo'naltirilgan edi. Bu g'oyalar Dante Aligeri, Tomazo Kampanella, Petrarka, Piko dela Mirandello, Rotterdamlik Erazm, Vives, Rable, Monten kabi mutafakkirlarning asarlarida ro'yobga chiqarilgan. Germaniyada ushbu g'oyalarni Lessing, Gyote, SHiller, nemis mumtoz falsafasi vakillari Kant va Fixte ilgari surgan. Ularning K.i vatanparvarlik tuyg'ulari bilan mushtarak, milliy birlashishga

²⁴³ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2011. 90-91 б.

erishish istagida namoyon bo'lgan. Keyinchalik K. keskin xarakterga ega bo'lib, kapitalning daromad orqasidan quvish manfaatlarini aks ettira boshlaydi. Jon Kennedi «Tinchlik korpusi»ni tashkil etib, dunyoning turli joylariga ushbu tashkilotning yosh xodimlarini yubora boshladi, bularning maqsadi — hammaga ingliz tilini o'rgatish edi. Aslida, har qanday millat, katta-kichikligidan qat'i nazar, insoniyatning boyligidir va shu bois uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Er yuzidagi milliy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Bu omilni aslo inkor etib bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay, AQSH Serbiyani aynan G'arb va pravoslavlar muqaddas hayiti kuni bombardimon qilgani, uning milliy-ma'naviy an'analarni nazar-pisand qilmasligidan dalolat beradi. Jahon miqyosida yuz berayotgan hozirgi jarayonlar milliy davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy hamda madaniy jihatdan integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Ushbu tendensiyalar, ma'lum darajada, kosmopolitizm ko'rinishida bo'lib, globallashuv jarayonida o'z ifodasini topmoqda. Kishilik jamiyatining global yaqinlashuvi, avvalo, texnik taraqqiyot, transport vositalari, aloqa va kommunikatsiya tarmoqlari, mikroelektronikaning rivojlanishi bilan bog'liq. Postkommunistik makonda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ularning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va jahon xo'jalik aloqalari tizimiga faol kirishishi globallashuvning yana bir kuchli omiliga aylandi. Hozirgi davrda globallashuv jarayonining kengayishiga aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi, ayniqsa, ishchi kuchining migratsiyasi sezilarli ta'sir qilmoqda. Bugungi kunda dunyoning birorta ham davlati migratsiya jarayonlaridan chetda turgan emas. Buning ham o'ziga xos sabablari bor. Avvalo, donor-davlatlar, ya'ni migrantlarni etkazib beruvchi mamlakatlarda aholining tez o'sishi, mehnatga layoqatli bo'lgan aholi orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, maoshning pastligi, etarli darajada hayot kechirish uchun zarur bo'lgan yuqori ish xaqi to'lanadigan ish topish va o'z kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatining cheklangani shular jumlasidandir. Retsipient, ya'ni qabul qiluvchi davlatlar uchun esa, qo'shimcha arzon ish kuchiga, yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyoj, hayot sharoitlari va maoshning yuqori darajasi xos bo'lib, mehnat migratsiyasi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Aholining siljishi, o'z navbatida, ob'ektiv hodisa bo'lib, ma'lum ma'noda xalqaro aloqalar va iqtisodiy hamkorlikka ko'maklashuvchi jarayonlarning rivojlanishiga, xalqaro transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashuviga, shuningdek, aholining xalqaro moliyaviy tuzilmalardan keng foydalanishiga, axborot tarqatish sur'atiga ijobiy ta'sir etadi. SHu bilan birga, aholi migratsiyasi bilan bog'liq salbiy jihatlar ham namoyon bo'lmoqda. Bu noqonuniy migratsiya to'liqlarining davlat tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishini talab etmoqda. Muhojirlar orasida uyushgan jinoyatchilik, nizolar va boshqa qonunbuzarliklarning vujudga kelishi va o'sishi ko'pgina davlatlar barqarorligiga salbiy ta'sir etayotganini mutaxassislar ta'kidlamoqda. 2005 yil noyabr oyida Fransiya, Belgiya va Germaniya shaharlarida bo'lib o'tgan tartibsizliklar bunga misol bo'la oladi. I.A.Karimov "Nezavisimaya gazeta" ga bergan intervyusida globallashuv jarayoni g'oyaviy-mafkuraviy ta'siri, bu jarayonda nodavlat nohukumat tashkilotlarning o'mi haqida to'xtalib, kosmopolitizmning quyidagi muhim jihatiga e'tibor qaratgan edi: "Sir emas, bizda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar har doim olijanob maqsadlarni ko'zlayvermaydi. Aytaylik, "XXI asr liderlari" kabi mavzularda o'tkaziladigan seminarlarda ular iqtidorli yoshlarni "tanlashda hokimiyatga yordam" beradi, biroq bunda ular eng avvalo, o'z manfaatlarini ko'zlashadi. So'ngra chet elga muntazam safarlar uyushtiriladi, ularda turli simpozium va seminarlar davomida bu odamlarning ongiga g'oyat ustalik bilan ta'sir o'tkaziladi. SHu tariqa o'zlarini "dunyo fuqarolari" deb ataydigan kishilar toifasi tayyorlanadi..."²⁴⁴

Bu aslida buyukmillatchilik shovinizmi va millatchilikning asosiy omilidir. **Millatchilik** bu - millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug'lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni erga urishdan iborat bo'lgan nodemokratik mafkuradir. So'nggi o'n yilliklarda dunyoda ijtimoiy xavfli siyosiy, diniy, millatchilik va boshqa guruhbozlikka asoslangan buzg'unchi g'oyalarning faollashuvi kuzatilmog'da. Ularning maqsadi jamiyat bilan mutlaqo mafkuraviy qarama-qarshilikka asoslangani holda o'zi vujudga kelgan mintaqalar uchungina emas, balki butun dunyo uchun jiddiy tahdidlarni tug'dirishga qaratilgan. Turli dunyoqarashga tizimlar o'rtasidagi nazariy kurashdan boshqa mafkura tashuvchilarini jismonan qirib tashlash orqali kurashga va raqiblarini repressiya qilishga o'tish fenomeni aynan buzg'unchi mafkuralar bilan uzviy bog'liq. Birinchi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, o'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xatti-harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda.

²⁴⁴ Каримов И.А. Биз танлаган йўл — демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд.- Т.: "Ўзбекистон", 2003, 34-6.

Ma'lumki, "Sovuq urush" davrida paydo bo'lgan ikki qutbli hukmron tomonlar Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasida siyosiy, mafkuraviy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy ta'sir doirasini kengaytirishga intilib keldi. Bu davr tugaganidan so'ng, mahalliy integratsiya va mahsulotlar, sarmoya, ishchi kuchining o'sishi, kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ko'plab nohukumat tashkilotlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq globallashtirish jarayonlarining tezlashuvi ko'pgina ijtimoiy nazariyotchilar tomonidan millat, millatchilik va transmillatchilikning mafkuralashuvdan keyingi yangi davri kirib kelganligining dalolati sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Ayni vaqtda sobiq Sovet Ittifoqi va YUGoslaviya hamda dunyoning ko'plab mamlakatlarini hududida millatchilikning takroran vujudga kelishi va o'ta turli-tuman, ayni damda qarama-qarshi (birlashtiruvchi va ayirmachi, shu jumladan begonalardan qo'rqish) shakllarga kirishini o'tish jarayonidagi muqarrar mushkilotlar bilan izohlashning imkoni bo'lmay qoldi. Millatchilik hanuzgacha bugungi dunyodagi eng ta'sirchan mafkuralardan birilgicha qolmoqda. Biroq YAngi zamon davrida vujudga kelgan millatchilik uzoq vaqtga qadar "zamonlashuv to'g'risidagi falsafiy diskursda" sezilmay qolib ketdi. Uning vujudga kelishi va kelgusidagi rivoji borasida o'tmishdagi eng yirik mutafakkirlardan birontasi bashorat qilmagan edi. Bundan tashqari boshqa mafkuralardan farqli o'laroq millatchilikning asosiy tamoyillarini izchil va ziddiyatlarsiz bayon qilishga layoqatli etuk mafkurachilari bo'lmagan, ko'pgina nazariyotchilar millatchilikning o'ziga xos "qashshoqligini" bu mafkuraning ijtimoiy va siyosiy hayotga o'ta katta ta'siri bilan hamohangligida ko'radilar. Tadqiqotchilar tomonidan millatchilikning boshqa mafkuralar - liberalizm, konservatizm, sotsializm bilan birlashib ketish salohiyati tan olinishiga qaramasdan u hanuzgacha zamonaviy ijtimoiy nazariyada izohlanmaganligicha qolmoqda. M. mafkurasining uch modeli ajratib ko'rsatiladi: Voqealarning nochiqlik va tizimsizligi (markaz va chekka viloyatlarda) millatchilikni keltirib chiqardi. Negaki turli gazetlarda bir xil voqealar turlicha yoritilar, ular kolloniyalarga katta adadda tarqatilar edi. "Har bir gazetaning konsepsiyasining kamsonli muxlislari dunyoqarashi prizmasidan kelib chiqib "dunyo voqealarini" yoritir edi. SHu sababli bu universallik va mahalliylikka asoslangan ispan-amerika millatchiligini keltirib chiqardi va bunda mansabdorlar va jurnalistlar asosiy rol o'ynadi. Millatchilikning ikkinchi modeli Evropada paydo bo'ldi va bunda avvalgi modeldan farqli ravida OAV emas, balki mahalliy tillar asosiy siyosiy va mafkuraviy rol o'ynadi. Natijada milliy davlatlar paydo bo'ldi. Bir asr (1820-1920 y.y.) mobaynida qit'aning siyosiy xaritasi mutlaqo o'zgarib ketdi va aksariyat davlatlarning paydo bo'lishida erkinlik, tenglik, birodarlik kabi shiorlarga tayangan fransuz inqilob modeli asosiy mezonga aylanib qoldi. Evropa mamlakatlarida ongli millatchilik rasmiy tili ona tili bo'lmagan xalqlarda shakllandi. Milliy ziyoliylar xalq ommasining tarixdagi o'zini ko'rsatdi va bu millatchilikning shakllanishiga bir omil bo'ldi. Uchinchi model bu buyurokratik modeldir. Bu turli tillarga mansub xalqlarning yagona boshqaruviga mansub jihatlarga bog'liq. Bu Rossiya imperiyasida paydo bo'ldi va uning ayrim elementlari Avstro-Vengriya imperiyasida ham uchraydi. Bu saroydagi mavjud tilning davlat tiliga aylanishi, milliy kiyim va madniyatning yo'qolib borishi bilan bog'liq. Buyurokrat millatchilik ko'psonli xalqlar va hukmron sulolalar bilan aloqador. U Rossiyada shakllanishi Evropada vujudga kelgan inqilobiy va millatchilik harakatlariga javoban edi.

Ommaviy axborot vositalari hamda siyosatchilar tilida millatchilikning ko'pincha zo'ravonlik ishlatish bilan birga kechadigan "submillatchilik", "mikromillatchiliklik", "etnomillatchilik" va "etnohududiy" singari radikal harakatlarga o'xshatish tahlil sohasini asossiz torayishiga va eng avvalo kundalik hayotdagi millatchilikni tasvirlovchi ijtimoiy amaliyotning keng qirralarini konseptualashtirishning imkonsizligiga olib kelmoqda. Bunday holatlarda qandaydir biron mantiqiy sababga yoki izohlovchi qiymatga bog'lab bo'lmaydigan murakkab va bir ma'noli bo'lmagan ijtimoiy-mafkuraviy hodisa sifatidagi millatchilikni nazariy qayta mulohazadan o'tkazish vazifasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Millatchilik muammosini nazariy jihatdan ko'rib chiqish siyosiy fikrlar va me'yoriy mulohazalar bilan chambarchas bog'liq va "millatchilik" borasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish yo'nalishini qayta tiklashga urinish muqarrar ravishda tegishli tuzilmaviy, tarixiy va akademik nuqtai nazarlarning o'zaro aloqalarini genealogik ko'rib chiqish shaklini olishi lozim. Bu savolga javob berishda millatchilik ziddiyatlarining quyidagi uch farqli jihatiga e'tibor qaratish lozim:

1. Ob'ektiv uzoq tarixga ega bo'lmagan (tarix isbotlab turganidek) millatlar, ammo o'zlarini uzoq tarixiy taraqqiyotga ega deb hisoblovchilar (millatchilar) o'rtasidagi farq;

2. Millatning aniq va ko'p qirrali sotsiomadaniy jihatlar va sun'iy yaratilgan madaniy jihatlar o'rtasidagi farq;

3. Siyosiy kuch va nazariy jihatdan puch millatchilik o'rtasidagi farq.

Millatchilik hodisasi XX asrning dastlabki o'n yilliklari mumtoz ijtimoiy nazariyasida ko'rib chiqilmay qolib ketgan, chunki bu M. Veberning dunyoni "sehr-jodudan" xalos qilish va E. Dyurkgeymning "uyg'un hamkorlik" borasidagi umumiy mantig'iga sig'magan edi. Millatchilik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarning paydo bo'lishi mintaqaviy-evropacha akademik muhit bilan emas balki ingliz-amerika muhiti bilan bog'liqdir. Mazkur tadqiqotlarda millatchilik ijtimoiy nazariyaning emas balki intellektual tarix yoki g'oyalar tarixi predmeti sifatida ko'rib chiqilgan, shuning uchun millatchilikning vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq ijtimoiy vaziyatlar e'tibordan chetda qolgan. 1920-1960 yillarda tadqiqotchilarni asosan insoniyatni millatlarga taqsimlanishi va bu millatlardan har biri uchun siyosiy vakillik zarurati to'g'risidagi tasavvurlardan iborat bo'lgan. Ariosophiya (Ariosophy) madaniylashgan pessimizm bo'lib, u XIX asr oxirlarida Avstro-Vengriya imperiyasining Gabsburdagi nemis millatchilarining xomxayol fantaziyasiga asoslandi. Ko'pmillatli imperiyada shakllanayotgan urbanizatsiya va sanoatlashuv, slavyan va nemis manfaatlarining to'qnashuvi, Avstriya fon SHonererning paydo bo'lishi, katolik ta'limoti va darvin ta'limoti o'rtasidagi ziddiyalar, irqchilik g'oyalari bu buzunchi oqimning tafakkurini ko'rsatib berdi.

Okkultizm – bu ta'limotda muhim rol o'ynadi va dunyoviy maqsadlar yo'lida siyosiy pozitsiyasini belgilab berdi. Ariosophy fantaziyasi kelgusida vujudga keladigan elitarlik va tozalik, ming yillikning oltin millati mafkurasini shakllantirga yo'naltirildi. YAngi zamon davri milliy doktrinasining rivojlanishi qiziqtirgan. Amerikalik tarixchilar K. Xayes va G. Kon, britaniyalik g'oyalar tarixchilari E. Keduriva K. Minog hamda faylasuflar I. Berlin va Dj. Plamenats, shuningdek, Avstraliyalik g'oyalar tarixchisi YU. Kamenka mana shu yo'nalish vakillariga mansubdir. Ushbu yo'nalish vakillari ishlarining o'ziga xos jihati bularda Ikkinchi jahon urushi davrida evropacha va osiyocha tajovuzkor millatchilikni kuzatishdan kelib chiquvchi, tahliliy emas balki asosan me'yoriy ahamiyatga (g'arbiy/shimoliy, fuqarolik/etnik, siyosiy/madaniy, liberal/avtoritar, maqsadga munosiblik/ hissiylik va h.k.) ega bo'lgan ideal-tipik taqqoslashlarning ko'pligidir.

XX asr o'rtalarida mustamlakadan chiqish jarayonining avj olishi milliy qurilish modernizatsiyasi va konsepsiyasining turli nazariyalarini ("uchinchi jahon" mamlakatlarining "quvib etuvchi rivojlanish" jarayonida siyosiy va fuqarolik madaniyatini yaratish) ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy tadqiqotchilarni millatchilikni o'rganishga undadi. Amerikalik sotsiolog K. Doych millatchilikni an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tishda aholining tegishli safarbarligi va aloqasini ta'minlovchi ijtimoiy birlashuv vositasi deb hisoblagan. Britaniyalik ijtimoiy faylasuf E. Gellnerning tuzilmaviy-funksional yondashuvida millatchilik siyosiy qonunchilik tamoyili sifatida tushuniladi, bu tamoyilga binoan "siyosiy va milliy birlik mos kelishi lozim".

Millatchilik sanoatlashgan jamiyatning funksional ehtiyojlariga javob bera oladigan standartlashgan va bir turdagi milliy madaniyatni vujudga keltirdi. YAngi davlatlardagi milliy loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq qiyinchiklar tadqiqotchilarni ushbu muvaffaqiyatsizliklarni ko'rib chiqishga undadi. An'anaviy jihatdan "primordialistlarga" mansub bo'lgan K. Girs va U. Konnor umumiy kelib chiqish va qarindoshlik hislariga (bunday hislar "primordial" yoki "azaliy" nomini olgan) asoslangan shaxslarning millatga mansubligi va unga sodiqligi tushuniladigan (etno) millatchilikning "uchinchi dunyo" mamlakatlarida keng yoyilishini ko'rsatib berdilar. "Qarindoshlik" millatchilikda aniq emas balki tasavvurdagi xususiyatga ega bo'lganligi bois primordializm sub'ektiv ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ayni vaqtda ijtimoiy-biologik paradigma bilan bog'liq va primordialistcha qarashlarga tayanuvchi ayrim tadqiqotchilar (P. van den Berge i F. Rashton) millatchilikning

ob'ektiv biologik va irsiy kelib chiqqanligini isbotlashga urindilar. 1970-1980-yillarda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar rivojlanib borishi bilan tarixiy sotsiologlar va ijtimoiy tarixchilarmillatchilikni o'rganishga yaqinlasha boshladilar, butadqiqotchilar millatchilikning faqat O'ttiz yillik urushdan keyin shakllangan milliy davlatlamingevropacha tizimiga hamda bu tizim doirasidagi siyosiy byurokatiyaning faoliyatiga emas balki umuman dunyoviy tizimga bog'liq ekanini ko'rsatishga intildi. Bunday yondashuvning yorqin nomoyondalari M. Mann, S. Rokkan va CH. Tillidir. Bularga sotsiolog E. Giddens va tarixchi Dj. Broyilarning yondashuvlari yaqin turadi. Tadqiqotchilar T. Neyrn va M. Xekter notekis rivojlangan va "ichki mustamlakachilikka" ega bo'lgan milliy davlatlarda shakllangan millatchilikning vujudga kelishini izohlab berdilar. Britaniyalik tarixchilardan E. Xobsbaumning nuqtai nazariga ko'ra, millatchilik milliy davlat siyosatining oqibati emas balki uni yaratishga yo'naltirilgan va milliy an'analarni "ixtiro qilish" hamda ommaviy ishlab chiqarishga tayanuvchisiyosiy-mafkuraviy dastur edi. A.Smit esa millatchilikning etno ramziy konsepsiyasini rivojlanirib kelmoqda, u millatchilikni etnik jamoalardan meros bo'lib qolgan ramzlar va afsonalarning keng imkoniyatlariga tayanuvchi mafkuraviy harakat sifatida ko'rib chiqadi. Sovet ittifoqi tanazzulidan so'ng va YUGoslaviyada yuz bergan millatchilik to'liqlariga javob sifatida 1990 yillarda tabiiyki bu hodisaga tadqiqotchilarning qiziqishi orta boshladi. London iqtisodiyot maktabi qoshida Elatchilik va millatchilik tadqiqotlarining professional uyushmasi va "Millatlar va millatchilik" ixtisoslashgan jurnali tashkil etildi. Postkolonial (P. CHatterjdi, X. Baba), feministik (N. YUval-Devis, S. Uolbi) va adabiyotshunoslik (T. Brennan) nazariyalari bilan bog'liq yangicha usullar qo'llana boshladi va tadqiqotning yangi yo'nalishlari ishlab chiqila boshladi. Germaniyaning birlashuvi va Kanada hamda G'arbiy Evropa mamlakatlarida sub'millatchilik harakatlarining vujudga kelishi "liberal millatchilik" (M. Kanovan, U. Kimlika, N. Makkormik, A. Margalit, D. Miller, M. Mur, YU. Tamir) va "konstitutsiyaviy vatanparvarlik" (YU. Xabermas) muammolari bilan bog'liq ijtimoiy va siyosiy faylasuflar o'rtasida keskin bahslarni keltirib chiqardi. 1990-2000 yillarda millatchilikni mafkuraviy izohlashga maqsadga munosib tanlash nazariyasi vakillari (A. Azzi, Dj. Koulmen, X. Midvel, U. Pagano, R. Xardin, M. Xekter) keskin qarshi chiqa boshladilar, ular millatchilikda mafkuraning belgilovchi rolini rad etgan holda milliy jamoaviy harakatlardagi ayrim ishtirokchilarning hal qiluvchi ahamiyatini yoqlab chiqdilar. Bugungi kunda mazkur yondashuvning etarli darajada tanqidiy baholanmayotganligi millatchilik eng avvalo mafkuraviy hodisa deb hisoblovchi tadqiqotchilar oldiga bu yondoshuvning izohlash salohiyatlarini tahlildan o'tkazish vazifasini qo'ymoqda. SHunday qilib, millatchilik borasidagi aksariyat tadqiqotlarning asosiy mushkiloti mafkurani ommaga sezdirmay boshqarish vositasi sifatida cheklangan tushunishdan va millatning ikki konsepsiyasi zamonaviy nazariyasi ishlanmalariga e'tiborsizlikdan kelib chiqmoqda. 1) Millatchilikning yakka hukmronlik formatsiyasi vujudga kelishida "millat"ni anglatuvchi tushuncha bosh rolni o'ynaydi. "Millat"ni anglatuvchi "bekorchi" so'z "eskicha" va mustamlaka tartibotlarining qarama-qarshiligi asosidagi ijtimoiy hayotning geterogen sohasida tenglikning har xil silsilasi vujudga kelishiga imkon yaratadi. Millatchilik yakka hukmronligi qaror topgandan so'ng "millat" tushunchasi mavhum tushunchaga aylanadi va bu tushunchaga muayyan ma'noni qisman birlashtirish uchun turli mafkuralar (konservativ, liberal, sotsialistik) o'rtasidagi kurash sohasiga aylanadi. 2) Millatchilik asosida milliy mustaqillik doktrinasini "milliylashtirish" natijasida XVIII asr oxirida shakllangan milliy mustaqillik g'oyasi qaror topdi. Hozirgi zamonda shaxslar o'rtasidagi makondagi aloqalarga (makondagi umumiylik) asoslanuvchi hokimiyat manbai xalq ekanligi haqidagi g'oya avlodlar o'rtasidagi vaqtincha aloqalarni (tarixiy umumiylik) asoslash uchun qo'llaniladigan millat g'oyasi bilan to'ldiriladi. Millatchilikda millatni o'z "taqdirini" mustaqil siyosiy belgilashga da'vogar bo'lgan tarixiy xalq sifatidagi tasavvur vujudga keladi. 3) Millatchi sub'ektni ishlab chiqish va yaratishni belgilovchi millatchilik sub'ektlashtiruvida mafkuraviy interpeyasyiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Diskurs va sub'ekt o'rtasida aloqa o'matuvchi bu jarayon sinfiy hususiyatga ega emas va millatga nisbatan to'la mafkuraviy e'tiqodi bo'lgan millatchi sub'ektni yaratmaydi. Bo'sh ob'ektni to'la ramzlashtirishga layoqatsiz bo'lgan millatchi interpeyasyiya millatchilik fetishlari va fetishli marosimlar vujudga kelishini ko'zda tutadi. Millatchi sub'ekt fetishlar va marosimlarga nisbatan hissiy e'tiqodga ega, u bularga nisbatan to'la mafkuraviy ishonchga ega. Xullas, XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkab va ko'p ma'noli mafkuraviy hodisa sifatidagi millatchilikning o'ziga xosligini mulohazadan o'tkazish muammosini

dolzarblashtirib qo'yadi, shu asnoda reduksion izohlarga e'tibor bermaydi. Ikki asrdan ko'proq vaqt davomidagi millatchilik tarixi uni mutlaqo bir iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki boshqacha izohlovchi tamoyilga taqashning imkoni yo'qligidan dalolat bermoqda, chunki bunday holatda taklif etilayotgan izohlarning epistemologik qiymatini shubha ostiga qo'yuvchi ko'plab istisnolar vujudga keladi. Bunday holatlarda millatchilikni uning imkoniyatlari sharoitlarini tasvirlovchi hamda uning rivojlanishini belgilovchi mantiq nuqtai nazaridan ko'rib chiqish vazifasini qo'ygan va hodisaning o'zgarish "mohiyatini" ozmi ko'pmi to'liq darajada ifodalovchi ideal-tipik sxemalar yaratishdan bosh tortuvchi nazariyalar eng maqbul bo'lib chiqadi. Bu nazariyalarning farqli jihati millatchilikning mazmuniga emas balki shakliga alohida urg'u berishdan iboratdir.

Umuman olganda, millatchilik bir tomondan, boshqa millatlar bilan turli sohalaridagi o'zaro foydali munosabatlardan mahrum qilib, millatning ma'naviy qashshoqlashuviga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, jiddiy kelishmovchiliklarga zamin yaratadi. Millatchilik tuyg'ulari butun millatni qamrab olgan va davlat tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlangan hollarda esa u millatlararo munosabatlarning tarang holatda saqlanishiga, o'zaro ishonchsizlik tuyg'ularining ildiz otishiga, mavjud muammolarni hal etishning cho'zilib ketishiga va doimiy beqarorlik holatining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Millatchilik — shaxs yoki etnos ongining o'ziga xos holati va ijtimoiy-ruhiy jihatdan yo'naltirilgan oqim. Ana shu omillar zaminida millatchilik nazariyasi, mafkurasi va amaliyoti vujudga keladi. SHuning uchun har bir muayyan holatda millatchilik to'g'risida so'z yuritilar ekan, gap maishiy turmushdagi millatchilik yoki millatchilik mafkurasi to'g'risida borayotganini farqlash lozim. Maishiy turmushdagi millatchilik millat paydo bo'lganidan buyon SHarqda ham, G'arbda ham mavjud. Millatchilik mafkurasining mohiyatini o'z millatining boshqa millatlardan ustunligini e'tirof etish va targ'ib qilish tashkil etadi. SHuning uchun bosqinchilar millatchiligi bilan mazlumlar millatchiligini farqlash lozim. Mustamlakachilar va bosqinchilar millatchiligi boshqa xalqlarni asoratga solish uchun xizmat qilsa, mazlum xalqlar millatchiligi ularni ozodlikka olib chiqish uchun yo'naltiriladi. Millatchilik ekspansionizm, izolyasionizm, shovinizm, natsizm ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Millatchilik bir mamlakat doirasida turli qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi, xalqaro miqyosda esa, turli mamlakatlar xalqlari o'rtasiga nifoq soladi. Xalqaro qonunchilikka ko'ra, millatchilik inson huquqlarini cheklash va siyosiy jinoyat sifatida baholanadi.

1. Mustaqillik davrida millatlararo totuvlikning ta'minlanishi, milliy-madaniy markazlarning shakllanishi va rivojlanishi.

O'zbekiston o'zining ko'p asrlik tarixida qadim-qadimdan ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali mamlakat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Turli millat va dinga mansub millionlab kishilar o'z taqdirini va kelajaklarini O'zbekiston bilan bog'lab, bu qadimiy saxiy zaminda tinch-totuv yashamoqdalar"²⁴⁵. Bizga ma'lumki, ko'pmillatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng katta qadriyatimiz, bu — jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir²⁴⁶. SHu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kundagi yana bir muhim vazifa mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik g'oyasining doimiy ustuvor bo'lishini ta'minlash bilan bog'liq. Bunda insonparvar, adolatli, huquqiy jamiyat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz aholisi ongida har bir millatning o'z milliy madaniyati borligini, har bir etnos, etnik guruh dunyoda yagona ekanini, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, zinhor birini boshqasidan ustun qo'yish mumkin emasligini nazardan qochirish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Hozirgi global o'zgarishlar sharoitida dunyoning qaysi bir nuqtasiga nazar tashlamaylik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning milliy va millatlararo munosabatlarga bog'liqligi va aloqadorligini ko'ramiz. SHu boisdan bugungi kunda respublikamizdagi mavjud millatlararo totuvlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirish, mazkur jarayonga

²⁴⁵Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. —Тошкент: Ўзбекистон, 1995. — Б.175.

²⁴⁶Каримов И.А. Республика байнамилал маданият маркази ташкил этилганининг 10 йиллигига бағишланган тантанали мажлис қатнашчиларига табрик. // Каримов И.А. Ҳавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10-жилд.- Тошкент: Ўзбекистон, 2002.-Б.181.

salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etishga doir amaliy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish hamda takomillashtirib borish zaruriyati ortib bormoqda. Bunda respublikamizdagi etnik guruhlarining samarali faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, mazkur jarayonga globallashtirishning ta'sirini ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Zero, bugungi kunda nafaqat global tarmoqlarda balki xorijiy OAVda ham Markaziy Osiyo mintaqasidagi millatlararo munosabatlarni o'zgacha talqin qilish holatlari ham uchrayib turibdi. Bu axborot xurujining asosan tashqi siyosiy kuchlarning buyurtmasi bilan amalga oshirilayotgani hamda mintaqadagi millatlararo munosabatlarni keskinlashtirishga yo'naltirilayotgani mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki Markaziy Osiyo mintaqasida yashab kelayotgan xalqlar o'rtasida hech qachon o'zlariga tegishli hududning jo'g'rofiy o'limi borasida norozilik kayfiyati tug'ilmagan. Mahalliy xalqlarning asosiy qismini tarixan o'zlariga tegishli hududlarda yashab kelgan bo'lsa, ularning ma'lum qismi chegaralash natijasida tarixiy vatanlarining ma'muriy chegarasidan tashqarida qolib ketgan. O'zbekiston atrofidagi deyarli barcha chegara xududlarida turli millatga mansub mahalliy xalqlar birgalikda istiqomat qilib kelmoqda.

Bugun millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish bir davlat hududida kechadigan hodisalar emas, ular xalqaro, ayniqsa mintaqaviy ahamiyat kasb etadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, etnosiyosat milliy davlatlar tomonidan ishlab chiqilsa va amalga oshirilsa-da, u mudom xalqaro yoki mintaqaviy rezonans beradigan hodisaga aylanib bormoqda.

Millatlararo munosabatlar fuqarolik jamiyatini harakatga keltiradigan, unda inson huquq va erkinliklari amal qilishini ta'minlaydigan institutlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har bir institut faoliyati yoki hukumat qabul qiladigan qarorlar o'zidan-o'zi reallikka aylanmaydi. Agar jamiyat polietnik xususiyatlarga ega bo'lsa, undagi institutlar faoliyati qabul qilinadigan qarorlar millatlar va elatlar vakillarining diqqatini tortmay qolmaydi.

Demokratik jamiyat - bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. CHinakam demokratiyaning oliy mazmuni-shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borayotgan O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash va rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, millatlararo munosabatlarni ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan hal etish jahon xalqlarining, ayniqsa polietnik davlatlarning global muammolardan biridir. Angliyada Olster, Fransiyada Korsika, Ispaniyada Kataloniya, Italiyada Janubiy Tiroliya, Belgiyada Flamandiya, Xitoyda Uyg'ur avtonom tumani va Tibet, Bolgariyada turklar, Turkiyada kurdlar, Ukrainada Donetsk hamda Lugansk milliy nizolarga, ijtimoiy etnik to'qnashuvlarga sabab bo'lib keladi. Sobiq SSSR va sotsialistik lagerning tarqalishi bilan uning o'mida paydo bo'lgan mustaqil davlatlarda, ayniqsa YUGoslaviya, Ruminiya, Vengriya, CHexoslovakiya, Ukraina, Qirg'iziston, Gruzuyada millatlararo to'qnashuvlar avj oldi. Hattoki, eng rivojlangan AQSHdek davlatda ham milliy-etnik muammolar mutlaq hal etilmagan. O'z navbatida bugungi kunda global o'zgarishlar sharoitida yuzaga kelayotgan imkoniyatlardan foydalanishda turli davlatlar o'rtasida keskin tafovutlar ham uchrayib turibdi. Mazkur jarayon, avvalo, qudratli davlatlarga o'z geosiyosiy manfaatlarini qondirishda ulkan afzalliklarni yuzaga keltirmoqda. Bunday geosiyosiy manfaatlar esa iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga, nisbatan kam rivojlangan davlatlarning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlar tomonidan iqtisodiy asoratga solishiga omil bo'lmoqda. Oqibatda mazkur tendensiyadan norozilik kayfiyati millatlararo munosabatlar sovuqlashishiga ham olib kelmoqda. O'z navbatida iqtisodiy jihatdan qudratli millatlarning iqtisodiy dastaklar hamda OAV yordamida o'z qadriyatlar tizimini o'zga millatlar turmush tarziga singdirishga urinayotganligi, tabiiy ravishda, norozilik kayfiyatlarining, mazkur millat vakillariga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga zamin yaratib bermoqda.

Ikkinchidan, bugungi global taraqqiyot migratsion jarayonlarni kuchayishiga ham olib kelmoqda. Natijada, dunyo davlatlari tobora ko'pmillatli xarakter kasb etib bormoqda. Mazkur tendensiya, o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi murakkablashuviga, milliy munosabatlarda yangidan yangi muammolarning yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. SHuningdek, muayyan mamlakatlarda chet elliklarning haddan tashqari ko'payib ketishiga qarshi titul millatlarda o'z ustunligini saqlab qolish uchun favqulodda choralar qo'llash da'vatlari, millatchilik kayfiyatlarini kuchayishi kuzatilmog'da. YA'ni, global etnik munosabatlar tizimidagi uyg'unlashuv «bir xil odatlar, umumiy prinsiplar bo'yicha yashash, umumiy qadriyatlarga asoslanish, bir xil an'analarga va axloq normalariga bo'ysunish, qoidalarni birxillashtirishga intilish»²⁴⁷ muayyan millatlarning milliy turmush tarzi, milliy ma'naviyatlarining emirilishiga olib kelmoqda. Ushbu vaziyatda milliy o'zlikni saqlash instinkti, ko'p hollarda, milliy mahdudlikka, o'zga qadriyatlar tizimini yoppasiga, ko'r-ko'rona inkor etilishiga yoki milliy nigilizm kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

²⁴⁷Қобилов Ш. Глобализация и этнокультурная динамика. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2006. – Б.12.

Uchinchidan, millatlararo munosabatlarda o'zaro totuvlik va barqarorlikni mustahkamlash mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyat muhim omildir. Zero, jamiyat tomonidan uning parchalanishi va beqarorlashuvi uchun kuchli omil sifatida yuzaga keladigan millatlararo manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Millatlararo munosabatlardagi o'zaro tenglik, samimiylikka asoslangan totuvlik va diniy konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglik taraqqiyotimizning muhim omillaridan biri ekanligi xalqimiz ongi va qarashlarida shakllangan hamda hayotimizning real amaliyotiga aylanayotgan bir sharoitda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, XX asr oxirlarida sobiq Sovet tuzumining milliy masalabo'yicha olib borgan siyosatidagi xatolar, milliy manfaatlar borasidagi nohaqliklar oqibatida yuzaga kelgan parokandalik, turli Respublikalar singari mamlakatimizda ham sodir bo'layotgan edi. Lekin, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat rahbariyati olib borgan oqilona siyosat oqibatida tog'li Qorabog', Gruziya singari hududlarda sodir bo'lgan voqealar O'zbekistonda bo'lib o'tmadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat yashaydi. Bular esa birgalikda O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish yo'lida borayotgan ekanmiz, millatlar orasida totuvlikni maqsadli yo'lga qo'yishimiz darkor.

Beshinchidan, mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashovchi xalqlar, millatlar va elatlarda o'zligini anglash, o'zining etnomadaniyatini rivojlantirish, jahon xalqlari bilan integratsiyaga kirishib yashash imkoniyati paydo bo'ldi.²⁴⁸

O'zbekistonda milliy davlatchilikni rivojlantirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida chuqur ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Qisqa vaqt ichida mamlakatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish uchun sog'lom siyosiy muhit shakllandi.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pmillatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Milliy etnik jarayonlarning qulay rivoji jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etar ekan, har qanday mavjud tizimdagi rasmiy siyosat etnik barqarorlikning ta'minlanishi uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Chunki etnik barqarorlik siyosiy muvozanatning saqlanishida muhim o'rin tutsa, siyosiy barqarorlik esa iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning kafolatidir. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, «Ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda».²⁴⁹ Inson huquqlari va uning qadr-qimmatini etakchi o'rinda turgan demokratik davlatda millatlararo munosabatlar barqaror rivojlanadi. Millatlararo munosabatlar negizida esa har bir millatning o'zaro aloqalari jamiyatning etnik rivojini ta'minlaydi.

Demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlar rivojini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Birinchidan, millatlararo munosabatlar jamiyatning siyosiy-huquqiy barqarorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida etnik muvozanatni va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Ikkinchidan, jamiyatda har bir millatning urf-odat, an'ana, qadriyatlari singari o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, bu narsalar boshqalardan hurmat va e'tiborni talab etadi. Uchinchidan, jamiyatda ma'aviy dunyoqarashning pastligi ya'ni boshqa millatga nisbatan o'z millatini ustun qo'yish, o'zga urf-odat, madaniyat va an'analarni mensimastlik ham millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, fuqarolik jamiyatining istiqbolini ta'minlash uchun milliy madaniy markazlar va milliy tipdagi tashkilotlar faoliyatini umumdavlat va umumxalq manfaatlariga muvofiqlashtirish hamda ularni milliy biqlikdan umumtaraqqiyot tomon yo'naltirish lozim. Beshinchidan, demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlarda muvozanatni ta'minlashda har bir millatga xos etnopsixologiyani inobatga olish talab etiladi.

Millatlararo totuvlik – milliy bosh g'oyamizning asosiy tamoyili. Millatlararo totuvlik g'oyasi-milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik

²⁴⁸ Мусаев О. Муस्ताқил ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: “Ижод дунёси”, 2004. 11-18 б.

²⁴⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 69-70 б.

vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p yillarga mo'ljallangan ezgulik, ishonchlik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi. Bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub bo'lgan kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik kabi munosabatlarning mavjudligini va shunday munosabatlarni qaror toptirish, mustahkamlashga qaratilgan fikr – millatlararo totuvlik g'oyasining mazmun-mohiyatining muhim jihatini tashkil qiladi. Bu g'oya bo'yicha, milliy g'oyaviy va amaliy hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Diyorimizda asrlar davomida istiqomat qilib kelgan millat va elat vakillari o'rtasida milliy adovat kuzatilmaganligi, bu g'oyaning bir muhim tarixiy ildizidir.

Bu g'oya jamiyatimizda to'la-to'kis amal qilishi uchun, u zarur bo'lgan huquqiy qonunlar bilan ta'minlangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan beri yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning tarixi mufassal ko'rib chiqilsagina, millatlararo totuvlik g'oyasining naqadar chuqur va baquvvat tomirlari mavjudligiga amin bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Vaqti kelib, bu tomirlar to'g'risida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va qanchadan-qancha badiiy asarlar yoziladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyatimiz hayotida tutgan o'mi va ahamiyatini to'g'ri anglash uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining kamida uch ming yillik madaniy va ma'naviy tarixini yaxshi bilishimiz talab qilinadi. SHuni yaxshi anglashimiz kerakki, hozir bu g'oya jamiyatimizning barcha jabha va sohalarida uzul-kesil amal qilib kelishi tasodifiy bir hol emas, balki u zaruriy hodisa sifatida xalqimizning ongi va qalbida etishib, shakllanib, uning hayotida ming bor marta sinovlardan o'tib, durigavhardek baholanib va ma'qullanib kelgan.

Quyidagi fikrlarda biz bu o'zlikning ayrim muhim jihatlarini yoki boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g'oyasining tarixiy ildizlarini qisqa ko'rsatib o'tamiz, ya'ni:

a) Markaziy Osiyo hududida azaldan istiqomat qilib kelayotgan barcha millat va elatlar bir necha ming yillar davomida asosan bitta davlat miqyosida yonma-yon turib va birgalikda hayot uchun kurashib kelgan;

b) ularni faqat uzoq yo'llar va yo'l azoblari ajratib turgan bo'lsada, biroq ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy aloqalari va bir-biriga bo'lgan turli xildagi o'zaro ijobiy ta'sirlari tinimsiz davom etgan;

v) bu xalqlar ming-ming yillar davomida umumiy bosqinchilar tomonidan ularga o'tkazilgan sitam va azob-uqubatlarni birgalikda baham ko'rgan, birgalikda kurashib ozodlikka erishishga muvaffaq bo'lganlar;

g) Markaziy Osiyoda joylashgan respublikalarning har biridagi ko'pdan-ko'p yoki deyarli barcha qishloq va shaharlarida turli millat va elat vakillari bir-birlari bilan yon qo'shni va jon qo'shni, bir jon va bir tan bo'lib qudo-anda, tog'ali-jiyan, yoru birodar va boshqa turdagi yaqinliklar o'matilgani holda yashab kelganlar.

Qadimdan beri Markaziy Osiyo hududida yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning madaniy-ma'naviy birligi nihoyatda mustahkam va uning tarixiy tomirlari o'ta chuqurdir. Bu birlik shu qadar boy mazmunga egaki, uni to'laligicha ko'rsatish uchun, bir nechta kitoblar yozishga to'g'ri keladi. Biz bu birlikning eng umumiy va muhim tomonlariga e'tibor beramiz.

YUqorida ko'rsatilgan millat va elatlarning birligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan, ya'ni:

-bir qismi qon-qarindosh bo'lib ketganligida;

-tillari bir-biri hisobiga boyib borib juda ham yaqinlashib borganligida;

-urf-odatlar, udumlari, marosimlari, taomillari, yurish-turishlari, hayot tarzi va boshqalari ham juda o'xshash bo'lib ketganligida. SHu tufayli aytish mumkinki, ular uchun O'zbekiston nafaqat hududiy, iqtisodiy va siyosiy ma'nodagi Vatan, balki ularning umumiy urf-odatlar, an'analari, marosim va udumlari vatani hamdir (bu-etno-ma'naviy va mafkuraviy birliklardir);

-doimo asosan bir xil diniy e'tiqodga ega bo'lganligida;

-turli xildagi yaqinliklari - qo'ni-qo'shnichiligi, quda-andaligi, bir joyda faoliyat kechirishi, bir-birlarining tillarini o'zlashtirib olganligi va tashqi ko'rinishga ega bo'lishi hamda boshqalar, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan ko'p millatli ijtimoiy go'zallik va yuksak insoniylik muhiti shakllanganligida.

Sobiq Sovetlar davlati davrida millatlararo totuvlik g'oyasi internatsionalizm tushunchasi bilan almashtirilib, millatlararo munosabatlar sovet va marksistik ideologiyasi nuqtai nazaridan, hukmron millat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, tushuntirilar edi. Bu davlatdagi barcha millat va elatlarning birligi va totuvligi «sovet xalqi» degan nom bilan nomlanib, uning mazmunida hech qanday milliy ma'no, o'zlik mavjud bo'lmagan.

Faxr bilan ta'kidlashimiz kerakki, hozir diyorimizda millatlararo totuvlik g'oyasi milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalaridan biri sifatida davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida to'laonli amal qilishi uchun kerakli bo'lgan qonun-qoidalar qabul qilinmoqda va hokazo.

SHuni ham esdan chiqarmasligimiz lozimki, jahon miqyosida mafkuraviy ziddiyatlar keskinlashib, tahdidlar kuchayib borayotgan bir davrda Vatanimizda bu g'oyaning uzul-kesil amal qilib borishi barchaga ham ma'qul bo'lmoqda, deb bo'lmaydi. Ba'zi bir g'animlarimiz, millatlararo totuvlik g'oyasi Vatanimiz ravnaq topishining eng muhim omillaridan biri ekanligini juda yaxshi biladi va shuning uchun ham ular qanday bo'lmasin, jamiyatimizdagi millatlararo munosabatlarni buzishga va ularning o'rtasiga rahna solishga ming bor urinmoqdalar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning fikriga ko'ra «...g'animlarimizning asosiy niyati – O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun biz barpo etayotgan faravon va osuda hayotni buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarishdir»²⁵⁰. Islom Karimov o'zining asarlarida «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasini «O'zbekiston – muqaddas Vatan», «Turkiston – umumiy uyimiz», «Vatan – yagonadir, Vatan - bittadir», «O'zbekiston mening yagona va betakror Vatanim» kabi fikrlari bilan ham boyitdi.

Hozirgi kunda yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning o'rtasidagi mustahkam va sobit do'stlik, hamjihatlik va birdamlik, ahillik va xayrixohlik kabi boshqa ezgu munosabatlarning amal qilishi – jamiyatimiz taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylanib borayotganini ifixor bilan ta'kidlashimiz joizdir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz o'rinliki, millatlararo totuvlik g'oyasi sho'rolar tuzumi davrida aytilgan quruq balandparvoz gapdek bo'lmasdan, balki bugungi kunda xalqimizni, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarni yagona maqsad sari yanada birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi, jamiyatning tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlovchi, barchaning faoliyatiga onglilik va maqsadga muvofiqlik kirituvchi moddiy va ma'naviy kuchga aylanib bormoqda.

Mustaqillik davrida milliy milliy – madaniy markazlarining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Asrlar davomida bu erda o'zbeklar bilan yonma-yon tojiklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar va boshqa ko'pgina xalqlarning vakillari ahil va inoq

²⁵⁰И.А.Каримов. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжихатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ. Т.: «Ўзбекистон», 2004. 9-бет.

yashab kelishgan. SHuni aytish mumkinki, mamlakatimizning ko'pmillatligiga xalqimizning ochiqko'ngilligi va mehmondo'stligi ham sabab bo'lgan. Bu mintaqadan o'tgan Buyuk Ipak yo'li esa iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan. SHu o'rinda ayrim dalillarga murojaat qilamiz:

• 1897 yilda respublikamizning hozirgi hududida 70 millat vakili yashagan. 1927 yilga kelib 90 millat va elat vakili istiqomat qilgan. 1959 yilda 113 millat vakili ro'yxatga olingan. Bugun esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari bor. Mamlakat aholisi (2015 yil birinchi yarmida): 31 million 022 ming 500 kishi.

- SHundan 25 milliondan ortiq (81.8%) kishi o'zbeklar.
- 6 millionga yaqin (18.9%) kishi boshqa millatlar vakillari. Ulardan:
 - Tojiklar – 1,5 millionga yaqin (4.7%)
 - Ruslar – 1 millionga yaqin (3.3%)
 - Qozoqlar – 900 ming atrofida (3.1%)
 - Qoraqalpoqlar – 800 mingdan ko'proq (2.1%)
 - Tatarlar – 250 mingga yaqin (0.9%)
 - Qirg'izlar – 250 ming (0.9%)
 - Koreyslar – 150 ming atrofida (0.5%)
 - Turkmanlar – 165 mingdan ko'proq (0.6%)
 - Ukrainlar – 87 ming, ozarbayjonlar – 43 ming, armanlar – 40 ming, beloruslar – 21,5 ming, yahudiylar 11 ming, moldovanlar – 5,5 ming, nemislar - 5 mingdan ortiqroqdirlar.

Mamlakatimizda ana shunga asosan O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlar - Milliy-madaniy markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda yurtimizda 140 dan ziyod milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida 1992 yil yanvarda Respublika "Baynalmilal madaniyatlar markazi" tashkil etilgan. U jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an'analami ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilishga baholi qudrat o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tashkil etilayotgan ko'plab tadbirlar, konsert dasturlari, kechalar, festivallar, ko'rik-tanlovlar, konferensiyalar shular jumlasidandir. Masalan, "O'zbekiston — umumiy uyimiz", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Qudratimiz — birlik va hamjihatlikda" kabi shiorlar ostidagi festivallar ko'p millatli aholimizning chinakam do'stlik bayramiga aylanib ulgurgan, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Har yili milliy ayyomlarimiz ham markazimiz boshchiligida milliy madaniy markazlar bilan birgalikda munosib nishonlanmoqda. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan sanaga bag'ishlab hamda Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan ilmiy-amaliy konferensiyalar, uchrashuvlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Bular sirasiga milliy madaniyat kunlari, dekadalari, milliy bayramlarni ham kiritish mumkin.

Milliy-madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy-madaniy markazlarni muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni (1999y. 14 aprel)ga asoslangan holda tuziladi. Nizomi tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi yoki viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro'yxatga olinadi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

O'zbekiston rahbariyati aholining ko'pmillatligini hisobga olib, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlatimiz milliy siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan. Milliy siyosat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;
- Millatidan qat'iy nazar fuqarolarning qonun oldida tengligi;
- Davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xosliklarni hisobga olish;
- Millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik;
- Ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtirokini ta'minlash;

- Respublikada ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashmalari tuzilishi hamda ularning faoliyati taqiqlangan.

Dastlabki Milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat kursatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada Milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992 yil 10 ta Milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, 1995 yilda ularning soni 72 taga, 2003 yilga kelib esa 135 taga etdi. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar, tuman madaniy markazlaridan iborat.

Respublikada hozirgi paytda qator millatlar vakillaritomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda. 14 MMM respublika maqomiga ega. 31 koreyslar, 23 ruslar, 10 tojiklar, 9 qozoqlar, 9 tatarlar (3 ta tatar-boshqird MMMlari) tuzilgan. Ozarbayjonlar 8, turkmanlar 7 ta, krainlar va qirg'izlarda 6, turklarda va Evropa yahudiylarida 5 tadan MMM bor. Nemislar, polyaklar va armanlar 4 tadan, uyg'urlar va Buxoro yahudiylari 3tadan, beloruslar va qrim tatarlar 2 tadan, arablar, bolgarlar, boshqirdlar, greklar, gruzinlar, litvaliklar, qoraqalpoqlar, xitoylar va dunganlar 1 tadan MMM faoliyat olib boradi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi va MMM faollari orasida V. B. Pak (Xorazm viloyati koreys markazi faoli), O'zbekiston Xalq o'qituvchisi, rus markazi faoli S.Gerasimova kabi O'zbekiston Qahramonlari, 80 ga yaqin kishi "Do'stlik", "Mehnat shuhrati" ordenlari, "SHuhrat" medali, faxriy unvonlar, O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari kabi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Mukofotlanganlar qatorida 24 millat vakillari bor.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, bugun O'zbekiston televidenie va radiosida 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi. Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jumallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosiladi. O'rta va oliy ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar vakillari manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, xalqaro maydondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan xam bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. SHuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi. Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarga erishishda markazlar quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: musika va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr va rassomchilik san'ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o'yinlar turlarini o'rganish bo'yicha o'quv guruhlari va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi; milliy madaniyat, milliy til; milliy san'at turlari va milliy urf-odatlarni o'rganish va targ'ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni; xor va badiiy jamoalarni tashkil etadi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13 yanvar qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiklashtiradi²⁵¹.

Millatlararo totuvlilik - umumbashariy qadriyat. Er yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur.

²⁵¹ Қаранг: *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси*. 1-том. - Т.: 2000.

Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoklama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakillari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda, jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin. Bu masala bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida kadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalkimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida, «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi»,— deb ta'kidlanishi, «Fuqarolar saylov huquqdarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiyva milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqining berilishi belgilab qo'yilganligi ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

«O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan ushbu qoida ham hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Respublikamizda milliy-madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmiga aylangan 120 ga yaqin milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning dalilidir. Bundan buyon ham qo'lga kiritilgan yutuklarni yanada mustahkamlash, mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Jamiyatda millatlararo totuvlik barqaror bo'lishini ta'minlash yo'lidagi amaliy ishlar ma'naviy-ruhiy jarayonlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Ushbu jarayonga xos xususiyatlarga to'xtalishdan oldin metodologik ahamiyatga ega bir masalaga diqqatni qaratish lozim. Ma'lumki, ommaviy axborot vositalarida ham, ilmiy adabiyotlarda ham boshqa mamlakatlarda yashovchi turli millat va elat vakillarining o'z milliy davlatlariga bo'lgan munosabatlarini ifodalash uchun aksariyat hollarda «etnik vatan» yoki «tarixiy vatan» tushunchalari ishlatib kelinmoqda. Bu tushunchalarning to'g'riligini inkor etmagan holda, ularni o'rinsiz qo'llash hollari ham mavjudligini ta'kidlash zarur. Masalan, yurtimizda istiqomat qiluvchi tojiklar uchun Tojikiston, qirgizlar uchun Qirgiziston, qozoqlar uchun Qozog'iston, turkmanlar uchun Turkmaniston hech qachon etnik yoki tarixiy Vatan bo'la olmaydi. Bizningcha, «etnik vatan» va «tarixiy Vatan» tushunchalari deyarli bir xil mazmunga ega bo'lib, xalqning tarixan etnik birlik sifatida shakllangan hududini anglatadi. Nomlari zikr qilingan millatlarning bir qismi esa tarixan hozirgi O'zbekiston hududida yashab kelgan va bugungi kunda qo'shni davlatlarga nom berib siyosiy jihatdan uyushgan qismi bilan bog'liq holda yagona etnos sifatida rivoj topgan. Demak, ular tarixan shu hududda yashab, etnosning bir qismi sifatida shakllanganlar. SHunday ekan, yuqoridagiga o'xshash kabi holatlarni ifodalash uchun «etnosiyosiy vatan» tushunchasini ishlatish o'rinlidir. Zero, diaspora vakillarining u yoki bu mamlakatga bo'lgan kiziqish va intilishlari ushbu hududda etnosning katta yoki asosiy qismi yashayotgani bilan emas, balki ularning muayyan davlat birligiga uyushgani bilan belgilanadi. Kishilarning etnik (tarixiy) Vatanga intilishlari ham aksariyat hollarda aynan milliy davlatchilikning mavjudligi va shundan kelib chiqadigan imkoniyatlarning kengligi bilan bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, etnik(tarixiy) Vatani qaerda bo'lishidan qat'i nazar, fuqarolarimizda «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'u qaror topganini bugungi kunda kechayotgan ma'naviy-ruhiy jarayonlarning asosiy xususiyati sifatida qayd etish lozim.

2. Diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi va diniy qadriyatlarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni

Diniy bag‘rikenglik bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfiy, vijdon va e‘tiqod vujudga keltiradi. O‘zbekistonning jo‘g‘rofiy jihatdan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy hamkorlik qilib kelgani erli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan va o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Millati va diniy qarashlaridan qat‘iy nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg‘ular xalqimizning nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy, balki diniy bag‘rikengligining ma‘naviy asosini tashkil qiladi.

Bugun ham O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va dinlararo muloqot borasida butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butun rus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya Qirolligi SHahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta‘kidlab o‘tishgan. Turli dinlarning yonma-yan yashashi, fuqarolarda diniy bag‘rikenglik his-tuyg‘ularinig shakllanishi muhimligini ajdodlarimiz yaxshi anglaganlar. O‘zbekiston hududida islomgacha zardushtiylik bilan birga buddaviylik, xristianlik, yaxudolik, moniylik, otashparastlik, sehrgarlik, havoriylik kabi dinlarga e‘tiqod qiluvchilar murosayu madora bilan yashab kelganlar. Markaziy Osiyo mintaqasida diniy e‘tiqod egalarining to‘qnashuvi, urushi bo‘lmagani tasodifiy emas. Islom diniga e‘tiqod mustahkamlangan sharoitlarda ham taraqqiyparvar ulamolar, siyosatchilar, davlat arboblari diniy zaminda janjallar chiqishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Qur‘oni Karim “Baqara” surasining 276-oyatidagi “dinda zo‘rluk yo‘q” degan qoida ular uchun dasturulamal bo‘lgan. CHor Rossiyasi hukumati XVI asr oxiridan qadimiy udumchilarni quvg‘in qilganda, ularning ko‘pi O‘zbekistonga qochib kelib yashagan. XIX asrning 40 yillarida mennonitlar – nemislar chorizm ta‘qibidan qochib, Xivaga joylashganlar. Markaziy Osiyoda diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalangan bobokolonimiz Amir Temur barcha mamlakatlarda diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilib qolmasdan, balki uni amalda namoyon bo‘lish ishiga bosh-qosh bo‘lgan.

Bobur va Boburiylar ham Hindistonda vijdon erkinligini amalda namoyon qildilar va shu siyosatni yurgizdilar. Diniy e‘tiqod tufayli fuqarolar o‘rtasida janjallar chiqishi mumkin emasligi, bu barcha dinlarning muqaddas kitoblari mazmun-mohiyatidan kelib chiqishini mafkuraning asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgiladilar.

XVIII asrda fransuz ma‘rifatparvarlari vijdon erkinligi tushunchasiga falsafiy ma‘no berib, uni fuqarolar erkinligining tarkibiy qismi ekanini isbotladilar. SHundan so‘ng, bu g‘oya G‘arbiy Ovro‘pa mamlakatlariga yoyilib, asta-sekin davlatlar Konstitutsiyalarida o‘z o‘miga ega bo‘ldi, demokratik davlatlar dinga munosabatining huquqiy sohasiga aylandi. Demak, vijdon erkinligi aslida inson huquqlarini va erkinligining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga molikdir. U har bir jamiyatda yashaydigan turli millat, elat va e‘tiqod egalarining hamnafas bo‘lib yashashi uchun huquqiy kafolatdir. Vijdon erkinligi dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan turli yo‘nalishdagi imon-e‘tiqod egalari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida vijdon erkinligiga doir moddalar hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatinihar bir fuqaro, ayniqsa, boshqaruv tizimida ishlayotgan barcha kishilar hamda ruhoniylar bilib olishlari, unga qat‘iy amal qilishlari ijtimoiy zaruratdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” deyilgan. Demak, fuqarolar o‘z vijdoni amr qilgan xohlagan dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmasliklari mumkin. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

to'g'risidagi qonunga binoan, hozir O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya, jumladan islom, xristian, yahudiylk va boshqa dinlar vakillari ahil-inoq, tinch-totuv yashab, o'zlarining diniy e'tiqod amallarini erkin ado etib kelmoqdalar. Respublikada 2250 dan ortiq diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo, Evangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, Rim katolik cherkovi, to'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 2000 ga yaqin masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta baxoiylar jamoasi, 2 ta krishnani anglash jamiyati va 13 diniy o'quv yurti, (1 ta islom ma'xadi, 10 madrasa va 1 provaslav va 1 ta to'liq injil xristian seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davomida barcha sohalarida erishgan yutuqlarini butun dunyoga namoyon qila olmoqda. Buni dunyo hamjamiyati vakillarining e'tirofidan ham bilsa bo'ladi.

O'zbekistonni xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi 2007 yilda Islom Konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi (ISESCO) tomonidan 2007 yilda Toshkent shahrini islom madaniyati poytaxti deb elon qilinishida ayniqsa yaqqolroq namoyon bo'ldi.

SHu munosabat bilan 2007 yil 14-15 avgustda O'zbekistonda o'tkazilgan xalqaro anjumanda ishtirok etgan xorijlik mehmonlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar borasida muhim fikrlarni bildirganlar. Jumladan, Tunisdagi Zaytuna universiteti rektori Salim Buvahiy fikriga ko'ra "O'zbek zaminida etishib chiqqan ulamolar islom madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shganini butun islom olami e'tirof etadi. Imom al-Buxoriy, Abu Lays Samarqandiy, Imom at-Termiziy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlarning boy merosidan butun dunyo ahli asrlar osha bahramand bo'lib kelmoqda".

Pokistonning Islomobod arab tilidagi qo'lyozmalar markazi direktori Ahmad Xon O'zbekistonga nisbatan shunday iliq so'zlarni izhor etadi: "Istiqlol yillarida mamlakatingiz rahbari tomonidan ajdodlaringiz qoldirgan ilmiy-ma'naviy, noyob va boy merosni asrab-avaylash, o'rganish va targ'ib qilish hamda kelgusi avlodlarga etkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga havas qilsa arziydi. Toshkent konferensiyasida Imom al-Buxoriy ijodi va faoliyati, u qoldirgan boy merosni Pokistonda o'rganish va targ'ib qilishga oid mavzudagi ma'ruza bilan ishtirok etish niyatidaman".

Birlashgan Arab Amirliklari appelyasiya sudi sudyasi Hasan Abdulg'affor al-Homidiy ilk taassurotlarini shunday bayon qildi: "ISESCO tomonidan Toshkentning 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi xalqaro miqyosdagi juda katta adolatli ish bo'ldi. Zero, poytaxtingizning, butun O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Bu muqaddas zaminda islom madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab buyuk siymolar etishib chiqqan. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhonuddin Marg'inoniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' mutafakkirlar qoldirgan bebaho meros asrlar osha insoniyat tafakkurining rivojiga xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston qadimiy yodgorliklar, muqaddas ziyoratgohlar va tarixiy obidalarga juda boyligi bilan ham dunyoga mashhur".

Quvayt xalqaro xayriya jamg'armasi va Osiyo musulmonlari qo'mitasi ijrochi direktori Abdurahmon Avoziy quyidagi fikrlarni bildiradi: "O'zbekistonga ilk bor kelgan bo'lsam-da, mamlakatingiz tarixi va madaniyatiga oid ko'plab kitoblarni o'qiganman. YUrtingizda din, madaniyat, ilm-fan va ta'lim kabi ko'plab sohalar istiqloq yillarida izchil ravnaq topayotganidan boxabarman. ISESCO tomonidan Toshkentning 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi biz, quvaytliklarni ham nihoyatda quvontirdi. Bosh kentingiz bunday sharaflini unvonga munosibdir.

Toshkent konferensiyasiga tashrif buyurganimizdan asosiy maqsad dunyoning ko'plab mamlakatlaridan bu anjumanga keladigan islomshunos olimlar bilan yaqindan tanishish, ular bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yishdan iborat. Islom dini tinchlik, ezgulik, salomatlik, o'zaro mehr-oqibat dinidir. SHu bois mamlakatingizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidlamochim. O'zbekiston bilan Quvayt o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanmoqda. Quvaytda O'zbekiston madaniyatiga va tarixiga qiziqish juda katta. Quvaytliklar o'zbek zaminida tug'ilib o'sgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhonuddin Marg'inoniy kabi buyuk allomalarning hayoti va ijodini, asarlarini katta qiziqish bilan o'rganadilar."

"Al-Alamiya" gazetasi bosh muharriri Saloh G'adr Sajid Sulton fikriga ko'ra "O'zbekistonga joriy yilning iyun oyidagi tashrifim chog'ida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi go'zal shaharlardagi ko'plab me'moriy obidalarni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'lgan edim. YUrtingizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ajdodlaringizning boy merosini o'rganish, targ'ib qilish, madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va

asrab-avaylash, ta'lim, fan va madaniyat kabi sohalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z samaralarini berayotgani tahsinga loyiq.

O'zbekistondan, ayniqsa, ta'lim sohasida o'mak olsa arzigulik jihatlar juda ko'p. YUrtingizga avvalgi tashrifim chog'ida Hazrati Usmon (r.a.)dan yodgor – Qur'oni Karimning noyob qo'lyozma nusxasi – “Usmon Mushafi”ni ziyorat qilish sharafiga muyassar bo'lgan edim. SHuni ta'kidlamogchimanki, “Al-Alamiya” gazetasida O'zbekiston haqida ko'plab maqolalar chop etganman va bundan keyin ham ushbu go'zal diyordan olgan taassurotlarimni arab ahliga matbuot orqali etkazishini o'z burchim, deb bilaman. Go'zal Toshkent azaldan islom madaniyati poytaxti bo'lib kelgan va doim shunday bo'lib qolishiga aminman”.

YAponiyaning Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari instituti ijrochi direktori Tetsuji Tanaka: “SHunday yirik xalqaro anjumanda ishtirok etish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi. O'zbekistonda Prezident Islom Karimov rahnamoligida qadimiy obida va me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, tiklash va ta'mirlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli xayrli ishlar tahsinga loyiqdir. Ikki oy avval yurtingizga kelganimda “Hazrati Imom” majmuini ziyorat qilgan edim. Qisqa fursat ichida yangidan bunyod etilgan ushbu majmua menda nihoyatda katta taassurot qoldirdi. ISESCO tomonidan Toshkentning 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi mamlakatingizda istiqloq yillarida milliy-madaniy qadriyatlarni tiklash borasida qilingan betimsol ishlarning, islom madaniyati rivojiga ajdodlaringiz qo'shgan ulkan hissaning xalqaro e'tirofidir.

Tokio jamg'armasining katta tadqiqotchisi, YAqin SHarq va islom masalalari bo'yicha mutaxassis YOshiaki Sasaki: “O'zbekiston jahon ilm-fani va islom madaniyati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhonuddin Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi buyuk siymolari, qadimiy me'moriy yodgorliklari, tarixiy obidalari bilan dunyoga mashhur. YAponiyada islom diniga e'tiqod qiluvchilar Imom al-Buxoriy to'plagan hadislarni katta qiziqish bilan o'qib-o'rganadilar.

YAponiya Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Kelgusida o'zaro aloqalarimiz barcha sohada yanada ravnaq topishiga ishonaman”.

O'zbekiston mustaqillik davrida jamiyat hayotining barcha sohalarida erishgan yutuqlarning xorijlik mutaxassislar tomonidan e'tirofiga doir misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin buning uchun bitta kitob sahifasi etarli emas.

Mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab yurtimizda dinlararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmogda. Mamlakatimizda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun qabul qilinib, diniy bag'rikenglik fuqarolar totuvligining muhim omillaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida din mavzuida qator simpoziumlar, chunonchi, muhim sanalar, butun dunyoga mashhur mutafakkir allomalarimizning yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazildi.

Islom dinining boy merosini chuqur o'rganish maqsadida 1995 yil Toshkentda Islom tadqiqotlari xalqaro markazi tashkil etildi. 1999 yil aprelida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Toshkent islom universitetini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. 2007 yilda ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi xalqaro Aysesko tashkiloti tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti, degan yuksak nomga sazovor bo'ldi. Toshkent shahridagi Xazrati imom majmuasi, Toshkent islom universitetida qisqa vaqt davomida amalga oshirilganishlar yana bir karra o'zbek xalqining bunyodkorlik salohiyatini butun dunyoga namoyon etdi.

Ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallar, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ulami barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, miliy ma'naviyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlarni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda Qur'on (uch marta), Qadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to'raligicha o'zbek tiliga o'g'irilib, nashr etildi.

2004 yil 21 dekabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasida Respublika Ko'rlar jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan Brayl yozuvidagi Qur'oni karim kitobi taqdimot marosimi o'tkazildi. O'zbekiston mazkur xayrli amaliyotni amalga oshirgan jahonning uchinchi mamlakati bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 24 mingga yaqin ko'zi ojizlar istiqomat qilmoqda. Endilikda maxsus maktab-internatlar, kutubxonalar hamda barcha istak bildirganlar mazkur Qur'ondan foydalanishlari mumkin.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Vijdon erkinligi huquqi BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1981 yil 25 noyabrda qabul qilingan 36-55-son Rezolyusiyasida belgilangan insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb qayd etilgan.

Vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismidir; u fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqligi, barcha diniy konfessiyalarning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyat yo'qligi, diniy idora ishlariga davlatning aralashmasligi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini ifoda etadi. Vijdon erkinligi dindorlarning diniy his-tuyg'ularini haqoratlamagan holda diniy mutaassiblik, jaholatparastlik, da'vat va nizoga, ekstremizmga, qonuniy davlatga qarshi diniy partiya, jamoa, uyushma, harakat va jamg'armalar tuzilishiga qarshi tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish erkinligini ham kafolatlaydi. Mazkur qonunning 1- va 4-moddalari fuqarolar o'zlarining dinga bo'lgan munosabatini erkin belgilash, marosim va udumlarni bajarish hamda qonun oldida barchaning dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar tengligiga kafolat beradi. O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, shuningdek, kuch ishlatishni targ'ibot qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga qaratilgan harakatlar man etiladi. Rasmiy (qonuniy) maqomga ega diniy tashkilotlarning dinni targ'ib etishda OAV va matbuotdan foydalanish erkinligi ham qonun doirasida kafolatlanadi. Masalan, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi o'z gazeta va jumallariga, nashriyot va kutubxonasiga ega bo'lib, ularni tarqatishda aloqa muassasalaridan bimalol foydalanmoqda. Hozirgi davrda mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya – uyushma mavjud bo'lib, bularning eng yiriklari islom, pravoslav va yahudiylikdir. Ular ixtiyorida masjidlar, madrasalar, sinagogalar, cherkovlar, jurnal va gazetalar bor.

Bugun O'zbekiston musulmonlaridanminglab fuqarolar haj ziyoratiga, umra safariga bimalol borib kelmoqdalar. Barcha fuqarolar uchun Vijdon erkinligi talablari va tamoyillarini amalga oshirish imkoni to'la ta'minlanib, u jamiyatimiz ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "So'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqod erkinligini ta'minlashimiz kerak. Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko'zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz"²⁵². BMT Nizomidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning Konstitutsiyasi va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston davlatining din sohasidagi siyosati ana shu deklaratsiyaning asosiy tamoyillariga mos tushadi. Dunyoviy davlatimizning din sohasidagi siyosati turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini nazarda tutadi. Davlat qonunlarida diniy e'tiqod har kimning xususiy ishi deb belgilangan. Ayni vaqtda "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy

²⁵² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 79-б.

birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi” (61-modda). Asosiy qonunimiz O‘zbekiston fuqarosini millati, irqi, jinsi va dinidan qat’i nazar, teng huquqli deb biladi, shuningdek, o‘z e’tiqodini erkin namoyon etish, ibodat qilish, urf-odatlar va milliy an’analarini davom ettirish va ularni hurmat qilishni kafolatlaydi. Konstitutsiyada belgilangan ushbu qoidalar 1998 yilda O‘zR Oliy Majlisining 11-sessiyasida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrir) Qonunda yanada kengroq ifodasini topdi. Ushbu qonuniy hujjatlarda belgilangan qoidalar dunyoviy demokratik davlatning dinga munosabatini aks ettiradi. Zero, O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin barpo etilgan milliy davlatbu – dunyoviy xarakterdagi davlatdir.

Diniy qadriyatlarni hurmatlash. Er kurrasida eng ko‘p tarqalgan, jahon xalqlarining asosiy qismi e’tiqod qiluvchi va jahon dinlari deb tan olingan dinlar: buddaviylik xristianlik va islom dinidir. Din inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi murakkab ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalarni ham bajaradi. Xususan, u aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan baxramand qilishga xizmat qiladi. Ayni paytda, har bir din turli urf-odat, marosim va bayramlar yordamida o‘z qavmi turmushini tartibga solish, nazorat qilishga ham xizmat qiladi. SHu bilan birga, dinda qabul qilingan urf-odatlaming unga e’tiqod qiluvchilar tomonidan o‘z vaqtida amal qilib borilishi ham shart qilib qo‘yilishini ta’kidlash zarur. Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) – xilma-xil diniy e’tiqodida bo‘lgan kishilarning olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g‘oya ezgulik yo‘lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a’zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag‘rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qadimdan diyorumizda buddaviylik zardushtiylik nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko‘rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub xalqlar, qavmlar o‘z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og‘ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo‘lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag‘rikenglik borasida katta tajribaga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Hozirda mamlakatimizda o‘n olti konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularga o‘z diniy marosimlarini o‘tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunda mustahkamlab qo‘yilgan.

Ma’lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko‘ra, ezgulik g‘oyasiga asoslanadi va tinchlik yaxshilik, do‘stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni xalollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo‘lish, doimo yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratligini ta’kidlaydi. SHunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag‘rikenglik yotadi.

Butungi globallashuv tendensiyalari turli sohalarda tobora avj olayotgan, natijada u yoki bu hududda etakchi mavqega ega bo‘lish uchun goh yashirin va goh ochiqchasiga mafkuraviy, ayrim hududlarda geosiyosiy, geostrategik manfaatlar o‘zaro to‘qnashayotgan, bir-birlari bilan ziddiyatga kirishayotgan davrda diniy g‘oyalardan foydalanish ham ba’zi siyosiy «o‘yinchi»lar uchun asosiy omillardan biri deb qaralmoqda. Ayniqsa, ayrim mintaqalarda islom dinidan foydalanishga urinish keng avj olmoqda.

Bugun mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari demokratik jamiyat qurish yo‘lidan jadal odimlab borishmoqda. Biroq buni istamayotgan xorijiy siyosiy kuchlar xalqlar o‘rtasiga nifoq solish, turli ekstremistik, buzg‘unchi g‘oyalarni bayroq qilib olib mintaqaviy birlik va hamjihatlikka putur etkazishga, islom

diniga azaliy xos bo'lgan bag'rikenglik, hamjihatlik, ezgulik kabi qadriyatlarga zid xatti-harakatlarni amalga oshirishga intilmoqdalar. Bu ijtimoiy taraqqiyot va demokratlashirish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Diniy bag'rikenglik, ya'ni nafaqat boshqa diniy konfessiya vakillariga nisbatan sabr-bardoshli bo'lish, balki diniy e'tiqod erkinligiga huquqiy jihatdan ega o'z vatandoshlariga nisbatan ham bag'rikeng, sabr-kanoatli bo'lish demokratok jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Demokratok davlat aynan shunday tamoyilga tayanadi, diniy e'tiqod erkinligini kafolatlaydi. Diniy va milliy bag'rikenglik demokratok davlat va jamiyatning muhim talabi ekanining yana bir muhim jihati shundaki, bag'rikenglik fuqarolararo totuvlikni ta'minlaydi, jamiyatda tabiiy ravishda uchraydigan ijtimoiy farqlarning keskinlashuviga, ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Birinchi Prezidenti Islom Karimov shu munosabat bilan milliy g'oyamiz salohiyatidan to'laroq foydalanish zarurligini ta'kidlar ekan: «Milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi boskichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan etuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat»²⁵³, — deb yozadi.

Diniy bag'rikenglik demokratik davlat qurish uchun, demokratik ijtimoiy muhitni shakllantirish uchun ham nihoyatda zarur. Diniy bag'rikenglik mazmun-mohiyatining o'zi fuqarolar o'rtasida o'zaro tenglik, hamkorlik va hamjihatlik munosabatlari bo'lishini taqozo etadi. Buni «diniy bag'rikenglik» atamasiga berilgan ta'rifdan ham bilsa bo'ladi. «Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati»da «diniy bag'rikenglik»ka qo'yidagicha ta'rif berilgan: «xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi»²⁵⁴. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir, deb baho beriladi.

Bag'rikenglik din uchun, diniy e'tiqod erkinligi uchun tabiatan xos xususiyat. Mamlakatimizda demokratizm tamoyili aynan shu paradigmaga asoslanadi. Bunga binoan, islom diniy e'tiqodi tabiatan va tarixan erkin e'tiqod. Ushbu holat islom dinining muqaddas manbai – Qur'oni karimda g'oyaviy jihatdan mustahkamlangan. Xususan, «YUnus» surasining 99-oyatida shunday deyilgan: «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Er (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo'lur edilar. Bas, Siz odamlarni mo'min bo'lishlariga majbur kilasizmi?!»²⁵⁵ Ushbu oyat islom dinining asl moxiyati tolerantliq ya'ni diniy bag'rikenglikka asoslanishi, e'tiqod erkinligi islomda ustuvor ekanini isbotlaydi. Islomga majburan, jazo yo'li bilan kiritish kat'iyanan man kilinadi. Bunga «Nahl» surasining 125-oyati ham asos bo'ladi: («Ey, Muhammad!) Rabbingizning yo'li(dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da'vat eting! Ular bilan eng go'zal uslubda munozara qiling!»⁴

Ushbu oyatlar mazmuni kishini diniy ekstremizmning islom diniga batamom zid bo'lgan zo'ravonlik mohiyatini anglashga, diniy bag'rikenglik odamoxunlik, ya'ni insonparvarlik tomon yuz tutishiga olib keladi. Din haqida yuzaki tasavvur va bilimga ega bo'lgan kishi esa, aksincha, jaholat botqog'iga botadi, manfur siyosiy maqsadlarni ko'zlab sodda kishilarni yo'ldan uruvchi «da'vatchi» unsurlarga aldanadi. «G'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat» shiorining asl mazmuni kishilarga, jamiyatga to'g'ri yo'l ko'rsatish, uni ekstremizm yo'lidagi fojialardan qutkarishdir. Islom dini shunday bag'rikenglikni targ'ib qiladiki, unga ko'ra inson biron bir jonzotga zarar etkazmasligi darkor. Bu g'oyani Qur'oni karimning «Moida» surasida uchramiz. Ushbu

²⁵³ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. Б.75.

²⁵⁴ Қаранг: Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: Академия, 2007. Б. 136.

²⁵⁵ Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: «Тошкент ислом университети», 2006. Б. 220.

suraning 32-oyatida: «Biror jonni o'ldirmagan va yoki Erda (buzg'unchilik va qarokchilik kabi) fasod ishlarini qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir. Unga hayot baxsh etgan (o'limdan qutqarib qolgan) odam esa barcha odamlarni tiriltirgan kabidir»²⁵⁶, deyilgan.

Bir so'z bilan ifodalaganda, diniy ma'rifat va bag'rikenglikni rivojlantirish demokratik, ochiq jamiyatni shakllantirish uchun g'oyaviy asos bo'ladi, hech qanday ekstremizm va terrorizmga o'rin qoldirmaydi. CHunki bunday sharoitda diniy ekstremizm va terrorizm uchun ma'naviy asos, baza yo'qoladi, jamiyatda sog'lom ma'naviy-g'oyaviy muhit qaror topadi. Bu borada mamlakatimizda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning katta ahamiyati bor.

Turli konfessiyalarning teng xuquqligi. O'zbekiston ko'pkonfessiyali mamlakat hisoblanadi. 130 dan ortiq millatga mansub 31 milliondan ziyod aholi 16 ta diniy konfessiyaga e'tiqod qiladi. Istiqolning ilk kunlaridan boshlab, respublikamizda e'tiqod erkinligi qonun an kafolatlandi, diniy an'ana va qadriyatlar rivojlanishi uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratila boshlandi. Bugungi kunga kelib, yurtimizda 2200 dan ziyod diniy tashkilot rasman faoliyat yuritadi. Yildan-yilga aholi, jumladan, yoshlar o'rtasida milliy o'zlikni anglash, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy kamolotga intilish hissi muntazam o'sib bormoqda. Odatda, jamiyatda tinchlik-osoyshtaliq barqaror va izchil taraqqiyotni ta'minlashda turli dinlarga mansub aholi o'rtasidagi totuvlik, hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda respublikamiz ijtimoiy-siyosiy barqarorlik dinlararo va millatlararo totuvlik buyicha dunyodagi 230 ga yaqin mamlakat ichida etakchi o'rinda turadi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. SHunday ekan, «yurtimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida totuvlikni, fuqarolararo ahillikni ko'z qorachiqiday asrash, yaqin va uzoq qo'shnilarimiz bilan hamkorlik va hamjihatlikda yashash, jamiyatimizda mehr-oqibat, sahovat va bag'rikenglik muhitini yanada kuchaytirish har birimizning muhim vazifamiz bo'lib qolishi zarur»²⁵⁷.

Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik konfessiyalararo do'stlikni, fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar qonunoldida tengligini ta'minlash, ular o'rtasida nizo yoki kelishmovchilik kelib chiqishining oldini olish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, hayotning o'zi bizga turli millat, e'tiqod va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat hukm surgan sharoitdagina umumiy xonadonimiz, umumiy kelajagimiz va farzandlarimiz kelajagini qurish mumkinligini ko'rsatib turibdi»²⁵⁸. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi **31-moddasiga** binoan, hamma uchun vijdon, imon-e'tiqod erkinligi kafolatlanadi, shu bilan birga, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Konstitutsiyamizning **20-moddasida** shunday deyiladi: «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatleri, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasligi shart»²⁵⁹. YA'ni, har bir fuqaro unga berilgan huquq va erkinliklar, jumladan, e'tiqod erkinligidan foydalanishda mamlakat tinchligi, dinlararo totuvlikka, millatlararo ahillikka zarar keltirmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi Konstitutsion Konuning **4-moddasida** aytilishicha, barcha fuqarolar dinga munosabatidan qati nazar qonunoldida teng bo'lib, biror shaxs diniy e'tiqodini ro'kach qilgan holda qonundan chetga chiqishi mumkin emas. Ushbu Qonunning 5-moddasiga ko'ra: «Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'matilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-

²⁵⁶ Қаранг: Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: «Тошкент ислом университети, 2006.

²⁵⁷ Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийтимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Т.: Ўзбекистон, 2008. Б. 60-61.

²⁵⁸ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 206.

²⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Б. 6.

qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi». Ko'rinib turibdiki, agar har bir O'zbekistonlik mazkur huquqiy asoslarga to'liq amal qilsa, boshqalarni ham shunga chaqirsa, diyorumizdagi tinchlik-osoyishtalik mustahkamlanaveradi, barqaror rivojlanish bir maromda davom etaveradi.

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab, Vatanimizni yanada ravnaq toptirish yo'lida mehnat qilib kelishmoqda. Ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishlari, qiziqish va layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, an'ana hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi, qadr topdi. SHuningdek, asosiy Qonunimizda ham boshqa millat vakillarining haq-huquqlari kafolatlangan, jumladan: "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" (4-modda). Mustaqil va mustahkam, aholining turli qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan fuqarolik institutlarini shakllantirish, ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarga echim topishda ularning rolini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy faolligini kuchaytirishda davlatimiz rahbarining O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishga oid chora-tadbirlarga doir qarori muhim poydevor bo'ldi. Unda jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, NNT rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ularning faoliyat doirasini kengaytirish jarayonlarini chuqurlashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Mamlakatimizning barqaror rivojlanishi va ravnaq topishi, dunyoning rivojlangan demokratik davlatlari qatoridan o'rin egallashi, ko'p millatli xalqimiz farovonligini oshirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmish fuqarolik institutlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish, hech mubolag'asiz, mamlakatimizni demokratlashtirish, uning jahonhamjamiyatiga integratsiyalashuvi, jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, barqarorlikni ta'minlash bo'yicha oldimizga qo'yilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarishning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

3. Jamoatchilik nazoratining mohiyati

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan yoki jamoatchilik nazorati etarli darajada kuchga ega bo'lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin. SHuning uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida jamoatchilik nazoratining mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvida ishtirok etishlarining muhim vositasi ekani e'tirof etilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunni qabul qilish zarurligi alohida ta'kidlandi: "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi."¹

Jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalarini tahlil qilishdan avval "jamoatchilik nazorati" tushunchasining turdosh tushunchalar bilan umumiy jihatlari va tafovutlarini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda matbuotda va ilmiy adabiyotlarda "jamoatchilik nazorati", "ijtimoiy

nazorat”, “fuqarolik nazorati” kabi atamalar ishlatilmoqda. Tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur atamalar ko‘pincha sinonim sifatida va ba‘zan noo‘rin qo‘llanilmoqda.

“Jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari bir-biriga juda yaqinday tuyuladi. Aslida ular o‘rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda jiddiy tafovutlar ham mavjud. Ular o‘rtasidagi tafovutlar avvalo shundan iboratki, harbiy yuristlarning fikriga ko‘ra, fuqarolik nazorati armiya faoliyati ustidan jamoat tashkilotlari olib borayotgan nazoratni anglatadi. Masalan, bizning mamlakatimizda Mudofaa vazirligi qoshida tuzilgan Jamoatchilik kengashi ana shunday nazoratni amalga oshiradi. SHu ma’nodagi fuqarolik nazorati noharbiy tashkilotlar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining mamlakatimiz qonunlariga mosligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni bildiradi. Ikkinchidan, fuqarolik nazorati alohida shaxslar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining Konstitutsiyaga, xalqaro shartnomalarga mosligi, shuningdek, Qurolli kuchlar tizimidagi ijtimoiy masalalarning huquqiy me‘yorlarga mosligi ustidan o‘tkaziladigan nazoratni ham bildiradi. “Jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut xuddi mana shu o‘rinda ko‘rinadi. Fuqarolik nazoratini hech bir jamoat birlashmasiga a‘zo bo‘lmagan fuqaro ham amalga oshirishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini esa alohida fuqarolar emas, jamoat birlashmalari va ularning vakillari amalga oshiradi.

“Jamoatchilik nazorati” va “ijtimoiy nazorat” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut avvalo, shundaki, “ijtimoiy nazorat” tushunchasi mazmun doirasiga ko‘ra “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan tashqari davlat nazorati va fuqarolik nazorati ham kiradi. CHunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko‘rinishlaridir.

Jamoatchilik nazoratiga turli-tumanta‘riflar berilgan. Jamoatchilik nazoratining asosiy xususiyatlarini qamrab oladigan quyidagicha ta‘rifdan foydalanish o‘rinliroq bo‘ladi: “Jamoatchilik nazorati — jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo‘yicha yuritadigan faoliyat”.

Hozircha mamlakatimizda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinmagan bo‘lsa ham, shunday qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga taqdim qilindi. Muhokama qilinayotgan Qonun loyihasida jamoatchilik nazoratining maqsadlari quyidagicha ta‘riflanadi: “Jamoatchilik nazoratining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlash;

- davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash;
- jamiyat manfaatlarini himoya qilish”.

Qonun loyihasida jamoatchilik nazoratining vazifalari quyidagicha tavsiflanadi: “Jamoatchilik nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari va jamiyatning o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta‘minlash;

- davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlarga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va ularning ta‘minlanishi ahvoli to‘g‘risida fuqarolarni xabardor qilish;

- davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunga rioya qilmaslik holatlarini aniqlash va keng jamoatchilikni xabardor qilish, ularni jamoatchilik yordamida bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy adolat prinsipini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash sohasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlarining hamkorligi”.

Fuqarolik jamiyati institutlari o‘z tashabbuslari bilan shakllanadigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan institutlar hisoblanadi. Lekin ana shu o‘zini o‘zi boshqaradigan institutlar o‘ziga

o'xshash boshqainstitutlar bilan mutanosib ravishda faoliyat yuritishlari uchun ular muayyan darajada rivojlangan bo'lishlari kerak. SHuning uchun ham, fuqarolik jamiyati institutlari o'sha muayyan darajaga etgunlaricha ularga davlatning madadi zarur bo'ladi.

2014 yilda Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarishlar jamoatchilik nazoratiga konstitutsiyaviy maqom berdi. Konstitutsiyamizning 32-moddasi endi quyidagi tahrirda bayon qilindi: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi."² Fuqarolarimizning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlari davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishining Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi jamoatchilik nazoratiga mamlakatimizda qanchalik katta ahamiyat berilayotganining belgisidir.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarzda rivojlanib boradi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollar paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan va keng quloq yoygan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom ma'nodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalash sharoitida jamoatchilik nazorati mazmunida ana shunday o'zgarishlar o'z ifodasini topadi. Bu esa faoliyat sub'ekti bo'lgan har bir shaxs o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish bilan birga, boshqalardan, davlat hokimiyati organlaridan ularning zimmasidagi majburiyatlarni, vazifalarni bajarishlarini talab qilishi mumkinligini anglatadi.

Mamlakatning barqaror rivojlanishida jamiyat va shaxsning munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lgan davlat nazorati muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda, jamiyat, undagi fuqarolik institutlari va barcha fuqarolar jamoatchilik nazorati orqali davlat va boshqaruv sub'ektlarining faoliyatini mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, huquqiy andozalar yordamida nazorat qiladi.

Jamoat tashkilotlari davlat hokimiyati organlari bilan birga nazorat ishlarini olib borishlari va zarur hollarda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishlari ham mumkin. Bu ikki vaziyatbir-birini inkor qilmaydi.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zarurligini buyuk allomalar va faylasuflar asoslab berishgan. Masalan, Aristotel o'zining asarlarida xalqning mansabdor shaxslar va hukmdorlar ustidan nazoratini davlatning siyosiy baqarorligi hamda gullab-yashnashining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan³.

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ham hukmdorlarning aholi oldida hisob berib turishlari va ularning qonunlarga soʻzsiz buysunishlari zarurligi alohida taʼkidlanadi.⁴

SH.Monteske jamiyat hukumatsiz mavjud boʻla olmasligi, lekin mavjud qonunlar fuqarolarga hukumat faoliyati ustidan nazorat olib borish imkoniyati berishini taʼkidlaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan saʼy-harakatlar davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshirib yuboradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov davlat boshqaruvi organlarifaoliyatining mavjud qonunlarga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligini nazorat qilish zarurligiga koʻp marta eʼtibor qaratadi.

Prezidentning demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolar jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida taʼkidlanganidek, «Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartligini belgilab qoʻyish zarur.»⁵

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligi jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xuddi shuni hisobga olib, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini taʼminlash toʻgʻrisidagi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorni bajarish yuzasidan Samarqand va Buxoro viloyatlarida davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini taʼminlash boʻyicha eksperiment oʻtkazildi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ikki yoʻnalishda olib borilmoqda. Birinchidan, davlat oʻzining bosh boshqaruv subʼekti maqomini saqlagan holda jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yangi asosga oʻtkazmoqda. Endi, davlat oʻzining muayyan funksiyalarini jamoat tashkilotlariga oʻtkazmoqda, bir qator vakolatlarini, huquq va resurslarni ularga bermoqda. SHu yoʻl bilan davlat jamoat tashkilotlarining oʻzini oʻzi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, jamiyat jamoat tashkilotlarini rivojlantirish orqali ularningulkan salohiyatlarini mamlakatni boshqarish yoʻnalishida faollashtirmoqda.

Prezident Konsepsiyasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazorati yordamida davlat organlariga xalaqit bermagan holda davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirishga, korrupsiyaga qarshi salohiyatini oshirishga, fuqarolarga koʻrsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga katta yordam koʻrsatadi.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy meʼyorlar poydevor vazifasini bajaradi. Huquqiy meʼyorlarning asos vazifasini bajarishi jamoatchilik nazoratining har bir qadami mavjud qonunlar asosida qoʻyilishini taqozo etadi.

Jamoatchilik nazoratining mohiyat jihatidan huquqiy nazorat ekani fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi boʻlgan huquqiy davlatning mohiyatiga toʻla mos keladi. Ayni paytda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlatni yaratish yoʻlida amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazoratining oʻzi ham mavjud qonuniy meʼyorlarga asoslanishi lozim.

Davlat organi oʻzining nazorat funksiyalarini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati subʼektlaridan kelib tushadigan axborotdan foydalanadi, jamoatchilik nazorati esa, oʻzining funksiyalarini koʻpincha tegishli davlat organlariga murojaat qilish orqali amalga oshiradi. Ana

shunday o'zaro bog'liqlik mamlakatimizda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash to'g'risida"gi qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida hamda mazkur qonun loyihasini hayotga tadbiiq qilish bo'yicha Buxoro va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan eksperiment davomida o'zining yorqin ifodasini topdi.

NNTlarning vujudga kelishi ob'ektiv voqelikning in'ikosi bo'lib, hatto eng rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham davlat o'zining fuqarolariga o'z organlari va mansabdor shaxslarining suiiste'molliklardan xoli ekaniga to'la kafolat berolmaydi.

Demokratiya fenomenining yirik tadqiqotchilaridan bo'lgan Aleksis de Tokvil demokratik tuzumning mohiyati hukumatning hokimiyatini cheklashda, deb talqin qilgan edi. Insonning huquqini hukumat emas, birinchi navbatda, qonun, shaxsning o'zi va jamiyat himoya qilishi kerak. Demokratik jamiyatda jamoat birlashmalarining vujudga kelishi jamiyatni boshqarish qonunlaridan biri bo'libgina qolmay, mutlaq zaruriy qonun hamdir. De Tokvilning fikriga ko'ra, "Dunyodagi mamlakatlar orasida eng demokratik mamlakat fuqarolari maqsadga etishishda o'zaro maslahatlashish asosida ish ko'radigan va mazkur jamoaviy harakat usulini boshqalardan ko'ra ko'proq qo'llaydigan mamlakatdir"⁶. Huquqni himoya qilish bo'yicha tuzilgan jamoat tashkilotlari barcha mamlakatlarni tezkor, samarali va kam sarf bilan inson huquqlari muammosini hal qilishga ko'maklashadigan va hokimiyat organlari suiiste'molliklaridan himoya qiladigan tashkilotlarga bo'lgan ehtiyojni ifodalaydi.

Demokratik mamlakatlarda tuzilayotgan NNTlar bir qator umumiy funksiyalarga ega. Fuqarolarning talablarini ifodalash; so'z erkinligini ta'minlash; jamoatchilikni davlatni boshqarish va demokratik jarayonlarda ishtirok etishga safarbar qilish kabilar ana shunday funksiyalar jumlasiga kiradi..

XX asr oxiriga kelib bir qator muammolarni hal qilishda, xususan, inson huquqlarini himoya qilishda NNTlarning ishtirokini ta'minlash xalqaro-huquqiy jarayonning uzviy tarkibiy qismiga aylandi. BMT doirasida inson huquqlariga oid asosiy hujjatlarni tayyorlashni NNTlarning ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin.

Jamoatchilik nazorati quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- u jamiyat va uning alohida institutlarini boshqarish, jamiyatning barcha a'zolari ehtiyojlari va manfaatlarini uyg'unlashtirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;

- mamlakatdagi turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishda va bu manfaatlar o'rtasida nizolar kelib chiqishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

- jamiyatdagi tezkor hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarishda jamiyatning kuch-g'ayratini birlashtirish va muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

- jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlarning bajarilishini kafolatlaydigan vosita hisoblanadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mamlakatdagi turli ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar. Saylovchilar saylov jarayonida u yoki bu partiyaga ovoz berar

ekan, ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini bevosita nazorat qiladi. Ayni paytda, ular ovoz bermagan partiyalarning faoliyatiga ishonchsizlik bildirgan hisoblanadi;

- mehnatkashlarning manfaatlarini taqdim va himoya qilish maqsadida tuzilgan kasaba uyushmalari;

- notijorat xarakterga ega bo'lgan jamoat tashkilotlari va uyushmalarining turli-tumanligi. Mazkur uyushma va tashkilotlar davlat hokimiyati organlari oldida fuqarolarning huquq va manfaatlarini taqdim qilish va himoya qilish maqsadida tuziladi;

- mamlakatda jamoat-davlat tuzilmalarining mavjudligi. Bunday tuzilmalar qatoriga turli vazirliklar va idoralar qoshida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari va uyushmalarini kiritish mumkin;

- mamlakat hududida jamoatchilik hokimiyatining quyi bo'g'ini hisoblanadigan o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjudligi. O'zbekistonda ana shunday organlardan hisoblanadigan mahalla institutining faoliyati aholini o'zining ehtiyoj va manfaatlarini qondirish va himoya qilish maqsadida uyushtirishga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ijtimoiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan biri shundaki, jamiyat o'sib va rivojlanib borishi jarayonida oddiy xalq va hokimiyat o'rtasidagi bevosita aloqalar murakkablashib boradi. Masalan, qishloq joylarda har bir fuqaro qishloq oqsoqoli bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega. SHaharlarda, ayniqsa, katta shaharlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar bunday imkoniyatga ega emas. Bunday shaharlarda har doim vositachilar paydo bo'ladi, ular bir tomondan, xalqning ehtiyoj va kayfiyatini yuqori idoralarga etkazib tursa, ikkinchi tomondan, hokimiyat faoliyati to'g'risida aholiga axborot etkazib turadi. Ana shunday vositachilar jumlasiga ommaviy axborot vositalari, reklama va piar agentliklarini kiritish mumkin. SHundan xulosa qilib aytish mumkinki, xalq va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ikki turli bo'lishi mumkin:

1. Unchalik katta bo'lmagan ijtimoiy tizimlar uchun xos bo'lgan bevosita o'zaro ta'sir.

2. SHaharlar va umuman, katta ijtimoiy tizimlarda hokimiyat va aholi o'rtasida bevosita o'zaro ta'sir vujudga keladi. Bunda vositachilik vazifasini ommaviy axborot vositalari, PIAR va reklama agentliklari kabilar bajarishadi.

4. Jamoatchilik nazorati tizimi

Jamoatchilik nazorati juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Masalan, ibtidoiy jamoada shaxs xulqini jamoa nazorat qilgan. Agar shaxs xulq-atvorida jamoa tomonidan qabul qilingan me'yorlardan og'ish bo'lsa, jamoa a'zolari turli sanksiyalar yordamida uning xulqini tegishli tomonga o'zgartirgan.

O'zbekistonda qadimdan o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla nazoratchilik funksiyalarini ham bajargan. Bunday funksiyani mahalla jamoasi yuqoridan tushirilgan farmonlar, buyruqlar va boshqa huquqiy me'yorlarga munosabat bildirish shaklida ifodalagan.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan T.Tard olib kirdi. Uning talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz

berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons tavsifida jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvoriga ta'sir o'tkazish orqali uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

YUqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me'yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Jamoatchilik nazoratining xarakteri, mazmuni, yo'naltirilganligi mazkur ijtimoiy tizimning xarakteri, mohiyati va tipi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati ibtidoiy, arxaik jamiyatlarda hozirgi rivojlangan industrial jamiyatlardagiga nisbatan mutlaqo o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Arxaik jamiyatlarda u sodda tuzilmaga ega bo'lsa, industrial jamiyatlarda murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Sanksiyalar — jamoatchilik nazoratining elementi. Alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlarining xatti-harakatiga tezkor munosabat bildirish maqsadida jamiyat ijtimoiy sanksiyalar tizimini yaratgan. Sanksiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, alohida shaxs va ijtimoiy guruhlar, muassasa va tashkilotlarning xatti-harakatiga munosabatdir. Ijtimoiy sanksiyalar tizimining vujudga kelishi tasodifiy hol emas. Me'yorlar jamiyat qadriyatlarini himoya qilish maqsadida yaratilgan bo'lsa, sanksiyalar ijtimoiy me'yorlar tizimini himoya qilish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Me'yor sanksiya yordamida himoya qilinmasa, unga odamlar amal qilmay qo'yadi.

Sanksiyalar moddiy va ma'naviy bo'lishi mumkin. Moddiy sanksiyalar vazifasini jarima, mol-mulkni musodara qilish kabilar bajaradi. Ma'naviy sanksiyalar esa tanqidiy fikr, xayfsan, kesatiq, piching, izza qilish kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Fuqarolik jamiyati institutlari ma'muriy va huquqiy sanksiyalarni qo'llash vakolatiga ega emas. Ular faqat ma'naviy sanksiyalarni qo'llashi mumkin. Lekin o'rinli va to'g'ri qo'llangan ma'naviy sanksiyalarning kuchi huquqiy sanksiyalar kuchidan kam bo'lmasligi mumkin.

YUqorida bayon qilinganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, me'yorlar va sanksiyalar bir butunlikni tashkil qiladi. Birorta me'yor tegishli sanksiyalarga ega bo'lmasa, u odamlar va ijtimoiy guruhlarining xulq-atvoriga ta'sir o'tkaza olmaydi. Bunday me'yor shior, chaqiriq bo'lishi mumkin. Lekin, u jamoatchilik nazoratining tarkibiy qismi bo'la olmaydi.

Alohida shaxs yoki ijtimoiy guruh ijtimoiy me'yorlarga bo'yinsunishni istamasa yoki ularni chetlab o'tishga harakat qilsa, jamiyat majburlash choralarini qo'llaydi. Hozirgi jamiyatlarda majburlash orqali nazorat qilishning qat'iy ishlab chiqilgan qoida va tizimlari mavjud. Mazkur tizimlar me'yorlardan og'ishning tiplari va darajasiga ko'ra, mutanosib ravishda qo'llanadigan sanksiyalar yig'indisidan iborat.

5. Jamoatchilik nazoratining sub'ektlari

Nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunlarga mosligini nazorat qilish huquqi ularning davlat boshqaruvidagi faqat yakuniy-nazorat bosqichida ishtirok etishi bilangina cheklanmaydi. Ular o'zlarining mazkur huquqini davlat boshqaruvining avvalgi bosqichlari, ya'ni rejalashtirish va tashkillashtirish bosqichlarida ham namoyon qilishlari mumkin. SHuning uchun nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati organlari faoliyatining

qonunlarga mosligini nazorat qilish huquqini faqat nazorat bosqichigabog‘lab qo‘yish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Mazkur tashkilotlar davlat boshqaruvining rejalashtirish bosqichlaridayoq ishtirok etish huquqi ular davlat hokimiyati organlari, jumladan, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar va dasturlarini rejalashtirish bosqichidayoq nazorat qilishida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, har qanday nazorat, jumladan, jamoatchilik nazoratining samaradorligi davlat hokimiyati organlari, jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari muayyan tadbir va dasturlarni amalga oshirib bo‘lgandan keyin ularning qonunlarga mos yoki mos emasligini nazorat qilishi mumkin va ba’zi hollarda zarur bo‘ladi. Lekin bunday yo‘l tutish samarali emas. Chunki tadbir yoki dastur amalga oshirilib, unga davlatning, ya’ni soliq to‘lovchilarning mablag‘lari sarflanib bo‘lgandan keyin bu tadbir yoki dastur o‘rinsiz ekani aniqlansa, bu tadbir yoki dastur uchun mablag‘lar noo‘rin sarflangan, deb topish ehtimol to‘g‘ridir. Lekin endi noo‘rin sarflangan mablag‘larni qaytarib bo‘lmaydi. SHuning uchun ham NNTlar o‘zlarining nazorat qilish huquqini o‘sha tadbir yoki dastur rejalashtirish bosqichida ekanidayoq amalga oshirishlari kerak. Buning uchun muayyan shart-sharoit zarur.

Ma’lumki, NNTlar hokimiyat funksiyalari va vakolatlariga ega emas. Lekin ular davlat hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega. Ana shu huquq samarali ishlashi uchun davlat hokimiyati organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash zarur. SHuning uchun mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiqqligini ta’minlash bo‘yicha maxsus qonun qabul qilingan.

Bu Qonunning 5-moddasida, jumladan, shunday deyiladi: “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning, normativ va boshqa hujjatlarning loyihalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;⁷ Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratiga aloqador qonunlarning puxta o‘ylab tuzilayotgani va qabul qilinayotgani Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborot jumlasiga normativ va boshqa hujjatlarning loyihalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritilganida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur holat jamoatchilik nazoratining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tadbirlar rejalashtirilishi bosqichidayoq nazorat qilish uchun imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunida ham fuqarolarning birlashmalar tuzish huquqi kafolatlangan: “Inson huquqlari to‘g‘risidagi Umumiy deklaratsiyaga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib, ushbu Qonunda fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo‘yiladi”⁸ Mazkur Qonunda “jamoat birlashmasi” tushunchasiga ta’rif ham berilgan: “O‘z huquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.” Ko‘rinib turiptiki, jamoat birlashmalariga berilgan ta’rif ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan “Vikipediya” lug‘atida keltirilgan ta’rifga to‘la mos keladi va ta’kidlash joizki, bizning qonunimizda jamoat birlashmalariga berilgan ta’rifning bir qator jihatlari “Vikipediya”dagidankengroq va mustahkamroqdir.

Konstitutsiyamizda davlatimiz ijtimoiy davlat ekani mustahkamlab qo'yilgan. Jamoatchilik nazoratidavlatning ijtimoiyligini ta'minlaydigan muhim omildir. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan davlatni ijtimoiy davlat deb bo'lmaydi. Jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo'lsa, davlatning ijtimoiylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Davlat ijtimoiy hayotida xalq qo'llab-quvvatlagan narsalargina yashashi kerak.

Jamoatchilik ekspertizasi yakunlariga ko'ra aholi qo'llab-quvvatlamaydigan narsa va hodisalarga barham berish zarur. Jamoatchilik nazoratining shakllaridan biri bo'lgan jamoatchilik ekspertizasi mamlakatda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarga aholining munosabatini aniqlaydi va mazkur jarayonlarning qay biri yashashi va qay biridan voz kechilishi kerakligi to'g'rsida xalqning hukmini ifodalaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jumlasiga jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, yoshlar, xotin-qizlar harakatlari, ekologik harakat, turli jamg'armalar, uyushmalar kiradi. Bu institutlar tom ma'noda jamoat birlashmalaridir. Konstitutsiyamizning XIII bobida jamoat birlashmalariga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi."¹⁰

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, barcha fuqarolik jamiyati institutlarini jamoat birlashmalari tashkil qiladi. Demak, fuqarolik jamiyati institutlari jamoat birlashmalari sifatida jamoatchilik nazoratining sub'ektlari hisoblanadi. Mana shu jumlaning o'zida fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini tashkil qilishdagi o'rni va roli o'z ifodasini topgan.

Jamoat birlashmalari orasida siyosiy partiyalar jamoatchilik nazoratini tashkil qilishda ancha faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizdagi eng ko'p sonli jamoat tashkiloti kasaba uyushmalaridir. Ular mehnatni muhofaza qilish, mehnatkashlarning dam olishini tashkil qilish va nazorat qilish kabi masalalarda birqancha ijobiy ishlarni amalga oshirdi.

Tashkilot va korxonalaridagi Jamoa shartnomalarining ma'muriyat tomonidan bajarilishini nazorat qilish kasaba uyushmalarining eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani kasaba uyushmalarining ko'pchilik boshlang'ich tashkilotlari qoniqarli bajarimoqda.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim omillardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari taraqqiy topmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda o'nlab nodavlat telekanallari, yuzlab bosma axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Ularning bari jamoatchilik nazoratining sub'ektlari hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratida ular ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular mazkur jarayonda bevosita ishtirok etishlaridan tashqari nazoratning boshqa sub'ektlari tomonidan aniqlangan qonunga xilof holatlarni keng jamoatchilikka etkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular etkazgan ma'lumotlar jamoatchilikning qonunlarni buzish hollariga nisbatan murosasiz munosabatlarini shakllantiradi.

O'zbekistonda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat organlari barcha sohalaridagi faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishini eng dolzarb masalalardan biriga aylantiradi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat hokimiyati organlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati shaffofligini ta'minlash, ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayyorlanayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik qarorlarni jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish, ijroiya hokimiyati organlari qoshida jamoatchilik kengashlarini tuzish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash mexanizmlarini yaratish bilan bog'liq.

Jamoatchilik nazoratining hokimiyat vakolatlariga ega emasligi, uning etarli ta'sir kuchiga ega emasligi to'g'rsida noto'g'ri tasavvurlar keltirib chiqarishi mumkin. Aslida, unday emas. Jamoatchilik

nazorati jarayonida aniqlangan qonundan chetga chiqish holatlari vakolatli davlat organlariga yoki jamoatchilik fikriga murojaat etish orqali bartaraf etiladi. Mazkur holat jamoatchilik nazorati sub'ektlari nazoratning ham huquqiy, ham ijtimoiy mexanizmlardan foydalanishi mumkinligini anglatadi. Davlat nazorati esa, asosan, huquqiy mexanizmlardan foydalanadi.

Jamoatchilik nazoratining mohiyati davlat hokimiyati organlari faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lishdagina emas, ana shu tanqidiy munosabat orqali davlatni qo'llab-quvvatlashda ham namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik nazoratining samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri davlat hokimiyati organlari faoliyatining shaffofligidir. SHuni hisobga olib mamlakatimizda muhim ijtimoiy eksperiment o'tkazildi. Ana shu eksperiment boshlanishida ma'lum qilinganidek, Buxoro va Samarqand viloyatlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari 2013 yilning may-noyabr oylarida qonun loyihasi talablariga mos keladigan yangi rejimda faoliyat yuritdi. Masalan, yangi talablarga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlari qayd etilgan kundan boshlab, 15 kun davomida ko'rib chiqilishi belgilandi. OAVning eksperiment sub'ektlari faoliyati, mansabdor shaxslar bilan intervyu tashkil qilish haqidagi so'rovlari esa, etti kundan oshmagan muddatda ko'rib chiqish belgilandi.

Qonunning aprobatsiyasi bo'yicha o'tkazilayotgan eksperiment to'g'risida keng jamoatchilik va jamoat tashkilotlarini xabardor qilish maqsadida, 2013 yilning may-iyul oylarida Buxoro va Samarqand viloyatlarida fuqarolar bilan 120dan ortiq uchrashuvlar o'tkazildi. SHuningdek, mazkur eksperimentning o'tkazilish tartibi va qoidalari bo'yicha boshqa viloyatlar hokimiyatlari hamda boshqa davlat hokimiyat organlari xodimlari uchun yo'riqnoma tashkil qilindi.

Eksperiment o'tkazish bo'yicha ishchi komissiyasi a'zolarining so'zlariga ko'ra, eksperiment boshlangandan keyingi dastlabki oylardayoq mazkur viloyatlarda fuqarolarning siyosiy va axborot olishga nisbatan faolligi keskin o'sdi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilning 2-choragida 1-chorakka nisbatan fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga yozma va og'zaki murojaatlari ikki baravar oshdi va Samarqand viloyatida 1514, Buxoro viloyatida 1230 tani tashkil qildi. .

6. Jamoatchilik nazoratining shakllari

Fuqarolik jamiyati shakllanishida fuqarolik jamiyati barcha institutlarining o'zaro aloqadorlikda ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat hokimiyati organlarining aholi oldidagi barcha majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat. Mamlakatni modernizatsiyalash, korrupsiyaga qarshi kurash kuchaytirilayotgan hozirgi sharoitdajamoatchilik nazoratining roli beqiyos darajada ortadi. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mamlakatda qonunchilikni ta'minlashning kafolati vazifasini bajaradi. Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati turli ko'rinish, shakl va usullar yordamida o'tkaziladi. Jamoatchilik nazorati turlari va shakllarini to'la va chuqur anglash uchun quyidagi holat va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qilish lozim:

- davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tushunchasining mazmun va mohiyatini tahlil qilish:

- jamoatchilik nazoratini tartibga solib turuvchi hujjatlarni tahlil qilish:

- fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazorati olib borishdagi amaliy faoliyatlarini tahlil qilish.

Jamoatchilik nazorati muayyan shakllarda olib boriladi. Jamoatchilik nazorati shakllari xilma xil bo'lib ularning asosiylari quyidagilar:

- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik tinglovi;
- jamoatchilik surishtiruvi;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik kuzatuv.

Jamoatchilik nazoratining hozirgi sharoitda bizning mamlakatimizda eng ko'p qo'llanayotgan shakllaridan biri jamoatchilik tinglovidir. Mazkur shakl ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan u yoki bu muammoni hal qilishda turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini o'zaro kelishtirishga xizmat qiladi. Jamoatchilik tinglovi quyidagi maqsadlarni ko'zlab o'tkaziladi:

- ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammolarni aniqlash va muhokama qilish;
- mazkur muammoni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan tomonlarni aniqlash;
- manfaatdor tomonlarning mazkur muammo bo'yicha mavqeini qayd qilish va barcha tomonlar uchun maqbul bo'ladigan qaror variantini ishlab chiqish.

Jamoatchilik tinglovi ishtirok etayotgan barcha tomonlarning o'z fikr va dalillarini bayon qilishini ko'zda tutadi. Bunda ular muhokama qilinayotgan masalaga aloqador bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqadi.

Jamoatchilik tinglovining ishtirokchilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- mazkur muammoni kun tartibiga qo'yishda tashabbus ko'rsatgan tomon (investor, tayyorlangan loyiha mualliflari);
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining, ma'muriyat, davlat nazorat idoralarining vakillari;
- muhokama qilinayotgan masaladan manfaatdor bo'lgan jamoatchilik, shu jumladan, jamoat tashkilotlarining vakillari.

Jamoatchilik tinglovini tashkil etish va o'tkazishga mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari va birlashmalarining vakillari jalb etilishi lozim.

Jamoatchilik tinglovining ob'ekti jamiyatda vujudga kelgan muammoni hal qilish bo'yicha tayyorlangan loyiha bo'lishi mumkin. Mabodo, loyiha tarkibida yopiq ma'lumotlar mavjud bo'lsa, loyiha mualliflari jamoat tinglovi uchun alohida ma'ruza tayyorlashadi. SHu bilan birga, muammoni hal qilish bo'yicha tayyorlangan hujjatning qisqacha mazmuni ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan soddada tilda tayyorlangan bo'lishi zarur.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining eng ko'p tarqalgan ko'rinishlaridan biri tuman va shaharlarda mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari, xususan hokimlarning hudud aholisi oldida muayyan davr (chorak, yarim yil yoki yil) davomida rejalarning qanday bajarilayotgani to'g'risida axborot berishidir. Bunda hokimdan tashqari hududdagi aholiga xizmat ko'rsatadigan barcha tashkilot va muassasalarning rahbarlari hozir bo'lishadi. Tinglov davomida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, rejadani orqada qolish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning to'laligi va sifati singari masalalar ham muhokama qilinadi. Bunday tinglovlar mamlakatimizdagi barcha hududlarda an'ana tusini oldi.

Jamoatchilik tinglovi yakunlari bo'yicha tashkilotchiquyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

- qaror loyihasi bo'yicha tayyorlangan hujjatga tinglov jarayonida bildirilgan taklif va mulohazalar asosida tegishli o'zgarishlar kiritish;
- jamoatchilik tinglovi natijalarini hujjatlashtirish.

Jamoat tinglovining asosiy hujjatlari quyidagilar: muhokama qilinayotgan loyiha, berilgan savollar hamda takliflar, ularga berilgan javoblar; jamoatchilik tinglovining bayonnomasi; tomonlarning kelishmovchiligi qayd etilgan yakuniy hujjat; loyihaga tinglov natijasida kiritilgan o'zgarishlar ro'yxati.

Jamoat tinglovining yakunlovchi hujjatini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish tavsiya etiladi

Jamoatchilik tinglovi muammoga ekspertlarni jalb qilish, tinglov haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon berish, jamoatchilik tinglovini o'tkazadigan joyni ijaraga olish kabi moliyaviy mablag'larni talab etadigan masalalar bilan bog'liq. Odatda, tegishli moliyaviy mablag' bu muammoni hal qilishdan manfaatdor tomon va hal qilish uchun buyurtma bergan buyurtmachi yoki investor tomonidan qoplanadi. SHuningdek, qo'shimcha mablag'lar (xayriya mablag'lari, jamoat tashkilotlari a'zolaridan tushgan badallar) ham jalb qilinishi mumkin.

Jamoatchilik ekspertizasi. "Ekspertiza" tushunchasi muayyan masalani mutaxassislar tomonidan o'rganish va u haqda xulosalar berishni anglatadi. Ijtimoiy sohada shunday masala va muammolar mavjudki, ularni o'rganish va tadqiq qilish muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bu qiyinchiliklar o'rganilayotgan masala va muammoning murakkabligi tufayli vujudga keladi. SHuning uchun ham, jamiyatda ekspertiza qilishga katta ehtiyoj mavjud.

Ekspertiza qilish, ko'pincha, biror bir hujjat, loyiha, bajarilgan ish natijalari haqida xulosa berishni anglatadi. Ijtimoiy ekspertiza mutaxassis (ekspert)lar tomonidan ob'ektning holatini tashxislash, uning haqidagi axborot to'g'riligi va ishonchliligini aniqlash, uning keyingi tadrijini, shuningdek, boshqa ob'ektlarga ta'sirini prognozlash hamda qaror qabul qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishni qamrab oladigan tadqiqotdir. Ekspertiza, jumladan, jamoatchilik ekspertizasi to'rt funksiyani bajaradi:

1. Diagnostik funksiya. Mazkur funksiya o'rganilayotgan ob'ektning holatini aniqlashni ifodalaydi.
2. Axborot-nazorat funksiyasi. Mazkur funksiya ob'ekt va uning atrofidagi muhit haqidagi axborotni o'rganish, uning to'g'riligiva ishonchliligini aniqlash. Agar axborotda noaniqlik va noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa, ularga tegishli tuzatishlar kiritishni bildiradi.
3. Prognostik funksiya. Mazkur funksiya o'rganilayotgan ob'ektning yaqin, o'rta va uzoq istiqbolda qanday holatga o'tish ehtimolini aniqlashni bildiradi.
4. Loyihalash funksiyasi. Mazkur funksiya o'rganilayotgan ob'ektning ekspertiza qilish natijalarini ijtimoiy loyihalash va qarorlar qabul qilishda qo'llashni nazarda tutadi.

Jamoatchilik ekspertizasining ob'ektlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati, ijtimoiy institut va jarayonlar, konsepsiyalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lishi mumkin. Jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish lozim bo'lgan ob'ektlarning barchasini sanab o'tish juda ko'p vaqt talab qiladi. Umumlashtirib aytganda, jamoatchilik ekspertizasining ob'ekti davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining qonunlarga mosligi yoki mos emasligidan tashqari, ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga molik barcha faoliyat va jarayonlar bo'lishi mumkin. Lekin jahondagi mamlakatlar o'z taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ehtiyojlaridan kelib chiqib jamoatchilik nazoratining turli qirralari yoki ob'ektlariga oid qonunlar qabul qilishi mumkin. Jamiyat, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxslar hayoti va faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan har qanday hujjat va qarorlar ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qabul qilgan yoki qabul qilmoqchi bo'lgan qarorlar quyidagi hollarda ekspertizadan o'tkazilishi tavsiya etiladi:

- qabul qilingan yoki qilinayotgan qarorlarning aholi hayot faoliyatiga va turmush darajasiga o'tkazadigan ta'siri miqyosini aniqlash zarur bo'lganda;
- qabul qilingan qarorni amalga oshirishning oqibatlari turli ijtimoiy guruhlar, turli hududlar hayotida vujudga keltiradigan oqibatlari qay darajada turli-tuman bo'lishi mumkinligini aniqlash zarur bo'lganda;
- qabul qilingan qaror va hujjatlar to'g'risida turli-tuman, bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lganda;
- qabul qilingan yoki tayyorlangan qaror etarli asoslanmaganda. Uning ijobiy va salbiy oqibatlari qanday bo'lishi aniq bo'lmaganda;
- qaror qabul qilayotgan organ mazkur qarorning oqibatlarini bashorat qilishga ehtiyoj sezganda;
- bir-biriga zid bo'lgan qaror variantlari mavjud bo'lganda.

Bizning mamlakatimizda jamoatchilik nazorati bo'yicha tayyorlangan qonun loyihasi bo'yicha o'tkaziladigan jamoatchilik ekspertizasining maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini, shuningdek, mazkur qarorlar fuqarolar manfaatlariga hamda jamoatchilik fikriga qay darajada mosligini aniqlashdan iborat.

Jamoatchilik ekspertizasi murakkab jarayon bo'lganligi tufayli, uning ob'ektivligi va xolisligiga erishishning asosiy yo'li ekspertlarning hamkorlikda ish olib borishidir.

Jamoatchilik nazoratining monitoring shakli. Jamoatchilik nazoratining monitoring shakli dastlab atrof-muhitdagi o'zgarishlarni o'rganishda qo'llangan. Masalan, O'zbekistonda nazoratning monitoring shakli Orolbo'yi mintaqasida bir qator holat va ko'rsatkichlarni kuzatish maqsadida o'tkazilgan. Jamoatchilik nazoratiga ekologiya sohasidan kirib kelgan mazkur usul, keyinchalik, jamiyat hayotining boshqa sohalarida ham qo'llana boshladi.

Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida mavjud muammolarni hal qilish yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Lekin, vujudga kelayotgan yangi muammolar taraqqiyotning yangi, yuqoriroq bosqichida, shu bosqichning talablariga mos ravishda hal qilinadi. Ana shunday muammolarni samarali hal qilish uchun jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tadrijini muntazam tahlil qilish zarurati vujudga keladi. Ana shunday tahlil talablariga jamoatchilik monitoringi to'la javob beradi. Ijtimoiy munosabatlar tadrijini tashxis qilish va bashorat qilish vazifasini bajaruvchi jamoatchilik monitoringi, ayni paytda, mazkur jarayonlarni boshqarish bo'yicha tezkor axborot olish imkonini ham beradi.

Jamoatchilik monitoringining boshqa tadqiqot usullaridan afzalligi shundaki, uning yordamida ijtimoiy ko'rsatkichlarning keng doirasi bo'yicha olinadigan ma'lumotlarni muntazam to'ldirib va uyg'unlashtirib borish imkoni paydo bo'ladi. Axborotlarni ana shunday to'ldirish va uyg'unlashtirish asosida muntazam yangilanib turuvchi axborot banki yaratiladi. Ayni mana shu afzalligi jamoatchilik monitoringining keng tarqalishi uchun asos yaratmoqda.

Jamoatchilik monitoringi jamoatchilik faolligining yangi shakli bo'lib, muayyan tizimlar to'g'risida muntazam va ilgarilab boruvchi axborot olish imkonini beradi. Olingan axborotlarda tizimning holati monitoring ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi. Monitoring ko'rsatkichlari komplekslik va integrativlik mezonlari asosida shakllanadi. Komplekslik tushunchasi tizimning turli tarkibiy qismlari to'g'risida axborot olishni anglatadi, integrativlik mezoni olinayotgan axborotning o'sha tarkibiy qismlari o'zaro ta'sirini ifodalashni ta'minlaydi. Mazkur axborotlar tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarni o'zaro aloqadorlikda ifodalaydi.

"Monitoring" tushunchasi muayyan ob'ektlarning holati to'g'risida maxsus tashkil etilgan tizimli kuzatishni anglatadi. Masalan, atrof-muhitni monitoring qilish tabiatdagi ob'ektlarning holati va ulardagi o'zgarishlarni kuzatishni anglatadi.

Jamoatchilik monitoringi nodavlat notijorat tashkilotlar va umuman, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos yoki mos emasligini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Jamoatchilik monitoringi davlat hokimiyati organlari faoliyatiga baho berish bilan birga, zarur bo'lgan hollarda ularni korreksiya qilish imkonini ham yaratadi.

Jamoatchilik monitoringi quyidagi tamoyillarga asoslanib o'tkaziladi:

- tizimlilik va xolislik;
- qonuniylik va ochiqlik;
- olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o'tkazishning maqsadi mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bunday tavsiyalar monitoring natijalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish asosida qabul qilinadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o'tkazish texnologiyasi o'zaro bog'liq va muayyan ketma-ketlikda tashkil etilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ularni amalga oshirish manfaatdor shaxs va tashkilotlarga, birinchi navbatda, nodavlat notijorat tashkilotlarga ijtimoiy ahamiyatga molik mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunday ishtirok aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Jamoatchilik monitoringi bir necha usullardan foydalanib o'tkaziladi. Bunday usullar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: statistik tahlil; byudjet tahlili; huquqiy tahlil; so'rovnomalar; intervyu.

Monitoring o'tkazish dasturimuammoli vaziyatni tavsiflashni ham qamrab oladi. Monitoring ana shu vaziyatni statistik ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma'lumotlar, shuningdek, boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Ana shunday tahlil asosida ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarning mazmuni, maqsadga yo'naltirilganligi muammoni hal qilish uchun belgilangan tadbirlarning etarli yoki etarli emasligi, asoslanganligi, amalga oshirish mexanizmlari mavjudligi, jamoatchilik fikri hisobga olingani yoki olinmaganligi, uni tuzishda jamoatchilikning ishtirok etish darajasi baholanadi.

Jamoatchilik monitoringidan o'tkazishning tashkiliy shakli tashabbuskor tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hisoblanadi. Loyihada jamoatchilik monitoringini tashkil qilishning asosiy bosqichlari ifodalangan bo'ladi: tayyorgarlik ko'rish bosqichi, jamoatchilik monitoringi bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish bosqichi, yakunlovchi bosqich.

Jamoatchilik muhokamasi. Jamoatchilik muhokamasi ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning loyihalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qaror, buyruq va farmoyishlari, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan boshqa hujjat va materiallarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha jamoatchilik muhokamasi ularga o'zgarishlar kiritish, yoki ularni yangi tahrirda qabul qilish zarur bo'lgan hollarda jamoatchilik fikri hisobga olinishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qabul qilinadigan qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish odat tusiga kirdi. Milliy ong va milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishi natijasida qonunlardan tashqari, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan boshqa hodisalarni muhokama qilish ham ijtimoiy amaliyotda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Oliy Majlis fuqarolarning vakillik organi sifatida mamlakat hayotida muhim rol o'ynaydi. SHunday bo'lsa ham, Qonunchilik Palatasi hamda Senat a'zolari qonunlarning sifatli bo'lishi hamdaijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashini ta'minlash uchun, ularning loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazishga ehtiyoj sezadilar. Bundan tashqari, qonunlar legitimlikka ega bo'lishi uchun, keng xalq ommasini ularning muhokamasiga jalb qilish zarur bo'ladi.

Qonunlarning loyihalari bo'yicha loyiha mavzusi bo'yicha mutaxassis bo'lgan ekspertlar jalb qilinadi. Ayni paytda, qonunlarni qabul qilishda ekspertlardan tashqari, turli maqsadli guruhlariga murojaat qilish ham zarur bo'ladi. Bunday maqsadli guruhlariga mazkur qonunning qabul qilinishidan manfaatdor bo'lgan tomonlarni kiritish mumkin. Masalan, chorvachilikni

rivojlantirishga oid qonun qabul qilinmoqchi bo'lsa, uning loyihasi muhokamasiga, birinchi navbatda, chorvadorlarning vakillari jalb qilinishi kerak. Bundan tashqari, chorva hayvonlariga em-xashak etkazib beruvchi dehqonlar, omuxta em etkazib beruvchi sanoat vakillarini ham jalb qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, chorvachilik mahsulotlarini iste'mol qiluvchi keng xalq ommasi vakillari ham ishtirok etishi shart bo'ladi. Mana shu bir qonun loyihasini muhokama qilishga jalb qilinganlar orasida bir necha maqsadli guruh vakillarini ko'rish mumkin. Sanab o'tilgan guruhlardan tashqari, qonun loyihasini muhokama qilishga mamlakatimizdagi ijroiya va qonun chiqarish organlarining, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillarini ham jalb etish maqsadga muvofiq. Bulardan tashqari, qonun loyihasini muhokama qilishda fuqarolik jamiyatlari institutlari (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, yoshlar tashkilotlarining vakillari ham) ishtirok etishi zarur bo'ladi. Sanab o'tilganlardan tashqari, mamlakatdagi har bir fuqaro qonun muhokamasida ishtirok etishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasi o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lib, davlat boshqaruvida siyosiy qadriyatlarni, ya'ni fuqarolarning siyosatni ishlab chiqishdagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Davlat boshqaruvi uchun siyosiy qadriyatlardan tashqari, huquqiy qadriyatlar ham xos bo'lib, ular siyosiy qarorlar qabul qilish chegaralarini belgilab beradi, alohida fuqarolarning va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlarini himoya qiladi. Qarorlar qabul qilishda siyosiy va huquqiy qadriyatlardan tashqari, boshqaruv qadriyatlari ham mavjud bo'lib, ular qonunlarni amalga tadbiiq qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Huquqiy qadriyatlar jumlasiga huquqning ustuvorligi, tenglik kabilar kirs, boshqaruv qadriyatlariga boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligi, optimalligi kabilarni kiritish mumkin.

Jamoatchilik muhokamasini o'tkazishda ishtirokchilar oldindan ro'yxatdan o'tishlari, xulq-atvor qoidalariga hamda jamoatchilik muhokamasini o'tkazish reglamentiga amal qilishlari shart.

Muhokama qilinayotgan loyihani ko'rib chiqayotgan davlat hokimiyati organi yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi jamoatchilik muhokamasi tashkilotchisini mazkur tavsiyalarni ko'rib chiqish muddati va tartibi to'g'risida oldindan xabardor qilishi shart.

Jamoatchilik surishtiruvi. Jamoatchilik surishtiruvi keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan va kam o'rganilgan, ayni paytda, jamoatchilik qiziqishini uyg'otgan muammoni atroflicha va batafsil tadqiq etish maqsadida o'tkaziladi. Jamoatchilikning qiziqishini uyg'otadigan masalalar jumlasiga jinoyatchilikni fosh etish yoki oldini olish, jamoat tartibini buzish, korrupsiya va adolatsizlikni fosh etish, odamlarning salomatligi va xavfsizligini himoya qilish, ijtimoiy muhim masalalar bo'yicha etarli ma'lumot asosida qarorlar qabul qilinishi uchun zarur bo'lgan axborotni ommalashtirish kabilarni kiritish mumkin.

Jamoatchilik surishtiruvining ob'ekti ko'pchilikni qiziqtirgan har qanday hodisa, voqea yoki tamoyil bo'lishi mumkin.

Boshlangan surishtiruvlarda mazkur muammoga qiziqqan jamoat tashkilotining har qanday a'zosi ishtirok etishi mumkin. Jamoatchilik surishtiruvini boshlagan jamoat tashkiloti jamoatchilik surishtiruvining etakchisi mavqeiga ega bo'ladi. Etakchi surishtiruvga foyda keltirishi mumkin bo'lgan mutaxasis va shaxslarni jalb etishi mumkin. SHu bilan birga, etakchi surishtiruvning har qanday bosqichida har qanday ishtirokchini surishtiruvdan chetlashtirishi mumkin. Bunda u chetlashtirishning sabablarini bayon qilishi lozim.

Etakchi tashkilotning qarorisiz masalani muhokama bosqichiga olib chiqishi mumkin emas. SHuning uchun masalani keyingi bosqichga olib chiqishdan avval etakchi avvalgi bosqichda barcha vazifalar bajarilganiga ishonch hosil qilishi lozim.

Surishtiruvning barcha bosqichlarini yopiq rejimda o'tkazish tavsiya etiladi. Bu esa, surishtiruv doirasidagi barcha masalalar, tahlillar, tortishuvlar va boshqa materiallar faqatgina surishtiruv ishtirokchilariga ma'lum qilinishini anglatadi. Bundaycheklash oxirigacha tekshirilmagan axborot va materiallartarqab ketishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Biroq, surishtiruv jarayonida shunday vaziyat ham vujudga kelishi mumkinki, unda surishtiruv olib borilayotganiga jamoatchilikning e'tiborini tortish zarur bo'lib qoladi. Bunday hollarda surishtiruvga yangi odamlar, yangi ekspertlar va jurnalistlarni jalb qilishga to'g'ri keladi.

Surishtiruvning yakunlari bo'yicha tayyorlangan hujjat jamoatchilik muhokamasiga olib chiqiladi. Muhokama jarayonida bildirilgan taklif, mulohaza va e'tirozlar yakunlovchi hujjatda aks ettiriladi. YAKunlovchi hujjat ko'pchilik ovoz bilan ma'qullangandan keyin, u jamoatchilikka etkazilishi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin.

9. Ijtimoiy sheriklik-etuklik mezoni

Respublikamiz Birinchi Prezidentiz Islom Karimov o'zining 2010 yil 12 noyabrida Oliy Majlis Senati va Qonunchilik Palatasining qo'shma majlisida bayon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da davlat hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o'rnatish zarurligini ko'rsatib o'tdi. Bu ko'rsatma mazmun e'tibori bilan juda dolzarb va sermazmundir.

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtirolardan biridir. Insoniyat ijtimoiy sheriklikning zarurligini anglab etishi uchun ko'p asrlar kerak bo'ldi. Bu jarayonda uzoq davom etgan konfrontatsiyani, murossasiz kurashlarni, keskin ijtimoiy nizolarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi.

"Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi ijtimoiy fanlarga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu tushuncha dastavval mehnat munosabatlari doirasida va ularni tartibga solish maqsadida yaratildi. Kapital bilan mehnat, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bo'lsa ham, ularni tartibga soladigan ijtimoiy sheriklikning zarurligi va mumkinligini XIX asrning oxirlari- XX asr boshlariga kelibgina anglay boshlandi. Bu davrgacha ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar goh pasayib, goh kuchayib davom etaverdi. Bu ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi munosabatlar, ya'ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan edi.

Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtiro sifatida XX asrda maydonga keldi. Ungacha ham odamlar orasida sheriklik munosabatlari mavjud bo'lgan. Bunday munosabatlar minglab yillardan buyon davom etib keladi. SHeriklikning kurtaklari hatto yuqori darajada rivojlangan hayvonlar, masalan bo'rilar, arslonlar, sirtlonlar va Afrikadagi sirtlonsimon itlar galalarida ham ko'zga tashlanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun bu hayvonlarning har biri ov jarayonida o'zlarining hatti-harakatini sheriklarining hatti-harakatlari bilan moslashtirib amalga oshiradi. Bu sheriklikning kurtaklari va ibtidoiy ko'rinishlari edi.

Ijtimoiy sheriklikning XX asrgacha jamiyatda mavjud bo'lgan sheriklikdan asosiy farqi shundaki, avvallari sheriklik alohida shaxslar, nari borsa, kichik guruhlar o'rtasidagi sheriklikdan iborat edi. Masalan, bir jamoada mehnat qilayotganlar, bir kasb egalari, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar biror yumushni bajarishda bir-birlari bilan sheriklik qilar edi. Sheriklikning bu ko'rinishi hozir ham davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy sheriklik sheriklikning rivojlanishidagi yangi yuksak bosqichni ifodalaydi. Ijtimoiy sheriklik alohida shaxslar yoki kichik guruhlar emas, katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi sheriklikni bildiradi.

10. Ijtimoiy sheriklikning tarixi va tadriji

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hali katta ijtimoiy guruhlar vujudga kelmagan edi. Jamiyat kichik guruhlar (oila va ibtidoiy gala)dan tashkil topgan bo'lib ularning orasida tez-tez ziddiyatlar paydo bo'lar edi. Bu ziddiyatlar asosan hudud va tirikchilik manbalarini talashish oqibatida yuz berar edi.

Jamiyatning manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan katta ijtimoiy guruhlar: qullar va quldorlar sinfiga bo'linishi manfaatlar zidligini keskinlashtirib yubordi. Manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi manfaatlar poymol etilayotgan sinf-qullarning stixiyali chiqishlari isyon va qo'zolonlarga olib keldi. Bunday isyonlarni bostirish uchun quldorlar mirshablar va armiya singari tuzilmalarni tashkil qildi. Quldorlar mafkurasi quldorlarning oliy tabaqa ekanini asoslashga, odamlar o'rtasidagi mulkiy va huquqiy tengsizlikni ilohiy kuchlar irodasi bilan ifodalashga harakat qilar edi.

Feodalizmga o'tish bilan bog'liq yangi ijtimoiy guruhlar: feodallar va dehqonlar sinfining vujudga kelishi ular o'rtasidagi ziddiyatni shaklan biroz yumshatdi. Zamindorlar dehqonlarga anchagina yon bosishdi: ularga oila qurish, hosilning muayyan ulushini olish huquqi berildi. Biroq zamindorlar mafkurasi feodallar, ular ichidagi tabaqalar: dvoryanlar, graf, markiz, gersog va hokozolarning asilzodaligi, ular oliy irq vakillari ekani ma'budlar irodasi bilan belgilanganini asoslashga xizmat qilar edi. Dehqonlarning to'la tizim shakliga kelmagan mafkurasida esa adolatli podsho, mehribon zamindor to'g'risidagi orzu-umidlar ifodalangan edi. Ayni paytda bu mafkura beshafqat xo'jayinlarni qoralar edi. Ko'rinib turganidek, quldorlar mafkurasi faqat quldorlar manfaatini, zamindorlar mafkurasi feodallar manfaatini ifoda va himoya qilar edi. Bu mafkuralar ezilayotgan muqobil sinflar: qullar va dehqonlar manfaatini mutlaqo o'ylamas edi.

Kapitalizm davrida ishchilar kapitalistlar bilan shaklan teng huquqlarga ega bo'lishdi. Ularning huquqiy holati va maishiy turmushi dehqonlarnikiga qaraganda shaklan ancha yuqori edi. Lekin ular ham tirikchilik qilish uchun o'zlarining kuch va qobiliyatlarini sarmoyadorlarga sotishga majbur edilar. Kapitalistik tuzumning dastlabki bosqichlarida ishchilar juda cheklangan miqdordagi shaxsiy mulkka ega edilar, ularning asosiy ko'pchiligi qashshoq turmush kechirar edi. Bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy larzalarga barham bera olmasdi.

Ishchilar va dehqonlarning isyonlari yangi davrda ham davom etaverdi. Kapitalistlar mafkurasi sarmoyadorlarning manfaatini quldorlar va feodallar mafkurasi singari niqobsiz ifodalamas edi. Bu mafkura endi hukmron sinf manfaatini pardali tarzda himoya qila boshladi. YA'ni endi kapitalistlarning boyligi ularning aqli zakovati, harakatchanligi, ishchanligi,

topqirligi kabi sifatлари bilan izohlana boshlandi. Ishchilar ham aql-zakovatini ishga solsa, ishchan va topqir bo'lsa bermalol boyib ketishi mumkinligi targ'ib qilindi.

Kapitalizmning dastlabki bosqichlarida shakllanib ulgurmagan ishchilar mafkurasi keyinchalik tizim holiga kela boshladi. Ana shunday tizimlardan biri sotsialistik revolyusiya nazariyasi edi. Bu mafkura go'yo ishchilar manfaatini aks ettirsa ham, muqobil sinf – kapitalistlarni faqatgina qoralab qolmay, ularni butunlay, tag-tomiri bilan yo'q qilishga chaqirar edi.

Ko'rinib turiptiki, ijtimoiy sinflarning mafkuralari faqat shu sinf manfaatlarini ko'zlab yaratilgan. Mafkuralarning sinfiy xususiyatga ega bo'lishi sinflar o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatmagan, balki bu ziddiyatlarning keskinlashuviga xizmat qilgan. Sinfiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi ijtimoiy larzalarga olib kelgan. Birorta ham sinfiy mafkura muqobil sinf manfaatlari to'g'risida biroz bo'lsa ham bosh qotirmagan. Sotsialistik revolyusiya nazariyasi ishchilar manfaatini ifodalovchi yagona haqiqiy nazariyalikka da'vo qilsa ham, aslida ishchilarning haqiqiy manfaatlari kapitalistlarni yo'q qilishda emas, ular bilan kelishuvga erishishda edi. Lekin u paytda taraqqiyotning mana shunday yo'li ham mavjudligi hali anglanmagan edi.

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida mehnat unumdorligining o'sishi va isyonlar kapitalistlarni biroz yon bosishga undadi. Ular ishchi aristokratiyasi, deb atalgan qatlamga biroz imtiyozlar berdilar. Lekin bu holat ham isyonlarga barham bera olmadi. Isyon va qo'zg'olonlar davom etaverdi. Ana shunday isyonlarning yuqori cho'qqilaridan biri Oktyabr to'ntarishi bo'ldi. Bu to'ntarish dohiylari ekspluatatsiya yo'q qilingan yangi sotsialistik tuzum qurilgani to'g'risida bong urishsa ham aslida ekspluatatsiya tugatilmadi. Kapitalizm davrida ishchilarni ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga kelgan qo'shimcha qiymatni kapitalistlar o'zlashtirgan bo'lsa, endi ishchilar mehnati tufayli yaratilgan qo'shimcha qiymatni markaz, davlat va uning amaldorlari o'zlashtira boshladi.

Sotsialistik tuzum, deb atalgan tuzum aslida kapitalistik munosabatlarning yangi shakli-davlat kapitalizmi bo'lib chiqdi. Bu tuzum davrida ishchilarni ekspluatatsiya qilishdan tashqari, chekka o'lkalarni xomashyo bazasiga aylantirildi va shu shaklda milliy ekspluatatsiya ham davom etaverdi. Ekspluatatsiyaga qarshi noroziliklarni bostirish uchun kuchli repressiya apparati tashkil etildi. Buning oqibatida nafaqat alohida shaxslar, balki butun xalqlar qatag'onga uchradi. Bir qator xalqlarning o'z vatanlaridan deportatsiya qilinishi bunga misol bo'ladi. Lekin bu deportatsiya qilinmagan xalqlar emin-erkin yashaganini anglatmaydi. Ularning deportatsiya qilinmagani davlatning ularga nisbatan bag'rikengligi va yon bosishi emas, ularning o'z yurtlarida davlatga ko'proq manfaat keltirishi mumkinligi tufayli edi. Ekspluatatsiyaga nisbatan noroziliklar o'tgan asrning 80-yillariga kelib sanoat rivojlangan hududlarda zabastovka va stachkalar shaklida namoyon bo'ldi. Sanoati unchalik rivojlanmagan chekka hududlarda esa aholining noroziligi stixiyali tarzda millatlararo to'qnashuvlar tarzida yuz berdi. Bizning yurtimizda ana shunday ziddiyatlarning tadriji Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida juda ishonchli va ta'sirchan tarzda ochib berilgan.

Ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilar o'rtasida XX asr boshlarigacha tom ma'nodagi sheriklik mavjud bo'lmagan. Ularning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar ko'pincha zabastovkalar, stachkalarga va isyonlarga aylanib ketgan.

XX asrgacha mavjud bo'lgan sheriklik alohida shaxslar va kichik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib kelgan bo'lsa, ijtimoiy sheriklik katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga sola boshladi. Masalan, ish beruvchi sarmoyadorlar bilan yollanma ishchilarning manfaatlari o'rtasidagi asosiy ziddiyat shundan iborat ediki, sarmoyadorlar yollanma ishchilarni ko'proq ishlatib kamroq haq to'lashdan, yollanma ishchilar esa kamroq ishlab ko'proq haq olishdan manfaatdor edilar. Bu ziddiyatni tahlil qilgan Marks uni hal qilishning yo'li faqat bitta-sotsialistik revolyusiyani amalga oshirish, degan xulosaga kelgan edi. SHu xulosa asosida u sotsialistik revolyusiya to'g'risidagi nazariyani yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra yollanma ishchilar komfirqa atrofiga birlashib revolyusiya qilishlari, sarmoyadorlarning barchasini qirib bitirishlari va mamlakatda proletar diktaturasini o'rnatishlari kerak edi. Marksning yana bir xulosasi sotsialistik revolyusiya barcha mamlakatlarda g'alaba qozonishi va kommunistik jamiyat qurilishi to'g'risidagi nazariya edi.

Ana shu nazariya asosida Rossiyada 1917 yil oktyabr oyida davlat to'ntarishi amalga oshirildi va proletar diktaturasi o'rnatildi. Bu hodisa go'yo Marksning sotsialistik revolyusiya nazariyasi to'g'riligini tasdiqlayotganday tuyular edi. Aslida bu hol Marks nazariyasining to'g'riligi tufayli emas, insoniyat hali taraqqiyotning boshqa yo'li-ijtimoiy sheriklik yo'li ham mavjudligini kashf etib ulgurmagani tufayli vujudga kelgan edi.

O'tgan asrning 20- va 30-yillaridagi qatag'onlar, millionlab odamlarning yostig'i quritilishi ana shu sotsialistik revolyusiya nazariyasining mevasi edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq ittifoqda amalga oshirilgan imperialistik siyosat, yakka partiya va yakka millatning hukmronligi, milliy respublikalarning ko'pchiligi markazga xomashyo etkazib beradigan o'lkalarga aylantirib qo'yilishi ham oktyabrdagi davlat to'ntarishining mudhish aks- sadosi edi.

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi marksizmning muqobili sifatida maydonga chiqdi. Uning vujudga kelishiga kuchli turtki bergan hodisalardan biri Oktyabr to'ntarishi bo'ldi. O'tgan asrning 20- yillari oxiri va 30- yillarida sobiq ittifoqda yuz bergan qatag'onlar proletariat diktaturasi qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishini ko'rsatdi. Keyinchalik proletariat diktaturasining qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi boshqa bir qator mamlakatlarda ham namoyon bo'ldi. Endi G'arb mamlakatlaridagi siyosatchilar va jamiyatshunos olimlar sotsialistik reolyusiya va proletariat diktaturasiga muqobil bo'lgan g'oyalarni zudlik bilan izlashga tushdi. Ana shunday g'oyani topish uchun ularga mulkdorlar va davlat hokimiyati organlari buyurtma berishdi. Bu yo'nalishda G'arb sotsial-demokratlari bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi.

XX asrning o'rtalarida T.Parsons va YU.Xabermaslar tomonidan yaratilgan konsensus nazariyasi ijtimoiy sheriklikning keng miqyosda yoyilishiga katta turtki berdi. Bu nazariya ijtimoiy shartnoma nazariyasi o'rniga kelib, ijtimoiy sheriklikning nazariy metodologik asosi vazifasini bajara boshladi.

Ijtimoiy sheriklik bozor munosabatlariga o'tish va demokratik institutlarni rivojlantirishning muhim sharti ekanini jahon amaliyoti tasdiqladi. Bizning mamlakatimizda ham bozor islohotlarini chuqurlashtirish uchun ijtimoiy sheriklik tamoyillarini kengroq va to'laroq tadbiiq qilish zarur bo'ldi. Ana shu zarurat Prezident Islom Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da aniq va yaqqol ko'rsatib berildi. Prezident Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshira borib 2014 yilda mamlakatimizda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va u 2015 yil 1yanvaridan kuchga kirdi.. Bu Qonunning qabul qilinishi

mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikni hayotga tadbiq qilishda muhim bosqich bo'ldi. SHuni ham ta'kidlash joizki, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ijtimoiy sheriklik sohasidagi ishlarning yakunlanganini emas, yangi mas'uliyatli bosqich boshlanganini anglatadi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy sheriklikning turli jihatlarini tadqiq qilishga kirishilganda sobiq sho'rolar ittifoqida bu masalaga umuman e'tibor berilmadi. Buning sababi shundaki, sobiq sho'rolar tuzumida hukmron bo'lgan sinfiy kurash nazariyasi ijtimoiy sheriklikni inkor qilar edi. Ijtimoiy sheriklikning mehnat munosabatlarini tartibga solish imkoniyatlari ham inkor qilinib, bunday muammolar faqat kapitalistik ijtimoiy munosabatlarga xos, deb e'lon qilingan edi.

Ijtimoiy sheriklikka qiziqishning o'sishini ta'minlagan ijtimoiy muammolar XX asr oxirlaridan boshlab sotsialistik lager, deb atalgan tizimning parchalanishi, ko'pchilik mamlakatlarda transformatsiya jarayonlarining boshlanishi hamda kuchayishi edi. Sobiq sotsialistik tuzumning emirilishi ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning tiklanishi, mulkdor va sarmoyadorlar sinfi hamda uchinchi sektor- nodavlat notijorat tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi.

Sobiq ittifoqda nodavlat tashkilot deb ataladigan kasaba uyushmalari, ovchilar jamiyati, ixtirochilar uyushmasi singari tashkilotlar mavjud bo'lsa ham amalda ular hukmron partiya ko'rsatmasi bilan tuzilar va shu partiyaning ko'rsatmalari doirasidan chetga chiqa olmas edi. Mustaqillik davrida vujudga kelgan nodavlat notijorat tashkilotlar o'zlarining faoliyatini ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanib olib bora boshladi. Bundan tashqari, aholining qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun hokimiyat organlari vakillari ham ijtimoiy sheriklik texnologiyalariga murojaat qila boshladi. Dastlab mehnat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida shakllangan ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda turli ijtimoiy guruhlar, sub'ektlar va jamoalarning o'zaro mnuosabatlarini ham tartibga solishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy sheriklik ko'proq strategik rejalashtirish, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlari qabul qilishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda.

Ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning Mehnat kodekslarida, mamlakatlarni strategik rivojlantirishga aloqador hujjatlarda, turli sohalarga oid uslubiy tavsiyalar va me'yoriy hujjatlarda mustahkam o'rin egallamoqda.

Ijtimoiy sheriklik XX asr oxiri va XXI asr boshlarida siyosiy barqarorlikni ta'minlashda, jamiyatda yangicha insoniy munosabatlarni shakllantirishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda. SHularning bari ijtimoiy sheriklikni fanlararo yondashuv asosida chuqur, atroflicha va jiddiy tahlil qilish zaruratini vujudga keltirdi. Bu muammoni tadqiq qilishda sotsiologiya, falsafa, iqtisodiyot, ijtimoiy psixologiya, va siyosatshunoslik singari qator fanlarning tadqiqot metodologiyalari va kategoriyalaridan foydalanilmoqda.

Ijtimoiy sheriklik dastavval mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida vujudga kelgan bo'lsa ham, hozirgi kunda uning faoliyat yuritish sohalari mehnat munosabatlari doirasidan ancha chetga chiqadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida "sektorlararo ijtimoiy sheriklik" konsepsiyasi ko'p mamlakatlarda, shu jumladan MDHga a'zo mamlakatlarda keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, ijtimoiy sheriklik sub'ektlari hokimiyat, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat. "Sektorlararo ijtimoiy sheriklik" ikki yoki uch sektor: davlat,

biznes, notijorat sektor ijtimoiy muammolarini hal qilishda o‘zaro kelishilgan konstruktiv harakatlarni amalga oshirishni ifodalaydi. Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida” Qonunida ijtimoiy sheriklik sub’ektlari haqidagi 3-bobida shunday deyiladi: “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir”²⁶⁰.

SHuni unutmaslik kerakki, Respublikamizning “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida ijtimoiy sheriklik sub’ektlari davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari deb ko‘rsatilishi mamlakatimizda mehnat munosabatlarida ham ijtimoiy sheriklik mavjudligini inkor qilmaydi. Mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy sheriklik masalalarini O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi” va o‘ttizdan ortiq qonunlari va boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlari tartibga soladi. Bu haqda “Mehnat Kodeksi”ning 1-moddasida shunday o‘‘deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari,,shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi”²⁶¹.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari mamlakatimizda dunyoning ko‘p mamlakatlarida bo‘lgani singari bipartizm (ikki tomonlama) shaklida, masalan, jamoa shartnomalari hamda tripartizm (uch tomonlama) masalan, ish beruvchilar, yollanma ishchi va xizmatchilar hamda davlat hokimiyati organlari yoki ularning vakillari ishtirokida olib borilmoqda. Mamlakatimizda 2011 va 2014 yillarda ijroiya hokimiyati (Vazirlar Mahkamasi), biznes vakillari (Savdo-sanoat palatasi) hamda yollanma ishchi va xizmatchilar (Kasaba uyushmalari Federatsiyasi) tonidan imzolagan “Bosh kelishuv”lar ham mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy sheriklik ham mustahkam me‘yoriy-huquqiy asosda olib borilayotganidan dalolat beradi.

11. Ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari

Ijtimoiy nizolarni tizimli tahlil qilish bo‘yicha dastlabki urinishlarni italiyalik davlat arbobi va nazariyotchi Nikkolo Makiavelli amalga oshirgan edi. U birinchilardan bo‘lib nizolarning faqat vayronkor emas, balki yaratuvchilik funksiyalari ham mavjudligiga e‘tibor qaratdi. Bunda u nizolarga to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazish zarurligini ta‘kidladi. Uning fikriga ko‘ra bunday vazifani davlat bajarishi lozim edi.

Ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimini birinchilardan bo‘lib angliyalik Frensis Bekon nazariy tahlil qildi. U ijtimoiy tabaqalarning fikrlarini mensimaslik, boshqaruv jarayonidagi xatoliklar, mish-mishlar va g‘iybatlarning tarqalishi jamiyatdagi nizolarning paydo bo‘lishiga olib kelishini dalillar bilan ko‘rsatib berdi.

²⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда

²⁶¹ Ўзбекистон Республикасининг “Мехнат Кодекси”, Тошкент, “Адолат” нашриёти, 2008 йил, 4-бет.

Odamlar o'rtasida ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligi g'oyasi Tomas Gobbsning asarlarida bayon qilindi. Mazkur shartnoma jamiyatning o'zini o'zi himoya qilishi hamda xususiy mulkning abadiy bo'lishiga xizmat qiladi. Uning "Leviafan", "Fuqarolar haqidagi ta'limotning falsafiy elementlari" asarlarida ijtimoiy shartnomaga erishish zarurligi asoslab berilgan. Bunday shartnoma umumiy kelishuv hamda xususiy mulkning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

YAngi davrga kelib ma'rifatparvar faylasuf Jan-Jak Russoning ijtimoiy shartnoma to'g'risidagi g'oyalari keng tarqaldi. Uning asarlarida ijtimoiy shartnoma odamlar o'rtasida yo'qotilgan ijtimoiy munosabatlarning uyg'unligini, o'zaro kelishuv va tinchlikka intilishni qayta tiklaydi.

YOllanma ishchi va ish beruvchi kapitalist o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Adam Smit asarlarida ilk bor tahlil qilindi. Xo'jalik yuritishning asosiy maqsadi foyda olish ekanini e'tirof etar ekan, u erkin raqobat, xususiy mulk humronligi, savdo-sotiq erkinligi, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi iqtisodiy hayotning "tabiiy tartibi" degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, yollanma ishchilar va kpitalistlar o'rtasidagi o'zaro kurash jamiyatning rivojlanib borishi manbai, raqobat esa insoniyat uchun farovonlik keltiruvchi hodisadir.

Nemis faylasuflari Leybnits va Immanuil Kant fikriga ko'ra odamlar o'rtasidagi murosa va tinchlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotda shartnoma va kompromissga erishish asosida ta'minlanishi lozim. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro mahsulot almashish g'oyasi hamda turli ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi kurash muammolarini Per Jozef Prudon tomonidan tadqiq qilindi.

Fransiyalik olim Lui Ogyust Blanki kapitalistik jamiyatni tanqid qilar ekan tarixiy taraqqiyotni ma'rifatning tarqalishi va shu asosda madaniy-ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi sifatida talqin qildi.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy konseptual asoslari ijtimoiy harakat nazariyasi, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy kelishuv, ijtimoiy jipslik to'g'risidagi g'oyalar asosida shakllandi.

M.Veber fikriga ko'ra an'anaviy harakat tahlil qilish hamda oqilona tanqid qilish mumkin bo'lmagan madaniy an'analarda mustahkamlangan xulq-atvor namunasidir. Harakatning mazkur tipi ahamiyati odamlarning kundalik xulq-atvori ko'pincha ana shu tarzda yuz berishi bilan belgilanadi. Bunday harakatlarda hal qiluvchi rolni urf-odatlar, turli darajada anglangan odatlarga sadoqat o'ynaydi.

Ijtimoiy harakat nazariyasi amerikalik sotsiolog Parsons tomonidan tadqiq etildi. U sub'ektlarning o'zaro ta'siri mexanizmlarini tadqiq qildi. Bunda u ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan me'yorlar, xulq-atvor andozalari faoliyatning ichki motivlariga aylanishi jarayoniga alohida ahamiyat berdi. Muvozanat, konsensus, ijtimoiy tizimning me'yoriy holatidagi eng muhim belgilar ekaniga e'tibor qaratar ekan T.Parsons ana shu holatni nazorat qilish va tartibga solish jarayonlariga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, aynan ana shu jaryonlar jamiyatni ko'ngilsiz nizolardan himoya qiladi. Uning tadqiqotlarida konsensus muammosi o'zaro kelishilgan harakat yo'llarini izlash bilan bevosita bog'liq tarzda tadqiq etiladi. Bunday o'zaro ta'sir sheriklarning o'zaro ekspektatsiyalariga, ya'ni bir-birlaridan kutayotgan harakatlar va natijalarga asoslanadi.

Ijtimoiy sheriklikning nazariy va tashkiliy asoslaridan biri bo'lgan konsensusni nemis sotsiologi YU.Xabermas demokratiyaning muqobili sifatida talqin qiladi. Uning talqinida demokratik usul jamoa va jamiyatni ikkiga: ko'pchilik va ozchilikka bo'lib qo'yadi. Konsensus esa bo'lingan jamoa va jamiyatni birlashtiradi. Bunga u hal qilinayotgan muammoga nisbatan ko'pchilikning fikrini aniqlash yo'li bilan emas, barcha tomonlar qarshi bo'lmagan echimni topish yo'li bilan erishadi. Konsensusga erishish uchun manfaatlari va yondashuvlari bir-biriga unchalik mos kelmayotgan tomonlar hech bir tomon qarshi bo'lmagan echimni topishga harakat qilishlari va topishlari kerak.

Konsensus mohiyatan kelishuvni bildiradi. Lekin uning XX asrgacha mavjud bo'lgan kelishuvlardan farqi shundaki, u kelishuvga erishishning yangi samarali amaliyotini yaratdi. Unga ko'ra manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan tomonlar o'zaro munosabat va muzokaraga kirishar ekan, ular avvalo bir-birlariga yon bosishlari kerak. Qolaversa, ular barchani qoniqtiradigan, hech bo'lmaganda hech qaysi tomonda qarshilik uyg'otmaydigan echimni topishga harakat qilishlari va topishlari lozim. Bunday echimning topilishi konsensusga erishganlikni bildiradi.

Ijtimoiy sheriklik tarixi va tadrijini qisqacha ko'rib o'tish shundan guvohlik beradiki, ungacha mavjud bo'lgan barcha nazariya va mafkuralar faqat u yoki bu sinf, ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalagan. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi munosabatga kirishuvchi barcha ijtimoiy guruhlar manfaatini uyg'unlashtirilgandagina jamiyatda totuvlik va ijtimoiy barqarorlik vujudga kelishi mumkinligini asoslaydi. SHuning uchun bu nazariya u yoki bu sinf nazariyasi emas, o'zaro munosabatlarga kirishayotgan barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali ifodalaydigan nazariya hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim sharti va asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik jarayonida o'zaro ta'sirning eng muhim belgilaridan biri konsensusga yo'naltirilganlikdir. Bu belgi ijtimoiy sub'ektlarning maqsadlari va manfaatlarini mavqelarni o'zaro yaqinlashtirish orqali ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Bu jarayon tomonlarning bosim o'tkazishga moyilligini inkor qiladi. Tomonlardan birining bosim o'tkazishga intilishi bir zumda ijtimoiy sheriklikni yo'q qilib uni o'zaro kurashga aylantiradi.

Ijtimoiy sheriklikning juda muhim belgilaridan biri erkin fikr almashishning kafolatlanganligi, tomonlar o'zining me'yoriy qadriyatli tizimlarini erkin taqdim qila olishi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik nazariyasi nizolar muammosi bilan chambarchas bog'liq holda vujudga keladi. CHunki ijtimoiy sheriklik nizolarni hal qilish jarayonida vujudga keladi va nizolarni hal qilish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklik nizolar tufayli yuzaga keladi, nizolardan o'sib chiqadi. Bu jarayon nizolarni boshqarish hamda manfaatlarini kelishtirish asosida hal qilishga intilish bosqichida, shuningdek, kompromissga, konsensusga intilish bosqichida yuz beradi.

Ijtimoiy sheriklikning jamiyat hayotiga keng tadbiiq etilishi o'z-o'zidan avtomatik tarzda yuz beradigan hodisa bo'lmay, atroflicha va puxta o'ylab amalga oshiriladigan siyosat natijasidir. Mamlakatimizda bunday siyosatni Prezident Islom Karimov ishlab chiqdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy islohotlarning negizida yotgan besh tamoyil ijtimoiy sheriklikning jamiyat hayotida ildiz otishi uchun sharoit yaratdi.

Ijtimoiy sheriklik turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlarini maksimal darajada hisobga olish, muvofiqlashtirish va imkon boricha to'laroq ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy sheriklik mohiyat e'tibori bilan jamiyatda konsensus va osoyishtalik o'rnatilishiga, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi tarangliklarni yumshatishga, turli darajadagi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida siyosiy birdamlikni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Har qanday mamlakat hududida aholining ko'pchiligi manfaatlarini ko'zlaydigan adolatli ijtimoiy tartibotlarni joriy etish faqatgina davlat organlarining ishi emas. Jahon tarixi guvohlik berishicha, ijtimoiy nizolarni alohida holda davlat ham, oila ham, bozor munosabatlari ham hal etolmaydi. Faqatgina ijtimoiy sheriklik, ya'ni ijtimoiy-siyosiy maydondagi turli kuchlarning konstruktiv muloqotigina insonlarga xos turmush kechirish imkoniyatlarini berishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hayotga tadbiiq etishning asosiy maqsadi davlat va fuqarolik jamiyatlari o'rtasida katta ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni ta'minlashdir.

O'zaro hamkorlik jamiyatda mavjud bo'lgan qashshoqlik, jinoyatchilik, atrof-muhitning ifloslanishi, etimlik singari ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun zarur. Bu jarayonda ishtirok etayotgan barcha tomonlar ana shu muammolarni hal etishda o'zlarining mas'uliyatlarini his etishlari lozim. Ayni paytda ular bu muammolarni hal etish uchun turlicha imkoniyatlar va turlicha tasavvurlarga ega. Ana shu turlichalik, o'zaro tafovutlar, ba'zi ziddiyatlarga qaramay o'zaro sheriklik munosabatlarini o'rnatish mumkin va zarur.

Ijtimoiy sheriklikning muhim qirralaridan biri ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llari va usullarini birgalikda topish, bu muammolarni echishga keng jamoatchilikni jalb etish hamdir.

Ijtimoiy sheriklikning tadbiiq etilishi davlatning kuchli, barqaror va samarador bo'lishiga olib keladi, chunki u hokimiyatning maqsadlari va harakatlarini keng jamoatchilik tomonidan ma'qullanishi, qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy sheriklik g'oyalari keng xalq ommasi maqsadlari va manfaatlariga yaqin bo'lib, tegishli tushuntirish ishlari olib borilganda, u ko'pchilik aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu tamoyil xalqni hokimiyat bilan yaqinlashtiradi, adolatli, samarali jamiyat shakllanishiga ko'maklashadi.

Demokratik tamoyillarga amal qiladigan davlatning maqsadi huquqiy davlatni shakllantirishdir. Huquqiy davlat fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti hisoblanadi. Ko'ngilli jamoat birlashmalarida, kasaba uyushmalarida, xayriya jamg'armalari va boshqalarda ishtirok etish har bir fuqaroning shaxsiy ishi bo'lsa ham, aslida u jamiyat va shaxsning munosabatlari darajasini ko'rsatadigan indikator hisoblanadi. Bunday birlashmalarda ishtirok etish bir tomondan shaxsiy ish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ulkan siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Fuqarolar o'z erkinliklari va huquqlaridan foydalanib, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lar ekan, o'z zimmlariga muayyan mas'uliyat va majburiyatni oladilar. Jamoat birlashmalariga a'zo bo'lishdan avval fuqarolar o'sha birlashmalarining maqsadlari, tamoyillari, strategiya va taktikalaridan xabardor bo'lishlari zarur.

Jamiyatda mavjud muammolarni aniqlash, ifodalash va tegishli tashkilotlarga etkazishda jamoat birlashmalari muhim rol o'ynaydi. Ularning mas'uliyati ham xuddi mana shunda, ya'ni muammoni aniqlash va davlat yoki biznes vakillariga etkazishda ko'rinadi. Ana shu birlashmalar

faoliyatida ishtirok etar ekan, fuqarolar muayyan muammolar to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'ladi va bu ma'lumot ularning zimmasiga muammoni echish yo'llarini izlash, undan davlat hokimiyati organlari va biznes vakillarini tegishli tarzda xabardor qilish mas'uliyatini yuklaydi. Fuqarolarning mana shu jarayonda faol ishtirok etishi ijtimoiy sheriklikning harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik sub'ektlaridan biri bo'lgan davlatning funksiyalari ana shu sheriklikni rivojlantirish uchun huquqiy va iqtisodiy stimullarni yaratishdan iborat. O'zbekistonda davlatning eng muhim funksiyalaridan biri jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi muvozanatni va dialogni saqlab turishdir. Davlat tomonidan o'tkazilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat aholining muayyan guruhlari haddan tashqari boyib ketishi, boshqa guruhlar esa qashshoqlashib ketishining oldini olib turadi. Bunday siyosatning maqbulligi shundaki, juda boy va juda qashshoq guruhlar o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy tafovutlar kelib chiqadi. Bunday tafovutlarning kuchayishi esa, ziddiyatlarga, ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy sheriklik turli mamlakatlarda umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda milliy o'ziga xosliklarga ham ega bo'ladi. Ko'pincha ijtimoiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy ongda adekvat tarzda aks etmaydi. Chunki, ijtimoiy sheriklikni to'la va chuqur tushunish uchun ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, huquqshunoslik fanlari bo'yicha muayyan bilimlarga ega bo'lish taqozo etiladi. Ba'zan tashkilotlar ichidagi yoki tashkilotlar o'rtasidagi har qanday hamkorlikni ijtimoiy sheriklikning ko'rinishi sifatida qabul qilinadi. Aslida bu haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Bunday hamkorlik oddiy sheriklikning ko'rinishidir. Ijtimoiy sheriklik, yuqorida ta'kidlanganiday, katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi sheriklikni anglatadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklikning mohiyati ijtimoiy-siyosiy maydondagi kuchlar: davlat tuzilmalari, tijorat korxonalari va notijorat tashkilotlari o'rtasidagi konstruktiv aloqadorlik sifatida anglashiladi. Ijtimoiy fanlarda bu kuchlar 1-, 2- va 3-sektor nomlari bilan yuritiladi. Ijtimoiy sheriklik har uch sektor vakillari o'rtasida hamkorlik paydo bo'lganda va bu hamkorlik har uch guruh va jamiyat uchun manfaatli ekani anglashilganda vujudga keladi.

Ijtimoiy sheriklikning quyidagi muhim elementlarini ko'rsatish mumkin: ijtimoiy muammo; sheriklarning manfaatlari va sheriklikning huquqiy asoslanishi; o'zaro ta'sir va o'zaro nazoratning qoidalari ishlab chiqilgani; ijtimoiy sheriklik jarayonlarini yoritadigan axborot maydoni mavjudligi; tomonlarning o'zaro jipslashishi uchun loyihalarning mavjudligi; ijtimoiy sheriklik jarayonining barqarorligi va doimiyligi; ijtimoiy muammolarni echishning innovatsion usullarini izlash va topish; ijtimoiy muammoning barcha tomonlar uchun muhimligi; sheriklarning manfaatlarini aniqlash va hisobga olish; faoliyat maqsadi va vazifalarini birgalikda belgilash; hamkorlik jarayonida amal qilishi zarur bo'lgan aniq qoidalarni ishlab chiqish; hamkorlik alohida-alohida harakat qilishga nisbatan bir necha barobar samarali bo'lishi mumkinligini barcha tomonlar to'la anglab etishi.

Har qanday kooperatsiya ham ijtimoiy sheriklikka misol bo'la olmaydi. Chunki, kooperatsiyaga tomonlar o'zlarining maqsadlariga erishish uchun birlashadilar. Masalan ikki yoki undan ortiq xususiy korxonaning muayyan faoliyat turlarini birgalikda amalga oshirish to'g'risida tuzgan bitimi ijtimoiy sheriklik emas. Bu iqtisodiy sheriklikdir. Ijtimoiy sheriklik ko'pqirrali hodisa bo'lib siyosiy jihatlardan tashqari ma'naviy, ahloqiy, falsafiy jihatlariga ham

ega. Uni ijtimoiy amaliyotga tadbiiq qilish uchun jamiyatda bag'rikenglik keng tarqalgan bo'lishi taqozo etiladi.

Bag'rikenglikning amaliy ahamiyati qay daraja katta ekanini shundan ham bilish mumkinki, bir qator shaxslararo munosabatlarga emas, guruhlararo munosabatlarni ham uning yordamisiz yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, ijtimoiy sheriklik munosabatlariga kirishayotgan guruhlar va shaxslarda bag'rikenglik singari ma'naviy-ahloqiy sifat bo'lmasa, uning qaror topishi benihoya qiyinlashadi.

Ijtimoiy taraqqiyot intensivlashayotgan va davlatlararo munosabatlar murakkablashib ketayotgan hozirgi davrda bag'rikenglik guruhlar va davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda, jamiyatda millatlararo, ijtimoiy guruhlararo, dinlararo tinch-totuvlikni ta'minlashda borgan sari ulkanroq ahamiyat kasb etmoqda.

Bag'rikenglik ahamiyatining ortib borishi uning umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi tufayli ham yuz bermoqda. Mazkur qadriyatlar asnosida bag'rikenglik shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning ko'pchilik tomonidan eng maqbul, deb hisoblanadigan yo'li sifatida namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun ham katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmi bo'lgan ijtimoiy sheriklikning ijtimoiy hayotda qaror topishi ko'p jihatdan bag'rikenglikning ijtimoiy guruhlar faoliyati tamoyili sifatida qanday o'rin egallaniga bog'liq bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inqilobiy yo'l emas, ijtimoiy sheriklik mamlakatlarni farovon hayotga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Biz ana shu sheriklik yo'lini tanladik. Lekin bu G'arb mamlakatlari tajribasini mexanik tarzda O'zbekistonga ko'chirishni anglatmaydi. Mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib islohotlar o'tkazish Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va hozir dunyoda o'zbek modeli nomi bilan mashhur bo'lgan modelda o'z ifodasini topgan.

12. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik nazariyasining boyitilishi va amaliyotining rivojlantirilishi

Insoniyat tarixida buyuk rol o'ynagan ijtimoiy sheriklik nazariyasi Mustaqil O'zbekistonda hayotga keng tadbiiq etila boshladi. U hayotga nafaqat tadbiiq etildi, balki uning nazariy asoslari boyitildi va amaliy jihatlari rivojlantirildi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Prezident Islom Karimov tomonidan "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" shiori o'rta tashlandi. Kuchli jamiyat esa fuqarolik jamiyatidir. Ba'zan, "Nima uchun bira to'la "Kuchli davlatdan fuqarolik jamiyati sari" shiori olg'a surilmadi?" degan savol o'rta tashlanadi. Dastavval "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" shiori o'rta tashlanishining sababi shundaki, sobiq sho'rolar tuzumi davrida "fuqarolik jamiyati" tushunchasi umuman ishlatilmasdi. SHuning uchun mustaqillikning dastlabki yillarida bu tushuncha mamlakatdagi ko'pchilikka tanish emasdi. Agar o'sha davrda "Kuchli davlatdan fuqarolik jamiyati sari" shiori o'rta tashlansa, u ko'pchilik uchun tushunarli bo'lmay qolardi.

Prezident Islom Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” Konsepsiyasida ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish zarurati to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, jumladan shunday deyiladi: “Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta‘minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor.”²⁶²

Ijtimoiy sheriklikning nazariy masalalari Prezident Islom Karimovning qator asarlari, nutq va maqolalari, xususan, uning zikr etilgan Konsepsiyasida chuqurlashtirilgan bo‘lsa, amaliyotning rivojlantirilishi uni mamlakatimizda Prezident rahbarligida amalga oshirish jarayonida yuz berdi. Prezident Konsepsiyasidan yuqorida keltirilgan iqtibosda ijtimoiy sheriklikning mohiyati, maqsadlari, vazifalari ochib berilgan.

Tarixga qilingan qisqa ekskurs asrlar davomida katta ijtimoiy guruhlar o‘rtasida doimo ziddiyatlar mavjud bo‘lgani, bu ziddiyatlar ko‘plab marta qon to‘kilishlarni keltirib chiqargani, isyonlar hukmron sinflar tomonidan ayovsiz bostirilganidan guvohlik beradi. Tarixda hukmron sinflarning eziluvchi sinflarga yon bosishlari ham kuzatilgan. Lekin bu yon bosishlar epizodik xarakterga ega bo‘lib taktik maqsadlarda vaqtdan yutish yoki ilojsizlik tufayli yuz bergan.

Tarixda sinflarning manfaatlarini uyg‘unlashtirishga chaqiriqlar ham bo‘lgan, lekin ana shunday uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan mafkuralar bo‘lmagan. Ijtimoiy sheriklik sinfiy ziddiyatlarni yumshatish, manfaatlarining uyg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan mafkura edi. Bu mafkuraning kelib chiqishiga asosiy sabab mehnat sohasidagi munosabatlar edi va bu mafkura birinchi navbatda mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida yaratildi. Keyinchalik bu mafkura rivojlandi va boyitildi. Mustaqil O‘zbekiston misolida ijtimoiy sheriklik nafaqat mehnat munosabatlarini, balki jamiyatdagi mavjud munosabatlarning katta qismini tartibga solish vazifasini bajara boshladi.

Prezident Islom Karimov Konsepsiyasida mehnat munosabatlariga urg‘u berilmaganining sababi hozirgi kunda mehnat munosabatlaridagi antagonistik ziddiyat ko‘pchilik mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham bartaraf etilganida. Bundan tashqari, mehnat munosabatlarini tartibga solishga yo‘naltirilgan qonunlar va boshqa huquqiy me‘yorlar dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida mavjud. Bunday hujjatlar orasida markaziy o‘rinni “Mehnat kodeksi” egallaydi. O‘zbekistonda bunday Kodeks 1995 yilda qabul qilingan edi. “Mehnat Kodeksi”dan tashqari yana ko‘plab huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bundan chiqadigan xulosa shundaki, asosan tartibga solingan mehnat munosabatlarini yana bir marta tartibga soladigan hujjat yoki institut yaratishga zarurat yo‘q. Ijtimoiy sheriklik endi jamiyat oldida turgan boshqa muammolarni hal qilishga yo‘naltirilishi lozim. Islom Karimov Konsepsiyasida ana shu muammolar ko‘rsatib berilgan.

²⁶²Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Т.2010, 41-бет

Prezident Konsepsiyasida “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish zarurati haqida gapirilar ekan, asosiy e’tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqa fanlarga oid adabiyotlarda asosiy e’tibor fuqarolik jamiyati institutlarining mohiyati, miqdori, funksiyalari kabi masalalarga qaratilgan. Bunday institutlar fuqarolik jamiyatining negizini tashkil qiladi. Biroq negizning o‘zi fuqarolik jamiyati, degani emas. Bunday institutlarning soni o‘n minglab va yuz minglab bo‘lsa ham fuqarolik jamiyati qurilib qolmaydi. Fuqarolik jamiyati vujudga kelishi uchun ana shu institutlar, davlat hokimiyati organlari va biznes vakillari o‘rtasida sheriklik munosabatlari bo‘lishi shart. SHu ma’noda aytish mumkinki, ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatiga olib boradigan asosiy yo‘ldir.

Prezident Konsepsiyasida ijtimoiy sheriklikning hozirgi kundagi asosiy funksiyasi ko‘rsatib berildi. Prezidentning ko‘rsatmalari O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida o‘zining to‘la ifodasini topdi.

Ijtimoiy sheriklik nazariyasiga Prezident Islom Karimov Konsepsiyasida aniqlik va yangiliklar kiritilishi bilan bir qatorda amaliy sohada ham mazkur nazariya rivojlantirildi. Bunday rivojlantirish ijtimoiy sheriklik sub’ektlari doirasini kengaytirish va ularning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish shaklida amalga oshirildi. Xolislik taqozosiga ko‘ra qayd etish lozimki, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ijtimoiy sheriklikka nisbatan “sektorlar o‘zaro ta’sir” nazariyasi ham vujudga keldi. Bu nazariya tarafdorlari ijtimoiy sheriklikni mehnat munosabatlari doirasidan tashqariga olib chiqishdi. Unga ko‘ra ijtimoiy sheriklik sub’ektlari bo‘lgan davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakillari ijtimoiy masalalarni hal qilishda hamkorlik qilishlari lozim. Mazkur nazariya tarafdorlari har uch sektor vakillarining ijtimoiy masalalarni hal qilishda o‘zaro tortishuv va munozaralar jarayonida konsensusga kelib faoliyat yuritishlarini nazarda tutadi. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik sub’ektlari o‘zaro munosabatlarining yangicha shakli vujudga keldi. Bu shakl tomonlarning o‘zaro raqobatiga emas, o‘zaro yordam va hamkorligiga asoslanadi. Tomonlarning mana shunday munosabati ijtimoiy sheriklikning sinergiya effektini vujudga keltirishiga olib keldi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga tadbiiq qilingan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘zbek modelining asosiy tamoyillaridan biri-davlatning bosh islohotchi ekani ijtimoiy sheriklik sohasida ham o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sho‘rolar tuzumi davrida ijtimoiy tashabbuslari bo‘g‘ilgan va shunday vaziyatga ko‘nikib qolgan aholining tafakkur tarzini o‘zgartirish zarur edi. Mustabid tuzum davrida odamlar ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bilim olish va ko‘nikmalar hosil qilish imkoniga ega emas edilar. CHunki u davrlarda ijtimoiy fanlar bo‘yicha chop etilgan adabiyotlarda bu mavzu umuman tilga olinmas, olingan paytlarda esa faqat tanqidiy nuqtai nazardan yoritilar edi.

SHo‘rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlarida ijtimoiy sheriklik g‘ayri ilmiy nazariya sifatida baholanar edi. Ana shunday kayfiyatda tarbiyalangan odamlar ijtimoiy sheriklik munosabatlariga mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin ham kirishib ketishlari qiyin kechdi. SHuni hisobga olib davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari qo‘llab-quvvatlana boshladi. Davlat dastavval fuqarolik jamiyati institutlari erkin harakat qilishlari uchun me’yoriy-huquqiy bazani tayyorladi. Bu haqda Prezident Konsepsiyasida shunday deyiladi: “Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarni tobora

rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Homiyluk to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda²⁶³.

Davlat fuqarolik jamiyati institutlari erkin harakat qilishlari uchun me'yoriy-huquqiy bazani tayyorlash bilan bir qatorda ularga iqtisodiy jihatdan ko'mak berishni ham kuchaytirib bordi. NNTlarga ko'rsatilayotgan ko'mak davlatning iqtisodiy salohiyati oshishi bilan birga kuchayib bordi. Bu ko'mak keyingi birnecha yil davomida ayniqsa salobatli bo'ldi. 2010 yilda Prezident "bunday ko'makning miqdori keyingi uch yilda o'n bir milliard so'mdan ortiq tashkil qildi", deb aytgan bo'lsa, 2015 yilning o'zida bu ko'mak hajmi so'mni tashkil qildi.

Davlatning NNTlarga har tomonlama ko'mak ko'rsatayotganining sabablaridan biri shundaki, NNTlarning asosiy maqsadi-aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy xizmatni davlat idoralari ham ko'rsatadi. Lekin NNTlar tarkibi ixchamligi va bevosita aholi tashabbusi bilan tuzilgani sababli ularning xizmati tezkor va aniq manzilga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, NNTlar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga davlat byudjeti mablag'laridan tashqari xususiy sektor mablag'larini ham grantlar, xayriya ishlari, badallar, volontyorlar faoliyati shaklida jalb etish imkoniyatiga ega. O'zbekistonda davlat NNTlarning mana shu xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olib har tomonlama yordam ko'rsatmoqda. Davlatning ko'magi grantlar, ijtimoiy buyurtmalar, subsidiyalar tarzida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadlari va sub'ektlari "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur Qonunning 3-bandida bu haqda shunday deyiladi: "Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir"²⁶⁴

Davlatning NNTlarga ko'rsatadigan ko'magi barqaror va salmoqli bo'lishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. SHu qaror asosida NNTlarga mo'ljallangan grantlar miqdori va ajratilayotgan mablag' hajmining ortib borishi fuqarolik jamiyati institutlarining tezroq oyoqqa turib olishlari va faolligining ortishida sezilarli rol o'ynamoqda.

²⁶³Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Т.2010, 40-бет.

²⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда

Mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasida olib borilayotgan ishlarga qisqacha ko‘z yugurtirib chiqishning o‘zi ham bu masalada jahon fani yaratgan nazariya yangi yondashuv bilan boyitilgani, uning bir qator jihatlari aniqlashtirilgani, mazkur soha amaliyoti esa jiddiy boyitilganidan guvohlik bermoqda.

13-MAVZU. FAOL FUQAROLIK POZITSIYASIGA EGA BO‘LGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Reja

9. YOshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy jihatlari
10. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolik madaniyati va mas’uliyatining o‘rni
11. O‘zbekistonda yoshlarga oida davlat siyosatining strategik yo‘nalishlari
12. Barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari

13. YOshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy jihatlari

O‘zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o‘z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o‘tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo‘nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek, “... – bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. YOki boshqacha qilib aytganda, bu – “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi”²⁶⁵. Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o‘zining ayrim vazifalarini bo‘ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog‘i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o‘z-o‘zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi idoralarning faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

²⁶⁵Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 27-б.

O‘zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas’uliyatlidirlar. SHuning uchun ham mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab etishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun ma’naviy kamolot manbai bo‘lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas’uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuning uchun ham, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatga o‘tish konsepsiyasi zahirida inson erkinliklarini fuqaro, halq manfaatlariga mos holda bosqichma-bosqich yuzaga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ma’lumki, qonunlarning har bir moddasida insonning muayyan yo‘nalishdagi erkinliklari beriladi. Lekin yodda tutmoq kerak-ki, bunday tartib, yo‘l-yo‘riq yoki imkoniyat faqat bitta fuqaroning erkinligini yuzaga chiqarish uchungina joriy etilgan emas. Balki bu huquqiy me’yor barcha uchun teng asosga ega. Hamonki shunday ekan, barcha ya’ni butun jamiyat a’zolari ana shu me’yor asosida o‘z erkinliklarini bir xil darajada amalga oshirishi shart²⁶⁶.

SHuningdek, bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma’naviy binosi mustahkam bo‘lishi lozim. Bu esa, eng avvalo, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni chuqur bilimli, teran fikrli, o‘z o‘tmishi durdonalaridan va ma’naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqazo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi yosh avlod o‘z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilsagina, mustaqillikning asl mohiyatini chuqurroq anglab etadilar. Fuqarolik jamiyati ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib rivojlantirilishi bejiz emas. Zero, “Madomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma’naviyat sohasidagi XXI asrga mo‘ljallangan harakat dasturimiz shundan kelib chiqmog‘i darkor, ya’ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs ma’naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g‘oyamiz bo‘lishi zarur”²⁶⁷.

Insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma’naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an’analar, diniy-ruhiy tuyg‘ulardan iborat. Bu bo‘g‘inda u oilasi, qarindosh-urug‘lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Zotan, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo‘lganligini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Ushbu so‘zlardan qo‘rinib turibdiki, yoshlarning ijtimoiy siyosiy faoligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. SHu maqsadda har birimiz ushbu vazifalarni amalga oshirilishida faol fuqarolik pozitsiyamizni ko‘rsatishimiz hamda yurtboshimizni biz yoshlarga qarata aytgan “Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafakat ishonchimiz va

²⁶⁶ Қаранг: Мусаев Ф. Эркинликнинг ҳуқуқий асоси // Тафаккур журнали. –Тошкент: 2002. - № 2. – 84 б.

²⁶⁷ Каримов И.А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. 7-том.-Т.: «Ўзбекистон», 1999. 303-б.

kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning xal kiluvchi kuchidir²⁶⁸ so‘zlarini doimo yodimizda saqlashimiz zarurdir.

Fuqarolik tuyg‘usi esa shaxsning “Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy jarayonlar ahloqiy qadriyatlarining o‘tmish bilan kelajakni uzviy aloqadorligini ta‘minlab, tarixiy merosning nodir ne‘matlarini o‘zgartirish asosida shakllanadi”²⁶⁹. Fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biri bu fuqarolarning yuksak darajada ong va madaniyatga ega bo‘lishliklari hisoblanadi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatida faol, tashabbuskor, g‘ayratli, faqat yaratuvchanlik, ijodkorlik ruhi va kayfiyati bilan yashovchi shaxslarga e‘tibor va ehtiyoj katta bo‘ladi. Bunday yuksak intellektual salohiyat tafakkur erkinligining qay darajada shakllanishi bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatning inson uchun yaratgan real iqtisodiy qulayliklari va imkoniyatlari, yuridik haq-huquqlari, qaror topgan axloqiy va ma‘naviy muhit uning tafakkuri erkin, ilg‘or va yuksak ideallarni ko‘zlashi bilan uyg‘unlashmog‘i lozim. Olimlarimizning kuzatishicha, fuqarolarning ijtimoiy voqelikka yangicha, mustaqil va erkin tafakkur asosida yondashishi yuqori ko‘rsatkichga ega. Ayni paytda, psixolog va sotsiologlarning nuqtai nazaricha, yangi shakllanayotgan fuqarolik jamiyati rivoji ko‘p jihatdan shaxs ongi, xarakteri va dunyoqarashini korreksiyalab borishni talab etmoqda.

Hozirga kelib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati, unga monand davlat boshqaruvi tizimini – demokratiyani qaror toptirish zarurati va mas‘uliyati har bir fuqaroning yuksak ma‘naviy salohiyatining, falsafiy tafakkur tarzini yanada shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Darhaqiqat, odamzot o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishdan oldin hamma narsani aql tarozisiga qo‘ymog‘i, o‘zi tashlaydigan amaliy qadamlarning ehtimoliy natijalarini avvaldan taxmin qilmog‘i, nazarda tutmog‘i lozim. Fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta‘lim beqiyos o‘rin tutadi. Bugungi kunda ham oldimizga qo‘ygan asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini barpo etish va uni takomillashtirish uchun Milliy dasturda ko‘zda tutilgan bilimli, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlarni tarbiyalashga yanada muhim e‘tibor qaratish va bu masalalar ta‘lim islohotlarining bosh vazifasi deb qabul qilib, uni amalga oshirishdan iborat. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yaratilgan va amalga oshirilayotgan yangi ta‘lim modeli aynan ana shu maqsadga erishish yo‘lida o‘zining yangicha ta‘lim va tarbiyaviy jarayonini shakllantirib bormoqda. Farzandlarimiz to‘qqiz yillik o‘rta ta‘limni tamomlab, o‘z xohish irodasi va intilishiga qarab ikki turdagi uch yillik o‘quv yurtlarida-akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta‘limni majburiy – ixtiyoriy davom ettirish imkoniyatlariga, bularni tugatganlar esa oliy o‘quv muassasalariga kirishda bir xil huquqlarga ega bo‘ldilar. Unutmasligimiz kerakki, ma‘rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. Bizda qadimdan “Ma‘rifatli inson” tushunchasi ancha keng ma‘noni anglatadi. An‘anaviy sharqona qarashga ko‘ra, ma‘rifatlilik–faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma‘naviyat va go‘zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, kamolotli inson deganida aynan shunday odamlarni ko‘z oldiga keltiradi. SHuning uchun xam Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning butun mohiyati milliy tariximiz va hayotimiz bilan bog‘lanib ketgan. SHu tariqa O‘zbekistonda bevosita o‘zimizga xos, o‘zimizga mos bo‘lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz, an‘analarimizga asoslangan va, shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan Kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Dasturimizning, modelimizning milliyligi ham aynan shulardan iboratdir.

²⁶⁸Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.

²⁶⁹ Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепции. - М.: Наука, 1991. – 15 с.

Fuqarolik jamiyat asoslari shakllanayotgan respublikamizda, yoshlarimizning faollikni yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas'uliyatini yurakdan his qilish tuyg'ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustaxkam hayotiy pozitsiyani, e'tiqod hamda maslakni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. SHuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan dars soatlari, o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan. Mazkur sa'y-harakatlarni amalga oshirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlash, qolaversa, bu borada faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash kelajakda natijalar keltiradi. Zero, zamonaviy ta'limning maqsadi har bir kishiga o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni olish va ularni jamiyat hayotiga tadbiq etish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. SHu bois tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning intellektual ong va madaniyat darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng muhim prinsiplarni anglab etishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim. Ayniqsa fuqarolik jamiyatini barpo qilishda fuqaro ongi, madaniyati, dahldorlik hissi va mas'uliyatini yuksaltirish hamda takomillashtirishni hozirgi talab darajasida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, yoshlar faoliyatida ushbu zaruriy masala o'zining dolzarb jihatlari bilan ajralib turadi va samarali tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yishimiz lozimligini yana bir bor qayd qilamiz.

14. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'rni

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan davrda demokratik tamoyillarni shakllantirish, fuqarolar ijtimoiy –siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me'yorlar asosida ko'ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida jamoat va nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan holda fuqarolik madaniyati bilan tutashadi. Agar fuqarolik jamiyatini yuksak fuqarolik madaniyatini oshkor etish imkoniyati sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, fuqarolarning ma'naviy etukligi bunday jamiyatdagi demokratik tamoyillarni to'liq anglash omili ekanligini tushunamiz. CHunki fuqarolik jamiyatida insonni oliy qadriyat darajada tushunish bevosita har bir fuqaroning o'z madaniyat darajasini qanchalik anglashi va unga sodiqligi bilan xarakterlanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish o'zining bir qator mezonlariga ega bo'lib, ularning asosiylaridan biri – har bir insonda mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Mas'uliyat odamning xar bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. SHaxsiy mas'uliyatni fuqarolik mas'uliyatidan farqlash lozim. Birinchisi shaxsning kundalik faoliyatidan keladigan shaxsiy manfaatni, ikkinchisi esa jamiyat manfaatlarini nazarda tutadi. Fuqarolik mas'uliyatini his etgan inson, eng avvalo, o'zi mexnat qilayotgan jamoa yoki ta'lim olayotgan o'quv dargohi, o'z mahallasi va yurti ravnaqini o'ylaydi. Mustaqil O'zbekiston fuqarolari uchun yagona maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilish bo'lsa, demak har bir inson fuqarolik mas'uliyatining ma'no-mazmunini ana shu g'oyalarni amalga oshirishda, deb bilishi darkor.

Fuqarolik mas'uliyati, O'zbekistonda yashayotgan har bir ongli fuqaroning qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar Respublika Konstitutsiyasida kafolatlangan xuquqlaridan foydalanish barobarida, unga javoban fuqarolik mas'uliyatini ham xis etib yashashidir. Bu shunday deganiki, har bir fuqaro mamlakat Konstitutsiyasiga, Oliy Majlis qabul qilgan barcha qonunlarga, Vazirlar Maxkamasi chiqargan qarorlarga rioya etishi va hurmat qilishi, ularni amalga oshirishi uchun mas'uliyat sezishi lozim. Binobarin, davlat o'z fuqarosiga xuquq va kafolat berar ekan, shunga yarasha uning zimmasiga mas'uliyat ham yuklaydi²⁷⁰. SHuni unutmaslik kerakki, ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'zini o'zi anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlay olishi, jamiyat uchun xizmat qilish imkoniyati va harakat me'yoriga ko'p jixatdan bog'liqdir. Bularning hammasi kishilarning o'zi yashab turgan ko'cha, maxallasidan tortib, to yaxlit mamlakatning barqarorligini saqlab qolish, xavfsizlikni ta'minlashda yuksak mas'uliyatni o'z faoliyatida ongli ravishda amalga oshirish demakdir²⁷¹.

Bir xil maqomga ega bo'lgan shaxslarda talab ham teng bo'ladi. Ana shu jihatning o'zi ham fuqarolik mas'uliyatini anglatuvchi dalillardan biridir. Fuqarolik mas'uliyati bilan milliy mas'uliyat orasida o'ziga xos mushtaraklik mavjud. Sir emas har bir millatning balog'atga etgan ongli a'zosi o'sha o'zi mansub millatning oldida mas'uliyati bo'ladi. Millatning miqdoriy, iqtisodiy, madaniy, ahloqiy, ma'rifiy, manaviy taraqqiy eta borishi, er yuzidagi boshqa xalqlardan orqada qolib ketmasligi uchun birinchi shu xalqqa mansub kishilar javobgarlik tuyg'usini tuyish lozim. Oila va jamiyatdagi har bir harakatida, bosgan har qadamida shu millatning umumiy manfaatini unutmaslik milliy mas'uliyat hissining muhim tomoni hisoblanadi. Kishilarning muayyan millat ravnaqi yo'lidagi siyosiy ongliligi va ma'naviy etukligi darajasi milliy mas'uliyatni anglatuvchi ikkinchi muhim tomonidir. SHuni alohida qayd etish zarurki, milliy mas'uliyat bu yurtimizda yashovchi barcha millat va elatning mas'uliyatidir.

SHu o'rinda rivojlangan davlatlar tajribasiga alohida e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Masalan, jahonning etakchi davlati sanalmish AQSHda fuqarolik madaniyatini yuksaltirish qanday yo'lga qo'yilgan? Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Bu savollarga javob topish uchun fuqarolik madaniyati qanday g'oyaviy ustunlarga tayanishini aniqlash kifoya. AQSH fuqarolari Konstitutsiyani, amerika davlatchiligining asoschilari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlarga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar. YOshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi.

AQSH nimaning evaziga fan va texnologiyalar sohasida boshqalardan o'zib ketdi? Bu savolning ham javobi bor: Amerikada erkin fikr va ijodiy tafakkur qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini «o'rtamiyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi.

Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina etishadi.

²⁷⁰ Қаранг: Иброхимов А. Бизким Ўзбеклар. -Тошкент: Шарқ нашриёт -матбаа концерни бош тахририяти, 1999. - 177 б.

²⁷¹ Қаранг: Саидқосимов А. Сиёсий фаоллик ва фуқаролик маънавияти // Жамият ва бошқарув. – Тошкент: 2007. - №2, -Б. 50 -51.

SHunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Lekin, eng asosiysi, har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu «amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Xulosa yasaydigan bo'lsak, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar «AQSHda bu borada muammo yo'q ekan» degan xulosa uchun asos bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. SHu bois hozirgi kunda AQSHning ziyolilari tomonidan yangi mafkura - «liberal-natsionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rta tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'linib ketgan ko'psonli ijtimoiy guruhlarini «AQSH - millatlar hamjamiyatidir» g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQSH da asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Endi misol tariqasida SHarqqa murojaat qilaylik. SHarqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri - YAponiyada fuqaroni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. CHunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: «xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi mamlakat iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. CHunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan mamlakatning 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning xayratini uyg'otadi. "Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?". Mazkur savolga javob yaponlar quyidagicha javob beradilar: "Salohiyat insonlarda yashirin". YAponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boyluk yo'q.

Xo'sh, davlat yapon kishisida qanday qadriyat va sifatlarni qaror toptirishga harakat qiladi? Aslida mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bitta a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi. Muhimi, boladan umumiy ishda o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida "axloqiy tarbiya" tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon

kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: "Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin", "O'z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo'lmaysan". Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: "Bor imkoniyatlaringni ishga sol!".

SHunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlarning ayniqsa boshqalarga o'rnak bo'la oladi. "Axloqiy tarbiya" natijasida YAponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. YAponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch sanaladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi. Ana shu ma'noda jamiyatimiz yoshlarni moddiy-ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish, ayniqsa, globallashuv tufayli axloqimizga, turmush tarzimizga katta kuch bilan kirib kelayotgan buzg'unchi g'oyalardan, ularni saqlab qolish uchun mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, zamonaviy yoshlarni barcha hayotiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish bugungi kunning eng muhim vazifasi bo'lishi kerak. Chunki ehtiyoj tom ma'noda erkin faoliyat hamda fuqarolik mas'uliyatini belgilovchi mezon hisoblanadi. Biz o'z faoliyatimizga qay darajada va qay mazmunda baho bermaylik, faoliyatimiz motivlari muayyan ehtiyojlar tufayli shakllanadi. Ehtiyojlar va manfaatlar uyg'unli hisobga olinmagan joyda mas'uliyatsizlik, befarqlik va xatto jinoyatlar sodir bo'ladi.

15. O'zbekistonda yoshlarga oida davlat siyosatining strategik yo'nalishlari

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga doir islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yoshlarni shu yurtga, shu Vatanga munosib farzand sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. SHuning uchun davlatimiz va xalqimiz ta'lim-tarbiya tashkilotlari hamda jamoat birlashmalaridan yoshlarni etuk inson bo'lishlariga munosib hissa qo'shishiga katta umid bilan qaraydi. Xalqimiz mazkur demokratik institutlarga, ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik harakatlariga katta ishonch bog'lamokda. O'ylaymizki, "KAMOLOT" yoshlar ijtimoiy harakati va siyosiy partiyalar faoliyatini davlat hamda hukumat tomonidan moliyalashtirishning joriy qilinishi ularning yoshlar o'rtasida keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat olib borishini ta'minlaydi. YOshlar jamiyatni erkinlashtirish va boshqarish bilan bog'liq islohotlarga ko'proq jalb etiladi.

Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan bir sharoitda shaxs erkinligini yanada kengaytirish ularda davlat va jamiyat hayoti, uning ravnaqini ta'minlashdagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab etish, ko'nikmalarini hosil qilish huquqiy saviyasi va madaniyatini yuksaltirishda, davlat organlari, ta'lim muassasalarigina mas'ul bo'lib qolmay shu bilan birga jamoat tashkilotlari va boshqa nodavlat tuzilmalarini faollik darajasini ortishini ham taqozo etadi. «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan

sari deb, ta'kidlagan edi I.A.Karimov, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur. Bu borada o'zini o'zi boshqaradigan idoralarning, mahallarning nufuzini va mavqini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi»²⁷².

Fuqarolik madaniyati shakllangan muhitda odamlarda siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bunda kishilar fuqarolik jamiyati institutlariga birlasha boshlaydilar. Fuqarolik madaniyati kuchayib borgan sari odamlar siyosiy jihatdan faollashib, partiyalarga a'zo bo'lish tendensiyasi kuchayadi. Demak, siyosiy partiyalar a'zolari soni va sifatining oshib borishi darajasi ham fuqarolik madaniyatini ko'rsatuvchi mezonlardan biridir. Fuqarolik madaniyati shaxsning jamiyatdagi faol a'zosi sifatida ma'lum haq-huquqlarga ega bo'lish bilan birga o'z zimmasidagi burch va majburiyatlarni vijdonan ado etishdir. YOshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish - ularga mustaqil davlat tuzilmasining xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydonda tutgan o'rni, vatanparvarlik va millatlararo do'stlik tuyg'ulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an'analari, milliy istiqloq g'oyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy qarashlarni anglash va unga qarshi bo'lish, ijtimoiy faollik va fidoyilik kabi sifatarni mujassamlashtirgan yaxlit bir tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining institutlari - o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarini mustahkamlash hamda rivojlantirish yoshlarning siyosiy madaniyatini, faolligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini erkinlashtirish, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifalarini amalga oshirishda har bir yoshning jamiyatda o'z o'rni bo'lishini bilish, eng muhimi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb, tushunishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu o'z mas'ulligini anglashga erishishda mavjud demokratik institutlar, o'z-o'zini boshqarish organlari, partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Chunki, jamiyatda yashayotgan har bir yoshning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mavjud siyosiy institutlar, partiyalar yoki nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiriladigan demokratik siyosiy jarayonlarda aks etadi. Bu, bir tomondan, yoshlarning siyosiy faollik darajasiga, ularning siyosiy qarashlarini idrok etib, uning ishtirokiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi mavjud o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining ish faoliyatiga, yoshlarni o'z atroflariga birlashtiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratlashuv jarayoni insonlar, turli xil ijtimoiy qatlamlar, siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati va o'zaro munosabati bilan bog'liq. Jamiyat hayotining demakratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlamini tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashishiga hamda ularning tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. YOshlar — jamiyatning tub negizi, aholining ilg'or qatlami, kelajakning ishonchli egalari hisoblanadi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o'y-fikri, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. SHu boisdan ham mustaqillikka erishilgach, aniqrog'i, 1991 yilning 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e'tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Ushbu Qonunning 1-

²⁷² Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пиروвард мақсадимиз. 8 -жилд. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 333 б.

moddasida: "YOshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlarini yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir", – deya mustahkamlab qo'yilgan. O'z-o'zidan, davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi — yoshlarning jamiyatga turli xil salbiy oqibatlarisiz kirib kelishini ta'minlash, ularning o'z huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat. Bu esa, davlatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishida o'z ifodasini topadi.

SHuningdek, Oila kodeksi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonunlar yoshlar tarbiyasida, ularni sog'lom turmush tarziga o'rgatishda, ish bilan band qilishda, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim huquqiy baza vazifasini o'tamoqda. SHuningdek, davlatimiz rahbarining 2014 yil 6 fevraldagi **"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi Qarori mustaqillik yillarida olib borilgan bosqichma-bosqich, tadrijiy islohotlarning mantiqiy va qonuniy davomi bo'lib, bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Respublikamizda mazkur qaror ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Qarorning aynan bugungi kunda qabul qilinishi fikrimizcha, quyidagilar bilan izohlanadi: **Birinchi**dan, mustaqillik yillarida yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirgan ishlari-mizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidagi izchil harakatlarimizda yoshlarning faol ishtirokini kuchaytirishimizga ehtiyoj tug'ilgani, **ikkinchi**dan, hozirgi paytda mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberal-lashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirayotgani, **uchinchi**dan, jahon miqyosida globallashtirish va axborot texnologiyalari tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni xolisona va tanqidiy baholagan holda farzandlarimiz kelajagini ko'zlab, yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olish zaruriyati, **to'rtinchi**dan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan yoshlarga oid dastur va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishishi shular jumlasidandir. Qarorga binoan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib, **"O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi"** ma'qullandi.

Dastur 7 bo'lim, 67 banddan iborat. Unda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ko'lami ham keng bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, sud-huquq sohalarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga

ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng muhim va dolzarb yo'nalishlarda chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Dasturda belgilangan yo'nalishlar o'zaro uzviy, chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi.

YOshlarni ijtimoiy ximoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ushbu dasturning o'ziga xos bo'lgan jihati bo'lib hisoblanadi. YOsh tadbirkorlarni qo'llab-kuvvatlash va rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-kuvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish ko'zga tutilgan. Yigit-qizlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni keng rivojlantirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish, intilishlarini qo'llab-kuvvatlash, ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirish, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalari sadoqat ruxida tarbiyalash, turli yot g'oyalarni targ'ib qilib kelayotgan va past saviyali «ommaviy madaniyat» ta'siridan asrash kabi masalalar dasturning asosiy vazifasi hisoblanadi.

16. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari

Mamlakatimizda voyaga etib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va mustahkam ruhda tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniy manfaatlarini muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi barchamizga ma'lum. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va rahnamoligida yoshlar tarbiyasining ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi va bu borada tub islohotlar amalga oshirildi. CHunki YUrtboshimiz «YUksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek: «Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaq tabiiy ravishda o'ziga xos «inkorni inkor» konuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy karashlarini umuman inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. SHu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, turmush tarziga orqa-oldini uylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini unutmazlik zarur edi. Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta uylab ish yuritishni talab kiladi».²⁷³

YOshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko'rish mumkin. YOshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e'tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga

²⁷³ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 81 бет.

o'shish bo'yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib bormayotganining guvohi bo'lamiz. Masalan, Evropa davlatlaridan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va SHvetsiyada bu borada erishilgan natijalar diqqatga sazovor. Bugungi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ikki xil strategiyasi amal qilmoqda. Bular: yoshlar siyosati sohasida davlatning etakchi rolga asoslangan strategiya hamda yoshlar siyosati sohasida davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya. Hozirgi davrda Germaniya va Fransiyani birinchi yo'nalishdagi siyosatni olib boradigan davlatlar sirasiga kiritish mumkin. Ushbu davlatlar o'z faoliyatini yoshlar siyosatini umummilliy, mintaqaviy va hududiy darajalarga qarab ixtisoslashtirish asosida olib boradi. Bunda yoshlar siyosati oila, qariyalar, ayollar va yoshlar ishlari bo'yicha vazirlik tomonidan Konstitutsiya va federal qonunlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Fransiyada yoshlar siyosati YOshlar ishlari, sport va jamoat birlashmalari bo'yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi.

YOshlar siyosati sohasida davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya Buyuk Britaniya va SHvetsiyaga xos bo'lib, bunda yoshlar siyosatining umumiy ko'rinishi, maqsad va etakchi vazifalari davlat tomonidan belgilab berilsa, bu vazifalarning ijrosi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu davlatlarga xos bo'lgan xususiyat esa yoshlar siyosati va yoshlar ishlari bo'yicha maxsus davlat organlarining mavjud emasligida namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, dunyoning ko'plab davlatlarida yoshlar huquq va manfaatlarini xalqaro va milliy darajada qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilgan yoshlar parlamentlari hamda milliy yoshlar kengashlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, xalqaro darajada yoshlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi Evropa yoshlar parlamenti, Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligi yoshlar parlamenti, SHimoliy Irlandiya yoshlar forumi, SHotlandiya yoshlar parlamenti kabi yoshlar parlamentlari hamda Avstriyadagi Avstriya xalqaro yoshlar hamkorligi qo'mitasi, Belgiyadagi Flaman yoshlar kengashi, Buyuk Britaniyada Britan yoshlar kengashi, Germaniyada xalqaro yoshlar ishlari bo'yicha Germaniya milliy qo'mitasi (bunday kengashlar Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva kabi yana 25 ga yaqin davlatda mavjud) faoliyat yuritmoqda. Bularni keltirishdan maqsad, yoshlar huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm mamlakatimizda qay darajada amal qilayotganiga e'tibor qaratishdir.

Xo'sh, O'zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun muhim qadamlar tashlanayotgan bugungi kunda yoshlar ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotini tuzish qanchalik zarur? Bizningcha, yoshlar mamlakatimiz aholisining 64 foizi (17 million 80 ming nafar)ni tashkil etuvchi asosiy qatlam ekan, aytish mumkinki, yoshlar bilan bog'liq muammolar davlatning olib borayotgan siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muxtasar qilib aytganda, jamiyatdagi barcha sohalar qatori yoshlar tashkilotlarini ham tashkiliy jihatdan isloh qilish, bu borada zamonaviy faoliyat mezoniga ega mustahkam institutni shakllantirish — ertangi kun egalari bo'lmish yoshlar kelajagini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda kelajak avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. CHunki mamlakatimizda boshlangan va chuqur ildiz otib borayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasi va qolaversa, kelajagi buyuk davlat qurishdek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan mazkur masalaning echimiga bevosita bog'liqdir desak, hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasining paysalga solinishi yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki o'z-o'zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday

baholash o'ta kaltabinlik bo'lur edi. Zero, Prezident Islom Karimov iborasi bilan aytganda, "qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"²⁷⁴.

YUrtimizda yosh oilalar himoyasi, ularni qo'llab-quvvatlash uchun ham juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. O'tgan yillar davomida oila haqida 50ga yaqin qonun, 70 ga yaqin qaror va farmoyishlar e'lon qilindi. Ularning aksariyat katta qismi ijtimoiy, moddiy va ma'naviy himoya qilish va farovonligini ta'minlashdan iborat. SHunisi e'tiborga molikki, yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash mas'ulligini birinchi navbatda davlatimiz o'z zimmasiga olgan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda davlat idoralari, fuqarolik institutlari va mahalliy hokimiyatlar tashabbuskor bo'lmoqdalar. SHuningdek, bola huquqlarini himoya qilish borasida milliy qonunchiligimizda ham bir qator qonun hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilingan. Jumladan, 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi milliy qonunchilikni bola huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar bilan muvofiqlashtirish, bola huquqlarini himoya qilish sohasida tegishli dasturlar tuzish, davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining bu boradagi vazifalari, vakolatlarini va o'zaro faoliyatini aniqlashtirish, bola huquqlari himoyasi mexanizmining ishlashi va amaliy natijalari berishini ta'minlash, shu sohaga oid qonunchilikning kelgusidagi rivoji uchun keng imkoniyatlarga yo'l ochadi.

SHuningdek, ushbu qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquqlarini himoyalashda ishtirok etish shakllari belgilangan. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar bilan ishlash, ularning o'quvi, jamoat hayotidagi ishtiroki, qolaversa, ularning kelajagini yaratishda nafaqat adliya organlari, balki ota-onalardan tortib davlat idoralarigacha mas'ul bo'lishi kerak. Ana shunda biz yoshlar siyosati bo'yicha oldimizga qo'ygan vazifani bajarishda to'la-to'kis faol ishtirok eta olgan bo'lamiz. CHunki yoshlar— mamlakat kelajagi. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov "Albatta, har bir bandaga rizq-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu hayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, zurriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmashimiz zarur"²⁷⁵, - degan edi. YUrtboshimizning mazkur fikrlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy tizimdagi islohotlar nafaqat farovon turmush tarzini yo'lga qo'yish, balki ma'naviyati yuksak yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratishni nazarda tutilgan. YUrtimizning kelgusidagi mavqei, rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi ularning qo'lida. Ana shuni unutmagan holda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor va g'amxo'rlik biz kattalarning dolzarb vazifamizdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday insonlar orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni va nomi bor. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asaridagi g'oyalarni yodga olaylik. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-

²⁷⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 116-бет.

²⁷⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 58 б.

qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtiromlar bo'ladi. Avvalo, bunday fikrlashning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz. Demak, bizning barkamol avlod tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Mustaqillik yangicha yashashni, yangicha fikrlashni, hayotda har bir fuqarodan o'ziga yarasha munosib o'rin egallashni, yangi mafkura asosida yangicha ma'naviyatni talab etadi. Talab etibgina qolmasdan, jadal o'zgarib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda yangicha o'ylashga va harakat qilishga majbur etmoqda. Yangicha o'qish, yangicha ishlashning o'zi bo'lmaydi. SHuning uchun ham bizga raqobatbardosh yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi fozil insonlar kerak. Dasturning asosiy maqsadi ham aynan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir».²⁷⁶

YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, har tomonlama etuk avlodni tarbiyalasakgina, bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir, sinov va qiyinchiliklarni engib o'tamiz, shundagina ko'zlangan yuksak marralarni egallay olamiz. Hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan va hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalab kelayotgan xalqimiz, ezgu maqsad-muddaomiz – erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo'lmaydi. SHuning uchun bu muhim masalaga doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda. Insoniyat hamisha mukammal jamiyat bunyod etish ishtiyoqida yashagan. Mukammal jamiyatni ma'naviy yuksak, axloqiy barkamol, jismoniy etuk avlod yaratadi. Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar insonlar hayotiga, taqdiriga daxldor ekanligini har birimiz his qilishimiz va shundan tegishli xulosalar chiqarishimiz lozim. YUrtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha o'zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlarini qo'yilganligi hammamizni quvontiradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «...bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko'rish, kuzatish qiyin emas».²⁷⁷ Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi.

SHunday ekan, o'z maqsadlarimizga erishishda bir necha vazifalari borligini ta'kidlab o'tish mumkin. Birinchidan: fuqarolarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayoning faol ishtirokchisiga aylantirish; amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamlil islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini fuqarolarimizga sharhlab berish va tushuntirish; ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini amalga oshirish; ma'naviyatning kuch qudratini faqat ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish va rivojlantirish. Ikkinchidan: turli qarash va fikirlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakterlarning o'ziga xos orzu intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya-Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi-barchamiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish. Uchinchidan: qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni izchil davom ettirish; ta'lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirish. Bu orqali kelajagimiz bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodga bog'liq ekanligini chuqur

²⁷⁶ Қаранг: Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент - 2000.

²⁷⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 106-бет.

anglashga erishish. To‘rtinchidan; ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e‘tiqodimiz bo‘lmish islom dinning bugungi hayotimizdagi o‘rni va ta‘sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baqquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uyg‘unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka tushintirish borasidagi tashviqot ishlarini davom ettirish. Beshinchidan; ko‘p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat‘iy nazar, ularda hamjihatlik va birdamlik tuyg‘ularini kuchaytirish; chunki ma‘naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh qiladi. Ularning taqdirini o‘zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi²⁷⁸ deb ta‘kidlaydi. Mana shunday maqsadli va ma‘suliyatli vazifalarni ma‘naviyat hozirgi kunda barkamol avlodni voyaga etkazishda bosqichma-boqich amalga oshirib kelmoqda. O‘z navbatida xalq ma‘naviyatini yuksaltirishda yoshlarning qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi ruhida tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi. Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimov ma‘naviy tarbiya haqida shunday yozadilar: “Bizning eng muhim, dolzarb vazifalarimizdan biri bu – o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma‘naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma‘naviyatining munosib egalaridir. SHuning uchun har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab ma‘naviy boylıklarimizdan bahramand bo‘lishi kerak.”²⁷⁹

Mamlakatimizda yosh avlodning yuksak ma‘naviy mezonlar asosida o‘sib-ulg‘ayishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimiz hayotining qaysi sohasini olmang – sog‘liqni saqlash yoki ta‘lim deysizmi, iqtisodiyot yoki kichik biznes sohasi deysizmi, rahbarlik, madaniyat va sport jabhalari deysizmi – ularning barchasida yoshlarning huquq va manfaatlari alohida e‘tiborga olinayotganini ko‘ramiz. Hech qachon ma‘naviyatsiz etuk insonni tarbiyalab bo‘lmaydi. CHunki, odamzot uchun hayot yo‘llarida har qadamda zarur bo‘ladigan ajdodlar yodi, milliy g‘urur va iftixor, jonajon Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, istiqloлга sadoqat, farzandlik hissi, insoniy fazilatlar aynan ma‘naviyat orqali uning ongu tafakkuriga singib boradi, hayotining ma‘no-mazmuniga aylanadi. Ma‘lumki, yoshlikda inson qiziquvchan va intiluvchan bo‘ladi. Uning ana shu intilishlarini ma‘naviy komillik sari yo‘naltirish nafaqat ana shu yigit-qizlarning, balki butun jamiyatning yorug‘ kelajagini ta‘minlashda hal qiluvchi va dolzarb masaladir. Zero, ma‘naviyat azal-azaldan insonni komillikka etaklaydigan beqiyos ne‘mat bo‘lib kelgan. SHu ma‘noda, hozirgi kunda ham ma‘naviyat – najotkor kuch, ma‘naviyat – ilohiy yog‘du desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Ayniqsa, hayotga katta orzu-umidlar bilan qadam qo‘yayotgan, unga faqat pok va beg‘ubor nigoh bilan qarab, oldinga intilayotgan yoshlarga nisbatan olganda, bu haqiqat yanada teranroq ma‘no-mazmun kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni xar tomonlama etuk barkamol qilib voyaga etkazish uchun oila, mahalla, ta‘lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyatini ta‘minlash oliy maqsadimiz hisoblangan ozod va obod erkin va farovon xayot barpo etish uchun asos bo‘ladi.

²⁷⁸ Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси; асосий тушунча ва тамойиллари. Т.: Ўзбекистон. 2000., 3-4-бетлар

²⁷⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 38 б.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

1. Demokratik jamiyat bilan bog'liq qarashlarning vujudga kelishi.
2. «Avesto» da siyosiy qarashlar va g'oyalar.
3. Antik dunyo siyosiy ta'limotlari.
4. Odil jamiyat to'g'risidagi qarashlar, tizimlari va ularning tasnifi.
5. Odil jamiyat bilan bog'liq tushunchalarni tahlil qilish.
6. «Temur tuzuklari»dagi siyosiy qarashlar va uning ahamiyati.
7. SHarq va G'arbda o'rta asrlar hamda Uyg'onish bosqichlarida siyosiy ta'limotlar.
8. XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy qarashlar.
9. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy hayot.
10. Jadidlarning odil jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
11. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning «o'zbek modeli».
12. Demokratik jamiyat qurilishining turli xil milliy modellari mavjudligi.
13. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari va «O'zbek modeli».
14. Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbek modeli»da demokratik jamiyat qurish tamoyillari: iqtisodning siyosatdan ustuvorligi.
15. Davlat bosh islohotchi.
16. Qonun ustuvorligi.
17. Kuchli ijtimoiy himoya va bosqichma-bosqich rivojlanish.
18. «O'zbek modeli»ning jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida namoyon bo'lishi.
19. «O'zbek modeli» va uning o'ziga xos xususiyatlari.
20. Demokratik jamiyat qurishda «O'zbek modeli»ning o'rni.
21. «O'zbek modeli»ning dunyo davlatlari tomonidan e'tirof etilishi.
22. «Dunyoviy davlat» va «milliy davlatchilik» tushunchalari.
23. O'tish davri tushunchasi.
24. Uning mustaqillikni qo'lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun zarurligi va mohiyati hamda umumiy qonuniyatlari.
25. O'tish davrining «klassik», «inqilobiy», «evolyusion» yo'llari.
26. O'zbekistonda «o'tish davri»ga yondashishning o'ziga xos jihatlari.
27. Evolyusion, tadrijiy rivojlanish yo'lining mohiyati.
28. Islom Karimov tomonidan O'zbekistonning «evolyusion tadrijiylik» asosida demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy, konseptual metodologiyasining ishlab chiqilishi.
29. O'zbekistonda «evolyusion-tadrijiy rivojlanish»ning real hayotga tatbiq qilinishi.
30. «O'tish davri»ning ahamiyati.
31. O'zbekiston Respublikasida «O'tish davri»ning o'ziga xos xususiyatlarining dunyo davlatlari tomonidan o'rganilishi.
32. Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar tushunchasi.
33. Prezident Islom Karimov O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarga tayanish to'g'risida.
34. Milliy qadriyatlarining demokratik jamiyat qurishda aks etishi. Demokratik jamiyat barpo etishda umumbashariy tamoyillarga bo'lgan zarurat.
35. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umumbashariy tamoyillari uning o'ziga xosligi.
36. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning uyg'unlashuvi.
37. Demokratik tamoyillarga amal qilish shart-sharoitlari.

38. O'zbekistonda adolatli, demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirilishining ahamiyati.
39. Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning o'rni.
40. Prezident I.A.Karimov asoslarida demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar to'g'risidagi nazariyalar.
41. Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning ahamiyati.
42. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi.
43. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishida viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan bog'liq tushunchalar.
44. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari. Bu munosabatlarni tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinishi.
45. Kodeks, qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida adolat va inson manfaatlarini ustuvorligi.
46. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishlari. Birorta qonun hamda normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi.
47. Prezidentlik instituti.
48. Vazirlar Mahkamasi.
49. Sud mustaqilligi.
50. Davlat organlarining vakolatlari.
51. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.
52. O'zbekiston Respublikasida markaziy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, deganda nimani tushunasiz.
53. Davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi tushunchalarini ta'riflab bering.
54. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish qachon boshlandi, bu sohada nimalarga erishildi.
55. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga doir qanday strategik vazifalar qo'yildi.
56. O'zbekistonda qanday jamiyat va davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilingan.
57. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari
58. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni
59. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish islohotlarini yanada chuqurlashuvi
60. O'zbekistonda davlat boshqaruvi - ijrochilik faoliyati yuritish xususiyatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati faoliyatini amalga oshirishning yagona ko'rinishi.
61. Qonunlar, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlarini hayotga joriy etishga qaratilganligi.
62. Davlat boshqaruvi xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilishi.
63. "Fuqaro erkinligi va faolligi" tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixidagi talqinlari.
64. Abu Nasr Farobiyning komil inson va fozil jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
65. Hozirgi davr demokratiyasida inson, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlari.
66. Prezident I.A.Karimov demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish to'g'risida.
67. O'zbekistonda inson faolligini oshirish demokratik jamiyat qurishning asosiy omili ekanligi.
68. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurishning bosh maqsadi.
69. O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda fuqarolarning qonun va qarorlar qabul qilishdagi faolligi.
70. Uning fuqaro erkinligi va faolligini oshirishdagi ahamiyati.
71. Fuqaro erkinligi va faolligining asosiy mezonlari.
72. Fuqaro erkinligi va faolligi demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti.

73. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va uning mohiyati.
74. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish taraqqiyot omili.
75. O‘zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish va uning xususiyatlari.
76. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi va uning mohiyati.
77. Bozor munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari.
78. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning aniq yo‘nalishlari.
 79. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, valyuta bozorini erkinlashtiri.
 80. Iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlarini amalga oshirish va uni modernizatsiyalash.
 81. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish.
 82. Investitsion muhit va investorlar uchun kafolat yaratish.
83. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari.
84. “Adolat” hamda “tenglik” tushunchalari.
85. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va ijtimoiy haqidagi g‘oyalari.
86. O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya – jamiyatda tartib, intizom, barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlash omili sifatida.
87. Prezident I.A.Karimovning mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni barpo etish to‘g‘risidagi konsepsiyasi.
88. O‘zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlari. Kuchli ijtimoiy himoya siyosati: uning maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari hamda xususiyatlari.
89. Demokratik jamiyat turli qatlamlar, guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtirishda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyaning barqaror taraqqiyotni ta‘minlashdagi ahamiyati.
90. SHarqda ijtimoiy adolat to‘g‘risidagi g‘oyalarning shakllanishi.
91. Mustaqillik davrida adolat tushunchasining yangi mazmuni.
92. Ijtimoiy himoya g‘oyasining adolat va demokratiya tamoyillari bilan bog‘liqligi.
93. Demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyatning o‘rni va ahamiyati.
94. Mahalliy hokimiyat organlari sohasidagi islohatlar.
95. Mahalliy hokimiyat o‘rganlari sohasida amalga oshirilgan islohatlar.
96. O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni.
97. Mahalla–fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida.
98. Mahallaning demokratik fuqarolik jamiyat qurishdagi roli.
99. O‘zini o‘zi boshqarishning demokratik tamoyillari.
100. O‘zini o‘zi boshqarish organlari-fuqarolik jamiyatining asosi.

GLOSSARIY

Demokratiya konsepsiyalari (rus.-konsepsii demokratii; ing.-the concept of democracy) – “O‘zbek modeli”ning mashhur besh tamoyili hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish bilan bog‘liq mumtoz strategiyasi etti ustuvor maqsad vazifalar konsepsiyasi.

Demokratiya (rus.- demokratiya; ing.-democracy) – “xalq hokimiyati” ma’nosini anglatadi.

Konstitutsiya (rus.-konstitutsiya; ing.-constitution) – tuzilish tartib – davlatning asosiy qonuni.

Mentalitet(rus.-umonastronie; ing.-mentality) – aql idrok. Milliy yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, diniy e’tiqodlar.

Senat (rus.-senat; ing.-senate) – parlament palatasi huquqiy vakillik palatasi.

Fuqarolik jamiyati (rus.-graždanskoe obshchestvo; ing.- civil society) – davlat jamiyat, ijtimoiy taraqqiyotning oliy demokratik shakli.

Iqtisoiy plyuralizm (rus.-ekonomicheskiy plyuralizm; ing.- economic pluralism) – mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining turli tumanligi.

“O‘zbek modeli” (rus.- “Uzbekskaya model”; ing.- the uzbek model) – Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyotini besh tamoyili.

Menedjer (rus.- menedjer; ing. - manager) – firma, kompaniya va bankning boshqaruv rahbari, yollanma boshqaruv rahbari.

Ma’naviyat (rus.- duxovnost; ing.- spirituality) – insonlarning ichki, ruhiy olami, iroda va e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan insoniy fazilatlar majmui.

Avtokratiya-Avtokratiya-Autocratic

Avtokratiya–davlat boshlig‘i cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug‘atlarida hokimiyatga da’vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy xukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi.

Avtoritarizm- Avtoritarizm-Authoritarianism

Avtoritarizm–(lotinga “authorities” – obro‘, nufuz va e’tibor) davlatni boshqarish usullaridan biri. YAKka shaxsning davlatning o‘z ta’siri, obro’si, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o‘z taraqqiyotining murakkab, qaltis va mas’uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma’noda namoyon bo‘ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-politsiya fashistik tartibotlar “kazarmali kommunizm” shuningdek stalinizm kiradi.

Agressiya- Agressiya- Aggression

Agressiya – bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo‘lga kiritish, uning mustaqilligini yo‘q qilish yoki cheklash, aholisini bo‘ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurolni agressiya – (bosqinchilik).

Anarxizm- Anarxizm-Anarchism

Anarxizm – jamiyatni davlat huquq va institutsional boshqaruvning barcha shakllaridan butunlay voz kechishga chaqiruvchi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy oqim. Anarxistik g‘oyalar qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda ham uchraydi. Davlatning rolini begonalashtirga qarshi tanqidiy fikrlar Lao UZI, Aristing qarashlarida uchraydi. Ammo anarxizmning nazariy jihatdan shakllanish davri XVIII asr oxiriga to‘g‘ri keladi. Anarxizm davlatni yuqoridan quyiga qadar tashkil etishning barcha shakllariga qarshi chiqadi. Bizning kunimizda anarxizm g‘oyalari bir qator falsafiy, ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalarga (masalan, “YAngi so‘llar”, “YAshillar”, “so‘l ravikallar” qarashlariga) ta’sir ko‘rsatmoqda.

Anneksiya- Anneksiya- Annexation

Anneksiya – zoʻrlik yoʻli (bosib olish) bilan bir davlatning, boshqa davlat, xalqni bosib olinishi va boshqa davlat chegarasida majburan ushlab turilishi, mustamlakaga aylantirilishi. Anneksiya sharoitida davlat chegaralari zoʻrlik yoʻli bilan xalq irodasi hisobga olinmagan holda oʻtkaziladi bu xalqaro huquq qoidolari va BMT ustaviga toʻgʻri kelmaydi.

Antisemitizm- Antisemitizm- Antisemitism

Antisemitizm – irqiy shovinizmning eng keskin shakllaridan biri, evrey millatini taqib etish va unga dushmanlarcha munosabatda boʻlgan mafkura va siyosat. Fashistlar germaniyasida antisemitizm davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Antisemitizm xalqaro hamjamiyat tomonidan qoralangan.

Aparteid- Aparteid-Apartheid

Aparteid– (afrikaans tilidan olingan boʻlib – alohida yashash maʼnosini anglatadi). Mamlakat aholisining butun guruhlarini irqiga qarab, keskin tengsizlik holati soluvchi siyosiy, fuqarolik va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan maxrum etuvchi irqiy __ etishning eng jirkanch shakllaridan biri.

Aristokratiya- Aristokratiya-Aristocracy

Aristokratiya– 1. Davlat hokimiyati imtiyozli aslzodalar qoʻlida boʻlgan boshqaruv shakli. Boshqaruv shakli sifatida aristokratiya monarxiya va demokratiyaga qarshi turadi.

2. U yoki bu imtiyozli sinfning imtiyozli qismi (Rimdagi patriitsylar, dvoryanlar...) yoki ijtimoiy guruhlar (M: Moliya aristokratiyasi)alohida huquq va imtiyozlarga ega boʻlgan qism.

Avesto-Avesto-Avesta

Avesto– (Parfiyonga “apastak” - matn) – Markaziy Osiyo xalqlari va bularning yaqin atrofidagi xalqlarning ilk yirik falsafiy va qomusiy asari, zardushtiylik dini va dunyo qarashining muqaddas kitoblari toʻplami. “Avesto” miloddan avvalgi II ming yillik oxiri I ming yillik boshiga oid boʻlib, ogʻzaki tarzda avloddan-avlodga oʻtib kelgan. Keyingi asrlarda “Avesto” tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, ahloqiy, huquqiy qonun-qoidalar qoʻshilib borgan. “Avesto”ni Zaradushtra diniy asar sifatida bir tizimga solgan.

“Avesto” oʻzbek, umuman Oʻrta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlar, olat toʻgʻrisidagi tasavvurlari, urf-odatlari, maʼnaviy madaniyatlarini oʻrganishda muhim manbadir.

Siyosiy bankrotlilik - politicheskogo bankrotstva - political bankrupt

Siyosiy bankrotlilik – alohida siyosiy etakchi, siyosiy partiya, davlat xukmron doiralarining muvaffaqiyasizlikka uchrashi, oʻz vaʼdalarining ustidan chiqq olmaganliklari, inqirozga uchragan siyosatni tubdan qayta oʻzgartirish, ommaning siyosiy ishonchini qozongan siyosiy etakchilar bilan oʻzgartirish va h.k.

Bolshevizm- Bolshevizm- Bolshevism

Bolshevizm–siyosiy yoʻnalish, shuningdek, siyosiy faoliyatning siyosiy texnologiya, usul va yoʻllari. Lenincha bolshevizm (yaʼni neobolshevizm) rossiya sotsial-demokratik harakatining soʻl oqimini anglatadi. Keyinchalik u aholiga nisbatan zoʻravonlikka asoslangan texnologiya yoʻlini tutgan soʻng kommunistik Partiya faoliyatiga aylangan.

Baynalminalchilik-Internatsionalist-Internationalist

Baynalminalchilik– (internatsionalizm, arabcha “baynalminal” - millatlararo) jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, xamjihatligi nazariyasi va amaliyoti. Insoniyat tarixi turli millatlari va

elatlari orasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir. Bunday munosabatlarsiz ijtimoiy taraqqiyot amalga oymaydi. Baynalminalchilik millatchilik va milliy bikiklikning xato va kamchiliklarini ochib tashlash jarayonida vujudga keladi. Baynalminalchilik umuminsoniy voqea bo'lib, davlatlar o'rtasidagi chegaralar va turli to'siqlar barchaga putr etkazmasligi kerakligini tasniflaydi.

Birja- Birja-Exchange

Birja– (lotincha “bure” - hamyon) standartlar, ya'ni andozalar yoki namunalar bo'yicha sotiladigan ommaviy tovarlarning muntazam foydalanadigan savdo shakllaridan biri bo'lib, tovar birjasi, qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalar, oblegatsiyalar va boshqalar) birjasi, fond birjasi, valyuta, ya'ni chet el pullari birjachi va shu kabi turlarga bo'linadi.

Birja muntazam ish olib boruvchi ulgurji bozorning eng rivojlangan shakli bo'lib, unda tovarlar, standarlari bo'yicha almashtiriladi, qimmatbaho qog'ozlar va valyuta sotiladi. Birjaning yarmarkadan farqi shundaki, tovarlarni sotish chog'ida mavjud tovarlar yuzasidan bitishuvlar amalga oshirilmaydi.

Bojxona-Тамojenny-Sustoms

Bojxona – davlat chegarasidan o'tadigan va o'tkaziladigan mol-mulklar hamda transport vositalarini nazorat qiluvchi, shuningdek, yuk egalaridan belgilangan tartibda (poshlina) va boshqa yig'implarni undiruvchi davlat muassasasi. Bojxona davlatning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qiluvchi organlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti-Рыночная экономика-Market economy

Bozor iqtisodiyoti – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. SHu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.

Byurokratizm- Byurokratizm- Redtape

Byurokratizm – qog'ozbozlik, sansolarlik, ishning mohiyatiga chuqur yondashmaslik, byurokratizm hokimiyatning (muassasa xizmatchilarning) xalq ommasidan ajralib qolgan vaziyatda vujudga keladi. Byurokratizm – bu ijtimoiy boshqaruv shakllarini, dalillarni buzib ko'rsatish, bir shaxs yoki ijtimoiy guruh manfaatlarini yo'lida davlatchilikni buzib ko'rsatilishi. Eng keng rivojlangan va ifodalangan shakllari davlat boshqaruvi sohasida amal qiladi.

Volyuntarizm-Volyuntarizm-Volyuntarizm

Volyuntarizm – (lotincha “volentare” - iroda)

1. Falsafada volyuntarizm idealistik oqimlardan biri bo'lib irodani borliqning eng yuqori tamoyili deb qaraydi.
2. Psixologiyada volyuntarizm irodani inson ruhiy hayotining asosiy omili deb qaraydi.
3. Siyosatda volyuntarizm haqiqiy, inson ongidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan qonuniyatlarni inkor qilib, imkoniyat va sharoitlarni e'tiborga olmagan holda shaxsning o'z subektiv irodasi orqali faoliyat ko'rsatishdir.

Vijdon erkinligi-Svoboda sovesti-Freedom of conscience

Vijdon erkinligi – bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.

Geosiyosat- Geosiyosat-Geopolitics

Geosiyosat – (yunoncha "geo"-er va "politike"-davlatni boshqarish san'ati.) – davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, tuprog'ining serhosilligi, tog' va dashtu-cho'llarning ko'p-kamligi va h.k.)ga alohida urg'u berish geopolitika nazariyasiga binoan millatlarning va davlatning tabiati, geografik joylashganligiga bog'liq.

Geosiyosat globallashtirishdan foydalanib XVIII-XIX asrlarda mustamlakachi davlatlar o'z bosqinchilik siyosatini amalga oshirdilar. XV asrda fashistlar germaniyasi, Yaponiya va sho'ro iste'dod davlati geosiyosiy siyosatni amalga oshirdi.

Hozirgi zamon geosiyosati jaxon va xar bir davlat siyosatda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Lekin hozirgi zamon siyosati tinchlik, xamkorlik, yaratuvchanlik siyosatini amalga oshirishga qaratilgan, umujaxon demokratiyasi, xalqlar tengligi jamoatchilariga suyanadi.

Globallashtirish-globalizatsiya-globalization

Globallashtirish – lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, ayni uni "Dumaliklashuv" deb tarjima qilish mumkin. Er sharining, er qurrasining fan texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyorida xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

Globallashtirishning ijobiy tomoni shunlan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniya va iqtisodiyotining yaqinlanishini tuzlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki mayda, qoloq, etik guruhlar va mamlakatlarning madaniyati, tili urf – odati kuyaayib borayotgan globallashtirish jarayonlarida qayta millatlar, yirik minglab madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlashmay o'z – o'zidani ijtimoiy – iqtisodiy, insoniy – zaboniy hayotdan chetga chiqib keladi. Bunday sharoitda xar bir ongli fuqaroning vazifasi – o'z millatining raqobatbardoshligini ko'rsatish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkorlik iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli salmoqli yutuqlari uchun kurashadi.

Genotsid-Genotsid-Genocide

Genotsid – xalqaro jamoatchilikning ko'rinigi bo'lib butun bir aholi guruhlarini irqiy milliy, etnik yoki diniy alomatlariga ko'ra barchani jismoniy jizatdan qirg'in qilish uning asosiy maqsadidir.

Milliy madaniy soxada genotsid - bu u yoki bu millatni irqiy yoki diniy guruhning tilini, dinini va madaniyatini: milliy tilda o'qitishni taqiqlash, bibliotekalarni, muzeylar, maktablar, tarixiy yodgorliklar, madaniy inshootlar va x.k.z. yo'q qilish demakdir.

Global muammolar- Globalные проблемы- Global problems

Global muammolar – ushbu muammolar o'zining daxshatli oqibatlarini, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa xar qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bumuammolarni jamiyat xayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'llami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar xayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Global muammolar mohiyatiga kuyidagi turlarga bo'linadi: Ineknichniy yadro xalokatidan saqlash; yalpi va umumiy umumiy tinchlikni ta'minlash; xalqaro terrorizm muammosi shu jumladan

mintaqalardagi terroristik xarakatlarga birgalikda kurash; giyoxvandlikka qarshi birgalikda kurash; jamiyat muammosi; energetika muammosi; qashshoqlik muammosi; ocharchilikka qarshi kurash; xayvonot va o'simliklar dunyosini saqlash; ekologiya; spid va x k.

Davlat xokimiyati-Pravitelstvo-The government

Davlat xokimiyati - Xalq xokimiyatining maxsus qurilmasi – davlat orqali amalga oshiriladi. Davlat o'zining organlari orqali siyosiy xokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo'lida to'planganidaginibir erda mujassamlashishi va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli xokimiyat vositasida majburlov va ta'sir choralarini qo'llaydi. Davlat xokimiyati qonunidir, ya'ni davlatning, davlat organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi.

Davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli - Prezidentskaya forma gosudarstvennogo upravleniya - Presidential form of government administration

Davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli – davlat boshqaruvining samarali shakllaridan biri, davlatni boshqarish san'ati, nazariyoti va amaliyotining taraqqiyoti natijasida taraxiy tenerigacha tayanibolingan asosiy yo'llardan biridir. Prezident Respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra BMTga a'zo 192 davlatdan 142 tasi Prezident lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati Prezidentlik respublikasidir. Prezidentlik respublikasining parlamentar respublikadan farqi: Prezident bevosita xalq jamiyatidan saylanib davlat va ijroiya xokimiyat mas'uliyatini o'z ichiga oladi.

Davlat tuzilishi va uning shakllari- Struktura gosudarstva i ego form- The structure of the state and its forms

Davlat tuzilishi va uning shakllari – Davlat o'z tuzimi jixatdan asosan uch turga federativ, konfederativ va unitar tarzda bo'linishi mumkin.

Unitar davlat (yaxlit) federatsiyadan farqli o'laroq, viloyat, o'lka, tuman gubernya, grafliklar singari ma'muriy – xududiy qisimlardan tashkil topgan tuzilma.

Fedarativ (murakkab) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, xududiy er birliklari kabi qisimlardan tuzilgan (M: AQSH da shtatlar va b.)

Konfederatsiya – davlat tuzilishining shunday bir shakli, unga ko'ra, konfederatsiyani ta'sis etuvchi davlatlar, o'z mustaqilliklarini to'liq saqlab qolgan holda, muayyan bir maqsadda (xarbiy, xo'jalik, muxim ichki va tashqi siyosat masalalarini xal qilishda) o'z kuchlarini uyg'unlashtirib, ish ko'radilar.

Davlat chegarasi-gosudarstvennoy granitsy-state border

Davlat chegarasi-davlatning zaruriy belgilaridan biridir. Har qanday davlat o'z xududiy chegarasiga egadir. Davlat xududining boshqa bir davlat xududi bilan tutash chizig'i davlat chegarasi deb ataladi. Davlatimiz xududiy chegarasining umumiy uzunligi 6221 km. ni tashkil etadijumladan Qozog'iston bilan chegara – 2203 km, Turkmaniston – 1621, Tojikiston bilan 1161 km, Qirg'iziston bilan – 1093 km, Fvg'oniston bilan - 137 km. dan iborat.

Devalvatsiya-Devalvatsiya-Devaluation

Devalvatsiya – (lotincha, devalute pasayish, kamayish, qiymatsizlanish) – milliy valyuta kursining oltin standarti va valyutalar qat'iy kursi tizimiga nisbatan kamayishi, pasayishi. Devalvatsiya natijasida chet el valyutasi qiymati oshib, import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxlarini oshishi mamlakat ichkarisida ishlab chiqariladigan tovarlar narxi tushishi yuz beradi.

Amalda milliy valyuta devalvayiyasi axhamiyatining faol daromadi kamayishiga va uning turmush darajasi pasayishiga olib keladi. Devalvatsiyaga teskari jarayon revalvatsiya deb ataladi.

Demokratiya-Demokratiya-Democracy

Demokratiya – (Qadimgi zamon tilida “demos” xalq va “kratos” - xokimiyat) – “Xalq xokimiyati” ma’nosini anglatadi.

Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq xokimiyati ya’ni ozchilikning ko’pchilikka bo’ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e’lon qilinadigan fuqarolarning erkinligi va teng xuquqliligi e’tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a’zolari hayotining asosiy qonuni – ushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.

Diplomat-Diplomat-Diplomat

Diplomat – (yunoncha “diploma” – “ikkiga buklangan xujjat” so’zidan olingan va ushbu xujjatni manzilga etkazuvchi shaxs “Diplomat”, deb ataladi) – davlatning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa boshqa sohalaridagi faoliyatini ta’minlash hamda uning milliy manfaatlarini ximoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati. Diplomatiya – tashqi siyosatining, davlat xalqaro faoliyatining ajralmas qismi.

Despotizm-Tiraniya-Tyranny

Despotizm – 1) Davlat tuzilishi tizimi xokimiyatning zo’ravonligiga, xalqning xar qanday xuquqidan maxrum etilganligini xarakterlovchi cheklanmagan monarxiyaga 2) cheklanmagan xokimiyatga, xalqning erkin irodasini bo’g’ishga. Despot – cheklanmagan va qattiq qo’l xukmdor, zolim.

Evro-Evro-Euro

Evro – “Evropa” qit’asi nomining qisqartirilgani bo’lib shu qit’aga tegishli pul birligini mamlakatlarning yagona valyutasidir.

1998 yilda Evropaning yagona valyuta – iqtisodiy fazosi vjudga keltirildi. Evropa markaziy banki tashkil qilinib, Evropa ittifoqi mamlakatlarning umum pul-kredit siyosati amalga oshirila boshlandi va yanvardan Evropa Ittifoqi bo’yicha yagona pul birligi “Evro” kiritildi. 2002 yil 1 iyuldan milliy valyutalar muomaladan uzil – kesil chikarildi.

Evropa davlatlari iqtisodiy uyushmasi- Страны Европейской экономической ассоциации- The countries of the European Economic Association

Evropa davlatlari iqtisodiy uyushmasi - 1957 yilda Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg davlatlari tomonida shartnoma asosida tuzilgan iqtisodiy uyushma tashkil topgan kundan boshlab hozirgi kungacha mazkur uyushmaga g’arbiy Evropadagi 26 davlat a’zo bo’lgan.

Uyushmaning maqsadlariga muvofiq

A) Davlatlar aro bojxona uyushmasi tuzilgan

B) Mexnat kuchi, xizmatlar va kapitallar umumiy bozori tuzilgan.

V) Qishloq xo’jaligi va transportda o’zaro kelishilgan tadbirlar o’tkazilmoqda.

G) Davlatlarning iqtisodiy kamchiligini yaqinlashtirish tadbirlar amalga oshirilmoqda.

D) Uyushma a’zolar bilan boshqa mamlakatlar bilan o’zaro kelishilgan savdo – sotiq siyosatini amalga oshiriladilar.

Investitsiya-Investitsiya-Investment

Investitsiya - (lotincha “investicio” - joylamoq) mablag‘ni ma’lum boylikni, qo‘shimcha daromad olish maqsadida, ishlab chiqarish, yoki boshqa sohasha joylashtirish, mablag‘ sarflash demakdir, “investitsiya” va “mablag‘ sarflash” teng kuchli so‘zlar deyish mumkin. Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar turlariga qo‘shiladigan barcha moddiy hamda nomoddiy boyliklar investitsiya xisoblanadi.

Bu boyliklar quyidagicha bo‘ladi:

1. pul vositalari, maqsadli bank omonatlari xissalar, aksiyalar, sug‘urta xujjatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlar;
2. Kuzatish mumkin bo‘lgan va ko‘chmas mulk
3. Mualliflik xuquqidan kelib chiqadigan mulkiy va nomulkiy xuquqlar, boshqa intellektual xuquqlar.
4. Boshqa boyliklar

Investitsiyalar uzoq, o‘rta va qisqa muddatli investitsiyalarga bo‘linadi. Uzoq muddatli investitsiyalar, asosan, qimmat baxo va murakkab laxzalarda amalga oshiriladigan, ular uzoq muddat davomida o‘zini –o‘zi qoplaydi. (10 va undan ortiq yillar) qisqa muddatni investitsiyalar odatda bir yilga bo‘linadi.

Integratsiya- Integratsiya- Integration

Integratsiya - (lotincha “integratio” o‘zaro moslashish va birlashish) milliy iqtisodiyotlarning sifat jixatdan yangi sharoitlarga ega bo‘lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o‘zaro ta’sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo‘nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o‘rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora tadbirlarni qo‘llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga bog‘liq hamda besh bog‘onaga ajratiladi.

5. Erkin savdo mintaqasi;
6. Umumiy bozor;
7. Bojxona ittifoqi
8. Valyuta – iqtisodiy ittifoq;
9. Siyosi ittifoq;

Mazkur borada Evropa iqtisodiy hamkorligi (EIX) Evropa ittifoqi namuna bo‘lib xisoblanadi.

Internet- Internet- Internet

Internet – YAgona tilda muloqot qiluvchi kompyuterlarni butun dunyo bo‘ylab (global) tarqalgan tarmog‘idir. U xalqaro televideniya tarmog‘iga o‘xshash xech kimga tobe emas va uning xech dim to‘lashigacha boshqarmaydi. SHunga qaramay u shunday bog‘langanki, go‘yoki u yagona sizga ishlagandek imkon yaratadi. Bugungi kunda internet 190 dan ziyod mamlakatlarda bor 600 mln. Ortiq abonentga hizmat qiladi.

Infilatsiya- Infilatsiya-Infilatsiya

Infilatsiya – (lotincha “inflatio” – shishish, ko‘pirgi) narx – navoning tez suratlarda – oshishi real tovarlar takliflarga nisbatan pul massasi ortib, pulning qadr-qiymati va xarid qobiliyatining qadr – qiymati va xarid qobiliyatining pasayib ketish. Iqtisodiyotda vjudga keladigan muammolar pul bosib chiqarishni kuchaytirish orqali xal qilinsa yoki qog‘rz pullar xajmini o‘zgarmagan xolda tovar xajmi kamaysa, infilyasiya yuzberadi. U aholi turmush darajasini pasayishiga sabab bo‘lishdan tashqari korxonalarini uin muddatli investitsiyalar joriy etishga majbur qiladi, ishlab chiqarish saloxiyatini va texnikani yangilashga qaratilgan –intilishlarni so‘ndiradi.

Bu bilan iqtisodiyotning qayta rejalanihiga to'sqinlik qilibgina qolmay, uning kelajakda rivojlanishning susayishiga olib keladi.

Infilatsiya turlari- Infilatsiya turlari- Infilatsiya

Infilatsiya turlari-integratsiyalashgan infilatsiya – iqtisodiy omillar asosida ro'yi beradi;

1. Kredit infilatsiya – xaddan tashqari kredit ekonomiyasi natijasida vujudga keladi;
2. Urmalovchi infilatsiya – sust sur'atlarda rivojlanuvchi infilatsiya;

Qatag'on infilatsiya- Repressii **infilatsiya-** Repression infilatsiya

Qatag'on infilatsiya – narxlarning yuqori suratlari ko'tarilishi;

Ma'muriy infilatsiya- административные **infilatsiya-** administrative infilatsiya

Ma'muriy infilatsiya - narxlarni boshqarish yo'li bilan oshirish natijalarida yuzaga keladi.

Giperinfilatsiya-Giperinfilatsiya-Giperinfilatsiya

Giperinfilatsiya – narxlar o'ta tezlikda o'sadi.

Ijtimoiy infilatsiya – narxlar ortadi, atrof muxit ximoya etishga xarakat qilinishi natijasida o'sadi.

Iqtisodiy tushkunchilikning, ishsizlikning ortishi bog'liqligi va io'lab chiqarishning qisqartirish bilan bog'liq infilatsiya.

Impichment- Impichment- Traian Basescu

Impichment – ayblash, davlat jinoyatchisini so'zga tortish. Bir qator mamlakatlarda(Buyuebritaniya, AQSH, YAponiya) davlat jinoyatchilarini. Mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig'i–Prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustaxkamlangan. Ma'suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.

Inaguratsiya-Inaguratsiya-Inauguration

Inaguratsiya – Davlat boshlig'i lavozimiga kirishish oldidan o'tkaziladigan tantanali marosim. YAngi Prezident va vitse Prezident xokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. SHuningdek xaykallarni ko'rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi.

Koalitsiya-Koalitsiya-The coalition

Koalitsiya (ittifoq) – Birlashish, kelishuv ittifoq. Partiyalar, davlatlar, davlatlar tomonidan umumiy iqtisodiy, siyosiy, xarbiy maqsadlarga erishishi maqsadida tuziladigan ixtiyoriy ittifoq. Evropaning bazi davlatlarida hokimiyatni birgalikda boshqarish maqsadida bir nechta siyosiy partiyalar birlashadilar.davlatlar aro xarbiy siyosiy ittifoq misol etib fashizmga qarshi kurashda Gitlarga qarshi koalitsiya tuzilganliginimisol keltirish mumkin.

Konstitutsiya-Konstitutsiya-Constitution

Konstitutsiya – (lotincha “constutio” – tuzilish, tartib) – Davlatning asosiy qonuni.

Ma'lumki , xar bir davlatda, uning ichki va tashqi xayotini tartibga solish uchun, davlat mexanizmi rejali ishlab turishini ta'minlash maqsadida yuzlab turli qonunlar ishlab chiqiladi. Ammo, bu qabul qilingan qonunlar va qonunosti aktlari davlat xayotining ayrim soxalariga tegishlidir.Bu qonunlarni

hammasini bir maqsad , bir g'oya va bir tartibga bo'ysundiradigan yagona umumdavlat asosiy qonun kerak, anu shu muxim qonun konstitutsiya deyiladi. Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar, qarorlar, ko'rsatmalar va echimlardan yuqori turadi, ularga nisbatan eng oliy manbadir. Konstitutsiya davlatdagi tartib-qoidalarining xuquqiy asosidir. Konstitutsiya aksariyat davlatlarda oldindan tayyorlanib, yozilib muxokamadan so'ng qabul qilinadi.

Tarixda birinchi konstitutsiya 1778 yilda AQSHda qabul qilingan va xozirgacha u kuchda.

Korrupsiya- Korrupsiya-Corruption

Korrupsiya – (lotincha “coruptio”- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida uz mansabi bilan bog'liq xuquqlarni suistemol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qaerda davlat bo'lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jaxonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.

Bu masala bilan xattoki birlashgan millatlar tashkiloti alohida shug'ullanib maxsus kurslar qabul qilingan va korrupsiyani quyidagicha ta'riflagan:

- 1) Mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini ug'irlash, talon-taroj qilish va o'zlashtirish;
- 2) Noqonuniy foyda olish uchun o'z xizmat lavozimini suiste'mol qilish;
- 3) Ijtimoiy burch va shaxsiy tamagirlik manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat.

Ko'ppartiyaviylik-mnogopartiynaya-multiparty

Ko'ppartiyaviylik – xozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvidarajasining muxim poydevor ko'rsatkichidir. Ko'ppartiyaviylikning o'ziga xos belgisi, bu siyosat xilma-xillik, jamiyatda bir nechta siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlariniparlament davlat xokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini – o'zi boshqarish uyushmalalri va xakozolar orqali ifoda etish holda ro'yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmalaridir.

Liberallashtirish-Liberalizatsiya-The liberalization

Liberallashtirish – ijtimoiy xayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, iqtisodiyotga davlat aralashuvini, korxonalarga iqtisodiy erkinliklar va xususiy mulkning davlat tomonidan ximoyalanishi.

Lobbizm-Lobbizm-Lobbizm

Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko'rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo'lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni, zakazlarini, yordamga beriladigan mablag'ni (subsidiyani) olish yo'lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo'lsa sotib olishi) yo'lini tutuvchi tushuncha.

Menejment-Upravlenie-Management

Menejment – (fransuzcha “menagment” – xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish) – samarali ishlab chiqarish ffaoliyatini ta'min etish, manaviy hamda moddiy zaxiralardan foydalanish shakllari, usullari va vositalarining jami. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda menejment ko'p tarmoqli bo'lib , unga o'rganish, o'qish va bilish, menejment soxasidagi ishlarnitakomillashtirish juda keng taraqqiy etgan o'quv – o'rganuv yo'naligichidir.

Mentalitet- Umonastroenie-Mentality

Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, mam’naviy salohiyati, ularning xayot qonunlarini taxlil etish kuchi, muxim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mintaliteti uning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Millat-Natsiya-Nation

Millat – (arabcha “millat”-xalq) – kishilarning yagona xolda so‘zlashishi, yaxlit xududda isteqomad qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruxiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

Millatchilik-Hatsionalizm-Nationalism

Millatchilik – kapitalizm davrida jaxonning mustamlakalar va istropoliyalar, qoloq o‘lka va ilg‘or davlatlar, ozod xalqlar va mustabillik iskanjasidagi xalqlarga bo‘linib ketishiga qarshi kurashuvchi demokratik, ma’rifatparvar xamda insonparvar kuchlardan farqli o‘laroq bu ziddiyatlarni o‘z millatini manfaatlarini boshqa millatlar xaq-xuquqlaridan yuqori qo‘yib xal etishiga intiluvchi siyosiy oqim.

Milliy valyuta-Hatsionalnaya valyuta-The national currency

Milliy valyuta – mamlakat xududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarni ifodalash vazifasini o‘tuvchi va qununiy ximoyalangan yagona to‘lov vositasi. Har bir mamlakatning o‘z pul birligi mavjud. Rossiyada rubl, AQSH dadollar qonuniy to‘lov vositasi xisoblanadi. Tartibda turli bulimlar, qimmatbazo toshlar va metallar pul vazifasini o‘tgan. Hozirgi paytda muammoda faqat qog‘oz pullar ishlatiladi va ularning qiymati oltin yoki qimmatbaxo metallarga bog‘langan.

Milliy siyosat-Hatsionalnaya politika-National policy

Milliy siyosat – ushbu so‘z birikmasi, odatda, ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi – muayyan milliy davlat amalga oshirilshun umumiy siyosat. Ma’lumki, davlat asosan, milliy negizida shakllanadi masalan Fransiya-fransuzlar asosiy millatni va aholining ko‘pchiligini tashkil qilgan davlat.

“Milliy siyoat” so‘z birikmasining ikkinchi ma’nosi shundan iboratki, ko‘pchilik davlatlarda, ayniqsa mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDX) mansub mamlakatlarda millatlar aro munosabatlarga tegishli siyosat ma’nosini bildiradi. Hozirgi kunda o‘zbeklar O‘zbekiston aholisining deyarli 4/5 qismini tashkil qiladi.

Muxolifat-Oppozitsiya-Opposition

Muxolifat – (arabcha “muxolift” – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) davlat, Prezident, xukumat yoki siyosiy hamda ijtimoiy tashkilotlarning rasmiy siyosatiga, xukumron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai nazar, e’tiqod, maslak, yo‘l.

Muxolifat uch xil bo‘lishi mumkin: a) parlament dosirasida; b) parlamentdan tashqarida, V) siyosiy partiyalar ichida. Ichki partiyaviy muxolifat muayyan partiya rahbariyatining rasmiy siyosatiga qarshi chiquvchi kishilar guruhidan iborat. Parlament muxolifatiqonun chiqaruvchi organga aylangan, ammo unda ozchilikni tashkil etgan deputatlar va partiya fraksiyalari xisoblanadi.

Monarxiya-Monarxiya-Monarchy

Monarxiya – Davlat boshqaruv shakli bo‘lib, unda xokimiyat tomonida bir shaxsning qo‘lida davlat boshlig‘ida bo‘lib, u nasildan naslga, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tish (padsio, qirol, imperator, sulton va boshqalar) xususiyatiga ega. Monarxiya turli shakllarda nomoyon bo‘ladi: cheklanmagan monarxiya, bu qo‘ldorlik va feodal tuzumlarda amal qiladi. Cheklangan monarxiya

(Parlament monarxiyasi) – xokimiyat monarxiya parlament tomonidan cheklangan. M: Buyuk britaniya, Norvegiya, SHvetsiya, Daniya va boshqalar.

Neakanesrvatizm-Heakanesrvatizm-Neakanesrvatizm

Neakanesrvatizm – neakonservatorlar axolining kam ta'minlangan qatlamlari foydasiga resursdarni qayta taqsimlash masalasida yirik kapitalga solinayotgan soliqlarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashadi dushmani sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini qisqartirishi talab etadilar. Ularning fikricha, xozirgi davlat kishilar uchun natijalar emas balki imkoniyatlar tengligini yaratib berishi zarur. Davlatning "Sogin sigir" ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi, xar bir kishi o'z faoliyatda davlatga emas, balki o'zining kuchiga ishonishi kerak.

Neoliberalizm-Neoliberalizm-Neoliberalism

Neoliberalizm – mafkuraning harqanday ko'rinishi o'zgaromasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgaromasdan kelmadi. U ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XX asrning 30 yillarida neoliberalizmga o'sib o'tdi. Neoliberalar davlatning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, faol ijtimoiy siyosat olib borish zarurligini tan oladilar. Ular siyosiy dasturning negizini boshqaruvchi va boshqarilayotganlarning o'zaro kelishuvi, siyosiy jarayonda ommaning ishtirok etishi zarurligi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratlashtirish tashkil etadi.

Parlament-Parlament-Parliament

Parlament – (fransuzcha "parler" – so'zlamog; Parlament rasmiy so'zlashish joyi, notiklik koshonasi, suxandonxona). Davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi. Parlament birinchi bor XXII asrda Angliyada davlat xokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, XVII-XVIII asrlarda boshqa mamlakatlarga etildi. Parlament davlatdagi aniq vaziyatga qarab bir palatali yoki ikki palatali bo'lishi mumkin. Parlament Fransiyada senat va milliy assemblyadan, Angliyada lordlar palatasi va jamoalar palatasi, AQSH da senat va vakillar palatasidan iborat.

Parlament qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, xududiy saylov okruglari bo'yicha, odatda ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi.

Plebissit-Plebissit-Plebistsit

Plebissit – (lotincha "pledius" – oddiy xalq, "Seium" - qaror) – umumxalq ovoz berishi orqali aholining fikri – xoxishini bilish usullaridan biridir. Plebissit xalqning saylovlarda ovoz berish usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. U davlatni boshqarish shaklini o'zgartirish to'g'risidagi masala yuzasidan o'tkaziladi.

Respublika-Respublika-Republic

Respublika – (lotincha "res" – ish, faoliyat va "publikus" – jamoatchilik faoliyati) – davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biridir. Boshqarishning Respublika shakli o'rnatilgan mamlakatlarda davlat xokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qo'yiladi.

Tarixda Respublikaning xar xil turlari bo'lgan. Qadimgi yunonistonda va o'rta asrlar davrida, ayrim davlatlar boshqarish shakliga ko'ra, aristokratik yoki demokratik respublika shaklidabo'lgan.

XIX – XX - asrlarga kelib, respublika davlatini boshqarishning eng keng tarqalgan shakliga aylandi. Hozirgi davrda respublikaning uchta asosiy turi mavjud: Prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika va aralash respublika.

Referendum-Referendum-Referendum

Referendum – (lotincha “referendum” – e’lon qilinishi lozim bo’lgan xabar) jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo’llaniladigan tadbirlardan biri, ba’zi muhim masalalarni umumxalq ovozigina, umumxalq so’roviga, xalq muxokamasiga qo’yib xalq etish.

Referendumni davlatning oliy organi o’tkazadi. Referendum – jamiyatni demokratik asosida boshqarishni ta’min etishga erishishi uchun olib boriladigan ko’ppartiyaviylik kurashida erishilgan yutuqlardan biri.

Referendum shakllari uch xil bo’ladi: 1) umummilliy referendum – butun mamlakat miqyosida o’tkaziladi; 2) Maxalliy referendum – federativ davlat subektlarida o’tkaziladi. 3) Ma’muriy xududiy referendum esa xududiy birlikda o’tkaziladi.

2002yil 27 yanvar referendumida xalqimiz ikki savolga javob beradi: 1. O’zbekiston parlamenti ikki palatani bo’lishini ma’qullaysizmi? 2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolati besh yildan etti yilga uzaytirilishi ma’qullaysiz? Xalqimiz bu ikki savolga “ha” deb javob berdi.

Raqobat-Sopernichestvo-Rivalry

Raqobat – ishlab chiqarish munosabatlarining sub’ektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va b.) o’rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo’lishi, unumli texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo’lga olib, umuman, yuqori daromad olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurash.

Senat- Senat- Senate

Senat – (lotincha “senatus, senex so’zidan” yoshi ulug’, xayotni ko’rgan, tajribali degani) – jaxon ijtimoiy – siyosiy tarixida qadimdan ma’lum tushuncha. Miloddan avvalgi Rim davlatida urug’lar oq soqollarining kengashi “Senat” deb atalgan. Senat xukumatining oliy organlaridan biri. Xozirgi davrda AQSH, Fransiya, Italiya kabi kator davlatlarda shu jumladan O’zbekistonda qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatasining biri.

Siyosiy institutlar-Politicheskie instituty-Rolitical institutions

Siyosiy institutlar - Jamiyatning qaror topgan davlat tashkiloti muassasalari va undagi lavozimlar tarkibi tushuniladi. Ular muayyan siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Siyosiy partiya-Politicheskaya partiya-Rolitical party

Siyosiy partiya - (lotincha “Part”, “Pars” – qism, guruh, eski o’zbekchada arabcha “Firka” so’zi – guruh to’da) – umumiy g’oya va manfaat, ijtimoiy siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyori ravishda unashtiruvchi turg’un tashkilot, fuqarolik jamiyati bilan davlatni biri-biriga bog’lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon xuquqiy demokratik davlati xayotining zaruriy omillaridan biri. Siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi xokimiyatni qo’lga kiritish yoxud undagi lavozimlarni saylovdaolgan ulushlariga qarab muttanosib ravishda taqsimlab olishga xarakat qiladi.

Siyosiy tizim-Politicheskaya sistema-Rolitical system

Siyosiy tizim – Davlat ichki tuzilishi kengashlarining o’zaro aloqalari va ta’sirining eng muxim, doimiy xususiyatlarini irodalovchi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining majmui, yig’indisi. U siyosiy xokimiyatni umuman davlat muassasalari tizimini va uning asosiy tashkiliy shakllarini belgilab beradi.

Siyosiy tizim xar bir mamlakatning mavjud shart sharoitlarini inobatga olib belgilanadi. Siyosiy tuzim, odatda mamlakat konstitutsmyasida va shu asosida chiqarilgan boshqa qonuniy xujjatlarda mustaxkamlab qo’yiladi.

Suverenitet- Suverenitet- Sovereignty

Suverenitet – (fransuzcha “Souverainite” – mustaqillik, oliy xokimiyat) uning mazmuni:

Davlat suvereniteti – davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to‘la mustaqilligi demakdir.

Davlat suverenitetligining asosiy belgilari:

A) Davlatning barcha organlari va fuqarolarga qaratilgan qonunlarni qabul qilish;

B) Urush va janglik masalasini hal qilish;

V) Oxirgi bosqichda sud xokimiyatini amalga oshirish;

G) Mansabdor shaxslarni taynlash;

D) Avf etish – jinoyat hosil qilgan shaxsni jazodan ozod qilish.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida davlat suverenitetligi masalasida alohida bob ajratilgan bo‘lib uning birinchi moddasida “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” deyiladi.

Tolerantlik-Tolerantnost-Tolerance

Tolerantlik – (lotincha “Tolerantia” – chidamlilik, bag‘rikenglik, sabr-toqatlik, yon berish) – boshqa dinlar ijtimoiy tartiblar milliy va diniy urf-odatlar, o‘zga dini va siyosiy qarashlar, e‘tiqodlar va tursush tarziga nisbatan sabr bardoshlik, chidamlilik, andishalilik bo‘lish manolarini anglatadi.

Demak tolerantlik deganda turli xil danlarni inkor etmaslik; dinlararo bag‘rikenglik tushuniladi.

Totalitarizm-Tolerantnost-Tolerance

Totalitarizm – (lotincha “Totalitare” – yahlit, to‘liq) – bir shahsning, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan, harbiylar guruhi) yakka xokimligiga so‘zsiz bo‘ysunishga asoslangan, vaqtincha va o‘tkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri. Totalitar davlat boshqaruvi shakli o‘rnatilgan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to‘la xukmronligi o‘rnatiladi, oshkora ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo‘yiladi. Bir siyosiy partiyaning yakka xukmronligiga asoslangan.

Unitar davlat- Unitarnoe gosudarstvo-Unitary state

Unitar davlat - (fransuzcha “Unitaire”, lotincha “Unitar” – birlik, yaxlit, birlashgan, bir butunni tashkil qiluvchi) – tashkil qilish qismlari davlat maqomiga ega bo‘lmaydigan davlat. Bunday davlatda konstitutsiya, yagona fuqarolik, oliy qonun chiqaruvchi, yagona boshqaruv va sud organlari mavjud bo‘ladi. Unitar davlatning u yoki bu qismida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat organlari maxalliy davlat organlari xisoblanadi.

Unitar davlat ma‘muriy-xududiy birliklarining chegalari markaziy organlar tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida o‘zgartiriladi va buning uchun mahalliy davlat organlari yoki aholining roziligi talab qilinmaydi.

Federatsiya- Federatsiya-Federation

Federatsiya – (lotincha “Foederate” – ittifoq bo‘lib mustahkamlash – davlat tuzilishi shakllaridan biri. Federativ davlatlar murakkab tuzilishga ega davlatlar deb ham yuritiladi. Federativ davlat, odatda davlatlarning o‘z siyosiy mustaqilligini ixtiyoriy ravishda va muayyan doirada cheklash yo‘li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Federatsiyaga hos belgilar:

1. Federatsiya xududi, uning sub'ektlari, yangi tarkibiy qismlari ba'zi davlatlarda shtatlardan (AQSH, Meksika, Braziliya) ba'zilarida kanton va yarim kantonlaridan (SHveysariya) iborat bo'ladi.

Federatsiya sub'ektlari o'z konstitutsiyasini qabul qilish xuquqiga ega bo'ladi, lekin ba'zi federativ davlatlarda (Xindiston) sub'ektlar o'zlarining mustaqil konstitutsiyasiga ega emas. Federatsiya boshqa ko'pgina a'lomatlariga ko'ra boshqa tuzilmalardan ajralib turadi.

Xalqaro tashkilotlar-Международные организациии-International organizations

Xalqaro tashkilotlar – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlar (assotsiatsiyalar) ming siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama xamkorlik qilishning eng muxim turlaridan biri. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyatlari shundan iboratki, ularning vazifalari va faoliyati har bir davlat chegarasidan chetga chiqadi. Xalqaro tashkilotlar BMT terminologiyasida “Xukumatlararo tashkilotlar” deb yuritiladi. Xozirgi kunda jaxonda 350dan ortiq xukumatlararo tashkilotlar mavjud.

Sivilizatsiya- Sivilizatsiya-Civilization

Sivilizatsiya – (lotincha “Civilis” fuqaroviy, ijtimoiy, ya'ni xarbiylar va dindorlar xukmronligisiz) jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni xamda ularni yanada ko'paytirib, takomillashtirib borish usullarining majmui.

Sivilizatsiyaning tarixiy urushlar va diniy jaxolatlar astllika qarshi, dunyoviy jamiyat uchun kurash tarixidir.

SHovinizm- SHovinizm- Chauvinism

SHovinizm – (fransuzcha “CHauvinisme” – ashaddiy millatchilik, milliy ustunlik g'oyasi va siyosatning ifodasi.

XIX asrning boshlarida Fransiyada paydo bo'lgan shovinizm atamasi oddiy askar N. SHavenning nomidan kelib chiqqan. Endilikda milliy ekstremizmning namoyon bo'lishi ma'nosida xam ishlatilmoqda.

Buyuk davlatchilik shovinizmni muayyan siyosiy kuchlarning, ko'pmillatlik davlatlardagi etakchi millatlarning boshqa millatlarga nisbatan afzalligi ustuvorligi g'oyasi asosida mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy xukmronligini anglatadi.

Ma'rifat (rus.- prosvetlenie; ing.-enlightenment) – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Ekstrimizm (rus.- ekstremizm; ing.-extremism) – o'z maqsadi yo'lida har qanday keskin tadbir-choralar qurishga tarafdorlik.

Siyosiy jarayonlar (rus.- politicheskie protsessy; ing.-political processes) – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy tizim (rus.- politicheskaya sistema; ing.-politic system) jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar harakatlarida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy tashkilotlar (rus.- politicheskie organizatsii; ing.- political organizations) – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

Totalitarizm (rus.- totalitarizm; ing.- totalitarianism) – yalpi, chek-chegara bilmas nazariy va zo'rvonlik, gorizontaal tuzilmalarning tuzilishi.

Avtoritarizm (rus.- avtoritarizm; ing.- authoritarianism) – ijtimoiy hayot sohalarida nazorat qilinmaydigan hokimiyatning paydo bo‘lishi, tobelik va huquqsizlik.


Zamonaviy model (rus.- sovremennaya model; ing.- modern model) – ya’ni, “O‘zbek modeli” – Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi besh tamoyil tushuniladi.


Siyosiy hokimiyat (rus.- politicheskaya vlast; ing.- political power) – keng ma’noli va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, jamiyatga xos bo‘lgan siyosiy boshqoruv ya’ni siyosiy xukumronlik.

Siyosiy hayot (rus.- politicheskoy jizni; ing.- political life) – siyosiy hayot ijtimoiy jarayonlarning ta’sirida davlat boshqaruvi va uning faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.


TARQATMA MATERIALLAR


Formatsion yondoshuv	Sivilizatsion yondoshuv	Modernizatsiya yondoshuvi
<p>Fuqarolik jamiyati tushunchasi kapitalistik tizimga bogʻlanadi va keng (yaʼni jamiyatning shakli sifatida) va tor (yaʼni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar oʻratsidagi shakllanadigan muayan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) maʼnolarda tushuniladi.</p>	<p>Fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya tarraqqiyoti kontekstida koʻrib chiqadi. Uning nazariy asoslarini O.SHPengler, A.Toynbi va P.Sorokin asrarlarida yaratilgan. Ularga qaraganda, fuqarolik jamiyati boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy meʼzoni sifatida esa insogn, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek boshqa insonlar bilan tinchlik v totuvlikda yashash qobiliyatleri tan olinadi</p>	<p>Modernizatsiya konsepsiyalarida (A. Turen, YU. Xabermas, E. Giddens, Z. Bauman va b.) fuqarolik jamiyati aʼnaviy jamiyat urnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos boʻlgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati tushuniladi.</p>








Sektor Daraja	I sektor	II sektor	III sektor
Faoliyatga oid	Davlat	Iqtisodiyot, xususiy biznes	NNTlar faoliyati
Fuqarolik jamiyati	Siyosiy uyushmalar (partiyalar, harakatlar)	Iqtisodiy uyushmalar (kasaba uyushmalari, biznes-uyushmalar)	Uchinchi sektor uyushmalari (NNT)
Nofuqarolik jamiyati	YAshirin guruhlar	Uyushgan jinoiyatchilik	Tajovuzkor sektlar















ИЖТИМОЙ ИННОВАЦИЯЛАР КЎЛЛАНИЛИШИ


Хукуматнинг қарор қабул қилишда ошқоралигини ва ҳисобдорлигини, ҳамда шу орқали коррупция хавфини пасайтиришни

Ахборот олиш эркинлигини оширишни (қонунлар ва бошқа меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар, статистик ва бошқа ахборотлар)







2-Иллага





3-Иллага



Тараққиётнинг “Ўзбек модели” асосида сиёсий модернизация
жараёнларини амалга оширишнинг ҳозирги босқичдаги етакчи
хусусиятлари







2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ

I. Давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари



1.1. Демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда Олий Мажлис, сиёсий партияларнинг ролини янада кучайтириш:

давлат ҳокимияти тизимида Олий Мажлиснинг ролини ошириш, унинг мамлакат ички ва ташқи сиёсатига оид муҳим вазифаларни ҳал этиш ҳамда ижро ҳокимияти фаолияти устидан парламент назоратини амалга ошириш бўйича ваколатларини янада кенгайтириш;

- қабул қилинаётган қонунларнинг амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва суд-ҳуқуқ ислохотлари жараёнига таъсирини кучайтиришга йўналтирган ҳолда қонун ижодкорлиги фаолияти сифатини тубдан ошириш;
- сиёсий тизимни ривожлантириш, давлат ва жамият ҳаётида сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш, улар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш.

1. Давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари



1.2. Давлат бошқаруви тизимини ислоҳ қилиш:

давлат бошқарувини марказлаштиришдан чиқариш, давлат хизматчиларининг касбий тайёргарлик, моддий ва ижтимоий таъминот даражасини ошириш ҳамда иқтисодий тартибга солишда давлат иштирокини босқичма-босқич қисқартириш орқали давлат бошқаруви ва давлат хизмати тизимини ислоҳ қилиш;



- мамлакатни ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича вазифаларни амалга оширишда ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг самарасини оширишга қаратилган давлат-хусусий шерикликнинг замонавий механизмларини жорий этиш;
- давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларига оид ахборотни тақдим қилишнинг замонавий шакллари жорий этиш;
- «Электрон ҳукумат» тизимини такомиллаштириш, давлат хизматлари кўрсатишнинг самараси, сифатини юксалтириш ва бу хизматдан аҳоли ҳамда тадбиркорлик субъектлари томонидан фойдаланиш имкониятини ошириш.

• **1.3. Жамоатчилик бошқаруви тизимини такомиллаштириш:**

- халқ билан мулоқотнинг самарали механизмларини жорий этиш;
- жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг замонавий шаклларини ривожлантириш, ижтимоий шерикликнинг самарасини ошириш;
- фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш, уларнинг ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш;
- маҳалла институтининг жамият бошқарувидаги ўрни ва фаолияти самарадорлигини ошириш;
- оммавий ахборот воситаларининг ролини кучайтириш, журналистларнинг касбий фаолиятини ҳимоя қилиш.

III. Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари

- Иқтисодиётни ривожлантириш бўйича устувор вазифалар белгиланди

- Ҳаракатлар стратегиясининг учинчи йўналишида белгиланган иқтисодиётни янада ривожлантириш ҳамда либераллаштирига оид белгиланган чора-тадбирлар мамлакат иқтисодий барқарорлигини таъминлаш, аҳоли турмуш шароитини юксалтиришда муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу йўналишда қуйидаги устувор вазифалар белгиланган:



- иқтисодиётнинг очиқлиги ва рақобатбардошлигини ошириш;

- иқтисодий мустақилликни ривожлантириш;
- макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш;
- етакчи ишлаб чиқариш тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш;
- молия-банк соҳасини ислоҳ этиш;
- ташқи иқтисодий алоқаларни янада кенгайтириш;
- хорижий инвестицияларни фаол жалб қилиш.

- Шунингдек тадбиркорларни ўйлантираётган долзарб масалаларни ҳар томонлама ўрганиш, уларни қўллаб-қувватлаш, ҳуқуқ ҳамда қонуний манфаатларини таъминлаш, кўп тармоқли фермер хўжаликларини ривожлантириш бўйича белгиланган вазифалар келгусида нафақат оилалар фаровонлигининг таъминланиши, балки юртимиз иқтисодий салоҳиятини янада юксалтиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

• 3.1. Макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш:

- макроиқтисодий мутаносибликни сақлаш, қабул қилинган ўрта муддатли дастурлар асосида таркибий ва институционал ўзгаришларни чуқурлаштириш ҳисобига ялпи ички маҳсулотнинг барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш;
- харажатларнинг ижтимоий йўналтирилганини сақлаб қолган ҳолда Давлат бюджетининг барча даражаларида мутаносибликни таъминлаш, маҳаллий бюджетларнинг даромад қисмини мустаҳкамлашга қаратилган бюджетлараро муносабатларни такомиллаштириш;



1

- суғурта, лизинг ва бошқа молиявий хизматларнинг ҳажмини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш,

2

- капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва аҳолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба сифатида фонд бозорини ривожлантириш,

3

- халқаро иқтисодий ҳамкорликни янада ривожлантириш, жумладан, етакчи халқаро ва хорижий молиявий институтлар билан алоқаларни кенгайтириш, пухта ўйланган ташқи қарзлар сиёсатини амалга оширишни давом эттириш, жалб қилинган хорижий инвестиция ва кредитлардан самарали фойдаланиш.

3.2. Таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардорлигини ошириш:

- миллий иқтисодиётнинг мутаносиблиги ва барқарорлигини таъминлаш, унинг таркибида саноат, хизмат кўрсатиш соҳаси, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик улушини кўпайтириш;
- ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, ишлаб чиқариш, транспорт-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган фаол инвестиция сиёсатини олиб бориш;

- юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини, энг аввало, маҳаллий хомашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришга қаратилган сифат жиҳатидан янги босқичга ўтказиш орқали саноатни янада модернизация ва диверсификация қилиш;
- иқтисодиёт тармоқлари учун самарали рақобатбардош муҳитни шакллантириш ҳамда маҳсулот ва хизматлар бозорида монополияни босқичма-босқич камайтириш;
- принципиал жиҳатдан янги маҳсулот ва технология турларини ўзлаштириш, шу асосда ички ва ташқи бозорларда миллий товарларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш;

- ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, ишлаб чиқариш, транспорт-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган фаол инвестиция сиёсатини олиб бориш;
- фаолият кўрсатаётган эркин иқтисодий зоналар, технопарклар ва кичик саноат зоналари самарадорлигини ошириш, янгиларини ташкил этиш;
- хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш, ялпи ички маҳсулотни шакллантиришда хизматларнинг ўрни ва улушини ошириш, кўрсатилаётган хизматлар таркибини, энг аввало, уларнинг замонавий юқори технологик турлари ҳисобига тубдан ўзгартириш;

- туризм индустриясини жадал ривожлантириш, иқтисодиётда унинг роли ва улушини ошириш, туристик хизматларни диверсификация қилиш ва сифатини яхшилаш, туризм инфратузилмасини кенгайтириш;
- экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркибини ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларнинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш ва сафарбар этиш;
- йўл-транспорт инфратузилмасини янада ривожлантириш, иқтисодиёт, ижтимоий соҳа, бошқарув тизимига ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш.

- ***2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларида аҳоли бандлиги ва реал даромадларини изчил ошириш муҳим масалалар қаторида белгиланган.***

- *Аҳоли бандлигини таъминлаш мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини юксалтириш, жамиятда ижтимоий барқарорликка эришишнинг асосий омилларидан ҳисобланади. Бу, айниқса, Ўзбекистон каби аҳолисининг асосий қисмини ёшлар ташкил қиладиган давлатлар учун ниҳоятда муҳимдир.*




- *Дунёдаги аксарият ривожланган мамлакатларда ишсизлар сони кун сайин кўпайиб бораётганини бугун оммавий ахборот воситалари орқали кўриб, ўқиб турибмиз. Айниқса, ушбу давлатлар ҳукуматлари томонидан ишсизликнинг олдини олиш борасида рўёбга чиқарилаётган чоралар деярли самара бермаяпти.*

- Мана шундай мураккаб шароитда ҳам мамлакатимизда аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича аниқ, манзилли чоралар кўрилаётгани, албатта, эътиборлидир.

- Бунда аҳолининг реал пул даромадларини ва харид қобилиятини ошириш, кам таъминланган оилалар сонини ва аҳолининг даромадлари бўйича фарқланиш даражасини камайтириш, шунингдек, бюджет муассасалари ходимларининг иш ҳақи, пенсия, стипендия ва

ижтимоий нафақалар ҳажмини инфляция суръатларидан юқори миқдорда изчил ошириш назарда тутилган.

- Бандлик, меҳнат бозори ва аҳоли даромадларини ошириш масалалари барча мамлакатларда биринчи даражали ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий аҳамиятга эга устувор, долзарб масалалардан саналади.



Бюджет ташилотлари ходимларининг иш ҳақи 15 фоизга, пенсия ва ижтимоий нафақалар – 12,1 фоизга, аҳоли жон бошига реал даромадлар – 11 фоизга ўсди, 726 минг нафарга яқин аҳолининг, шу жумладан, 438,5 минг коллеж битирувчисининг бандлиги таъминланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси,
14 январь 2017 йил.

- Банк кредитлари тадбиркорлар учун кенг имкониятлар яратмоқда. Бу маблағларнинг асосий қисми янги технологиялар харид қилиш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш турларини кенгайтиришга йўналтирилмоқда.
- Аҳоли, айниқса, касб-хунар коллежлари битирувчилари бандлигини таъминлаш, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш истагини билдирган ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ўз бизнесини ташкил этишига кўмаклашиш мақсадида 2017 йил давомида бандлик кўрсаткичларини ҳамда аҳоли даромадларини ошириш мақсадида 10 минг нафар таълим муассасалари битирувчисига ўз тадбиркорлик фаолиятини бошлаши учун 60000,0 (млн.сўм) кредит маблағлари ажратиш кўзда тутилган.



- Янги иш ўринларини яратиш, олий ва ўрта махсус таълим муассасалари битирувчилари бандлиги таркибини яхшилаш ва меҳнат бозори мутаносиблигини таъминлаш, ишсизлик даражасини камайтириш, ишчи кучига бўлган талаб ва тақлифни шакллантириш сиёсатини ўз ичига олиши керак.

ЁШ АВЛОД - БИЗНИНГ КЕЛАЖАГИМИЗ



Шу ўринда яна бир бор такрорлашни истардим: ёш авлод – бизнинг келажагимиз, уларга ҳар томонлама пухта таълим-тарбия берсак, Ватанимизнинг келажини, унинг келгуси тараққиёти ва равнақини таъминлаган бўламиз. Болаларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлса, бизнинг бошқа армонимиз қолмайди.

Ислом Каримов



- Ўзбекистон йирик ва тез ўсувчи меҳнат ресурсларига эга. Республикада меҳнатга қобилиятли ёшдаги шахслар сони 18 млн. ортиқ кишини ёки аҳолининг салкам 60 фоизини ташкил қилади, меҳнат ресурслари ҳар йили ўртача 2,3 фоизга ошиб бормоқда, бу эса аҳолининг бандлигини таъминлаш муаммоси доимий равишда долзарб бўлиб қолади.



Ўзбекистон Республикасида аҳоли даромадларининг таркиби, ^Ш %

Кўрсаткичлар	2011 йил	2012 йил	2013 й.	2014 й.	2015 й.
Аҳолининг реал даромадлари, млрд. сўм	52586,3	61788,1	72293,1	89517,3	98654,1
Умумий даромадлар, ундан:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1) Ишлаб чиқаришдан олинган даромадлар, шу жумладан:	71,0	69,1	68,4	71,3	75,5
Меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар, шундан:	69,4	67,4	66,6	69,2	73,2
Шахсий истеъмол учун ўзида ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар	1,6	1,7	1,8	2,1	2,3
Умумий даромадлар таркибидан, кичик тадбиркорликдан олинган даромадлар	49,0	49,8	50,4	51,2	52
2) Мол-мулкдан олинган даромадлар	2,5	2,4	2,9	2,6	2,7
3) Трансфертлардан даромадлар	26,5	28,5	28,6	26,1	21,8

^Ш Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

Хусусан, ҳудудларни ҳар томонлама ривожлантириш бўйича қарийб 25 мингта инвестиция лойиҳасини рўёбга чиқариш ҳисобига 256,4 минг иш ўрни ташкил этиш орқали аҳолини иш билан таъминлаш дастурларини тўлиқ ижро этиш назарда тутилган. Ишсизлик даражаси энг юқори бўлган минтақаларда 46,8 минг янги иш ўрни ташкил этиш, тадбиркорлик фаолиятини бошлаш учун таълим муассасаларининг 10 минг нафар битирувчисига кредитлар ажратиш режалаштирилмоқда.

**2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини
ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши
бўйича**


ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ. 302 б.

- *Бозор муносабатларининг такомиллашуви шароитида аҳоли даромадларининг ошириш - энг долзарб вазифадир, чунки улар одамлар-нинг шахсий истеъмолини қондиришнинг асосий манбаи ва аҳоли турмуш даражасининг муҳим кўрсаткичларидан бири ҳисобланади.*
- *Ўзбекистонда бандликни таъминлаш ва меҳнат бозорини бошқаришнинг юқорида қайд этилган асосий устувор йўналишларини амалга ошириш:*
- ***биринчидан**, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, фермер хўжаликлари, ишлаб чиқариш, ижтимоий ва бозор инфратузилмаси соҳаларида янги юқори иш ҳақи тўланадиган иш ўринларида ишлаётганлар сонини ошириш ҳисобига аҳолининг унумли, фойдали бандлик соҳаларини кенгайтириш;*

- **иккинчидан**, аҳолининг иқтисодий фаоллигини ва бандлик даражасини ошириш, меҳнат бозорига биринчи марта кираётган ёшларни, шунингдек ишдан бўшатиладиган ходимларни ва аҳолининг иш билан банд бўлмаган, ишга жойлаштиришга эҳтиёжманд қисмини меҳнат фаолияти соҳасига жалб қилиш;
- **учинчидан**, иқтисодиётнинг реал секторида бандликни ошириш ва уни норасмий секторда камайтириш, саноат тармоқларида, қурилиш, хизмат кўрсатиш, коммуникация соҳаларида ишлаётганлар сонини ошириш ҳисобига аҳолининг бандлиги оқилона тузилишини шакллантириш;
- **тўртинчидан**, аҳолини ишга жойлаштириш бўйича махсус чоратадбирлар қабул қилиниши ва татбиқ этилиши оқибатида меҳнат бозорининг юқори бандсизлик ва ишсизлик даражасига эга айрим маҳаллий ҳудудларида кескинликни бартараф қилиш;
- **бешинчидан**, иш берувчилар эҳтиёжлари ҳамда тармоқлар ва ҳудудлар талаби ҳисобга олиниб, малакали мутахассислар тайёрланиши туфайли меҳнат бозорида иш кучига талаб ва таклифни ўзаро мувофиқлаштириш, унинг рақобатбардошлигини ошириш учун шарт-шароитлар яратади. актив меҳнат фаолиятини рағбатлантирувчи ва ўртача жон боши даромадлар ўсишининг юқори сурағтларини таъминловчи иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароитларни яратиш;

- * аҳолининг кам таъминланган қатламларини ижтимоий ҳимоялашнинг аниқ йўналишини кучайтириш;
- * меҳнат бозорини фаоллаштириш, иш кучига талаб ва таклиф ўртасидаги мувозанатга эришиш;
- * аҳолининг ўзини-ўзи банд этишни кенгайтириш учун иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароитлар яратиш;
- * даромадлар бўйича турлича ижтимоий гуруҳларнинг турмуш даражасидаги ҳаддан ташқари юқори даражада табақалашувига йўл қўймаслик;
- * аҳолининг реал ва ўз ихтиёрида бўлган даромадларининг барқарор ўсишига эришиш.
- **Аҳоли бандлигини таъминлаш ва реал даромадларини изчил ошириш** иқтисодиётнинг ҳолати ва самарадорлигини, жамият-даги иқтисодий муносабатларнинг етуқлик даражасини акс эттиради.

Оммавий ахборот воситалари жамият ҳаётининг муҳим элементи:



Фуқароларни улар учун аҳамиятли воқеалар ҳақида долзарб ва ишончли ахборот билан таъминлайди

Шахсни ижтимойлашувига хизмат қиладиган маърифий, таълим ва тарбиявий вазифаларни амалга оширади

Ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларидаги мавжуд муаммолар ҳақида жамоатчилик фикрини умумлаштириш ва ифода қилишда иштирок этади

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг фаолиятини танқид ва назорат қилади.

ОАВ фуқаролик жамиятида турли ижтимоий гуруҳлар ўртасида мулоқат воситаси ҳамда ижтимоий аҳамиятга молик масалаларни муҳокама қилиш қуроли ҳамдир

Оммавий ахборот воситалари жамиятни уюштириш, жипслаштириш, фуқароларнинг ижтимоий фаоллигини рағбатлантириш имкониятига эга.

Мустақиллик йилларида ОАВ га оид қабул қилинган Қонунларда:


Сиёсий-маданий алоқалар

Ҳар бир фуқарога ахборот олиш кафолатланиши ва давлат томонидан ҳимоя қилиниши каби меъёрлар алоҳида белгилаб кўйилган

Бу пайтда шундай Қонунлар баъзи МДҲ қабул қилинмаганлиги, бошқа мамлакатларда, хусусан, демократия нисбатан ривожланган мамлакатларда эса камдан-кам учрайдиган ҳодиса эди диққатга сазовор.(Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистоннинг тарихи. –Т.: Шарқ, 2000. –Б.215)

Ўзбекистоннинг умуминсоний қадриятларга содиқлиги, инсон ҳуқуқлари эркинлигини ҳимоя қилиш каби халқаро ҳуқуқ нормаларига изчил амал қилаётганлиги намоён бўлди.

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ



FAN BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

Mamlakatimizda baynalmilal madaniyat mar kazn kachon tashkil topgan?

- A) 13 yanvar, 1992 B) 25 dekabr, 1992 V) 16 aprel, 1992
G) 18 sentyabr. 1993

Kaysi xalkaro tashkilot va kachon «Bagrikenglik tamoyillari deklaratsiyasi» kilgan?

- A) YUNESKO, 1995 B) Evropa kengashi (EK), 1990 V) Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), 2000
G) Evropa Xavfsizlik va Xamkorlik Tashkiloti (EXXT) 1998

«Bagrikenglik» tushunchasining ma’nosini aniklang.

- A) xamma javoblar tugri B) chidamlilik V) bagrikenglik G) sabr

Xozirgi kunda Uzbekistonda kancha millat va elat vakillari istikomat kiladn?

- A) 137 B) 150 V) 126 G) 140

Uzbekistonda matbuot nashrlari nechta tilda chop etiladi?

- A) 5 B) 7 V) 8 G) 14

BMT kaysi yilni «Bag’rikenglik yili» deb e’lon kilgan edi?

- A)1995 B)2000 V)1999 G)2001

Bugungi kunda mamlakatimizda nechta diniy konfessiya vakillari istikomat ki.

- A) 15 B) 16 V) 17 G) 21

YUridik xizmatning shartnomaviy munosabatlar xukukiy jixatdan ta’minl tashkil etish soxasidagi vazifa va xukuklarini tartibga soluvchi xujjatni tanlang

«Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risidagi qonun

B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Davlat boshqaruvi organlari va maxalliy davlat xokimiyati organlarining yuridik xizmati to’g’risida»gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Xo’jalik boshqaruvi organlag-L korxonolari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati tugrisida»gi karori

G) Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «YUridik xizmat faoliyatini tubdan t tirish chora-tadbirlari tugrisida»gi karori

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan lashtirish chora-tadbirlari tugrisida»gi 111-2733-son Karorida yuridik xizmat xod kandy imtiyozlar berildi?

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik yillik stajiga ega bulgan xodimlari, litsenziya olish uchun advokat makomiga ega bulishga ta; sifatida malaka imtixonida tegishli stajirovka utmasdan ishtirok etish xukukiga ega b>

B) yuridik xizmat xodimi sifatidagi mexnat staji xodim bosqika davlat organlari, igu xukukni muxofaza kiluvchi va nazorat organlariga ishga utganda martaba darajalari va **kuya** xizmat ustamalarini tulash uchun muljallangan mexnat staji xisobga olinadigan buldi

yuridik xizmat xodimlari xar chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va foydasiga xal kilingan nizolar yuzasidan undirilgan pulning 5 foizi, birok eng kam xakining 50 barobaridan kup bulmagan mikdorda mukofotlanadigan buldi.

G) barcha javoblar tugri

Nikoxdan ajralishni kayd etish kaysi organlarga taallukli?

fakat FX,DYO organida amalga oshiriladi

B) fakat sud tartibida amalga oshiriladi

konun xujjatlarida belgilangan xollarda FXDYO organida xamda sud tartibida rilishi mumkin

G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

Nikoxni kayd etish vakolatiga ega bulgan organni tanlang.

fakdt FXDYO organida amalga oshiriladi

B) fakat sud orkali kayd kilinadi

konun xujjatlarida belg^langan xdplarda FXDYO organida xdmda sud tomonidan kayd etilishi mumkin

G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

Xarakatlar strategiyasida advokatura institutini takomillashtirishga karatip an yura-tadbirlar kaysi javobda tugri keltirilgan?

advokatlarga xakamlik sudlarida xakam sifatida ishtirok etish xukuki beriladi, advokat :urovini kurib chikish tartibi va muddatlari aniklashtiriladi, advokatlar va advokatlik tuzilma- tari daromadlarini solikka tortish tizimini makbullashtirish, advokatga litsenziya berish va uni lntizomiy javobgarlikka tortish masalasida davlat organlarining roli kamaytiriladi, advokat- pik litsenziyasi faoliyatini tuxtatish, tugatishning sud tartibi boskichma-boskich joriy etiladi va advokatlik

tuzilmalarining yangi tashkiliy-xukukiy shakllari joriy etiladi, xalkaro-xukukiy, fukarolik-xukukiy va xujalik-xukukiy masalalar buyicha yuridik yordam kursatish maksadida xori- jiy fukarolarga advokatlik litsenziyalarini berish tartibi joriy etiladi

B) «Advokatura tugrisida»gi konun yangi taxrirda ishlab chikiladi

advokatlarga bir vaktning uzida sudya sifatida ishtirok etish xukuki beriladi

G) xalkaro-xukukiy, fukarolik-xukukiy va xujalik-xukukiy masalalar buyicha yuridik yordam kursatish maksadida xorijiy fukarolarga advokatlik litsenziyalarini berish tartibi joriy etiladi

2017-2021 yillarda Uzbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Xdrakatlar strategiyasini «Xalk bilan mulokot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturiga kura notarial idoralar faoliyatini tako- millashtirish buyicha kandy chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan?

notarial idoralar faoliyatini avtomatlashtirish

B) barcha notarial bitimlar xisobini markazlashgan xolda yuritish

idoralararo elektron xamkorlikni xisobga olgan xolda, axoli va tadbirkorlarga notariat soxasida interaktiv davlat xizmatlari kursatishni yulga kuyish

G) barcha javoblar tugri

Notarial idoralarga elektron murojaat kilish tartibi kelajakda kandy muammo- larning oldini oladi?

A) fukarolarga kam vakt va mablag sarflash V) uzundan-uzun navbatlarda turmaslik

B) ortikcha kogozbozlikning oldini olish G) barcha javoblar tugri

Xukukni muxofaza kiluvchi organlarning jinoyatchilikka karshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish deganda nima tushuyladi?

tezkor-kidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini kelishuvchilik asosida olib borish

B) surishtiruvni, dastlabki tergovni, tezkor-kidiruv faoliyatni amalga oshiradigan organlarning jinoyatchilikka karshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish tezkor-kidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini xamkorlik asosida olib borish

G) mansabdor shaxslarning xukukni kullash bilan boglik faoliyatini xamkorlik asosida muvofiklashtirish

Umumiy maksadga erishish yulida jinoyatchilikka karshi kurashni amalga oshiradigan organlar faoliyatini tartibga solish, samaradorligini yanada oshirish yulida uzaro kelishuv...

xalk bilan mulokot kilishning asosini tashkil etadi

B) xalkni isloxotlardan xabardor kilish asosini tashkil etadi

muvofigdashirishning moxiyatini belgilaydi

G) xamma javoblar tugri

Afrika, Urta SHark va Markaziy Osiyodagi nechta diniy ekstremistik va terrorchil tashkilotlari ISHIDning xatti-xarakatlarini kullab-kuvvatlab, ularga yordam ber kelmoeda?

A) un beshdan ortik

B) yigirma beshdan ortik

V) undan ortik G) yuzdan or

Uzbekistonda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning ship ka sha" lariga karshi kurashish borasida kandy konunlar kabul kiliigai?

Terrorizmga karshi kurash tugrisidagi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legall tirishga va terrorizmni moliyalashtirishga karshi kurashish tugrisidagi, uyushgan jinoyatchil karshi kurash va uni oldini olish tugrisidagi konunlar

B) Terrorizmga karshi kurash tugrisidagi konun

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalasht - rishga karshi kurashish tugrisidagi konun

G) B va V javoblar tugri

19.2017-2021 yillar mobaynida kaysi mutasaddi idoralar ishtirokida diniy ekstremizm terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshka shakllariga karshi kurashish amaliyotish urganish nazarda tutilgan?

Uzbekistan Respublikasining IIV, Mudofaa vazirligi, MXX, DBK, Bosh prokuratur! OUMTV, Xalk ta'limi vazirligi, MTRK, «Maxalla» jamgarmasi, «Kamolot» YOIX

B) Axborot texnologiyalari vazirligi, Mexdat vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, va- zirlik va idoralar

Korakalpogiston Respublikasi Jukorgi Kengesi, viloyatlar va Toshkent shaxdr xokimliklari. Ijtimoiy tadjikotlar instituta, DBA, SMTI, FJSHMKMI, «Ijtimoiy fikr» markazi

G) Mexrat vazirligi, Moliya vazirligi, Iktisodiyot vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

Uzbekistan Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga karshi konvensiyasiga kachon kushilgan?

A) 2017 yil B) 2001 yil V) 2003 yil G) 2008 yil

Korrupsiyaga karshi kurashish buyicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar xamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiklashtirish uchun kanday tuzilma tashkil etildi?

Korrupsiyaga karshi kurashish buyicha respublika idoralararo komissiyasi

B) Korrupsiyani oldini olish buyicha respublika idoralararo komissiyasi

Bosh prokuratura xuzurida Korrupsiyaga karshi kurashish buyicha departament

G) Barcha javoblar tugri

Xuku kiy demokratik davlat va erkin fukarolik jamiyatining muxim mezonlaridai birini kursating.

Jamiyatda axoli xukukiy ongi va xukukiy madaniyati darajasining yuksakligi

B) Axolining isloxotlardan xabardor ekanligi

Korrupsiyaga karshi kurashish buyicha konunning mavjudligi

G) Axolining xukukiy madaniyati darajasining yuksakligi

2017-2021 yillarda kabul kilingan konun xujjatlarini axoli va ijrochilarga uz vaktida etkazishning samarali tizimini yaratish maksadida kanday xukukiy xujjat loyixasini ishlab chikish nazarda tutilgan?

Jurnalistning kasbiy faoliyatini ximoya kilish tugrisidagi konun

B) Jamoatchilik nazorati tugrisidagi konun

Korrupsiyaga karshi kurashish buyicha konun

G) Xukukiy axborotni tarkatish va undan foydalanishni ta'minlash tugrisidagi konun

2017-2021 yillarda fukarolarning uzini uzi boshkarish organlari xodimlari xamda axolining xukukiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularga kabul kilingan yangi konun xujjatlarining mazmun-moxiyatini tushuntirish maksadida maxallalarda kanday ishlar amalga oshirish kuzda tutilgan?

Xaftada uch marta «Jinoyatdan sakdaning!» ukuv mashgulotini joriy etish va doimiy utkazib borish

B) X, ³ftada bir marta «Xukukiy bilimlar» ukuv mashgulotini joriy etish va doimiy utkazib borish

Daftada ikki marta «Diniy ekstremizm va terrorizm - yoshlar kelajagiga taxdid» mavzularida uchrashuv va davra suxbatlarini tashkil etish

G) Xaftada bir marta «Maxdllamiz jinoyatchilikka karshi turadi» aksiyalarini ugkazish

Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kaysi moddasida jamotchilik nazorati keltirib utilgan?

A) 48 B) 51 V) 32 G) 18

Jamoatchilik nazorati bu -...

davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining uzlariga konunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog'liq faoliyatidir.

B) davlat organlari faoliyatining koiuiyiligini ta'minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan Uzbekiston Respublikasi fukarolari, chet el fukarolari va fukaroligi bulmagan shaxslarning xukuklari, erkinliklari va konuniy manfaatlarini ta'minlovchi konun xujjatlariga rioya kilmaslik xolatlarini anikdashga karatilgan faoliyatdir.

davlat va uning nomidan maxsus vakolatli organlarning konun bilan belgilangan tartibda xukukiy ta'sir chorasini kullash orkali konuniylikni, xukukiy tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va boshka fukarolik birlashmalarining XUKUK va konuniy manfaatlarini muxofaza kilish, fukarolarni XUKUK va erkinliklarini ximoya kilish, jinoyatchilik va boshka xukukbuzarliklarga karshi kurashish soxasidagi faoliyatdir, deyish mumkin.

G) tugri javob yuk

Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kaysi moddasida Uzbekiston Respublikasi xududida konuilarning anik va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Uzbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga buysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi deb kur- satilgan?

A) 110-modsa B) 115-modda V) 118-modda G) tugri javob yuk

Xukukbuzarliklar profilaktikasining turlari -...

xukukbuzarlislarning umumiy va maxsus profilaktikasi

B) xukukbuzarlislarning yakka tartibdagi profilaktikasi

xukukbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi

G) barcha javoblar tugri

Insonparvarlik prinsipiga tugri ta'rif berilgan katorni toping.

xech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas

B) shaxe konunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli kilmishlari uchungina javobgar buladi

kilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi anyuutngan xar bir shaxe javobgarlikka tortilishi shart

G) jazo va boshka xukukiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson kadr-kimmatini kamsitish maksadini kuzlamaydi

Uzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yarashuv instituti kachon kiritildi?

A) 2000 yil 21 avgust B) 2001 yil 29 avgust V) 2002 yil 30 avgust G) 2003 yil 24 avgust

Uzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofik, voyaga etmagan shaxslar uchun kandy jazo choralari tayinlanishi mumkin?

1. jarima; 2. muayyan xukukdan maxrum kilish; 3. axlok tuzatish ishlari; 4. xizmat buyicha cheklash; 5. kamok; 6. ozodlikni cheklash; 7. intizomiy kiemga junatish; 8. ozodlikdan maxrum kilish; 9. umrbod ozodlikdan maxrum kilish.

A) 1,2, 5, 7, 9. B) 2, 4, 5, 7, 8. V) 4, 6, 7, 8, 9. G) 1,3, 5, 6, 8.

Uzbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksi 661-moddasiga muvofik, yarashilganligi m> - nosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod kilinmaydigan shaxslar ruyxatni aniklang

ozodlikdan maxrum kilish jazosini utab bulganidan sung sudlanganlik xolati tugallanmap- yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar

B) ilgari yarashuv kullanilgan munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod kilingan shaxsl_:

xavfli va uta xavfli retsivistlar

G) ogir yoki uta ogir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik xolati tugallanmagan eyu sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar

Uzbekistan Respublikasi Prezidentining «Uzbekistan Respublikasida ulim jazosinm bekor kilish tugrisida»gi Farmoni kanon kabul kilingan?

A) 2005 yil 1 avgust B) 2008 yil 1 yanvar V) 2007 yil 11 iyul G) 2007 yil 29 avgust

Da'vogar sudgacha xal kilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etmagan bulsa, bashart> bu shu toifadagi nizolar uchun konunda yoki taraflar shartnomasida nazarda tutilgan va bunda! tartibni kullash imkoniyati yukotilgan bulsa...

A) ish yuritish davom etadi V) da'vo kurmasdan koldiriladi

B) shartnoma bekor kilinadi G) ish yuritish tugatiladi

«Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazask tugrisida»gi konunga muvofik, uziga talabnoma bildirilgan xujalik

yurituvchi sub'ekt talabnomani olgan kundan boshlab kancha muddat ichida unga javob kaytarishi shart?

A)biroy B) 15 kun V) 20 kun G) 10 kun

Uzbekistan Respublikasida kaysi sudlarda birinchi bulib videokonferensaloka rejn- midagi sud majlislari utkazila boshlandi?

A) fukarolik sudlari V) jinoyat sudlari
B) xujalik sudlari G) ma'muriy sudlar

Fukarolik va xujalik sudlari ish yurituvida kelishuv bitimining tuzilishi kandan protsessual okibatlarga olib keladi?

A) arizani xarakatsiz koldirish V) da'voni kurmasdan koldirish
B) ish yuritishni tuxtatish G) ish yuritishni tugatish

^uyidagi xukuklardan kaysi biri nazorat instansiyasi sudining vakolatlarga taallukli emas?

xal kiluv karorini, ajrim yoki karorni uzgarishsiz, protestni esa kanoatlantirmay kol- dirishga

B) xal kiluv karorini, ajrim yoki karorni butunlay yoxud kisman bekor kilishga va ishni yangidan kurish uchun birinchi instansiya sudi yoki apellyasiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga

xal kiluv karorini, ajrim yoxud karorni butunlay yoki kisman bekor kilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud arizani kurmasdan koldirishga

G) FPKning 314-moddasi ikkinchi kismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bulgan takdirde xal kiluv karorini butunlay yoki kisman bekor kilishga xamda ishni yangidan kurib chikish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga xakli

Konuniy kuchga kirgan sud karorlari ustidan protest keltirish tugrisidagi arizalar kancha muddatda kurib chikiladi?

ariza 10 kun muddatda kurib chikilishi kerak

B) ariza 20 kun muddatda kurib chikilishi kerak

ariza bir oy muddatda kurib chikilishi kerak

G) ariza uch oy muddatda kurib chikilishi kerak

"

Nizolarni sudgacha xal etish usuli kaysi javobda tugri kursatilgan?

A) talabnoma yuborish V) mediatsiya tartibida xal etish

B) xakamlik sudida x,al etish G) fukarolik sudida xal etish

Nizolarni suddan l am kari mukobil xal etish kaysi javobda tugri kursatilgan?

- A) talabnoma yuborish V) mediatsiya tartibida xal etish
B) e'tiroz bildirish orkali G) mexdat nizolari komissiyasida xal etish

Uzbekistan Respublikasi Prezidentining «Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha X, arakatlar strategiyasi tugrisida»gi PF-4947-son Farmoni kabul kilin- gan sanani aniklang.

- A) 2017 yil 7 fevral B) 2017 yil 17 yanvar V) 2016 yil 8 dekabr G) 2016 yil 4 dekabr

T^aysi javobda sud ijrochisiga kuyilgan talab tugri kursatilgan?

urta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bulgan Uzbekiston Respublikasining fukarosi

B) }fta maxsus (yuridik) yoki oliy (yuridik) ma'lumotga ega bulgan Uzbekiston Respublikasining fukarosi

urta maxsus ma'lumotga ega bulgan Uzbekiston Respublikasining fukarosi

G) oliy ma'lumotga ega bulgan Uzbekiston Respublikasining fukarosi

Sud karorlari kaysi javobda tugri kursatilgan?

' A) sud majlis bayonnomasi, ariza, shikoyat V) ajrim, kelishuv, ariza

B) elektron murojaat, sud buyrugi, ajrim G) sud buyrugi, ajrim, karor

Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofik jinoyat kurollari tushunchasiga kanday ta'rif berilgan?

jinoyatga tayyorgarlik kurish yoki sodir etish uchun maxsus muljallangan, tayyorlangan yoki mos- lashtirilgan narsalar, shuningdek jinoiy maksadlarga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk

B) vokea joyi kuzdan kechirish jarayonida jinoyatga alokador bulgan xar kanday narsalar

maxsus ekspertizaning xulosasiga kura sovuk kurol va uk otar kurol deb topilgan xar kanday kurol

G) tugri javob yuk

2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha X, arakatlar strategiyasini «Xalk bilan mulokot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofik Toshkent shaxri va viloyatida yangi kurilgan kuchmas mulkni Uzbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari tomonidan sotib olish uchun necha foiz mikdorda davlat boji tulash nazarda tutilgan?

- A) 10-15 B) 5-10 V) 15-20 G) 20-25

2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha X, arakatlar strategiyasiga kura, Konstitutsiyaviy,

Oliy va Oliy xujalik sudlari sudya lavozimlarini kaysi yoshgacha belgilash kuzda tutilgan?

A) 60 B) 65 V) 70 G) 75

48.2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha X,arakatlar strategiyasiga kura, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jixatidan va moliyaviy ta'minlash kaysi organ tasarrufiga utkazilishi rejalashtirilgan?

A) Adliya vazirligiga V) Oliy xujalik sudiga

B) Oliy sudga G) Sud departamentiga

Sud xokimiyatining mustakilligini ta'minlash prinsipi Konstitutsiyaning nechanchi moddasida uz ifodasini topgan?

A) 110-moddasida B) 111-moddasida V) 112-moddasida G) 107-moddasida

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining kaysi farmoniga asosan Uzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi?

A) 2016 yil 21 dekabr V) 2017 yil 7 fevral

B) 2016 yil 21 oktyabr G) 2017 yil 21 fevral

2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor = yunalishi buyicha X,arakatlar strategiyasini «Xalk bilan mulokot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofik fukarolik, jinoyat ishlari buyicha sudlar va xujalik sudlarining vakolatlarini kayt a kurib chikish yuli bilan ma'muriy sudlarni tashkil etish muddatini kursating?

A) 2017 yil III chorak V) 2017 yil I chorak

B) 2017 yil II chorak G) 2017 yil IV chorak £

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 14 avgustdagi «Uzbekiston Respub- likasining sud tizimini takomillashtirish tugrisida»gi PF-2682-son Farmoniga muvofnk £ sudlar kachondan boshlab nxtisoslashtirildi? i (

A) 2001 yil 1 apreldan V) 2001 yil 1 sentyabrdan | J

B) 2001 yil 1 yanvardan G) 2001 yil 31 avgustdan

>

Sudyalarning mustakilligi nimalar orkal i ta'minlanadi? 1]

sudyalarni konunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozol 1 ¹ kilish, sudyalarning daxlsizligi, odil sudlovni amalga oshirishdagi kdt'iy taomil, karor chikarish chogida sudyalar maslaxatining sir tutilishi va uni oshkor kilishni talab etishning takiklanishi.

sudga xurmatsizlik yoki muayyan ishlarni xal qilishga aralashganlik, sudyalarning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik, sudyalarga davlat xisobidan ularning yuksak makomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot

B) sudyalarning daxlsizligi, sudyalarga davlat xisobidan ularning yuksak makomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish, sudyalarning maslaxatining sir tutilishi, ishlarni k)fib chikishda sudyalarning mustakilligi

karor chikarish chogida sudyalarning maslaxatining sir tutilishi, Uzbekiston Respublikasi Prezidenta tomonidan, deklaratsiya bilan, ishlarni kurib chikishda sudyalarning mustakilligi

G) sudyalarning daxlsizligi, sudyalarning maslaxatining sir tutilishi, sudyalarni konunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, sudga xurmatsizlik uchun javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi

Uzbekiston Respublikasining «Sudlar tugrisida»gi konuning yangi taxriri kachon kabul kilingan?

A) 2000 yil 14 dekabrda V) 2000 yil 14 avgustda

B) 1993 yil 2 sentyabrda G) 1992 yil 3 sentyabrda

«Xabeas korpus» instituta kachon va kaerda paydo bulgan?

A) XV asrda Buyuk Britaniyada V) XVI asrda Angliyada

B) XVII asrda AKSHda G) XIII asrda Fransiyada

Tergovchi kanday extiyot choralarini kullash uchun sud ruxsatini olishi talab etiladi?

kamok va uy kamogi kullashga G) munosib xulk-atvorda bulish uchun

B) garov va kamok kullashga tilxat kullash uchun majburiy keltirishga

Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish buyicha «Xalk bilan mulokot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturiga kura, 2017 yilning 3-choragida amalga oshiriladigan ishlar kaysi javobda tugri kursatilgan?

elektron tartibda sudga murojaat qilish

B) videokonferensaloka rejimida sud jarayoni utkazish

sudyalarning zftasida ishlarni avtomatik ravishda taksimlash

G) da'vo arizani elektron yuborish

Fukarolik ishlari buyicha sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kachondan joriy etildi?

A)2012yildan B)2013yildan V)2014yildan G)2015yildan

**ISHCHI FAN DASTURIGA MUVOFIQ BAHOLASH MEZONLARINI QO‘LLASH
BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR**

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov, prezentatsiyalar.
Baholash mezonlari	<p>86-100 ball «a’lo»</p> <p>-“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo‘yicha mustaqil mushohada yuritsa;</p> <p>-fanning mohiyati va mazmunini tushunib, tarixiy voqelikka ijodiy yondoshsa,</p> <p>-“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olsa;</p> <p>- o‘tilgan mavzular bo‘yicha tanqidiy-konstruktiv mulohaza yuritsa;</p> <p>- ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarsa va to‘plagan ma’lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo‘lsa.</p> <p>- o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish;</p> <p>- tahlil natijalari asosida vaziyatga to‘g‘ri va xolisona baho berish;</p> <p>71-85 ball «yaxshi»</p> <p>“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo‘yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarining mohiyatini tushunsa;</p> <p>-fanning muhim tushunchalari haqida tasavvurga ega bo‘lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;</p> <p>-ma’ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.55-70 ball «qoniqarli»</p> <p>-fanning asosiy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa;</p> <p>-ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo‘lsa;</p> <p>-mashg‘ulotlarda o‘z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa. 0-54 ball «qoniqarsiz»</p> <p>-fan haqida tasavvurga ega bo‘lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa;</p> <p>-JN va ON larni o‘z vaqtida bajarmagan bo‘lsa;</p> <p>-ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo‘lsa;</p>

	-darslarni sababsiz qoldirgan bo'lsa; -darsda faol bo'lmasdan va intizomsizlik qilsa.		
	Reyting baholash turlari	Maks.ball	O'tkazish vaqti
	Joriy nazorat:	36	
	Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi uchun	6	Semestr davomida
	Mustaqil ta'lim topshiriq-larining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	10	
	Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun	20	
	Oraliq nazorat	34	
	Birinchi oraliq nazorat yozma ish (ma'ruza mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi).	6	10 hafta
	Talabaning ma'ruza jarayonida faol ishtirok etib borishi	6	
	Talaba mustaqil ravishda konspektlarni qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib tayyorlab borishi	8	
	Talabaning mustaqil ishni o'z vaqtida mazmuniga e'tibor berib Prezident SH.Mirziyoev asarlari hamda qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda tayyorlashi	8	
	Ikkinchi oraliq nazorat yozma ish (ma'ruza mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi).	6	17-hafta
	YAkuniy nazorat	30	20 hafta
	JAMI	100	